Ионы кальция влияют на протекание целого ряда клеточных процессов [1], выполняя роль вторичных мессенджеров в передаче информации клетке из окружающей среды [2, 3]. Градиент ионов кальция между цитоплазмой и внешней средой достигает четырех порядков [4, 5] и поддерживается за счет связывания иона специфическими белками [6, 7], концентрирования во внутриклеточных органеллах (эндоплазматическом ретикулуме, вакуолях, митохондриях) в результате функционирования специфических мембранных систем транспорта кальция и Ca^{2+}-каналов плазмалеммы [8-11]. Детально изучены и охарактеризованы Ca^{2+}-транспортирующей системы внутренней митохондриальной мембраны [8, 12-14]. Митохондриальная система транспорта кальция за счет работы независимых путей входа и выхода катиона создает определенный уровень $[Ca^{2+}]_m$, необходимый для активация кальций чувствительных ферментов цикла Кребса и увеличения продукции НАД.Н и синтеза АТФ [8, 12, 15, 16].

В настоящей работе представлены некоторые результаты исследования влияния 6''-n – кумароилпрунинни на дыхание и окислительное фосфорилирование митохондрий в присутствии ЭГТА. Известно, что ЭГТА связывает ионов кальция.

Митохондрии из клеток печени крыс выделяли по методу [17]. Скорость дыхания митохондрий при различных метаболических состояниях регистрировали полярографически с помощью вращающегося платинового электрода. Реакцию начинали с добавления суспензии митохондрий в полярографическую ячейку. Состав среды инкубации: сахароза–0,25 М, KH_2PO_4– 5 мМ, трис-НС1–буфер–10 мМ (рН 7,4). В качестве субстратов окисления использовали 10 мМ сукцината (рН 7,4). Дыхание и окислительное фосфорилирование митохондрий анализи-ровали при последовательном добавлении 6''-n–кумароилпрунинниа (40, 60 и 80 мкг/мг белка), АДФ по 200 мкМ, 2,4 - динитрофенола (ДНФ) – 5.10^5 М. Коэффициент АДФ/О и величина дыхательного контроля рассчитывали по методу Chance и Williams (V_3:V_4 = $ДК_ч$) [18]. Скорость окисления субстратов при различных метаболических состояниях выражали в нанограмм атомах кислорода мин/мг белка митохондрий. Белок определяли по методу Lowry et al.[19].

Показатели	Скорость дыхание, наногрмм атом кислород/мин мг белка						
	6''-n - кумароилпрунин, мкг/мг белка						
	0	40	%	60	%	80	%
ЭГТА							
V_2	38,8±3,2	40,3±3,4	103,9	39,7±3,6	102,4	37,8±3,8	97,5
V_3	116,1±4,8	142,4±7,2***	122,7	138,5±6,8**	119,3	133,6±6,2*	115,1
V_4	30,3±3,0	24,9±3,2	82,3	25,1±3,0	82,9	24,6±3,1	81,1
$V_{ДНФ}$	187,6±6,8	183,6±7,2	97,9	187,4±8,2	99,9	183,8±8,0	98,0
НКч	3,87±0,12	5,71±0,14****	149,0	5,56±0,13****	143,8	5,49±0,14****	141,8
АДФ/О	1,73±0,07	2,29±0,07***	132,2	2,34±0,06****	135,5	2,48±0,05****	143,3
Контроль							
V_2	33,3±2,6	26,6±4,2	79,9	25,6±4,0*	76,9	25,0±3,2**	75,1
V_3	116,8±4,4	92,0±4,8**	78,8	82,0±4,4****	70,2	80,3±4,0****	68,7
V_4	26,0±2,8	19,0±4,0*	76,9	16,0±4,2**	61,5	15,6±3,8***	60,0
$V_{ДНФ}$	168,7±6,8	121,6±4,8***	72,1	99,7±4,6****	59,1	90,2±4,4****	53,4
НКч	4,49±0,13	4,82±0,13	107,4	5,12±0,12**	114,0	5,15±0,10**	114,7
АДФ/О	1,76±0,08	1,88±0,07	106,8	1,89±0,07	107,4	1,95±0,06*	110,8

Влияния 6''-n – кумароилпрунина на дыхание и окислительное фосфорилирование митохондрий как, в присутствии, так и в отсутствии ЭГТА приведены в табл. 1.

таблица 1.

Влияния 6''-n – кумароилпрунина на окисление сукцината митохондрии, в присутствии ЭГТА

Примечание: коэффициент достоверности обозначен*: * P<0,05; ** P< 0,02; *** P<0,01; **** P<0,001. ЭГТА - этиленгликоль-бис-(2-аминоэтиловый эфир)-N,N-тетрауксусная кислота.

В начале, мы изучали влияние ЭГТА на скорост окисления сукцината. При этом установлено, что ЭГТА повышает скорость окисления сукцината в метаболическом состоянии V_2 и V_4 на 16,5 и 16,4% соответственно от исходного уровня, и величины дыхательного контроля по Чансу - на 14,0%, без изменений дыхания в состоянии V_3 и коэффициент АДФ/О. По нашему мнению, в присутствии ЭГТА повышение дыхания митохондрий в состоянии 4 связано с ионами кальция. Известно, что в состоянии 4 наблюдается термодинамическое равновесие свободной энергии Гиббса (ΔG) АТФ-синтазной реакции, называемой также фосфатным потенциалом (АТФ/АДФ.$Ф_н$), с электрохимическим потенциалом протонов $^{Дм}H^+$ на митохондриальной мембране, который достигает максимальных значений (180-230 мВ). Поток электронов в дыхательной цепи должен быть приостановлен. То небольшое дыхание, которое все же имеет место в состоянии 4, объясняется тем, что митохондриальная мембрана неполностью непроницаема для протонов, имеется

некоторое «подтекание» протонов сквозь мембрану даже в отсутствии синтеза АТФ. Кроме того, в митохондриальной мембране имеются антипортные системы, обменивающие протоны на ионы металлов, в частности Ca^{2+} и Na^{+} [20]. В состоянии 4 дыхание автоматически отрегулировано таким образом, что выброс протонов дыхательной цепью точно сбалансирован с их «утечкой» через митохондриальную мембрану [21].

В присутствии ЭГТА, т.е. в отсутствие ионов кальция 6''-n – кумароилпруниннн повышает скорость окисления сукцината в метаболическом состоянии V_3, в состоянии отдыха (V_4), напротив снижается, в результате чего величина дыхательного контроля по Чансу и коэффициент АДФ/О заметно повышается. Скорость дыхания в состоянии 4 не изменяется. При этом следует отметить, что эти перечисленные изменение почти не зависит от вводимого дозы 6''-n – кумароилпруниннна. После добавления в ячейке полярографа 6''-n – кумароилпруниннна в дозе 40, 60 и 80 мкг/мг белка митохондрия скорость окисления сукцината в метаболическом состоянии V_3 повышается соответственно на 22,7; 19,3 и 15,1% от исходного уровня, в состоянии V_2, напротив уменьшается – на 23,7; 23,1 и 28,9%. При этом величина дыхательного контроля по Чансу повышается – на 49,0; 43,8 и 41,8%, коэффициент АДФ/О – 32,2; 35,5 и 43,3%.

По нашему мнению, 6''-n – кумароилпрунин повышает активность транслоказы. Транслоказная гипотеза постулирует, что обмен адениновых нуклеотидов ($АТФ^{4-}/АДФ^{3-}$) между митохондриальным матриксом и цитозолом, определяет валовую скорость дыхания. Авторы этой гипотезы считают, что транслоказа - узкое– звено в системе окислительного фосфорилирования, и режим работы этой системы зависит от активности транслоказы. Наиболее существенная черта транслоказы – ее электрогенность. Это означает, что в энергизованных митохондриях транспорт нуклеотидов осуществляется всегда в одном направлении: АДФ из цитозоля в митохондрии, АТФ – из митохондрий в цитозоль, причем K_M для экзогенной АТФ более чем в 100 раз выше, чем для экзогенной АДФ; отношение АТФ/АДФ цитозоля : АТФ/АДФ митохондрий находится в прямой линейной зависимости от размеров мембранного потенциала [22]. Если придерживаться точки зрения сторонников транслоказной гипотезы регуляция дыхания, то особый интерес приобретают естественные физиологические метаболиты, которые влияют на активность транслоказы и таким образом выступают в роли физиологических регуляторов биоэнергетики клетки.

Таким образом, 6''-n – кумароилпрунин повышает дыхания митохондрий в состоянии V_3, и снижает V_4, в результате чего параметров окислительного фосфорилирования – величина дыхательного контроля по Чансу и коэффициент АДФ/О заметно повышается. На наш взгляд, это связано с «обратным переносом электронов» [23, 24], т.е. 6''-n – кумароилпрунин повышает перенос протонов от сукцината на НАД зависимому пути. Поэтому коэффициент АДФ/О повышается.

В присутствии ионов кальция 6''-n – кумароилпрунин приводит к снижению скорости окисления сукцината и незначительному повышению величины дыхательного контроля по Чансу и коэффициент АДФ/О. Введение в суспензии

митохондрий 6''-n – кумароилпрунина в дозе 40, 60 и 80 мкг мг белка дыхания в метаболическом состоянии V_2 уменьшается соответственно на 20,1; 33,1 и 34,9% от исходного уровня, V_3 – на 21,2; 29,8 и 31,3%, а V_4 – 23,1; 38,5 и 40,0%. При этом величина дыхательного контроля по Чансу повышается – на 7,4; 14,0 и 14,7, коэффициент АДФ/О – на 6,8; 7,4 и 10,8%. Это означает, что в присутствии эндогенного ионов кальция 6''-n – кумароилпрунин является специфическим ингибитором сукцинатному пути окисления и окислительного фосфорлирирования.

В присутствии ЭГТА, скорость динитрофеностимулируемое окисления сукцината не изменяется. Без ЭГТА, т.е. в присутствии ионов кальция 6''-n – кумароилпрунин дозозависимо подавляет скорость окисления сукцината в состоянии $V_{дНФ}$. 6''-n – кумароилпрунин в дозе 40, 60 и 80 мкг/мг белка митохондрий динитрофенолстимулируемое окисление сукцината снижается соответственно на 27,9; 40,9 и 46,6% от исходного уровня. Таким образом, 6''-n – кумароилпрунинння в присутствие ионов кальция заметно ингибируют переноса электронов от сукцината по дыхательной цепи до молекулярного кислорода, а ЭГТА, снимает эффект 6''-n – кумароилпрунина.

Литература

1. Bootman V.D., Collins., Peppiatt C.M., Prothero L.S., MacKenzie L., de Smet P., Travers M., Tovey S.L., Seo J.S., Berridge M.J., Ciccolini F., Lipp P. Semin. Cell. Dey. Biol., 2001, V.12. P.3-10.
2. Berridge M.J. Nature, 1993, V.361, P.315-325.
3. Rizzuto R., Dastanutto C., Brini M., Murgica M., Pozzan T. J. Cell. Biol., 1994. V. 126. P. 1183-1194.
4. Leisey J.R, Grotiochann L.W., Scott D.A., Scaduto R.C. Am. J. Phsiol., 1993, V.265, H1203-H1208.
5. Stendahl O., Krause K.H., Krischer J., Jerstom P., Theler J.M., Clark R.A., Carpentier J.L., Lew D.P. Science, 1994, V.265, P.1439-1441.
6. Hawkins T.E., Merrifield C.J., Moss S.E. Cell Biochem. Biophys., 2000, V.33, P.275-296.
7. Gerke V., Moss S.E. Phys. Rev. 2002. V. 82. P. 331-371.
8. Bernardi P. Phys. Rev., 1999, V.79, P.1127-1155.
9. Forster C., Kane P.M. J. Biol. Chem., 2000, V.275, P.38245-38253.
10.Fortea M.I., Soler F., Fernandez-Belda F. J. Biol. Chem., 2001, V.276, P.37260-37272.
11.Smaili S.S., Etellato K.A., Burnett D. J. Biol. Chem., 2001, V.276, P.23329-23340.
12.Rizzuto R., Bernardi P., Pozzan T. J. Physiol., 2000, V.529, P.37-47.
13.Gunter T.E., Buntinas L., Sparagna G., Eliseev R., Gunter K., Cell Calcium, 2000, V.28, P.285-296.
14.Pozzan T., Rizzuto R. Eur. J. Biochem, 2000, V.267, P.5269-5273.
15.McCormack J.G., Denton R.M. News Physiol. Sci. 1994. V. 9. P. 71-76.
16.Hansford R.G., Zorov D. Mol. Cell. Biol., 1998. V. 184. P. 359-369.
17.Hogeboom O.N., Shneider W.C., Pallade O.H. J. Biol. Chem. 1948. V. 172. N2. P. 619-641.

18.Chance B., Williams G.R. Adv. Enzymol. 1956. V.17. P. 65-134.
19.Lowry O.H., Rosebrough N.J., Farr A.L., Randall R.L. J. Biol. Chem. 1951. V. 193. P. 265-275.
20.McCormack J.< Denton R.M. TIBS. 1986. v. 11, P. 234-269.
21.Wojtczak L., Boguzka K., Duszynski J., Zablocka B., Zolkewska A. Biochem. et biophys. Acta. 1990. v.1018. P. 177-181.
22.Klingenberg M. Membrane Biol. 1980. V. 56. P. 97-105.
23.Chance B., Hollunger G. Federat. Proc. 1957. V. 16. Pt 1. P. 163.
24.Wikstrom M., Krab K. Current topics in bioenergetics. 1980. V. 10. P. 52-100.

ҒЎЗАНИНГ *El-SALVADOR* ЁВВОЙИ ШАКЛИДА МОРФОБИОЛОГИК ВА ҚИММАТЛИ ХЎЖАЛИК БЕЛГИЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛУВЧИ НОМЗОД ГЕНЛАРНИ АНИҚЛАШ

Д.Ж. Комилов[1], Н.З. Бахрутдинова[2], Б.Б. Орипова[3], Ф.Н. Кушанов[3,4]
1. Наманган давлат университети
2. ХТВ тасарруфидаги профилли меҳнат таълимига ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаби
3. Ўзбекистон миллий университети
4. ЎзР ФА Геномика ва биоинформатика маркази

Аннотация: *Мақолада in silico усулларидан фойдаланиб ғўзанинг el-salvador ёввойи шаклида морфобиологик ҳамда қимматли хўжалик белгиларига жавобгар бўлган номзод генлар идентификациялаш ишлари амалга оширилди. Тадқиқот ишларида G.hirsutum тури purpurascens кенжа тури, худди шу шаклдан радиомутагенез ва чатиштириш усуллари ёрдамида олинган "Кўпайсин" нави ҳамда улар ўртасида генетик полиморфизм намоён этган микросателлит маркерлардан фойдаланилди.*

Калит сўзлар: *Ғўза, ўсимлик бўйи, hs, моноподиал шох, симподиал шох, гуллаш даври, полиморфизм, праймер, маркер, номзод ген, in silico таҳлили, аннотациялаш.*

ИДЕНТИФИКАЦИЯ КАНДИДАТНЫХ ГЕНОВ, КОНТРОЛИРУЮЩИХ МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И ХОЗЯЙСТВЕННО-ЦЕННЫЕ ПРИЗНАКИ У ДИКОРАСТУЩЕЙ ФОРМЫ ХЛОПЧАТНИКА *el-salvador*

Д.Ж. Комилов[1], Н.З. Бахрутдинова[2], Б.Б. Орипова[3], Ф.Н. Кушанов[3,4]
1. Наманганский Государственный Университет
2. Государственная общеобразовательная специализированная школа профильного трудового обучения при МНО
3. Национальный университет Узбекистана
4. Центр геномики и биоинфарматики АН РУз

Аннотация: *В статье представлены результаты in silico анализа по идентификацию кандидатных генов, ответственных за морфобиологические и хозяйственно-ценные признаки у дикорастущей формы хлопчатника el-salvador. В*

качестве объектов исследования были выбраны дикорастущая форма el-salvador подвида purpurascens вида G.hirsutum, сорт "Купайсин", полученного с данной формы методами радиомутагенеза и скрещивания, а также микросателлитные маркеры, показавщие генетический полиморфизм между ними.

Ключевые слова: *Хлопчатник, высота растения, hs, моноподиа, симподиа, времени цветения, полиморфизм, праймер, маркер, ген-кандидат, in silico анализ, аннотирование.*

IDENTIFICATION OF CANDIDATE GENES CONTROLLING MORPHOBIOLOGICAL AND ECONOMICALLY VALUABLE TRAITS OF THE WILD-TYPE COTTON *el-salvador*

D.J. Komilov[1], N.Z. Bakhrutdinova[2], B.B. Oripova[3], F.N. Kushanov[3,4]
1. Namangan State University
2. Specialized School of Profil Labor Training under MPU
3. National University of Uzbekistan
4. Center of genomics and bioinformatics AS Ruz

Annotation: *In this study has been described the results of in silico analysis on the identification of candidate genes responsible for morphobiological and economically valuable traits in the wild type cotton el-salvador. As the objects of study have been selected the wild-type cotton el-salvador spp. purpurascens of G.hirsutum, the variety "Kupaysin", obtained from this form by radio mutagenesis and crosses, and microsatellite markers showing genetic polymorphism between them.*

Key words: *Cotton, height of plant, hs, monopodia, simpodia, flowering time, polymorphism, primer, marker, gene-candidate, in silico analysis, annotation.*

Генларни аннотациялаш–бу *in silico* (тажрибани комьютер моделлаштириш маъносини англатувчи термин) усулларидан фойдаланиб генларни идентификация қилиш, генлар ва/ёки оқсиллар кетма-кетлиги таҳлили асосида уларнинг функцияларини башорат қилиш ёки аниқлаш жараёнидир.

2001 йилда ёпиқ уруғли ўсимликлар ичидан илк бор *Arabidopsis thaliana* модель ўсимлигининг геноми тўлиқ секвенирлангандан сўнг аста-секин бошқа ўсимликлар геном кетма-кетликлари ҳам тўлиқ ўрганила бошланди [1]. Бугунги кунга келиб 300 га яқин ёпиқ уруғли ўсимликлар геномлари тўлиқ секвенирланиб интернет маълумотлар базаларига жойлаштирилган [2]. Хусусан, ғўзада 4 та тур вакиллари – *G.arboreum* (A_2), *G.raimondii* (D_5), *G.hirsutum* (AD_1) ҳамда *G.barbadense* (AD_2) геномларининг тўлиқ ҳамда яна 4 та тур – *G.turneri* (D_{10}) *G.australe* (G_2) *G.gossypoidies*, ҳамда *G.mustelinum* (AD_4) геномларининг қисман секвенирланганлиги илмий мақолаларда келтирилади [3]. Айниқса *G.hirsutum* геномининг секвенирлангани, маркерланган участкалар асосида ҳамда биоинформатика усуллари ва генетик маълумотлар базаларидан фойдаланиб дунё пахтачилигининг 90% ни ташкил қилувчи ушбу турга мансуб навларнинг қимматли хўжалик белгиларига жавобгар генларни идентификация қилиш имкониятини яратди.

Мазкур тадқиқотдан асосий мақсад, ғўзанинг *G.hirsutum* тури *purpurascens* кенжа тури *el-salvador* ёввойи шакли ҳамда худди шу турдан радиомутагенез ва чатиштириш усуллари ёрдамида олинган "Кўпайсин" нави ўртасида полиморфизм намоён этган микросателлит маркерлар ёрдамида генларни аннотациялашга қаратилган.

Ўсимлик намуналари. Тадқиқот ишларида фотопериодизмга ўта таъсирчан *G.hirsutum* турининг *purpurascens* кенжа турига мансуб бўлган *el-salvador* ёввойи шакли, шу шаклдан радиомутагенез ва чатиштириш усуллари ёрдамида олинган "Кўпайсин" навидан [4] фойдаланилди.

Намуналардан геном ДНК ажратиш. Тадқиқ этилаётган намуналар геном ДНКлари СТАВ (цетилтриметиламмоний бромид) усули ёрдамида ажратилди [5].

Праймерлар, ПЗР, гель-электрофорез ва генотиплаш. Молекуляр тадқиқотлар учун ғўза микросателлит маркерлар коллекциясидан (https://www.cottongen.org/sites/default/files/cottongen_download_site/sequences/All_cleaned_SSR.fasta) жами 336 та микросателлит (SSR - simple sequence repeat) праймер жуфтликлари танлаб олинди.

Полиморф микросателлит маркерлар. *In silico* таҳлили учун *el-salvador* ёввойи шакли ҳамда "Кўпайсин" нави ўртасида генетик полиморфизм намоён этган 69 та микросателлит маркерлар ажратиб олинди.

***In silico* ПЗР.** *In silico* ПЗР ўтказиш учун UGENE 33.0 [6] биоинформатик дастурлар пакетидан ҳамда интернет маълумотлар базасидан юклаб олинган fasta форматидаги *G. hirsutum* тури геномидан фойдаланилди.

Генларни аннотациялаш. Генларни аниқлаш учун AUGUSTUS 3.1.0. веб-иловасидан ҳамда номзод генларни башорат қилиш учун BLAST маълумотлар базасидан фойдаланилди.

Гарчи, бугунги кунда ғўзанинг 8 та тури геномлари секвенирланишига қарамай, қимматли хўжалик белгилари билан генетик бириккан МБЛ ҳудудлари ўрганилмасдан қолмоқда. Холбуки, бугунги кунда қиёсий геномика соҳасида тобора оммалашиб бораётган "ген аннотацияси" усулларидан фойдаланиб, ушбу ҳудудларда жойлашган номзод генларни башорат қилишнинг имконияти мавжуд. Номзод генларни башорат қилиш натижасида тадқиқ қилинаётган белгиларнинг генетик ҳамда молекуляр асосларини очиб бериш мумкин. Шунингдек, маркер участкаларига туташган регионлардаги номзод генларни янада чуқурроқ ўрганиш мазкур генларда ген муҳандислиги усулларидан фойдаланиб генетик манипуляцияни амалга ошириш учун хизмат қилади. Бу эса ўз навбатида, келгусида қимматли хўжалик белгилари янада яхшиланган янги ғўза навларининг яратилишини осонлаштиради.

Аввал эълон қилинганимиздек [7] *el-salvador* ёввойи шакли ҳамда "Кўпайсин" нави 336 та микросателлит маркерлар билан генотипланганда, 69 жуфт праймер иштирокидаги амплификация натижалари улар ўртасида генетик тафовут мавжудлигини намоён этган эди. Мазкур тадқиқот ишларида айнан ўша

полиморфик маркерлар праймер жуфтларидан фойдаланилди. Энг аввало UGENE 33.0 биоинформатик дастурлар пакети ёрдамида *in silico* ПЗР амалга оширилди (1-расм).

Маркерлар / Хромосомалар	BNL-358_f BNL-358_r	BNL-530_f BNL-530_r	BNL-542_f BNL-542_r	BNL-598_f BNL-598_r	BNL-686_f BNL-686_r	BNL-830_f BNL-830_r	BNL-946_f BNL-946_r	BNL-1064_f BNL-1064_r
At_chr4	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr1	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr4	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr8	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr8	0	0	0	1	0	0	0	0
Dt_chr3	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr3	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr9	0	0	1	0	0	0	0	0
At_chr10	0	0	0	0	0	0	0	1
At_chr6	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr6	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr13	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr11	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr12	1	1	0	0	0	0	0	0
Dt_chr10	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr9	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr5	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr7	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr11	0	0	0	0	0	0	1	0
At_chr2	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr13	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr2	0	0	0	0	0	1	0	0
At_chr5	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr7	0	0	0	0	0	0	0	0
At_chr12	0	0	0	0	0	0	0	0
Dt_chr1	0	0	0	0	0	0	0	0
scaffold26.1	0	0	0	0	0	0	0	0

1-расм. *In silico* ПЗР таҳлили натижаларидан намуна. 0–амплификация кузатилмаган, 1 – бир дона ампликон синтезланган.

Таҳлил натижаларига биноан *in silico* ПЗР учун фойдаланилган жами 69 та маркердан 59 таси иштирокида умумий миқдорда 75 дона виртуал ампликон маҳсулоти ишлаб чиқилган. Шундан, 63 таси ғўзанинг тартиблаштирилган 26 хромосомасига тўғри келган бўлса, қолган 13 та виртуал ПЗР маҳсулоти хромосомаларнинг тартиблаштирилмаган бўлакларида (яъни scaffold деб аталувчи қисмларида) амплификацияланганлиги аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал.

Амплификацияланган маркерлар бўйича маълумот.

№	Амплификацияланган маркер номи	Ампликон миқдори	Амплификацияланган хромосомалар ёки scaffold рақамлари
1	BNL-358	1	Dt_chr12
2	BNL-530	1	Dt_chr12
3	BNL-542	1	At_chr9
4	BNL-598	2	Dt_chr8, scaffold1554.1

5	BNL-686	1	scaffold559.1
6	BNL-830	1	Dt_chr2
7	BNL-946	1	Dt_chr11
8	BNL-1064	1	At_chr10
9	BNL-1317	3	At_chr6, Dt_chr6, scaffold4972.1
10	BNL-1395	1	Dt_chr1
11	BNL-1404	1	At_chr7
12	BNL-1421	1	At_chr13
13	BNL-1495	1	At_chr13
14	BNL-1521	1	scaffold293.1
15	BNL-1604	1	Dt_chr1
16	BNL-1672	1	Dt_chr6
17	BNL-1694	2	Dt_chr1
18	BNL-2448	1	At_chr9
19	BNL-2496A	2	At_chr5, Dt_chr1, scaffold290.1
20	GH-32	1	scaffold445.1
21	GH-39	1	scaffold445.1
22	GH-56	1	Dt_chr1
23	GH-83	1	At_chr9
24	GH-110	1	scaffold1251.1
25	GH-112	1	At_chr6
26	GH-171	1	Dt_chr4
27	GH-211	1	At_chr9
28	GH-215	1	At_chr13
29	GH-224	1	Dt_chr10
30	GH-247	3	At_chr6, Dt_chr6, scaffold4972.1
31	TMB-0016	1	Dt_chr4
32	TMB-0064	1	At_chr1
33	TMB-0131	3	At_chr9, At_chr9, Dt_chr9
34	TMB-0154	1	scaffold445.1
35	TMB-0161	1	Dt_chr11
36	TMB-0184	1	At_chr6
37	TMB-0382	1	Dt_chr5
38	TMB-0419	2	Dt_chr7, At_chr7
39	TMB-0426	1	At_chr1
40	TMB-0429	1	Dt_chr10
41	TMB-0436	2	At_chr11, Dt_chr10
42	TMB-0482	1	scaffold2678.1
43	TMB-0508	2	At_chr10, Dt_chr10
44	TMB-0561	1	Dt_chr1
45	TMB-0594	1	Dt_chr5

46	TMB-0809	1	At_chr12
47	TMB-0812	2	Dt_chr9, Dt_chr11
48	TMB-0853	1	scaffold445.1
49	TMB-1271	1	Dt_chr1
50	TMB-1277	1	At_chr10
51	TMB-1288	1	At_chr11
52	TMB-1295	2	Dt_chr9, Dt_chr9
53	JESPR65	1	At_chr9
54	JESPR135	1	At_chr7
55	JESPR204	3	At_chr10, At_chr6, Dt_chr9
56	JESPR229	1	Dt_chr10
57	JESPR230	1	Dt_chr12
58	JESPR236	1	Dt_chr9
59	JESPR296	1	At_chr1

In silico ПЗР натижалари таҳлил қилинганда, 4 та маркерда 3 тадан ампликон, 8 та маркер ёрдамида 2 тадан ҳамда 47 та маркер иштирокида биттадан амликон синтезланганлиги аниқланди.

Синтезланган маркерларнинг scaffold ҳамда хромосомалардаги улуши қуйидагича бўлди:

Энг кўп амликонлар ғўзанинг тўққизинчи (At_chr9) ҳамда ўн бешинчи (Dt_chr1) хромосомаларида (7 тадан) кузатилди. 23-хромосомада (Dt_chr9) 6 та ҳамда олтинчи (At_chr6) ва йигирманчи (Dt_chr10) хромосомларда 5 тадан ПЗР маҳсулоти синтезланганлиги аниқланди. Бундан ташқари, ўнинчи (At_chr10) хромосомада ҳамда scaffold445.1 да 4 тадан маркер участкаси амплификацияланганлиги маълум бўлди. Энг кам виртуал ПЗР маҳсулоти ғўзанинг бешинчи (At_chr5), ўн иккинчи (At_chr12), ўн тўртинчи (Dt_chr2), ўн олтинчи (Dt_chr7) ҳамда йигирма тўртинчи (Dt_chr8) хромосомаларига тўғри келиб, бу хромосомаларда атиги биттадан амликон кузатилди.

Таъкидлаш жоизки, танлаб олинган маркерлар иштирокидаги ушбу таҳлилларда ғўзанинг иккинчи (At_chr2), учинчи (At_chr3), тўртинчи (At_chr4), саккизинчи (At_chr8), ўн тўртинчи (Dt_chr3) ҳамда ўн саккизинчи (Dt_chr13) хромосомларидан виртуал ПЗР маҳсулотлари синтезланмаганлиги маълум бўлди. Ҳозирги пайтда AUGUSTUS 3.1.0. веб-иловаси ҳамда BLAST маълумотлар базасидан фойдаланиб номзод генларни башорат қилиш устида тадқиқотлар олиб борилмоқда.

El-Salvador шаклига индуцирланган муьтагенез таъсир эттириш натижасида олинган “Кўпайсин” навининг [4] бир қатор морфобиологик ҳамда қимматли хўжалик белгилари, жумладан ўсимлик бўйи, биринчи ҳосил шохининг жойлашуви (hs), моноподиал ҳамда симподиал шохланиши, гуллаш даври, фтопериодизмга таъсирчанлиги ва эртапишарлик каби белги ва хусусиятлари дастлабки ёввойи шаклга нисбатан кескин ўзгарган [7]. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мазкур

in silico ПЗР усулидан фойдаланиб амплификацияланган геном участкаларида айнан юқорида келтирилган морфобиологик ҳамда қимматли хўжалик белгиларига жавобгар генлар жойлашган бўлиши мумкин. Келгусида идентификацияланган геном кетма-кетликлари номзод генларни башорат қилиш учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Huala E., Dickerman A. W., Garcia-hernandez M., Weems D., Reiser L., Lafond F., et al. (2001). The Arabidopsis Information Resource (TAIR): a comprehensive database and web-based information retrieval, analysis, and visualization system for a model plant. Nucleic Acids Res. 29, 102–105. 10.1093/nar/29.1.102

2. Chen F, Dong W, Zhang J, Guo X, Chen J, Wang Z, Lin Z, Tang H, Zhang L. The Sequenced Angiosperm Genomes and Genome Databases. *Front Plant Sci*. 2018 Apr 13;9:418. doi: 10.3389/fpls.2018.00418. PMID: 29706973; PMCID: PMC5909171.

3. Yu J., Jung S., Cheng C.-H., Ficklin S.P., Lee T., Zheng P., Jones D., Percy R.G., Main D. CottonGen: a genomics, genetics and breeding database for cotton research. Nucleic Acids Res. 2014; Vol. 42:D1229–D1236.

4. Джаникулов Ф. Связь между радиочувствительностью и мутабильностью диких и культурно-тропических форм хлопчатника // Доклады Российской академии сельскохозяйственных наук. – Москва, 2002. – №2. – С. 19-22.

5. Paterson A.H., Brubaker C.L., Wendel J.F. A rapid method for extraction of cotton (Gossypium spp.) genomic DNA suitable for RFLP or PCR analysis // Plant Molecular Biology Reporter. 1993. – №11. – P. 122-127.

6. Okonechnikov K., Golosova O., Fursov M., the UGENE team. // Unipro UGENE: a unified bioinformatics toolkit. Vol. 28 no. 8 2012, pp. 1166–1167 doi:10.1093/bioinformatics/bts091

7. Комилов Д.Ж., Кушанов Ф.Н. // Ғўзанинг *el-salvador* ёввойи шакли морфобиологик ва хўжалик белгиларини молекуляр маркерлар ёрдамида ўрганиш. // Наманган давлат университети хабарномаси, 4-сон. Наманган 2019й.

TEXNIKA ФАНЛАРИ
ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ
05.00.00 TECHNICAL SCIENCES

ROBOTNI HARAKATINI AMALGA OSHIRUVCHI ARDUINO PLATFORMASI

Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. G.N.Yunusova
4-kurs “Amaliy matematika va informatika” yo’nalishi talabasi Shaxlo Abdullayeva Ibroximjon qizi

Annotatsiya: *Bu maqolada robototexnikaning asosi bo’lgan va robotlarni harakatga keltirishga zamin yaratgan Arduino dasturiy platforma yoki platasi haqida bayon etiladi. Uni o’rnatish va dastur yaratish saboqlari beriladi.*

Kalit so’zlar: *platforma , plata , port , drayver , svetodiod.*

ARDUINO PLATPHORM PROCESSING THE MOVEMENT OF THE ROBOT

Scientific teacher: p.f.n., dots. G.N.Yunusova
4th grade “Applied maths and information technology” field student: Shakhlo Abdullayeva

Annotation: *This article shows us means about programming platforma or plata Arduino, which is base of robotics and moving of robots. It will be given that practise of downloading,exactly installing and making programm.*

Key words: *platphorm , plata , port , driver , svetodiod*

ПЛАТФОРМА АРДУИНО ДЛЯ ДВИЖЕНИЯ РОБОТА

Г.Н.Юнусова,преподаватель
Студентка: Шахло Абдуллаева

Аннотация: *Эта статья рассказывает об программной платформе или плате, являющейся основой робототехники и роботов. Даны материалы по её установке и создания программ.*

Ключевые слова: *платформа,плата,порт,драйвер,светодиод.*

Hozirgi zamonda fan va texnikaning rivojlanishi uning zaminida inson mehnatini osonlashtirishni va ayrim jarayonlarni o’zi bajarishni ta’minlab berishni hamda o’z tarkibida dasturni ishlashini qamrab oluvchi texnikalarning paydo bo’lishi, Smart texnologiyalarining rivojlanishiga olib kelmoqda. Dasturlashtirish rivojlanishi ular bilan bir qatorda temir mavjudotlarni yaratilishiga ham o’z ta’sirini o’tkazdi. Bu esa odamlarni ishini bir qismini yoki biror to’liq jarayonni masofaviy tizim orqali boshqarishni va mobil telefon orqali masofada ta’minlash masalalarini hal etilishiga, robotlarning yanada mukammalroq ko’rinishlarini yaratilishiga olib keladi. Inson o’z aqlini tanigandan boshlab

to donishmand bo'lgunga qadar doimo orzu qilib yashagan va o'zining murakkab ishlarini avtomatlar bajarishini yoki turli mexanizmlarni bajarishi haqida fikr qilgan. Bu jarayonda asta-asta yillar va asrlar davomida qandaydir ixtirolar qilgan. Odamzod avtomat uskunalar, temir odamlar hamda boshqa ixtirolar qatorida inson chehrasiga ega bo'lgan, uning ishini osonlashuruvchi avtomatlarni yaratishni boshladi. Bu soha rivojlanib maxsus platforma orqali masofada Arduino platasida yozilgan dastur asosida harakatga keladigan robotlarni yaratilishiga zamin bo'ldi.

Robototexnika elektronika va elektrodinamikaning davomi bo'lib, u avtomatlarni dastur asosida harakatlanishini ta'minlaydi. Bu jarayonni masofada boshqarish mumkin. Shunday ekan dastur yaratish uchun mavjud bo'lgan platalardan biri haqida va unda birinchi dasturni yozish tog'risida, bu platani o'rnatish bo'yicha kerakli ma'lumotlarni sizlarga beramiz. [1-5,6]

Arduino–bu Atmel amerika firmasining Atmega oilasidagi mikrokontrollerlar bazasidagi platforma. Konstruksiyaning soddaligiga qarab, unda kod yozish mumkin hamda unda uch ovoz stimulyatori va musiqa uskunalarigacha mavjud.

Arduinoni endi o'rganayotganlar uchun ham bu maqolani bag'ishlamoqchimiz. Keyinchalik biz bu sferaga platani boshqarish orqali qiyinroq aspektlarni o'rganib, o'zimizning qiziqarli va kerakli saytlarimizni proyektlab, kuchliroq sho'ng'iymiz.

Faraz qilaylik, siz birinchi marta Aurdino platasini ushlab turibsiz, nimadan boshlaysiz? Boshlangich etapda keling plataning tashqi qurilmasi bilan tanishaylik.

Qurilmani eng mashhur platalardan bo'lmish – Arduino Uno misolida ko'rib chiqamiz. U narxning optimal bahosi, o'lchami va ishlab chiqilishi tufayli shunday hisoblanadi.

Platada ikkita yirik platalarni ko'rish mumkin, ulardan bittasi plataga tashqi pitaniyani berish uchun qo'llaniladi (akkumulyatorlar yoki krona orqali, platani (pitaniye qilish) oziqlantirish 9 voltdan 12 voltgacha, aks holda u kuyib ketishi mumkin . Ikkinchisi kompyuterga USB-ulanishni maxsus kabel yordamida amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Kabelni Arduino olingan joydan olinadi.

Platada Atmega protsessorining o'zi ko'rinadi, Arduino oilasining platasida ular o'zining quvvati bilan farq qiladi. Platangizda 16 MGTS chastotalin ATmega328 o'rnatilgan. Yana plata chetlarida kontakt chiqishlarni, turli qurilmalarni ulash uchun, datchik va modullarni ko'rish mumkin.Yana platada kontakt chiqishlarni ko'rish mumkin, Sizning platangizda 30ga yaqin. Ulardan analog va raqamli chiqishlar ko'rish mumkin, ular plataga ulangan pitaniyani berish bilan taqdim etiladi, raqamli va analogli chiqishlar qiymatlari haqida batafsil keyingi maqolalarimizda so'zlashamiz.


Endi platani olib, uni USB-kabel orqali kompyuterga ulaymiz. Bizda original plata bo'lsa, kompyuter bilan platani o'rnaganligini aniqlash uchun kerakli drayverni o'rnatib bo'lgansiz. Agarda Xitoydan buyurtma qilingan bo'lsa, unda drayverni topish va o'rnatish kerak bo'ladi. Uch340g deyiladi, uni bu yerdan olish mumkin.

Plata bilan qulay ish uchun - Arduino IDE ishlab chiqish muhitini o'rnatish mumkin. Bu dasturni rasmiy saytdan olish mumkin:

https://www.arduino.cc/en/Main/Software


Siz oxirgisini olishingiz mumkin (yani eng yangi versiyasini), misol uchun, Arduino IDE 1.6.5 – bu eng stabil ishlovchi versiyalardan biri, ularda kamdan kam baglar va ko'zda tutilmagan xatoliklar uchraydi

Endi siz hamma narsani o'rnatib olganingizdan, kompyuterga platani ulaganingizdan, drayverlarni muvaffaqiyatli yuklaganingizdan so'ng, platani ishga moyilligini tekshirib chiqish zarur.Uning uchun uskunalar dispetcheriga kirib, keyin quyidagi bo'limga kiramiz – PORTLAR(COM VA LPT)- Порты (COM и LPT), undan esa sizning platangiz qaysi portga ulanganligini ko'ramiz. Sonni eslab qolamiz. Endi Arduino IDE platasiga kiramiz va yuqori paneldan uskunalar bo'limini topamiz. U yerda "Port" bo'limini topamiz va uskunalar dispetcheridagini belgilanganini ko'rsatamiz.




Bu bo'limning o'zidan "устройство" bo'limini topamiz va unda platamizni ko'rsatamiz: Uno, Mega yoki, Arduino Nano, bu qaysi modelga ulaganimizga bog'liq.

Endi birinchi sketchni platamizga yuklaymiz Arduino, buning uchun Blink standart dasturini tanlaymiz– platada ichma- ich joylashgan svetodiodning uchib yonishi. Uni yuklash uchun, Fayl bo'limiga kiramiz-Namunalar Basic-Blink.



Kod ochilsa, dasturingizda «загрузить» tugmasini bosing va kompilyatsiyani omadli o'tab bo'lgandan so'ng (kodni tekshirishga yo'naltirilgan jarayon va hatolarni qidiruvi) svetodiod platada (qizil yoki sariq rangda) sekundiga bir marta o'chib yona boshlaydi.



Shunday qilib, Arduino platasini yoqishni o'rgandingiz va birinchi kodingizni unga yukladingiz, sizni katta kelajak kutmoqda!!!

Keyingi maqolalarimizda biz batafsil platada chiqishlarni ta'minotini batafsil o'rganamiz. Ularning tasnifini va unda dasturlashning birinchi bazaviy dasturlashning asoslarini o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Ushbu sosiy Arduino platasida ishlashning eng asosiy bilimlarini o'rganish uchun uni yuklash va o'rnatish hamda unda birinchi kodni

yozishni tavsiya etamiz. Bunda sizga asosiy buyruqlarni o'rganish tavsiya etiladi [7-8, 9-13, 14].

Arduinoni o'rganish va unda kod yozishni o'rganish bu yangi ilmga qadam qo'yish hamda amaliy matematikani ishlab chiqarishga, qurilishga, aviasozlikka, meditsinaga qo'llashga birinchi qadamingiz bo'ladi.

Adabiyotlar:

[1] Леонид Черняк, Чарльз Бэббидж–изобретатель и... политэконом, Еженедельник "Computerworld", #17, М., "Открытые Системы", 2001.

[2] Винер Норберт, Кибернетика или управление и связь в животном и машине. / Поваров Г.Н.(пер с англ.и предисл.).-2-е изд.-М.:Сов.радио, 1968. -326 стр. - Перевод издания:Cybernetics or control andcommunication in the animal and the machine. / Wiener Norbert.

[3] Норберт Винер, Моя связь с кибернетикой, ее начала и ее будущее / Norbert Wiener, «My Connection with Cybernetics, Its Origins and Its Future», Cybernetica (Namur), 1958, vol. No 1, pp. 1-14.

[4] Винер Н., Творец и робот, М., Прогресс, 1966, 104 стр.

[5] Бертран Рассел, Человеческое сознание: его сфера и границы, Киев, Ника-центр, 2001 -555 стр. – Перевод издания: Bertran Russel, «Human Knowledge, Its Scope And Limits», George Allen and UNWIN Ltd.,London, 1948.

[6] Успенский В. А., Теорема Геделя о неполноте, Theoretical Computer Science #130, 1994, стр. 273-238.

[7] National Transportation Safety Board - Annual Review of Aircraft Accident Data U.S., Air Carrier Operations, Calendar Year 2000, 70 p. with appendixes.

[8] Марвин Минский, Вычисление: конечные и бесконечные автоматы, Прентис-Холл, 1967 / Marvin L. Minsky, Computation: Finite and Infinite Machines, Prentice-Hall, 1967.

[9] Рэй Курцвейль, Эпоха одухотворенных машин, Пингвин Букс, 1999 / Ray Kurzweil, Age of Spiritual Machines, Penguin Books, 1999, 377 p.

[10] Дормашев Ю.Б. и др., Современные методики исследования внимания – спецпрактикум по общей психологии, Лаборатория психологии познавательных процессов кафедры общей психологии факультета психологии МГУ им. М.В. Ломоносова, Москва, 2000.

[11] Билл Джой, Почему будущему мы не нужны, "Wired", Выпуск 8.04 - апрель 2000 (перевод К. Гордеева) / Bill Joy, Why the future doesn't need us, Wired: Issue 8.04 | Apr 2000.

[12] Александр Болонкин, XXI век – начало бессмертия людей, М., Наука и Техника, июнь 2000.

[13] Мацкевич В.В., Занимательная анатомия роботов, М., "Радио и связь", 1988.

[14] Эйдзи Накано, Введение в робототехнику. [Монография. Перевод с японского А.И.Логинова, А.М.Филатова, под редакцией к.т.н А.М.Филатова. (М.; Мир, 1988).

АХБОРОТ ҲАВФСИЗЛИГИГА БЎЛАДИГАН ТАҲДИДЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали Ахборот ҳавфсизлиги кафедраси ассистенти Ш.Н. Ғаниева,
Компьютер инжиниринги (Компьютер тизимларини лойиҳалаш) мутахассислиги магистри У.А. Азимжонов,
Телекоммуникация инжиниринги йўналиши талабаси И.А. Қосимов

Аннотация: *Ҳозирги кунда ахборот ҳимоясига қаратилган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш замонавий муаммолардан бири ҳисобланади. Ушбу мақолада ахборот ҳавфсизлигига бўладиган таҳдидлар ва уларнинг таҳлили тўғрисида маълумот берилган.*

Калит сўзлар: *тармоқ технологиялари, ахборот ҳавфсизлигига таҳдид, таҳдидлар манбаи, сабабли масофадан бўладиган ҳужумлар.*

УГРОЗЫ НА ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ИХ АНАЛИЗ

Ассистент кафедры информационной безопасности Ферганского филиала Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммеда аль-Хорезми Ш.Н. Ганиева,
Магистр по специальности Компьютерный инжиниринг (Проектирование компьютерных систем) У.А. Азимжонов,
Студент направления телекоммуникационной инжиниринг И.А. Касимов

Аннотация: *Одной из актуальных задач является разработка мер информационной безопасности. В данной статье описываются угрозы информационной безопасности и их анализ.*

Ключевые слова: *сетевые технологии, угрозы информационной безопасности, источники угроз и удаленные атаки.*

THREATS ON INFORMATION SECURITY AND THEIR ANALYSIS

Assistant of the Department of Information Security of the Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi Sh.N. Ganieva,
Master in Computer Engineering (Computer Systems Design) U.A. Azimjonov,
Student of telecommunication engineering I.A. Kasimov

Annotation: *One of the urgent tasks is the development of information security measures. This article describes information security threats and their analysis.*

Keywords: *network technologies, information security threats, sources of threats and remote attacks.*

Тармоқ технологиялари ривожининг бошланғич босқичида вируслар ва компьютер ҳужумларининг бошқа турлари таъсиридаги зарар кам эди, чунки у даврда дунё иқтисодининг ахборот технологияларига боғлиқлиги катта эмас эди.

Ҳозирда ҳужумлар сонининг доимо ўсиши хамда бизнеснинг ахборотдан фойдаланиш ва алмашишнинг электрон воситаларига боғлиқлиги шароитида машина вақтининг йўқолишига олиб келувчи, ҳатто озгина ҳужумдан келган зарар жуда катта рақамлар орқали ҳисобланади.

Ахборот ҳавфсизлигига таҳдид деганда ахборотнинг бузилиши ёки йўқотилиши ҳавфига олиб келувчи ҳимояланувчи объектга қарши қилинган ҳаракатлар тушунилади.

Замонавий корпоратив тармоқлар ва тизимлар дучор бўладиган кенг тарқалган таҳдидларни таҳлил қиламиз. Ҳисобга олиш лозимки, ҳавфсизликка таҳдид манбалари корпоратив ахборот тизимининг ичида (ички манба) ва унинг ташқарисида (ташқи манба) бўлиши мумкин. Бундай ажратиш тўғри, чунки битта таҳдид учун (масалан, ўғирлаш) ташқи ва ички манбаларга қарши харакат усуллари турлича бўлади. Бўлиши мумкин бўлган таҳдидларни ҳамда корпоратив ахборот тизимининг заиф жойларини билиш ҳавфсизликни таъминловчи энг самарали воситаларни танлаш учун зарур ҳисобланади.


Ҳимоя сиёсатини тузишдан аввал ташкилотда компьютер муҳити дучор бўладиган ҳавф-хатар бахоланиши ва зарур чоралар кўрилиши зарур. Равшанки, ҳимояга таҳдидни назоратлаш ва зарур чораларни кўриш учун ташкилотнинг сарф-харажати ташкилотда активлар ва ресурсларни ҳимоялаш бўйича ҳеч қандай чоралар кўрилмаганида кутиладиган йўқотишлардан ошиб кетмаслиги шарт.

Умуман олганда ташкилотнинг компьютер муҳити икки ҳил ҳавф - ҳатарга дучор бўлади:

1.Маълумотларни йўқотилиши ёки ўзгартирилиши;

2.Сервиснинг тўхтатилиши.

Таҳдидларнинг манбаларини аниқлаш осон эмас. Улар нияти бузуқ, одамларнинг бостириб киришидан то компьютер вирусларигача турланиши мумкин. Бунда инсон ҳатоликлари ҳавфсизликка жиддий таҳдид ҳисобланади. Қуйидаги расмда корпоратив ахборот тизимида ҳавфсизликнинг бузилиш манбалари бўйича статистик маълумотларни тасвирловчи айланма диаграмма келтирилган.



1-расм. Корпоратив ахборот тизимида ҳавфсизликнинг бузилиш манбалари

Мақсадли ҳаракатларга боғлиқ бўлмаган, кандайдир вақтларда содир бўладиган ҳавфлар тасодифий таҳдидлар деб аталади. Мақсадли ҳаракатларга боғлиқ бўлган, инсон факторига боғлиқ ҳолда содир бўладиган ҳавфлар мақсадли таҳдидлар деб аталади.

Барча ҳужумлар Internet ишлаши принципларининг қандайдир чегараланган сонига асосланганлиги сабабли масофадан бўладиган намунавий ҳужумларни ажратиш ва уларга қарши қандайдир комплекс чораларни тавсия этиш мумкин. Бу чоралар, ҳақиқатан, тармоқ ҳавфсизлигини таъминлайди.

Internet протоколларининг мукаммал эмаслиги сабабали тармоқдаги ахборотга масофадан бўладиган асосий намунавий хужумлар қуйидагилар:

- тармоқ трафигини таҳлиллаш;
- тармоқнинг ёлғон объектини киритиш;
- ёлғон маршрутни киритиш;
- ҳизмат қилишдан воз кечишга ундайдиган ҳужумлар.

Сервердан Internet тармоғи базавий протоколлари FTP (File Transfer Protocol) ва TELNET (Виртуал терминал протоколи) бўйича фойдаланиш учун фойдаланувчи идентификация ва аутентификация муолажаларини ўтиши лозим. Фойдаланувчини идентификациялашда ахборот сифатида унинг идентификатори (исми) ишлатилса, аутентификациялаш учун парол ишлатилади. FTP ва TELNET протоколларининг ҳусусияти шундаки, фойдалувчиларнинг пароли ва идентификатори тармоқ орқали очиқ, шифрланмаган кўринишда узатилади. Демак, Internet хостларидан фойдаланиш учун фойдаланувчининг исми ва паролини билиш кифоя.

Ҳар қандай тақсимланган тармоқда қидириш ва адреслаш каби "нозик жойлари" мавжуд. Ушбу жараёнлар кечишида тармоқнинг ёлғон объектини (одатда бу ёлғон хост) киритиш имконияти туғилади. Ёлғон обьектнинг киритилиши

натижасида адресатга узатмоқчи бўлган барча ахборот аслида нияти бузуқ одамга тегади.

Таҳминан буни тизимингизга, одатда электрон почтани жўнатишда фойдаланадиган провайдерингиз сервери адреси ёрдамида киришга кимдир уддасидан чиққани каби тасаввур этиш мумкин. Бу ҳолда нияти бузуқ одам унчалик қийналмасдан электрон хат-хабарингизни эгаллаши мумкин, сиз эса ҳатто ундан шубҳаланмасдан ўзингиз барча электрон почтангизни жўнатган бўлар эдингиз.

ARP (Address Resolution Protocol) билан бўлган ҳолга ўхшаб DNS-сўровни ушлаб қолиш йўли билан Internet тармоғига ёлғон DNS-серверни киритиш мумкин.

Бу қуйидаги алгоритм бўйича амалга оширилади:

1. DNS-сўровни кутиш.

2. Олинган сўровдан керакли маълумотни чиқариб олиш ва тармоқ бўйича сўров юборган хостга ёлғон DNS-жавобни ҳақиқий DNS сервер номидан узатиш. Бу жавобда ёлғон DNS-сервернинг IP адреси кўрсатилган бўлади.

3. Хостдан пакет олинганида пакетнинг IP-сарлавхасидаги IP-адресни ёлғон DNS сервернинг IP-адресига ўзгартириш ва пакетни серверга узатиш (яъни ёлғон DNS-сервер ўзининг номидан сервер билан иш олиб боради).

4. Сервердан пакетни олишда пакетнинг IP-сарлавҳасидаги IP адресни ёлғон DNS-сервернинг IP-адресига ўзгартириш ва пакетни хостга узатиш (ёлғон DNS серверни хост ҳақиқий ҳисоблайди).



2-расм. DNS-сўровни ушлаб қолиш йўли билан Internet тармоғига ёлғон DNS-серверни киритиш.

Хизмат қилишдан воз кечишга ундайдиган тақсимланган хужумлар—DdoS (Distributed Denial of Service) компьютер жиноятчилигининг нисбатан янги хили

бўлсада, қўрқинчли тезлик билан тарқалмоқда. Бу хужумларнинг ўзи анчагина ёқимсиз бўлгани етмаганидек, у ҳар бир вақтнинг ўзида масофадан бошқарилувчи юзлаб ҳужум қилувчи серверлар томонидан бошланиши мумкин.

Хакерлар томонидан ташкил этилган узелларда DDoS ҳужумлар учун учта инструментал воситани топиш мумкин: trinoo, Tribe FloodNet (TFN) ва TFN2K. Яқинда TFN ва trinoonинг энг ёқимсиз сифатларини уйғунлаштирган stacheldraht ("тикон симлар") пайдо бўлди.

Хизмат қилишдан воз кечишга ундайдиган оддий тармоқ ҳужумида хакер танлаган тизимига пакетларни жўнатувчи инструментидан фойдаланади. Бу пакетлар нишон тизимининг тўлиб тошиши ва бузилишига сабаб бўлиши керак. Кўпинча бундай пакетларни жўнатувчилар адреси бузиб кўрсатилади. Шу сабабли ҳужумнинг ҳақиқий манбасини аниқлаш жуда қийин.

DDoS ҳужумларини ташкил этиш битта хакернинг қўлидан келади, аммо бундай ҳужумнинг эффекти агентлар деб аталувчи ҳужум қилувчи серверларнинг ишлатилиши ҳисобига анчагина кучаяди. TFNда серверлар (server), а trinoода демонлар (daemon) деб аталувчи бу агентлар хакер томонидан масофадан бошқарилади.

Ҳулоса қилиб шуни таъкидлаш мумкинки, ахборотларни химоялаш усул ва воситаларидан даврий равишда фойдаланиш, уларни такомиллаштириб бориш, янги усул ва технологияларни ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга тадбиқ этиш киберавфсизлик тизимининг замонавий муаммолардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Т.Л. Партыка, И.И. Попов. Информационная безопасность. 4-е издание. Москва «Форум», 2011 г.
2. “Ахборот технологияси. Ахборотларни криптографик мухофазаси. Маълумотларни шифрлаш алгоритми" Узбекистон Давлат стандарти. O'zDSt 1105:2009.
3. Хилл Б. «Полный справочник по Cisco» Пер. с англ. М.: Изд. дом Вильяме. 2008г.

ТАРИХ ФАНЛАРИ
07.00.00 ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ
HISTORICAL SCIENCES

ДАВЛАТ–ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ АНЪАНАЛАР ТАШУВЧИСИ СИФАТИДА

Алишер Тўлқинбаевич Жўраев
Наманган давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада давлатнинг асосий вазифалари доирасидаги таҳлил ва тадқиқотлар ёритилган. Унда давлатнинг ушбу давлат халқларининг маданиятлари, қадриятлари, анъаналарини асосий ҳимоячиси ва авлодлари аро етиб бориши, сақланиб қолишининг асосий кафолати эканлиги масалалари атрофлича, ишончли манбалар асосида ҳамда чуқур таҳлилий ёндашилган ҳолда ёритиб берилган*

Калит сўз ва сўз бирикмалари: *сиёсий ҳокимият, хавфсизлик, фаровонлик, Ж.Ж.Руссо, глобаллашув, либераллашув, ижтимоий муносабатларнинг "бозорлашуви", Ю.Буряков, М.Хайдеггер, маданиятлар, қадриятлар, миллат, давлат, "Авесто".*

ГОСУДАРСТВО КАК ОРГАНИЗАТОР ИСТОРИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ТРАДИЦИЙ

Алишер Тўлқинбаевич Жўраев
Преподаватель Наманганского государственного университета

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу и исследованиям основных задач государства. Он содержит исчерпывающие, надежные источники и глубокий аналитический подход к вопросам, которые государство является главным гарантом сохранения культур, ценностей, традиций этих народов.*

Ключевые слова *и фразы: политическая власть, безопасность, процветание, J.J. Руссо, глобализация, либерализация, «маркетинг» общественных отношений, Ю. Буряков, М. Хайдеггер, культуры, ценности, нация, государство, «Авесто».*

STATE–AS A TRANSPORTATION OF HISTORICAL-CULTURAL TRADITIONS

Alisher Tulqinboyevich Juraev
Teacher at Namangan State University

Annotation: *This article concerns the analyses and researches about the main objectives of the state. It contains comprehensive, reliable sources and in-depth analytical approach to the issues that the state is the main guarantor of the preservation of the cultures, values, traditions of these peoples.*

Keywords and phrases: *political power, security, prosperity, J.J. Rousseau, globalization, liberalization, "marketing" of social relations, Y.Buryakov, M.Haidegger, cultures, values, nation, state, "Avesto".*

Ҳозирги кунгача давлат икки хил ёндашув асосида ўрганилиб келинади: бир томондан–унга сиёсий ҳокимият институти, иккинчи томондан эса, тегишли маъмурий-ҳудудий кенгликда истиқомат қилувчи жамият аъзоларининг хавфсизлиги, фаровонлиги ҳамда тадрижийлигини таъминлашга жавобгар сиёсий ташкилот сифатида қаралиб келинган. Оқибатда давлат асосан юридик, давлатшунослик ҳамда кейинчалик сиёсий тадқиқотлар предмети деб ҳисобланган. Зикр этилаётган илм тармоқлари вакилларининг бу соҳадаги сермаҳсул фаолиятини қадрлаган ҳолда, кейинги глобаллашув, либераллашув, ижтимоий муносабатларнинг "бозорлашуви" шароитида давлат муаммосига хусусан фалсафий ёндашув ниҳоятда зарурлиги яққол кўзга ташлангандек кўринди. Зеро, давлат муаммоси устувор даражада фалсафий контекстда ўзининг кундалик кузатувлар ортида яшириниб, аммо бугунги кунда анчайин долзарблашган ижтимоий маънавий-ахлоқий жиҳатларининг трансцендент тенденцияларини намойиш қилиш имкониятига эга. Бу жиҳатларни, маълумки, экспериментдан кўриш, сарҳисоб қилиш, жой-жойига қўйишнинг иложи йўқ. Ўз кучи ва салоҳиятига кўра ҳам дастур, ҳам ғоя ва ҳам фаолият шакли сифатида давлат маънавий параметр-ларсиз шунчаки одди бир унсурга айланиб қолиши ҳеч гап эмас.

Давлат пайдо бўлибдики, турли-туман анархистик тазйиқларга қарамасдан, фақат инсон учун хизмат қилиб келди ва шу зайл омма олдида у ўзини оқлади. Зеро, унинг "пешонасига" шундай бўлиши "ёзилган" эди. Аммо инсон табиати мураккаб ва бирор бир андозага сиғмайди. Унинг хатти-ҳаракати қандай бўлади, олдиндан билиш мушкул. Шу нуқтаи назардан айтиш мумкинки, давлат қандай фаолият олиб боради, биринчи навбатда бу унинг ўзига эмас, балки инсон табиати билан боғлиқлиги аллақачон аён. Афсус уни, яъни давлатнинг хулқ-атвори салбий томонга ўзгарганлигининг сабабини инсон ўзида деб билмаган. Ҳали-ҳануз аксарият шундай деб ҳам ўйлайди. Шу муносабат билан Ж.Ж.Руссонинг давлатчилик тарихида энг мураккаб даврларда айтган бир фикрини келтириш ўринли, деб ўйлаймиз. "Агарки турли-туман тўнтаришларга тўла давлатнинг тадрижийлик ҳолатини синчковлик билан кузатганимизда, қонун ва ҳуқуқий меъёрларнинг ишлаб чиқилиши, сўнгра уларга риоя қилишни назорат қилиб, тушунтириб турувчи муассаларнинг жорий этилиши ва ниҳоят ачинарлиси айнан шу ҳуқуқ меъёрлари доирасида иш юритиб турган ҳокимиятнинг пировардида ўзбошимчаликка асосланган кучга айланганлигини кўрамиз"[3], – деган хулосага келади мутафаккир. Оддий қилиб айтадиган бўлсак, бу кўп маротаба исботланган, ҳуқуқий меъёрлар, чекловлар, назорат органларининг таъсис этилиши ва охир оқибатда маърифий ҳокимиятнинг зўрлик ишлатишга мажбур бўлишига инсоннинг ўзи, унинг нафси, хоҳишини жиловлай олмаслиги сабабчи бўлган экан. Натижада давлатнинг куч-қудрати жамият аъзолариники бўладиган бўлса, унда ана шу куч инсонлардан айримларига ёки жиноий гуруҳга қарши ишлатилганлиги билан боғлиқ парадокс келиб чиқади. Бу ҳамма мамлакатларга хос тенденция экан ва унинг пасайиш даражаси одамларнинг ўзига боғлиқ. Яссавий бобомиз ўз пайтида "Феълинг озди, халойиқдан шафқат кетди..."[4], деб инсонга хос қусур охири нималарга олиб келишини бежиз айтмаган эканлар.

Келтирилган фикр-мулоҳазалардан кўриниб турибдики, давлат функциялари кўлами унинг фақат бир ёки бир неча қарорлари билан белгиланмаслиги,балки улар қаторида одамларнинг кундалик ташвишларидан (тартибга солиш, муросага келтириш) юқорироқ, оддий кўздан анча йироқ, шу сабаб кўпчиликка маълум бўлмаган буюк яратувчилик функцияси ҳам бор экан ва уни ҳамма ҳам ҳис этавермаслиги табиий. Улардан бири, бизнингча, давлатга хос буюк руҳий куч – конкрет бир кенгликда давлатчиликнинг аҳамиятини даставвал англаб етган аждодлар шуурида, фаолиятида илдиз отиб, сўнгра сон-саноқсиз аждоду авлодлар салоҳияти жамланиб бугунгача етиб келган маънавий-руҳий мулкнинг замондошларга эзгулик сари интилишида беназир қудратга айланишида давлатнинг ўрни ва роли беқиёсдир. Бу маънавий ресурс, куч-қудрат аждоддан авлодга мабодо давлат бўлмаганда етиб келиши уёқда турсин, балки инсон хотирасидан мутлақ ўчиб кетган бўлар эди. Давлат ҳамда давлатчилик маҳорати, ҳар бир миллатга (социумга) хос маданий-руҳий кечмишни асраб-авайлаш бўлмаганда, бугун давлатнинг ўрнини шунчаики мажолсиз тўда ёки маконсиз оломон эгаллаган бўлар эди. Тарихий хотиранинг улкан қудратини ҳис этар ва қадрлар эканмиз, бу ерда уни асраб келаётган энг асосий омил–давлат эканлигини бир сония ҳам унутмаслик лозим бўлади.

Давлат бугунги авлод, замондошлар учун зарур руҳий озуқа тарихий-маданий ресурсни асраб, даҳшатли синовлар, оловлардан омон сақлаб келди. Шу маънода давлат миллат, халқ, керак бўлса она замин учун зарур маънавий қувватнинг ҳам соқчиси ва ҳам ташувчиси вазифасини бажармоқда. Шунга таяниб, ўзбек давлати ва давлатчилиги хусусида ҳам айрим мулоҳазалар баён қилса бўлади. Атоқли археолог–тарихчи олимимиз Ю.Буряков ушбу масалага ойдинлик киритиб, қуйидаги фикрни берган. “Зардуштийларнинг қадимий мадҳиялари мажмуаси “Авесто”да Чан (Тошкентнинг архаик номи) Қанғҳа тоғининг ортида истиқомат қилувчи афсонавий ҳукмдор Афросиёб бошқариб турган қудратли “тур”лар салтанати Турон тасарруфида бўлганлиги зикр этилган ва ўша қадим кезларда “шаҳар”, “маданият” иборалари муомалага киритилган”[5], – деган фикрни келтиради олим. Бундан чиқадиган хулоса шуки, қадимги аждодларимиз (улар қайси атамага мансублигидан қатъи назар) мамлакат, давлатнинг моҳиятини чуқур тушунишган, унинг инсон умргузаронлигида тутган ўрнига муносиб баҳо беришган. Масалан, “Авесто”нинг дастлабки қисмларидан бири “Бундахишн”да[6] Орол денгизи (Авесто бўйича – Фрахвкард) минтақамизнинг жанубида ястаниб ётган осмонўпар тоғлар тизмаси (Авесто бўйича–Хунванд) ва у ерда жойлашган мамлакат (Авесто бўйича – Ганавад) Каспий денгизидан[7] жанубда жойлашган вилоят (Авесто бўйича – Мазондарон), аҳоли истиқомат қиладиган заминимиздаги етти мамлакат (Авесто бўйича–Кешвар) тилга олиниб, у ерда элатлар бир бутун ва аҳилликда умр кечириши ҳақида ноёб маълумотлар келтирилган.

Демак, заминимизда бир неча минг йиллар аввал давлатчилик шаклланганлиги, одамлар кундалик юмушларига доир ҳамжиҳатликда ечимга келишганлари, ўзаро инсоний муносабатлар шаклланганлигига ишонч ҳосил қилиш мумкин. Қадимги Ўзбекистонда (географик нуқтаи назардан) яшаган, бироқ

“ўзбеклар” деган атамага кейинчалик эга бўлган аждодларимиз[7] орасидан етишиб заковатли инсонлардан мерос қолган битикларда, тош ёзувларда бу кенгликда одамлар фозил ҳукмдорлар туфайли бехавотир яшаганлиги ҳақида ишонарли хабарлар мавжуд. Бу ердаги салтанатлар, мурувватли ҳукмдорлар, аксинча тинч ҳаётимизга хавф келтирган душманларга қарши мардонавор кураш, аждодларимизнинг ўз она юртини бошқалар қўлига топширмаслиги йўлида жон олиб-жон берганлиги, ўша даврга хос яшаш, ижтимоий муносабатлар хусусида хабарлар, жумладан халқ оғзаки ижодиёти фольклор ва достонларда оғиздан оғизга ўтиб тарихий хотира тарзида бугунгача етиб келди ва маънавий мулкка айланди. Эътиборга лойиқ томони шундаки, улардан бугунги авлод аждодлар яратган давлатчилик шакли, унинг нисбатан примитив бўлса-да, структураси, сиёсий иерархияси, ижтимоий нуфузига оид кўплаб маълумотларни билиб олиши мумкин.

Тўғри, у битиклардаги маълумотлар бугунги кун нуқтаи назаридан ғайритабиий кўринишга эга бўлиши мумкин. Қандайдир зўравонлик асосида шакллантирилган бошқарув услуби, халқдан бегоналашган институт шаклида достонларда кўриниш берган бўлиши ҳам мумкин. Аммо нимаики қилинган, қандай йўл тутилган бўлганда ҳам, қадимги салтанатлар, ҳукмдорлар фаолияти билан бошқарув шакли умидбахшлик, ҳамжиҳатлик принципи асосида шакллантирилганлиги маълум. Мисол учун, “Қутадғу билиг” достонида “Элиг зўравонлик қилувчиларга юз-хотир қилмаслигимизнинг рамзидир. Хоҳ ўғлим бўлсин, хоҳ йироқ. Адолат борасида ҳар иккиси мен учун бирдек”[8], деган фикрга дуч келамиз. Бундан чиқадиган хулоса шуки, салтанат гарчи кимларгадир куч ишлатган бўлса-да, умумий ошён, қароргоҳ сифатида авлодлар, қолаверсаинсоният олдида ўз бурчини бажарган.

Давлатнинг ижтимоий-тарихий ўрни хусусида сўз юритар эканмиз, давримизнинг машҳур файласуфларидан бири М.Хайдеггернинг фикр йўналишига эътибор берсак, баъзи бир жиҳатлар янада ойдинлашади. “Бизнинг бирлигимиз қандайдир бизларнинг ўзимизни маҳкам тутиб тургандек. Биз муттасил шу бирбутунлик сари у ёки бу даражада ё кетаётган бўламиз ёки аниқроғи шу йўлга тушгандаймиз”[9], – деган хулосага келади олим. Хайдеггер наздидаги борлиқ бу оламдаги барча мозий, бугун ва келажак ва уларнинг бариси ўзаро уйғунликда борлиқни шакллантиради. Бу ҳам бор гап.

Бизни қизиқтирган жиҳат – давлатда борлиқнинг сон-саноқсиз эманацияси, кўриниш бериши тарзида борлиққа хос барча хоссалар, хусусан ижтимоий жараёнларни унинг қамраб олиш хусусияти мавжудлигидир. Демак, ижтимоий ёки умуман борлиқнинг намоён бўлиш услуби ва шакли сифатида давлатнинг бутун тарихи мобайнида ўзи билан боғлиқ муҳим жиҳатларни қамраб олиши, уни ўз фаолиятида намойиш этиши ўзига хос қонуният. Аммо табиий шароити, ижтимоий муносабатлар тартиботи ва шу асосда оламни тасаввур қилишда ҳамма социумларда бир бирига ўхшашлик бўлиши мушкул. Унга биноан, уларнинг маънавий-маданий асосларида, бой тарихий тажрибаси ва уни келажак авлодларга етказиш услубида ҳам кўплаб ноёбликлар, хусусийликлар мавжуд. Аммо айни пайтда давлатнинг тарихий-маданий анъаналар, андозалар ташувчиси эканлиги бу

ҳақиқат. Ўзбекистонга татбиқ қилиб кўрадиган бўлсак, кундалик ҳаёти, орзу-ниятлари рўёби, барқарор ва фаровонлигимизни давлатнинг фаолияти билан чамбарчас боғлиқ ҳолда тасаввур қилиш ўзбекларга хос устуворлик, десак хато қилмаган бўламиз. "Бизнинг миллий далватчилигимиз неча минг йиллик қадим тарих ва бой маданиятга эга"[1], – деганда Президент Ш.Мирзиёев нафақат унинг жаҳон тарихида тутган ўрни билан ўзимизга хос ноёб маданий салоҳиятимизни, унинг ички тузилмаларидаги ўзига хосликни назарда тутган бўлиши ҳақиқатга яқин.

Аждодларимиз онгида давлат ва давлатчилик алоҳида нуфуз касб қилганлиги тарихдан маълум. У бизгача етиб келган нодир қўлёзмалар ва битикларда ўз аксини топиб маданий меросимизга айланган ва шу тарзда аждодлар онгу тафаккури, фаолияту менталитетини шакллантирган. Халқимизга хос маънавий-руҳий ресурсга баҳо берар экан, Биринчи Президент: "Ҳозир Ўзбекистон деб аталувчи бу ҳудуд, яъни бизнинг ватанимиз Шарқ, балки, умумжаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлганлигини бутун жаҳон тан олмоқда... Диний ва дунёвий билимларнинг асослари мана шу заминда яратилган, сайқал топган. Эрамизгача ва ундан кейин қурилган мураккаб сув иншоотлари, шу кунгача кўрку файзини, маҳобатини йўқотмаган осори атиқаларимиз қадим-қадимдан юртимизда деҳқончилик, ҳунармандчилик маданияти, меъморчилик ва шаҳарсозлик санъати юксак бўлганидан далолат беради. Бешафқат давр синовларидан омон қолган энг қадимги тошёзувлар, битиклардан тортиб бугун кутубхоналаримизда сақланаётган 20 мингдан ортиқ қўлёзма, уларда мужассамлашган тарих, адабиёт, санъат, ахлоқ, фалсафа, тиббиёт, математика, физика, кимё, астрономия, меъморчилик, деҳқончиликка оид ўн минлаб асарлар бизнинг беқиёс маънавий бойлигимиз, ифтихоримиздир. Бунчалик катта меросга эга бўлган халқ дунёда кам топилади"[2], – деган эди. Ушбу фикрни баён этар экан, И. А. Каримов, бир томондан – уларнинг бизгача етиб келишида бош кафолат бир неча минг йиллик тарихга эга ўзбек давлатининг ўтмишни ардоқлаш, бугунги авлодга туҳфа этиш маданияти эса унинг бош фазилатларидан бири бўлганлигини ва бошқа томондан эса, замонавий Ўзбек давлати ҳам ушбу анъанани қаттиқ туриб давом эттириши зарурлигини алоҳида таъкидлаган кўринади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. Ташқи ишлар вазирлиги ва мамлакатимизнинг хорижий давлатлардаги элчилари фаолиятига бағишланган йиғилишдаги нутқ // Халқ сўзи. 2018, 14 январь.
2. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Мулоқот. – 1998. – №5. – Б. 1.
3. Руссо Ж.-Ж. О причинах неравенства // Онтология мировой философии. В 4-х тома.. – М.: "Наука", 1971.–С. 366-367.
4. Яссавий Хожа Аҳмад. Девони ҳикмат.–Тошкент: "Мовароуннаҳр", 2004.–Б. 41.
5. Буряков Ю.Ф. По древним караванным путям Ташкентского оазиса.–Ташкент, 1997. – С. 8.
6. Майданов А.С. Миф как средство сакрализации жизненного мира человека // Вопросы философии. – 2018. – №9. – С. 207-214.
7. Камолиддин Ш.С. Ўзининг "Географическая карта Средней Азии Василио

Ватадзи”.–Т., 2005.–С. 4. XIII асрдан эътиборан “Ўзбек мамлакати” мавжудлигини айтади.
8. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1991. – Б. 55.
9. Хайдеггер М. Основные понятия метафизики // Вопросы философии. – 1989. – №9. – С. 116.

09.00.00 ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

MAFKURANI TAHLIL ETISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
NamDU dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada mafkura va mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilishning asosiy tamoyillari, mafkura taraqqiyotining qonuniyatlari, mafkurani shakllantiruvchi omillar haqida fikr boradi.*

Kalit so'zlar: *mafkura, g'oya, muhit, milliy g'oya, soxtalik, ilmiylik. tarixiylik.*

ОСОБЕНОСТИ АНАЛИЗА ИДЕОЛОГИИ

Маматов Обидхон Ваккосович
доцент Наманганского государственного университета

Аннотация: *В статье рассматривается прицини анлиза и формирования идеологии и идеологических процессов. А также расскривается основные черти идеолгии. Основное внимание уделено на закономерности развитие идеологии.*

Ключевие слова: *идеология, идея, среда, националъная идея, ложность, научность, историчность.*

SPECIFIC FEATURES OF ANALYSIS OF IDEOLOGY

Mamatov Obidkhon
Docent of Namangan State University

Annotation: *The article discusses the principles of analysis and the formation of ideology and ideological processes. And also reveals the main features of ideology. The main attention is paid to the laws of the development of ideology.*

Key words: *ideology, idea, setting, national ideology, falsity, scientific, historical*.

Hozirgi davr mafkuraviy jaryonlarning inson ongi va qalbi uchun shiddat bilan kurashi ketayotganligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston ham bu jarayonlardan holi emas. «...oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur.

Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim.» [1].

Shuning uchun ham mafkuraga yondoshuvda quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz.

1.O‘zbekiston turli xil mafkuralar to‘qnashgan hudud. Shuning uchun bu mafkuralarga nisbatan juda ehtiyotkorlik talab etiladi. Zero, mafkuradagi ijobiy xususiyatlar bilan bir qatorda, salbiy xususiyatlar ham mavjud. Ayniqsa, mafkuradagi sohtalik, kishilar ongini aldash, ayrim yaramas guruhlarning faoliyatini oqlash kabi xususiyatlarga diqqat-e'tiborni qaratmoq lozim. Avvalambor, bu mafkura qanday maqsadlarni ko‘zlagan, kimlarning manfaatlari himoya qilinmoqda, bu mafkuralar O‘zbekistondagi ijtimoiy munosabatlarga aholining tinch hayotiga qanday ta'sir o‘tkazishi chuqur tahlil qilinmog‘i lozim. Aholi o‘rtasida soxta g‘oyalarning haqiqiy mohiyatini ochib tashlaydigan faoliyatni tashkil etish O‘zbekistonning hozir mavjud bo‘lgan tinch hayotini, totuvligini saqlab qolishda, bunyodkorlik faoliyatidan og‘ishmay ilgarilab borishda muhim ahamiyatga ega.

2. Soxtalik, yolg‘onlik har qanday mafkuraga xos bo‘lavermaydi. Shu xususiyatlar bilan birgalikda mafkura ilmiy nazariy-xususiyatga ham ega. Lekin ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan mafkuralarning hammasini ham jamiyat uchun foydali deb bo‘lmaydi. Mafkura qachonki jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilsa, jamiyatning barcha toifalarining, butun millatning manfaatini ko‘zlasa, jamiyatning tengligini ta'minlay olsa yashovchan mafkura bo‘la oladi. «Bizning jamiyatimiz etnik guruhlar va millatlar o‘rtasidagi shu hududda yashaydigan har qanday odamga o‘zini erkin va teng huquqli, deb his qilish imkonini beradigan o‘zaro munosabatlar o‘rnatilishiga intilmoqda» [2]

Albatta bunday mafkuralar soxtalikdan, noilmiylikdan holi bo‘ladi. Bunday mafkuralarda ilmiylik va haqiqat tushunchalari birga bo‘ladi. Odamlarning hissiyotini qo‘zg‘atadigan soxta shiorlardan ilmiy haqiqatni ifodalaydigan fikrlarni farqlash lozim. Shuningdek, mafkuralarni hamma davr uchun bir xilda qabul qilish ham yaramaydi. Mafkuraga ham tarixiy nuqtai nazardan yondoshish kerak. Bugungi kun uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mafkura ertangi kun uchun mos kelmasligi mumkin. Buning sababi shundaki, har bir mafkura davr talabidan kelib chiqib, shu davrning vazifalarini intilishlarini belgilab beradi. Davr o‘tishi bilan bunday mafkura o‘z vazifasini bajarib bo‘ladi, yoki yolg‘on soxta mafkura bo‘lsa inqirozga yuz tutadi va o‘rnini boshqa mafkura egallaydi.

Shuning uchun ham har qanday mafkura abadiylikka dosh qila olmaydi, har qanday haqiqat kabi nisbiylik xarakteriga ega bo‘ladi.

3. Mafkura voqyelikdan yuzaga kelib, zaruriyat hisoblanadi. Ya'ni ijtimoiy muhit, jamiyatdagi munosabatlar u yoki bu mafkurani tarix sahnasiga olib chiqadi. Jamiyat bir tarixiy taraqqiyot bosqichidan boshqasiga qadam qo‘yayotganda mafkuraviy kurash keskinlashadi. Ijtimoiy ziddiyatlar qanchalik darajada keskinlashsa, jamiyatda turli xil mafkuralarning to‘qnashuvi ham keskinlashadi. Shuningdek, inqirozga yuz tutayotgan mafkura ham yashab qolishga intiladi. Bu mafkura boshqacharoq shaklda namoyon bo‘lsada, o‘z mohiyatini o‘zgartirmaydi. Mafkuraning mohiyatini uning tashqi ko‘rinishidan, ya'ni jozibador shiorlar, yolg‘on va'dalar, balandparvoz fikrlardan emas, balki uning maqsadi, vazifalaridan izlamoq kerak. Mafkuraning mohiyati kimlarning manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilganligini bilish orqali ham ochib beriladi.

Jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi sekin-astalik bilan hal etilib yangicha munosabatlar o‘z iziga tushib borgan sari bir-biri bilan to‘qnash kelgan

mafkuralar ichidan hayotiysi jamiyatni ilgari boshlay oladigan mafkura aholi ongiga singib boradi.

4.Mafkuraviy munosabatlarni ijtimoiy munosabatlar vujudga keltiradi, o‘z navbatida, mafkura ijtimoiy munosabatlarning yo‘nalishini belgilab beradi. Ya'ni jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Shu ma'noda, jamiyatning yuzini bilmoqchi bo‘lsangiz, albatta uning mafkurasini tahlil qilib ko‘ring. Chunki mafkura jamiyat taraqqiyotining eng muhim dasturi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatning sog‘lomligi ana shu jamiyatda hukmron bo‘lgan mafkuralarning sog‘lomligiga bog‘liq.

5.Jamiyat tarixiga jamiyatda yashab o‘tgan mafkuralar tarixiga e'tibor bersak, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar, davlatlar o‘rtasidagi kurashga doimo mafkuraviy kurash yo‘ldosh bo‘lib kelgan. Lekin shuni ham ta'kidlab o‘tish muhimki jamiyatdagi osoyishtalik, tinch-totuvlik, xalqlar o‘rtasidagi farovonlik ham mafkura bilan hamisha yo‘ldoshdir.

6.Tarix shunday saboq beradiki, haqiqat bukiladi, lekin sinmaganidek, soxta yolg‘on mafkuralar ma'lum bir muddat yashasa-da, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari, vazifalarini ado etmay haloqatga yuz tutadi. Bunday mafkuralar xalqning ruhiyatiga mos kelmaydi. Faqatgina uning jozibadaor maftun etuvchi tashqi qiyofasi, ya'ni shakli aholining ma'lum bir guruhini oz muddatga ortidan ergashtirib borishi mumkin, xolos.

Mafkura yashovchan bo‘lishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga erishishi uchun ilmiy jihatdan asoslangan, butun xalqning, jamiyatning manfaatlarini ifodalagan, uning taraqqiyotini ta'minlaydigan bo‘lishi kerak.

7. Hech qaysi bir mafkura to‘liq shakllangan, tugallangan degan nomga da'vogarlik qila olmaydi. Mafkuraning nazariy asoslari ishlab chiqiladi, xolos. Ana shu nazariy asosdan kelib chiqqan holda aholi ongiga san'at ahloq, din, siyosat, huquq orqali singdirib boriladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, mafkuraning nazariy asosi mafkura va uni targ‘ib qiluvchilar uchun muhim. Xalqqa uni soddaroq shaklda, masalan, badiiy adabiyot, san'at, axloq orqali singdirish yengilroq kechadi va xalq ongiga chuqurroq singadi.

8.Bugun O‘zbekistonda mafkuraviy munosabatlarga juda katta e'tibor berilayotgani muhim ahamiyatga ega. Bundan keyin ham bu e'tibor susaymasligi kerak. Aholining ayrim toifalarining xissiyotlarini, masalan, diniy xis-tuyg‘ularini salbiy tomonga yo‘naltirib, ularni har xil buzg‘unchi siyosiy oqimlarga ergashib ketishining oldini olish zarur.

9.Davlat va jamiyat mafkurasi tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. O‘zbekistonda biror mafkuraning, hattoki milliy mafkuraning ham davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

10. O‘zbekiston aholisining juda katta qismi musulmon bo‘lganligi uchun diniy fundamentalizm, ekstremizm va shunga o‘xshash diniy oqimlarga e'tiborni kuchaytirish, diniy tashkilotlar oldiga e'tiqodni siyosat bilan aralashtirib yubormaslik, dinga e'tiqod qiluvchilarni to‘g‘ri yo‘lga solish vazifasi yuklatilishi muhim ahamiyatga ega.

11.Hozir “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g’oyani rivojlantirish konsepsiyasi” xalq muxokamasiga qo’yildi [3]. Bu nazariy asos xalqimiz oldida ulug’vor vazifalarni qo’ymoqa. Shuningdek, uni xalqqa yetkazish uchun jamiyatning ilg‘or fikrli kishilari shoirlar, yozuvchilar, siyosatshunoslar, faylasuflar maxkam bel bog‘lab ishga

kirishdilar. Umuman olganda tarix, falsafa, siyosat, adabiyot va boshqalar bu g'oyaani xalqqa to'g'ri yetkaza bilmoqlari lozim.

12.Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash milliy g'oyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunda yoshlarda o'tmish tariximizga buyuk bobokalonlarimizga hurmat xissini uyg'otish, ular bilan faxrlanish, ularning jahon tarixida tutgan o'rinlarini yoshlar ongiga singdirish Vatanimizning kelajagini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, milliy urf-odatlarimiz, an'analarimizga vorislik asosida yondoshish jamiyatimiz jipsligini ta'minlashda muhim vositadir.

13. SH. Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy g'oya konsepsiyasi loyihasining ishlab chiqilishi mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yganligidan dalolat beradi. Forobiyning quyidagi fikri buni yorqin ifodalaydi: «…rahbar kelajak uchun rasm-rusum, yo'l-yo'riqlarni isloh qilishni lozim va foydali topsa, turmush taqozosiga qarab ularni o'zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi» [4].

Mukammal shakllangan, o'tmishimizga, urf-odatlarimizga, an'analarimiz, ruhiyatimizga hamda umuminsoniy xususiyatlarga ega bo'lgan milliy g'oyasiz jamiyatimizning olg'a qarab, buyuk kelajak sari intilishini tasavvur qilish qiyin.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagilarni anglashimiz mumkin:

1-dan, so'z va ish birligi, ya'ni mavjud g'oya xayotga mos bo'lishi kerak;

2-dan, g'oya xayotning ustuvor yo'nalishini ifodalashi kerak, ya'ni u jamiyatning taraqqiyotini va ravnaqini belgilab berishi kerak;

3-dan, u ma'naviy ideallar bilan bog'liq bo'lishi kerak, ya'ni insonlarning va jamiyatning orzu istaklari va xayotiy maqsadlarini ifodalashi kerak;

4-dan, mustahkam xayotiy asosga ega bo'lishi kerak. G'oyalar xayotdan olinmas ekan, turmush tarzi va an'analarga asoslanmas ekan bunday g'oya hych qanday samara bera olmaydi;

5-dan, g'oyalar albatta xayot falsafasini ifodalashi kerak. Ko'rinib turibdiki, g'oyalar albatta falsafiy jihatdan tahlil qilingan bo'lishi lozim.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Мирзиёев Ш. М.. 2019 йилда Мамлакатимизни ривожлантиришнинг энг муҳим устувор вазифалари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Парламентга Мурожаатномаси || nttps\\kun. uz. >news>2018 \12 28>

2 Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bыsag'asida: xavfsizlikka tащdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: 1997.-B. 83.

3 Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида миллий ғояни ривожлантириш концепцияи (лойиҳа**).//https** \\ regulation.gov.uz>document

4 Форобий. Фозил одамлар шахри. Т.: 1993. –Б. 189-190..

КЕЧИРИМЛИЛИК: ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ТАҲЛИЛ

Исақова Замирахон Руҳитдиновна
фалсафа фанлари номзоди, доцент
Наманган давлат университети

Аннотация: *Мақолада гўзал хулқлардан бири кечиримлиликнинг моҳияти Қуръон ва ҳадис асосида таҳлил қилиниб, кечиримлилик фазилати, кечиримлиликнинг инсон қалби учун фойдали жиҳатлари ёритилган. Кечиримлиликнинг инсон саломатлиги учун аҳамияти кўрсатилиб, кечиримли бўлишга олиб борадиган йўллар очиб берилган.*

Калит сўзлар: *гўзал хулқ, фазилат, кечиримлилик, Қуръон, ҳадис, раҳм-шафқат, олийжаноблик, саховатпешалик, саломатлик, хотиржамлик.*

КЕЧИРИМЛИЛИК: ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ТАҲЛИЛ

Исакова Замирахон Рухитдиновна
кандидат философских наук, доцент
Наманганский государственный университет

Аннотация: *В статье рассмотрена одно из самых прекрасных поведений прощения, проанализирована сущность прощения в сфере Корана и хадисов и показана важность прощения для здоровья человека и раскрыты пути прощения.*

Ключевые слова: *Прекрасное поведение, добродетель, прощение, Коран, хадис, милосердие, благородность, щедрость, здоровье, душевное спокойствие.*

КЕЧИРИМЛИЛИК:ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ТАҲЛИЛ

Isakova Zamirakhon Rukhitdinovna
candidate of Philosophy, Associate Professor
Namangan State University

Annotation: *The article discusses one of the most beautiful behaviors of forgiveness, analyzes the essence of forgiveness in the realm of the Qur'an and Hadith, and shows the importance of forgiveness for human health and reveals the ways of forgiveness.*

Keywords*: excellent behavior, virtue, forgiveness, Quran, hadith, mercy, nobleness, generosity, health, peace.*

XXI асрда умргузаронлик қилаётган инсон тафаккури қанчалик юксалмасин, энг сўнгги илғор техника ва технологияга эга бўлмасин, ижтимоий жараёнларда, оддий инсоний муносабатларда, ахлоқ-одоб доирасида оқсоқлик "ялт" этиб кўзга чалинмоқда. Бир оғиз сўз инсон ҳаёти чилпарчин бўлиши, қариндош-уруғчилик ёки дўстликка барҳам бериши, баҳс-мунозара авж олиши, оилавий низолар кучайиши, тушунмовчиликларга кенг йўл очилиши... учун замин бўлмоқда.

Инсон билим, тажриба, малакадан фойдаланган ҳолда маърифатга, шу билан бирга, зийраклик, латофат, гўзал ахлоқ каби фазилатларга эришади. Хулқ (арабча феъл-атвор, табиат, фитрат, кайфият, сийрат – З.И.) инсон маънавий-ахлоқий

дунёсининг ўзига хос кўзгусидир. Хулқ нафсга ўрнашишига кўра, “холқий” яъни, туғма ва “касбий” яъни, кейинчалик ўзлаштириб олинадиган хулққа ажратилади.

Гўзал хулқ инсоннинг маънавий қиёфаси, муомала маданияти ва руҳияти, амалий фаолиятида намоён бўладиган олийжаноб фазилатдир. Гўзал хулқ – барча ёмон сўз ва ишлардан тийилишда, одамлар билан муомала қилишда, кечиримли бўлишда, зиммадаги вазифани бажаришда сусткашлик қилмасликда, кўп кулишдан сақланишда, оз таом билан кифояланишда, одамларга ёмон ният билан қарамасликда, ширинсуханликда, рост сўзлашда, инсонларга ҳам, ҳайвонларга ҳам раҳм-шафқатли бўлишда, ҳасад, адоват, бахиллик қилмасликда, ғазабланмасликда, кўп сўзлашдан тийилишда, эрта ётиб эрта туришда, мард ва шижоатли бўлишда, ўзининг зарарига бўлса ҳам ҳақ сўзни айтишда, нодон ва жоҳил кишиларнинг азиятларига сабрли бўлишда, яхши кўрган нарсасини бошқаларда ҳам бўлишини яхши кўришда, такаллуфни кўпайтиришда, насиҳатни қабул қилишда, ораста юришда, ортиқча мақтовларга рози бўлмасликда намоён бўлади.

Қайд этилган гўзал хулқлар ичида кечиримлилик инсон ҳаётида жиддий аҳамиятга эгадир. Инсон ибтидода хато қилган. Кечиримлилик фазилатининг нечоғли буюклигини Одам (а.с.) тавбасининг қабул қилинганидан билса бўлади. Аллоҳ инсонларнинг бир-бирларининг айб ва нуқсонлари, хато-камчиликларини кечиришга буюрган: “... Бас, афв этсинлар, ўтиб юборсинлар. Аллоҳ сизларни мағфират қилишини хуш кўрмайсизларми?! Аллоҳ ўта мағфиратли, ўта раҳмли зотдир” [1.421.], “(У тақводор зотлар)... одамларнинг (хато-камчиликларини) кечирадиган кишилардир. Аллоҳ бундай яхшилик қилувчиларни севади” [2.72.]. Демак, Аллоҳнинг кечиримлилик сифати бандага нисбатан раҳм-шафқат намунасидирки, кечиримли бўлиш иймондандир. Муҳаммад (с.а.в.)нинг кечиримли бўлганликлари, у зот (с.а.в.)нинг бошларига оғир кунларни солган мушриклар раҳнамоси Абу Суфённи ҳам, амакилари Ҳамзани ўлдирган Ваҳшни ҳам авф этганлари кечиримлиликнинг олий намунасидир.

Муҳаммад (с.а.в.) дедилар: “Сенга зулм қилганни сен кечир, сенга раво кўрмаганга сен бер, сендан узилган (ёр-биродар, қариндош-уруғ)га сен боғлан. Яратган учун яратилганни яхши кўр” [3.113.]. Бу Муҳаммад (с.а.в.)нинг гўзал ахлоқларидир.

Кечиримли киши хато-камчилик илдизини синчковлик билан англаб, уни виждон тарозисига солади, инсоф ва адолат ўлчовига амал қилади ва тўғри хулоса чиқаради, пасткаш билан тенг бўлмайди, золимнинг зулмига зулм билан, душманга душманлик билан, тажовузкорга тажовуз билан, жоҳилга жаҳолат билан, нодонга нодонлик билан, ёмонга ёмонлик билан, дарғазабга ғазаб билан, ҳасадгўйга ҳасад билан, адоватчига ўч олиш билан, кек сақловчига кек сақлаш билан жавоб бермай, олийжаноблик билан ўзини юқори тутади. Инсон унга озор берган кимсадан қасос олиш имкониятига эга бўла туриб, уни кечира олиши юксак инсоний, фазилат, олийхиммatликдир.

Кечиримлилик фазилати боис ғайридинлар исломни қабул қилишгани тарих саҳифаларида муҳрланган. Жумладан, Расулуллоҳ (с.а.в) Тоиф шаҳрига Сақиф қабиласини ислом динига даъват этиш мақсадида борганларида сақифликлар у зот

(с.а.в.)ни тошбўрон қилиб ҳайдашади. Жаброил (а.с) Муҳаммад (с.а.в.)нинг ҳузурларига келиб дейди: “Аллоҳ (с.т.) Сақиф қавмининг сизга етказган азияти эвазига ўч олиш учун менга нимани буюрсангиз шунга итоат этишимга амр этди”. Расулуллоҳ (с.а.в) дуога қўл очдилар: “Эй Аллоҳ, Сақиф қавмини ҳидоят қил. Улар буни билмай қилдилар”. Жаброил (а.с.) деди: “Аллоҳ (с.т.) сизни марҳаматли ва меҳрибон деб рост айтган экан [4.119.]”.

Инсоннинг олижаноблиги, иззату шарафи унинг кечиримлилигида намоён бўлиши билан бирга унинг мартаба ва даражаси зиёда бўлишига сабаб бўлади: Яхши гап ва кечириш – кетидан озор келадиган садақадан яхшироқ. Аллоҳ беҳожат ва ҳалиймдир [5.48.]. Уббода ибн Сомит (р.а)дан ривоят қилинишича, Расулуллоҳ (с.а.в) дедилар: “Сизларга Аллоҳ бандасининг даражасини нима туфайли баландга кўтарилишини айтайми? Сизга жаҳл қилганга мулойим бўлинг, зулм қилганни авф қилинг, ёмонлик қилганга яхшилик қилинг, сизни махрум қилганга инъом қилинг, сиздан алоқани узган билан ришталарни боғланг” [6.36.].

Кечиримлилик олий инсоний фазилат. Инсон бошқалар билан муомалада кечиримли бўлиши, мақбул йўлни тутиши, одамлар билан муносабатда олтин ўрталикни сақлаши, бошқалар қилган хатоларни кечириши, авф этиши, бағрикенг бўлиши лозимки, ҳадисда ҳам “Сизлар кечиринглар, шунда сизлар ҳам кечириласизлар. Раҳм қилинглар, сизлар ҳам раҳм қилинасизлар. Кечиринглар, Аллоҳ ҳам сизларни кечиради” **[7.73.]** дейилган. Инсонни бахт-саодатга етаклайдиган фазилатлар камтарлик, к***ечиримлилик, р***остгўйликдир. Инсоннинг гўзал ахлоқи унинг фазилатлари кўзгуси бўлгани каби унинг иллатлари ахлоқидаги номукаммалликни кўрсатади. Ҳадисда “Кимнинг қалбида гинаси бўлса унинг дини йўқдир” **[8.48.]** дейилган.

Инсонни фақат хато қилгани учун ёмон кўриш мумкинми?

Умр давомида одамзод кўп янглишади. Хатога йўл қўйган ҳар бир инсонни ёмон кўраверилса, охир-оқибат ҳаммани, шу жумладан, инсон ўз-ўзини ҳам ёмон кўриб қолади. Кечириш ҳар доим ҳам осон кечмайди. Кечирмаган бахтли бўла олмайди. Инсоннинг фитналардан омон бўлиши, олийжаноблиги, шарифлиги, фазилати, мартабасининг юксалиши, комиллик сари интилиши унинг кечиримлилигида намоён бўлади. Ҳаётда айрим ўта қаттиққўл, мутакаббир кишилар бошқаларнинг айб-нуқсонлари, хато-камчиликларини қидиришни, бошқаларга танбеҳ беришни хуш кўрадилар. Хато қилиш, қусур-камчиликка йўл қўйиш, бефаросатлик, манманлик, жоҳиллик, нодонлик, кибр, кек, кин, ҳасад – маънавий иллат. Хато қилмайдиган одам йўқ. Ҳамма хато қилади. Инсон билиб-билмаган ҳолда хато қилади. Лекин масаланинг бошқа томони борки, оилада ҳам, хизматда ҳам, жамиятда ҳам бошқаларнинг айб-нуқсонларини кечириш орқали мувозанат сақланади. Инсонлар бир-бирларининг нуқсон-камчиликларини кечиришлари билан баҳс-мунозара ва муаммонинг оқилона ечими топилади.

Қуръонда “Албатта, ким (ўзига етган озор-азиятларга) сабр қилса ва (интиқом олмай Аллоҳ учун) кечириб юборса, шак-шубҳасиз бу (иш) ишларнинг мақсадга мувофиғидир” [9.605.] дейилганки, кечиримлилик замирида ботинда Ҳақ маърифатини кашф этиш, ҳидоятга интилиш, камолот сари юксалиш, ўзликни

англаш, гўзал ахлоқий фазилатлар билан хулқланиш, икки дунё саодатига эришиш, Аллоҳ раҳматидан насибадор бўлишдек маънавий баркамоллик мужассамдир.

Инсон бирор кимса билан зиддиятга бориб қолганида унга нисбатан жаҳл, нафрат, адоват, кек каби зарарли туйғуларни юрагидан ўтказадики, кечиримли бўлишнинг қалбга фойдаси беқиёсдир. Тана касал бўлгани каби қалб ҳам касалланади. Бу инсондаги ёмон хулқ, кечирмаслик, ишончсизлик, шубҳаланиш, кибрланиш, ҳасад, кин, адоват, кек сақлаш, бахиллик, мантанчоқлик, ёлғончилик, фирибгарлик, васваса, бидъатларга, дунё зеб-зийнатига берилиш, вақтни беҳудага сарф қилиш кабилар натижасидир.

Ҳадисда “Раҳм қилмаганга раҳм қилинмас” [10.19.] дейилган. Бу дунёдан норозилигини ифода этиш учун кишининг ўз яқинларини кечира олмаслиги кифоя қилади. Бошқаларни кечирмаслик учун қанча баҳона топиш, ўзининг ҳақлигини исботлаш мақсадида сабаблар келтириш билан муаммо ҳал бўлмайди. Аксинча, қалби адоватга тўла инсонда хайр йўқ. Кечириш ва унутишдан бебаҳра одамни дунё боғининг ташқарисида бўлишни маъқул кўрадиган кимсага ўхшатиладики, унинг кўнгли бўм-бўш, шод-ҳуррамлик ҳам, бахтиёрлик ҳам аламзада кўнглини тўлдира олмайди.

Кечиримлиликнинг инсон қалби учун фойдали жиҳатлари қуйидагича:

1. Кечиримлилик инсонга енгиллик бахш этади.

Кимнидир афв этиш инсоннинг ўзи билан ўзи олиб борадиган курашидир. Инсон унга озор етказган кишининг сўзлари ёки хатти-ҳаракатлари қанчалик таъсир қилганини билади, бошқалар эса фақатгина далда бўлиши мумкин. Инсон унга озор етказган кишини “кечиришга лойиқ эмас” деб билса ҳам, кечириши зарурки, озорланган қалбдан чиқариб ташланган оғир юкдан халос бўлиш орқали сокинлик, енгиллик, хотиржамлик юзага келади: “Авф қилмоғингиз кўнгилни кенг тутмоғингиз ва кечирмоғингиз яхшидур, албатта Аллоҳ кечирувчи ва раҳмдилдур” [11.735.].

Инсон унга озор берган ёки ноҳақлик қилган кишиларни кечириши ўша кишилар учун эмас, ўзи учун ҳам ўта муҳимлигини англаши керак. Негаки қалбига озор берган инсонни кечирмаслик заҳарни ўз танасига шимиб, бошқа одамнинг ўлим топишини кутишга ўхшайди. Инсоннинг ўзидан бошқа ҳеч ким у кечирмаган адоват ва кек сақлаши туфайли ўзидан кўра кўпроқ зарар кўрмайди. Инсонга озор бергани учун узр сўраётган (ёки узр сўрамаётган, ҳаттоки узр сўрашни хаёлига келтирмаган – З.И.) киши қалби озорланган инсон каби изтироб чекмаслиги, ҳаттоки фаросатсизлиги ёки нодонлиги туфайли бу ҳолатни пайқамаслиги, билмаслиги ёки эътибор бермаслиги аниқ. Инсон қалбини жароҳатлайдиган зарарли ўй-фикрлар ва ҳис-туйғулардан халос этиш учун унга озор берган кишини кечириш билан эришади.

2. Кечиримлилик машаққатли ва олийжаноб йўл.

Ҳар бир инсон “мен”ида бир неча шахс мужассам. Агар инсон ички овозлар қуршовида қолса, ихтиёрини йўқотади ва хато-камчиликлар қуршовида қолади. Инсон онгини ўзгартирмагунча, ички овозлар уни азоблаб, вужудини кемираверади. Гина, кек, адоват сақлаш ёки қасд олиш осон, аммо бошқаларни кечириш қийин.

Қуръонда “... (Ҳар қандай) ёмонликнинг жазоси худди ўзига ўхшаган ёмонликдир (яъни ҳар бир ёмонликнинг ўзига яраша жазоси бордир). Энди ким (интиқом олишга қодир бўлгани ҳолда) афв қилиб (ўртани) тузатса, бас унинг ажри Аллоҳнинг зиммасидадир. Албатта, У зулм қилгувчиларни севмас” [12.605.] дейилган.

Кечиримлилик инсон феъл-атвори ва иродасининг кучли эканини кўрсатади ва унинг маънавий юксалишига ёрдам беради. Инсон бошқаларни кечириш орқали қалбини ғуборлардан тозалайди. Жазолашдан кўра кечириш мардлик бўлиб, авф этиш кучли ирода эгаларининг фазилатидир.

3. Кечиримлилик ички ёвузликлар билан курашда ёрдам беради.

Инсон гуноҳ қилса, қалбида битта қора доғ пайдо бўлади. Ўз вақтида тавба қилиб, истиғфор айтса, қалби доғдан тозаланади. Агар инсон тавба қилмай, гуноҳларини кўпайтираверса, ўша қора доғ катталашиб, қалбини бутунлай қоплаб олади: “Йўқ (ундай эмас)! Балки, уларнинг дилларини ўзларининг қилмишлари (гуноҳлари) қоплаб олгандир” [13.813.].

Ҳар бир инсоннинг кучли томони билан бирга ожиз жиҳати ҳам бўлади. Айрим кишилар андиша, уят, ҳаё, олийжаноблик, саховатпешалик, мулойимлик, хушфеъллик каби фазилатлардан мосуво, қалби жирканч ўй-фикр ва хулосалар билан тўлиб-тошганидан бошқаларнинг меҳрибончилиги, узрхоҳлиги, самимиятини қабул қила олмайди. Бундай кишиларнинг қалби ички ёвузликлар билан тўлгани учун ҳаётни шу алфозда қабул қилади, бошқаларга шу кайфиятда муносабатда бўлади. Фақат “мен ҳақман” деган тамойилни ҳаётининг мазмунига айлантириб олган кишилар ҳеч қачон кечиримлилик фазилати билан келиша олмайди. Инсон бу каби кишиларни қалбининг туб-тубидан афв этиши мушкул (шунчаки, “ҳечқиси йўқ” демасдан, ҳақиқатда ундай бўлмаса ҳам – З.И.). Кечиримли бўлиш инсоннинг ўз ожизлигини енгишининг бирдан-бир тўғри йўлидир.

Айрим инсонлар бошқаларга нисбатан кўпроқ ўзини кечирмасликка мойил бўлишади. Бу эса инсоннинг ўзи билан ўзи олиб борадиган (ички овоз – З.И.) курашидир. Кўпинча инсон атайлаб ёки билмай содир этган хато-камчилиги учун ўзини азоблаб, саволлар исканжасида қолади, ўзини ўзи айблаб, оқлаш учун асос топа олмайди. Бўлар иш бўлди. Энди аввалги хатоларни такрорламаслик билан осуда яшаш мумкин. Инсон кечиримлилик орқали қалбида яшириниб ётган ички ёвузликдан халос бўлади, йўл қўйган хато-камчилигини кечира олиши орқали ички хотиржамликка эришади.

4. Кечиримлилик мағфиратга элтувчи йўлдир.

Инсоннинг бошқаларнинг хато-камчиликлари, етказган озори учун кечиришида ёрдам берадиган жиҳат шуки, қачондир инсонннг ўзи ҳам кимгадир озор етказган вақтларини эслайди. Ўша инсон уни кечирганини чин дилдан ҳис этади. Бошқаларни кечириш орқали Яратувчининг ўзининг хато-камчиликларини кечиришига умидвор бўлади. Кимнидир авф этиш, унга етказган озорини унутишни истамайдиган киши қандай қилиб Аллоҳ мағфиратига эришиш, бошқаларни афв этишни истамас экан, қандай қилиб Аллоҳдан унинг хато ва гуноҳларини кечиришини кутиши мумкин?

Кечиримлилик ҳикмати нимада?

Инсоннинг чиройи – сўзининг гўзаллигида, камоли эса феълининг тўғрилигидадир. Ҳадисда “Кечиримлилик инсоний фазилатларнинг энг зийнатлисидир” [14.27.] дейилган. Ўзгаларнинг нолойиқ хатти-ҳаракатлари, озор ва инжиқликларини сабр-тоқат билан кечириш мардликдир.

Кечиримлилик барча касалликларнинг шифосидир. Бошқаларнинг гуноҳини кечира олмайдиган ва ёмонликни унута олмайдиган одам бамисоли сарғайган баргларини тўла тўкмайдиган дарахтга ўхшайди. Вақт ўтиб янги, яшил барглар орасидаги жонсиз, сарғайган япроқлар дарахтнинг тўкислигига хавф солгани каби инсоннинг қалбидаги авф этилмаган ва бот-бот эсланадиган сўзлар ҳар сафар юракка азобли оғриқ беради.

Кўпчилик ўзига ноҳақлик қилган кишини ўша заҳоти кечириш соғлом ақлга тўғри келмайди, деб ҳисоблашади. Оддий инсоннинг табиати бундай бўлмайди. Ҳеч бўлмаганда ҳодисанинг муайян сабаби, адоватнинг илдизи, озор берган кишининг кечирилишга лойиқ сифатлари таҳлил этилади. Ана шу жараёнда инсон ўзи билан ўзи ҳақиқатнинг кўзига тик боқади, бошқаларнинг хато-камчиликларини кўриш баробарида ўзининг ҳам хатоларини кўради. Ўзига етган озорни кечиришга лойиқ кўради. Бу олийжанобликдир: “Яхшилик билан ёмонлик баробар бўлмас. Сен яхшилик бўлган нарса ила даф қил. Кўрибсанки, сен билан орасида адовати бор кимса, худди содиқ дўстдек бўлур. Унга фақат сабр қилганларгина эришур. Унга фақат улуғ насиба эгаси бўлганларгина эришур” [15.594.].

Кечиримлилик инсон қалбини гина-кудурат, хафагарчилик ва озордан сақлайдики, Қуръонда “Авф-марҳаматли бўлинг, яхшиликка буюринг ва жоҳиллардан юз ўгиринг” [16.186.] дейилган бўлса, ҳадисда “Тили ва қўли билан бошқаларга озор бермаган киши ҳақиқий мусулмондир” [17.59.] дейилган. Инсон беҳуда сўз айтишдан, одамларга озор беришдан, нолойиқ сўз айтишдан, шубҳа-гумонда бўлишдан, дилини оғритишдан сақланмаса, гуноҳ содир бўлади. Гуноҳ эса қалбни қулфлаб қўяди. Қулфланган қалб ёвузликка, жаҳолатга, ёмонликка ва разолатга мойил бўлади. Кибр ва манманлик, ўзидан бошқани одам санамаслик ёки ўз мансаби, молу-дунёсига ортиқча баҳо бериб юборишдек иллат исканжасида қолган инсон кечиримлилик ёки узр сўрашдек олийжаноб фазилатдан мосуво яшайдики, кераксиз баҳс-мунозаралар, кўнгилсизликлар, жанжалу низолар сурункали касалликларни келтириб чиқаради. Маънан, руҳан қашшоқлашган қалб, шубҳасиз, муолажага, руҳий тарбияга муҳтождирки, бирор кимсага нисбатан адоват ёки кек сақлаб юрган инсоннинг юрак қон-томир ва иммун тизими бузилиши, асаб толалари емирилиши, депрессия, саратон касаллигига олиб келади. Ўша кимсанинг қилган ёмонлигини ҳадеб ўйлайвериш ва хаёлан унга ёмонлик тилаш оқибатида руҳий тушкунлик рўй беради.

Кечиримлиликнинг ташқи “беихтиёрий” (инсон кечиради, аммо келажакда уни хафа қилган кишига муносабати салбий томонга ўзгаради – З.И.) ва ички “эмоционал” (инсондаги ички нафрат ва хавотир ўрнини ижобий туйғулар – хокисорлик, ачиниш ва ҳамдардлик эгаллайди – З.И.) кечиришга ажратиш мумкин. Ташқи “беихтиёрий” кечириш кишилар ўртасидаги илиқликни тиклашда муҳим

саналса, ички “эмоционал” кечириш инсоннинг жисмоний ва руҳий саломатлиги учун аҳамиятлидир.

Кечиримли бўлиш ўзлаштирса бўладиган оқилона муомала санъатидир.

Кечириш мураккаб руҳий жараён, кечириш орқали инсон ўзини енгил сезади, уни ич-ичидан кемираётган салбий руҳий туйғулар (хафагарчилик, нафрат, кин, адоват – З.И.) барҳам топади. Шунинг учун кечиримли бўлиш инсон саломатлиги учун фойдалидир. Америкалик руҳоний Майкл Берри The Forgiveness Project (Кечиримлилик лойиҳаси) китобида ёзади: “Кишида кечиримлилик ва олийжаноблик ҳиссининг йўқ бўлиши инсон соғлиғида салбий ўзгаришга сабаб бўлувчи хасталикдан нишонадир. Кечиримлилик туйғуси йўқлиги оқибатида танада юзага келувчи асабий таранглик овқат хазм қилиш ва қон айланиш тизимининг бузилишига сабаб бўлади. Кечиримлилик ва бағрикенглик туйғусининг намоён бўлмаслиги оқибатида кишининг асаблари доимий босим остида ва таранг ҳолатда бўлади. Узлуксиз ва узоқ вақт зўриқиш асаб тизимини ҳолдан тойдиради ва натижада бош оғриғи, бўғимлардаги оғриқ, шунингдек, бош айланиши, доимий чарчоқ ҳиссини юзага келтиради. Бундан ташқари, доимий асаб таранглиги оқибатида инсон танасининг маълум қисмларида сурункали хасталиклар пайдо бўла бошлайди, қайта тикланишга қодир ҳужайралар ҳам бундай ноқулай вазиятда ўз қобилиятини йўқота бошлайди ва қайта тикланмай қўяди ёки нотўғри шаклланишни бошлайди. Бу ҳолатдаги инсон танасининг фаолияти учун бошқа пайтдагига қараганда икки-уч баравар кўп қувват сарфлайди[18.].

Кечирилмайдиган воқеанинг гирдобига тушмасликка ҳаракат қилиш муҳим. Инсон кўнгилни кенг қилиб, ўз теграсида ижобий қувват зирҳини яратиш, атрофидаги одамлар билан самимият ва очиқ чеҳрада муомала қилиш, уларга табассум ҳадя этиш, муроса йўлини тутиш, айтилажак ҳар бир сўзни етти ўлчаб бир кесиш, ҳақорат ёки озорга сукут билан жавоб қайтариш, низоли жойни тарк этиш, салбий ҳиссиётли, уриш-жанжалга мойил одамлар суҳбатидан воз кечиш орқали руҳий мунавварликка эришиш мумкин. “Бошқаларни ўзгартираман” деган инсон аслида уларга зулм қилаётганини англамайди. Аксинча, ўз ҳаётини ўнглаб, “нодонлик” тахтидан тушиб, “тафаккур” тахтига кўтарилиб, унга етказилган озорларни кечириб яшашни бошлаган инсоннинг муаммолари, изтироб ва қийноқлари барҳам топадики, “... ҳеч бир жон тоқатидан ортиққа мажбур этилмайди” [19.155.]. Манманлик гирдобидан покланган қалб осудаликка эришади: “... Зеро, инсон ёмон кўрган нарсада Аллоҳ кўп яхшиликларни қилиб қўйган бўлиши мумкин” [20.80.].

Кечиримлилик инсонни ҳаётдан завқ олиб яшашга, ҳар лаҳзани қадрлашга, ҳар қандай ёмонликдан эзгулик излашга, гўзалликни севишга, ҳар бир ишда ҳикмат борлигини англашга, худбинликдан воз кечишга, муросасозликка, инсонпарварликка, бағрикенгликка ўргатади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Қуръони Карим. Нур сураси, 22-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. 421-бет.
2. Қуръони Карим. Ол-и Имрон сураси, 134-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. 72-бет.
3. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад. – Т.: Фан, 1990. 113-бет.
4. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад. – Т.: Фан, 1990.119-бет.
5. Қуръони Карим. Бақара сураси, 263-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. 48-бет.
6. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад. – Т.: Фан, 1990. 36-бет.
7. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад.–Т.:Фан, 1990. 73-бет.
8. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад.–Т.:Фан, 1990.48-бет.
9. Қуръони Карим. Шуаро сураси, 43-оят.Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.:Чўлпон, 1992. 605-бет.
10. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад.–Т.:Фан, 1990.19-бет.
11. Қуръони Карим. Тоғобун сураси, 14-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.:Чўлпон, 1992. 735-бет.
12. Қуръони Карим. Шуаро сураси, 40-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.:Чўлпон, 1992. 605-бет.
13. Қуръони Карим. Мутаффифун сураси, 14-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.:Чўлпон, 1992. 813-бет.
14. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад.–Т.: Фан, 1990. 27-бет.
15. Қуръони Карим. Фуссилат сураси, 34-35-оятлар. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.:Чўлпон, 1992. 594-бет.
16. Қуръони Карим. Аъроф сураси, 199-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.: Чўлпон, 1992. 186-бет.
17. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. Таржимонлар ва арабча матнни нашрга тайёрловчилар: Ҳамидулла Ҳикматуллаев, Абдулазиз Мансуров. Махсус муҳаррир: Ҳусниддин Нурмуҳаммад.–Т.: Фан, 1990. 59-бет.

18. Майкл Барри – илоҳиёт фанлари доктори, Америка онкологик марказларига диний вакиллик ёрдами директори, иймон ва саломатлик ҳақидаги “Умид сабаблари”, “Умид фасли”, “Қайғуриш санъати”, “Кечиримлилик лойиҳаси” китоблари муаллифи.
19. Қуръони Карим. Аъроф сураси, 42-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.: Чўлпон, 1992. 155-бет.
20. Қуръони Карим. Нисо сураси, 19-оят. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.–Т.: Чўлпон, 1992. 80-бет.

ИНСОН ТАҚДИРИНИ АНГЛАШДАГИ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАР РИВОЖИ

Жаҳонгир Бардиевич Мадримов
Ўзбекистон Миллий университети тадқиқотчиси
Урганч давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада тақдир ҳақидаги илк тасаввурларнинг вужудга келиши, тотемизм ва аждодларга топиниш, мифологик гоялардаги талқинлар, Қадимги Ҳинд, Хитой ва Юнон фалсафаси ва Анаксагор, Гераклит, Анаксимен, Пифагор, Платон, Арасту каби муфаккирлар талқинлари келтирилган. Шунингдек, инсон тақдирига доир Ғарб файласуфлари ва Шарқ мутафаккирларининг айрим хулосалари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *инсон, худо, тақдир, руҳ, ҳаёт, тотемизм, аждодларга топиниш, мифология, Ҳинд фалсафаси, Хитой фалсафаси, Юнон фалсафаси.*

РАЗВИТИЕ РЕЛИГИОЗНО-ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДЫ В ОСОЗНАНИИ СУДЬБА ЧЕЛОВЕКА

Джахонгир Бардиевич Мадримов
Соискатель Национального университета Узбекистана
Преподаватель Ургенчского государственного университета

Аннотация: *В статье представлены первые впечатления о судьбе, тотемизме и поклонении предкам, мифологические идеи, древнеиндийские, китайские и греческие философии, а также интерпретации мыслителей Анаксагор, Гераклит, Анаксимен, Пифагор, Платон, Аристотель. А также анализируются некоторые выводы западными философами и восточными мыслителями о человеческой судьбе.*

Ключевые слова: *человек, бог, судьба, дух, жизнь, тотемизм, поклонение предкам, мифология, индийская философия, китайская философия, греческая философия.*

DEVELOPMENT OF RELIGIOUS-PHILOSOPHICAL VIEWS IN CONSCIOUSNESS OF HUMAN FATE

Jahangir Banievich Madrimov
Researcher of the National University of Uzbekistan,
Teacher of Urgench state University

Annotation: *The article presents the first impressions of fate, totemism and worship of ancestors, mythological ideas, ancient Indian, Chinese and Greek philosophies, as well as interpretations of thinkers Anaxagoras, Heraclitus, Anaximander, Pythagoras, Plato, Aristotle. It also analyzes some of the findings of Western philosophers and Eastern thinkers about human fate.*

Keywords: *man, god, fate, spirit, life, totemic, worship of ancestors, mythology, Indian philosophy, Chinese philosophy, Greek philosophy*

Тақдир ҳақидаги тасаввурлардан маълум бўлишича, инсон онги, қадар тўғрисидаги тафаккури унинг дунё ҳақидаги тасаввур ва билимлари ривожланиши билан кенгайиб бораверган. Кўпгина тадқиқотчиларнинг фикрича, у фалсафанинг илк босқичида, яъни мифологияда уруғчилик муносабатларининг парчаланиши билан боғлиқ тарзда кечган ривожланишнинг кейинги босқичларида пайдо бўлган. Бу нарса шу вақтгача уруғчилик турмушидан ажралган ҳолда тасаввур ҳам қилинмаган инсон индивидуал моҳиятининг ривожланиши билан боғлиқдир. Тақдирнинг шахссизлигини ва билиб бўлмаслигини йўққа чиқаришга интилиш уни жонлантириришнинг турли типларида намоён бўлади.

Тақдир ҳақидаги илк тасаввурлар тотемизм ва аждодларга топинишга бориб тақалади. Уларда инсон билан бирга туғилиб, у билан ёнма-ён яшайдиган ёвуз ва меҳрибон руҳлар ҳақидаги тасаввурлар ўз аксини топган. Мифологик тасаввурлар ва ижтимоий муносабатларнинг ривожланиши билан турли халқларда тақдирни воқеа-ҳодиса сифатида жонлантириш юзага келган. Тақдир мавзуси кўп ҳолларда руҳ мавзуси билан боғланиб кетади. Айни шу маънода Ш.Б.Қаҳҳорова “Руҳ, бир томондан, Худонинг ҳукму иродаси натижаси ўлароқ пайдо бўлади, иккинчи томондан, унинг ўзи ҳам ҳукм юритиш, яъни яратиш вазифасини бажарадиган кучдир”[1.158], - деб ёзади.

Тақдир ҳақидаги тасаввурлар баъзи таълимотларда илгари ҳам яшаганлик, руҳнинг кўчиб ўтиши, яъни реинкарнация (таносух) назарияси ҳақидаги эътиқод билан чамбарчас боғланиб кетади. Унга кўра, тақдир инсоннинг илгариги хатти-ҳаракатларига, жумладан, унинг олдинги тимсолларида ҳам бажарган амалларига қарам бўлиб қолади.

Кўпгина халқларда “тақдир” тушунчаси астраль (нариги дунёга оид) рамзлар билан боғлиқ бўлади. Шунингдек, тақдирни унинг ривожланиши ва амалга ошиши соҳаси бўлган вақт билан боғлаш ҳам кенг тарқалган. Тақдир ўтмиш ва келажакни боғлайди. Тақдир маросимийлик ва профанлик (ҳеч нарсадан хабари йўқ одам), мангулик ва вақтинчалик, ҳаёт ва ўлим ўртасидаги мухолифлик билан ўзаро боғлангандир. Айрим маданиятларда тақдирни олдиндан маълум бўлган ўлим билан бир хил деб қараш ҳам учрайди (қадимги орийлик мифологияси, шумер-аккад анъаналари ва бошқалар). Мифологиянинг тараққий этиши ва ибтидоий фалсафий тузилмаларнинг пайдо бўлиши билан тақдирнинг дунёвий зарурат ва адолат билан бир хиллик касб этадиган универсал космик ибтидо сифатида қараш вужудга келган.

Энг қадимги юнон фалсафий таълимотларининг манбаи бўлиб инсоннинг коинот архетипи эканлиги ҳақидаги мифологик ғояси хизмат қилган эди. Унинг

маъноси макрокосмос (катта дунё) ва микрокосмос (кичик дунё)нинг паралеллиги ҳақидаги, яъни Коинот (Космос) ва инсоннинг паралеллиги ҳақидаги космологик мифдан келтириб чиқарилган эди. Бу ривоятга кўра, инсоннинг коинотий архетипи жисмидан Ернинг пайдо бўлиши келиб чиқар эди. Унинг суякларидан –тошлар, қонидан–дарёлар, сочларидан–дарахтлар, нафас олишидан–шамол пайдо бўлади.

Қадимги Ҳинд, Хитой ва Юнон фалсафасида инсоннинг табиати ҳақидаги сюжетлар рационаллаша бошлади. Инсон Коинотнинг жон хоссаларига эга бўлган символи деб қарала бошланди. Демокрит инсонни макрокосмос унинг жон хоссаларини ўзида камроқ акс эттирган аналоги, яъни микрокосмос деб фараз қилган эди[2.256]. Макро ва микрокосмос орасидаги антик аналогия турлича далилланган эди. Агар одам макрокосмосга ўхшатилса, у ҳолда инсон ҳақидаги тушунча натуралистик, табиий белгиларга эга бўлар эди (Демокрит назарида). Агар мулоҳазалар микрокосмосдан макрокосмосга йўналтирилса, у ҳолда космик жон ёки руҳ борлиги худди инсондаги қобилият сингари тушунтирилар эди (масалан, Анаксагор ва Платон шундай ўйлар эдилар).

Протагор «инсон ҳамма нарса учун меъёрдир» дер экан, одамларнинг биргаликдаги яшашларига космик қонунлар эмас, инсон табиати қонунлари асос қилиб олинади, деб уқтирган эди. Бунда оламни билиш ўз-ўзини билишга айланар эди. «Ўз – ўзингни бил!» деганда шу нарса кўзда тутилган эди. Кейинги юнон фалсафаси (масалан, Плотин ёки Порфирий) космос тўғрисидаги тасаввурнинг жон (руҳ) тушунчаси билан, руҳни эса ақл тушунчаси билан қориштириб юборди. Шуни айтиб ўтиш керакки, инсон Коинотнинг аналоги бўлган микрокосмос эканлиги ҳақидаги гипотеза вақти- вақти билан Ўрта аср фалсафасида (диний-фалсафий, ёки шунингдек, мистик таълимотларда) ва Янги давр фалсафасида (масалан, Лейбницнинг «монада космик универсумнинг инъикосидир», - деган монадологиясида) учрайди.

Инсон ҳақидаги таълимотда бошидан охиригача мавжуд бўлган мавзулардан бири руҳ ва жисм (жон ва тана)нинг муносабати масаласидир. Инсон руҳи ва жисми турли асосларининг комбинацияси инсон табиатини белгилайди. Пифагорга хос анъана руҳни демоник асосга эга, у ўлмайди ва жониворлар ҳамда ўсимликлар таналари бўйлаб сайр этиб юради, деб тасдиқлайди. Жисм руҳнинг гўркови ҳисобланади. Бироқ, пифагорчи Филолайнинг қилган фаразига кўра, инсоннинг тақводорлик ҳаётининг мақсади ифлосликлардан тозалаш (катарсис) бўлгани учун одамларда ўз айбларини ювиб, ўз руҳларини космик асл ватанига қайтариш имкони бор. Гераклит ва Анаксименда руҳнинг аҳамияти худди ҳаёт, ҳаво, нафас олиш аҳамиятини касб этиб, дунёвий руҳ тушунчаси билан мос келади.

Платоннинг фикрига кўра, руҳнинг ўлмаслиги ва бошиданоқ жисмий эмаслиги (танасининг йўқлиги) уни ҳис–туйғудан юқори бўлган оламга, ғоялар оламига яқинлаштиради ва бу билан, уларни эслаш, ҳотирлаш орқали билиш имконини яратади. Платон руҳни, пастдаги жисмга асира бўлган руҳни юксалтиради, унга нисбатан баландларга кўтаради. Руҳ (жон) фақат инсон ўлганидагина жисм зиндонидан қутилади ва унинг чегараларидан ташқарига чиқади[3.376].

Ўлим танани (жисмни) табиатнинг бир бўлагига айлантиргани сингари, руҳ ҳам идеал дунёга аралашиб кетади, турли айланишларни, метаморфозаларни бошидан кечиради ва олам бўйлаб чексиз саёҳатларга киришиб кетади. Аристотель жонни (руҳни) космологик шарҳлашдан воз кечади ва унинг уч қобилиятини санаб ўтади: озиқланиш, сезги–туйғули ва ақлий қобилиятлардир. Озиқланиш қобилияти фақат ўсимликларга, озиқланиш ва ҳис–туйғу қобилияти – жониворларга, ҳар учала ҳосияти–инсонларга хосдир. Бундан ташқари, Аристотель жисм ва руҳнинг ўзаро таъсирига эътибор берди. Улар ўзаро шакл ва материя, акт ва потенция нисбатида бўладилар, шу билан бирга инсоннинг фақат интеллектуал (ақлий) руҳигина ўлмаслик, абадийликка эга бўлади[4.80].

Антик даврлардан бошлаб инсоннинг Ғарб моделида унинг танаси ва руҳининг дихотомик бўлинишига асосланган бўлса, унинг Шарқ модели руҳий ва жисмоний асослари орасида гармоник муносабатлар бўлишлигига асосланади. Христианлик ғояларининг бутун ўрта аср маданияти ва фалсафасида ҳал қилувчи роль ўйнагани маълум. Христиан динининг Ғарб ҳамкорлиги ҳаётига таъсири ҳозиргача ҳам сезиларли акс этади. Ўрта аср христиан антропологиясига келсак, у инсонни илоҳий ва табиийлик, табиатан дунёси орасидаги зиддиятларнинг кесишиш жойига тақаб қўйди. Христиан ақидасига кўра, инсон жисми нарса сингари «ясалган», унинг руҳи эса Худо шамоли таъсири туфайли шаклланган. Шунинг учун руҳ Худо билан диалог қила олади. Ўзини Худо томонидан унинг образига мос, ўхшатиб яратилгани билганидан сўнг у Худонинг насиҳатларига амал қилиш ҳам, уларга қулоқ солмай, ўзининг Худога ўхшаш жиҳатларини йўқотиш ҳам мумкин[5.184]. Инсоннинг аввал қилган гуноҳларига иқрорлик ҳисси уларни ювишга интилиш билан қўшилиб кетади.

Христиан антропологияси жисм ва руҳ орасидаги антик қарама– қаршиликни модификация қилди: асл ажралиш улар орасида эмас, балки «руҳга ва танага эга бўлган одамлар» орасида экан. Бу фаразга кўра, инсон жисми руҳ хоссаларига йўғрилган ва руҳланган жисмга айланиш анъанасига эгадир[6.224]. Ўзининг танасига оид хоҳишларини бартараф эта бориб, инсон ўз танасининг (жисмининг) руҳланишига эришади (антик қарашдаги руҳнинг танада тутқинлигидан қутқарилишидан фақрли ўлароқ). Тўғри, Худонинг инсонга муҳаббати билан инсон кечадиган жабру – жафоларини қандай келиштириш мумкин деган масала очиқ қолади. Ахир инсонни севгувчи Оллоҳ ўзи бандасини жабру–жафоларга дучор қиладими? Христиан ақидаси бунга инсон кейинчалик ўз руҳини қутқариш учун бир кун дунёга келади, деб ўргатади. Ўзининг тортган жабру–жафолари орқали инсон ўз руҳини борлиқда ҳозир ўзи яшаётган дунёдан батамом фарқ қилувчи янги, асл дунёга тайёрлайди. Унинг кундалик ҳаёти– ўзининг жисмоний ҳузур–ҳаловати учун узлуксиз жафо чекишдир. Руҳни қутқариш йўли Оллоҳ томонидан енгиллатиб бериладиган жафолар орқали ўтади. Руҳни қутқариш йўли жафолар орқали ўтади, бу жафоларни Оллоҳ енгиллатишга интилади.

Христианлик насиҳатларига кўра, инсоннинг руҳи бошқа одам руҳига «кўринганда», яъни бошқа одам руҳига ёришиб, диалогга киришганда уни севганда, у билан дардлашганда унга симпатия ёки антипатия муносабатида инсон ҳаётининг

муҳим актига айланади. Руҳ ролига бундай қараш инсонда эзгуликнинг уйғонишига сабаб бўлади[7.1072].

Стоиклар фикрича, дунё олам, барча нарсаларнинг сабаб ва оқибат кетма-кетлигидаги ягона ҳамда ўзаро алоқадорликдаги ҳодисалар уюмидир[8.128]. Айнан мана шу энг умумий ва зарурий алоқаларни улар тақдири азал, деб атайдилар. Улар қарашларида сабабий боғланишлар билан бир қаторда аниқ мақсадга йўналганлик ҳам мавжуд. Демак, тақдирдан ташқари стоиклар ҳайрия фаолиятини ҳам тан оладилар, бу эса улар ижодида физика ва этиканинг узвий алоқадорликда эканлигидан далолат беради.

Стоикларнинг инсон концепциясида инсон ва дунё ўртасида тўла мувозанатга эришиш энг муҳим фазилат ҳисобланади. Стоикларга хос «вазминлик», саботлилик шу қадар кучлики, уни ҳеч қандай ташқи кучлар ва катаклизмлар енга олмайди. Ушбу қараш доирасида дунёга хос, индивидуал муносабат руҳи билан суғорилган шахсий, теран кечинмалар тўғрисидаги масала ўз аҳамиятини йўқотади. Бирдан-бир идеал барчанинг ҳамма билан тўла уйғунлигига эришиш, бош шарт–ataraxia–вазминликка сўзсиз риоя қилишдан иборат. Ўзига муҳаббат эмас, балки amor fati - «қисматга муҳаббат» беҳуда ташвишлар ва ғам-андуҳлардан халос этади. Бутун коинотни тақдир бошқаради.

Ирода кучи айнан тақдирдан олий ҳеч нарса йўқлигини, инсон ўзининг яшаш бурчини вазминлик, совуққонлик билан адо этиши лозимлигини тушунишда намоён бўлади. Стоикларнинг вазмин, саботли шахс идеали барча одамларни тенглаштиради, уларнинг ҳар хиллиги ва бир-бирига ўхшамаслигини унутишга мажбур қилади.

Моистчиларнинг ҳайр ва шаррни яратилиши ҳақидаги қоидаси ва унга мувофиқ равишда тақдирлаш ва жазо бериш ҳақидаги фикрлари легистлар таълимоти учун асос бўлган[9.364]. Гераклит фикрича, оламнинг ўзгариши тақдир (геймармене) ва зарурият (ананке) қонунияти асосида содир бўлади. Ривожланиш жараёни чексиздир. Обьектив борлиқ субьектга қарам эмас, аммо фақат субъектгина борлиқни била олади. Гераклит барча нарсаларнинг асоси сифатида майда зарраларни эътироф этган[10.217].

Зенон алоҳида олинган шахс сифатидаги инсоннинг ахлоқий муаммоларига ўз эътиборини қаратган. Унинг тасаввуридаги инсон полис фуқароси эмас, балки коинот фуқароси бўлган эди. Яъни, инсон бахтга эришмоқ учун у олий куч томонидан тақдир қилинган воқеаларнинг қонунийлигини билмоғи зарур эди, ҳамда табиат билан мувофиқликда яшамоғи керак бўлган[11.171]. Эпикур эса ўз вазифасини одамларни ўлим ва тақдир даҳшатидан қутултиришда деб билган. Шунингдек, у Худоларнинг мавжудлигини тан олган ҳолда улар ҳақида «авом халқ тўқиб чиқарган ёлғонларга»гина қарши чиққан. Инсоннинг бахт-саодатини Эпикур «роҳат-фароғатда», яъни хотиржамликни қўлга киритишда ва вазминликда (атараксия) кўрган[12.336].

Худони шахссиз бирлик сифатида талқин этган янги афлотунчаликка қарши ўлароқ, Августин Худони ўз хоҳишига кўра дунё ва инсонни яратган илоҳий зот сифатида таърифлайди. Жумладан, у ўзининг бош асари бўлган «Илоҳий шаҳар

ҳақида» китобининг бир жойида (IV, 33) у қадимги маъжусийлик дунёқарашида катта ўрин тутган кўр-кўрона омад ҳақидаги ақидадан христианлик ниҳоятда фарқ қилишини кўрсатиб ўтади. Илоҳий зот бўлган Худонинг кўпсонли сифатлари қаторида Августин унинг мутлоқ ҳамма нарсага қодирлигини асослайди. Христианлик Худоси тақдирни тўлалигича эгаллаб олиб, уни ўз иродасига бўйсундирган[13.464]. Тақдир Худонинг ёзмиши, илоҳий касб бўлиб қолди.

Худодаги зотий ибтидони кўп марталаб таъкидлаган христиан файласуфи уни ҳаммадан аввал, илоҳий ақлдаги ирода билан боғлайди. «Илоҳий ирода Худога хосдир ва у ҳар қандай яратилишни олдиндан белгилайди... Худонинг иродаси илоҳий моҳиятнинг ўзига тааллуқлидир».

Табиат ва инсонни табиатдан юқори турувчи шахсий хусусиятга эга бўлган Худодан тўла ва бевосита тобелиги тақдирга ишонишнинг энг ниҳоят чегарасигача бориб етар эди. Тақдирга ишонишга айланиб кетган яратувчилик қудрати «узлуксиз яратиш» таълимотига олиб келар эдики, унга биноан, Худо бир лаҳза ҳам дунё устидан ўрнатган ўз ҳомийлигини қўймайди. Агар Худо, деб ёзади Августин, «ўз нарсасидан ўзининг ижодкорлик кучини олиб қўйса, у нарса илгари мавжуд бўлмагандек, яратилмай қоладилар. Бу мутлоқ тақдирга ишониш инсон шахсига нисбатан ҳам қўлланиладики, унинг томонидан «Иқрорнома»да шундай таърифланган: «Мени ўз кўкраклари билан менинг онам ёки менинг энагаларим эмизишган эмас, балки сен мендек чақалоққа улар воситасида болалик ризқини табиат қонунига мувофиқ равишда бергансан, улар сенинг ёзмишинг ва Сенинг марҳаматинг борлиги туфайлидир, сенинг ўзинг барча жонзотларга уларни эҳтиёжларига кўра ризқ ато этасан».

Августин Афлотун қарашларини охиригача христианлаштириб юборди: ғоялар борлиқнинг мустақил, жисмсиз, ўзгармас турларидан яратувчи – Худонинг азалий фикрларига айлантирилдилар. Унинг ақидасича, моддийлик билан оғирлашган ва шу туфайли мавжудлигини йўқотишга яқинлашган барча нарсалар, илоҳий ғоянинг жуда ҳам номукаммал нусҳаларидирлар.

Пико делла Мирандола фикрича, инсон ўзида ердаги тўрт ибтидони(анъанавий 4 унсур бўлган – тупроқ, сув, ҳаво ва олов) бирлаштирувчи кичик олам(микрокосм) бўлиб, ҳайвонийлик ва илоҳийликни ўзида мужассамлаштирган. Шунинг учун Худо томонидан яратилган инсон ҳайвон даражасига ҳам тушиб қолиши ёки бўлмаса, Худога ўхшаш моҳиятгача кўтарилиши мумкин; у ирода эркинлилига эга бўлмаганлигидан «ўзининг мужассимасози ва яратувчиси» ҳам бўлиши мумкин. Бу ерда Пико делла Мирандола идеалистик илоҳий шаклда Уйғониш даври инсонпарварлигининг асосий ҳақиқатларидан бири бўлган: инсон ўз тақдирини ўзи яратиши мумкинлиги ва ўз табиатини чексиз равишда юксалтиришга қодир эканлигини баён қилади.

Исломшунос олимлар «қазо» ва «қадар»ни қуйидагича таърифлайдилар:

«Қазо–Аллоҳ таолонинг ҳамма нарсаларнинг келажакда қандоқ бўлишини азалдан билишидир».

«Қадар–ўша нарсаларнинг Аллоҳнинг азалий илмига мувофиқ равишда вужудга келишидир».

Абу Жаъфар ал-Варроқ ат-Таҳовий инсон тақдирининг фаталистик асосга эга эканлигини қуйидагича шарҳлайди: “Фақатгина Аллоҳ таоло хоҳлаган нарсалар амалга ошади”. Аллоҳ таолонинг иродаси (хоҳиши) Қуръону карим ва Ҳадиси шарифда икки хил маънода ворид бўлган:

1. Аллоҳ таолонинг “кавний иродаси”; яъни қазои қадар маъносида келган ирода. Аллоҳ таоло тақдирга битиб қўйган, албатта амалга ошадиган иродаси;

2. Аллоҳ таолонинг “шаръий иродаси”; яъни Аллоҳ таоло яхши кўрадиган нарсалар. Аллоҳ таоло Ўзига суюкли бўлган амалларни бандаларидан талаб қилиши, бандалар Аллоҳ рози бўладиган ишларни амалга оширишларини хоҳлашлиги. Дарҳақиқат, Аллоҳнинг Расули тақдир мавзусида тортишган баъзи саҳобаларни бу тортишувдан қайтарганлар. Чунки баъзи эътиқод мавзуларини ақлий жиҳатдан тушунишнинг имкони йўқдир. Унга қандай хабар берилган бўлса, шу тарзда ишонмоқ лозим.

“Ваҳдат аҳли шу жумладан, Умар Ҳайём каби зотлар шариат билан қаноатланиш мумкин эмаслигини ўз даврларидаёқ тушунган бўлсалар, бугун инсониятнинг катта кўпчилигини ташкил этган бутун интеллектуал еалоҳият, эгалари ҳам буни биладилар. Шунинг учун бу ерда интеллект учун фақат икки йўл бор: бири - Худодан воз кечиш, яъни атеизм йўли, иккинчиси- трансцеқцентал илмга эришиш–Ваҳдат йўли. Ҳозирги давр зиёлисида шулардан бирини танлаш эрки бор.

Биз яқин ўтмишимизда биринчи йўлдан юриб кўрдик ва бу йўлнинг кўп ғоялари, гарчи инқирозга учраган бўлса ҳам, ҳамон кўпчиликнинг онгидан ўчмай турибди. Чунки улар ўрнига келадиган арзирли ғоялар ҳали етарлича кенг ва чуқур равишда илгари сурилганича йўқ. Иккинчи йўлни эса бугун ҳали кўпчилик яхши билмайди. Ваҳоланки, айни шу йўл Нақшбандия, Яссавия, Кубровия каби таълимотлар мисолида миллий қадриятларимизнинг гултожи бўлиб келган эди.

Тақдир ва уни ўзгартириш ҳақидаги масалага эса мазкур таълимотларда, яъни эски ва янги, эзотерик ва экзотерик, фалсафий ва илмий билимларда эришган ютуқларни чуқурроқ ўрганиш ва уларнинг диалектик синтезини амалга ошириш орқали жавоб топиш мумкин. Бошқа томондан қараганда, ҳозирги давр кишисини айни шундай жавоб қаноатлантириши мумкин. Чунки, юқорида ҳам қайд этилганидек, у эндиликда кўр- кўрона эътиқод қила олмайди, балки фақат ўз ақли билан тушуниб етган нарсаларигагина ишонишга ўрганиб қолганига кўп бўлди” [14.233].

Саъдуддин Тафтазоний ўзининг «Таҳзиб ал-мантиқ ва ал-калом» асарида инсоннинг хулқ-атворидаги ирода эркинлиги масаласига кенгроқ тўхталади. Унинг фикрича, ҳар қандай олижаноблик ва ҳайрли ишлар ўз табиатига кўра Худонинг моҳиятидан келиб чиқади ва у ҳамма нарсанинг холиқи сифатида ҳайр-шарофатнинг яратганлиги сабабидан инсонларни ёмон хулқ-атвордан тийилиб туришга чорлайди. Ёмон хулқлар, гуноҳлар инсонга хос нарсалар бўлмасдан, улар фақат кишиларни синаш учун яратилгандир. Шундай қилиб, унинг фикрича, Худо–ўз бандаларига икки йўлни «таклиф» этади, яъни шарафли, ҳайрли фаолият кўрсатишни ёки номатлуб машғулотлар билан гуноҳга ботишни, гуноҳга ботиш эса

жазога тортилишни келтириб чиқаради. Мутафаккирнинг таъкидлашича, Худо томонидан кўпроқ инсонларга ҳайрли ишлар қилиш, ғайришаръий ишлар камроқ бўлиши таъкидланади. Қайси йўлни танлаш инсоннинг ўз иродасига боғлиқдир. Шунинг учун Худо ёмон хулқ-атворли инсонларни жазолайди. Ёмон хулқ-атворни қоралаш Худонинг иродасига қарши бориш эмас, чунки ёмонликни ер юзида мавжудлиги инсонларни покликка чорловчи синовдир[15.360].

Бедил заруриятни эътироф этади, коинотнинг қонуниятларини Худо иродасининг шуълаланиши деб билади. У шундай деб ёзди: “Одам ва ҳайвонларнинг қимирлашларидан то зарраларнинг ҳаракатигача ҳаммаси табиий ҳодисалардирки, Аллоҳ иродасининг сирларига ишорадир, буларнинг ҳеч бирининг ихтиёри у сирларнинг устини ёпа олмайди ва маҳфийлик ҳолатида тута оламайди. Бу қудрат занжирининг доимийлиги ҳар бир киши ва нарсани ўз олдида мухтор(эрк эгаси) кўрсатади”. Бедил фикрича, ўз ҳаётини яхшилаш учун инсонда имконият мавжуддир. Бу имконият, унинг нуқтаи назарича, кишининг ҳафсаласи, ҳаракатчан бўлишида, билим ўрганиши ва меҳнат қилишидадир[16.52]. Мирза Бедил юқорида айтиб ўтилган фалсафий фикрларга асосланиб, тақдир ақидаларига қарши курашди. У тақдирга ишониш– дангасалик ва ишёқмаслик оқибатидир, деб билади.

Тақдир ҳақидаги тасаввурларнинг индивидуаллаштирилиши борасидаги йўналишларнинг энг ёрқин намунаси сифатида тақдир инсоннинг ўзига хос, индивидуал ҳаёт йўли деб қаралишини келтириб ўтиш мумкин. Тақдир ғояси фалсафанинг иррациоанл оқимларида ва ноанъанавий фалсафанинг тугаб бораётган романтизм, Ницше таълимоти, ҳаёт фалсафаси, Шпенглер фалсафаси ва бошқа оқимларида ўзгаришга учраган. Жумладан, Ф.Ницше “қисматга муҳаббат” ғоясини илгари суради[17.480]. Унинг ўтмишдоши, иррационал фалсафанинг асосчиси ҳисобланадиган А.Шопенгауэр эса ирода эркинлиги ва зарурат дилеммасини ўрганар экан, ҳеч иккиланмай, заруратни афзал билади.

Шпенглер тақдирни ўзини “англашга”, “таърифлашга”, аниқлашга имкон бермайдиган, балки “ичдан ҳис этиладиган ва бошдан кечириладиган” тушунча сифатида талқин этади. Ғарб диний фалсафаси фатализмни инкор этади. Постмодерн маданияти контекстида “идентификация инқирози” билан алоқадор бўлган “тақдир инқирози” ҳодисаси кузатилади. Шу билан бир вақтда тақдир муаммоси бўйича диалектик нуқтаи назар ҳам ривожланиб боради.

Агар, қадимги даврларда тақдирни фақат ташқи куч сифатида билишган бўлса, XIX асрда, айниқса, XX асрга келиб, инсонда тақдирга таъсир эта оладиган ички олам мавжудлиги кашф этилди. Аммо бу кашфиёт англаб етилмаганлик қиёфасида фатализмнинг янги манбаини очиб берди. Натижада, бир қатор илғор мутафаккирлар инсоннинг англаб етилганлигининг аҳамиятини ва унинг ўз тақдирни ўзи яратиши мумкинлигини исботлаб бериш учун анча заҳмат чекишларига тўғри келди. В.Франкл бу борада муҳим ишларни бажарди. “Агар биз инсонни таърифламоқчи бўлсак, - дейди у, - уни ҳар сафар ўзига берилган таърифдан озод бўладиган мавжудот сифатида таърифлашимизга тўғри келарди (биологик, социологиу, психологик тип сифатида таърифланади); бошқача айтганда, у бир вақтнинг ўзида таърифларга бўйсунган ҳолда, уларни енгиб ўтиб ёки

ўзгартириб, мазкур таърифларни трансцендентлайди" [18.287]. Ушбу ақлга сиғмайдиган ҳолат инсоннинг диалектик характерини белгилаб беради. Кўпдан кўп имкониятлар орасида инсон танловда қочиб қутила олмайди. Инсон эркинлиги тақдир билан мустаҳкам боғланган, чунки у фақат тақдирда ва фақатгина унинг шарофати билан намоён бўлиши мумкин. Биринчи галда, бутун ўтмиш (орқага қайтариб бўлмаслиги боис) тақдирга тааллуқли бўлади. Амалдаги, ҳақиқий (амалга оширилган, бўлган, ўтиб кетган) асл тақдирдир. Шунга қарамай, инсон ўтмишга нисбатан эркиндир, бундан келиб чиқадики, у тақдирга нисбатан ҳам эркин.

Хуллас, инсонда эркинлик бор: ўз ўтмишига ёки фаталистик муносабатда бўлиш, ёки ундан тегишли хулосалар чиқаришдир. Ўтмишни орқага қайтариб бўлмаслиги натижасида у тақдирга айлангани туфайли ҳам инсоннинг эркинлиги эълон қилинади. Тақдир эса ҳар сафар масъулиятли хатти-ҳаракатлар омили бўлиши керак. Дарҳақиқат, инсонинг ички мақсад, йўналишлари тақдир омилларига нисбатан эркиндир. Мақсад, йўлларни қайта кўриб чиқиш–тарбиялаш, қайта тарбиялаш, ўз ўзини тарбиялаш, психотерапия таъсири, динга ишонтириш, тафаккурнинг ўзгариши–мана шу билан изоҳланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қаҳҳорова Ш.Б. Тасаввуфда тақдир ва тадбир муаммоси //"Имом ал-Бухорий сабокдари" маънавий-маърифий, илмий журнал. №2. 2008.–Б. 158.
2. Любищев А. Линии Демокрита и Платона в истории культуры. СПб. Алетейа, 2000. 256 с.
3. Платон-математик. Голос 2011. – 376 с.
4. Аристотель. Категории: С приложением Введения Порфирия к Категориям Аристотеля. Изд.2 Книжный дом ЛИБРОКОМ 2011. 80с.
5. Современная христианская антропология : Опыт философского критического анализа / К.И. Никонов .–М. : Изд-во Московского университета, 1983 . – 184 с.
6. Рациональность иррационального. Под. Ред. В.И.Колосницына Серия Философия религии. Вып.2 Под ред. В.И.Колосницына Екатеринбург Изд.УрГУ 1991. – 224 с.
7. Зеньковский В.В. Христианская философия. Сост. и отв. ред. О. А. Платонов.-М.: Институт русской цивилизации 2010.–1072 с.
8. Джохадзе Д.В. Диалектика эллинистического периода: От стоицизма к неоплатонизму.–М.: ЛИБРОКОМ 2011.–128 с.
9. Древнекитайская философия. В двух томах. Памятники философской мысли.- М. Принт, 1994.-364 с.
10. Кессиди Ф. Гераклит. Серия: Античная библиотека. Исследования. Изд. 3-е, исправ. и дополн. СПб. Алетейя 2004.-217 с.
11. Тазарет Дедегкаев и апории Зенона: биографический очерк. СПб. Роза мира, 2005.–171 с.
12. Гончарова Т.В. Эпикур. Изд.2 М. КомКнига 2010. – 336 с.
13. Августин из Гиппона. Исповедь (новый перевод). Паолине 2008. – 464 с.

14. Қаҳҳорова Ш.Б. Тасаввуфда тақдир ва тадбир муаммоси //"Имом ал-Бухорий сабоқдари" маънавий-маърифий, илмий журнал. №3. 2008.– Б. 233.
15. Корбен Анри. История исламской философии.–М.: Прогресс-Традиция, 2010. – 360 с.
16. Бедил М.А. Куллиет. Ч.3 Ирфон. - Техрон 1376, 52-бет.
17. Ницще Ф. Собрание сочинений. В 5 т.—М.: Азбука, 2011.–480 с.
18. Франкл Виктор Эмиль. Доктор и душа. / Пер. с англ. А.А. Бореев. СПб. Ювента, 1997. - 287 с.

СЎФИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ РИВОЖИДА АЗИЗИДДИН НАСАФИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ

Маматов Мамаджан Ахмаджанович
Фарғона давлат университети профессори в.б., фалсафа фанлари доктори

Аннотация: *Мақола қашқадарёлик буюк мутафаккирлардан бири Азизиддин Насафийнинг илмий ижоди тадқиқига бағишланган. Тасаввуф таълимоти тарихида ўзининг муносиб ўрнини эгаллаган машҳур асарлари таҳлили асосида олимнинг сўфиёна қарашлари ёритилди.*

Таянч сўзлар: *Тасаввуф, олами кубро, олами сугро, олами ғайб, олами шуҳуд, зот, мулк, малакут.*

МЕСТО НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АЗИЗИДДИНА НАСАФИ В РАЗВИТИИ СУФИСТКОГО УЧЕНИЯ

Маматов Мамаджан Ахмаджанович
Профессор Ферганского государственного университетета доктор философских наук

Аннотация: *Статья посвящена исследованию научного творчства одного из великих мыслителей Кашкадарьи Азизиддина Насафий. На основе анализа известных произведений ученого, занимающих особое место в истории суфийского учения освещены взгляды ученого на мусульманскую мистику.*

Ключевые слова: *Суфизм, мир большой, мир малый, мир скрытный, мир свидетельств, сущность, материальный мир, идеальный мир.*

THE PLACE OF AZIZUDDIN NASAFI'S SCIENTIFIC HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF SUFI TEACHING

Mamatov Mamajan Ahmadjonovich
Professor of Fergana state University doctor of philosophical science

Annotation: *The article is devoted to the study of the scientific work of one of the great thinkers in Kashkadarya region of Uzbekistan Aziziddin Nasafi. Based on the analysis of the*

scientist`s famous works occupying a special place in the history of Sufi teachings, the scientist`s views on Muslim mysticism are highlighted.

Keywords : *Sufism, world big, world small, world secretive, world of evidence, essence, material world, ideal world.*

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг Қашқадарё маркази Қарши шаҳрининг 2700 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида ҳам бу табаррук шахслар номига айтилган илиқ сўзлар ҳамон халқимиз ёдидадир [1;70.]. Ўзбекистон, жумладан, Қашқадарё воҳаси жаҳон цивилизациясига салмоқли ҳисса қўшган кўплаб олимларнинг ватанидир. Мисрлик тадқиқотчи доктор Абдуллоҳ Сааднинг "Ўрта Осиё олимлари қомуси", деб номланган китобида номлари зикр этилган машҳур кишилар орасида "Насафий" тахаллуси билан тарихда ном қолдирган кишилардан 22 таси тўғрисида қисқача маълумотлар берилган [2; 362-366.].

Шулардан бири - сўфийлик таълимоти ривожида муҳим роль ўйнаган илмий асарлар муаллифи Азизиддин Насафийдир.

Дарҳақиқат, мутафаккирнинг асарларида"-қадимги юнон фалсафаси, шариат, ваҳдат ул вужуд аҳли ва файласуфларнинг қарашлари таъсири сезилади ва мутасаввифнинг борлиқ ҳақидаги концепцияси ўзига хос тарзда алоҳидалик касб этади.

-мутасаввифнинг борлиққа оид қарашларида олам, айниқса "олами кубро" ва "олами суғро" тушунчаларига махсус эътибор берилган.

-Насафийнинг борлиқ ҳақидаги концепцияси вужуд, жисм, жавҳар, мулк, малакут, қўшилиш, аралашиш, уруж, нузул, алоҳидалик каби тушунчалар билан бойитилган [3; 95.]."

Шунингдек, ўз долзарблигини йўқотмаган, аксинча, бугунги кун жамиятида биринчи галдаги вазифалар қаторида турган "комил инсон ҳақидаги ғоялар катта ижтимоий-ахлоқий аҳамиятга эга бўлади, инсонни шарафли, эзгулик ва Буюк хайр руҳида тарбиялаш, меҳру муҳаббат, вафо ва садоқатни кучайтиришга хизмат қилади. Ҳар замон, ҳар лаҳзада инсонларга уларнинг инсонлигини эслатиб, ёвуз, қабиҳ, ишлар, ножўя қилиқлардан сақланишга кўмаклашади, иймон ва виждон биносининг пойдор бўлишини таъминлайди [4;138.]."

Азизиддин ибн Муҳаммад Насафий 1240 йилда Насафда (Қарши шаҳрининг қадимги номи) туғилган, деб тахмин қилинади. Насафий 1330 йилда Эроннинг Язд вилояти Абиркуҳда вафот этган. Айрим манбаларда у 100 йил умр кўрган деб қайд этилган.

Илм-маърифатга беҳад қизиққан Насафийнинг ёшлик даври Хоразмда ўтган. Мўғуллар истилоси даврида Бухоро, Баҳробод, Исфахон ва Шерозда яшаб, замонасининг буюк мутафаккирлари билан мулоқотда бўлган, ўзига яқин маслакдошлар билан ижодий ҳамкорлик қилиб, мухолифлари билан мунозаралар олиб борган.

Аллома араб ва форс тилларида нодир асарлар ёзиб қолдирган. Унинг қўлёзмалари бугунги кунгача жаҳоннинг турли илмий марказларида, жумладан,

Тошкент давлат Шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари марказида ҳам сақланиб келмоқда.

Насафийнинг асарлари дунёнинг кўплаб тилларига таржима қилинган. Жумладан, баъзилари таниқли олим, профессор Н.Комилов томонидан ўзбек тилига ўгирилган. Булар орасида Насафийнинг 22 та рисоладан иборат “Инсони комил” тўплами алоҳида маънавий ва тарбиявий аҳамиятга эга. Ундаги “Баёт ут-танзил” асари ирфон ва ҳикмат масалаларига бағишланган бўлса, “Мақсад ул-ақсо” (Сўнгги мақсад), “Зубдат ул-ҳақойиқ”, (Ҳақиқатлар қаймоғи), “Усул ва фуруъ” (Илдизлар ва бутоқар), “Мабдаъ ва маъод” (Асл макон ва (унга) кайтиш), “Мифтоҳ ул-асрор” (Сирлар калити), “Нафси инсоний”, “Вахдати вужуд” рисолалари инсон ва оламнинг уйгунлигига оид таълимот талқин этилган бутун бир туркумни ташкил қилади.

Тарихий-фалсафий адабиётларда Насафийга гоҳ калом тарафдори, гоҳ, перипатетиклар, гоҳ, сўфийлик ғояси - ягоналик тарафдори сифатида қаралади. Бу эса муаллифнинг тадқиқот объектларига холисона ва илмий ёндашганлигидан дарак беради. Фалсафа, теология, сўфийликнинг ўзаро боғлиқлиги тўғрисидаги ғоялар Азизиддин Насафийнинг “Зубдат ул-ҳақойиқ” асари, “Кашф ал-ҳакойик”, “Инсони комил" рисолаларида ўз аксини топган.

Жумладан, “Ваҳдати вужуд” асарида теологиянинг энг муҳим масалалари қамраб олинган. Шу жиҳатдан, Насафийни Ибн Арабийнинг маънавий маслакдоши деса ҳам бўлади. Асарда илоҳиётшуносликнинг учта асосий оқими изоҳлаб берилади: биринчиси-асл шариатга мойиллар (аҳли шариат), иккинчиси - асл ҳикматга мойиллар (аҳли ҳикмат), учинчиси эса - асл вахдат (аҳли ваҳдат) йўллари, анъаналаридир.

Насафий ўзининг Бирлик (аҳли вахдат) тарафдори эканини "Зубдат ул-ҳакойиқ" асарида баён этган.

“Зубдат ул-ҳақойиқ” икки кисмдан иборат бўлиб, биринчисида макрокосмос, иккинчисида одам ҳақида сўз юритилади [5; 43.].

Теологиянинг барча асосий масалаларини назарда тутиб, ва уларнинг ҳар хил талкинларини келтириб, аллома мусулмон илоҳшунослигининг яхлит мажмуасини яратди. Кейинчалик китобнинг учинчи қисмини ёзиб, “Солик ва сулук ҳақида”, деб номлади ва учала қисмда олам, одам ва йўл ҳақидаги тушунчаларни яхлит тарзда изоҳлаб берди.

Азизиддин Насафийнинг диний-мистик қарашлари энг муҳим масалаларни, биринчи навбатда, “олами куброни билиш” таълимотини ўз ичига олади. У шундай деб ёзади: "Бир гуруҳ дарвешлар бу фақирдан олами кубро ва олами суғро ҳақида, мабдаъ ва маод ҳақида бир рисола битишимни ва унда мабдаъ (бошланиш) хилма-хилми ёки биттами, ҳар бирининг маъоди (қайтиши) хилма-хилми ёки биттами, нузул ва уруж нима, аввал бошда нузул бўлиб, кейин уруж бўлганми ёки аввал уруж, сўнгра нузулми деган масалаларни тушунтириб беришимни илтимос қилдилар. Улар яна барча илм аҳли фикр-мулоҳазаларини холисона баён этиб беринг, бирортасини ҳам афзал ҳисобламай, нима деган бўлса, шуни келтиринг деб,

сўрадилар. Мен уларнинг илтимосини қабул қилиб, сўраган нарсаларини бир жойга тўпладим [6; 4.]."

Азизиддин Насафийнинг диний-мистик дарашлари энг муҳим онтологик масалаларни, биринчи ўринда "олами куброни билиш" таълимотини ўз ичига олади. "...Олам зот ва сифатларнинг исмларидан иборатдир. Зот (жавҳар) ва сифатларни жамлаб, олам дейдилар ва зот билан сифатларнинг ҳар бирининг кўриниши ҳам олам деб номланади. Олам ўзининг аввалида икки қисмдан иборат: биринчи қисмини олами ғайб (яширин олам), иккинчи қисмини олами шуҳуд (кўринадиган) деб айтадилар. Булар икки оламни миқдорий ва куллий (умумий, яхлит) маъноларда турли номлар билан тилга оладилар. Масалан: холиқият олами ва ажр олами, мулк олами ва малакут олами, жисм олами ва руҳ (жон) олами, ҳислар олами ва шуур олами, нур олами ва соя (зулмат) олами ва шу кабилар. Бу номлар ҳар икки олам-олами ғайб ва олами шуҳудга ишорадир [6; 5.]",-деб ёзади А.Насафий.

Шарқ арастучилари асосан антик атомпарастлар далилларини келтириш билан чекланардилар, Калом атомизми билан антик атомизм ўртасидаги фарққа етарли эътибор бермасдилар [7; 13.]. Бу қарашларга суфийлар қарши чиқиб, Аллоҳ, табиат ва инсон бирлиги ғоясини қатъий ҳимоя қилганлар. Шу борадаги баҳснинг моҳияти Насафийнинг қуйидаги фикрларида ўз ифодасини топган: "Бирламчи ҳаюло сурат ва шакллар кирадиган жавдардир. Ҳаюло тўрт қисмдан иборат. Масалан, темир ва дарахт жавҳарнинг моҳияти бўлиб, кўп шакл ва суратларни олиши мумкин... Ваҳдат аҳлининг фикрича, гарчи ҳар икки оламнинг ҳақиқати-ваҳдати соф (соф ягоналик) бўлсада, аммо у ҳар бир молик бўла оладиган сифатда ва қобил бўлғучи ҳар бир суръатда таърифлана олади: ушбу сифат ва ушбу суръат фақат айни сифатнинг даражаси ва айни суръатнинг даражасида комилликка эришиши мумкин. Унинг фазилатининг такомили мана шунда [6; 27-28.]."

Руҳ ва жон, борлиқ ва уни билиш тўғрисидаги қарашлар сўфийларнинг асарларида кенг ўрин эгаллайди. Насафий ҳам бу диний-фалсафий мавзуга жиддий эътибор қаратган. Вужуд Аллоҳнинг ўзи эканлигини таъкидлаган, олам унинг ботиний вужуди нурдир ва у нур ўша олам жонидир, унинг боши ҳам, охири ҳам, чегараси ҳам йўқ деб уқтиради.

Илодий нур концепциясининг баёнида комил инсон мавзуси - инсоннинг ўзини ўзи англаши, ҳалоллик поклик илмга эришиш, риёзат чекиш каби бир қанча сўфиёна қарашлар юзага чиқади.

"Борлиқ фақат битта ва у Субҳонаҳу ва таоло парвардигори оламнинг вужудидир. Субҳонаҳу ва таоло вужудидан бошқа вужуд йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас... Бу ягона вужуднинг (борлиқнинг) ботини нурдир ва у оламнинг жонидир ва бу нур ўзини дарчалар орқали зоҳир этади, ўзи айтиб, ўзи эшитади, ўзи бериб, ўзи олади, ўзи тасдиқлаб, ўзи инкор этади."

"Эй дарвеш, - деб ёзади Насафий,-ушбу нурга етишганда, унга оят-аломатлар берилади. Биринчи аломат шуки, у ўзини кўришдан тўхтайди, токи у ўзини кўрар экан, махлуқот касрати сақланган бўлади, токи у касратни кўрар экан, у вадҳат аҳлидан эмасдир".

Улуғ мутафаккир нарсаларнинг ички моҳиятини қалб кўзи билангина идрок этиш мумкинлигига эътиборни қаратади. Бодом данагида ёғни кўриш мумкинми ёки сут (таркибидаги) ёғини кўз билан кўрса бўладими? - деб, савол беради ва ёғ ҳатто сезгилар орқали қабул қилиниб, мулк олами (моддий олам) га мансуб булганда дам уни куриш мумкин эмас, дея ўзи жавоб беради. Ушбу фикрларини давом эттириб, аллома "Ўзидан бошланиб, ўзига қайтади" ёки "Ҳамма нарса ўз аслига қайтади", - деган ғояни эътироф этади.

У инсон жисм ва руҳдан иборат дейди. Олимнинг таъбирича, одам борлиқ мевасидир. Вужуд силсиласининг мартабалари унинг хизматида. Олам яратилиши, барча улуғлиги ва азаматлиги билан бир инсондек. Одам ёлғиз ҳолда барча оламларнинг жамловчисидир [6; 46.]. Донишманд катта (макро) ҳамда кичик (микро) олам ҳақидаги фикрларини хулосалаб, Тангри таоло инсонни ўз тимсолида яратди, бизнинг ақлимиз Тангрининг кичик оламдаги халифасидир, дейди.

Унинг "Зубдат ул-ҳакойиқ" китоби макрокосм - олам тўғрисида ҳамда микрокосм-одам тўғрисида. Теологиянинг барча асосий масалаларини назарда тутди ва уларнинг хар хил талқинларини келтириб, у мусулмон илоҳиётшунослигининг яхлит бир мажмуасини яратди. Мутафаккирнинг ўз китобининг учала қисми (олам, одам ва йўл ҳақида) ҳам битта нарсани билдиради деган сўзларини шундай талқин қилиш мумкин: одам ва оламнинг ҳакикатан ўхшашлиги намойиши, олами куброни ҳақиқий билиш олами суғрони (инсонни) ҳакиқий билишга, ўзини-ўзи ҳақиқий билиш Аллохни билишга олиб келади. Бундан кўриниб турибдики, рисола таркиби равон ва яхлит бўлиб, барча асосий масалаларни қамраб олган. Насафий олам иборасининг ўзини диалектик йўл билан, қарама- қаршиликлар бирлигида ифодалаган. Бизнингча, бунда Насафийга аввалги сўфийларнинг билиш назарияси тўғрисидаги карашлари таъсири сезилади. Масалан, Ғаззолий ақлнинг чегараланганлиги ва ҳис қилиш орқали олинган билимнинг ҳақиқийлиги тўгрисидаги фикрни қўллаб- қувватлайди. Унинг шубҳа килиш билишнинг синалган йўли тўғрисидаги фикрлари бундан далолат беради [8; 68.].

Насафий ўз билиш назариясида оламни билишда ҳис қилиш аъзоларининг инсон амалий ҳаётидаги ўрнини исботлайди. Насафий тасаввуф таълимоти асосий белгиларини шундай тавсифлайди:

Катта одамда нимаики бўлса, кичкина одамда ҳам мавжуд, нимаики кичкина одамда бўлса, у катта одамда ҳам бор.

Тасаввуфнинг умуминсоний, этник эстетик ғоялари яшовчан, ҳаётбахш бўлиб, сўфийликнинг олий мақсади-комилликка эришишдир. Комил инсон ғояси эса - "ҳам миллий, ҳам умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзотга хос энг юксак маънавий ва жисмоний баркамолликни мужассам этган, уни ҳамиша эзгуликка ундайдиган олижаноб ғоядир [9; 15.]."

Азизиддин Насафийнинг маънавий устози Ибн Арабийнинг фалсафий антропологиясида комил инсон муаммоси марказий ўрин эгаллайди. "Инсони комил",-бу уни Аллоҳ қандай яратган бўлса шундай шахс. Борликда илоҳий сифатлар алоҳида-алоҳида намоён бўлса, инсонда улар жамланган, чунки инсон

олам ва Аллоҳ ўртасидаги восита. Шундай қилиб, комил инсон борликнинг барча оламга тегишли ташқи сифатларини ҳамда илоҳий ички сифатларининг қирраларини ўзида мужассамлаштиради.

Маънавий устозининг фикрларини ривожлантириб, Насафий ўз асарларида қимматли гуманистик имкониятларни бирлаштирганлиги учун ҳам ҳозирги замон ахлоқ меъёрларини сақлаб қолиш, уларни янада сайқаллаштириш ва комил инсон тарбиясида муҳим роль ўйнайди.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган демократик жараёнлар натижасида фуқароларнинг эътиқодига муносабат ҳам либераллашгани учун тасаввуф тўғрисида аниқ тасаввур ҳосил қилиш ва бу таълимот ўз тарихи давомида комил инсон шахсини шакллантириш бўйича орттирган ижобий тажрибасидан ҳозирги замон тарбия жараёнида фойдаланиш мумкин.

Мутафаккирнинг инсон тарбияси тўғрисидаги фикрлари кенг камровли ва эътиборлидир. Мусаффо сув ҳақида билмаган қуш умри давомида тумшуғини шўр сувда ушлаб туради, олдига тоза сув қўйилганида ҳам, ўзи ичиб келган ўша сувни истеъмол килаверади, дейди у. Демак, инсонни тарбиялаш, уни болаликдан оламнинг мунаввар жамоли ва инъомлари билан таништириш зарур.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Азизиддин Насафийнинг сўфиёна фалсафасида илоҳиёт таълимоти устун туради. Шу билан бирга, унинг ғоявий қарашлари инсон, табиат ва Аллохнинг бирлиги, микрооламдаги инсон фаолиятининг аҳамияти, ақл ҳақидаги фикрлар, дунёни билиш мумкинлиги тўғрисидаги қарашлар билан уйғунлашиб кетган. Азизиддин Насафий ўз даврининг кўпгина донишмандлари каби Аллоҳни мутлақ эркин, ирода ва амалиётни эса унинг сифатлари деб ҳисоблайди. Инсонга илоҳий ирода берилганини, инсон бахти Аллоҳдан эканлигини таъкидлар экан, бахт - бу инсон амалиёти ва иродасидир, дейди.

Буюк юртдошимизнинг узоқ мозийдан бизгача етиб келган илмий меросини ўрганиш ўзбек фалсафаси тарихини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Унинг ўзига хос талкинлари, холисона илмий тахлил қилиш, у ёки бу ёндашувларга ўзининг мустақил фикрини баён қилиш маҳорати бугун ҳам таҳсинга лойиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Муаззам ва мукаррам шаҳар шодиёнаси. Асарлар тўплами. Т.15. - Т.: Ўзбекистон, 2007. - Б. 70.
2. Саад А.А. Ўрта Осиё Олимлари қомуси. - Т.: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази нашриёти, 2007. - Б. 470.
3. Нарзиев З. Азизиддин Насафийнинг борлиқ ҳақидаги қарашлари. Фалсафа ва тасаввуф: маърифий дунёқарашни шакллантириш муаммолари ва ечимлари. мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари тўплами. - Бухоро: 2019.
4. Комилов Н. Тасаввуф. - Т.: Моваруннаҳр-Ўзбекистон, 2009. - Б. 448.
5. Маматов М.А. Тасаввуф таълимотининг тарихий-фалсафий моҳияти. - Т.: Халқаро ислом академияси. Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018. - Б. 2.

6. Насафий Азизиддин. Зубдат ул-ҳақойик. - Т.: Камалак. 1996.
7. Камиль И.Т. Атомистика в исламе и её место в средневековой арабо-мусульманской философии.- М.: МГУ, 1978.
8. Суфизм в контексте мусульманской культуры. - М.: Наука, 1989. - С. 331.
9. Ҳожиматов М.М. Энг улуғ, энг муқаддас мақсад баркамол авлод тарбиясидир. Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маънавий-мафкуравий асослари. мавзуидаги Республика илмий-услубий конференцияси материаллари. - Т.: Муҳаррир, 2010.
10.

ЖАМИЯТИМИЗ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИТИДА ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН (ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИЛГАН) ФАОЛЛИГИ

Ғаниев Баҳодиржон Содиқжонович
Фарғона давлат университети Фуқаролик жамияти
кафедраси мудири, фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мақолада мамлакатимизда амалга оширилаётган Ҳаракатлар стратегиясини амалга ошириш жараёнида жамиятда хотин-қизларнинг инновацион, ижтимоий тараққиётдаги фаоллигини оширишнинг назарий, амалий аҳамияти тадқиқ қилинган. Ушбу жараёнда малакали кадрларнинг маънавий, ахлоқий, тадбиркорлик ва сиёсий маданиятини юксалтиришдаги аҳамияти таъкидланган. Муаллиф Ҳаракатлар стратегиясини ва Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан илгари сурилган муҳим беш ташабусни мустақил ўрганишнинг хотин-қизлар тафаккурида мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳатларнинг туб мазмунини, мақсадларини ва амалга ошириш механизмларини англашда, гендер сиёсатининг ўрни, уларнинг ислоҳатлардаги фаоллигини оширишга эътибор қаратган.*

Калит сўзлар*: хотин-қизлар, мутахассислар, ҳаракатлар стратегияси, беш ташаббус, янги босқич, фуқоралик жамияти, тадбиркорлик.*

ИННОВАЦИОННАЯ (НАПРАВЛЕННАЯ НА ПРЕДРИИМЧИВОСТЬ) АКТИВНОСТЬ ЖЕНЩИН НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ НАШЕГО ОБЩЕСТВА

Ганиев Баходыржан Содыкжанович
Ферганский государственный университет заведующий кафедрой Гражданского общества, доктор философии (PhD)

Аннотация: *В статье исследованы теоретические и практические значения увеличение инновационной активности женщин в условиях социального развития, а также воплощения в жизнь стратегии. В данном процессе также отмечается значение возвышение духовной, этической, предприниматель-ской и политической культуры у высококвалифицированных специалистов. Автор проанализировал состояние данного вопроса с учетом претворения в жизнь и осознания со стороны женщин основанных*

положений стратегий Действий и пяти важных инициатив Президента Республики Узбекистан, о роли гендерной политики, повышение их активности в проводимых реформах.

***Ключевые слова**: женщины, кадры, стратегия действий, пять инициатив, новый этап, гражданское общество, предпринимательство.*

INNOVATIVE (ENTREPRENEURIAL) ACTIVITY OF WOMEN AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT OF OUR SOCIETY

Ganiyev Bahodirjon Sodikjonovich
Fergana state University head of the Department of Civil society, doctor of philosophy (PhD)

***Abstract:** the article investigates the theoretical and practical implications of increasing innovative activity of women in terms of social development, as well as the implementation of the strategy. This process also highlights the importance of raising the spiritual, ethical, entrepreneurial and political culture of highly qualified specialists. The author analyzed the state of this issue taking into account the implementation and awareness on the part of women of the basic provisions of the action strategies and five important initiatives of the President of the Republic of Uzbekistan, the role of gender policy, increasing their activity in the ongoing reforms.*

***Keywords:** women, personnel, action strategy, five initiatives, new stage, civil society, entrepreneurship.*

Ўзбекистоннинг янги тараққиёт босқичида хотин-қизларнинг ижтимоий-иқтисодий ислоҳатлардаги, демократик жараёнларни чуқурлаштиришдаги, фуқоралик жамияти институтлари фаолиятини юксалтиришдаги ўрнига муҳим аҳамият берилди. Хотин-қизларнинг жамият ижтимоий тизимида умимий сони ошиб бораяпти ва ҳозирги даврда улар мамлакат аҳолисининг 51% дан ошиғини ташкил этади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида хотин-қизлар ва эркакларнинг тенг ҳуқуқлиги алоҳида қайд этилган. Бундай ҳуқуқий эътироф хотин-қизларнинг маънавий маърифий ишлардаги ва тадбиркорлик соҳасидаги, умуман ижтимоий тараққиётдаги фаолиятини юксалтириш учун асос ҳисобланади. Демократик туб ислоҳатлар даврида хотин-қизларнинг мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётидаги ўрнига алоҳида эътибор берилди. Давлатимиз рахбари томонидан: “хотин-қизлар ва ёшларни давлат томонидан ижтимоий қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш лозим” лиги алохида такидланган [2.1.].

Мазкур соҳада Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Раисининг хотин-қизлар бўйича ўринбосари вазифаси жорий қилинди. Давлат раҳбарининг ташаббуси билан Сенатда янги-Хотин-қизлар ва гендер тенглик масалалари бўйича қўмита тузилди [3.1.]. Сенат раиси лавозимига Танзила Нарбоева сайланди. Ўзбекистон тарихида илк маротаба Сенат Раиси лавозимига аёл киши муносиб кўрилди. Давлатимиз раҳбари ташаббуси билан биринчи марта аёл номзоди юқори

давлат лавозимига кўтарилди ва давлат бошқарувида аёллар ўрни янада мустаҳкамланди. [5.1.] Вилоят ва туманларда хотин-қизлар бўйича ҳоким ўринбосарлари фаолият юритмоқда. Мамлакатимизда хотин-қизларнинг ижтимоий, маданий ва иқтисодий жараёнлардаги ўрни масаласини илмий, амалий асосда ўрганиш мақсадида "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази ташкил этилган. Сайлов қонунчилигимизда парламент ва маҳаллий Кенгашларга бўладиган сайловларда хотин-қизлар орасидан кўрсатиладиган номзодлар бўйича 30% квота белгиланганлигига қарамай, бугунги кунда депутатликка сайланган аёллар сони бу кўрсаткичдан анча паст. Шу боис жорий йилда Олий Мажлис ва маҳаллий Кенгашларга бўлиб ўтадиган сайловларда сиёсий етук ва ташаббускор аёлларни сайлаш масаласи ҳам эътиборда бўлади [6.1.].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллигини оширишда муҳим роль ўйнайди [7.1.]. Хотин-қизларнинг ёшлар ўртасида фаол фуқаролик позициясини шакллантириш, жамиятда миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган демократик тамойилларни қарор топтиришда муҳим ўрин эгаллайди. Хотин-қизлар оила, маҳалла, таълим муассасалари ва меҳнат жамоаларида ижтимоий-маънавий муҳитни ўрганиш ва соғломлаштиришга қаратилган фаолиятда иштироки билан муҳим аҳамиятга эга бўлган амалий ишларни бажараяпти. Мамлакатимизда, глобаллашув, ахборот хуружлари кучайиб бораётган даврда ижтимоий ҳаётда намоён бўлаётган, миллий менталитетимизга зид бўлган салбий ҳолатларни олдини олишдаги ва "Жаҳолатга қарши маърифат" ғояси асосида жамиятда узлуксиз маънавий-маърифий тарбия ва тарғибот-ташвиқот ишларини олиб боришдаги фаолияти, ёшлар орасидаги тарбия ишларининг таъсирчан, креатив ва инновацион услубларини ишлаб чиқиш жараёнида ва уни тобора юксалтиришда асосий роль ўйнамоқда.

Шу билан биргаликда хотин-қизлар жамиятнинг фаол аъзоси сифатида, мамлакатимизда ҳукмрон бўлган тинчлик ва осойишталикка, унинг барқарор тараққиётига, миллий ва умиминсоний қадриятларга ҳамда инсонпарварлик ғояларига хавф солувчи турли ички ва ташқи таҳдидларга қарши самарали тарғибот ишларини олиб боришмоқда. Ҳаракатлар стратегиясида таъкидланган муҳим вазифани амалиётдаги ижроси, яъни аҳолининг ижтимоий-маънавий ҳаётида бунёдкорлик ғояларини кучайтириш, диний бағрикенглик ва миллатлараро тотувлик муҳитини мустаҳкамлашда ҳам хотин қизлар муҳим вазифани бажаради. Демократик ислоҳатлар чуқурлашаётган шароитда, ёшлар орасида олиб борилаётган маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини янада ошириш, аҳолининг интеллектуал салоҳияти ва дунёқарашини юксалтиришга, мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлашда хотин-қизлар етакчилик қилмоқдалар.

Фуқоралик жамияти риожланиши шароитида аёллар бола тарбиясида миллий тарбия методлари ва замонавий педагогиканинг илғор ютуқларидан самарали, илмий асосда фойдаланишда муҳим роль ўйнайди. Шу билан биргаликда фуқоралик жамияти институтлари орқали ёшлар орасида маънавий тарбияни

шакллантиришда оила, таълим муассасалари, маҳалла, оммавий ахборот воситалари ва бошқа ижтимоий тузилмалар ўртасида самарали, ижодий ҳамкорликни кучайтириш механизмларини такомиллаштиришда ҳам аёлларнинг билими, тажрибасига таяниш кутилган натижани беради. Ҳозирги даврда хотин-қизлар болалар боғчалари, мактаблар, академик лицей ва касб ҳунар коллежлари, тиббиёт муасасаларидаги асосий вазифаларни бажаради ва ходимлар орасида кўпчилликни ташкил қилади. Янги ривожланиш босқичида мамлакатда олиб борилаётшан ислоҳотлар натижасида ижтимоий ва иқтисодий соҳаларда хотин-қизларнинг фаоллиги кузатилмоқда. Фуқоралик жамияти ривожланиши шароитида хотин-қизларни ижтимоий ҳимолашга, шахсий қобилиятини оила, жамият ва касб фаолиятида тўлиқ рўёбга чиқаришида кўмаклашишга эътибор берилмоқда. Бунинг самарасида иқтисодий фаол аҳоли таркибида аёллар улуши 45,7 % ташкил этмоқда. Соғлиқни сақлаш ва ижтимоий хизмат кўрсатиш соҳасида уларнинг улуши 76,6 %, таълим соҳасида 75,6 % ташкил этади, яъни 10 нафар ходимнинг 7 нафари хотин-қизлар ҳисобланади [8.1.].

Бугунги кунда мактабгача таълим муасасалари ривожига эътибор қаратилди. Ҳозирги даврда мамлакатимиздаги 9 774 та мактабгача таълим муассасасида 1 миллион нафардан зиёд болаларга 81 мингдан ортиқ педагог-ходим таълим ва тарбия бериб келмоқда. Педагог-ходимларнинг аксарияти ёки қарийб 70 % ўрта махсус маълумотга эга бўлгани учун вазирлик томонидан болалар боғчаларини босқичма-босқич олий маълумотли кадрлар билан таъминлаб бориш ишлари олиб борилмоқда. Хусусан, вазирлик таклифига биноан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июндаги “2019-2020 ўқув йилида Ўзбекистон Республикасининг олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилишнинг давлат буюртмаси параметрлари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ ушбу мақсадларга бакалавр босқичининг кундузги, кечки ва сиртқи таълим шаклларига жами 6400 тадан зиёд квоталар ажратилди [9.2.]. Соҳадаги ислоҳотлар натижасида нодавлат мактабгача таълим муассасалари сони кўпайди ва ҳозирги кунда 3942 та нодавлат мактабгача таълим муассасаси мавжуд бўлиб, улар фаолиятини янада рағбатлантириш мақсадида бундай фаолият турини амалга ошириш ҳуқуқини берувчи лицензия Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 29 апрелдаги тегишли қарори билан чекланмаган муддатга бериладиган бўлди [9.2.].

Жамиятимизда ижтимоий-маънавий муҳитини илмий асослаш ва манзилли соғломлаштириш методикасига доир лойиҳаларни ишлаб чиқишга кенг эътибор қаратилмоқда. Шу мунособат билан туманлар ва маҳаллардаги ижтимоий-маънавий муҳит ҳолатини хонадонма-хонадон юриб аниқлаш, тизимли мониторинг ва таҳлил қилишда замонавий ахборот-коммуникация воситаларидан самарали фойдаланиш имкониятлари шакллантирилди.

Хотин-қизларнинг педагогик, илмий, ташкилотчилик, тарбия ишини уюштириш маҳорати, тадбиркорлик кўникмасидан ёшларнинг мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлашга йўналтирилган инновацион методларни яратиш, илмий-амалий дастурларни амалиётга жорий этиш механизмларини

такомиллаштиришда фойдаланиш маънавий маърифий ишлаарнинг самарадорлигини таъминлашда муҳим омиллардан ҳисобланади.

Фуқоралик жамияти ривожланишида, ушбу жараёндаги муҳим вазифа, инсон омилини таъминлашда оила институти муҳим ўрин эгаллайди. Шунинг учун ҳам оила институтини мустаҳкамлигини таъминлаш зарурияти мавжуддир. Оиладаги муҳит болалар тарбиясидаги асосий омил ҳисобланиб, келажакда уларнинг муносиб шахс сифатида шаклланишида, мамлакатда олиб борилаётган яратувчилик, ишбилармонлик фаолиятининг фаол иштирокчисига айланишини таъминлайди. Шунингдек оиладаги самимий, ўзаро ҳурмат, ота-онанинг болалар келажаги учун қайғуриши уларнинг чинаккам ватанпарвар сифатида шаклланишига ёрдам беради. Оиладаги болаларга бўлган меҳр-муҳаббат, уларнинг орзуларини рўёбга чиқаришга, ота оналарнинг бевосита ижтимоий ёрдами, уларда мавжуд бўлган ижодий қобилиятларнинг ёшлик даврида аниқлашга ёрдам беради. Жумладан, китобхонлик, спорт, мусиқа, рассомчилик ва бошқа ижод турлари бўйича болаларнинг интилишларини оилада қўллаб-қуватланиши тарбия жараёнида, болаларнинг аҳлоқий, маънавий камолотида кутилган натижаларни бериши Ўзбекистон Республикаси Президентининг муҳим беш ташаббусида алоҳида таъкидланади [10.1.]. Хотин-қизлар оарасида спортни янада оммадаштириш мақсадида Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги, унинг ҳудудий бошқармалари томонидан “Таълим муассасалари ҳафталиги”, “Хотин-қизлар ҳафталиги”, “Маҳалла ҳафталиги”, “Нуронийлар ҳафталиги”, “Ёшлар ҳафталиги” каби шиорлар остида спорт мусобақалари ташкил этилган [11.2.]. Хотин-қизлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар, жумладан, жиноятчилик, одам савдоси, оилавий ажримлар, эрта никоҳлар, ўз жонига қасд қилиш каби ҳолатларининг олдини олиш ҳам муҳим ишлардан саналади [6.1.]. Амалга оширилган тадбирларга қарамасдан оилаларрда нотинчлик, ҳатто ота-оналарнинг ажралиш ҳолатлари ҳам мавжуддир. Таъкидлаш лозимки, оилавий ажримларнинг асосий сабабини эр ва хотиннинг оилавий ҳаётга тайёр эмаслиги ташкил этмоқда. Оилавий ажримларга қуйидагилар сабаб бўлмоқда: 43,3 % - эр-хотиннинг оилавий ҳаётга тайёр эмаслиги; 24,5 % - моддий етишмовчилик; 12,6 % - характерларнинг мос келмаслиги; 10,3 % - бир-бирига бефарқлик; 5,5 % - жавоб беришга қийналаман; 3,8 % - гиёҳвандлик ва ичкиликбозлик. Айнан ёш оилаларнинг бузилишига эса 41 % ҳолатларда характерларнинг тўғри келмаслиги, 13 % ҳолатда бефарзандлик, 15 % моддий қийинчиликлар, 34 % учинчи шахс аралашуви, 25 % зарарли одатлар сабаб бўлган [12.2.]. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш харакатлар стратегиясида қайд қилинганки, “фуқаролардан келиб тушаётган кўплаб мурожаатлар ва уларда кўтарилган масалалар бўйича бюрократик тўсиқ ва муаммоларни бартараф этиш юзасидан зарур амалий чора-тадбирлар кўриш, фуқаролар ва юридик шахсларнинг мурожаатлари, муаммоли масалаларни пайсалга солмасдан, имкон қадар тезкўриб чиқиш ва ҳал этишга” эришиш зарур [3.2.]. Таъкидлаш лозимки 2018 йилда турли давлат ва нодавлат ташкилотлари ҳузурида ташкил этилган “ишонч телефонлари” орқали мажбурий меҳнатга жалб этиш масалалари бўйича 2 минг 135 та мурожаат

келиб тушган, одам савдоси жиноятига учраганларнинг 71 % аёллар, ҳар учинчисини болалар ташкил этади [13.1.].

Мамлакатдаги оиладаги фаровон ҳаёт маънавий-ахлоқий қадриятлар ва болаларни тарбиялаш, оиладаги қулай психологик муҳит, хотин қизларнинг таълим олиши, моддий таъминланганлик, саломатлик ҳолати муҳим кўрсаткичлар қаторига киради. Шунинг учун, 2019 йилнинг якунига қадар 17 та илмий-амалий тадқиқот ўтказиш кўзда тутилган. Хусусан, халқаро тажрибани ўрганиш асосида Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан ҳамкорликда оилаларни ночор аҳволдан олиб чиқиш бўйича "АКТ орқали оилаларни мустаҳкамлаш" янги инновацион дастури ишлаб чиқилган. Таъкидлаш лозимки, Самарқанд, Хоразм, Фарғона ва Қорақалпоғистонда Тошкент Ахборот теънологиялари университетининг филиаллари базасида 150 нафар эркак ва аёллар ўқитилди. Ўқув курслари натижасига кўра, эгалланган кўникмалар тингловчиларни ишга жойлашишда ёрдам берди. Республика бўйича 74 та туман, шаҳарларда ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашни мақсад қилувчи "Бўлғуси келин-куёвлар инновацион мактаблари" фаолияти йўлга қўйилган [11.1.].

Хотин-қизларнинг ижтимоий ҳаётда ўз ўринини муносиб эгаллашида аввало уларнинг бандлигини таъминлаш муҳим аҳамият эга. "Бу борада жорий йилда кўрилган амалий чораларга қарамасдан, ҳалигача оғир турмуш шароитида яшаб, иш билан таъминланмаган 13 мингдан зиёд хотин-қизлар борлиги ачинарлидир" [2.2.]. Айниқса уларни тадбиркорликга жалб этиш, ижтимоий ҳаётда муҳим ўрин эгаллайдиган бандликни таъминлаш, ички ва ташқи бозорга мамлакатимиз бренди билан тоарлар ишлаб чиқаришда муҳим аҳамиятга эгадир. Шунинг учун ҳам, фуқоралик жамияти ривожланиши даврида Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Хотин-қизлар қўмитаси, Савдо-саноат палатаси, маҳаллий ҳокимият органлари билан ҳамкорликда хотин-қизларни ишга жойлаштириш ва тадбиркорликка жалб этиш бўйича бир қатор тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан, 2019 йилда ижтимоий ҳимояга муҳтож 24,7 минг нафар аёл, жумладан, таълим муассасаларини битирган қизлар, кичик ёшдаги болали аёллар, ёлғиз оналар ҳамда 14 ёшгача ва ногирон фарзандлари бор аёллар махсус захираланган иш ўринларига ишга жойлаштирилган [8.1.].

Ёшлар билан ишлашни самарали ташкил этиш мақсадида маданият, санъат ва спортга, ахборот технологияларидан фойдаланишга, китоб ўқишга қизиқишни оширишга қаратилган 5 та муҳим ташаббус доирасида ҳудудларда ташкил этилаётган тикув-трикотаж корхоналари ташкил этилди. Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси томонидан шакллантирилган 24 421 нафар ишсиз ва банд бўлмаган хотин-қизнинг 9 864 нафари ҳудудлардаги касб-ҳунар коллежларининг ўқув базасида тикув-трикотаж йўналиши бўйича қисқа муддатли ўқув курсларида касб-ҳунарга ўқитилган [8.1.]. Таҳлиллар кўрсатадики, мазкур йўналишда муайян камчиликлар ҳам мавжуд. Жумладан, амалдаги қонунчиликка мувофиқ меҳнат муносабатларида гендер тенглик белгиланган бўлишига қарамасдан, меҳнат бозорида хотин-қизлар муносиб ўрин эгаллаши учун ишга солинмаган имкониятлар бор. Хусусан, транспорт, қурилиш, саноат соҳаларда аёллар иштироки жуда камчилликни

ташкил қилади. 2019 йилда ўтказилган ўрганишлар давомида ишга қабул қилишда гендер нуқтаи назардан 274 та қонунбузиларлик ҳолати аниқланган, улар асосан олий ва ўрта махсус таълим соҳаси, халқ таълими, соғлиқни сақлаш тизими ва бошқа соҳаларга тўғри келмоқда. Шунингдек, хотин-қизларнинг меҳнатини муҳофаза қилиш йўналишида иш ҳақи тўлаш бўйича аёлларнинг камситилишига оид қонунбузиларлик ҳолатлари аниқланган. Хотин-қизлар мажбурий меҳнатнинг турли шаклларига жалб этилганлиги аниқланган бўлиб, бундай ҳолатлар олий ва ўрта махсус таълим соҳасида, халқ таълимида, соғлиқни сақлаш тизимида, қишлоқ хўжалигида соҳаларида қайд этилган [8.2.].

Хулоса ўрнида қайд этиш лозимки, янги ривожланиш босқичида мамлакатимизда аёлларнинг иновацион ижтимоий тараққиёт жараёнидаги иштирокини таъминлашга муҳим вазифа сифатида қаралди. Хотин-қизлар демократик ислоҳатларнинг чуқурлашувини таъминлайдиган асосий ижтимоий куч сифатида, фуқоралик жамияти рривожига муносиб ҳисса қўшмоқда. Жамиятда хотин-қизларнинг ижтимоий-иқтисодий, давлат бошқаруви соҳасидаги фаолиятини янада кенгайтириш учун мунтазам тадбирлар амалга оширилмоқда. Мазкур йўналишда қуйдаги устувор йўналишлар белгилаб олинган:

- **биринчидан:** демократик ислоҳатларнинг янада чуқурлашуви, унинг жамиятнинг барча соҳаларини қамраб олиши жараёни, аёлларнинг ижтимоий фаоллигини янада ошириш, ушбу жараёнга алоқадор давлат, нодавлат нотижорат ташкилотлар ишини янги инновацион ижтимоий тараққиёт талаблари асосида шакллантириш заруриятини вужудга келтирди.
- **иккинчидан:** аёлларнинг ижтимоий фаоллигини таъминлаш жараёни бевосита уларнинг фуқоралик жамияти институтлари ишида, провард натижада Қонунчилик палатаси ва маҳаллий кенгашларга ўтказиладиган демократик сайловлардаги иштирокига боғлиқдир. Бунинг учун барча имкониятларни, аёлларнинг билими, салоҳияти, ташкилотчилигини эътиборга олиш зарур;
- **учинчидан:** фуқоралик жамияти ривожланиши таълим ва тарбия жараёнини янада такомиллаштириш, ёшлар интелектуал, ахлоқий маданиятини юксалтиришга доимий эътибор бериш вазифасини илгари сурмоқда. Шу муносбат билан аёлларнинг илмий, педагогик фаолиятини, айниқса ўсмирлар, талабалар билан ишлаш жараёнида уларнинг интелектуал имкониятларидан самарали фойдаланишни янги ривожланиш босқичи талабларига мос равишда ташкил этиш лозим;
- **тўртинчидан:** таълим тарбия соҳасидаги реформацион жараён аёлларга касбий малакасини оширишни жаҳон стандартларига мос равишда ташкил этишни тақоза қилади. Шунинг учун болалар, ёшлар тарбиясига алоқадор бўлган аёлларнинг малакасини ривожланган малакатлар етакчи таълим муасасаларида ўтказиш, малака ошириш учун зарур бўлган ижтимоий, иқтисодий омиллардан тўлиқ фойдаланиш механизмини янада такомиллаштириш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - Тошкент: Ўзбекистон, 2018
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 28.12.2018.
3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони // Халқ сўзи | 8.02.2017
4. Ўзбекистон Сенатига илк марта аёл киши раҳбарлик қилади. У ким ва қандай ваколатларга эга? kun.uz // Ўзбекистон 21.06.2019 45441
5. А.Шин Давлат бошқарувида хотин-қизларнинг ўрни янада мустаҳкамланди // Халқ сўзи | 25.06.2019
6. С.Артикова Бўлажак сайловларда сиёсий етук ва ташаббускор аёлларни сайлаш жуда муҳим // Халқ сўзи | 25.06.2019
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори // kun.uz .Ўзбекистон
8. Гендер тенглик масаласи - Сенат фаолиятининг муҳим йўналиши Қўмита ва комиссиялар мажлислари 26.07.2019 | 349 |
9. Мактабгача таълим вазирлигининг ҳисоботи эшитилди Парламент эшитувлари | 26.07.2019 | 225
10. Саида Мирзиёева Президентнинг бешта ташаббуси ҳақида гапирди // kun.uz . Ўзбекистон | 15.04.2019
11. Жисмоний тарбия ва спорт вазирлигининг фаолияти танқидий кўриб чиқилди. Парламент эшитувлари // Халқ сўзи | 30.07.2019 | 126
12. Ўзбекистондаги оилавий ажримларга нима сабаб бўлаётгани маълум қилинди. // kun.uz / Жамият | 16.05.2019
13. Т.Норбоева Бизда болалар меҳнати бартараф этилди, лекин мажбурий меҳнат батамом йўқ бўлмаяпти // kun.uz | 30.07.2019

HUQUQIY MUNOSABATLARNING MA'NAVIY JIHATLARI.

SULTONOV AKMALJON XASANOVICH,
Namangan davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya*: Maqolada huquqiy munosabatlatda ma`naviyatning o’rni va roli, qonun bilan mustahkamlangan qadriyatlar, milliy mentalitetni saqlab qolishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so’zlar*: **huquq**, ma`naviyat, davlat, jamiyat, mentalitet, qonun, OAV.*

Аннотация*: В данной статье раскривается место и роль духовности в правових отношениях. Также раскривается ценности закрипленних законами и рол средств массовий информации в сохранение и развитии нацинолного менталитета.*

Ключевые слова: *право, духовность, государство, общество, менталитет, закон, СМИ.*

Annotation: *The article highlights the role and importance of spirituality in legal relations, the values enshrined in law, and the role of the media in maintaining national mentality.*

Keywords: *law, spirituality, state, society, mentality, law, media.*

Davlat va jamiyat faoliyati davomida qaysidir tabaqa vakillari yoki hukmron jamoa maqsad va manfaatlaridan kelib chiqqan holda siyosat olib bormasligi kerak. Bugungikundavlatchiligivaqonunchiligibarchatarmoqlargaaloqadorqonunlar, qoidalar, nizomlar, qarorlar, farmonlarvaboshqahuquqiy-me'yoriyhujjatlarasosidaishyuritadi. Buhujjatlarningbirqismiqonunaktlari,qonundarajasigako'tarilgan,hammauchunumumiyva majburiybo'lganme'yorlarni,qoidalarni,burchvajavobgarlikniaksettiradi. Hujjatlarningboshqaqismiqonunostiaktlarideyiladi.Ularmazmuniqonunlardankelibchiqadi vajamiyathayotiningtegishlisohalaridaqonuntalablariniyuzagachiqarishgaxizmatqiladi. Qonun va qonunosti aktlari yordamida davlat jamiyat hayotini tartibga soladi.

Davlat tomonidan ishlab chiqarilgan va amaliyotga tadbiq etilgan qonunlarda huquq o'z aksini topadi. Qonun bu muayyan huquqning aniq me'yorlar, qoidalar, javobgarliklar majmui sifatida tizimli ifodalanishidir.Qonunga, huquqqa tayanmasdan turib, jamiyatni, mamlakatni boshqarib bo'lmaydi.Biror bir fuqaroga, tashkilotga nisbatan ham hech qanday chora ko'rib, jazolab yoki imtiyoz berib bo'lmaydi. Agar yo'l qoidalari tizimga keltirilmaganda, yozib qo'yilmaganda va ularni buzganlik uchun tegishli javobgarlik aniq belgilab qonunlarda va qonunosti hujjatlarida aks etmaganda, qoidani buzgan kishiga jarima solish, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilash mumkin bo'lmas edi.

Demokratikdavlatdaqonunlarfuqarolaruchunadolatlivainsonparvarlikprinsiplarias osidayaratilshilozim.Shubilanbirqatordaxalqningmilliyligi, ma'naviyqarashlarinihamo'zidaaksettirishikerak.Qonun insonparvar va adolatli hisoblanishi uchun u bir necha talablarga javob berishi lozim. Birinchidan, u tarixiy zaruratga, zamonaviy taraqqiyot talablariga mos kelishi, ular bilan ziddiyatga bormasligi lozim.Ikkinchidan, u insonda odamiylikni, ijtimoiylikni mustahkamlashga, unga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, shaxsini kamol toptirishga xizmat qilishi, hech bo'lmaganda bevosita yoki bilvosita to'siq hosil qilmasligi kerak.Aynan shaxs kamolotiga xizmat qilishda qonunning insonparvarlik mohiyati yuzaga chiqadi. Bunday qonun faqat cheklovchi emas, undovchi ham, faqat jazolovchi emas, tarbiyalovchi ham bo'ladi. Taraqqiyparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ma'naviy qadriyatlarni qonunchilikning, qonun chiqaruvchi parlament faoliyatining asosiy mezoniga aylantirish adolatli va shaxs kamolotiga, ezgulikka xizmat qiladigan qonunlar yaratish imkonini beradi.

G'arbda davlatlarida aksariyatida turli elita guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy manfaatlar uchun doimiy o'zaro kurashi muayyan guruhlar foydasini ko'zlab tegishli qonunlar va qarorlar qabul qilinishga urinishlarni keltirib chiqardi. Bu maqsadida parlament va hukumatga ta'sir ko'rsatishning har xil usullari, jumladan parlament yoki hukumat a'zolari ekspertlar orasida tegishli loyihani olg'a suruvchi, himoya qiluvchi maxsus guruhlar paydo bo'lishiga olib keldi.

Tarixdan ma’lumki barcha diktaturaga asoslangan davlat va jamiyat o’z faoliyatida huquqni siyosatga bo’ysundirib, o’z manfaatlariga va g’oyalariga moslashtirib siyosat olib brogan. Italiyada Mussolini , Ispaniyada Franko, Germaniyada Gitler, sobiq SSSRda Stalin, Chilida Pinochet, Vengriyada Chauchesko o’z davlat tuzumini o’rnatib jamiyatning barcha sohalarini o’z manfaati yo’lida bo’ysundirgan. Huquqni g’arazli maqsadlarda talqin qilish, davlatni totalitar rejim asosida boshqarish fuqarolarni o’z huquqidan mahrum etadi va o’z navbatida davlat olib borayotgan siyosatda uzoqlashtiradi. Bu esa huquqiy ong tushunchasini uloqtirib tashlab, “davlat ishiga aralashma”, “siyosatga burningni suqma” degan “oltin qoidalar”ni keltirib chiqaradi.

Har bir suveren davlatda huquq tizimini ishlab chiqish uchun, albatta, tarixiy o’tmishga va milliy mentalitetga nazar solinadi. Turkistonni rus bosqinchilari bosib olgungacha bu hududda huquqiy masalalar islom shariati asosida ko’rib chiqilgan. Islomda hukm chiqarishning tan olingan, shar’iy hisoblangan to’rt manbasi ushbu uch bo’linishga mos keladi. Bu to’rt manba – Qur’on, sunnat, ijmo’ (ittifoq) va qiyosdir. Qur’on va sunnatga asoslangan hukmlarni diniy qonunga tayanuvchi huquq desak, xato bo’lmaydi. Ijmo’ - pretsedentlik huquqidir. Qiyos esa asosan pretsedentlik huquqiga, faqat ba’zi hollardagina talqiniy huquqqa mos keladi.[2] Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi sud tizimi ham aynan shunga o’xshash instansiya sudlariga bo’lingan holda ariza va shikoyatlarni bosqichma-bosqich ko’rib chiqadi.

Hayotda shunday vaziyatlar vujudga keladiki, ular birorta qonunda ko’zda tutilmagan, ularga huquqiy baho berish, qaror qabul qilishda qonunning hujjatlarda aks etgan me’yorlariga tayanishning iloji yo’q.Yoki boshqa misol: qonunning bir moddasiga binoan ushbu holat bo’yicha bunday, boshqa moddasiga binoan teskari hukm chiqarish mumkin. Masalan, BMT Nizomida har bir millat, xalq o’z taqdirini o’zi belgilash huquqiga ega deyiladi.Muayyan hududda yashovchi aholi, xalq shu paytgacha tarkibiga kirib kelgan davlatdan ko’pchilik xohish-irodasiga ko’ra (referendumda aniqlanadi), ajralib mustaqil davlat tuzishga, yoki o’zga bir davlat bilan qo’shilishga haqli.Lekin Nizomning boshqa moddasiga binoan, har bir davlat o’zining hududiy yaxlitligini himoya qilishga, unga xavf soluvchi agressiyaga (bosqinchilikka) yoki ayirmachilikka (separatizmga) qarshi kurashishga haqli deyilgan.Ushbu moddalarni o’zaro qarama-qarshi qo’yish, o’zaro zid talqin qilish mumkin.Amalda shunday hollar bo’ldi. Kosovoning Serbiyadan ajralishini (2008) Rossiya tan olmadi, Serbiyaning hududiy yaxlitligi buzilmasligini yoqlab chiqdi. Yevropa Ittifoqi va BMT, Yevropa sudi Kosovo ajralishini to’g’ri deb topdi. Oradan ko’p o’tmay, 2014 yilda Qrim masalasida endi Rossiya Qrimning Ukrainadan ajralishini to’g’ri topib, o’ziga qo’shib oldi, YeI va BTM esa Ukraina hududiy yaxlitligini yoqladi, qrimliklarning o’z taqdirini belgilash huquqini tan olmadi. Bundan ko’rinib turibdi-ki xalqaro hamjamiyatda ham bir-birini inkor etadigan masalalar talaygina.Uning huquqiy jihatiga esa har ikki tomonda ham asos mavjud.

Mamlakatimizda huquqiy munosabatlarning ma’naviy tomonlari har sohada o’z aksini topgan, desak mubolag’a bo’lmaydi.Tadbiq etilayotgan huquqiy normalar milliy o’zlikni inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda. Shu o’rinda bu holat yurtimizda yashayotgan boshqa millatva elat vakillari qadriyatlariga ham mone’lik qilmaydi. Mana shu jihat mamlakat yaxlitligi va fuqarolarning totuvligini saqlashda eng muhim omil

hisoblanadi. Chunki milliy qadriyatlarga asoslangan biror qonun yoki qaror boshqa millatlarning manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.[3]

Lekin jamiyatimizda hali ham yechimini kutayotgan muammoli holatlar yo'q emas.Bunga misol qilib OAV tomonidan taqdim etilayotgan teledasturlar, filmlar, multfilmlar, eshittirishlar, reklamalarni olishimiz mumkin.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi.Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar.Senzuraga yo'l qo'yilmaydi"[1] deb belgilab qo'yilgan. Lekin bu moddani ba'zi telekanallar hodimlari to'g'ri talqin qilishda biroz yanglishgan ko'rinadi. Bolalarimiz bizning kelajagimiz –deb jar solishni qoyilmaqom darajada uddalaymiz.Lekin ana shu kelajak mevalariga televideniya orqali nimalarni ko'rsatyapmiz?G'arbiy Yevropa va AQSH kinostudiyalarida suratga olingan badiiy filmlarning barchasida bosh qahramon faqat shaxsiy maqsadlarini ro'yobga chiqarishga intiladi, xolos. E'tibor berganmisiz, "Tom va Jerry" multfilmi qanday g'oyalarni va "madaniyat"ni targ'ib etadi. Mushuk va sichqon ko'rinishidagi haqiqiy qotillar. Ularning bir-birini o'ldirishga bo'lgan harakatlari bolalarga komedik talqinda ko'rsatiladi.O'zi yashayotgan uyni ag'dar-to'ntar qiladi.AQShlik huquqshunos bu ikkisini AQSh Jinoyat Kodeksidagi moddalar bilan javobgarlikka tortib ko'rib shunga amin bo'ldi-ki, mushukdan ko'ra sichqonning jinoyatlari ko'proq ekan.Bizga sichqonni jabrdiyda qilib gavdalantirgan multfilm bolalar ongida huddi sichqonga o'xshab mushukni o'ldirishga harakat tuyg'usini shakllantiradi.Jeyms Bruks tomonidan "Gracie Films" kinokompaniyasida 1989 yildan buyon muntazam suratga olinayotgan "The Simpsons" va Set Makfarleyn tomonidan 1999 yilda "FOX" telekanalida suratga olingan "Family Guy" multseriallari bolani o'z manfaatlari va huzur-halovatini o'ylashga o'rgatadi, xolos. Ushbu multfilmlar axloqiy buzulishga olib keladi, narkotik moddalar iste'mol qilishni va gomoseksualizmni targ'ib etadi. Shuning uchun ham "Family Guy" multseriali Indoneziya, Vyetnam, Eron, Malayziya, Janubiy Koreya, JAR va Tayvanda, "The Simpsons" multseriali esa Venesuelada taqiqlab qo'yildi. Yaponiyada telekanallar yapon milliy mafkurasiga zid bo'lgan birorta dastur yoki film qo'yishlari birinchi navbatda xalq tomonidan e'tirozlarga sabab bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra inson hayoti davomida uchta muhim bosqichni bosib o'tadi. Bular: farzand dunyoga kelgach, 7-8 yoshgacha fakat o'yin bilan mashg'ul bo'lsa, 22-24 yoshga yetguncha o'qish, ilm olish bilan band bo'ladi, undan keyin esa mehnat bilan shug'ullanadi. Va eng e'tiborlisi, bola aynan o'smirlik davridayoq ijtimoiy hayotning ko'p qirralarini anglab yetishi ilmda isbotlangan. Shu jihatdan bola nimani xohlayotgani, qanday multfilm yoki kinoni ko'rayotgani bilan qiziqishimiz kerak.

Tadqiqotlarga ko'ra, bola multfilm ko'rayotganda dastlabki 20 soniyada shaklga e'tibor berarkan, keyin esa mazmunini qabul qiladi. Shuning uchun mutaxassislarimiz multfilm ishlayotganda eng avvalo uning shakl va mazmuniga e'tibor berishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Ikkinchi muhim jihat, bu tegishli tashkilotlar bilan birgalikda turli dasturlar, milliy o'yinlarni tashkil etish kerak. Uchinchidan, psixologik immunitet, psixologik ta'lim va psixologik sog'liq bilan ishlashni o'rganishdir.

Xotirlab ko'raylik: ota-bobolarimiz farzandlarini qay tarzda ovutishgan? Ular ertak, matal va xalq og'zaki ijodidan lavhalar aytib berishgan. Shu bilan avlodlarini o'z dini,

millati tarixidan xabardor etishgan. Farzandlar diyonat hissi, urf-odatlarni ertak va matallar orqali qalblariga singdirishgan. Zamonaviy multfilmlar ham bizning farzandlarimiz uchun xuddi o‘sha ota-bobolarimiz aytgan ertak va matallar kabi, faqat bu ertak yoki matallarni bobomiz yoki momomiz emas, biz tanimagan, dunyoqarashi va dini o‘zga bir "amaki" so‘ylab beradi, ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ilk multiplikatsion film 1965 yilda olingan bo‘lsa, o‘tgan yarim asr davomida soha katta tarixiy jarayonni bosib o‘tdi. Bugungi axborot asrida asosiy e'tibor milliy mahsulotlarni ko‘paytirish, xorijdan kirib kelayotgan turli multfilmlardan himoyalanish va shu orqali yosh avlodni ruxan poklash, qalban uyg‘otishdan iborat. Ya'ni, maqsad-mohiyat bitta - bolalar tarbiyasi. Ma'nan, axloqan, qalban va jismonan sog‘lom farzand bu - sog‘lom kelajak garovidir. Avloniy aytganidek, tarbiya biz uchun hayot-mamot masalasidir.

Vatanparvarlikni, yuksak insoniy fazilatlarni ulug’laydigan multfilmlar ham yo’q emas, albatta.“Qirol sher”, “Muzlik davri” va “Vinni Pux” kabi multfilmlarda hayvonlar orqali insoniy his tuyg’ular aks ettiriladi.

AQShning Garvard universiteti olimlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, amerikalik bolalar 18 yoshgacha 180 mingta axloqan buzuq, shafqatsiz, 80 mingta qotillikni aks ettiruvchi filmlarni tomosha qilar ekan. Bular qatoriga behayolik, ichish, chekishlarni ham sanab o‘tish mumkin. Xitoyda esa ta'lim-tarbiya, bolalar ma'naviyatiga jiddiy e'tibor berilayotganini quyidagi misolda ko‘rish mumkin: 2008 yildan boshlab mazkur mamlakatda behayo, sharmsiz kinolar, hissiyotlarni ko‘zg‘atuvchi ovozlardan foydalanish qonunan ta'qiqlab qo‘yildi. Qonunni buzgan shaxslarga nisbatan turli xukumat taqdirlashlaridan mahrum etish va litsenziya bekor qilish choralari qo‘llaniladi. Shuningdek, telekanallar orqali kechqurun soat 17-21 oralig‘ida xorij multfilmlari namoyish etish mumkin emas. Aksincha, bunday paytda faqat mahalliy multfilmlar qo‘yiladi.

Oynai jahonda uzatilayotgan estrada honandalarining kliplari, konsertlari va boshqa shou dasturlari ham mutlaqo milliy ma’naviyatimizga mos emas. Masalan,ba’ziestrada honandalari tomonidan taqdim etilayotgan kliplarda erkak kishiga xos bo’lmagan hatti-harakatlar, masxarabozlar kiyadigan kiyimlarni kiyish, aralash tillardagi musiqa matnlari, qishloq aholisini parodiya qilib chiqishi va yoshlarni tabaqalashtirishga qaratilgan holatlar ko’p uchraydi. Atlas yoki adras xalqimizning milliy libosi hisoblanadi.Lekin bu matodan tikilgan kiyimlarni faqat ayollar kiyishadi. Bugungi kunda yoshlarimizning sevimli erkak jinsiga oid “yulduz”lari bu narsani unutib qo’ydi shekilli, konsertlarda bunday kiyimlarni “erkak” honandalar kiyib chiqishi holatlari ko’zga tashlanib turibdi.O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining televidenie va radio dasturlarining yuqori badiiy darajasini ta'minlashga doir ishlari yetarli emas, azaliy ma'naviy-madaniy qadriyatlarga va milliy urf-odatlarga muvofiq bo‘lmagan, kamol topayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan qo‘shiqlar va videokliplarning efirga chiqishiga yo‘l qo‘yilmoqda.

Ushbu holatlar madaniy-tomosha tadbirlarini o‘tkazish tartibining qo‘pol tarzda buzilishiga, estrada ijrochilari tomonidan odob-axloq me'yorlariga rioya qilinmasligiga, ular tomonidan badiiy jihatdan sayoz musiqiy asarlarning ijro etilishiga olib kelmoqda. Bu

holatlar tegishli organlar tomonidan estrada honandalari ma’naviy faoliyatini qonun bilan tartibga solish masalasini dolzarb qilib qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 9-dekabrdagi “Konsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 354-sonli qarori bunga yaqqol misol bo’la oladi. Qarorda honandalarning odob-axloq qoidalari va ma’naviy masalalarga alohida urg‘u berilgan. Unga ko’ra, konsert-tomosha tadbirlarida, to‘ylar va boshqa tantanalarda artistning odob-axloq qoidalariga, sahna madaniyati va tashqi ko‘rinish madaniyatiga zid bo‘lgan xatti-harakatlar qilishini hamda ma'naviyatga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi va tomoshabinlarning his-tuyg‘ularini haqorat qiluvchi, axloqsizlik g‘oyalarini targ‘ib etmagan holda, milliy mentalitetga, milliy qadriyatlar va urf-odatlarga muvofiq bo‘lgan qo‘shiqlarni va ular bo‘yicha yaratilgan videokliplarni ijro etish tavsiya etilgan.

Agar milliy ma’naviyatimizni asrab qolishni istasak, internet, OAV va boshqa ma’naviyatga tahdid qiladigan sohalarni qonunlar bilan tartibga solishimiz zarur. Shu o’rinda bu masala davlat va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarni ham qonunlashtirishi kerak. Erkinlik – bu xohlagan ishingni qilish kerak degani emas. Mamlakatimizga kirib kelayotgan yot mafkuralarga asoslangan ba’zi xurujlarni G’arb davlatlari Sharq mamlakatlari aholisini ma’naviy qaram qilishga qaratilgan aniq dasturlari asosida kirib kelgan.

1945-yili Markaziy Razvedka boshqarmasi xodimi (keyinchalik MRB direktori) Allan Dalles Kongressda AQShning Sovet ittifoqiga qarshi kurash strategiyasini quyidagicha bayon qilgan:

“Biz nimaga ega bo‘lsak, ya’ni hamma oltinlarimiz, moddiy boyliklarimizning barchasini ularni laqillatish va aldash uchun sarf qilamiz! Inson ongi, insonlarning fikrlashi o‘zgarib turishga moyil. Alg‘ov-dalg‘ovlik bilan ularning qadriyatlarini soxta narsalarga almashtirib, shu soxta narsalarni qadriyat sifatida qabul qilishga majbur qilamiz. Qanday qilib deysizmi? Biz fikrdosh va ittifoqchilarimizni rossiyaning o‘zidan topib olamiz. Bosqichma-bosqich katta miqyoslarda bo‘yin sunmas xalqning tarix sahnasidan o‘chishi fojiasini amalga oshiramiz. Ularning onglari o‘chib boradi. Adabiyot va san’ati yo‘qotiladi…

Adabiyot, teatr va kinolari faqat eng tuban insoniy tuyg‘ularni maqtab, ularni «chiroyli» qilib ko‘rsatib boradi. Biz fahsh, zo‘ravonlik, xoinlik va umuman olganda har qanday axloqsizlikka topinishni («kult») madh etayotgan va ularning ommalashuviga sabab bo‘layotgan ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlaymiz.

Mamlakatni boshqarishda chalkashlikni ko‘paytirib tashlaymiz. Biz kishi bilmas, ammo o‘ta faol darajada amaldorlar orasida poraxo‘rlikni, qat’iyatsizlik (prinsipsizlik) va o‘zboshimchalikni rivojlantiramiz. Rasmiyatchilik va qog‘ozbozlikni «fazilat» darajasiga ko‘taramiz”.

Bundan ko’rinib turibdi-ki, bugungi kundagi rivojlangan davlar tomonidan olib borilayotgan riyokor siyosatning ildizi uzoq davrga borib taqaladi.

Xalqning ma’naviy qiyofasini saqlab qolish uchun uning huquqii va ma’naviy ongini yuksaltirmoq shart. Bu ishni OAVsiz qilishni hozirgi davrda iloji yo’q.

Aytilganlardan huquqiy tarbiyada xalqaro huquq me'yorlarini va talablarini aholiga o'rgatish, qonunlarga nisbatan hurmatli va xolis munosabatni shakllantirish nechog'li muhim ekanligi oydinlashadi. Haqiqatan, odamlar ongiga, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchilar, davlat idoralari, jamoat, nodavlat notijorat tashkilotlari xizmatchilari – xullas, ijtimoiy munosabatlarning barcha sub'ektlari ongiga inson huquqlarining davlat huquqlaridan, xalqaro huquqning milliy huquqdan ustuvorligini singdirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2018 й.
2. АбдулваҳҳобХаллоф. "Усулул-фиқҳ".Т. "Адолат" 1997 й., 12-б
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллат. Тошкент. «Янги аср авлоди». 2008. 42-б.

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ – ТАРАҚҚИЁТ ПОЙДЕВОРИ: ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН

Амирхўжаев Шукуржон Қурбонович
Андижон Давлат Университети "Миллий ғоя; маънавият асослари ҳуқуқ таълим" кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Таълим жамиятнинг ҳар бир соҳасини тизимли тарзда амал қилиши ва ривожланиш динамикасини таъминлаш учун амал қилиб, янги технологияларни яратиш ва жорий этиш, такомиллаштириш, уларни диагностикасини амалга ошириш, прогноз қилиш, соҳага қаратилган таҳдид ва хавф хатарларни ўз вақтида аниқлаш, уларни зарарлантиришнинг усул ва воситаларидан фойдаланиш тартибини аниқлаб беради. Ушбу мақолада жамиятнинг маънавий ҳаётини шакллантиришда таълим-тарбия масаласининг ижтимоий детерминация-лашувига оид маълумотлар берилган бўлиб, мақоладаги маълумотлар ижтимоий-фалсафий жиҳатдан қиёсий таҳлил қилиб ўтилган.

Калит сўз: таълим-тарбия, қадриятлар, ахборот технологияси, касбий билим, ахборот.

ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ-ФУНДАМЕНТ ПРОГРЕССА: СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ ТРАКТОВКА.

Амирхужаев Шукуржон Курбонович
Старший преподаватель кафедры «Национальная идея; основы духовности правовое образование» Андижанского Государственного Университета

Аннотация: *Образование функционирует для системной деятельности каждой сферы общества и определяет порядок создания и внедрения новых технологий, их совершенствования, осуществления их диагностики, прогнозирования, своевременного выявления угроз и опасностей, направленные против сферы.*

В данной статье представлены сведения социальной детерминации вопросов образования и воспитания в формировании духовной жизни общества, приведенные сведения сапостевительно проанализированы в социально-философском отношении.

Ключевые слова: *образование, ценности, информационые технологии, професиональное образование, информация.*

EDUCATION IS THE FOUNDATION OF DEVELOPMENT: SOCIAL AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION.

Amirhozhaev Shukurjon Kurbonovich
Andijan State University "National idea; Senior teacher of the department"
The basis of spirituality law

Annotation*: in this article education is systematically applied to each area of society and providing development dynamics, creating and implementing new technologies, improving, diagnosing, predicting, identifying and addressing industry-specific threats and risks and how to use the tools.*

In this context, this article provides information on the social determinations of education in the formation of the spiritual life of society, and comparative analysis of the socio-philosophical data.
Key words: education, values, information technology, professional knowledge, information.

Инсон ва унинг камолотини таъминлаш теологик, фалсафий, психологик, этнографик, тиббий, ҳуқуқий, антропологик, иқтисодий, социологик таълимотларнинг асосини ташкил этади. Мазкур йўналишда тадқиқотчилар томонидан талайгина тарихий манбалар жамланган, эмпирик тадқиқотларнинг хулосалари тарзида асарлар ёзилган. Инсон камолотини таъминлаш мақсадида компаратив (қиёсий-тарихий) метод асосида уларни ўрганиб, тарбиявий фаолиятда қўллаш мумкин. Бу ўз навбатида алоҳида инсоннинг хулқ намунасида, ижтимоий гуруҳ аъзоларининг ҳамжиҳатлигида (иноқлигида, Ибн Халдуннинг таълимотида асабийа деб кўрсатилган[1.С.217-218]) ифодаланиб жамият ҳаётининг маънавий пойдевори таъминланади. Шу тариқа индивидуал маънавиятни шаклланириш ва ривожлантириш масаласи таълим-тарбиянинг олдида турган бош вазифа бўлиб қолмоқда. Бу вазифани бажариш турли даражаларда тарбиявий фаолиятни амалга оширувчилар, яъни ўқитувчиларнинг зиммасидадир.

Тарбиявий фаолиятнинг хулосавий кўринишида инсон шахсида янги сифатлар мужассамлашади. Агарда, ижтимоий ролларни бажариш давомида ҳар бир инсон тарбиявий фаолият билан шуғулланиб, бобо-буви, ота-она, ака, опа, қайнона-қайнота, устоз, қўшни ёки яқин қариндош каби мавқеъларда амал қилишини инобатга олсак. Бу жараёнга ҳар бир халқ тарихий тажрибасидан келиб чиққан ҳолда муносабатда бўлиши мумкинки, уни ментал хусусият деб кўрсатиш мумкин[2.С.14-16]. Илм-фан ва техника ютуқларидан восита сифатида фойдаланиб, аниқ илмий ғояларга амал қилган ҳолатда тарбия бериш учун алоҳида тайёргарликка эга бўлган, турли компетенцияларни эгаллаган тарбиячи, мураббий ва ўқитувчилар тарбиявий фаолият билан касбий даражада шуғулланадилар.

Таъкидлаш лозимки, инсонларда қайси сифатларни шакллантириш муҳимлигини, жамиятда турли шакл ва кўринишларда ифодаланган ижтимоий-маданий муаммо белгилаб беради. Аниқроғи, юзага келган муаммони сабаби ва унга таъсир кўрсатган омилларнинг мазмунини аниқланиши натижасида, бу ҳолат бошқа такрорланмаслигини таъминлаш учун жамият ижтимоий буюртмачи сифатида таълим-тарбия институтига қатор вазифаларни бажаришни белгилаб беради.

Тарбиявий фаолият, мураккаб тузилишга эга бўлиб, уни тизимли тарзда олиб борилгандагина қуйидагиларни шакллантиришга эришиш мумкин:

- ахлоқий меъёрларни турлари, маиший ва ижтимоий ҳаёт тарзида амал қилувчи қоидаларни ўзлаштиришга;
- дунёқарашни шакллантириб, англанган ҳаётий қадриятларни эгаллаш йўлларини ўзлаштиришга;
- ижтимоий фаолликка, атроф-муҳит ва инсонни ўзига нисбатан эътиборли бўлишни ўзлаштиришга;
- меҳр кўрсатиш, ижобий ҳиссиётларни намоён этиб, салбий ҳиссиётларни яшириш тарзини эгаллашни ўзлаштиришга;
- билим олиш ва ундан фойдаланишни ўзлаштиришга;
- ахборот технологияларидан восита сифатида фойдаланишни ўзлаштиришга;
- диний, миллий, касбий, этнослараро, ижтимоий толерант[3] ва интолерант[4] бўлишни ўзлаштиришга;
- ижтимоий ва касбий мулоқотга киришишни ўзлаштиришга;
- ҳамкорликда фаолият юритишни ўзлаштиришга;
- ижтимоий ролларни эгаллашни ўзлаштиришга;
- ижтимоий, касбий масъулиятни моҳиятини ўзлаштиришга;
- функционал саводли бўлиб, мақсадни танлаш ва унга эришиш йўлларини ўзлаштиришга;
- касб танлаш, касбий муҳитга мослашишни ўзлаштириш кабиларга.

Тарбиявий фаолиятнинг натижаси намунавий хулқ намунасини ўзида мужассам этган инсонни, фидоий касб соҳибини шакллантириш учун зарур ҳисобланиб, уни мазмундорлигини таъминлашда тарбиявий фаолият, таълимий фаолият билан синтезлашади. Синтезлашув натижасида жамият учун юксак мақсад ва эътиқод соҳиби, билимли ва ақлли, юксак дид ва ҳис-туйғуларини бошқараоладиган, ўзига, атрофдагилар ва турли предметларга маиший ва маданий меъёрлар даражасида муносабатда бўладиган. Бир сўз билан айтганда - индивидуал тарзда маънавий хоссаларни ўзида мужассам этган шахсларни тарбиялаш мақсади таълим ва тарбияни вазифалари жиҳатидан институтлашувини таъминлайди.

Таълим-тарбия тараққиётни таъминловчи муҳим омил ҳисобланса, жамият ҳаётини таъминлаш ва ислоҳотларни амалга оширишда даражаларда (соҳавийлиги, тарихийлиги каби белгилари бўйича) иштирок этса. Бу ўз навбатида таълимий-тарбиявий фаолият такомиллашув хусусиятига эканлигини кўрсатади ва унда ижтимоий инсниститут сифатида таълим доминантлик қилади.

Таълим, жамиятнинг ҳар бир соҳасини тизим тарзида амал қилиши ва ривожланиш динамикасини таъминлаш учун амал қилиб, янги технологияларни яратиш ва жорий этиш, такомиллаштириш, уларни диагностикасини амалга ошириш, прогноз қилиш, соҳага қаратилган таҳдид, хавф ва хатарларни ўз вақтида аниқлаш, уларни зарарлантиришнинг усул ва воситаларидпн фойдаланиш тартибини аниқлаб беради. Тарбия эса, уларни амалиётда қўллаш давомида қайси меъёрларий тамойилларга амал қилиш алоҳида инсон ва жамоа (гуруҳ) аъзолари учун мақбул эканлигини таъминлайди. Агарда, таълимнинг ўтмишдаги (юз йилликдаги) муаммоси – таълимни ҳаммабоплигини (барча учун баробарлигини) таъминлашдан лозим эканлигини назарда тутсак, бугунги кун таълимининг муаммоси – таълим сифатини барча учун таъминлашдан (барчага сифатли таълим беришдан) иборатлигини англаш қийин эмас. Бу ўз навбатида таълим олдида навбатдаги вазифани, яъни ҳар бир таълим олувчига (индивидуал) таълим тури ва ихтиссослиги бўйича сифатли таълим бериш масаласини долзарблаштирди.

Таълимга оид бўлган ҳар қандай таълимотга суянишдан қатъий назар, таълим жараёнида ахборот, таълим берувчи ва таълим олувчиларнинг фаолиятини таъминловчи кўпфункционал омил сифатида иштирок этади. Уни моҳиятини англаш учун таълим-тарбиянинг вазифадорлиги жиҳатидан алоқадорлигини тизимли тарзда кўриб чиқамиз. Тизим сифатида асосий эътибор чиқишга (натижага) қаратилган (1 – чизма) бўлиб, касбий билимга эга бўлишни таъминлаш, ҳаётий-касбий муаммоларни ҳал этиш усулини ўзлаштиришни таъминлаш, касбий кўникма ва малакага эга бўлишга эришишни таъминлаш, маиший ва ижтимоий жараёнларни юзага келиши ҳамда кечишининг сабаб-оқибат алоқадорлигини англай олиш тажрибасини шакллантириш каби функционал таркибларга алоҳида эътибор қаратилганлигини кузатиш мумкин.

1 - чизма.

Таълим-тарбиянинг функционал тавсифи



Бу ўз навбатида таълим берувчи ва таълим олувчининг ҳамкорликда фаолият юритиши мақсадга мувофиқлигини кўрсатади. Ваҳоланки, айрим манбаларда таълим бериш услуби, таълимда янги технологияларни қўллаш, педагогик маҳоратга эга бўлиш, педагогик фаолият мониторингини амалга ошириш, таълим бериш жараёнида компьютер технологияларини қўллаш каби масалаларга урғу берилиб, таълим олувчининг шахсига таълим жараёнининг иштирокчиси сифатида ёндашилмоқда[5.С.168]. Бизнингча, педагог ўз функцияларини маромига етказиб

бажаришида таълим олувчиларнинг роли, аниқроғи уларнинг таълим муассасасига, эгаллаётган ихтиссослигига, профессор-ўқитувчиларга, ўрганилаётган мавзуга бўлган муносабати педагогик жараённи самарали кечинини таъминловчи асос ҳисобланади. Бунда уларни ўқув мотиви, таълим жараёнидан кутишлари, қадриятлари, таянч маданияти, мақсадини тўғри шаклланганлиги, маънавиятлилик даражаси каби шахсий хоссалари таълим олиш ва таълим бериш жараёнини мақсадли кечишини таъминлаш иштирок этади. Чизмадан кўриниб турибдики, таълим бериш жараёни ижтимоий тизим тарзида кечади. Бу ўринда профессор-ўқитувчилар ва талабаларнинг ҳамкорлиги, таълимни ташкил этишга иштирок этаётганларнинг лаёқатмандлиги (компетентлиги), жамиятда таълим олишга бўлган эҳтиёжни намоён бўлиши, илмий тадқиқотлар натижасини амалиётга жорий этиш тезлиги, ишлаб чиқариш ва фан-техниканинг алоқадорлиги кабиларнинг таъсири муҳим ҳисобланишини кўрсатиб ўтиш лозим.

Унинг замирида эса, янгича тафаккур тарзи мужассамлашган бўлиб, у, инсонни ақлий фаолиятининг ўзига хос бир тарзида иқтисодий ва маданий жараёнлар, маиший ёки ижтимоий, хусусий-касбий муаммоларга доир муносабатда бўлишда илм–фан ва техника ютуқлари ҳамда шахсий тажрибага таянган ҳолда йўл тутишида ўз аксини топади. Бу ўзига хос ақлий операция ҳисобланиб, мутахассисдан идрок, тасаввур, хотира ва диққат даражаларини ривожланганлигига, уларнинг фаолиятини натижасига таянишни тақозо этади. Чунки ҳар қандай кўринишдаги муаммо (вазият, жараён) ҳақида, уни вужудга келиш сабаби ва оқибатининг алоқадорлигини белгилаб олиш учун мутахассис мантиқий занжир тарзида мушоҳада юритиши лозим бўлади. Вазифадорлиги (функционаллиги) жиҳатидан янги тафаккур тарзи ўз моҳиятига кўра турли касбий фаолиятларнинг (меҳнат турининг) самарадорлигини таъминлаш учун шарт ҳисобланади. Масалан, педагогик фаолиятда ёки тиббиёт (аниқроғи тиббий-диагностикавий) ва амалий психологик ёрдам кўрсатиш (аниқроғи ижтимоий-психологик диагностика қўйиш) фаолиятида ўзлаштирилган касбий ва махсус билимлар, жамланган ахборот ва касбий мулоқотда қўлланиладиган тушунчалар тизимидан фойдаланишда аҳамиятли ҳисобланади. Бунда таълим фалсафаси ва таълим психологияси жиҳатлари бўйича янгича тафаккур қуйидаги даражалари билан амалий мазмун касб этади:

а) белгиловчи (детерминанлаштирувчи) ва феноменологик (вазият белгиларини шарҳловчи, тавсифловчи) даражалари билан;

б) вужудга келган муаммони (вазифани) ечилишини (бартараф этишини) назарий-амалий тузулишини яратиш даражалари билан.

Таълим – тарбия тараққиёт пойдевори ҳисобланиб, ишлаб чиқариш, фан ва техника ютуқларини амалиётга жорий этилиши натижасида такомиллаштиришни тақозо этади. Такомиллаштириш механизмини эса илмий тадқиқотларнинг натижаси белгилаб беради. Бу ўз навбатида умумметодологик асосни белгилаб берувчи фалсафа, аниқроғи таълим фалсафаси доирасида бажариладиган тадқиқотларнинг натижасидан фойдаланишни талаб этади. Таълим жараёнининг иштирокчилари ва таълим жараёнини режалаштириб, уни

бошқариладиганларнинг фаолияти тизимида етакчи фаолиятни ажратиб, уларни мотивациясини таъминлаш учун таълим психологияси доирасида бажарилган тадқиқотларнинг хулосаларидан фойдаланиб педагогик чора-тадбирларни ишлаб чиқишни тақозо этади. Таълимга буюртма берадиган корхона, турли муассасалар, умуман жамият таълим институтидан нималарни кутишини, қандай соҳа мутахассисини тайёрлаб беришни аниқлаш учун таълим социологияси ҳамда таълим ҳуқуқи каби фан соҳаларининг ютуқларидан фойдаланишни талаб этади. Кўриниб турибдики, бу йўналишда олиб бориладиган тадқиқотлар бошқа бир ижтимоий маконда эмас, балки муаммо вужудга келган, тадқиқот натижалари жорий ҳолатни ўрганиш натижасида қўлга киритган бўлиши лозим. Шунинг учун, таълим-тарбия масаласига бағишланган илмий тадқиқотлар мавзусини белгилашда уларнинг узвийлигига, яъни бир фан соҳасида бажарилиши мўлжалланган илмий тадқиқот, иккинчи фан соҳасида бажариладиган тадқиқотни соҳавий тўлдириб, яхлит мажмуани вужудга келтириши учун хизмат қилишига алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Шу трариқа биз таълим-тарбияни ижтимоий институт сифатида миллий тараққиётни таъминлашга тўлиқ йўналтира оламиз.

Адабиётлар рўйхати:

1. Главный фактор в теории Ибн Халдуна. В кн.: История социальной мысли в Исламе. – Москва: Вече, 2012. - С. 217-228.
2. Samarov R., D. Rakhmanov Social work activity in providing the life of the society (functional-structural analysis) // Theoretical & Applied Science № 07 (39) 2016. – P 14-16.
3. Этимологик жиҳатдан толерант тушунчаси лотин (tolerare) тилидан олинган бўлиб, чидамли, бардошли деган маъноларни англатади. Ҳар бир миллий маданиятда уни эквиваленти мавжуд бўлиб, ўзбек тилида сабр тушунчаси толерант тушунчасига эквиватент ҳисобланади.
4. Ўзига ижобий муносабатда бўлишнинг шаклланганлиги. Мазкур биринчи навбатда ўз ҳис-туйғулари, шахсий қадр-қиммат ва шарфни англаганликда, салбий эмоциялар ва ҳисларни баратарф этиш устида ишлашда ўз аксини топади.
5. Малянов Е.А. Социально-культурная инноватика: методология, теория и практика // Дис. … докт. пед. наук. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2011. – С. 83.
6. Иванников А.Д., Кулагин В.П., Мордвинов В.А, и др. Получение знаний для формирования информационных образовательных ресурсов. - М.: ФГУ ГНИИ ИТТ «Информика», 2008. - 440 с.
7. Шемончук Д.С. Макромедиа в образовании. - М.: МИРЭА, 2012. – 168 с.

10.00.00 ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

ЎЗБЕК ТИЛИДА АНТОНИМО-СИНОНОМИК МУНОСАБАТЛАР (“ҲИБАТУЛ ҲАҚОЙИҚ” АСАРИ ЛЕКСИКАСИ МИСОЛИДА)

Сайидирахимова Насиба Сайидмахамадовна
Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети филология фанлари номзоди, доцент

Аннотация:. *Мақолада ўзбек тилида антонимо-синонимик муносабат умумкатегориал бирлик сифатида талқин қилинади, тилшуносликда умумкатегориал бирлик сифатида номловчи: “антонимо-синономик блок” , “синонимо-антонимик блок”, “синономик қаторлар антонимияси”, “антонимик қарама-қаршиликлар синонимияси” “антонимик уя” тушунчалари “Ҳибатул Ҳақойиқ” асари лексикаси мисолида илмий асосланади ва таҳлил қилинади.*

Калит сўзлар: *антонимо-синонимик муносабат, лингвистик парадигма, лексемалар ўртасидаги валентлик, гипо-гиперонимик муносабатлар, градуонумия, партонимия, умукатегориал парадигма, “антонимо-синономик блок” , “синонимо-антонимик блок”, идеостиль.*

АНТОНИМО-СИНОНИМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРАХ ЛЕКСИКИ «ХИБАТУЛ ХАКОИК»)

Сайидирахимова Насиба Сайидмахамадовна
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
кандидат филологических наук, доцент

Аннотация: *В статье рассматривается антонимо-синонимическое отношение в узбекском языке как общекатегориальная единица, а также трактуются и анализируются понятие называемые как общекатегориальнымы единицами: «антонимо-синонимный блок», «синонимо-антонимический блок», «синоним анонимных линий», «антонимические синонимы» на примере лексики «Хибатул Хакойик».*

Ключевые слова: *антонимо-синонимические отношения, лингвистическая парадигма, валентность между лексемами, гипо-гиперонимика, градуонимия, партонимия, общекатегориальная парадигма, «антонимо-синонимический блок», «синонимо-анонимический блок», идеостиль.*

ANTONIMO-SYNONYMIC RELATIONSHIPS IN THE UZBEK LANGUAGE (AT THE HEART OF THE WORDS "HIBATUL HAKOYIK")

Sayidirahimova Nasiba Sayidmahamadovna

Tashkent State University of the Uzbek language and literature
after named Alisher Navoi
Doctor of Philosophy, Associate Professor

Annotation: *The article interprets the antonymy-synonymic relation in the Uzbek language as a unit of the general category, and also examines and analyzes concepts called units of the general category: "antonymy-synonymic block", "synonymy-antonymic block", "lines of synonymy-antonyms" "synonyms" for example, leksems "Hibatul Hakoyik".*

Keywords: *antonym-synonymic relationships, linguistic paradigm, valency between leksems, hypo-hyperonymy, graduonymy, partonymy, general category paradigm, "antonym-synonymic block", "synonym-anonymous block", ideostyle.*

Узоқ йиллар мобайнида тилшуносликда синонимия ва антонимия ҳодисалари алоҳида лингвистик ҳодиса сифатида талқин этиб келинди.XX асрнинг 70-йилларида ўзбек тилшунослигига ситем-структур тилшуносликнинг татбиқ этилиши ва натижада тил бирликларини муайян тизим, аниқроғи, парадигмада ўрганилиши натижасида тил ҳодисаларини ўрганишга бўлган бошқача ёндашувнинг бошланишига туртки бўлди. Бундай ёндашув лексик семантикада ҳам ўз аксини кўрсатди. Бироқ шундай бўлишига қарамай, семантикада синонимия ва антонимия ҳодисалари айро ҳолатда ўрганиш ҳали ҳануз давом этмоқда.

Айтиш жоизки, лексиканинг семантик тавсифи масаласи ҳамма вақт лингвистика илмининг долзарб ва ўта муҳим вазифаларидан бири бўлиб келган. Сўнгги йилларда тилшуносликда мазкур муаммони илмий ҳал этишнинг замонавий ечими лексик бирликни якка ҳолда эмас, балки бир мунча кенг доирада (сўзлар гуруҳи олиниб) талқин этилаётганлиги билан характерланади.

Ўзбек тилшунослигида лексикология соҳасида қўлга киритилган сўнгги ютуқлар–лексемалар ўртасидаги валентлик масаласининг ўрганилиши, лингвистик майдон назарияси, гипе-гиперономик муносабатлар, градуономия, партономия ҳодисаларининг талқин этилиши фикримизнинг айни далилидир.

Шу кунгача тилшуносликда синоним ва антоним сўзлар айро ҳолда ўрганилиб келинганини кўришимиз мумкин. Бизнингча, бу ҳодисалар биргаликда, яъни анотонимо-синономик муносабатлар сифатида қаралса ҳам анча кенг хулосаларга олиб келиши мумкин. Тилшунослик тарихига назар ташлайдиган бўлсак, тилшунос олимлар синоним ва антоним сўзлар ўртасидаги ўзаро алоқадорликка бир неча бор ишора қилганликларини кўришимиз мумкин. Хусусан, Л.А.Введинская [1], Л.А.Новиков [2] ва В.А.Иванова [3] каби бир қатор тадқиқотчиларнинг ишларида синонимо-антонимик муносабатлар бирлигига бўлган ёндашув ва мазкур ҳодисани ўрганишга бўлган дастлабки ҳаракатлар кузатилади. А.А.Уфимцева, А.А.Бартина, Ю.Д.Апресян, И.Л.Филонеко ва

Н.Г.Свистуноваларнинг ишларида эса синономик ва антонимик муноабатларни биргаликда ўрганлигини кўриш мумкин [4].

Антонимо-синономик муносабатлар бирлигини ўрганиш нафақат семасиология, балки лексикология учун ҳам ўта долзарб ва муҳим саналади, чунки бундай ёндашув орқали муайян тил лексикасида семантик муносабатлар изоляциялашган - алоҳида ҳолатда эмас, балки уларнинг диалектик бутунлиги, якдил бирлик сифатида талқин этилиш имкони яратилади. Бундай ёндашув, айни дамда, лексикография учун ўта муҳим саналиб, сўз маънолари ўртасидаги семантик яқинлик ва қарама-қарши зидлик муносабатларни ифодаловчи махсус луғатларни яратишга бўлган амалий эҳтиёжни ҳал этишда ҳам ўзига хос имкониятларини беради.

Шунингдек, сўзларнинг ўзаро семантик яқинлиги ва сўз семантикасидаги зидлик мунобаталарини ўзаро узвийликда ўрганиш лексик семантика категорияларининг яширин (у қадар эътибор бирилмаган) хусусиятларини очишга ҳам ёрдам беради. Шуни қайд этиш лозимки, синономик ва антонимик муносабатларни ўзаро узвийликда ўрганиш лексик сатҳдаги систем муносабатлар масаласи билан ҳам алоқадор саналади ва мазкур масала тилшуносликда тўла ечимига эга бўлмаганлиги билан характерлидир. Синономик ва антонимик муносабатларни умумкатегориал парадигмада умумназарий жиҳатдан тадқиқ этишда юзага келадиган қийинчиликлар, бизнингча, синоним ва антонимларнинг ички дифференциал томонлари етарли даражада мукаммал ўрганилмаганлиги билан ҳам боғлиқдир.

Мазкур мақолада сўзларнинг семантик муносабатларидаги маъно яқинлиги ва семантик қарама-қаршилиги масаласини имкон қадар ёритишга ҳаракат қиламиз.

Шу кунгача яратилган ишларда синономия ва антономия ҳодисаларини ўрганиш нафақат тил, балки нутқий аспект, аниқроғи, бадиий нутқ таркибида тадқиқ этилди.

“Антонимия” ва “синонимия” тушунчалари ўзаро узвий боғлиқ, яъни бир лексик бирлик сенмантик жиҳатдан бошқа лексемалар билан ўзаро боғлиқлик ҳосил қилса-да, айни дамда бошқа лексемалар билан антонимик жуфтлик ҳам ҳосил қилиши мумкин. Тилшуносликда уларни умумкатегориал бирлик сифатида номловчи турли: “антонимо-синономик блок” , “синонимо-антонимик блок” [3;68], “синономик қаторлар антонимияси”, “антонимик қарама-қаршиликлар синонимияси” “антонимик уя” [6] сингари қатор атамалар қўлланилганлигини кўришимиз мумкин. Мазкур мақолада биз Ю.В.Федосовнинг атамасига мувофиқ “антонимо-синономик блок” тушунчасини қўллаймиз ва бундай тушунча остида антоним ва синонимларни умумкатегориал бирлик сифатидаги имкониятини очишда иккита синономик қаторга эга бўлган ҳамда умумий градуал мазмунни умумлаштирувчи антонимик жуфтликларни назарда тутамиз.

Исталган “антонимо-синонимик блок” муайян лексик-семантик гуруҳ таркибига киради ва айни дамда мазкур блокнинг ўзи семантик майдон хилма-хиллигини ҳам намоён этади.

Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул Ҳақойиқ асарида бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин. Масалан,

*Тангрим **тун**ни, **кундуз**ни яратди (у) **шарқ**дан **ғарб**га томон ўтиб, бир-бири билан алмашиниб туради. Тунингни кундузга, кундузингни тунга ўзгартириб яна тонг орттирди* (233-б.).

Мазкур гапда ***тун-кун – эрта-кеч***: ***шарқ-ғарб; жануб-шимол*** каби лексемалар ўзаро антонимик жуфтликларни ҳам ҳосил қилади, шунингдек, бир вақтнинг ўзида матн таркибида улар (*Тангрим **тун**ни, **кундуз**ни яратди)* контекстуал синономияни ҳосил қилишини ҳам кўришимиз мумкин.

Антонимо-синонимик муносабатларни бир парадигмада ўрганиш ёзувчининг идиостили, услубидаги тил ўзгачалигини ёритиш имконини беради. Б.А.Лариннинг таъкидлашича, муаллиф услуби “унинг фақат сўз танлаши ва қўллаши билангина эмас, балки сўз занжири композициясини таъминлаш ва сўзларни умумлаштира олиш қобилиятига ҳам боғлиқдир” [7]. Бундай жараённи амалга ошириш эса, албатта, антонимлар, синонимлар ҳисобига амалга оширилади.

Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул Ҳақойиқ” асаридаги қуйидаги сатрларда:

***Жонли-жонсиз**, борлиқ **учган-югурган**,*

Сенинг борлиҳингга гувоҳлик берган...

морфологик кўрсаткичлар асосида ***жонли-жонсиз*** антонимик жуфтлигини ҳосил қилингани ва ***учган-югурган*** (ўзбек тилининг этимологик луғатида ***жонли*** сўзининг биринчи маъноси ўсиш-ўзгариш, яшаш фаолияти ***бор / йўқ***; иккинчи маъноси эса ***тирик / ўлик*** деб изоҳланади) ***“учмоқ”*** сўзи ***учмоқ*** (кўтарилмоқ) / ***қўнмоқ*** (тушмоқ) сўзи билан антонимик жуфтлик ҳосил қилса, матн таркибига мазкур ***учган***, ***югурган*** контекстуал синонимлари орқали тирик мавжудотларга ишора қилиниши билан биргаликда, уларнинг семаларидаги зидланишни ҳам тақозо этмоқда.

Бизнингча, антоним ва синонимларнинг ўзаро бирлиги, яъни парадигматик спецификаси турли факторларга боғлиқ саналади. Биринчидан, мазкур бирликларни парадигмага олиб келиш, асосан, оғзаки нутқ ва нутқий амалиётнинг диалектал кўриниши учун характерли ҳисобланади. Иккинчидан, турли ареалга тегишли сўзларни муайян лаҳжа ва бадиий матнда қўллаш, синономик қаторнинг кенгайиши ва улар ўртасидаги антонимик аттракциянинг юзага келишига сабаб бўлади. Учинчидан, турли хил квазиантонимларнинг кўпайиши эса меъёрлашмаган оғзаки сўзлашув нутқи, шунингдек, диалектал нутқнинг ўзгачалигини таъминлайди. Бундан ташқари, ташқи меъёрлаштирувчи факторларнинг мавжуд эмаслиги ҳам бевосита сўзловчилар нутқида синонимо-антонимик оппозицияларнинг вариантлашишига олиб келади. Бадиий матн таркибида эса муаллиф мазкур ҳолатларни эмоционал-экспрессивликни таъминлаш мақсадида билвосита ва бевосита амалга оширади. Масалан:

*Раиятга **хушмуомала, шафқатли**,*

*Ҳазаб қилса арслон каби **даҳшатли**.*

***Умардек салобат** ва **қуввати** бор,*

***Усмондек саховат** ва **ҳиммати бор**. Булутлар уялур саховатидан,*

*Душманлар қўрқади **важоҳати**дан.*

Шоҳим, саноҳи йўқ фазилатларинг.

Хушмуомала → шафқатли → даҳшатли – контекстуал синонимия ва айни дамда ***даҳшатли*** лексемаси билан квазиоантонимни ҳосил қилмоқда. Худди шунингдек, матн таркибидаги ***Умардек салобати → Усмондек саховати → ҳиммати бор*** дея ижобий фазилатларнинг саналиши билан бирга контекстуал синонимия ва айни дамда *Умар→Усмон, саҳоват→ ҳиммат* лексемалари ***важоҳат*** лексемаси билан зидлантирилиши асосида квазиоантонимни ҳосил қилмоқда. Ёки

Билимли *кишилар тилла динордур,*

Илмсиз*, жоҳил одам эл ичра хордур.*

Билимли хотинлар эркак билан тенг,

Илмсиз эркакни мисли хотин, денг.

Ушбу ҳолатда эса **билимли → илмсиз** сўзлари аслида антонимик қатор семаларидаги градуонимияни ҳосил қилишига қарамай, матн таркибида улар *тилла динор / эл ичра хор* бирикмаларининг зидланиши туфайли квазиоантонимнинг юзага келишига йўл очган. Ёки

Оқил *ишин билиб қилар,* ***ўкинмайди****,*

Нодон *каби пушаймонда* ***сўкинмайди****.*

Тўҳри сўз ***асал****дур, сен* ***асал*** *егил,*

Ёлҳон сўз айтмайман, ***саримсоқ****, дегил.*

Ёлҳон сўз ***касал****лик, ташвиш келтирур,*

Тўҳри сўз ***шифо****дур, дардинг кетирур.*

Берилган матн таркибида эса *оқил / нодон*; *ўқинмайди / сўкинмайди* лексемаларининг қўлланиши антонимик жуфтликларни ҳосил қилиши билан биргаликда улар матн таркибидан *ўқинмайди, сўкинмайди* сингари контекстуал синонимия ҳодисасининг юзага келишини таъминлаётганлигини ҳам кўришимиз мумкин.

Шунингдек, қуйидаги ҳолатда ҳам ***қайнар → кўпаяр → озаяр → тугар*** лексемаларининг қўлланилиши контекстуал антонимия - квазиоантонимлар ва синонимиянинг юзага келишига йўл очганлигини кузатишимиз мумкин.

Ҳасад оловида қозондай ***қайнар****.*

Ахир зар ***кўпаяр, озаяр, тугар****,*

Ризқингни Тангрининг бир ўзи тутар.

Хулоса қилиб айтганда, биз антонимо-синонимик парадигма тушунчасини баъзан ўзида синонимик қаторни тақозо этувчи ва синонимик қатор таркибига кирмайдиган ҳамда баъзи ҳолатда синонимик қатор таркибига кирса-да, бироқ нуқий жараёнда антонимик муносабат кашф этиши мумкин бўлган лексик-семантик гуруҳни назарда тутамиз. Мазкур ҳодисалар эса, юқорида қайд этганимиздек, муаллифнинг идиостили ва нутқий вазиятга боғлиқ бўлган қатор омиллар асосида юзага келади. Аҳмад Югнакийнинг “Ҳибатул Ҳақойиқ” асаридан эса бундай мисолларни кўплаб келтиришимиз мумкин. Бироқ шуни унутмаслик керакки, назаримизда, антонимо-синонимик парадигма аъзолари ўртасидаги антонимик муносабатлар белгисини аниқлашда ҳамма вақт лексемаларнинг узуал

ва матн таркибидаги оккозионал маъноларига таянган ҳолда иш тутмоқ лозим бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Введенская Л.А. Антонимы, неотносительные в понятийном плане. В кн.: Парадигматические и синтагматические отношения в лексике и фразеологии.– Ростов на Дону, 1981.
2. Новиков Л.А. Семантический анализ противоположности в лексике: принципы, аспекты, методы. Науч. докл. высш. школы. –М.: Филол. науки, 1973, -№ 3, стр.55-67.
3. Иванова В.А. Синонимо-антонимические блоки. -В кн.: Вопросы грамматики и лексикологии русского языка. -Кишинев, 1979 . стр. 61-76.
4. Филоненко Л.И. Антонимические отношения между синонимическими рядами.- В кн.: Актуальные проблемы лексикологии. -Новосибирск, 1971. стр.152-153.
5. Федосов Ю. В. Принципы построения идеографического антонимо-синонимического словаря русского языка: монография / Ю. В. Федосов. - Волгоград: Перемена, 2001. -С.190.
6. Львов М. Р. Словарь антонимов русского языка. 8-е стер. изд. -М. : АСТ–Пресс книга, 2006. –С.592 .
7. Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. -Л.: Художественная литература, 1974.-С.285.
Аҳмад Югнакий. Ҳибатул Ҳақойиқ. (Ҳақиқатлар совғаси).
www.ziyouz.com.kutubxonasi. Қадимги туркчадан Баҳром Ғойиб таржимаси.–Т., 2002.

MATN BIRLIKLARI

Abdujabbor Omonov ,
NamDU o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada bugungi o‘zbek tilshunosligida matn birliklari xususida so‘z boradi. Jahon tilshunosligida matnga berilgan baho va mazkur hodisaga turlicha yondashuvlar mavjudligi haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Matn nazariyasi , matn lingvistikasi, matnning birliklari, matnning semantik–struktur tuzilishi, sintaktik butunlik, sintaktik konstruktsiya , abzats, maksimal tekst, minimal tekst, matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari*

ЕДИНИЦЫ ТЕКСТА

Абдужаббор Омонов,
НамГУ узбекский язык и литература
Старший преподаватель кафедры

Annotatsiya: *V state rassmotreno soderjaniye ponyatiya teksta v sovremennom uzbekskom yazыkoznanii, izlojeny soobrajeniya ob otsenkax, davayemыx tekstu v mirovom yazыkoznanii, a takje o suщestvovanii razlichnыx podxodov k dannomu yavleniyu.*

***Klyuchevыe slova i ponyatiya*:** *Teoriya teksta, lingvistika teksta, ontologicheskiye i funksionalnыe znaki teksta, semantiko-strukturnoye stroyeniye teksta, sintaksicheskaya tselostnost teksta, sintaksicheskaya konstruksiya, abzats, maksimalnыy tekst, minimalnыy tekst, sintagmaticheskiye i pragmaticheskiye svoystva teksta.*

TEXT UNITS

Abdujabbor Omonov,
NamSU Uzbek language and literature
Senior teacher of the department

Abstract: *This article discusses the essence of the text concept in today's Uzbek linguistics. It also provides an overviyew of the text in the world linguistic and different approaches to this event.*

Key words: *the theory of the text, linguistic of the text, the ontological and functional signs of the text, the semantic structure of the text, the syntactic integrity, the syntactic structure, paragraph, maximum text, minimal text, the syntactical and pragmatic characteristics of the text.*

Matn lingvistikasi haqida ma'lumot berganimizda matnni tilshunoslikning alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishni, jumladan, ilmiy, badiiy matnlarni ham, jurnal, gazeta, maqola va boshqa matnlarni ham ilmiy tadqiq etish zarurligini aytib o'tishimiz zarur. Ilmiy adabiyotlarni o'rganish mobaynida shu narsa oydinlashdiki, ilmiy asarlar, gazeta, jurnallar va hujjatlar matnnini o'rganish o'zbek tilshunoslari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Bu sohada rus tilshunosligida o'rnak olsa arziydigan bir talay ishlar amalga oshirilgan. Fikrimizni rus tilshunos olimlarining ilmiy asarlaridan keltirilgan quyidagi parchalar ham tasdiqlaydi.

I.R.Galperin matnni tadqiq etishda tilshunoslik fanining eng asosiy tushunchalaridan foydalanish zarurligini aytadi. "Mazkur kitobning tekshirish obyekti– matn, uning kategoriyalari, ontologik belgilari va uning birliklaridir. Avvalo, matnni lingvistik tadqiqot obyekti ekanini e'tiborda tutish kerak. Shuning uchun matnga tilshunoslik fanining asosiy tushunchalari yordamida munosabatda bo'lish talab etiladi" [1]

Matn qurilishini o'rganish, ilmiy jihatdan yetarli tahlil qilish zarurligi to'g'risida olima I.I. Kovtunova tubandagicha yozadi: « Hozirgi kunda matn qurilishi va uning birliklari haqidagi fan avvallari asar badiiyyati, uslubiyati, badiiy asar qurilishi haqida bilimlarning barchasini qamrab oladi».[2]

Har qanday matnni taxlil qilish, ayniqsa, uni tezroq anglashga, tushunib yetishga yordamlashuvchi qo'llanmalar yaratish zarur. Shuning uchun bu sohada qilinayotgan ishlar muhim ahamiyatga egadir. Shu o'rinda L.I.Zilbermanning fikrini keltirib o'tishni joiz deb bilamiz. "Matnning shakliy-mazmuniy tahlili har qanday mantning shakllanishi jarayonini, xususan, ilmiy mantnlarning rivojlanishi va shakllanishini tushunish imkonini beradi. Bunday tahlillar o'quvchilarda o'qilayotgan materialni tez va oson tushinishiga, matn mantiqi hamda uning shakliy-mazmuniy qurilishini ilg'ab olishlariga yordam

berishni nazarda tutadi. Shu vazifani bajarmasdan tez va savodli o'qishni ta'minlash mumkin emas". [3]

L.P.Doblayevning kitobi ham matn qurilishi va uni tushunish yo'lidagi muammolarni hal qilishga yordamlashuvchi qo'llanmalardan biridir.[4]

Matnlar faqat hajman emas, semantik, leksik-grammatik va intonatsion jihatdan ham har xil bo'ladi. Bir matnning ikkinchi bir matn bilan va muayyan matnning o'z ichida bog'lanishi ham turlichadir. Ayniqsa, matn tuzilishida tutashtiruvchi vositalar /"bog'lovchilar"/ funksiyasini o'rganish har jihatdan ahamiyatlidir. Bir misol, gap boshida kelgan demak, binobarin, xullas, ma'lum bo'ladiki, ravshanki kabi vositalar muayyan qismning oldingi qism /yoki qismlar/ bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Tarkibida shunday element bo'lgan gaplar avvalgi gaplarning mazmunini to'ldiradi.

Demak, biz matnni tilshunoslikning alohida bir kategoriyasi sifatida olar ekanmiz, unda kategoriyaning birliklari deganda nimani tushunishimiz kerak?

Tilshunoslikda bu savolga berilgan javoblar ham turlicha. Avvalo shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bu sohada rus tilshunoslari, chet el tilshunoslari bir talay ishlarni amalga oshirishgan, o'zbek tilshunosligida bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar anchagina.

Matn tushunchasi atrofida qanchalar ko'p fikrlar aytilganidek, uning birliklari to'g'risidagi fikrlarda ham har xilliklar uchraydi. Masalan, tilshunos olima Zinaida Sergeyevna Smelkova matn birligi deganda avvalo so'zni tushunadi. "Badiiy asar mazmuni, uning g'oyaviy-estetik maqsadini anglatish uchun hizmat qiluvchi badiiy so'z matn birligi sifatida birinchi galda ta'limiy maqsadni ko'zda tutadi". [5]

Xuddi shu fikrni akademik V.V.Vinogradov quvvatlab va bunga yanada kengroq, mufassalroq to'xtalib quyidagilarni yozadi:

"Badiiy asarda o'rinsiz, voqelik bilan bevosita aloqador bo'lmagan predmetlarni ifodalovchi so'zlar ishtirok etmasligi, hech bo'lmasa ularning qatnashmasligiga harakat qilish zarur. So'z tanlash uning voqelikni ifodalashi, aks ettirishi bilan uzviy bo'g'likdir. Butun asar matnida so'z va uning ifodasi o'zaro birgalikda turli xil ma'no jilolarini yuzaga chiqadi, butun matnning ajralmas bo'lagi sifatida anglashiladi».[6]

Aynan shu olim boshqa bir kitobda matn tashkil topishida faqat til elementlarini emas, balki boshqa xususiyatlar ham borligini ko'rsatadi: "...ayrim nutq parchalarinigina emas balki mushohada etish jarayonida so'zlarni bir-biriga bog'lash usullari ham fikrni bir joyga jamlashda juda ahamiyatlidir."

Matn birliklarining bir-birlari bilan aloqadorligi va shu bilan birga yaxlitligini ta'minlovchi omillar haqida hozirgi tilshunoslikda ancha-muncha munozarali fikrlar mavjud. tilshunos olima I.I. Kovtunova bu masalani o'zicha hal qilishga urinadi. "O'zaro bog'lanishning ikki xil shakli "lokal bog'lanish" va "global bog'lanish" atamalari bilan farqlanadi. Lokal bog'lanish bu-matndagi gaplarning, jumla va abzatslarning o'zaro bog'lanishi bo'lsa, global bog'lanish bu-butun matn yaxlitligini,uning ichki butunligini ta'minlovchi bog'lanishdir"[2]

Keltirilgan uzunma(sitata)dan ko'rinib turibdiki, I.I. Kovtunova matn birliklari deganda avvalo gap, abzats va undan ham kattaroq bo'lgan nutqiy parchalarni tushungan.

Yana ayrim tilshunoslar matn birliklari deganda so‘z, morfema (sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar), intonatsiya va punktuatsiyani ham tushunadilar. Masalan, so‘roq belgisi, muayyan tekstda so‘roq mazmunini borligini bildirishdan tashqari, shu gapning tugallanish, keyingi gapning esa boshlanish chegarasini ham ko‘rsatadi. Biz so‘zlarning matn hosil qilishdagi vazifasiga ko‘proq e’tibor beramiz. I.R. Galperin esa matn birligini gapdan kattaroq deb tushuntiradi: “ Matn yirik hajmli bo’lganligi bois gaplarga nisbatan kattaroq bo’lgan birliklarga egadir”. [1]

Bizning fikrimizcha, R.A. Veyxman bu masalani anchagina keng va mukammal izohlagan: “Aslida har qanday matn murakkablik darajasiga qarab gapga ham, jumlaga ham, supersintaktik birlikka ham teng kelishi mumkin. Ko’pincha sanalganlarning yig’indisidan iborat bo’ladi ” [7]

Matn haqida ma’lumot berganimizda matnga berilgan ta’riflarning turli-tuman ekanligini ko‘rib o‘tdik. Xuddi shu narsa aynan matn tushunchasini tilshunoslikda o‘rganilishida ham ko‘zga tashlanadi. Ayrim tilshunoslar, umuman, matn degan tushunchani tilshunoslikda alohida kategoriya sifatida o‘rganishning zaruriyati yo‘q deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, matn gaplardan tashkil topar ekan, gaplarning o‘rganilishi matnga alohida tadqiqot ob’ekti sifatida qarashga hojat qoldirmaydi. Masalan, T.V. Buligina “Til qurilishida turli sath birliklari va ularning o’zaro aloqasi” kitobida quyidagicha yozadi: «Matnda gaplar o’ziga xos ravishda bog’lanishini inkor etmagan holda aytishim mumkinki, meningcha, matn xususiyatlari uni tashkil etgan gaplar aks ettiruvchi xususiyatdan boshqa narsa emas »[8]

Biz matnga bergan ta’rifimizni himoya qilish maqsadida quyidagicha o‘xshatish qilmoqchimiz. Agar biz kishi qo‘lining quyi qismi faqat kaft va barmoqlardangina tashkil topgan deb o‘ylasak, unda ana shu kaft va barmoqlar birlashib yaxlit bitta mushtni hosil qilishini, kuchini va o‘ziga xos xususiyatini yoddan chiqargandek bo‘lamiz. Bizning bu fikrimizni I.R.Galperinning ilmiy asoslangan gaplari ham tasdiqlaydi. “Har qanday katta obyektni, xususan, matn kabilarning tadqiq etishda ikkita havf bor: bir tomondan obyektni mayda bo’laklarga bo’lish, boshqacha qilib aytganda, obyektni tashkil etuvchi birliklar tahlilida chuqur kirib borish (gap shundaki, bunda tadqiqotchi daraxtlarning ortidagi o’rmonni ko’rmay qoladi) ikkinchi tomondan esa obyektni umumlashtirish. Bunda tadqiqotchi obyektni tashkil etuvchi bo’laklarining o’ziga xos jihatlari va xususiyatlariga yetarlicha baho bera olmaydi (yirik hajm, odatda, mayda bo’laklarga soya soladi, ular haqida noaniq , ba’zan esa noto’g’ri tasavvurlar uyg’otadi) [1]

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, biz matnni alohida tilshunoslikning tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilishi, ilmiy matnlarni ham, maqola, gazeta, jurnal matnlarini ham, badiiy matnlarni ham alohida-alohida yaxlit holda olib o‘rganilishi kerak va zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1..И.Р. Галперин. Текст как обхект лингвистического исследования. М., “Наука”, 1981, стр. 8

2.И.И. Ковтунова. Русский язык. Вопросы структуры текста в трудах акад. В.В.Виноградова. М., «Наука», стр. 4-5.

3.Л.И. Зильберман. Структурно-семантический анализ текста. М., “Наука”, 1982, стр. 3.
4.Л.П.Доблаев. Смысловая структура учебного текста и проблемы его понимания. М., 1982.
5..З.С. Смелкова. Слова в художественном тексте. М., 1980. стр. 3-4.
6..В.В. Виноградов. О языке художественной литературы. М., 1959. стр. 230, 234.
7..Р.А. Вейхман. Уровен текста. Филологичекие науке. 1988, №2. стр. 68.
8. Т.В. Булигина. “Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие”. М:, 1969, стр. 224.

МУАЛЛИФ ВА ТАРЖИМОН ЎРТАСИДАГИ РУҲИЙ ЎХШАШЛИКЛАР ВА ТАРЖИМА СИФАТИ

Марғуба Хошимовна Будикова-ўқитувчи, хорижий тиллар кафедраси,
Андижон давлат тиббиёт институти

***Аннотация**: Немис адабиётининг ёрқин вакили Гёте нафақат етук ёзувчи ва шоир, балки ўз даврининг йирик матафаккири эди. Ўша даврда ўзининг сиёсий ва ижтимоий қарашлари, теран фикрлари билан ҳам ажралиб турган. Мақолада унинг жаҳонни зарб эткан “Ёш Вертернинг изтироблари” сентиминтал романининг ўзбек тилига бевосита таржимаси ва таржима жараёнида учраган муаммолар ва бир қатор таржимонларнинг фикр мулохазалари таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар:** ёзувчи, бадиий, бевосита таржима, қўшма гаплар, сўз сеҳри, воқелик, теран фикр*

СХОДСТВО ВНУТРЕННЕГО МИРА АВТОРА И ПЕРЕВОДЧИКА И КАЧЕСТВО ПЕРЕВОДА

Марғуба Хошимовна Будикова- преподаватель, кафедры иностранных языков,
Андижанский государственный медицинский института

***Аннотация:** Гёте был не только выдающимся писателем и поэтом, но и великим мыслителем своего времени. Он отличался своими политическими и социальными взглядами и глубоким мышлением. В статье анализируются проблемы, возникшие при переводе его всемирно известного сентиментального романа «Мучения молодого Вертера» на узбекский язык, а также проанализированы комментарии ряда переводчиков.*

***Ключевые слова:** писатель, художественный, прямой перевод, сложные предложения, магия слова, реальность, глубокое мышление*

MENTAL IDENTITY OF AUTHOR AND INTERPRETER AND THE QUALITY OF TRANSLATION

Marguba Hoshimovna Budikova–teacher of Foreign Languages department,
Andijan State Medical Institute

Annotation: *Goethe was not only an outstanding writer and poet, but also a great thinker of his time. He was distinguished by his political and social views and deep thinking. The article analyzes the problems that arose during the translation of his world-famous sentimental novel "The Torment of Young Werther" into Uzbek, as well as the comments of a number of translators.*

Keywords: *writer, literary, direct translation, complex sentences, word magic, reality, deep thinking*

Ҳамма замонларда Гёте асарлари таржимасига киришган қаламкашлар бу сўз санъткорнинг буюклиги олдида, сўзларнинг сеҳри олдида таъзим қилишган.У насрда ҳам, назмда ҳам сўз санъатининг алпи бўлиб танилган. Нафақат олмонияни,балки жаҳонни зарб этган «Ёш Ветернинг изтироблари» сентимантал романи Гёте ижодида ҳам алоҳида ўрин тутади. Мазкур асар 18 асрда яратилган ва ўзбек тилига Янглиш Эгамова томонидан бевосита таржима қилинган. 1975 йили Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти томонидан ўзбек китобхонларига тағдим этилган.

Хўш, шаклан мўъжазгина, моҳиятан улкан бу китобни таржима қилишга бундай журъатга Янглиш Эгамовани нима ундади? Ахир ўшанда эндигина олий ўқув юртини битириб, талабаларга олмон тилидан сабоқ бераётган ўқитувчи эди холос. Шубҳасиз, Гёте айниқса унинг «Вертер»и таржимаси учун олмон тилини билишининг ўзи кифоя қилмайди. Таржимон ўзининг эсдаликларида шундай ёзади: «Вертер» га меҳр менда талабалик йилларимда, романдан катта бир парчани таҳлилий ўқиш дарсида туғилган эди. Қолаверса, қахрамон билан характерлар муштараклиги, соф субъектив сабаблар бўлиши ҳам мумкин. Хуллас, бу асар менинг қалбимга, борлиғимга туғён олиб кирган, уй—хаёлимни эгаллаган эди. Бундай холатда уни таржима қилмай бўлмасди. Гётени таржима қилишга, тўғриси, назарий жидатдан у қадар тайёр эмасдим, аммо, руҳан, бутун шуурим билан тайёр эканлигимни англаб етгач, шу ишга журъат этдим".

Олима ва таржимон Янглиш Эгамова «Ёш Вертернинг изтироблари» таржимасига 1969 йилнинг куз ойида киришади. Ва асарни 40 кунда таржима қилиб 1970 йил январь ойида нашриётга беради. Беш йил давомида асар нашриётда чоп этилмасдан қолиб кетади. Я,Эгамова ана шу вақтда бош редактор бўлган Мухаммад Али билан учрашади. Мухаммад Али асарни қайта кўриб чиқишни тавсия қилади. Беш йиллик давр ичида асар қайта таржима бўлади. Таржимон бу сафар Берлинда чоп этилган 13-томдан фойдаланади. Қайта таржима қилгач асарни кучли ҳис-туйғулар билан бойиганлигини ҳис этади. Асар 1975 йил нашрдан чиқади. Китобхонлар асарни илиқ кутиб оладилар. Мархум профессор Акром Каттабеков Я. Эгамованинг илк таржимасига юксак баҳо бериб, «Агар Гёте Вертерни ўзбек тилида ёзганида худди шундай ёзган бўлар эди» деган. Бундан кўриниб турибдики Янглиш

Эгамованинг илк бор қилган таржимаси унинг нақадар ўз ишга маъсулиятли ва жиддий ёндошгани ва олиманинг юксак таржимонлик маҳоратининг маҳсулидир.

Гулистон Университетида талабаларга олмон тилидан дарс бераётган Я. Эгамова билан учрашиш мақсадида 2003 йил баҳор ойларида Университетга бордим. Ёши 60 ларни қоралаб қолган, одмигина кийинган аёл илиқ, табассум билан кутиб олганди ўшанда. Суҳбатимиз «Ёш Ветернинг изтироблари» таржимаси устида борганида Янглиш Эгамова хаёлга чумди.

«Биласизми, орадан шунча вақт ўтсада, худди мен уни кеча қўлимга олиб, унинг тароватли оламига қадам қўйгандекман. Мен уни ёддан билсам керак. Ха, ёддан биламан. Чунки «Вертер» кўз ёшларим ва изтиробларим меваси. Худди Гёте менинг туйғуларимни, қалб изтиробларимни, 200 йил олдин қоғозга туширгандек» {1}

Ха, Адиб ва таржимон ўртасидаги руҳий яқинлик. Таржиманинг муфақиятли чиқишининг асосий сабаби дам шудир.

Гёте ижодининг Русияда тарқалиш тарихи тадқиқ қилинар экан «Гёте рус адабиётида» монографиясида «Вертер»нинг дастлабки, 18-асрдаги таржималари ҳақида ўта ҳаяжонли маълумотларни келтиради. Асар таржимасига Андрей Тунгенев ва Мерзляков бир вақтда киришишади ҳамда иш натижалари ҳақида мунтазам бир-бирларини хабардор қилиб туришади. А.Тургенев 1799 йилнинг 26 ноябрида ўз кундалик дафтарида ижод жараёнидаги қалб туғёнларини шундай ифодалайди.: «...тағин унинг «Вертер»ини қўлга олдим. Бу шунақа туйғуки, гўё ёқимсиз, бўм-бўш, совуқ, ёт бир ердан тароватли бир оламга қадам қўйгандек бўласан киши. Тағин Гёте, Гёте унинг қаршисида тиз чўксанг арзийди! Қанчалар озиқ оласан киши ...Вертерни таржима қилишга киришганимдан ва унда Гётени бутун борлиғи билан топа олганимдан қалбим шунчалар яйраяптики,бу туйғуни изоҳлаб беролмайман, у менга қандайдир илиқлик, юпанч бахш этади...»

Ҳатто Гётенинг ўзи ҳам «Вертер»ни кейинроқ ўқиб кўриб, бехат хайратга тушганини ёзган. У дўсти Эккерманга: «Вертер шундай зотки, мен уни баайни сақоқушдек ўз юрак қоним билан озиқлантирганман», деган. Сўзсиз таржимон ҳам уни «ўз юрак қони билан озиқлантириши», муаллиф ўша асарни ёзиш жараёнида қандай холатга тушган бўлса, табиий бир ҳолда барчасини бошдан кечириши лозим эди. Хуш, Янглиш Эгамова таржима жараёнида нималарни бошидан кечирган. Таржимонимиз ҳолатини тасаввур этиш учун яна унинг кундалик дафтарига мурожаат қиламиз. «16 ноябрь 1969 йил. Бу китобнинг охирги варақлари мени ҳам қахрамонга қўшиб ўлдириб қўядими, деб қўрқаман. Уни оддий китобхондек ўқиб чиқиш бошқаю, ҳар бир сўз, ҳар бир жумла мазмунини ҳис, этиб таржима қилиш бошқа экан!... Сўнгги саҳифаларни деярли луҳатга ҳам қарамасдан таржима қилаянман. Маржон-маржон кўз ёшларим Вертер кўз ёшларига қўшилиб кетаяпти. Хеч ким буни менинг қалб туғёнимни ҳис этолмайди!...» {2}

Таржимоннинг яна бир изтироблар акс этган ёзувларни ўқиймиз. «18.Х1.1969. Улкан севгига хамиша ўлим ҳамроҳ бўлиб юрармиш...Бугун хузурли ва машаққатли ишимни ниҳоясига етказдим. Охирги варақни ўгиришда чинакам дод солиб

йиғладим, гуё энг яқин кишим вафот «этгандек...Хуллас, чексиз изтиробда тугатдим.» {3}

Сирасини айтганда, ҳақиқий бадиий таржима унинг илоҳий хузур ва азобларни том маънода бошдан кечиргандагина яратилади. Гётенинг ўзи ҳам асарни йиғлай-йиғлай ёзган экан. Китоб босилиб чиққандан кейин дам уни қўлга олишга юраги бетламаган. Орадан узоқ йиллар ўтгач: «Шундай нарсани ёзиб ҳам одамнинг тирик қолганига ақлинг бовар қилмайди», деб ёзган «Шеърият ва ҳақиқат» китобида.

Шубхасиз «Вертерни таржима қилиш нафакат руҳий, балки тил ва услубий жиҳатдан ҳам осон эмас. Гёте услуби ҳақида сўз юритар эканмиз, бунда икки йўналишни кузатиш мумкин: бири унинг «Бўрон ва ҳужум» даври асарларига хос йиғлоқилик, образлилик, эҳтиросларга бой муболағали тилда фикр ифодалаши бўлса, иккинчиси, Гётенинг кейинги йиллар ижодига хос бўлган эпик услуб бўлиб, фикрлар мураккаб таркибли қўшма гаплар орқали, босиқ, расмий охангда ифода этилади. «Ёш Вертернинг изтироблари» романида ҳар иккала услуб ўрин алмашиб туради. бундан ташқари турли—туман аниқловчи, ундалма, ўҳшатиш, сифатдош ва бошда тил воситаларининг қалашиб ётиши таржимоннинг баъзан боши берк кўчага киритиб қуйиши мумкин. Буларнинг бирортасига ҳам путур етказмасдан матнни ўзбек тилида қайта тиклаш таржимондан жуда катта меҳнат ва вақт талаб қилади. Бундай мураккаб жумлаларни бўлакларга бўлиш, тил воситаларига беътибор бўлиш мумкин эмас, унда Гётедан асар ҳам қолмайди.

Менинг назаримизда, «Ёш Вертернинг изтироблари» романи насрдаги назмдир, лирикадир! Демак, унинг таржимаси ҳам, таржима танқидчиси ҳам иш жараёнида шу нуқтаи назардан келиб чиқса яхши бўлади. Бу дегани унга бошқа насрий асарлар каби эмас, балки лирик достондек муносабатда бўлиш талаб қилинади. Чунки «Вертер» кишида ўта нозик, ҳис- туйғуларни уйғотувчи гўзал адабий обидадир. Мантга харфхурларча эмас, ижодий муносабат зарур «Вертер» тили беҳад бой, гуё бутун олмон тилидаги энг чиройли, энг сермаъно сўз ва иборалар унда жамлангандек. Уни дуру жавоҳирларга тўла тубсиз денгизга қиёслаш мумкин. Улардаги қат-қат фикр маржонларини чуқур идрок этиш кишидан озмунча иқтидор талаб этмайди. Шундай экан таржима сифатига тўхталиб ўтишни лозим топдим.

Асарнинг бош қаҳрамони Вертер бўлиб, унинг сюжети хатлар, эсдаликлар асосида қурилган. Шу сабабдан ҳам «Ёш Вертернинг изтироблари» ўқувчига гоҳида Вертернинг кечиккан ва асосан шу туфайли барбод булган севгисининг изтиробларидай, кўпроқ эса, ижтимоий воқеликка, муҳитга қарши туғёндек туюлади. Ўқувчи Вертер қалбини васл иштиёқи йўлидаги азиятлар қийнаётганини эмас, балки бу қалбда кўпроқ ХУШ аср немис воқелиги жамиятнинг кўпчилик аъзолари қалбига солган изтироблар уммони қалқиб турганини аниқ ҳис қилади. Яъни таржимон ҳақли равишда қайд қилиб ўтганидек, «роман психологик ва социал характерга эга булиб, Вертер кечинмалари оддий бир тасодиф ёки соф индивидуал кечинма сифатида эмас, балки ижтимоий шарт-шароитлар келтириб чиқарган фожиа тарзида кўрсатилган» Асарнинг бу жиҳатдан унинг таржимасида ҳам Гётеона

акс эттирилганки, унда (таржимада) инсоний эркка туғаноқ мухитни парчалашга интилаётган шижоаткор қалбнинг исёни умумлашади: Қиёс қилинг: «Und das glänzende Elend, die hangweile unter dem garstigen Volke, das sich hier nebeneinander sieht! Die Rangsucht unter ihnen, wie sie nur wachen und aufpassen, einander ein Schrittchen abzugewinnen, die elendesten erbarmlichsten Leidenschaften gans ohne Röckchen.»

Таржимаси: «Атрофда ғимирлашиб ётган жоҳил одамлар ичида зерикишни, ғаройиб қашшоқликларни айтмайсанми! Улардаги шахсиятпарастлик, бир-биридан озгина бўлса-да, олдинга кетиш учун ҳушёр туришлар, кузатишлар бу очиқ ҳолдаги ўта пасткаш ва ўта равсо интилиш»

Ҳақиқатдан ҳам, муаллиф тасвирини таржимон тўғри талқин қилгандек, «ғимирлашиб ётган жодил одамлар, улардаги шахсиятпарастлик, очиқ холдаги ўта пасткаш ва ўта расво интилишлар, қашшоқлик» ўша пайтдаги немис воқелиги учун типик ижтимоий ҳодисалар эди. Бир қарашда мисол тариқасида келтирилган ушбу муқобил таржимада «das sich hier nebeneinander sieht!» аниқловчи эргаш гап тушириб қолдирилгандай туюлади, бироқ унинг «ғимирлашиб ётган бирикмаси орқали ифодаланганини пайқаш кейин эмас.

Таржиманинг ютуқларига келганда, асосан, шуни айтиш керакки, роман ўзбекчасида ҳам, худди аслдагидай, муаллифнинг ижтимоий воқеликка бўлган муносабатларини акс эттирувчи пейзаж тасвири, протрет чизиш, характерлараро драматизм, юз бераётган воқеа-ходисаларга бош қахрамоннинг мушохадавий муносабати каби тўртта йуналиш аниқ белгиланган.

Мисол тариқасида шулардан ижтимоий воқеликка портрет чизиш орқали билдирилган муносабатларни олиб кўрайлик: оригиналдан: Da tritt herein die übergnädige Dame von S … mit ihrem Herrn Gemahle und Wohlausgebrüteten
Gänslein Töchter mit der flachen Brust und niedlichem Schnürleibe, machen en passant ihre hergebrachten hochadeligen Augen und Naslöcher, und wie mir die Nation vom Herzen zuwider ist, wollte ich mich eben empfehlen, und wartete mir, bis der Graf von garstigen Gewasche frei wäre, als mein Fräulein B... hereintrat».

Бу парча ўзбекчада шундай берилган: «Шу пайт С. исмли олифта хоним эри ва ғозга ўхшаган хўрпайган, кўкси тептекис хипчабел қизи билан кириб келишди ва en passant аристократларга хос қиёфада хумрайишар, бурунларини кўтаришар эди, шу тахлит нусхалар таъбимга мутлоқо ўтирмаганлиги туфайли тезроқ бу ерни тарк этмоқчи бўлдим ва граф ўшаларнинг ёқимсиз сухбатидан халос бўлгунча кутиб тургандим, фрейлен фон Б... истиқболимда пайдо бўлди».

Ҳақиқатдан ҳам, муаллиф графникидаги базм залига кириб келаётган С. исмли хоним, унинг эри ва дизининг портретини тасвирлашда « Da tritt herein die übergnädige Dame von S … mit ihrem Herrn Gemahle und Wohlausgebrüteten
Gänslein Töchter mit der flachen Brust und niedlichem Schnürleibe, machen en passant ihre hergebrachten hochadeligen Augen und Naslöcher, und wie mir die Nation vom Herzen zuwider ist, wollte ich mich eben empfehlen, und wartete mir, bis der Graf von garstigen Gewäsche ».каби сифатдошларни қўллар экан, бу билан у ўзининг киборлар жамиятига, бачкана аристократларга бўлган салбий муносабатларини

яққол ифодалайди. Бу деталларнинг ўзбекчага «олифта хоним, кўкси теп-текис қиз, ғозга ўхшаш хўрпайган, аристократларга хос қиёфада ҳумрайишар, бурунлари кўтаришар, ёқимсиз суҳбат» каби муқобиллари билан берилиши айни муддао бўлиб, булар Гётенинг аристократ доираларига бўлган салбий қарашларини, бу тасвирдаги нафрат ва киноя оҳангини аниқ акс эттиради. Айниқса ушбу келтирилган мисолдаги «wie mir Nation von Herzen zuwilder ist» ҳамда «bis der Graf von garstigen Gewäsche frei wäre» тарзидаги сабаб ва пайт эргаш гапларининг «шу тахлит нусхалар таъбимга мутлоқо ўтирмагани туфайли», «граф ўшаларнинг ёқимсиз суҳбатидан халос бўлгунча» каби вариантлар орқали берилиши адекват таржима ва таржимоннинг топқирлигидан далолатдир. Негаки бу жумлалардаги «die Nation» жамловчи оти ва «garstige Gewasche» эпитетли бирикмаси ўз луғавий маъноларида “халқ” ва “ярамас нарсалар” тарзида тўғри ифодаланса, асл нусхадаги кесатиқ ва нафрат оҳанги ўзбекчага сезиларли даражада хира кўчирилган бўларди. Зотан, бу ўринда контекстдан келиб чиқадиган маъно ҳам фақатгина таржимон қўллаган «шу тахлит нусхалар» ва «ёдимсиз сухбат» вариантларини тақазо этади. Худди шундай «Vom Herzen Zuwider ist» идиомасининг «таъбимга мутлақо ўтирмаганлиги туфайли» каби акс эттирилиши «менинг қалбим тамоман қарши» деган маънонинг нозик ифодаланшидирки, бу дам аристократларнинг кибор ҳулқини қоралашда асл нусха руҳини беришга кўмаклашган. Юқорида қайд қилиб ўтганимиздек, асардаги Вертер хотиралари орқали баён этилган пейзаж тасвири дам Вертер фаолиятида «ижтимоий шарт-шароитлар келтириб чиқарган фожиа»ни очиб беришга буйсундирилган.

Муаллиф услубининг бу томонини ўзбек ўқувчисига тўғри етказишга ўзини бурчли деб билган таржимон пейзаж тасвири таржимаси устида қунт ва масъулият билан ишлаган, маънони аниқ англатмоқ учун ўзбек тилининг тасвирий воситаларидан ўринли фойдаланган ва бадиий эффектга бой жумлалар тополган.

Жумладан, Я.Эгамова Вертернинг 18 август эсдаликларини ўзбекчага ағдарар экан, ундаги оромбахш герман манзарасини, этагидан тортиб чуққасигача баланд қалин дарахтлар билан қопланган тоғларни, ажойиб ўрмонлар соя ташлаб турган эгри-бугри бўлиб кетган водийни, шивирлаб турган қамишларни оралаб тинч оқаётган дарёни, кечки енгил шабадада кўкда сузаётган оппоқ булутланинг сувда акс этишини, миллионлаб пашша тудаларининг ботиб бораётган қуёшнинг қизил шуласида ғужғон уйнаётганини, охирги ёруг шуъла ҳувиллаётган қўнгизни майса орасида тортиб чиқараётганини ва буларни кузатаётган қахрамон руҳиятини худди Гётедагидек бадиий буёқлар билан тасвирлай олди, у шу оромбахш манзара тасвири билан уйғунлашиб кетган «фавқулодда очарчиликлар»,- « барча мавжуд нарсаларни емиришдан ўзгага ярамайдиган, табиат қўйнида яшириниб ётган бузғунча куч» ҳақида эса афсус ва ҳасратона сўзлай олди.

Муаллиф ушбу пейзаж тасвиридан шундай хулоса чиқаради: «Himmel und Erde und ihre webende Kräfte um mich her: Ich sehe nichts als ein ewig Verschingendes ewig wie der käuendes Unge hener»

Буни Я.Эгамова «Атрофимда ер, осмон ва унинг ҳаётбахш кучи хукумрон, мен эса ҳамма нарсани жамлаб ўз қаърига тортувчи тубсиз жарликдан бошда ҳеч нарсани

кўрмайман » каби ўғирган. Оригиналдагидай ишонтириш кучига эга бўлган таржима эса таҳсинга лойиддир. Я.Эгамова таржимада аслига монанд акс эттириш учун кесатиқ ва кинояларни, қувонч ва шодликни, ғам-ҳасрат ва уйчанликни, ғазаб ва юрак дардларини ифодаловчи сўзлар, иборалар тополган.

Кузатишлар шуни кўрстадики, таржимон асарнинг лексик- стилистик хусусиятларини ҳам сақлаб қолишга алоҳида эътибор берган ва бунинг уддасидан чиққан. Юқорида санаб ўтилган фазилатларнинг самараси ўлароқ, Гёте ушбу сентиментал роман ўқувчига ўз бадиий эстетик қийматини қариб йўқотмаган ҳолда тақдим этилган.

Адабиётлар

1. И.В.Гёте “Ёш Вертернинг изтироблари” Тошкент Адабиёт ва санъат нашриёти 1975 й
2.J.W. Goethe. Die Leiden des Jungen Werthers. Ленинград: издательство “Просвещение” 1975
3.Бадиий таржиманинг актуал масалалари. Тошкент Фан 1977 й.
4. Янглиш Эгамованинг кундаликлари
5.Каримов Ш. Диллардан- дилларга. ” Тошкент Адабиёт ва санъат нашриёти 1980 й
6. Я.Эгамова. Муҳаббат фарзанди. Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси 1998 йил. 2-сон.

ЎЗБЕК ТИЛИДАН ИНГЛИЗ ТИЛИГА БАДИИЙ ТАРЖИМАНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ТАҲЛИЛИ (АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ “АНОР” ҲИКОЯСИ ТАРЖИМАСИ МИСОЛИДА)

Досбаева Наргиза Турғунпўлатовна
Филология фанлари номзоди, доцент, НамДУ мустақил изланувчиси

Аннотация: *Мақолада лексик эквивалентсизликнинг асосий кўринишларидан бўлмиш лакунар бирликлар, хос сўзлар (реалия) ҳамда фразеологизмлар таржимаси мисолида ўзбек тилидан инглиз тилига таржиманинг лингвомаданий таҳлили олиб борилган. Мисоллар таржимасига лингвомаданий ёндашув асосида баҳо берилган ҳамда таржимада эквивалентликка эришиш учун мақбул усуллар таклиф қилинган.*

Калит сўзлар: *лакуна, хос сўз, фразеологизм, эквивалентлик, компенсация, тўлдириш, транслитерация, функционал аналог.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДА РАССКАЗА АБДУЛЛА КАХХАРА «АНОР»)

Досбаева Наргиза Турғунпўлатовна
кандидат филологических наук, доцент, соискатель НамГУ

Аннотация: *В статье проведен лингвокультурологический анализ перевода с узбекского языка на английский язык на примере переводов, лакунарных единиц, реалий и фразеологизмов как основных видов безэквивалентности. Переводы примеров были оценены с позиции лингвокультурологического подхода и были предложены приёмлимые методы для достижения эквивалентности в переводе.*

Ключевые слова*: лакуна, реалия, фразеологизм, эквивалентность, компенсация, заполнение, транслитерация, функциональный аналог.*

THE LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF LITERARY TRANSLATION FROM UZBEK INTO ENGLISH (BY THE EXAMPLE OF THE SHORT STORY “THE POMEGRANATE” BY ABDULLA KAHHOR)

Dosbaeva Nargiza Turғunpўlatovna
Candidate of Philology, Associate Professor, Applicant, NamSU

Annotation: *by the example of translation of lacuna units, culture-specific words and phraseological units has been conducted in this scientific paper. The examples of translation have been assessed from the point of view of linguocultural approach and the proper methods for achieving the equivalency in translation have been proposed.*

Key words: *lacuna, culture-specific words, phraseological units, equivalency, compensation, filling, transliteration, functional analogue*.

Маданиятлараро мулоқотдаги ўртачи сифатида таржимон икки лингвомаданият ўртасида мувозанат сақлашга харакат қилиши лозим. У матндаги универсал унсурни маданий ўзига хос унсурдан ажрата билиши, тушуна олиши, ўзга маданиятга хос лингвистик ва экстралингвистик маълумотни ҳисобга олган ҳолда таржима қилиши керак. Лингвомаданий ёндашувни таржима муқобиллари мавжуд бўлмаган ҳолатда ёки лисоний ва концептуал тафовутлар яққол кўринган сохаларда қўллаш лозим. Бадиий таржимада, айниқса, ўртасида маданиятлараро тафовутлар катта бўлган аслият ва таржима тиллари ҳолатида юқоридаги вазиятлар айниқса кўп учрайди ва мақбул ечимни талаб қилади. Биз, хусусан, лингвомаданий ёндашувни бир-биридан ҳар томонлама узоқ ҳисобланган ўзбек-инглиз бадиий таржимасида қўллаш шартлигини ёқлаб чиқамиз, сабаби айнан насрий бадиий асарларда ёрқин лингвомаданий компонентга эга лексик бирликлар талайгина учрайди ва аксарият ҳолатларда асар бадиий қиймати ва ғоясини ифодалашда айнан шу турдаги лексик бирликларга ҳал этувчи рол ажратилади. Ушбу лексик

бирликларни тўғри тушуниш ва таржима қилиш учун чуқур фон билимлари талаб қилинади. Уларни етарли даражада тушунмаслик ва нотўғри таржима қилиш мулоқотдаги англашмовчиликлар ва маданий хатоларга олиб келади.

Барчага маълумки, таржиманинг асосий мақсади таржима қилинаётган матннинг миллий колорити, яъни "аслиятнинг миллий ўзига хослиги, унинг миллий муҳити билан боғлиқ ўзига хос бўёқдорлигини етказиб беришдан иборатдир. Бу таржима назариясининг асосий муаммолари сирасига кириб, таржима бўлишлиги тўғрисидаги саволга жавоб шунга боғлиқ бўлади" [2.52]. Албатта, таржимон миллий колорит адекватлигининг талаб ва қоидаларига қатъий риоя қилиши лозим, акс ҳолда, таржима иши таржимоннинг ўзбошимчалик билан яратган қайсидир муҳит ҳақидаги асарга айланиб қолиши турган гап. Бу билан боғлиқ ҳолда, С. Влахов и С.Флоринларнинг қуйидаги фикри ёдимизга тушади: "Асардан миллий руҳни сиқиб чиқариш оқибатида воқеа жойи исталган жой, аслида эса ҳеч қандай жой, шунчаки шаклсиз, рангсиз, номсиз мамлакат ҳисобланиши мумкин. Бундай "усул" бўёқдорликни йўқотиб, исталган таржимани бузади" [1.116].

Таржима жараёнида тиллардаги эквивалент компонентларни юзага чиқариш ва қўллашдан асосий мақсад шундан иборатки, ёзма ёки оғзаки матн мазмунини бир тилдан иккинчи тилга адекват, тўғри ва мувофиқ берилиши лозим. Бунда таржима қилинаётган материалларнинг адекватлиги ва эквивалентлигига ҳам структур, ҳам мазмуний томондан амал қилиниши керак. Демакки, эквивалентлик (адекватлик) деганда, аслиятнинг матн ва жанр ўзига хосликларини ҳисобга олган ҳолда таржима қилинаётган материалнинг шакл ва мазмун бирлигини тўла сақлаб қолишни тушунмоқ даркор.

Туробжон эшикдан ҳовлиқиб кирар экан, қалами яктагининг енги зулфинга илиниб тирсаккача йиртилди [3.9]. - *As Turobjon was coming hurriedly through the door, the sleeve of his kalami* robe caught on safety chain. (*Kalami - cotton fabric)*[4]. Ушбу мисолдаги "қалами" хос сўзини тасвирий йўл билан очиб бериш мумкин эди ва бу орқали ортиқча сатр ости изоҳидан қутулса бўлар эди. Аксинча, ўзига хос миллий бичимга эга "яктак" реалияси таржима матнида транскрипция усулида берилиб, сатр остида унга батафсил изоҳ берилса мақсадга мувофиқ бўлар эди, чунки аксарият луғатларда "яктак"нинг "robe" (light summer robe, long, unpadded robe) муқобили билан берилиши ушбу ўзбек хос сўзининг чет ўқувчиси кўз ўнгида барча деталларида намоён бўлишини таъминлаб бера олмайди. Яъни, биз бу ҳолатда юқоридаги икки хос сўзнинг қуйидаги таржима вариантини таклиф қиламиз:

As Turobjon was coming hurriedly through the door, the sleeve of his striped, hand-woven yaktak caught on safety chain. (*yaktak – long, unpadded robe, open in bosom and which is worn by male only).*

Қуйидаги мисолимизда эса, ўзбек хос тушунчаси бўлмиш сўзлардан бирига сатр ости изоҳида бироз торроқ ёндашилган ва бунинг оқибатида таржима ўқувчисида ушбу реалия хусусида нотўғри тасаввур ҳосил бўлишига олиб келинган деб ҳисоблаймиз:

Туробжон тугунчани орқасига бекитиб, тегишди:

—Акажон, дегин! — Акажон! Жо-он ака!.. [3.9]

Turobjon flirted with her as he hid the bundle behind his back.— Call me brother! Brother, my dear brother![4] (****Call me brother*** *- wives call their husbands "brother". This is the sign of respect – акажон, деб чақир – хотинлар эрларини "ака" деб чақиришади. Бу ҳурмат белгисидир).*

Кўриб турганимиздек, сатр ости изоҳида "акажон" тор доирада изоҳланаяпти, ҳамда таржима матнини ўқиётган ўзга тил ва маданият вакили тасаввурида "ўзбек миллатида рафиқаларнинг ўз турмуш ўртоқларига нисбатан "ака" деб мурожаат қилишлари ягона қоидага киради" кабилидаги тушунчанинг вужудга келишига олиб келмоқда. Мазкур вазиятда, икки хил усул билан муваффақиятли таржима амалиётини бажариш мумкин эди. Биринчи усул компенсация бўлиб, бунда эркалаш мазмунига эга "акажон" сўзини "my dear husband" ва иккинчи ҳолатида "my dearest husband" жумласи билан алмаштирилса, контекстда ҳеч қандай мазмуний йўқотиш пайдо бўлмас эди. Иккинчи усул, яъни таржимон йўл тутган ҳолатда, сатр ости изоҳига чуқурроқ ёндашиш орқали масалага ечим топилар ҳамда ўзбек маданиятнинг тўғри талқинига эришилар эди, деб ҳисоблаймиз, яъни (***Call me brother** – there are several ways of treatment the husbands by wives respectfully and that is one of them. This is the sign of respect. Wives also call their husbands "his or her father", "master" and by adding "brother" at the end of husband's first name).

Қуйидаги мисолимиздаги яна бир лакунани таҳлилга тортсак:

Туробжон унинг кўзини жиққа ёш кўриб...[3.9] - *Now he saw tears in her eyes [4].*

Мисолдаги "жиққа" (бутунлай, батамом, жуда кўп) сўзи таржимада тушириб қолдирилган, яъни лакуна тўлдирилмаган ёки компенсация қилинмаган. Ҳикоядаги аёл қаҳрамон–интизорлик билан анор кутган хотиннинг хафсаласи пир бўлиши муаллиф томонидан бўрттирилиб "жиққа" юкламасини қўллаш орқали маҳоратли тарзда етказиб берилган. Шу сабабли ушбу гап таржимасида ҳам лакунани тўлдирилишига эътибор бериш керак эди. Бу ҳолатда "eyes full of tears" ибораси билан лакунани тўлдириш мумкин.

Ҳар бир халқ маданиятида диний қарашлар билан боғлиқ концептлар мавжудки, уларнинг вербаллашуви натижасида ўз миллий бўёқдорлигини сақлаб қолиши таржимадаги кўп чалкашликларга олиб келиши мумкин. Аксарият ҳолатларда, бу муаммо таржимоннинг концептни тушунмаслиги билан эмас, таржима матнида лакунага дуч келиши ва уни сатр ости изоҳидан қочган ҳолда тўлдиришга ҳаракат қилиши билан боғлиқ бўлади. Концептларни таржимада акс эттириш–таржима назариясидаги энг мураккаб, шу билан биргаликда, бадиий таржима билан шуғулланувчи барча таржимонлар учун ўта муҳим бўлган вазифалардан бири ҳисобланади. Бу вазифада мамлакатшунослик нинг таржимавий аспекти, таржимон маданияти, таржима ўқувчисининг аслият борасидаги фон билимларга эгалик даражаси ва бир қанча адабиётшунослик ва тилшуносликка даҳлдор масалалар бир-бири билан чирмашиб кетади.

Таржимада лакунага ёндашувнинг яна бир усулини кўриб чиқсак.

Буниси оқ мум, ҳаром эмас—шимса ҳам бўлади, чайнаса ҳам бўлади[3.9]. - It's paraffin and it's clean and fresh [4].

Ўзбек изоҳли луғатида “ҳаром” сўзига қуйидагича изоҳ берилган: “фойдаланиш, истеъмол қилиш шариан маън этилган нарса; ноқонуний”. Оғзаки нутқда “ҳаром” сўзининг иккиламчи маъно касб этиб, “ифлос” сўзига тенглаштирилган ҳолда ишлатилгани сабабли ушбу ҳолатда таржимада “тоза” ва “янги“ муқобилларининг берилиши тўғри ҳисобланади.

Ушбу ҳикояда фойдаланилган ўлчов ва пул бирликларининг таржимада қандай қайта тиклангани таҳлил қилиб кўрсак.

1. Бир қадоқ анор фалон пул бўлса [3.9]- A pound of pomegranate is expensive.[4]

2. Саҳаримардондан сув ташиб, ўтин ёриб, ўт ёқиб бир ойда оладиганим ўн саккиз танга пул [3.9]- Every day I rise with the sun, carry water, split wood, set the fire --and I get eighteen kopecks in a month! [4]

3. Битта мушак уч мири,— деди Туробжон,—юзта мушак отилса... биттангадан юз танга. Бир миридан кам—етмиш беш танга бўлади [3.10].-A firework costs three miris.—Turobjon said.—If they let off a hundred fireworks it'll cost more than a hundred miris [4].(*miri - a currency that was used in the past. A miri was 5 kopecks.)*

Биринчи мисолдаги “қадоқ” ўлчов бирлиги “pound” сўзи билан тўғри алмаштирилган ва бу функционал аналог усули билан амалга оширилган таржима ўзини оқлайди (қадоқ –қиймат жиҳатдан бир фунтга тенг бўлган қадимги ўлчов бирлиги). Иккинчи мисолдаги “танга пул”нинг “kopecks” билан алмаштирилиши ҳам ўша асарда ифодаланган давр хусусиятидан келиб чиқилса, ўзини оқлайди, деб ҳисоблаймиз. Шунингдек, “мири”нинг “танга”дан фарқлаб кўрсатиш мақсадида, ушбу пул бирлигини транслитерация йўли билан таржимада қайта тикланиши ҳамда, сатр ости изоҳида “бир миринг беш тангага тенг” эканлигини таъкидлаб ўтилиши аслиятдаги аҳамиятга эга маълумотнинг таржима ўқувчиларига етказиб берилишини таъминлаган.

Қуйида берилган фразеологизмлар таржимасига эътибор қаратсак:

1....хотин, кўнгли тортмаслигига қарамасдан, косани бўшатди .... [3.9] - ...the wife reluctantly ate up the food [4]. 2.— Кишининг юрагини қон қилиб юборасан, — деди анчадан кейин [3.10].-— You exasperate me!—he said after a while [4].

Албатта, таржима қонуниятларига кўра, сўзни сўз билан, иборани ибора билан, фразеологизмни фразеологизм билан таржима қила олиш – таржима адекватлигини таъминловчи муҳим омиллардан бири ҳисобланади, бироқ бадиий асарлар таржимасида асосий талаб – аслиятнинг прагматик ва стилистик вазифаларининг уддаланиши юқоридаги талаблар доирасидан четга чиқиш мумкинлигидан далолат беради. Фразеологизмлар таржимасида функционал аналог усулидан фойдаланиш имкони аксарият ҳолларда мавжуд эмаслигини ҳисобга олиб, юқоридаги ҳолатларда бир сўзлик синонимик таржима усули ўзини оқлаган деб ҳисоблаймиз.

Бироқ, қуйидаги ҳолатда, таржимон фразеологизм таржимасида ҳарфхўрликка йўл қўйиб, бу ҳикоядаги “калит” иборанинг таржимада қиймати йўқолишига сабаб бўлган:

—Ажаб қилдим,—деди Туробжон титраб,—жигарларинг эзилиб кетсин! [3.10] What I did was good!—Turobjon said in a frenzy of rage.—May your liver ache! [4]

Асар қаҳрамони томонидан айтилган ушбу ҳис-ҳаяжонли гапи иккинчи қаҳрамон–хотиннинг кайфиятига чуқур таъсир қилади ва бу кайфиятни ифодалашда хизмат қилган ибора ҳикоя давомида қайта-қайта ишлатилади. Демак, ушбу ибора персонаж табиати билан боғлиқ муҳим бурилиш моҳиятини англатади. “Руҳан азобланиш” маъносини англатувчи ушбу тилакнинг жисмоний харакатга ҳеч қандай алоқаси йўқлигини ўзбек китобхони яхши билса-да, буни чет ўқувчисига тўғридан-тўғри таржима билан етказиб бериш унчалик тўғри бўлмаган ва таржима тили эгасининг назарида бу ҳолат “эрнинг ҳотинга жисмоний носоғлом бўлишни тилаши” кабилида кўриниши табиийдир (May your liver ache!–Жигаринг оғрисин!).

Қуйидаги мисолларда хос сўзлар таржимасига бўлган турлича ёндашувларни таҳлил қилиб кўрамиз:

-Анчадан кейин дарчадан хира шуъла тушди [3.10].–After some time a dim light penetrated through the small door. [4]

Бу мисолда “дарча” тасвирий йўл билан адекват таржима қилинган.

-Муллажон қози бешик тўйи қилган [3.10]. - Mullajon cadi is holding a beshik toy. *(* ***Beshik toy -*** *a festival in connection with the birth of a new baby. According to this tradition the man whose son or daughter has become a father or mother brings a cradle to the house where baby was born. In the Uzbek language “beshik” means cradle and “toy” means festival) [4].*

“Бешик тўйи”нинг таржима матнига транслитерация йўли билан кўчирилиш ва сатр ости изоҳи билан мазмунининг очиб берилиши адекват таржима кўринишларидан бирига мисол бўла олади.

—Шаҳардан тўралар ҳам чиққан, — деди Туробжон яна [3.10].-— The city lords are also attending the festival.—Turibjon said [4].

Юқоридаги мисолда “тўра”нинг “lord” унвони билан берилиши функционал аналог усулининг тўғри қўлланганидан дарак беради: (тўра – юқори табақага мансуб зодагон; оқсуяк; аристократ; - lord – a man who has a rank in the Aristocracy).

-Эркабойга ўхшаб чимилдиққа бировнинг тўни, кавуш-маҳсисини кийиб кирганмидим? [3.11] - Or did I go into the chimildik wearing somebody else’s robe or boots as Erkaboy did (****Chimildik*** *- a corner which is shut with a wide white cloth. Traditionally the bride and groom spend their wedding night behind this cloth) [4].* Ушбу ҳолатда гапнинг маъно юкламаси “чимилдиқ” сўзига тушганлиги сабабли, таржимоннинг бу хос сўзни транслитерация ва сатр ости изоҳи орқали, “тўн” ва “кавуш-маҳси”ларни эса кийим-кечак деталлари сифатида умумлаштириб берганлиги ўзини оқлайди. Яъни, асарда ўзбек урф-одатларига кўра, куёвнинг чимилдиққа фақат ўзи кийишига мўлжалланган янги кийимларда кириши кераклиги назарда тутилганлигини таржима ўқувчисига ҳам тушунарли бўлган. Бу вазиятда “тўн” ва “кавуш-маҳси” сингари хос сўзларни деталлаштириб тушунтиришга ҳожат қолмаган.

- Гузар томонда фақат битта чироқ милтиллар эди. Самоварлар ётган [3.11]. - *There was only a flashing light by the guzar—center of the village or society (****translator’s note****). The tea rooms were closed [4].* Ўзбек махаллаларининг муҳим деталларидан бири бўлмиш “гузар”ни шу гапнинг ўзида, хос сўзнинг мазмунини тасвирий йўл билан очиб бериб кетиш ўринли бўлган ва бу ортиқча сатр ости мурожаатига эҳтиёж қолмаганидан дарак беради. Шунингдек, “самоварлар”нинг ҳам тасвирий йўл билан

кенгайтириб тушунтирилиши контекстнинг бадиий ва мазмуний қийматига путур етказмаган.

Юқорида ўзбек адабиётидан олинган бир дурдонанинг инглиз тилига таржимаси мисолида лингвомаданий таҳлил олиб бордик. Ҳулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, маълум асарни чет тилига таржима қилинар экан, бош меъзон сифатида эътироф этилувчи таржимадаги эквивалентликка айнан лингвокултурологик омилларга тўғри ёндашиш сабабли максимал даражада эришиш мумкинлигини таъкидлаймиз. Бу вазиятда эса, адекватлик йўлида таржимон маҳорати, унинг лингвомаданий фон билимларига эга бўлиши энг асосий шартлардан бири бўлиб қолаверади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. Влахов, С. И. Непереводимое в переводе / С. И. Влахов, С. П. Флорин.– М.:Международные отношения, 1980. – 342 с.
2. Фёдоров, А. В. Основы общей теории перевода / А. В. Фёдоров.-М:Высшая школа, 1968.-352 с.
3. http://n.ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Abdulla%20Qahhor.%20Dahshat%20(hikoyalar%20to'plami).pdf
https://www.ziyouz.uz/en/prose/139-abdulla-kahhor-pomegranate-story

ДЕЙКТИК БЕЛГИЛИ СЕГМЕНТ ҚУРИЛМАЛАР ПРАГМАТИКАСИ

Умурзоқова Марҳабо Эгамбердиевна
Алишер Навоий номидаги ТошДЎТАУ
Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мақолада дейктик белгили сегмент қурилмалар ҳақида сўз юритилган. Сегмент қурилмали гапларда дейксис турли предмет, шахс, ҳодисаларга ишора қилиши асосланган.*

Калит сўзлар: *сегмент, дейксис, прагматика, ўринга ишора қилувчи дейксис, маконга ишора қилувчи дейксис.*

ПРАГМАТИКА СЕГМЕНТИРОВАННЫХ КОНСТРУКЦИИ С ДЕЙКТИЧЕСКИМИ ЗНАКАМИ

Умурзакова Мархабо Эгамбердиевна
ТашГУУЯЛ имени А.Наваи, доктор философии по филологических наук (PhD)

Аннотация: *В данной статье рассматриваются сегментированные конструкции с дейктическими знаками, а так же обоснована дейксис в сегментных конструкциях указывающийся на предмет, личность и событие.*

Ключевые слова: *сегмент, дейксис, прагматика, дейксис указывающый на место, дейксис указывающый на пронстранство.*

PRAGMATICS OF SEGMENTED KONSTRUKTION WITH DEKSIS DESIGNS

Umurzakova Markhabo Egamberdiyevna
Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature, PhD

Annotation: *This article discusses segmented constructions with signs of action, and also discusses deixis in segmented constructions pointing to the subject, personality, and events.*

Key words: *segment, deixis, pragmatics, deixis pointing to the place, deixis pointing to the space.*

Инсон тил воситасида мулоқотга киришади, мулоқот жараёнида ўз фикрини тингловчига тўлиқ ва тушунарли қилиб етказиш учун тилда мавжуд воситаларнинг энг мақбулини танлаб олади. Нутқда турли-туман ифода шаклларининг юзага келишида сўзловчининг кўзлаган коммуникатив мақсади муҳимдир. Биз кузатаётган ҳар бир воқелик бирор замон ёки маконда юз беради. Шунинг учун воқеликни тўлиқ акс эттиришда мулоқот иштирокчилари замон, макон ифодаловчи бирликларга мурожаат қиладилар.

«Дейксис» сўзининг асл юнонча маъноси «кўрсатиш», «ишора» бўлиб, илмий қўлланишда лисон воситасида «воқеликка ишора, кўрсатиш» мазмунини олган. Кўрсатиш, ишора вазифасини адо этувчи бирликларни *дейктик ибора* деб аташади» [7.154] «Дейктик ибораларкоммуникатив ҳодиса-узатилаётган ахборотнинг маълум қисмларини алоҳида таъкидлаш, аниқлаштириш учун хизмат қилади» [7.164]

Тил тизими марказида дейксис воқеликни экстралингвистик (прагматик аспектда) ва лингвистик (ифоданинг аниқ лисоний воситаси) омиллар асосида кўрсатувчи ҳодиса сифатида туради [8.8]. Шунга кўра дейксисни юзага чиқарувчи воситаларни икки турга бўлиш мумкин: лингвистик ва экстралингвистик воситалар.

Дейксис ҳақида монографик тадқиқот олиб борган Н.А.Сребрянская, дейксис ишора қилар экан, ҳақли равишда нимага ишора қилади, деган савол туғилади дейди ҳамда ушбу саволга жавоб тариқасида Ч.Филморнинг «дейксис – бу сўзловчи шахси ва адресатга, фикр айтилаётган макон ва замонга ишора» деган фикрини келтиради» [8.8].

Матннинг мазмунан тўлиқ, мукаммал, бадиийлик жиҳатидан юксак бўлишида ундаги ҳар бир бирликнинг ўз ўрнида қўлланилиши муҳим аҳамиятга эга. Дейксис ана шундай воситалардан бири саналиб, матнда жуда кўп вазифаларни бажара олади. «Ўзбек мулоқот матнлари таҳлили асосида дейксиснинг шахс, замон, предмет, макон, белги, эмоционал ва руҳий ҳолат, муайян воқеликка ҳамда матн таркибий қисмларига ишора каби турларини фарқлаш мумкин бўлади» [5.34]. Бундай ҳолатда дейксис кузатувчининг турли нуқтаи назаридан қарашини намоён қилади ҳамда ишора қилувчи восита сифатида бир бутунликни ташкил этади.

Дейксис тилда ўзига хос семантик майдон ҳосил қилиб, унинг марказида нутқ ижодкори, яъни сўзловчининг ўзи туради. «Дейксис сўзловчининг нутқ фаолияти жараёнида маълум маконда жойлашганлигини белгилайди. Шу нуқтаи назардан гапирганда, дейксис дискурс даражасида ўрганилиши керак ҳамда «ҳаволанинг махсус ҳолати» сифатида эътироф этилиши мумкин» [10.17].

Дейксиснинг ифода воситалари хилма-хил бўлиб, улар воқеликдаги предмет-

ҳодисаларни бевосита атамасдан унга ишора қилади, нутқий жараёнда иштирок этувчиларга нисбатан уларнинг жойлашувини, ўрнини кўрсатади.

Тилшуносликда тилнинг коммуникатив ҳамда когнитив функцияси ажратилиб, ишора қилувчи модалликни ифодаловчи тил бирликларидан бири дейксисдир [2]. Тилшуносликда дейксис ҳодисаси кенг тадқиқ қилинган бўлиб, аксарият тилшунослар унинг шахс дейксиси, замон ва макон дейксиси каби турларини фарқлашади. Ю.Д.Апресян юқорида қайд этилган мазмуний турларидан ташқари кузатувчи дейксисини ҳам фарқлайди [1.285-289]. Дейксиснинг мазкур турларидан ташқари Ю.Д.Апресян бирламчи дейксис (диалог дейксиси, сўзловчи ва тингловчи бир-бирини кўриб турган жараён) ва иккиламчи дейксис (нарратив, ҳикоя мазмунли) бевосита нутқий жараён билан боғлиқ бўлмаган турларга ҳам ажратади [1.276].

Ю.Д.Апресян макон дейксиси ҳақида гапирганда, сўзловчи билан бирга кузатувчи шахс ҳақида ҳам тўхталиш зарурлигини айтиб, классик дейктик бирликлар *бу ерда, у ерда, у ёққа бу ёққа, у бу, мана бу ана у* қўлланилган жараёнда сўзловчи ва кузатувчи бир шахс эканлигини таъкидлайди. Шундай дейктик бирликлар ҳам бўлиб, бундай тенг келиш шарт эмаслигини инглиз тили материаллари асосида изоҳлайди [1.277]. «Дейктик элементларнинг нутқдаги қўлланиши пропозиция таркибини кучайтириш, муаллифнинг ички мақсади билан боғлиқ бирор ахборотга ишора қилиш функциясини бажаришдан иборатдир. Дескриптив бўлмаган элементларнинг асосий хусусияти улар ифода этаётган асосий пропозициядан ташқари қўшимча ахборот кўринишининг мавжудлигига ишора қилишдир»[11.29].

Сегмент қурилмаларни изоҳлаган гап таркибида кишилик ҳамда кўрсатиш олмошларининг келиб, асосий гап таркибидаги дейксис турли предмет, шахс, ҳодисаларга ишора қилиши мумкин.

Поезд чинқириғи... турна овози...
Гоҳ най мусиқаси...ингичка, узун.
У товуш келади қанотин ёзиб,
Чорлайди, қувончга кўтармоқ учун (Й.Эшбек).

Келтирилган мисолда *у* дейксиси предметга ишора қилган. *У* кўрсатиш олмоши нутқ эгасидан узоқда турган, кўринмаётган, баъзан бор деб тасаввур қилинадиган алоҳида предметга ишора қилади. Бу ўринда товушнинг *поезд чинқириғи, турна овози, най мусиқаси*дан бошқа нарса бўлиши мумкинлигига ҳам ишора бор унинг нима эканлиги сир тутилиши тингловчини мушоҳада юритишга ундайди. «Дейктик бирликлар объектив борлиқдаги вазиятнинг тилдаги ифодаси– пропозиция ифодаси сифатида ҳам қўлланилиши мумкин. Бунда муайян пропозиция гапда дейктик бирлик орқали яширин тарзда юзага чиқади» [3.85].

Одамларнинг соддалиги!...Одамларнинг софлиги... азиз армонлари. Йўқ, булар мени бу дунёга сигдирмайди (А.Мухтор). Олмош бошқа мустақил сўз туркумларидан фарқли равишда, нутқ вазиятини, нутқ кўринишини талаб этади, унинг қандай маъно англатаётганлиги контекстда намоён бўлади. Келтирилган мисолдаги *булар* дейксиси инсонга хос характер-хусусиятга, руҳий ҳолатга ишора қилган.

Ўринга, маконга ишорани англатувчи кўрсатиш олмошлари предмет, объект ёки субъектнинг жойлашган ўрнига ишора қилиши билан бирга сўзловчининг шу предмет, объект ёки субъектдан қай даражада яқин ёки узоқдалигини ҳам кўрсатади. Бунда ишора қилинаётган предметдан сўзловчининг қай даражада «узоқ»далиги *ана* кўрсатиш олмоши, «яқин»далиги *мана* кўрсатиш олмоши воситасида ифодаланади.

Сегмент қурилма таркибидаги ишора объекти сўзловчига яқин ўринда жойлашганлиги, сўзловчи уни кўриб турганлиги *мана* олмошининг ишоравий семасидан англашилади. Сегмент қурилма таркибида *мана* дейксиси қатнашганда сўзловчининг у ахборот бераётган шахс билан яқин ёки узоқлигидан ташқари шу шахсга нисбатан муносабати, унга нисбатан ачиниш, ўз ишидан пушаймонлик, нимадандир кўнгли тўлмаслик каби қўшимча маъно оттенкаларини ҳам беришда қўл келади. *Мана, онам... Бармоқлари тирикчилик юмушлари туфайли ёрилиб, қабариб кетган – худди шахтада қўл билан тинимсиз кўмир қазийдиган эркак кишиларники мисол (У.Ҳамдам).*

Сегмент қурилмали гапларда сегмент бўлак таркибида *мана, ўша* сўзлари қўлланганда аввал баён қилинган воқеа – ҳодиса ҳақида эслатилади. Бундай дейктик бирликлар «нутқ парчаларининг ёки тузилма таркибининг узвий боғлиқлигини, унинг мазмунан яхлитлигини таъминловчи занжир вазифасини бажаради» [4.101]. *Мана ўша, кўчага қараган очиқ айвон. Мана ўша қизғиш тувакдаги шапалоқ гул. Софья Борисовна эрининг ёнига келган кунлари посёлка бозорчасидан биринчи харид қилган нарсаси гул бўлган* (А.Мухтор). Келтирилган мисолдаги *мана ўша, кўчага қараган очиқ айвон* ёйиқ ҳолдаги сегмент бўлакдаги макон ифодаловчи дейксис сўзловчи ва тингловчи учун олдиндан маълум бўлган предметга ишора қилиб, яширин пропозиция ифодаланиши учун хизмат қилган. Бу ўринда сўзловчининг бу маконда олдин ҳам бўлганлиги, қаҳрамон билан уни боғлаб турувчи қандайдир муносабат, алоқа борлигига ишора қилинади.

Бу ҳолатни қуйидаги мисолда ҳам кўриш мумкин. *Мана, ўша тақир тепалик!... Дадаали акаларнинг куз аёзида дийдираган ертўласидан билинар-билинмас чуқурча қолибди, холос* (А.Мухтор).

Дейксиснинг яна бир турларидан бири эмоция ифодалаш дейксисидир. Ҳар қандай вазиятда сўзловчи эмоционал воқеликка у ёки бу нуқтаи назардан ёндашади. Бу позиция ҳар доим шахсий, сўзловчининг эмоционалликни қай даражада билиши ва уни қабул қилишига боғлиқ бўлиб, тингловчининг уни қандай қабул қилиши инобатга олинмайди [9.38]. Эмоция дейксисининг кўрсаткичларидан бири баҳолаш ҳаракати бўлиб, сегмент қурилмаларда баҳо муносабати ҳам акс этади.

Маълумки, олмошларнинг функционал хусусиятлари нутқ жараёнида намоён бўлади. Дейктик бирликларни тадқиқ қилган С.Раҳимов шахс дейксиси бўлган *у* олмошининг вазифаси чап тарафдаги контекстга боғлиқ равишда конкретлашиши мумкинлигини таъкидлайди [6.12]. Бундай ҳолларда кишилик олмоши аввал қайд этилган бирор воқеликни эсга олиш вазифасини бажаради. *Ҳалиям ўша-ўша ерлар. Фақат нафс, очкўзлик балосими, дарахтлар – сой бўйи кета-кетгунча сариқ тол, яъни мажнунтоллар билан қопланган, орасидан зўрға ўтиб борардинг, қўлинг узилгурлар, на*

иморатга ёғоч бўлади, на деворбоп, на ўтинликни обод қилади – шуларниям битта қўймай қирқиб олишган-а. Солисойнинг оғзида бир тупгина ёввойи қизил олма бўлиб, ўшанинг шарафига бир парчагина ер Қизилолма аталар ва ҳамма учун тушунарли манзил ҳисобланарди. Олмани то пишмагунча оғизга олиб бўлмас, тахир бир бало, аммо пишгач, жуда мазали, сувли, еганда жон бахш қилувчи мевага айланарди. Сой четида қайрағочдай серсоя бўлиб турувчи шу олманиям кесибдилар–бўйнингга от тепгурлар. Бир сойда икки-уч туп ёввойи ўрик, яна бирида ёввойи олмурут–нок. Токли деган жойда ёввойи узум ўсади. Уч тупгина узум. Униям фақат пишганда татиш мумкин, холос. Бўлмаса, оғзингни шунақа тахир қилиб ташлайдики, уч кунгача еган-ичганингнинг таъмини сезмай юрасан (С.Ўнар). Келтирилган матнда бир неча ўринда сегмент қурилма қатнашган бўлиб, уни изоҳлаб келаётган асосий гап таркибида учинчи шахс кишилик олмоши ҳамда кўрсатиш олмоши коррелят сифатида келган. Биринчи сегмент бўлак *ҳалиям ўша-ўша ерлар* сўзловчи ҳамда тингловчига олдиндан маълум бўлган маконга ишора қилган. *Бир сойда икки-уч туп ёввойи ўрик, яна бирида ёввойи олмурут–нок* ёйиқ ҳолда ифодаланган сегмент қурилмада тилга олинаётган макон табиати ҳақидаги ахборот тўлдирилган. *Уч тупгина узум* сегмент бўлаги эса ўзидан олдин келган *Токли деган жойда ёввойи узум ўсади* ва ўзидан кейин келган *Униям фақат пишганда татиш мумкин, холос* гаплари билан зич алоқада. *Уч тупгина узум* сегменти шаклан парцеллятив бирикмага ўхшаб кетади, лекин матн синчиклаб ўқилса, унинг алоқаси чап тарафдаги контекстдан кўра ўнг тарафдаги контексга нисбатан зичроқ эканлигини кўриш мумкин. Бундан ташқари парцелляцияда парцеллятни гап таркибида ўз ўрнига тиклаш мумкин, бу ўринда сегмент сифатида ажратилган *уч тупгина узум* сегменти ўзидан кейин келган гапдаги предмет дейксиси *у* ўрнига осонлик билан ўрнашади. Гапни сегментланмаган ҳолда қуйидагича қайта тузганда буни кўриш мумкин: *Уч тупгина узумниям фақат пишганда татиш мумкин, холос.*

Олмошнинг функционал хусусиятлари нутқ жараёнида ва контекстда намоён бўлади. *Мен* дейксиси сўзловчи шахсига ишора қилиб, нутқ жараёнида адресантнинг руҳий ҳолати, ижтимоий мавқеи, мақсади, орзу-ўйларини намоён қилади. Сегмент қурилмаларда эса коррелят сифатида биринчи шахс кишилик олмошлари келмайди. Демак, сегмент қурилмали гапларда дейксис ҳар доим тингловчига – адресатга ёки сўзловчи назарда тутган предмет, воқеликка ишора қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Апресян Ю.Д. Дейксис в лексике и грамматике наивная модель мира. – С.285-289. http://lpcs.math.msu.su/~uspensky/journals/siio/35/35

2. Артемова О.А. Дейксис и анафора как указательные средства языка: универсальное и уникальное http://elib.bsu.by/bitstream/123456789/164664/1/

3. Давлатова Р. Пропозициянинг дейктик бирликлар орқали ифодаланиши // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент, 2009. – Б.85-86.

4. Давлатова Р. Матн таркибида ишора бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2015. 2-сон. – Б.100-104.

5. Лутфуллаева Д., Давлатова Р. Ўзбек мулоқот матнининг дейктик бирликлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №6. – Б.32-36
6. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Ташкент: Фан, 1989.–89 с.
7. Сафаров. Ш. Прагмалингвистика.–Тошкент, 2008. – 318 б.
8.Сребрянская Н.А.Дейксис и его проекции в художественном тексте.–Воронеж, 2005. – 255 с.
9. Шаховский В.И, Жура В.В. Дейксис в сфере эмоциональной речевой деятельности // ВЯ. 2002.–№5.–С.38-57.
10.Шерматов А.А. Инглиз илмий – техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс.– Самарқанд, 2007.–155 б.
11. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри.... дисс.– Тошкент, 2001. – 283 б.

“МИНГ БИР ҚИЁФА” РОМАНИДА ЗАМОНАВИЙ АЁЛ МУАММОСИ.

Азизов Нурмуҳаммад Неъматиллаевич
Андижон давлат университети
Ўқитувчи

Аннотация: *Мақолада аёл образи, унинг руҳиятидаги эврилишлар, миллий ўзликни йўқотиш жараёни Омон Мухторнинг “Минг бир қиёфа” романи мисолида ёритилган.*

Калит сўзлар: *ижтимоий шахс, роман, композиция, персонаж, параллел вақт.*

ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОЙ ЖЕНЩИНЫ В РОМАНЕ “МИНГ БИР КИЁФА”

Азизов Нурмухаммад Неъматиллаевич
Андижонского Государственного Университета
Предлодователь

Аннотация: *В статье образ женщины, эволюция её психики, процесе самоуничтожения иллюстрирустся романом Омана Мухтора “Минг бир киёфа”.*

Ключевы слова: *Социальный человек, роман, композиция, персонаж, параллельное время.*

THE PROBLEM OF MODERN WOMAN IN THE NOVEL “MING BIR KIYOFA”

Azizov Nurmukhammad Nematillayevich
Andijan State University
Teacher

Annotation: *In the article, the image of woman, the evolution of her psyche, the process of self-destruction is illustrated by Oman Mukhtar’s novel “Ming bir kiyofa”.*

Key words: *Social person, novel, composition, personality, parallel time.*

XX аср ўзбек адабиётида яратилган аёл персонажларининг тадрижий ўзгариб боришини давр эврилишлари, кишилар руҳиятидаги ўзгаришлар, аёл шахсига муносабатнинг шарқона қарашлардан чекиниб, ҳукмрон мафкура сиёсатига мослашуви, шунингдек, адабий авлоднинг янгиланиши билан изоҳлаш мумкин.

Жадид драмаларида ижтимоий фаолликка интилган, маърифатсизлик туфайли саодатга эриша олмаган аёллар образи яратилган бўлса, Қодирийнинг Кумуши, Чўлпоннинг Зебиси характерида ижтимоий фаолликка интилиш эмас, соддалик, итоаткорлик кузатилади.

“Ўткан кунлар” романида Кумуш Қутидор ва Отабекни қутқариш воқеасидан ташқари ҳеч бир жойда ижтимоий фаоллик кўрсатмайди. Қадим шарқ аёллари сингари “ҳарам ичида” оддий турмуш ташвишларига андармон иффатли, итоаткор аёл. Ижтимоий муҳит таъсиридан чиқа олмаслик, ота амрига бўйсуниш Зеби образи фожеасининг ҳам бош сабабидир. “Меҳробдан чаён” қаҳрамони Раънода эса эркакларга хос жасорат, ижтимоий фаоллик (отинбибилик қилиши), жамият меъёрларига исён (хон ва отасига қарши чиқиш) кўзга ташланади.

1927-йилги “ҳужум” ҳаракати, колхозлаштириш сиёсати, рус босқинининг халқимиз кундалик ҳаётига таъсири натижасида жамиятда ижтимоий фаол аёл қатлами шаклланишига замин яратилди. Натижада бадиий адабиётга меҳнаткаш, комсомол, вазифа жиҳатидан эркаклар билан тенглаша олган иродали аёллар образи кириб келди. Саида, Мунисхон, Гулчеҳра, Ҳафиза каби образлар яратилдики, улар ташаббускорлиги, ижтимоий фаоллиги билан юқоридаги образлардан ажралиб туради.

XX асрнинг сўнгги чорагига келиб, аёл шахсига муносабат тубдан ўзгарди ва бу бевосита бадиий адабиётда ўз аксини топди. Совет давридаги аёллар образида сунъийлик, реал воқеликдан йироқлик, намуна учун яратилганлик кўзга ташланади. Айни хусусиятлар туфайли бу образларни кейинги авлод вакиллари қабул қила олмади. Адабиётда ижтимоий фаол аёл шахсига танқидий нуқтайи назардан қараш, уларнинг фаолиятидаги камчиликларни тасвирлаш ҳоллари кузатилди. Жумладан, Омон Мухторнинг “Минг бир қиёфа” романидаги Гулҳумор образи ижтимоий фаол, карера учун аёллик хусусиятларини бой берган, ўз даври сиёсатига кўр-кўрона эргашган аёл тарзида гавдалантирилди.

Гулҳумор романдаги иккинчи ҳикоят қаҳрамони. Роман уч мустақил – бир-бирига боғлиқ эмасдай туюлган ҳикоятлардан таркиб топса-да, зукко ўқувчигина ҳикоятлардаги шаклий ва мазмуний алоқадорликни англай олади. Айнан Гулҳумор образи биринчи ва иккинчи ҳикоятларни боғлашда муҳим бадиий-эстетик функсия бажаради. Унинг Абдулла Ҳакимга тегишли шеър дафтарни Садиржонга келтириб бериши биринчи ҳикоятда якун топгандай туюлган воқеаларни иккинчи ҳикоятдаги давомийлигини таъминлайди. Абдулла Ҳаким ва Гулҳумор тақдирининг ўхшаш жиҳати шундаки, Абдулла Ҳаким тақдир синовига кўниб, онгли равишда ўзлигини, асл қиёфасини йўқоца, Гулҳумор ўзи англамай, аммо ички хоҳиш туфайли қиёфасизликка юз тутади. Адиб ўзликни йўқотиш, минг бир қиёфага кириб турланиш жараёнини икки қаҳрамон воситасида тадрижий ва ҳаётий тасвирлайди.

Ҳиссиётларга ишонувчанлик, итоаткорлик, тутқунлик, хокисорлик Шарқ аёли учун хос бўлиб, жамиятда ҳукм сураётган сиёсат, карера масалаларига тўқнаш келганда аёл киши севги томонда туриб, қалб амрига қулоқ солган ва ҳислари, оиласи учун курашган. Унинг учун ҳаёт мазмуни вафо, садоқат, эркак шахсига итоат бўлиб, давлат, сиёсат, ижтимоий зиддиятлар унга билвосита алоқадорликда, тасвирланган. Гулҳуморда эса бу ҳол аксинча, ўзи ишонган тузумга садоқати, худбинлик, карерасини шакллантиришга интилиш кучли.

Романга Гулҳумор ақлли, содда, самимий икки ўт орасида қолган, қайси йўлнинг тўғрилигини мушоҳада қилишга ожиз қиз сифатида кириб келади. Муаллиф Гулҳуморни ўқувчига таништирар экан, унинг кўзлари мунгли, аммо чақноқлигига урғу беради. Гулҳуморнинг ёшлик давридаги қийинчиликлар, ота- она ва бобоси ўртасидаги зиддиятлар таъсири – кўзларини мунгли қилган бўлса, чақноқлиги барча инсонлар каби ҳаётга муҳаббат, тўғри йўлни топишга интилиш натижаси. Унинг ота-онаси ва бобоси яхшилик ва ёмонлик палласининг икки томони: ота-она комунистик партия рамзи, шу билан бирга унга кўр-кўрона ишонган, атрофдаги воқеаларни ҳис қилиш ва идрок этишдан маҳрум персонажлар. Бобоси эски зиёли, яхшилик соғинувчи, аммо ўзини ҳимоя қилишда ожиз. Икки ўртадаги конфликт қаҳрамонлараро, у эса муҳит конфликтини вужудга келтирган. Бобонинг китоблари Гулҳуморнинг онаси томонидан ёқиб юборилиши зиддият чўққиси, ечимда эса икки томон ҳам мағлубиятга юз тутади (бири ҳалок бўлди, иккинчиси зоҳиран ва ботинан кўр, кар бўлди). Гулҳумор ана шу зиддиятлар ичида вояга етган авлод. У ҳар икки йўл– эзилган, бечораҳол “тарих” бўлиш, ёки ҳеч нарсани эшитмай, кўрмай шунчаки итоат этишда ҳам маъно кўрмайди, уларни рад этади. Унинг Садиржон олдига шифо сўраб бориши аслида ўзини, аёллик бахтини қутқариб қолишга ҳаракат.

“Садиржоннинг гапига жавобан ҳеч нарса демади. Маъқулламади. Эътироз ҳам билдирмади. … У бироз инжиб, озор чекканми инсонга ўхшарди. Шунинг баробарида, алланечук мағрур ва бепарво эди”. [2.84]. Бироз инжиб озор чекиши Садиржон билан тортишув сабаб, мағрурлик ва бепарволик ўзи ишлаётган Тарих ва Маданият ташкилотидаги тутум ва шароит (тарих ва маданиятни гуллатиш шиори остида қадимий обидалар – масжид ва мадрасаларни бузиш, минг йиллик кўркам – ҳовузларни кўмиб ташлаш, қабристонларни топташ, ота-боболардан қолган эски китобларни ёқиш) таъсири.

“...Бундай нарсалар бидъат, хурофот, эскилик сарқити дейишади. Шулар бўлмаса, халқ бахтли яшайди, ўтмишни қўйиб, келажакни ўйлаш керак дейишади” [2.84] Мазкур нутқдан Гулҳумор руҳиятига ташкилотдагилар таъсир ўтказаётгани, унинг эса ҳамкасбларига бефарқлик билан эргашаётганини англаш мумкин. Нутқнинг мен эмас, “улар дейишади” тарзида ифодаланиши Садиржонга бу ишларда даҳли йўқлигини таъкидлашга хизмат қилади. Асардаги “Гулҳумор уни ёқтиради, лекин ишни ундан кўпроқ яхши кўради” [2.84] жумласи муаллиф томонидан қаҳрамон олдига бир томонни танлагандагина ечими мавжуд бўлган муаммо – карера ёки севги шаклининг қўйилишидир. Бир йўлни танлаш зарурияти конфликтни янада кучайтиради. Қаҳрамон китоб ва чашма воситасида севги томонга

қадам қўйгандек бўлсада, шифо топган чашмани кўмилиши ва бунга нисбатан бефарқлик, уни ота-онаси томон (ижтимоий муҳит)га яқинлаштиради. Чашма рамзий образ сифатида Гулҳуморнинг характеридаги ўзгаришларни, Садиржонни, тарих ва маданият ташкилоти қарашларини ва улар ўртасидаги конфликтни вужудга келтириш сабабларини бадиий тадқиқ этиш учун восита вазифасини бажаради. Компазицион жиҳатдан эса чашма – маданият, ўзбек халқи қадрияти, шифо ва ўзликни сақлаб қолиш манбаи. Гулҳумор ва унинг типидаги одамлар ўзлари шифо топган маданиятни "кўмиб" ташлаганликлари учун ҳам ёвуз ва қиёфасиз.

Романда параллел тасвир–директор хонасида бўлган иккинчи суҳбат ва Садиржоннинг туши воситасида муаллиф бир томондан Гулҳумор руҳиятидаги эврилишлар сабабини келтирса, иккинчи томондан Садиржоннинг ушбу ҳолатда ожиз, ҳаракатлари самарасиз, фақат томошабин бўлиб қолганини кўрсатади.

Гулҳуморнинг қиёфасизлик ҳолатига тушаётгани нутқидаги ўзгаришлар орқали ифодаланади. Садиржон билан илк танишган кезларида содда, самимий қиз бўлган Гулҳумор нутқида аёлларга хос назокат, эркаланиш, вазиятдан айёрона чиқиб кетиш ҳоллари кузатилса, унинг Гулҳумор Хамраевнага айлана бориши нутқ қурилишидаги қисқа ва лўнда гапириш, мақсадини аниқ баён этиш билан кўзга ташланади.

"Эртадан қайтиб олдинги ўз ишингизга ўтасиз, Ботир ака,–деди у. Ўйин эмас йигитча гап! Менга ишонинг…лекин ҳозир сизнинг менга ёрдамингиз керак…"[2.117]. Жумладаги "йигитча гап" Гулҳуморнинг аёллик мақомидан чиқиб, буйруқ берувчи мақомига ўтганлигини, эркак шахсига тақлидни кўрсатади.

Қалб иккиланиши ҳикоят сўнгигача муаллиф томонидан "ушлаб" турилади. Ҳикоят сўнггида Садиржон қаршисида Гулҳуморнинг кўз ёш тўкиши қалбидаги туғён белгиси, бобоси томонидан сингдирилган ўзлик, севги нишони, аммо у бир лаҳзалик ҳодиса бўлиб, ўрнини тарих ва маъданият (кенг маънода тузум) етиштирган Гулҳумор Хамраевна эгаллайди. Аввалги директор нутқидаги паразит сўз–"билдийизми" сўзининг Гулҳумор нутқига кўчиши уни корчалонлар, Кабиров каби инсонлар қаторига қўшилганлигини далиллаш билан бирга аёллик хусусиятларини тамоман бой берганлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб айтганда, Кабировнинг Гулҳуморни биринчи ўринбосар қилиб тайинлашидан мақсад–ўзига "қиз" қилиб олишдан иборат. Гулҳуморнинг директор мансабини эгаллаши эса аввалги директор Кабировни ўлдириш– жиноят орқали амалга ошмоқда. Мансабга олиб борган йўлнинг нотўғри эканлиги, бу йўлда соддалик, самимият, қатъиятнинг йўқ бўлиши Гулҳумор шахси учун фожеа. Аёл шахсининг том маънодаги бахти севги ва унинг ортидаги итоаткорлик, фидоийлик натижасида қўлга киритилиши Гулҳумор образи мисолида ҳаққоний ёритилган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Қуронов Д. Адабий ўйлар.–Т.: Академнашр., 2016 й

2. Омон Мухтор. Тўрт томон қибла.–Т.: Шарқ., 2000 й

3. Каримов. Ҳ. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 124 б.

4. Норматов У. Ўзига хослик сирлари. "Насримиз анъаналари". Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.

5. Назаров. Ў. Омон Мухтор романларида бадиий хронотоп муаммоси: автореф. дис. ... ф.ф.ф.д.–Қарши, 2018. – Б. 47.

6. Ҳар кимнинг ўз замин, ўз осмони бор.../ Ўзбекистон адабиёти ва санъати.–1998. – 6 март.

НИКОЛАС РОУ ИЖОДИДА "АМИР ТЕМУР" ТАСВИРИ

Бобаханов Муҳаммаджон Яҳяевич
Намду, Катта ўқитувчи
Турсунов Акмалжон Хамиджонович
намду, таянч докторант

Аннотация: *Мазкур мақолада XVIII аср инглиз адиби Николас Роу ижоди ва унинг "Амир Темур" трагедиясининг инглиз адабиётида тутган ўрни ва роли таҳлил этилади. Николас Роу "Амир Темур" (Tamerlane, 1701), "Афсусланган Гўзаль" (The Fair Penitent, 1703), "Улисс" (Ulysses, 1705), "Жейн Шор фожеаси" (The Tragedy of Jane Shore, 1714) каби трагедиялар ва юзга яқин кичик жанрлардаги шеърий асарларнинг муаллифидир.*

Калит сўзлар: *адабиёт, театр, драматург, трагедия, образ, қаҳрамон, эстетика, ҳис-туйғу, томошабин.*

ИЗОБРАЖЕНИЕ ОБРАЗА «АМИРА ТЕМУРА» В ТВОРЧЕСТВЕ НИКОЛАС РОУ

Бобаханов Мухаммаджон Яхяевич
намгу, старший преподаватель
Турсунов Акмалжон Хамиджонович
намгу, базовый докторант

Аннотация: *данная статья посвящена анализу творчества английского писателя и драматурга XVIII века Николаса Роу и его трагедии «Амир Тимур»; в статье исследована поэтика данной трагедии и определена её роль и место в английской литературе. Английский писатель Николас Роу является автором трагедий «Амир Тимур» (Tamerlane, 1701), «Сожалеющая Красавица» (The Fair Penitent, 1703), «Улисс» (Ulysses, 1705), «Трагедия Джейна Шора» (The Tragedy of Jane Shore, 1714), а также около ста маленьких произведений стихотворного жанра.*

Ключевые слова: *литература, театр, драматург, трагедия, образ, герой, исторический, эстетика, чувство, зритель.*

THE IMAGE OF AMIR TEMUR IN THE NIKOLAS ROU CREATIVITY

Bobahanov Muhammadjon Yahyayevich
NamSU, senior teacher
Tursunov Akmaljon Xamidjonovich
namsu, basic doctoral student

Annotation: *this article is devoted to the analysis of the work of the English writer and playwright of the XVIII century, Nicholas Rowe, and his tragedy "Amir Timur"; in the article the poetics of this tragedy is investigated and its role and place in English literature is determined. The English writer Nicholas Rowe is the author of the tragedies "Amir Timur" (Tamerlane, 1701), The Fair Penitent (1703), Ulysses (1705), The Tragedy of Jane Shore (The Tragedy of Jane Shore, 1714), as well as about a hundred small works of the poetic genre.*

Keywords: *literature, theatre, dramatist, tragedy, personnage, hero, historical, aesthetics, sentiments, spectator.*

Машҳур инглиз адиби Кристофер Марлонинг “Буюк Тамбурлейн” (Tamburlaine the Great, 1587) трагедиясидан кейин Европада мазкур трагедиядан илҳомланиб, айнан унинг сюжети асосида яратилган ва деярли бир хил номланган 50 дан ортиқ асар борлиги маълум.

Марло трагедиясидан илҳомланиб Европада инглиз, немис, испан тилларида дунёга келган Луис Велес де Гуэернинг (1570-1640) “Худонинг қаҳри ёхуд Эроннинг буюк Темури” пъесаси, Жан Магнон (вафоти 1662) “Буюк Темур ёхуд Боязиднинг ўлими” трагедияси, Никола Прадон (1632-1698) қаламига мансуб “Темур ёхуд Боязиднинг ўлими” (Париж, 1675) пьеса, Чарльз Саундерс ижод этган “Буюк Темур” (1684) трагедия, Франсис Фене (вафоти 1689) яратган “Шаҳид” (1686), Кристиан Хайнрих Постел қаламига мансуб “Темур ва Боязид” (1690), Франц Ниссел (1817-1900) битган “Темур Исфахон” драмалари ва бошқа шу каби турли жанрлардаги бадиий асарлар яратилиб, оммавий нашрларда қайта-қайта чоп этилди ва ўз ватанлари театр саҳналарида кўп маротаба намойиш этилди.

Мазкур асарлар Кристофер Марло трагедиясидаги сюжет асосидаги айрим воқеаларни ижодий қайта ишлаш тамойилига асосан яратилганлигини кузатиш мумкин. Улардаги марказий сюжет йўналиши, аксарият ҳолларда, Амир Темур ва Султон Йилдирим Боязид тўқнашувлари тасвирланиб, уларни воқеаларнинг ҳаракатга келтирувчи куч сифатида икки қарама-қарши қутбга жойлаштирилган. Муаллифлар ана шу икки ҳукмдор орасидаги зиддий мулоқотлар ва муносабатлар воситасида ўз ғоявий нуқтаи назарларини илгари сурадилар. Мазкур асарларнинг деярли барчасида Амир Темур сиймоси ўта зиддиятли ва мураккаб шахс сифатида талқин этилган. Буларнинг барчасида Амир Темур сиймосига нисбатан тарихий ҳақиқатнинг бузиб (тўғрироғи, ижод майлига кўра ўзгартирилиб) юборилгани кўзга ташланади. Зотан уларда тарихий Амир Темур билан Амир Темурнинг бадиий талқини характер-хусусияти, дунёқараши, мақсад ва муддаоси жиҳатидан ҳамиша ҳам ўзаро мувофиқ келавермайди. Бундай чалкашликлар Марлога тўғридан-туғри

тақлид қилган Матхеу Грегори Леуснинг (1775-1818) “Темур тартар” (Париж, 1858-1859) романтик драмасида алоҳида яққол кўзга ташланади.

Шу билан бир қаторда Европада Кристофер Марлонинг “Буюк Темурланг” трагедияси таъсирида ёзилган асарлар қаторида Амир Темурнинг тарихий ҳақиқатга мос тарзда талқин этиб, ўз даври эстетикасига соҳибқирон ҳақида янгича қарашларни олиб кирувчи намуналар ҳам бор эди. Ана шундай асарлардан бири Николас Роунинг “Амир Темур” (Tamerlane, 1701) трагедиясидир.

Европада Амир Темур сиймоси бадиий тарғиботига бағишлаб Марлодан кейин асар яратган ижодкор авлод орасида энг юксак мавқени XVIII аср драматурги Николас Роу (1674-1718) эгаллайди. Унинг бадиий қиймати ва оммавийлиги даражасига кўра ўз даврида Шекспир трагедиялари билан беллашишга қодир бўлган “Темурланг” (Тамерлан, 1702) трагедияси ўз муаллифига ана шундай шарафни ато этган асардир.

Николас Роу ижодига жиддий илмий эътибор XX асрда пайдо бўла бошлади. Ўз вақтида М.П.Алексеев таъкидлаганидек, XX аср бошларига қадар XVIII асрга нисбатан беписандлик ҳукмронлик қилган. [1, 220-б] Буни, қисман, XIX аср танқидчиларини инглиз маърифатпарварлик драматургиясининг ёрқин вакили бўлмиш Николас Роуга эътибор қаратмаганликлари билан ҳам изоҳлаш мумкин. XX аср Германия олимлари биринчилардан бўлиб XVIII аср инглиз эстетик қарашларининг муаммолари билан қизиқишди.

Николас Роу “Амир Темур” (Tamerlane, 1701), “Афсусланган Гўзал” (The Fair Penitent, 1703), “Улисс” (Ulysses, 1705), “Жейн Шор фожеаси” (The Tragedy of Jane Shore, 1714) каби трагедияларнинг ва юзга яқин кичик жанрлардаги шеърий асарларнинг муаллифи.

Биринчи бўлиб Роу меросига А.Хильде мурожаат этган, у ўз ишини “Улисс” трагедияси (Ulysses, 1705) таҳлилига бағишлади. А.Береднинг “Николас Роу драматург сифатида” номли тадқиқоти эса бошқа олимларда ушбу драматург ижодига қизиқиш уйғотишда муҳим роль ўйнади. Кейинчалик Ф.Шварц, Э.Бюннинг, В.Будиг, Л.Штал ва П.Боргвардтнинг тадқиқотлари пайдо бўлди, бу асарларда Роунинг айрим саҳна асарлари батафсил таҳлили, уларнинг манбалари, театр саҳналарида намойиш этилиши тарихи берилган.

Николас Роу ҳаёти ҳақида бизга оз маълум. Унинг биографиялари хотиралар тарзида ёзилган. Шундай бўлса ҳам улардан драматург шахсияти ва атроф муҳити ҳақида етарлича маълумотлар олиш мумкин.

Николас Роу 1674 йили 20 июнда Литтл Барфорд шаҳрида (Бедфордшир графлиги) туғилган. 1680 йили Н.Роу Хайгейтдаги хусусий грамматик мактабга ўқишга боради, кейинчалик таълимини Вестминстер скулда давом эттиради, бу мактаб Лондондаги энг обрўли тўққизта эски хусусий мактабларнинг бириси эди. Туғма истеъдоди, тиллар ва шеъриятни ўрганишга бўлган иқтидори, уни 13 ёшида қироллик стипендиясига сазовор этди. Замондошларининг гувоҳлик беришича, у шеърларни кишини ҳайрон қолдирадиган даражадаги осонлик ила битган, “шеърлар унинг ҳаёлотида шу даражада тез туғилардики, худди у қалам ила ёзгандек туюларди” [5, 60-б].

О.Интце “Николас Роу” китобида ўзидан олдинги олимларнинг натижаларини умумлаштириб, ўз хулосаларини берган. У ўз китобида Н.Роу биографиясига доир қўшимча маълумотларни келтириб, унинг “Амир Темур” (Tamerlane,1701) трагедияси матни ва кичик поэтик асарларини қўшган [4, 20-б].

Н.Роунинг асарлари XVIII аср давомида саҳнада узлуксиз намойиш этилган, XIX асрнинг биринчи чорагида ҳам муваффақиятли қўйилган.

Роу асарларини А.Джексон, Т.Поллок, Дж.Уайтинг, Д.Кларк ва Д.Коэнлар ҳам ўрганиб чиққанлар. Т.Поллок Т.Годфрининг “Парфия шаҳзодаси” (The Prince of Parthia) ва Роунинг “Амир Темур” фожеаси ўртасида ўхшашлик борлигини қайд этган [6, 162-б]. Л.Уайман, Р.Дэммерз, Дж.Риттер, Л.Браун, В.Тьюмир, С.Хэррис, П.Кьюиз, М.Голдштейнлар Роунинг энг машҳур асарларига ўша даврдаги Англиянинг ижтимоий-сиёсий ҳаётидан келиб чиққан ҳолда шарҳ берганлар. Мисол учун, В.Торп “Амир Темур”даги сиёсий аллюзияларни ўрганиб чиққан [IX].

Айтиш мумкинки, Н.Роу “Амир Темур”и Кристофер Марлонинг “Буюк Амир Темур” (1577-1578) трагедияси таъсирида яратилган бўлса-да, ундан кескин фарқ қилади. Роу асарида Амир Темур инглиз аристократлари ва капиталистлари тахтга кўтарган “ярашиш тарафдори” бўлмиш қирол Вильгельм III га қиёсланади. “Халқ танлаган” олижаноб Амир Темур Франция қироли Людовик XIV қиёфасидаги маккор ва бешафқат Боязидга қарши уруш олиб боради. Бундай ўхшатишнинг сабаби шундаки, ўша даврда Англия Испанияни эгаллаб олиш учун жангга кирган, бу курашда эса унинг асосий рақиби Франция эди. Шу сабабли пьесага ватанпарварлик мавзуси ҳам киритилган.

Трагедиядаги воқеа-ҳодисалар ва ҳукмдорларнинг хулқ-атворлари шу қадар аниқ тасвирланганки, уларга ортиқча изоҳ беришга ҳожат йўқ. Темурбек-Вильямнинг мақтанчоқ ва хоин Боязид-Людовик устидан қозонган ғалабаси Марльборода (Англиянинг Уилтшир графлигидаги шаҳар) асар ёзилганидан уч йилдан сўнг ўзини оқлади. Трагедия бир асрдан ортиқ Англия театрлари саҳналаридан тушмаган.

“Rowe’s Tamerlane, with the author’s guarded permission in his dedication of the play to the Marquis of Hartington, was recognized immediately as a political allegory. The references to the acts and the personal qualities of the monarchs who bear the major roles are so open as to need no elucidation even now. The victory of Tamerlane-William over the insolent and perfidious Bajazet-Louis was in 1701, the date of the play’s production, an unfulfilled desire, but Marlborough in three years time would justify the prophecy. With that accomplished, the play acquired the authority of fact which procured for it more that a hundred years of life [8, 127-б]”.

Николас Роу XVIII аср инглиз трагиклари орасида юксак мавқега эга бўлган. Эсда қоларли характерларни ва ҳақиқатдан ҳам ҳис-туйғуга бой эпизодларни ярата билиш иқтидори учун В.Арчер Роуни “туғма драматург” деб атаган [2, 167-б]. Б.Добрэ эса Роуни XVIII аср инглиз трагедиянавислари орасида биринчи ўринга қўйган. Танқидчи Роу пьесаларининг мукаммал структураси ҳақида тўхталиб, қуйидагиларни ёзган: “актларнинг жойлашиши ва улардаги қаҳрамонлар ҳис-туйғуларининг тасвири пухта ўйланган ва уларнинг саҳнада муваффақиятга

эришишига сабаб бўлган" [3, 245-б]. А.Никол ва Ж.Неттлтон Роу трагедияларининг оригиналлигига юксак баҳо бериб, уларни ўша даврнинг энг сара "жиддий саҳна асарлари" сирасига киритдилар, чунки бу оригиналлик "муаллифга ҳақли равишда августиан даврининг фожеанавис драматурглари орасида олд ўриндан жой берди" [5, 171-б]. 1715 йили Николас Роу адабиёт соҳасидаги ютуқлари ва жамият равнақига қўшган ҳиссаси учун қирол саройи шоири унвонини олган.

Николас Роу XVIII аср инглиз моралистлари билан ҳамфикр бўлган, улар театрни "ҳаёт мактаби"га айлантиришга чақирардилар, томошабинларни одоб-ахлоқ тамойилларига асосланиб иш кўришга ўргатувчи асарлар битардилар. Н.Роу ўз асарларида томошабинга яқин ва таниш бўлган воқеаларни тасвирлашга интиларди. Унинг барча асарларида яхшиликка интилиш ва ёмонликдан нари туриш панд-насиҳат тарзида берилар, улар томошабинга қаҳрамонлар тили билан етказиларди. Одатда, асар охирида бўлиб ўтган воқеаларга баҳо бериларди, томошабин ушбу хулосалардан ўзига кераклигини олган.

Бироқ трагедияда таълим-тарбиявий мақсадга эришиш учун Роу асарларнинг эмоционал томонларига кўпроқ эътибор қаратган. У севги-муҳаббат, эр-хотин вафодорлиги, оиладаги муносабат, бағрикенглик мавзулари томошабинларда каттароқ эътибор жалб этиши ва чуқур таассурот қолдиришига ишонган. Трагедияларнинг прологларида Роу ҳамдардлик, бошқаларнинг дардларига яқин бўлиш инсоннинг самимийлигидан дарак беради, деб ёзади.

Н.Роу сюжет танлашда ўзининг сиёсий қарашларини эътиборга оларди. У ўз асарларида давлат, дин, одоб-ахлоқ, бурч ва ҳуқуқ, давлат ва дин муносабатларига доир долзарб муаммоларни кўтарарди. Роу Амир Темур образида мукаммал ҳукмдор тасвирини яратган, бу билан ўзини озодлик ва қонун устуворлигига асосланган, конституцион монархия тамойилларини қўлловчиси сифатида кўрсатган.

Бағрикенг ва камчилик қилган одамни кечиришга қодир бўлган қаҳрамонлар Роу асарларида кўплаб учрайди, шу билан бирга уларда золим персонажлар ҳам бўлган. Одатда, булар иккиюзламачи ва муғомбир фитначилар, молу мулкка ёхуд ўзларининг бошқа худбин ниятларига эришиш учун ҳар қандай ишга тайёр инсонлар. Шу сабабли уларнинг қисматлари фожиавий тугайди.

У ҳис-туйғуга бой саҳналарни яратарди, унда қаҳрамонлар одоб-ахлоқ томонларини кўрсатиб ўзининг эмоционал ёки жисмоний азобларини намоён этишлари шарт бўлган, шу йўл билан улар томошабин эътиборини воқеага эмас, балки қаҳрамон кечинмаларига қаратган. У томошабинни танг аҳволга келтириш учун ушбу саҳналарни атайлаб кўпроқ тасвирлар келтирарди.

XX асрда Николас Роунинг адабий мероси ҳақида бир неча монографик тадқиқотлар пайдо бўлди. Уларда Роу трагедиялари аллақачон унутилган асарлар сирасида эмас, балки замонавий адабиёт учун ҳам катта аҳамиятга эга эканлиги кўрсатилади. Жумладан, Л.Берне "Ачиниш ва кўз ёшлар: Николас Роу трагедиялари" номли ишида бой фактик материалдан фойдаланган ҳолда, Роу ижодини холисона баҳолашга ва унга турли давр танқидчиларининг муносабати ҳақида тасаввур беришга ҳаракат қилган.

Адабиётлар:

1. Алексеев М.П. Из истории английской литературы. – М.; Л., 1960.
2. Archer William. The Old Drama and the New Text.: An essay in revaluation / William Archer. – London : Heinemann, 1923.
3. Dobree Bonamy. English literature in the early 18th century, 1700 1740 Text. / Bonamy Dobree. – Oxford : Clarendon press, 1959.
4. Intze Otto. Nicholas Rowe Text. / Otto Intze. Leipzig, 1910.
5. Nettleton G. H. English Drama of the Restoration and the Eighteenth Century (1642-1780) Text. / G. H. Nettleton. – N. –Y.: Cooper Square publ., 1968.
6. Pollock Thomas Clark. Rowe's Tamerlane and The Prince of Parthia Text. / Thomas Clark Pollock // American Literature. May 1934. – Vol. 6. - № 2.
7. Rowe Nicholas. Tamerlane. – London, 2000.
8. Schwarz Ferdinand H. Nicholas Rowe's Fair Penitent Text.: a contribution to literary analysis / Ferdinand H. Schwarz. - Berne: Buchler & Co, 1907.
9. Thorp Willard. A key to Rowe's Tamerlane Text. / Willard Thorp // Journal of English and Germanic Philology. Jan. 1940. – Vol. XXXIX.

ҲОЗИРГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ИСЁНКОР РУҲ ҒОЯЛАРИ

Дилфуза Тажибаева
НамДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси катта ўқитучиси, PhD

Аннотация. *Мақолада ҳозирги ўзбек шеърияти вакиллари ижодидаги ўзига хосликлар ҳақида фикр юритилган. Чўлпон, Х.Худойбердиева, Х. Даврон, М. Юсуф шеъриятидаги исёнкорлик ғоялари ва улар ижодидаги ҳамоҳанглик масалалари талқин этилган.*

Калит сўзлар: *Шеър, шеърият, адабиёт тарихи, поэтик тимсол, бадиий адабиёт, тасвир объекти, поэтик умумлашма, мажоз, поэтик "мен", поэтик олам, исёнкорлик ғоялари.*

ИДЕИ МЯТЕЖНОГО ДУХА В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Дилфуза Тажибаева
преподователь кафедры узбекского языка и литературы НамГУ, PhD

Аннотация. *В статье рассмотрены своеобразие творчества представителей современной узбекской поэзии. Интерпретированы идеи мятежного духа в поэзии и созвучие творчества Чулпона, Х.Худойбердиевой, Х. Даврона, М. Юсуфа*

Ключевые слова: *стихотворение, поэзия, история литературы, поэтический образ, художественная литература, изображаемый объект, поэтическое обобщение, метафора, поэтическое "Я", поэтический мир, идеи мятежа.*

REBELLIOUS SPIRITUAL IN MODERN UZBEK POETRY

Dilfuza Tajibaeva
head teacher of uzbek language and literature faculty in NamSU, PhD

Annotation. *This article concerns the peculiar features of the representatives of the modern uzbek poetry. The article also analyzes the problems of rebellious ideas and harmony in Chulpan, X.Xudoyberdiyeva, X.Davron and M.Yusuf's works.*

Key words: *poem, poetry, history of literature, object of an image, poetic generalization, poetic "I", poetic world, rebellious ideas.*

XX аср ўзбек шеърияти "70-йиллар авлоди" номи билан адабиёт тарихига кирган поэтик авлод борлигини тасдиқлайди. Уларнинг ҳар бири ўз сўзи ва ўз овози билан "куйлаш"га ҳаракат қилгани ҳолда ушбу авлод вакиллари орасида Хуршид Даврон, Шавкат Раҳмон, Усмон Азим, Муҳаммад Юсуф каби шоирларнинг фикри ўткир, сўзи равон бўлганини давр адабиётини кузатган ҳар бир адабиётшунос яхши англайди.

Хуршид Даврон "Кечир, асрим" деб номланган шеърида даврга, асрга мурожаат қилади. Бу асрда кимки ёруғлик сари интилса, "зулмат аро қол"иб кетаверди. Жамиятга ва "ҳеч кимга керак бўлмаган меҳрдан кўр қаҳрнинг туғилиши" эса инсонлар ўртасидаги меҳр-оқибатнинг ўз кўринишини йўқотиб бораётгани, "меҳр" тушунчасининг ўрнига "қаҳр"нинг дунёга келаётганлиги шоир қалбини вайрон қилади:

Қаттол аср,
Кимки "нур" деса
Зулмат аро қолди, бўғилди
Ва ҳеч кимга керак бўлмаган
Меҳрдан кўр қаҳр туғилди. [5,39.]

Шоир Хуршид Даврон "Шеър нима?" деган саволга шундай шеърий жавоб беради:

Қафасдаги ғамгин қушни
Озод этмоқ – шеър битмоқ.
Болаликда кўрган тушни
Эсламоқ ҳам – шеър битмоқ. [6,16.]

Шоир *қафасдаги ғамгин қуш* тимсолида эрксизлик муаммосини ифодалашга ҳаракат қилади. Озодлик эса инсониятнинг азалий орзуси. Инсон доимо ҳурликка интилиб яшайди. Бу йўлда эса курашлар ва машаққатлар бўлиши табиий. "Озод этмоқ – шеър битмоқ", деганида шоир курашларни назарда тутмоқда. "Шеър битмоқ – курашмоқ". Курашганда ҳам маънавий йўл билан кураш олиб бормоқдир, дейди шоир. Шеърдаги шоир таъкидлаган *болаликда кўрган тушни эсламоқ* эса инсон хотирасининг мустаҳкамлигига ишора бўлиб, ҳар қандай киши ўз ўтмиши, ота-боболари қолдирган маънавий меросни ҳеч қачон ёддан чиқармаслиги назарда

тутилади. Хуршид Даврон шеърдаги поэтик тимсолни *сиртлон* ва *шер* қиёфасидаги курашга отланган, тишларини душманига санчишга тайёр курашчига ўхшатади:

Ғазабингни яширолмай,
Мисли сиртлон, мисли шер,
Тишларингни ёвга санчмоқ –
Бу энг қутлуғ, улуғ шеър. [6,16.]

Ёвга қарши курашишнинг турли йўллари мавжуд. Сўз орқали кураш олиб бориш ҳам бир йўл. Шеъриятнинг зоҳирий ифодаси эса сўз. Сўзнинг кучи, қудрати ҳар нарсага қодир. Сўз орқали ёвга қарши туриш кураш шакллари орасида *энг қутлуғ, улуғ шеър* эканлини шоир таъкидлайди. Н. Афоқованинг бу шеър хусусидаги фикри шеърга муносабатимизни хулосалайди: "Ҳаёт – катта уммон, бадиий адабиёт учун тугамас материал манбаидир.Устига-устак, тасвир объекти асосан қалбнинг нозик кечинмалари бўлган шеърият учун дунёда гўзал нарса-ҳодисалар, эҳтиросли ҳолатлар оз эмас. Аммо нега муаллиф қафасдаги қуш, инсонни сиртлону шерга айлантирадиган ғазаб, ёвга тиш санчмоқ, қамоқдаги маҳбусдан сўз очади? Табиийки, бундай образларни замон майдонга чиқарди, умрининг сўнгги йилларини яшаётган мустабид жамият (шеър 1979 йилда ёзилган) шеърни ҳам кураш қуролларидан бирига айлантирди."[2]

Хуршид Давроннинг "Шеърият – бу қийин иш эмас" деб бошланувчи шеърида юқоридаги фикрнинг давомийлигини кузатиш мумкин:

Шеърият – бу қийин иш эмас,
Ёзсанг агар юракни асраб.
Бироқ шеърнинг бир сатрини деб,
Қон тупурган тунлари Машраб. [5,18.]

Хуршид Даврон шеъриятни "қийин иш эмас"лигини, бироқ бу йўлда ҳар бир сатр учун Машрабнинг қон ютганлигини таъкидлайди. Дарҳақиқат, шоирлик қисмати – машаққатли, масъулиятли, азобли тақдири азал. Ҳақиқий шоирлар миллат олдида жавобгарлик ҳиссини сезиб турадилар. Унинг дардини, муаммоларини ёритишга, бахтига шерик бўлишга интиладилар. Шоир Муҳаммад Юсуф ҳам бу йўлнинг "заҳматлари", "ухламай қон ютган кунлари" борлигини ва бу қисматдан нолишлик эмас, аксинча, унга миннатдорчилик ҳиссини изҳор этган эди:

Сен борсанки, заҳматларим бор,
Бу дунёда орттирган зарим –
Ухламай қон ютган кунларим
Учун сенга раҳматларим бор. [3,30.]

Шоирлик заҳмати хусусида икки шоир икки йўлдан борган бўлса-да, аслида ҳар иккиси ҳам ҳақиқий шоирлик ҳамма қатори яшашдан, борига шукр қилиб, бошга тушганини кўз кўрар деб мавжудликка кўнишдан чекиниш, деган хулосага келади. Бу дегани ҳаётдан, жамиятдан узилиб, тарки дунё қилиш эмас, балки инсонлар орасида яшаб, уларнинг қалбига йўл очадиган, миллатнинг ўтмиши, бугуни ва келажаги ҳақида қайғурадиган, ғамига ҳамдард, бахтига шерик бўла оладиган шарафли ва улкан иш, эзгулик сари етаклайдиган машаққатли, хатарли ва

масъулиятли йўлдир. Бу йўлдаги курашчи фақат олдинга қараб интилмоғи, курашмоғи, эрки учун кези келганида қасос олишга тайёр турмоғи лозим:

Шеърият – бу қийин иш эмас,
Етар топсанг қофия “ёз”, “соз.”
Шеърда баъзан ҳаводек зарур
“Эрк” сўзига қофия “қасос”. [5,18.]

Дарҳақиқат, шоир айтганидек, “ёз” сўзига “соз” сўзини қофиядош қилиб ҳам шеър ёзиш мумкин. Бироқ ҳар доим ҳам қофияли сўздан шеър пайдо бўлавермайди. Иккинчидан, бу сўзлар замиридаги маъно фақат тасдиқдан, яъни “соз” (яхши) нарсаларнигина ёзиш эмас, балки керак бўлса, “эрк” учун “қасос” олмоқ йўлини шоир танлайди, деган поэтик умумлашмани беради.

ХХ аср бошларида Чўлпон эрккка ташналик, эрк учун кураш, исёнкорлик мотивларини ўнлаб шеърларида баланд пардаларда куйлаган эди. Шоирнинг “Мен ва бошқалар” шеърида бу фикр яққол гавдаланади:

Кулган бошқалардир, йиғлаган менман,
Ўйнаган бошқалар, инграган менман.
Эрк эртакларин эшитган бошқа,
Қуллик қўшиғини тинглаган менман. [7,75.]

Гарчи бу мисралар ўзбек қизи номидан айтилгани билан ўша даврдаги ҳаётидаги эрксизликдан дарак берар эди. Юқоридаги Хуршид Даврон таъкидлаган “эрк” ва “қасос” “қофиядош”лигига келсак, шоир эрк куйчиси сифатида бутунлай бошқача услубда фикр айтади, мажоз орқали эрксизликнинг мавжуд ҳолатини очиб беришга уринади. Кўрамизки, икки шоир икки йўлдан бири очиқ ҳақиқатни айтиш, иккинчиси уни “мажоз тариқига йўғриб” ифодалаш йўлидан борган бўлса-да, шеърдан мурод – ҳақиқат манзили бир: шоир эрксизликни кўриб туриб лоқайд яшай олмаслиги лозим, деган фикр ўз ифодасини топган. Бу икки хил тасвирий усули ҳар икки шоир яшаётган давр билан боғлиқ. Улардан бирида шўролар қиличи секин-аста халққа яқинлашиб келаётган пайтда шоир дилгирлик билан у қиличнинг дамидан халқини сақлаш учун, эрк учун курашга чорласа, иккинчиси бу қилич ўз ишини қилган, унинг қаҳридан қўрқиб мутелашиб қолган халқ қаддини кўтаришга қаратилгандир. Гарчи мақсад – фикр бир-бирига яқин бўлса-да, унга эришиш йўли шоир услубининг ўзгачалигида кўринади..

Шеърда шоирнинг ҳис-туйғулари, нияти, мақсади ва асл қиёфаси кўриниб турар экан, Хуршид Даврон сатрларидаги жўшқинлик, самимийлик, исёнкорлик каби туйғулар унинг поэтик “мен”ида гавдаланади:

Сен қўрқувни қанчалик яшир,
Шеър қилади барибир ошкор.
Қўрқоқ бўлсанг, қўрқоқ бўлар шеър,
Мардман, деб жар солмоғинг бекор. [5,18.]

Шеър – шоирнинг ижтимоий виждони”, [1,163.] – деган эди Асқад Мухтор. Шоирнинг кимлиги, китобхонга айтмоқчи бўлган фикри унинг ёзган шеърида аниқ кўринади. Шоирнинг жамиятга, инсонларга бўлган муносабати қалбида кечаётган туғёнлар орқали ифодаланади Дарҳақиқат, Хуршид Даврон таъкидлаган юқоридаги

фикр шоирликнинг нақадар масъулиятли вазифа эканлигини исботлайди. Шеърият йўли – курашга отланиш, ўз жонини гаровга қўйиш, бутун вужудини ҳиссиёт исканжасига ташлаш ва бу йўлда руҳ қурбонлигини келтиришдан иборат. Бу ижод йўли ҳақида Ҳалима Худойбердиева шундай ёзганди:

Шунчаки ёзмоққа кўнглим тўлмайди,
Шунчаки ёзмоққа бормайди қўлим.
Шунчаки ёзганга чидаб бўлмайди,
Шунчаки ёзмоқ бу – шоирга ўлим. [4,15.]

Ҳақиқий шоир халқининг маънавий эҳтиёжлари учун, юртининг истиқболи учун доим тайёр турмоғи шарт. Унинг учун "актёрлик" ярашмайди. Шеърият йўли саҳна эмас. Бу йўлга кирган инсон ўз ҳаётининг омонат эканлигини тан олмоғи, керак бўлса жон бермоғи зарур:

Заҳар ичиб ўлган актёрдек
Пардадан сўнг тирилмоқ бекор.
Шоир шеърнинг олдида тирик,
Шеър сўнггида ўлмоғи даркор. [5,18.]

Ҳақиқий иқтидор эгалари миллат ва Ватан олдидаги бурчларини тўғри англаб етадилар ва бутун умрини халқнинг орзу-умидлари, юрт истиқболи учун бахшида қилишга тайёр турадилар. Шоир ўзи яшаган замонда шу давр ижодкорлари билан бирга фикрлаши, даврга, жамиятга бўлган муносабати жиҳатидан бир-бирига ўхшашлик ва муштаракликлар бўлиши мумкин, бироқ дунёни идрок этиши, поэтик оламлар дунёси, индивидуал қарашлари нуқтаи назаридан замондош шоирлардан мутлақо ажралиб туради. Ҳар бир шоир табатидаги исёнкорлик ғоялари, унинг тараннуми турли ифода услубларида намоён бўлаверади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Асқад Мухтор. Шеър – шоир виждони. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – 444 б.
2. Афоқова Н. , Акрамова С..Хуршид Даврон шеъриятида ижодкор шахснинг ижтимоий позицияси муаммоси. http:/kh-davron. uz.
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма.. –Тошкент: Шарқ, 2005. – 288 б.
4. Худойбердиева Ҳ. Буюк қушлар. – Тошкент: O'zbekiston, 2012. – 728 б.
5. Хуршид Даврон. Баҳордан бир кун олдин.- Тошкент: Шарқ, 1997. – 224 б.
6. Хуршид Даврон. Тўмариснинг кўзлари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1984. – 112 б.
7. Чўлпон. Асарлар.4 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 384 б.

ЯНГИ ТУШУНЧАЛАРНИ ИФОДАЛАШ УСУЛЛЛАРИ

Лазиза Санжаровна Худайбердиева
Филология фанлари номзоди, доцент
Хорижий тиллар кафедраси
Андижон давлат тиббиёт институти

Аннотация. *Кишилик жамияти доимо ривожланишда, тараққиётдадир. Жамиятнинг ривожланиши эса ўз хусусиятлари, мазмуни, мақсади ва йўналишларига кўра турлича кечади. Ижтимоий-сиёсий, илмий-техникавий тараққиёт жамиятнинг қиёфасини белгиловчи асосий ҳодисалар саналади. Бир сўз билан айтганда, ижтимоий соҳалардаги ўзгаришлар инсонларнинг яшаш қобилияти динамикасини белгилайди. Жамиятнинг ривожланиб бориши ҳамда инсондаги билим доирасини муттасил равишда кенгайиб туриши тилда бу жараёнларнинг доимо янги атамалар билан ифодаланиб туришини талаб қилади.*

Мазкур мақолада сўз кўп маънолилик хусусияти, битта сўз остида бир неча маънони ифодалаш мумкинлиги, маъно кўчиш усуллари ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: *сўз, номлаш, маъно кўчиш усуллари, иккиламчи номинация.*

СПОСОБЫ НОМИНАЦИИ НОВЫХ ПОНЯТИЙ

Худайбердиева Лазиза Санжаровна
Кандидат филологических наук, доцент
Кафедра иностранных языков
Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация. *Процесс развития общества и знаний человека постоянно развивается. Развитие общества варьируется в зависимости от его характеристик, содержания, цели и направления. Социально-политический, научно-технический прогресс - главное событие, определяющее имидж общества. Одним словом, изменения в социальной сфере определяют динамику жизнедеятельности людей. Развитие общества и постоянное расширение человеческих знаний требует, чтобы эти процессы всегда были представлены новыми терминами в языке.*

В данной статье рассматривается значении слова, его множественных значениях под одним словом и способах перевода значения.

Ключевые слова: *слова, номинация, способы номинации новых понятий, вторичная номинация.*

MEANS OF NOMINATION OF NEW PHENOMENA

Laziza Sanjarovna Khudayberdieva Candidate of Philological Sciences,
Associate Professor, the Department of Foreign Languages
Andijan State Medical Institute

Annotation *Human society is constantly evolving and developing. The development of a society varies according to its characteristics, content, purpose and direction. Socio-political,*

scientific and technical progress is the main event that determines the image of society. In short, changes in the social sphere determine the dynamics of people's ability to live. The development of society and the continuous expansion of human knowledge requires that these processes are always represented by new terms in the language. This article focuses on the meaning of the word, its multiple meanings under one word, and the ways in which meaning is translated.

Key words: *word, nomination, means of nomination of new phenomena, secondary nomination*

Семантик жиҳатдан кенг тармоқланганлик ва тил унсурларининг кўчма маъноларда кўп ишлатилиши табиий тилнинг энг муҳим белгиларидан бири саналади.

Кўп маънолилик ва маъно кўчиришга бўлган қизиқиш тадқиқотчиларнинг тилни реал борлиққа мутаносиб келиши қонуниятларини очиб беришга бўлган қизиқишларига бориб тақаладики, бунда тилнинг кўп қирралилиги ва чегарасизлиги муҳим аҳамият касб этади.

Сўз кўп маънолилик хусусияти тилнинг лексик тизимини ўзгартириб юбора оладиган ҳодиса саналади. Битта шакл (сўз) остида бир неча маънони ифодалаш мумкинлиги лексик тизимнинг номинатив имкониятларини оширади ва уни тубдан ўзгартириб юбора олади. Лексиканинг асосий қисмини тилда олдиндан мавжуд бўлган сўзлар воситасида янги маънони ифодаловчи лексик бирликлар ҳосил қилади. Кўп маънолиликнинг муҳим хусусиятларидан бир шундаки, у табиатига кўра битта қонунга бўйсунмайди. Баъзи бир ҳолларда кўп маънолилик муайян сўзга тегишли бўлган тўғри маъноларнинг йиғиндисидан иборат бўлади. Буни **азиз** сўзи мисолида кўриб чиқишимиз мумкин.

1. Иззат-ҳурматга сазовор, қадрли, ҳурматли, муҳтарам;

Азиз меҳмонларга нон-туз тутилди.

2. Ҳар нарсадан улуғ, аъло, бебаҳо;

Сумалак баҳорнинг азиз таоми саналади.

3. Пулга топилмайдиган, қимматли, камчил, тақчил;

Чўлда сув жуда азиз нарса бўлади.

4. Дин. Муқаддас, қутлуғ, табаррук;

Бу ерлар азиз қадажжолардан бири ҳисобланади.

Азиз сўзидан аланга сўзидаги кўп маънолилик шу билан фарқ қиладики, кейингисида иккиламчи номинация усулидан фойдаланилган. [1]

1. Ёниб турган ўтдан, оловдан кўтарилаётган ёлқин;

Шам алангаси ҳар томондан эсиб турган шабадада тебранар эди. А.Қаҳҳор.Кўр кўзнинг очилиши.

2. Ёруғлик, ёруғ шуъла; Ашулачиларнингқуёшда қорайган юзлари машъалаларнинг алангасида йилтирар эди. А.Мухтор. Опа-сингиллар.

3. Кўчма. Ўт олдирувчи, жўшқин жараён; жўшқинлик, ҳовур; юракка ўт солувчи, ёндирувчи ҳис-туйғу; Фироқ алангаси. Ишқ алангаси.

4. Алангаланиб ёна бошламоқ. Жанг майдонида душманнинг етти танки аланга олиб ёнди. А.Раҳмат. Эллик бир баҳодир.

5. Кўчма. Кучаймоқ, зўраймоқ, авжига минмоқ, шиддатли тус олмоқ. Ўзбек ойимнинг ғазаби тағин ҳам аланга олди. А.Қодирий. Ўтган кунлар.

Луғат жамғармасининг шиддатли равишда ўсиб бориши айнан иккиламчи номинацияни қўллаш натижасида ўз аҳамиятини йўқотади. Бунда тилда азалдан мавжуд бўлган номинатив восита янги вазифани бажариш учун хосланади. [2]

Логик – психологик қонуниятлар асосида моддий оламдаги нарса ва предметларни қиёслаш, умумлаштириш ҳамда тил орқали ифодалаш жараёнида маъно кўчишнинг турли хил усулларидан фойдаланиш табиий тилдаги лексик қатламни чегаралайди, уни тинимсиз равишда ўсиб боришдан сақлайди. Ҳар бир жонли тилда маъно кўчишнинг бой имкониятлари мавжуд бўлади. **Эпитет, қиёслаш, метафора, метонимия, синекдоха, гипербола, литота, ирония, аллегория, перифраза, вазифадошлик, ташбеҳ** ва ҳоказоларни бунга мисол қилиб олишимиз мумкин.

Маъно кўчиш усуллари ичида ўз хусусиятларига кўра метафора ва метонимия алоҳида аҳамиятга эга. Негаки, улар **шунақа, каби, ўхшаш, янлиғ, худди, нақ** сингари қўшимча лексик воситаларни талаб қилмайди. Сўз шаклининг ўзида маъно кўчирилишини таъминлайди, иккиламчи номинация учун асос вазифасини ўтай олади. Метафора ва метонимияга хос бўлган бу хусусиятлар уларнинг бошқа усуллардан устуворлигини таъминловчи далил бўлиб хизмат қилади. [3]

Метафорик усул билан маъно кўчириш тилда жуда кўп учрайди, лекин шуни алоҳида қайд этиш лозимки, предметларга хос бўлган белги-хусусиятларни тўла ва мукаммал билиш узоқ вақтни талаб қилади. Шу боис, бундай ҳолларда кўчма маъно предмет ҳақидаги тасаввурни тубдан ўзгартириб юбориши мумкин бўлган вазият етилгунча кутиб турилади. **Ўпка, ичак, суяк, бўғим** каби киши органлари билан боғлиқ касалликларнинг номланишида юқоридаги ҳолатни кўришимиз мумкин.

Мисол учун **туберкулёз** касаллиги ҳақидаги илк маълумотлар Хаммураби (Эр:аввалги 2250 йиллар) қонунларида учрайди. Унинг148-, 149- § ларида бундай касалликнинг енгил шакли ҳақида маълумот берилади ва "унга учраган аёл билан ажралиш ҳуқуқлари ҳақида" ёзилади. [4] Хуллас, мазкур ҳодиса қадим замонлардан буён инсонларга маълум бўлишига қарамасдан, у XIX асрга қадар тубандагича аталиб келинган: грекча **phthisis "сил"**, лотинча **consumptio "қовжираш", "ориқлаш",** немисча **Schwindsucht "сил", Auszehrung "ориқлаш", "нураш",** русча **чахотка "сил"** ва ҳ. Келтирилган барча номлар метафорик характерга эга: лотинчада "тугаш", немисчада "ориқлаш", "нураш" маънолари олинган. Рус тилида ҳам унинг аталиши аста-секин кучдан қолиш ҳолатига бориб тақалган. Бу бежиз эмас, албатта, чунки ўпкадаги касаллик жараёни туфайли камқонлик, бунинг пировард натижасида эса кучдан қолиш, нураш келиб чиққан. [4]

Ҳозирги кунда О.Н.Никонованинг "Рус-немисча луғат"и (М.,1963й) ва Лоховиц ҳамда Лепингларнинг "Рус-немисча луғати"да **туберкулёз** сўзи **Tuberkulose** ва **Schwindsucht** тарзида таржима қилинмоқда. **Auszehrung "чахотка", "ориқлаш"** маъноси эса луғат мақолаларидан ўрин олмаган. Олинган мисоллардан кўриниб турибдики, барча ҳолатларда касалликнинг ташқи белгиларига асосланган ҳолда ном қўйилган. [5]

Инглиз медик-олими Бейли **чахотка (сил)** касаллигининг тўрт хил кўринишини ажратади: **туберкулёзли, гранулёзли, меланотик ва калькулёзли.**

Француз олими *Лаеннек* (1781-1826) **туберкулёз ва сил** тушунчаларидаги ортиқча мураккабликларни олиб ташлашни ва ўпкадаги шишларнинг мавжуд ёки мавжуд эмаслигига кўра уни ягона ном билан аташни таклиф қилди. *Лотинчада* шишлар **Tuberculum** деб аталиши боис касалликнинг номи **туберкулёз** бўлиб қолди.

Лаеннекнинг бу таклифи ҳам касалликнинг табиатини белгиловчи кўп асрлик англашилмовчиликларга чек қўя олмади. Машҳур физиолог П.Вирховнинг "**Сил (чахотка)** касаллиги учун энг катта хавф – бу туберкулёз билан оғришдир" деган гапи тилдан тилга кўчиб юрди. Фақат 1892 йили немис бактериолог олими Р.Кох томонидан касалликни қўзғатувчи туберкулёз таёқчаларинингкашф этилиши унинг келиб чиқиш сабабларини излашларга нуқта қўйди. Мазкур тушунча бугунги кунда тубандагича изоҳланади: **"Туберкулёз"** (*лотинча* **Tuberculum-шиш** сўзидан олинган бўлиб) инсонга ҳайвонлар, қушлар ва алоҳида микроорганизмлардан юқадиган юқумли касаллик саналади". [6]

Бу оғир хасталик медицина фанининг мураккаб масалаларидан бири бўлиб, узоқ изланишларни талаб этди. Унинг устидаги изланишлар натижасида касалликнинг табиати, пайдо бўлиши аниқланди, унга қарши кураш олиб боришнинг чора-тадбирлари ишлаб чиқилди. Касалликнинг характери ва ривожланиш қонуниятлари ҳақидаги ҳақиқий билимлар уни олдинги белгиларини ҳам ҳисобга олган ҳолда аниқ аташ имконини берди. Шу тариқа олдинги номлашда етакчилик қилган **"қовжираш", "тугаш"** маънолари кейинги аташ жараёнида доминанталик хусусиятини йўқотди, ҳатто янги номнинг семантик майдонидан чиқиб ҳам кетди. Шунга қарамай метафорик маъно ўзининг табиатига кўра предметни аташда сақланиб қолиши ҳам кузатилади. Юқоридаги касаллик номини кўчма маънода қўллаш ҳозирда ҳам баъзан учраб туради.

Метафорик маъно кўчишнинг асосий сабабларидан бири олдиндан тилда номи мавжуд бўлган нарса ва ҳодисаларга ўхшаш янги нарсаларнинг пайдо бўлиши саналади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-М.: Русский язык, 1981.-Т.1.,30-38б.
2.Телия В.Н.Вторичная номинация и ее виды. В кн.: Языковая номинация (Виды наименований). М.,1977.С.-129.
3.Pels.Studies in functional logical semiotics of natural Language.The Hauge Paris, 1973, p.144.
4.Энциклопедический словарь Гранат,Т.26.
5.Russisch-Deutsches Worterbuch. Leipsig, 1951.
6.Большая медицинская энциклопедия. М.,1936.С.-33.

ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР АДАБИЁТИДА НАВОИЙ АНЪАНАЛАРИ

Толибжон Рузибоев,
Эркин Воҳидов номли ижод мактаби ўқитувчиси, тадқиқотчи.

Резюме: *Мазкур мақолада Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достони XXI бобида ёритилган лирик қаҳрамон – сайд (ов қилинадиган жонивор) – сайёд (овчи) мавзусининг кейинги давр туркий халқлар: озарбайжон, туркман ва ўзбек адабиётида давом эттирилиши билан боғлиқ масалалар тадқиқ этилган.*

ТРАДИЦИИ АЛИШЕРА НАВАИ В ЛИТЕРАТУРЕ ТЮРСКИХ НАРОДОВ

Толибжон Рузибоев,
учитель школы творчества имени Эркина Вахидова, соискатель.

Резюме: *В настоящем статье исследована вопросы продолжение традиции в литературе тюркских народов: азербайджанской, туркменской и узбекской литературе связенные с темой лирический герой – сайд (охотящееся существо) – сайёд (охотник) освещеный в главе XXI произведение Алишера Наваи «Лейли и Меджнун».*

NAVOI'S TRADITIONS IN THE LITERATURE OF TURKIC PEOPLE

Researcher - Tolibjon Ruziboev,
Teacher of Erkin Vokhidov Creative school.

Abstract:*This article explores the theme of the lyric hero - Sayid (hunted animal) - Sayyod (hunter) in the later period literature of Turkic people: Azerbaijani, Turkmen and Uzbek, which are covered in Chapter XXI of Alisher Navoi's poem Leyli and Majnun.*

Алишер Навоийнинг «Лайли ва Мажнун» достонидаги XXI бобида ишқ оташида куйган Мажнун ёлғизлик истаб, одамлардан йироқлашиши, тоғ-тошларга чиқиб кетиши, атрофдаги ҳамма нарсада Лайли тимсолини кўриши, ёввойи ҳайвонлар билан дўст тутиниши, айниқса, бир дашт кийик доим унинг атрофида парвона бўлиб юриши ҳақида ҳикоя қилинади. Ҳикоя давомида кунларнинг бирида ўз сипоҳлари билан овга чиққан Навфал ва кийиклар билан дўст тутинган Мажнун орасида бўлиб ўтган воқеалар ҳам тасвирланган. Ов пайтида сипоҳлардан қочган кийиклар тўп-тўп бўлиб, Мажнун қошига югуриб уни ўраб олишади ва паноҳ сўраб ялинишади. Бу ҳодиса Навфални ҳайратга солади ва унинг кимлигини билгач, овни тўхтатади. Шунда Мажнун Навфалнинг чеҳрасида балқиб турган бахтиёрлик нурини кўради ва очликдан – эҳтиёж туфайли эмас, балки шунчаки кўнгилочарлик қилиш мақсадида ов қилиб, қон тўкиш иштиёқида юрган ғофил кишилардан эмаслигини англаб етади ва жониворларга раҳм қилишни ва ов қилишни тўхтатишни сўрайди:

Ким, ғофил улус киби чекиб ўқ,
Ваҳш этидан ўзни истамак тўқ.
Чун йўқ бу ғизоға иҳтиёжинг.
Озор недин тилар мизожинг.
Ким, нафс нишотиға чекиб хайл,

Қон тўккали кўнглунг айлагай майл.
Бу зулм ила ул ғизому бўлғай,
Сендин бу сифат равому бўлғай?
Гар урса тикан аёғинга неш,
Кўнглунг аёғинг учун бўлур реш.
Не мазлама ёйин ўлди қурмоқ,
Ўқ чекмаку жониварни урмоқ?
Ҳақ берди буларға доғи жони,
Ойини ҳаётдин нишони.
Бу неча рамида жонидин кеч,
Бежурм гуруҳ қонидин кеч!» [1.160.]

Достондаги бу эпизодни эсга олишимиз бежиз эмас, чунки айнан шу ҳикоя кейинги давр туркий халқлар – озарбайжон, туркман ва ўзбек адабиётида сайд ва сайёд образлари билан боғлиқ энг машҳур асарлар яратилишига туртки бўлган. Навоийдан кейин дастлаб, бу мавзу озарбайжон адабиётининг машҳур намояндаси Муҳаммад Фузулий ижодида кўзга ташланади. Шоир Навоий изидан бориб, туркий тилдаги «Лайли ва Мажнун» достонини яратар экан унга «Бу Мажнуннинг ғазол ила мақолотидир ва ишқ бобинда онингла ўлан ҳолатидур» номли лирик ҳикоя киритади. Ундан кейин туркман адабиётининг вакилларидан бири Андалиб Навоий ижодидан таъсирланиб, «Лайли ва Мажнун» достонини яратади ва унинг таркибига Мажнун тилидан сайёдга қарата айтилган «Сайдинг қўя бер, сайёд, дилпора экан мандек» мисраси билан бошланган мухаммасни киритади, кейинчалик эса бу асардан таъсирланиб, Фурқат ўзининг ноёб мусаддасини яратди. [2.201–202.] Худди шу мавзудаги асарлар – бир мухаммас ва бир мусаддас Нодим Намангоний ижодида ҳам учрайди. [5.64–65.] Агар Навоий достонидан олинган парча мазмунига эътибор қаратсак, кейинги даврда яратилган барча асарлардаги учлик образлар тизими: ***лирик қаҳрамон – сайёд – сайд*** айнан шу парчага бориб тақалади. Навоий достонида булар ***Мажнун – Навфал – кийиклар (бежурм гуруҳ)*** тимсолида намоён бўлган бўлса, Фузулийда ***Мажнун – сайёд – сайд (ғазол)***, Андалибда ***Мажнун – Навфал – кийик*** тимсолида ифодаланади. Фурқат ва Нодим Намангоний асарларида ***лирик қаҳрамон (шоир) – сайёд – сайд (оҳу)*** тарзидаги талқинга дуч келамиз. Айрим манбаларда Фурқат сайд тимсолида ўз дўсти Саъдуллони тилга олган деган қарашлар ҳам мавжуд. [6.43–44.]

Бу асарлар мавзу ва тимсоллар жиҳатидан бир-бирига жуда яқин турса-да, жанри ҳамда мазмунига кўра ҳар бири ўзига хослиги билан алоҳида ажралиб туради. Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий асарларида бу воқеа достон таркибидаги лирик ҳикоя тарзида берилган бўлиб, маснавий жанрига хос. Навоий достонида Мажнун овга чиққан Навфал билан учрашувда улар орасидаги зиддият унчалик кескин эмас, улар бир-бирларини тезда тушуниб ҳамдардга айланишади. Чунки Навфал ҳам аслида золим шахс эмас, у ҳам бир пайтлар Мажнун каби ишқ оташида куйган. Фузулий достонида эса Мажнун ва сайёд орасидаги конфликт ўта кескин тус олган. Сайёд тирикчилик туфайли сайд (ғазол)ни домга илинтирган ва оиласини оч қолдирмаслик учун ундан воз кечишни истамайдиган золим овчи.

Шоир бу воқеани дом, ғазол кўзларидан оқаётган ёш каби янги деталлар билан бойитган. Унда ғазол ҳолатига раҳми келган Мажнун сайёдга юмшоқлик билан мурожаат қилади:

Юмшоқ-юмшоқ дедики: «Сайёд!
Раҳм айла бу мушкбў ғазола,
Раҳм этмазми киши бу ҳола?
Сайёд, бу нотавона қийма,
Қил жонина раҳм, жона қийма!
Сайёд, сақин жафо ёмондур,
Билмазсанмики, қона қондур?
Сайёд, манга боғишла қонин,
Ёндирма жафо ўдина жонин!.. [4.62.]

Аммо сайёднинг мақсади қатъийлигини кўргач, бор-будини бериб, ғазолни ундан сотиб олиб озод қилади. Андалиб воқеа баёнида мухаммас жанридан фойдаланади ва унинг мазмунига ўз ҳолатини сайёд домига тушган кийик билан қиёслаётган Мажнуннинг ички кечинмалари талқинини ҳам сингдириб юборади, шунингдек, сайёднинг раҳмини келтириш учун воқеага дахлдор яна бир образ – оҳунинг ёрини ҳам киритади:

Сайдинг қўябер, сайёд, дилпора экан мендек,
Чўлларда кезиб юрган сайёра экан мендек,
Сартосари ҳижрондан ғамхора экан мендек,
Саргашта ғариб бўлган овора экан мендек,
Ол домини бўйнидин, бечора экан мендек.

Беш кун сенинг даврингда бечора хиром этсин,
Кўнглидаги ғамларни юз қатла ҳаром этсин,
Ҳар қайға қадам ташлаб, йўл топса, мақом этсин,
То тоқати тоқ бўлмай, ёриға салом этсин,
Ол домини бўйнидин, бечора экан мендек.

Ишқ офатидин Мажнун жулидаи пар бўлдим,
Авзойимни эл билмас, аҳволи дигар бўлдим,
Назр эт буни сен менга, бировни тилар бўлдим,
Гўёки қиёматлик, мен сенга писар бўлдим,
Ол домини бўйнидин, бечора экан мендек. [3.27.]

Юқоридаги парчадан кўриниб турибдики, Андалиб достонида Мажнун ва сайёд орасидаги зиддият бироз кучайтирилган. Мажнун унга мурожаат этар экан ўз ҳолатини кийик аҳволи билан қиёслайди ва унга раҳм этишни сўрайди. Унинг талабида Навоий Мажнунидан фарқли ўлароқ бироз ёлвориш оҳангги кўзга ташланади. Айниқса, «Назр эт буни сен менга, бировни тилар бўлдим, Гўёки қиёматлик, мен сенга писар бўлдим...» мисраларида бу ҳол кўзга яққол ташланади. Фақат бандлар охирида такрорланувчи «Ол домини бўйнидин, бечора экан мендек» мисраси унинг талабига бироз қатъият бахш этиб туради.

Фурқат мавзуни мусаддас жанрида талқин этар экан уни мазмунан янада кенгайтиришга муваффақ бўлади. Шоирнинг лирик қаҳрамони ҳам Андалиб достонидаги Мажнун изидан бориб, сайёдга мурожаат қилар экан ўз ҳолатини сайд ҳолатига таққослайди, аммо ундан фарқли ўлароқ дастлабки мисралардан бошлаб сайёд олдига кескин талаб қўяди:

Сайдинг қўябер, сайёд, сайёра экан мендек,
Ол домини бўйнидин, бечора экан мендек,
Ўз ёрини топмасдан овора экан мендек,
Иқболи нигун, бахти ҳам қора экан мендек,
Ҳижрон ўқидин жисми кўп ёра экан мендек,
Куйган жигари бағри садпора экан мендек. [9.]

Мусаддаснинг ҳар бир бандида лирик қаҳрамон ва сайёд орасидаги конфликт янада кескин тус ола бошлайди. Банддан бандга ўтган сари бу зиддиятнинг сабаблари ҳам ёриша боради. Лирик қаҳрамоннинг сайёдга бўлган нафрати ортади ва унга қўяётган талаби янада кескинлашади. Шоир Андалиб каби мавзуни яна бир тимсол – оҳунинг йўлдоши билан бойитади, аммо бунда «раҳм эткил» радифи ёрдамида ўз талабини ўта кучайтиришга муваффақ бўлади:

Саргашта бу водийда бир бошиға раҳм эткил,
Йўқ тоқати бандингга, бардошиға раҳм эткил,
Йиғлаб сенга термулур, кўз ёшиға раҳм эткил,
Раҳм этмасанг ўзига, йўлдошиға раҳм эткил,
Ҳижрон ўқидин жисми кўп ёра экан мендек,
Куйган жигари бағри садпора экан мендек. [9.]

Юқоридаги мисраларда тилга олинган банд ва оҳунинг кўз ёши каби деталлар Фузулий достонини эсга солади ва Фурқат бу мусаддасни яратишда Фузулийдан ҳам таъсирланганлигини кўрсатади. Ҳар бир банд охиридаги такрорланувчи «Ҳижрон ўқидин жисми кўп ёра экан мендек, Куйган жигари бағри садпора экан мендек» байти лирик қаҳрамон талабининг янада қатъийлашишига олиб келган. Шоир асардаги драматизмни кучайтириш учун контраст усулидан ҳам унумли фойдаланади. Бунинг учун у воқеа замонини конкретлаштиради. Баҳор. Теварак-атроф гулларга бурканган. Бутун борлиқ ҳаёт нашидасини сурмоқда, аммо сайёд домига илинган шўрлик оҳу бу гўзалликлардан баҳраманд бўла олмайди:

Тоғда очилиб лола, ер сабза баҳор ўлса,
Ахир бу нечук бедод, олам анга тор ўлса?
Чиқмай деса жойидин, узлатда фигор ўлса,
Гар чиқса баногоҳи домингға дучор ўлса,
Ҳижрон ўқидин жисми кўп ёра экан мендек,
Куйган жигари бағри садпора экан мендек. [9.]

Фурқатнинг лирик қаҳрамони Андалибнинг Мажнуни каби сайёдга ёлвормайди, сайдни унга назр қилишни эмас, балки мақсад ундан қасд олиш бўлса, ўзига сотишни талаб қилади:

Бечорани зулм айлаб, қўл-бўйнини боғлабсан,
Ҳар сори чекиб-судраб, ўлдиргали чоғлабсан,

Кўксини жафо бирла лола каби доғлабсан,
Сот менга, агар қасдинг олғувчи сўроғлабсан,
Ҳижрон ўқидин жисми кўп ёра экан мендек,
Куйган жигари бағри садпора экан мендек. [9.]

Мусаддаснинг юқоридаги олтинчи бандида «Сот менга, агар қасдинг олғувчи сўроғлабсан» мисраси орқали лирик қаҳрамон талаби ўзининг кулминацион нуқтасига етказилган. Шу ўринда айтиш мумкинки, Фурқат яна Фузулий изидан боради. Унинг қаҳрамони ҳам ўз мақсадидан қайтишни истамаётган сайёддан сайдни ўзига сотишни талаб қилади.

Мусаддасда Андалиб мухаммасидан баъзи мисралар ўзгартирилиб, тазмин қилиб олинган бўлса, «Ол домини бўйнидин, бечора экан мендек», «Беш кун сани даврингда бечора хиром этсун» каби айримлари тўлиқ олинган. «Ўзбек мумтоз адабиётида тазминнавислик анъанаси мавжуд. Фурқат ҳам ўша анъана доирасида фаолият кўрсатиб, ўзидан олдинги устоз шоир шеъри асосида мусаддаснинг оригинал кўринишини муваффақият билан амалга оширган».[3.27–28.]

Ўзбек адабиётида бу мавзу билан боғлиқ анъанани давом эттирган шоирлардан яна бири мумтоз адабиётимизнинг таниқли намояндаларидан Нодим Намангонийдир. Унинг ҳам туркман шоири Нурмуҳаммад Андалибнинг «Лайли ва Мажнун» достони таркибидаги «Сайдинг қўябер, сайёд, дилпора экан мендек» мисраси билан бошланувчи мухаммасига татаббуъ мухаммаси мавжуд. Бу татаббуъ мухаммас Нодим Намангонийнинг «Танланган шеърлар» тўпламига киритилган. Мазкур китобда бу асар худди шу мавзудаги мусаддасдан кейин келтирилган бўлиб, қуйидаги банд билан бошланади:

Гуллар очилиб, эмди айёми баҳор ўлди,
Ҳақ раҳмати бу тоғу саҳрога нисор ўлди,
Сарсабзу зумурратгун, бегарду ғубор ўлди,
Сайдинг қўябер, сайёд, бечора экан мендек,
Ғам тиғи билан бағри садпора экан мендек... [5.64–65.]

Нодим Намангоний мухаммасида Фурқат мусаддасининг дастлабки бандидаги: «Сайдинг қўябер, сайёд, сайёра экан мендек...» ва «Куйган жигари бағри садпора экан мендек» биринчи ва олтинчи мисраларни банд охирида такрорлайди, лекин тазмин қоидасига кўра мисраларга бироз ўзгартиришлар киритади. Асар қофияланишига кўра ҳам анъанавий мухаммаслардан фарқ қилиб, **а-а-а-б-б, в-в-в-б-б...** шаклида давом этади. Юқорида айтганимиздек, шоирнинг айнан шу байт такроридан тузилган олти бандли мусаддаси ҳам мавжуд. Унинг дастлабки банди мухаммас, қолганлари эса мусаддас шаклида:

Ғам тоғида бу оҳу овора экан мендек,
Тоғу туз аро ёлғуз сайёра экан мендек,
Кўз ёши равон жисми кўп ёра экан мендек,
Сайдинг қўябер, сайёд, бечора экан мендек,
Ғам тиғи билан бағри садпора экан мендек... [5.63.]

Нодим Намангоний ижоди билан танишар эканмиз унинг юқорида тилга олинган татаббуъ мухаммасининг яна бир вариантига дуч келдик. У шоирнинг

адабиётшунос олим Бегали Қосимов сўзбошиси билан берилган ғазал ва мухаммаслари орасидан ўрин олган. Мазкур мухаммас ҳам «Ғам даштида бу оҳу овора экан мендек» мисрали банд билан бошланади. [8.] Ўн икки банддан иборат бу мухаммас юқоридаги манбада келтирилган мусаддас ва мухаммасларнинг бирлаштирилган шакли бўлиб, мазмунан ва тасвир воситалари ҳамда усулларига кўра Фурқат мусаддасига жуда яқин.

Бу асарлар тарихи ҳақида адабиётшунос Алихон Халилбеков қизиқарли маълумот келтиради: «Фурқат ва Нодим «Сайдинг қўя бер, сайёд...» асарларининг тарихи хусусида наманганлик Доғий тахаллусли шоир Йўлдош ота Отахўжа ўғли (1876 – 1974) хотираларини кўрсатиб ўтиш ўринлидир: бу киши ёшлик чоғида бир шоирлар анжуманида Фурқат ва Нодимнинг «Сайдинг қўя бер, сайёд...» шеърлари улар чустлик дўстлари Саъдулла билан тоғ саёҳатига чиққан пайтда яратилган, деб эшитган. Отанинг айтишича, шоирлар овчи қўлида талпинаётган оҳуни кўриб, унинг ҳолига ачинганлар, сайёддан тутқунни қўйиб юборишни талаб этганлар, шундан кейин бу мавзуда шеър ижод қилганлар». [7.34.]

Ҳар иккала асар мазмунига қараганда, бу маълумот ҳақиқатга анча яқин. Маълумки, ижод жараёнида муаллиф кўпинча ўзи гувоҳ бўлган манзара тасвирига урғу беради. Ўша манзарадан ўзининг ички кечинмаларига хос жиҳатларни излаб топади ва уларни уйғунликда ифодалашга ҳаракат қилади. Фурқат ва Нодим асарларида ифодаланган замон ва макон – баҳорий гўзаллик ва тоғ манзаралари; тилга олинган воқеа-ҳодиса – оёқ-қўли боғланиб, зулм остида қолган, чорасизликдан кўзлари ёшга тўлган оҳу ва унинг бошини танидан жудо қилишга чоғланаётган золим сайёд тасвиридаги ўта муштараклик, аниқлик, жон талвасасидаги оҳу ҳолатидаги нозик деталларгача эътибор қаратиш ана шундай хулоса чиқаришга имкон беради. Айниқса, Нодим Намангоний мухаммасида ана шундай ўта нозик тасвирларни кўриш мумкин. Мухаммасга шоир томонидан киритилган янгиликлардан бири – ўлимга маҳкум оҳуни уйида кутаётган фарзанди. Шоир сайёдга мурожаат этар экан, унинг раҳмини келтириш мақсадида Андалиб ва Фурқатдан фарқли равишда оҳунинг жисмоний ҳолатига ҳам эътибор қаратади:

Мажруҳ эрур жисми оё на кабоб ўлғай,
Гар бўлса ҳам, аммо ул фарзанди хароб ўлғай,
Ул икки қаро кўзлар йўлларда пуроб ўлғай,
Сайдинг қўябер, сайёд, сайёра экан мендек,
Ғам тийғи била бағри садпора экан мендек. [8.]

Юқоридаги тасвирда жисмонан анча хароб оҳу «Мажруҳ эрур жисми оё на кабоб ўлғай», дея тасвирланади. Бу тасвир оҳунинг эндигина баҳор кириб келган пайтдаги ҳолатига жуда мос тушади ва асардаги реалистик манзаралардан бири сифатида унинг ҳаётийлигини таъминлайди. Шунингдек, бу детал оҳунинг она эканлигига ҳам ишора қилади ва сайёднинг она оҳуни қўйиб юборишга ундаш талаби ҳам юзага чиқади. Мухаммасдаги «Қўйғил они, то бўлғай авлодиға пайваста» мисраси ҳам юқоридаги фикрларимизни яна бир карра тасдиқлайди.

Нодим Намангоний мухаммасида лирик қаҳрамоннинг талаби бир қараганда унчалик кескин эмасдек туюлса-да, аслида унинг замирида ҳам сайёд ва унинг

зулмига нисбатан чексиз нафрат ва оҳуга нисбатан раҳму шафқат туйғулари жўшиб туради. Айниқса, мухаммаснинг қуйидаги бандида лирик қаҳрамоннинг сайёдга муносабати ва унга қўяётган талаби жуда кескинлашади ва ундаги нафрат ҳисси яққол кўзга ташланади:

Кесма они бошини, жониға ситам қилма,
Бўйниға суруб тийғинг, роҳини адам қилма,
Бу нахли ҳаётини раҳм айла, қалам қилма,
Сайдинг қўябер, сайёд, бечора экан мендек,
Ғам тийғи била бағри садпора экан мендек. [8.]

Шоир мухаммасини якунлар экан дунё ҳаётининг фоний эканлигини эсга олади ва сайёдни ўткинчи дунёда фақат эзгу ишлар қилишга чақиради. Зеро, шоир назарича, инсон ҳаётининг мазмуни ҳам фоний дунёни гўзал амаллар билан безатишдир. У сўнгги бандда талмеҳ санъати ёрдамида «Лайли ва Мажнун» достони қаҳрамонига ҳам ишора қилиб ўтади:

Мажнуни биёбони исёну хато Нодим,
Савдозадаи ишқи оҳу-ю Хито Нодим,
Сайёди ажал бир кун етгай санга, ё Нодим,
Сайдинг қўябер, сайёд, бечора экан мендек,
Ғам тийғи била бағри садпора экан мендек. [8]

Мазкур банд Нодим Намангонийнинг ҳам Навоий, Фузулий, Андалиб ижодидан хабардор эканлиги ва ўз мухаммасини яратишда улардан ҳам илҳомланганлигини кўрсатади.

Мақоламизга якун ясар эканмиз Навоий ижоди ҳамиша илҳом манбаи бўлиб келганлиги, ҳар бир ижодкор улуғ шоир асарларидан баҳраманд бўлар экан ундан ўзига хос хулосалар чиқариши, шоирнинг бетакрор тимсоллар оламига кириб, ўз руҳияти ва кечинмалари билан ҳамоҳангликни топиб, унинг ўлмас анъаналарини давом эттиришига яна бир карра амин бўлдик.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 9-жилд. – Т.: Фан, 1992.
2. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2019.
3. Курбанова С. Умумий ўрта таълим мактабларининг юқори синфларида адабиёт ўқитишнинг айрим масалалари. Услубий қўлланма. – Урганч, УрДУ ноширлик бўлими, 2018.
4. Муҳаммад Фузулий. Асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. Достонлар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968.
5. Нодим Намангоний. Танланган шеърлар. – Т.: Ўзадабийнашр, 1964.
6. Туркий халқлар адабиёти. (Ўқув қўлланма). 1-китоб. – Қарши, Насаф, 2013.
7. Халилбеков А. Нодим. – Наманган. 1994.
8. www. e-adabiyot.uz.1183-kitob.
9. www. e-adabiyot.uz.

ЛИСОНИЙ ШАХС ТИПЛАРИНИ АЖРАТИШ ПРИНЦИПЛАРИ

Ниязова Дилбар Холтемировна
Қарши давлат университети
катта ўқитувчи

Аннотация: *Ушбу мақола нутқий жараёнга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг ўзига хос жиҳатларини ёритишга қаратилган бўлиб, мақолада тил орқали инсонларнинг шахсий сифатларини кўрсатувчи омиллар масаласига эътибор берилган.*

Калит сўзлар: *лисоний шахс, лисоний қобилият, лисоний онг, шахсий сифатлар.*

Аннотация:*В этой статье описаны факторы, влияющие на коммуникативный процесс и их особенности, а также подчеркнуты факторы, влияющие на личные качества людей через язык.*

Ключевые слова*: человек, способность к лосьону, сознание, личностные качества*

Abstract:*This article outlines the factors influencing on communicative proccess and their pecularities as well as their stressed the factors which impect on personal qualities of individuals through language*

Key words: *peson, lotion ability, conciosseness, personal qualities*

Лисоний шахс типлари ўрганилаётган нутқ (матн) асосида белгиланар экан, нутқда ўз изини қолдирган шахсга хос хусусиятлар *лисоний* шахс типларини белгилашда муҳим роль ўйнайди. Масалан, бошлиқ, раҳбарлар нутқи *лисоний* шахснинг ижтимоий мавқеига кўра типини ҳосил қилса, ўқитувчи ёки депутатнинг нутқи *лисоний* шахснинг касб-кори, машғулотига кўра типини ҳосил қилади.

П.О.Афанасьев ўқувчилар ёзган иншо матнини таҳлил қилиш орқали *тавсиф берувчи, кузатувчи, ҳис қилувчи, ўқимишли ўқувчи* шахс типларини ажратган.[3] Англашиладики, нутқ эгасининг шахс сифатидаги белгилари асосида *лисоний* шахсни турли типларга ажратиш мумкин.

В.И.Карасик тилшуносликда *лисоний* шахс типларининг 2 аспектда фарқланиб келинаётганлиги ҳақида маълумот берган. У тадқиқ предмети билан боғлиқ ҳолда ё шахс нуқтаи назаридан (этнокультурологик, социологик ва психологик типлар) ёки тил жиҳатдан (нутқнинг маданийлиги, тилнинг меъёрлигига кўра *лисоний* шахс типлари) *лисоний* шахс типларининг ажратилаётганлигини қайд этган.[1,21]

Ўзбек тили эгалари яратган матнлар таҳлили асосида бу тилга хос *лисоний* шахснинг қуйидаги типларини ажратиш мумкин:

I. Нутқ эгаларининг шахс сифатларига кўра *лисоний* шахс типлари:

1. Ижтимоийлик белгисига кўра *лисоний* шахс типлари.
2. Ёш белгисига кўра *лисоний* шахс типлари.
3. Гендер белгисига кўра *лисоний* шахс типлари.
4. Миллатига кўра *лисоний* шахс типлари.
5. Қайси тил вакили эканлигига кўра *лисоний* шахс типлари.

6. Диалектал белгисига кўра лисоний шахс типлари.

II. Якка шахс ёки жамоа нутқини англатишига кўра лисоний шахс типлари:

1. Индивидуал лисоний шахс типи.
2. Жамоани акс эттирувчи лисоний шахс типи.

Тил эгаларининг нутқи

Тил эгаларининг ижтимоийлик белгиси кенг тушунча бўлиб, уларнинг ижтимоий мақоми, ижтимоий вазифаси ва ижтимоий позицияси кабиларни қамраб олади. Қ.Расуловнинг фикрича, ижтимоий мақом атамаси маълум ижтимоий тизим қонуниятларига хос позиция билан боғлиқ ҳолда социумнинг юқори (ҳукмрон) ёки қуйи (тобе) ҳуқуқийлик даражасини ифодаловчи белгиларига нисбатан қўлланилади. Ижтимоий вазифа атамаси ўз ўрнида социумнинг касбидан келиб чиқадиган тегишли ижтимоий гуруҳ талаблари тақозо қиладиган мажбурият белгисини ифодалайди. Ижтимоий позиция атамаси эса социумнинг коммуникатив актдаги ижтимоий статус ва ижтимоий вазифа таъсирида эгаллайдиган ўрнини кўрсатиб беради. Коммуникантларнинг ижтимоий ҳуқуқи, ижтимоий вазифаси ва коммуникатив актда эгаллаган ижтимоий позицияси унинг ижтимоий ролини ташкил этади. Ижтимоий рол эса коммуникантлар нутқ услубининг қай биридан ва қай тарзда фойдаланишини бевосита белгилаб, уларнинг мулоқот хулқи даражасини кўрсатиб беради.[2,18-19] Демак, нутқ эгаларининг ижтимоийлик белгиси уларнинг нутқи орқали билиниб туради, шу билан бирга, уларнинг қандай мулоқот хулқига эга эканини ҳам кўрсатиб туради.

Тил эгаларининг ижтимоийлик белгиси кенг қамровли бўлгани боис, бу белгига кўра лисоний шахс типлари ҳам ранг-баранг ва ички турларга эга. Бу белги асосида лисоний шахсларнинг қуйидаги типларини фарқлаш мумкин: раҳбар лисоний шахси, ўқитувчи лисоний шахси, сиёсатчи лисоний шахси, ҳуқуқшунос лисоний шахси, ходим лисоний шахси, ота лисоний шахси, она лисоний шахси кабилар.

Характерли жиҳати шундаки, нутқ эгаларининг ижтимоий роли маълум вазиятларда ўзгариши мумкин. Масалан, раҳбар уйда ота, котиба қиз ролини бажариши мумкин. Бундай ҳолатларда лисоний шахснинг нутқида айрим ўзгаришлар рўй берса-да, ижтимоий муҳитдаги касб-корига хос баъзи нутқий қўлланишлар учраб туради. Қ.Расулов бу ҳақда фикр юритар экан, қуйидагиларни ёзади: “ҳар бир коммуникантнинг ижтимоий роли, юқорида айтиб ўтганимиздек, жинси, ёши, оиладаги ўрни ва ижтимоий мавқеи, касби асосида юзага келар экан, улар ишдан ташқари ҳолатларда турли тоифадаги кишилар билан ҳам коммуникатив муносабатда бўлиши табиий ҳол. Масалан: социум хизматчи, бошлиқ, эркак, оилада эр (ота) ва ҳоказо бўлиши мумкин. Бу социум ишдан ташқари ҳолларда, яъни жамоат транспортида – йўловчи, савдо растасида – харидор, врач қабулида – мижоз (бемор) ва ҳоказо сифатида бошқа тоифадаги социум билан мулоқотга киришиши мумкин. Социумнинг бундай ҳолатларда, яъни кундалик ҳаётида ишдан ташқари коммуникатив вазиятлардаги нутқий образи

(мулоқот хулқи)нинг ўзгариши кузатилса-да, нутқининг касбига хос (мулоқот хулқининг) баъзи параметрлари сақланиб қолади".[2,18-19]

Тил эгаларининг ёши ҳам уларнинг нутқига жиддий таъсир кўрсата олади. Айниқса, кичик ёшдаги болаларнинг нутқи уларга хос махсус лексика, окказионал лексик, синтактик бирликларга бойлиги билан ажралиб туради. Боланинг нутқи бевосита эгасининг ёшига ишора қилиб туради. Бу ҳақда фикр юритар экан, М.Қурбонова қуйидагиларни баён қилган: "Болаларнинг мулоқот жараёнида қандай нутқий акт турини танлаши уларнинг психологик ҳолати, айниқса, ёш хусусиятлари билан боғлиқ ҳолда амалга ошади. Масалан, мактабгача ёшдаги болалар кўпроқ сўроқни ифода этувчи нутқий акт шаклларидан фойдаланадилар. Бу ҳолат уларнинг ташқи оламни билишга ўта қизиқувчанликлари билан боғлиқ. Хусусан, уч ёшли болаларда нутқий мулоқотнинг асосий қисми сўроқ актларидан ташкил топади".[4,25]

Худди шундай, катта ёшдаги буви, боболаримиз нутқи орқали ҳам уларнинг катта ёш эгалари эканликларини тахмин қилиш мушкул эмас. Нутқ жараёнида тил эгаларининг ёш хусусияти билан боғлиқ ҳолда махсус бирликларнинг танланиши ҳам тилга шахснинг ёш хусусиятлари таъсир кўрсатишини асослайди.

Тил эгаси ёш хусусиятининг нутқда реаллашуви асосида лисоний шахс типларининг қуйидаги турларини фарқлаш мумкин: болалар нутқига хос лисоний шахс типи, катталар нутқига хос лисоний шахс типи каби. Болалар нутқига хос лисоний шахс типларини ўз навбатида яна ички турларга ажратиш мумкин: кичик ёшдаги болалар нутқига хос лисоний шахс типи, катта ёшдаги болалар нутқига хос лисоний шахс типи, ўсмирлар нутқига хос лисоний шахс типи кабилар. Худди шундай, катталар нутқига хос лисоний шахс типларини ҳам ички турларга ажратса бўлади: ёшлар нутқига хос лисоний шахс типи, ўрта ёшдагилар нутқига хос лисоний шахс типи, кексалар нутқига хос лисоний шахс типи каби.

Гендер белгисига кўра лисоний шахс типлари нутқ эгаларининг биологик жинси асосида фарқланади. Бу белгига кўра лисоний шахснинг қуйидаги типларини ажратиш мумкин: аёллар нутқига хос лисоний шахс типи, эркаклар нутқига хос лисоний шахс типи каби. Шунингдек, шахснинг гендер ва ёш белгиси асосида ҳам лисоний шахс типларини ажратиш мумкин: кампирлар нутқига хос лисоний шахс типи, чоллар нутқига хос лисоний шахс типи, қизлар нутқига хос лисоний шахс типи, йигитлар нутқига хос лисоний шахс типи каби.

Лисоний шахс типлари шахсларнинг миллатига кўра ҳам белгиланади. Бу белгига кўра лисоний шахснинг қуйидаги типларини ажратиш мумкин: ўзбек миллатига хос лисоний шахс типи, қозоқ миллатига хос лисоний шахс типи, рус миллатига хос лисоний шахс типи каби.

Худди шундай, нутқ эгасининг қайси тил вакили эканлигига кўра ҳам лисоний шахс типлари фарқланади: ўзбек тили эгасига хос лисоний шахс типи, рус тили эгасига хос лисоний шахс типи, инглиз тили эгасига хос лисоний шахс типи каби.

Лисоний шахс типларини нутқ эгасининг диалектал белгисига кўра ҳам фарқлаш мумкин: Тошкент шевасига хос лисоний шахс типи, Андижон шевасига хос лисоний шахс типи каби.

Индивидуал лисоний шахс типи якка шахсларнинг нутқи асосида белгиланса, жамоа нутқи асосида жамоани акс эттирувчи лисоний шахс типлари ажратилади.

Хуллас, лисоний шахс нутқ эгаларининг шахсий сифатлари асосида типларга ажратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Карасик В.И. Языковой круг : личность, концепты, дискурс. – М. : Гнозис, 2004. – С. 21.

2. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент. 2008. -Б. 18-19.1.

3.**Фалина** Т.М. **П.О.Афанасьев о творческих работах детей** // http://rus.1september.ru/article.php?ID=200003002

4. Қурбонова М. ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. докт. … дисс. – Тошкент, 2018. – 25 Б.

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТАЗКИРЕ “КАНЗ АЛЬ-КУТТАБ” АС-СААЛИБИ

Сулаймонова Х.М.
Ташкентский государственный институт востоковедения

Аннотация. *Машҳур олим, адиб ва шоир Абу Мансур ас-Саолибий (350/961-430/1038) тилшунослик, адабиётшунослик, тарих ва исломий илмларга оид юздан ортиқ асарлар муаллифидир.*

Мазкур мақолада Саолибийнинг «Канз ал-куттаб» тазкираси ва унинг таркибий тузилиши ҳақида дастлабки маълумотлар берилган. Асарнинг Тошкентда сақланаётган қўзлёзмаси адабий манбашунослик нуқтаи назаридан таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: *Абу Мансур ас-Саолибий, «Канз ал-куттаб» (Котиблар хазинаси), ал-Мунтаҳал (Саралаб олинган), қўзлёзма, тазкира, котиб, расаил, тарассул (хат, ёзишма), адаба.*

Аннотация. *Известный ученый, поэт и писатель Абу Мансур ас-Саалиби (961-1038) является автором более 100 произведений. Они посвящены лингвистике, литературе, риторике и другим отраслям филологической науки, а также истории и исламскому праву (фикху).*

В этой статье дана информация о структуре о строения особенностях произведение «Канз аль-куттаб» Абу Мансура ас-Саалиби. Рукопись данного произведения, которая хранится в Ташкенте, изучено с точки зрения литературного источниковедения.

Ключевые слова: *Абу Мансур ас-Саалиби, «Канз аль-куттаб» («Сокровищница секретарей»), «Аль-Мунтахал» («Извлеченное»), рукопись, тазкира (антология), катиб (секретарь) расаил, тарассул, адаба.*

SOURCE ANALYSIS OF TAZKIRE "KANZ AL-KUTTAB" AS- THAʿ ĀLIBĪ

Sulaimonova H.M.
Tashkent State Institute of Oriental Studies

Annotation. *The famous scientist, poet and writer Abu Mansur al-Thaʿālibī (961-1038) is the author of more than 100 works. They are devoted to linguistics, literature, rhetoric and other branches of philological science, as well as history and Islamic law (fiqh).*

This article provides information on the structure of the structure, features of the work "Kanz al-kuttab" by Abu Mansur al-Thaʿālibī. The manuscript of this work, which is kept in Tashkent, has been studied from the point of view of literary source study.

Keywords: *Abū Manṣūr al-Thaʿālibī, "Kanz al-kuttab" ("Treasury of Secretaries"), "al-Muntakhal" ("Extracted"), manuscript, tazkirah (anthology), katib(official correspondent), rasail, tarassul, adaba.*

Абу Мансур ас-Саалиби (350/961-429/1038)-знаменитый ученый средневековья, оставивший более 100 произведений по филологии, истории, этике. Наиболее известная из его книг – «Йатимат ад-дахр» - четырехтомная антология, где приводятся подробные сведения о жизни и творчестве практически всех современников автора, занимавшихся литературой. Четвертый том этого сборника, рассказывающий о поэтах Средней Азии и Хорасана, переведен на узбекский язык с подробными комментариями проф. И. Абдуллаевым.

В Собрании рукописей Института востоковедения АН РУз есть несколько произведений ас-Саалиби: «Мунтахаб аль-ижаз ва-л-и'жаз»(«Избранное из редких слов и кратких изречений»инв.номер 1848/I, «Канз ал-куттаб» («Сокровищница секретарей») инв.номер 1848/II, «Китаб ал-мухадарат ва-т-тамсил» («Книга лекций с приведением примеров» - инв.номер 1848/III), а также «Ажнас ат-тажнис» («Виды тажниса») инв.номер 2956, «Фикх ал-луга» («Законы языка»). Книги эти доносят до нас с большим усердием собранные сведения о сотнях поэтов и ученых – современниках автора, высказываниях знаменитых людей той эпохи, принятые в обществе намеки, сравнения, восхваления, народные пословицы и поговорки.

Рукопись «Канз аль-куттаб», переписанная в 1727 г. неизвестным переписчиком, хранится в рукописном фонде Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни АН Узбекистана. Она переписана мелким почеркам «насх» на качественной белой бумаге. Каждая страница содержит 27 строк. Названия глав и имена поэтов написаны красными чернилами, основной текст - чёрными. Рукопись «Канз аль-куттаб» наряду с рукописями «Мунтахаб аль-ижаз ва-л-и'жаз» и «Китаб аль-мухадарат ва-т-тамсил» помещено в один переплет из плотной кожи темно красного цвета. Дате переписки по мусульманскому исчислению - 1140 год хиджры указана в колофоне сборника. Сборник насчитывает 193 страниц, из которых 93

страницы с 26[а] по 118[а] отводятся рукописи «Канз аль-куттаб». Объем книги 14Х20,5 см. Сборник находится в хорошем состоянии.

Рукопись «Канз аль-куттаб» традиционно начинается с басмала и прославление Аллахе и его пророка, затем в предисловии идет объяснение причины составления тазкиры.

Ещё одна копия рукописи «Канз аль-куттаб»хранится в Народной библиотеке г.Вены, на что указывает известный востоковед Густав Флюгель в своей книге «Арабские, персидские, тюркские рукописи, содержащиеся в Венской народной библиотеке»[6].

В 1901 г. египетский ученый Ахмед Абу Али опубликовал в издательстве «Ал-матбаа ат-тижарийя» копию рукописи «Канз аль-куттаб», преписанную в 1624 г. и хранимую в библиотеке г. Александрия. Он издал её под названием «Аль-Мунтахал» («Извлеченное») и снабдил издание своим предисловием и биографией ас-Саалиби, написав их саджем – рифмованной прозой (стр. 2-4). Затем следуют предисловие самого ас-Саалиби к тазкиры (стр. 5-6) и текст рукописи (стр. 8-288), в конце которой отличается, что копия была переписана в 1034 г. хиджры (1624 н.э.). Издатель прилагает к изданию рукописи свои комментарии, предварительно снабдив их своим предисловием, затем приводят в алфавитном порядке имена поэтов, упомянутых в тазкире, и дает краткое сведения о них (стр. 291-363). Все издание «Аль-Мунтахал» состоит из 363 страниц. Однако издатель ограничивается общей информацией и не проводит исследовательский анализ содержания тазкиры.

То, что рукопись «Канз аль-куттабе» была опубликована под другим названием – «Аль-Мунтахал» - вызвало сомнение у некоторых ученых, что это одно и тоже произведение[1,с. 42].

Возникла необходимость в сравнительно-сопоставительном анализе текста рукописи «Канз аль-куттаб», например, хранящегося в Институте востоковедения АН Узбекистане в Ташкенте и её издания в Египте, что и было сделано автором настоящей статьи. В результате тщательного сопоставления двух текстов – рукописи и издание, было установлено что это одно и то же произведение, но ташкентская рукопись более полная.

Современный арабский ученый Билал Орфали, глубоко исследовавший жизнь и творчество ас-Саалиби и опубликовавший несколько его трудов, приводя список его произведений, указывай что «Канз аль-куттаб» имеет несколько названий: «аль-Мунтахал», а также «Мунтахаб ас-Саалиби» («Избранное ас-Саалиби»)[5, с.290].

Тазкира «Канз аль-куттаб» содержит более 2500 отрывков из произведений 250 поэтов разных времен, от джахилийских классиков до первой половины XIв. когда жил составитель. Предназначалась она в первую очередь для секретарей-катибов, которые занимались написанием писем при дворах правителей.

Этот жанр требовал от автора широкой эрудиции и литературного таланта: письма было принято писать витиеватым слогом, рассыпая множество лестных эпитетов адресату, невероятных сравнений и описаний, вставляя небольшие поучительные рассказы, подтверждая сказанное цитатами из Корана и хадисов и

украшая строками из произведений древних и современных автору поэтов[4, с.47-48].

В предисловии рукописи, написанном самим ас-Саалиби, приводится классификация поэтов по периодам их творчества:

1. الجاهليون Аль-жахилиййуна – доисламские поэты: аль-Мухальхил, Антара, Имрулкайс и др. (Всего 30 имён).
2. المخضرمون Аль-мухдарамуна – поэты конца доисламской эпохи и начала исламской эпохи: Лабид ибн Рабиа, Хасан ибн Сабит, Абу Зуайб и др. (всего 10 имён).
3. المتقدمون من الاسلامАль-мутакаддимуна мин ал-ислам – имеются ввиду видные поэты Омеядского периода, такие как аль-Фараздак. Джарир, аль-Ахталь и др. (всего 25 поэтов).
4. المحدثون Аль-мухаддисуна – поэты обновления: Башар ибн Бурд, Абу-ль-Атахия, Абу Нувас и др. (Всего 84 поэтов).
5. الوزراٰ و الكتابАль-вузара ва-ль-куттаб – поэты из визирей и секретарей: Ахмад ибн Юсуф, Иброхим ибн аль-Аббас, Абу Бакр ан-Нумайри и другие (всего 22 поэтов).
6. المولدون Аль-муваллладуна – поэты периода «возвращения к традиции»: Ибн аль-Муътаз, Ибн ар-Румий, ас-Сомий и др.(всего 26 поэтов)
7. العصريون Аль-асрийуна – современные поэты: аль-Мутанабби, Абу Фирас, Абу Бакр Хоразмий и другие(всего 62 поэта) [2, с.27^{а}-27^{б}].

Ас-Саалиби в данном сборнике ставит перед собой более узкую задачу: де давая своей оценки творчество того или иного поэта, он выбирает только поэтические афоризмы, наиболее точно и красиво отражающие духовную жизнь своих современников. Вот как он сам пишет об этом: «В эту книгу я вложил отрывки из прекрасных и надежных стихотворений, их мудрые мысли, их шедевры и жемчужины, которые вставляют (для украшения) писем и ораторской речи. Они будут включены катибами в списки дружеских писем и писем, обращенных к повелителю, их можно использовать во всех видах переписки». [2, с.27^{а}].

В антологии «Канз ал-куттаб» ас-Саалиби не даёт сведений о биографии поэтов, по приводит многочисленные образцы из их произведений, тематически раздел их по содержанию на 15 глав для удобства пользования:

1. في الخطّ و الكتابة و البلاغة نظماً - О красноречии в поэзии, красоте стиля и письма.
2. في التهانيء و التهادي و ما يجري مجراها- Стихи по случаю поздравлений, преподнесния подарков и всего, что связано с этими церемониями.
3. في التعازي و المراثي و ما يتصل بها- О выражении соболезнования в связи с кончиной, написании элегии по случаю смерти и т.д.
4. في مكارم الاخلاق و المديح و نحوهما- О достоинстве нравов, прославлении и хвале.
5. في الاستماحة و الشفاعة و الهزّ و الاستعانة- О просьбе содействия, заступничество, прощения и проявления сострадания.
6. في الشكر و الثناء و ما يقاربهما- О благодарности, похвальных поступках и др.
7. في الاستعطاف و المعاتبات و الاعتذارات- О доброте, душевной щедрости, сочувствии.
8. في الهجاء و الذم و ذكر المقابح - О критике, упреках, воспоминании причиненного зла.
9. في شكوي الزمان و الحال- О жалобе на время и своё положение.
10. في الامثال و الحكم و الآداب - О пословицах, мудрых изречениях и воспитанности.

11. في الاخوانيات و الاشواق- О дружеских посланиях, дружеских симпатиях, тоске по другу.
12. في السلطانيات و ما يليق بها - Официальные (султанские) послания и все, что связано с ними.
13. في النكبة و الحبس و الاطلاق - О бедах, аресте, освобождении.
14. في العيادة ما ينضاف اليها - О посещениях, визитах и т.д.
15. في الادعية و ما يقترن بها - О молитвах и всё, что связано с ними [2, с.27а].

Как показывает анализ тематического содержания, они охватывают многие о стороны жизни и, несомненно, могли оказать практическую помощь секретарям, в привлечении нужного материала по случаю.

В поэтических отрывках представлены почти все жанры традиционной поэзии, такие как васф, фахр, хижа, риса, хикма. Также приводятся образцы поэзии, специально предназначенные для султанские писем, пословицы, афоризмы.

Таким образом, «Канз аль-куттаб» дает нам возможность познакомится с образцами творчества поэтов разной степени известности и разных убеждений, живших в разное время, а разных мусульманских странах, и что самое важное для нас, возвращает из забвения поэтов Мавараннахра, занимавших достойное место в средневековой арабоязычной литературе.

Список литературы:

1. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саалиби. Ташкент: Узбекистан, 1992 – 94 с.
2. Ас-Саолибий Абу Мансур. “كنز الكتاب” (“Сокровищница секретарей”) 1848 инв.(II) Институт востоковедения Академии наук Узбекистана. Рукопись № 1848 / II.
3. Ас-Саолибий Абу Мансур. “المنتحل” («Извлеченное»). Каир: ал-Матбаа ат-тижарийя, 1901 – 363 с.
4. Маннанова Р. Антология Абу Мансура ас-Саалиби «Канз ал-куттаб» и произведения Абу Бакра ал-Хорезми в ней. Общественные науки в Узбекистане. 1993, №2. С. 47-50.
5. Orfali B., The Works of Abū Manṣūr al-Thaʿālibī, Journal of Arabic Literature 40 (2009) 273-318.
6. Flügel Gustav Die arabischen, persischen und türkischen Handschriften der Kaiserlich-Königlichen Hofbibliothek zu Wien./ Wien, 1865. B. 1. 232, № 242.

Интернет – источники

1. http://waqfeya.com/book.php?bid=7624
2. https://ktob4all.wordpress.com/
3. https://www.kutub-pdf.net
4. https://ar.wikipedia.org/wiki/
5. http://www.alwaraq.net

CHET TIL TA`LIMDA MADANIYATLARARO TAFOVUT MASALALARI

Abduqodirov Umidjon Nazirovich
Farg`ona politexnika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada chet tillarini o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning ilmiy ahamiyati bayon qilingan. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning madaniyatlararo kompetentsiyasini takomillashtirishning ahamiyati ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, yondashuv, kompetentsiya, talaba.*

МЕЖКУЛЬТУРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Абдукадиров Умиджан Назирович
преподаватель ферганского политехнического института

Аннотация*: В статье объясняется научная значимость межкультурного подхода в иноязычном образовании. Научно обоснована необходимость межкультурного компетенция студентов при обучении английского языка.*

Ключевые слова*: язык, культура, подход, компетенция, студент.*

INTERCULTURAL CHALLENGES IN TEACHING FOREIGN LANGIUAGES

Umidjon N. Abduqodirov
Teacher of Ferghana Polytechnic Institute

Abstract: *The article outlines the scientific significance of cross-cultural approaches to teaching foreign languages. The importance of improving students' cross-cultural competence in teaching English is scientifically investigated.*

Keywords*: language, culture, approach, competence, student.*

Перемены, происходящие с последнего десятилетия прошлого века в различных сферах общества, обусловили изменение статуса иностранного языка (ИЯ) как учебного предмета. Расширились функции ИЯ в обществе. Владение ИЯ стало насущной потребностью широких слоев общества.

«Современные интеграционные прогрессы и активизация взаимодействия стран в условиях открытого и взаимосвязанного мира выдвигают ИЯ в образовательные приоритеты, в обязательную компетентностную составляющую модели современного специалиста, в действенный инструмент подготовки молодого поколения к жизнедеятельности в новых условиях международного взаимодействия и сотрудничества суверенного государства, усиление внимания и социальной значимости иностранных языков, усиливающиеся процессы миграции также стимулировали интенсификацию развития иноязычного образования. В этой сфере произошли значительные позитивные изменения, как в содержательном, так и в организационном плане. Широкое распространение получают вариативные многообразные услуги, сформировалась сеть инновационных школ, увеличилось число гимназий, лицеев, специализированных и профильных школ. Вносятся

изменения в технологии обучения Иностранным языкам, начинаются работы по обновлению методологии иноязычного образования, использованию положительного зарубежного опыта в теории и практике преподавания иностранных языков.

Современные глобальные тенденции развития мирового сообщества, рассмотрение языка как транслятора глобальной общечеловеческой культуры, расширение международной интеграции и межкультурного взаимодействия, усиление культурообразующей и когнитивно – коммуникативной функции языка, переориентации в целях иноязычного образования на формирование субъекта межкультурной коммуникации, а в качестве содержания иноязычного образования избрание «культуры через язык» и многие другие факторы обусловили кардинальный пересмотр методологии иноязычного образования, базовых понятий и категорий этой научной отрасли, возможной, при вышеперечисленных составляющих современной философии иноязычного образования, номенклатуры методических подходов и принципов. При сохранении такой методологической категории как «концепция» в качестве основополагающей, теория обучения иностранным языкам обогатилась целым рядом взаимосвязанных составляющих ведущей современной концепции обучения иностранным языкам – «межкультурной коммуникации», которые определяются исследователями либо как «подходы» (антропоцентрический, социокультурный, когнитивный, прагматический и др.), либо как принципы (личностно – центрированный, культурологический, когнитивный, прагматический, дискурсивный и др.), либо как дидактические категории – компетенции, субкомпетенции (межкультурная, социокультурная, дискурсивная и др.). [1]

Социальный заказ общества на современном этапе развития общества требует не только владения ИЯ, но и умения воспринимать культуру народа изучаемого языка и адаптироваться к ней в условиях общения. Для этого представляется необходимость учесть социокультурные особенности изучаемого языка, что означает, в свою очередь, выход за переделы языка в социальной истории человека, системы его социальных знаний, мировоззренческих взглядов, системы ценностей и отношений, особенности речевого поведения и форм сознания.

В свете социокультурного подхода к обучению языку в современной методике владения и процесса овладения иноязычной коммуникативной деятельностью рассматривается как межкультурная коммуникация, под которой понимается «… совокупность специфических процессов взаимодействия людей, принадлежащих к разным культурам и языкам. Она происходит между партнерами по взаимодействию, которые не только принадлежат к разным культурам, но при этом и осознают тот факт, что каждый из них является «другим» и каждый воспринимает чужеродность «партнера». Иностранный язык (ИЯ) выступает важным средствам в осуществлении глобализации и интеграции общества, межкультурной коммуникации. Расширение функций иностранного языка привело к пересмотру кардинальных вопросов методики обучения данного учебного материала в учебниках и учебных пособиях, формирование предусмотренных видов

компетенций (языковой, коммуникативной, социокультурной, компенсаторной, учебной) контроль знаний, навыков и умений по видам речевой деятельности, организации и контроль самостоятельной работы студентов.

Согласно данной концепции «человек воспринимает мир, учится обустраивать его, жить в нем и понимать явления окружающей действительности посредством модели, созданной с помощью родного языка. Изучение ИЯ расширяет эту модель за счет восприятия и понимания нового «не моего». Знание языка перестает быть главным, главным становится обмен информацией в процессе коммуникации.

Личностно – ориентированный подход к обучению стал ведущим. Согласно данному подходу в центре внимания находится конкретный ученик с его потребностями, интересами и способностями. В целях совершенствования качества образования в России были разработаны лингвострановедческий (Е.М. Верещагин, В.Г.Костаморов), социокультурный, (В.В.Сафонова), лингвокультуроведческий (В.В.Воробьев, В.П.Фурманова), культурологический (Е.М.Верещагин и В.Г.Костомаров) и др. подходы. [2]

В данном направлении проделана значительная работа: проведен ряд научно – экспериментальных исследований по различным аспектам применения личностно – ориентированного подхода к обучению проводилось несколько международных и региональных конференций, посвященных актуальным вопросам данного подхода, создано множество учебников и учебных пособий, опубликовано большое число статей, освещающих различные аспекты личностно – ориентированного подхода к обучению ИЯ и др.

Однако в этом направлении возникло много проблем, которые ждут своего научного, научно – экспериментального решения. Эти проблемы связаны с формулировкой цели обучения, рационализацией содержания обучения (далее СО) совершенствованием организации СО, развитием технологий обучения и методики контроля сформированности речевых навыков и умений обучаемых и др.

Цель:

1) организация коммуникации на межкультурном уровне,

2) развитие у учащихся потребности и способности принять в ней участие.

Задачи формировать способности человека к международной коммуникации. Этот процесс осуществляется в учебных условиях во взаимосвязи, 1) освоения учащимися иноязычного кода (развития речевого опыта) и, во – вторых, развития его культурного опыта, в составе которого можно вычленить отношение индивидуума к себе, к миру, а также его опыт творческой деятельности.

Межкультурная компетенция охватывает в основном онтологический аспект становления личности в то время как компетенция –ее языковые и речевые способности.

Три аспекта интегративной цели обучения: 1) прагматический (практический), 2) когнитивный, 3) педагогический.

Цель обучения ИЯ – развитие у учащегося способности к межкультурному взаимодействию и к использованию изучаемого языка как инструмента этого взаимодействия.

Не разработаны технология формирования умений межкультурной коммуникации. Существует точка зрения, согласно которой «общение представителей различных языков и культур реализуется с наибольшей полнотой и эффективностью в том случае, когда в процессе преподавания ИЯ значительное место отводится национальной культуре». Изучение ИЯ и культуры предусматривает сопоставительное коммуникативно – ориентированное соизучение ИЯ и иноязычной культуры, так как особенности языка и культуры вскрывается при сопоставлении, при сравнительном изучении языков и тем более культур. Из практики известно много случаев, где ошибки или просто нарушения поведенческих, этических норм, принятых в культуре того или иного народа могут служить причиной недоразумений, конфликтов, ибо «диалог между представителями разных культур чаще терпит фиаско не из – за незнания языка, а из-за незнания культурного фона». [2]

Однако в прагматике на материале большинства языков, английского и узбекского языков, в особенности недостаточно изучены явления культуры в сопоставительном плане, что усугубляет трудности формирования умений межкультурной коммуникации;

Другой проблемой в обучении межкультурной коммуникации является тот парадоксальный факт, согласно которому в учебных условиях отработка умений межкультурной коммуникации носит опосредованный характер, ибо она проводится между речевыми партнерами, носителями одной культуры.

Немало важной проблемой обучения межкультурной коммуникации является недостаточно высокий уровень межкультурной компетенции преподавателя иностранного языка; Одной из главных причин того, что на практике уроки ИЯ остаются уроками языка, но не уроками иноязычной культуры, является то, что преподаватель ИЯ не является носителем иноязычной культуры, а является лишь ее ретранслятором. Е.М.Верещагин и В.Г.Костомаров считают, что несмотря на то, что учитель ИЯ имеет определенные умения межкультурной коммуникации его неправомерно считать бикультурной личностью. Для этого необходим совсем иной уровень вхождения в другую культуру – аккультурация, понимая, как процесс усвоения личностью, выросшей в культуре А, элементов культуры Б. [1]

Вопросы методики контроля сформированности умений межкультурной коммуникации являются неразработанными, что имеет отрицательное влияние на эффективность обучения. В данной области наиболее актуальными являются определение объектов и способов контроля, разработка критериев сформированности умений и др.

Отсутствие учебников и учебных пособий, снабженных сопоставительными культурологическими материалами выступает также отрицательным фактором в обучении межкультурной коммуникации на ИЯ.

С ИЯ и прежде всего его предметный аспект (т.е культурные феноляни, о которых учащиеся читают, пишут, о которых они узнают от учителя, из учебника и др.) не есть реклама чужого образа жизни, а основа для развития у учащихся способности смотреть на мир глазами носителя изучаемого языка. С этой точки зрения ни один зарубежный учебник, даже тот, который представляет современную методическую концепцию, не может удовлетворить потребности российской школы, поскольку в русле межкультурной парадигмы неверно ограничивать учебный процесс лишь лингвокультурными параметрами страны изучаемого языка. Существенное место в учебном процессе должна занять родная лингвоэтнокультура учащегося. Этот процесс направлен на формирование у учащегося понимания лингвоэтнокультурной специфики носителя изучаемого языка при сохранении «индивидуального национального природного стиля» общения, которое и призвано отличает его речевое и неречевое поведение в межкультурной коммуникации с зарубежными сверстниками.

В качестве единицы такого межкультурного обучения выступает не урок, а узел проблем как единица образования культурного человека, формулируемых в виде вопросов – этих «пусковых механизмов диалога», обращенных как к себе, так и к собеседникам. [3]

в качестве цели МО (межкультурного обучения) выступает подготовка к контакту с другой культурой, адекватному поведению в условиях чужой культуры, т.е. формирование «третьей» культуры личности; в качестве содержания – произведения базовой культуры личности в виде текстов различного характера; в качестве единицы обучения – релевантные для межкультурного контакта проблемы; в качестве метода – интерактивный метод, в центре которого стоит процесс межкультурного диалога, модели поведения в межкультурных конфликтных ситуациях.

Этапы МО:

1. Усвоение фоновой информации о фактах данной культуры в виде произведений культуры (текстов) на контрастной основе, в сравнении с фактами собственной культуры, в выделении различий между культурами: сравнение базовых культур личности – своей собственной и изучаемой, т.е. приобретение определенных знаний.
2. Интерпретация усвоенных фактов базовой культуры в межкультурных контактах и конфликтных ситуациях, выделение ее «культурных стандартов» этнического, политического и экономического плана, оказывающих влияние на мышление, ценности, и действия представляет данную конкретную культуру, - формирование ценностных ориентаций личности.
3. Проигрывание межкультурных ситуаций, в ходе которой обучающиеся попеременно выполняют роли представителей базовых культур. В данном процессе происходит изменение системы «контемуализации» (Helmolt, Muller) личности, т.е. изменение культурного фона при получении определенных коммуникативных сигналов от собеседника – представителя другой культуры, что ведет к образованию «третьей» культуры личности, т.е. формируется качества, привычки, способы деятельности личности.

Содержание обучения- следующие компоненты:

- Сферы коммуникативной деятельности (темы, ситуации),
- Языковой материал, правила его оформления и оперирования ими;
- Комплекс специальных (речевых) умений;
- Система знаний национально – культурных особенностей и религий страны изучаемого языка, минимум этикетно – визуальных форм речи и умения пользоваться ими в различных сферах речевого общения;
- Учебные компенсирующие (адекватные) умения, рациональные приемы умственного труда, обеспечивающие культуру усвоения языка в учебных условиях и культуру общения с его носителями.

Недостаточное количество часов на предмет «Иностранный язык» для реализации целей и задач обучения, с одной стороны, развитие педагогических технологий и других средств обучения с другой, обусловливают необходимость уделять особое внимание самостоятельной работе студентов. Содержание самостоятельной работы студентов и необходимые методические указания к ее организации и контролю должны отражаться в специальном разделе программы. Соотношение самостоятельной работы студентов и аудиторной работы целесообразно установить в 50-50. При определении итоговой оценки за курс ИЯ определенный процент баллов ее должна составлять оценка на самостоятельную работу студентов.

Другим методическим положением, установленным в педагогических науках в последнее время, является вариативность программы (Т.В.Маркова). Это положение основывается на теории дифференциации и индивидуализации обучения. Согласно данному положению программа должна иметь по меньшей мере два варианта уровня ее конструирования: а) обще концептуальный, б) учебно – практический.

Коммуникативное обучение языку появилось в 60-х годах в британской методике преподавания языков. Тогда по британской методике языку обучали на ситуативной основе. Основные структуры (предложения) английского языка отрабатывались в различных ситуациях общения. В середине 60-х гг. в США была отвергнута теория языка о аудиолингвализме. Британские методисты поставили под сомнение теоретические положения методики ситуативного обучения языку.

Список использованной литературы

1. Халеева И.И. О гендерных подходах к теории обучения языкам и культурам // Известия Российской Академии образования. – 2000, №1- С.11.
2. Хохлова В.В., Хохлова Ю.В. ИЯШ, 2004, №3.С. 76-81.
3. Кунанбаева С.С. Международное обучение: проблема целей и содержания обучения ИЯ // ИЯШ, 2006. -С.24-25.

ПСИХО-АНАЛИТИК ТАСВИРНИНГ МИЛЛИЙ КОЛОРИТ ЯРАТИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Мардонова Лобар Умаралиевна
Низомий номидаги ТДПУ Термиз филиали
Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

Аннотация: *мақолада Амир Темур шахсига бўлган муносабатнинг ва тарихий хақиқатнинг яратилиши тўғрисида фикр юритилган. Шунингдек, бадиий асарда миллий колорит яратишнинг психо-аналитик тасвир моҳиятига ургу берилган. Таҳлилда ўзбек адабиётида яратилган энг яхши асарлар тажрибасига таянган ҳолда хулосалар чиқарилган.*

Калит сўзлар: *мустақиллик, мафкура, кечинма, ички, миллий, моҳият, образ, дунё, ҳаёл, хотира , зиддият*

ВАЖНОСТЬ ПСИХО-АНАЛИТИЧЕСКОГО ОПИСАНИЯ В СОЗДАНИИ НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА

Мардонова Лобар Умаралиевна
Преподаватель родного языка и литературы
Термезского филиала ТГПУ им. Низами

Аннотация: *В статье приводятся размышление об отношении к личности Амира Темура и создании исторической правды. В работе также подчеркивается сущность психо-аналитического образа создания национального колорита. Анализ основан на опыт лучших произведений узбекской литературы.*

Ключевые слова: *независимость, идеология, восприятие, внутреннее, национальное, сущность, образ, мир, воображение, память, конфликт*

THE IMPORTANCE OF PSYCHO-ANALYTICAL IMPLEMENTATION IN CREATION OF NATIONAL COLORS

Mardonova Lobar Umaralievna
TSPU named after Nizami
Termez branch
Teacher of mother tongue and literature

Annotation: *The article describes the relationship between Amir Temur and the creation of historical truth. The work also emphasizes the essence of the psycho-analytical image of creating a national color. The analysis is based on the best practices of Uzbek literature.*

Keywords: *independence, ideology, perception, internal, national, essence, image, world, imagination, memory, conflict*

Мустақиллик даври ўзбек адабиёти ўтмишни ҳаққоний ёритган асарлар билан бойиб бормоқда. Тарихий воқеаларни сохталаштириш, ўтмишда ўтган буюк аждодларимиз образларини бадиий акс эттиришдаги бирёқламалик, тенденциозлик, хукмрон мафкурага қарамликка барҳам берилди. Буюк соҳибқирон

Амир Темур шахсига муносабатда ҳам шу ҳол рўй берди. “Самарқанд осмонида юлдузлар” трилогиясида Амир Темур ҳаёти ва сиёсий фаолияти тўғрисида тарихий ҳақиқат бузиб кўрсатилди. Жасоратли олим, академик И.Мўминов Амир Темурнинг ўзбек давлатчилиги тарихидаги буюк ўрнини ҳаққоний кўрсатиб беришга ҳаракат қилган бўлса ҳам, мафкуравий тазйиқлар туфайли кўп ўринларда чекинишига, ён беришга, бирёқамаликка йўл қўйишга мажбур бўлган эди. Бугунги китобхон ўтмиш тарихимизни асл ҳолича, ҳеч бир бўяб-бежамасдан яратилган асарлар орқали ўрганиш имкониятига эга бўлди. Кейинги ўн йилликда адабиётимизда муҳим воқеа саналган Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” тетралогияси ана шундай асарлардан биридир.

Тарихий мавзудаги асарларда бадиий ҳақиқатнинг тарихий ҳақиқатга қанчалик мос келиши муҳим аҳамиятга эга. Бунинг учун ёзувчи тарихий ҳақиқатни яхши ўзлаштирган бўлиши билан бирга уни юксак бадиий маҳорат билан акс эттириш маҳоратига ҳам эга бўлиши лозим. “Асалари минглаб гулларга қўниб, унинг энг асл шарбатларини эмиб, бир ерга йиғиб бол тўплаганидек, ёзувчи ҳам муайян образ(дўкондор)ни яратиш учун, кўплаб дўкондорларнинг қиёфасини белгиловчи характерли хусусиятларини, одатларини, сўзлаш одобларини, маънавиятини ва ҳоказоларини ўрганади ва уларнинг энг сараларини умумлаштириб, бир образда жамлайди”.

“Улуғ салтанат” тетралогиясида биз Муҳаммад Алининг қалами кучини, ёзувчи маҳоратининг қирраларини кўрамиз. Бу айниқса, персонажлар тилини индивидуаллаштиришда, қаҳрамонлар руҳий-маънавий оламини бадиий тадқиқ этишда психо-аналитик тасвир имкониятларидан фойдаланишдаги маҳоратида кўринади. Етакчи образлар ва персонажларнинг ички кечинмалари, муайян шароитдаги руҳий ҳолати манзараларининг бадиий тасвири тарихий воқелик моҳиятини теран англашга, композицион тугалликни таъминлашга, энг муҳими, миллий колорит яратишга хизмат қилади. Буни академик Б.Назаров ҳам тетралогиянинг биринчи китоби “Жаҳонгир Мирзо” романига ёзган сўзбошида ҳам таъкидлайди:

“Ёзувчи Амир Темур ҳамда Жаҳонгир, Умаршайх, Мироншоҳ, Шохрух Мирзолар; Сароймулкхоним, Мир Сайиид Барака, Муҳаммад Султон, Халил Султон, Хонзода хоним, Гавҳаршодбегим ва бошқа ўнлаб образлар тасвирида– уларни хаёл ва хотира, қувонч ва азоб, орзу ва армон воситасида кўрсатишда “онг оқими” усулини унумли қўллайди. Тўғри, ҳар қандай “ички” тасвир “онг оқими” эмас. Лекин Муҳаммад Али аксар ўринларда ана шу “ички” тасвир ва ундаги ҳаракатни “онг оқими” даражасига кўтаради”.

“Жаҳонгир Мирзо” романида ана шундай ўринлар кўп. Бу тасвирлар асарни мукаммаллаштирган, қизиқарлилигини оширган. Темурбекнинг туш кўргани, унинг таъсирида узоқ вақт Оллоҳга муножот қилгани, ғойибдан унга фатҳу зафар ёр бўлиши ҳақида каромат келгани, Оллоҳнинг ҳамма нарсага қодирлигига иймон келтириб, кўнгли равшан тортганлиги ўзига хос “онг оқими” бўлиб, унда миллий жозиба, ўзбекона тахайюл қудрати акс этган. Образнинг ички туйғуларини тасвирлаш орқали ёзувчи унинг руҳий-маънавий олами кенгликларини кашф этади,

китобхон кўз ўнгида унинг бутун улуғворлиги, донишмандона қиёфаси билан гавдалантиришга муваффақ бўлади.

Амир Темурнинг ички туғёнлари, ўй суришлари китобхонни ром этади, унинг салобати, назокати, ҳукмдор сифатида қатъийлиги, ақл-идрокининг бенуқсонлиги, адолат ва ҳиммати бепоёнлиги ҳайратга солади. Ёзувчининг бадиий хақиқати тарихий воқеликка омухта бўлиб кетади, соҳибқирон ҳаётидаги ҳар бир тарихий воқеа-ҳодиса ўзининг гўзал бадиий ифодасини топганлиги асарнинг бадиий қувватини оширган. Мир Саййид Барака билан учрашув олдидан Амир Темурда кечган ички ҳиссиёт ғалаёнлари ана шундай таассурот уйғотади.

Кенг майдонда оқ ридога ўралган одамнинг келаётганлигини Хизр алайҳиссаломми, деб ўйлаган соҳибқирон кўзларини юмиб олади. Шунда кўз олдига падари бузруквори Амир Тарағай ва волидаси Тегина Хотун келади. Аммо бу вақтда улар дунёдан ўтиб кетган эдилар. Унинг жангу жадалларда эришган муваффақиятларини кўришмади. Ана шундан у дилида ўкинч ҳиссини туяди. “Энди елкасига бахт қуши қўниб, юрт бошига келай деб турганда, белини боғлаб, ҳурмат-хизматини қиладиган қиблагоҳи отаси, босган изи жаннат онаси ёнида йўқ... Кейин эгачиси Қутлуғ Туркон оқа кўринди. Муштипар опаси! Мунису меҳрибон, мушфиқ опаси! Иниси учун ҳатто ўз жонини гаровга қўйишга тайёр опаси! Аввалари ҳам унча билинмас экан, Амир Тарағай билан Тегина Хотунлар у дунёга рихлат этишгач, опа-ука бир-бирларига қаттиқ суяниб қолдилар. Темурбек эгачисини бир чандон ҳурмат этса, Қутлуғ Туркон оқа бу ҳурматни икки чандонга етказиб инисига қайтарарди... Опа-ука ўртасидаги муносабатга ҳамма ҳавас билан қарарди”.

Бу тасвирларда миллий характер, ўзбекона урф-одатлар ва қадриятлар талқини сезилиб туради. Ота-онага ҳурмат-эҳтиром, қариндош-уруғчилик ришталарининг мустаҳкамлиги, ака-ука, опа-сингил, опа-укалар ўртасидаги муносабатларнинг ўзбек миллатигагина хос хусусиятлари мавжудлиги шу кичик парчада ўз ифодасини топган. Дунёни забт этиш ишқига тушган, қиличининг кучи билан ҳар қандай душманини тиз чўктира оладиган Амир Темурдек баҳодир ҳукмдор ёлғиз қолганида, ҳис-туйғуларга берилганида, ички кечинмалар тўфонига ғарқ бўлганида унинг ботиний қирралари очилади, зоҳирдаги сурати билан ботиндаги сийрати уйғунлашиб, тўлақонли бадиий тимсол китобхон кўз ўнгида намоён бўлади. Бунда ёзувчининг муносабати маълум маънода сезилиб туради. Бу тарихийлик принципи талаблари билан боғлиқ. Яъни, ёзувчи тарихий фактга асосланган ҳолда бадиий манзара яратади. Бадиий тўқима гўзал бадиий топилмага айланганда асар қаҳрамонлари китобхон кўз ўнгида тирик шахс сифатида намоён бўлади. “Онг оқими” тасвири шу тариқа юзага келади. Бу ёзувчининг бадиий маҳорати, зукколиги, сўз қадрини баланд тутишини тасдиқлайди. Тетралогияда биз бундай ҳолларни кўп учратамиз.

Амир Темур образи талқинининг мукаммал бўлишида ёзувчи унинг ички кечинмалари тасвиридан усталик билан фойдаланганлигини адабиётшунос олим, профессор Д. Тўраев ҳам таъкидлайди. Мироншоҳнинг соҳибқиронга қарши исён кўтаргани давлатга хоинлик эди. Хоинга қандай жазо берилиши маълум. Аммо жиноятчи ҳукмдорнинг ўғли! Шундай қалтис вазиятда Амир Темурни ички қарама-

қаршилик қийнайди, оғир руҳий ҳолатга тушиб қолади. Профессор Абдуғафур Расулов образлар галереясига тўхталиб, ёзувчининг уларни ўзининг ягона бадиий-эстетик мақсадига бўйсундирганлигини қайд этади. “Улуғ салтанати”да,-деб ёзади мунаққид,–одамларнинг хос муносабатлдари, хатти-ҳаракатлари Сароймулкхоним, Хонзода хоним, Оққиз сингари образларда намоён бўлади. Муҳаммад Али роман ёзишга чоғланар экан, Амир Темур пойтахтининг жаннатмонанд боғ-роғларга, муҳташам бинoларга, равон йўлларга, пишиқ кўприкларга эга бўла борганлигини тасвирлашни кўнглига тугиб қўйган”.

Шунингдек, мунаққид тетралогияда Амир Темурнинг опаси Қутлуғ Туркон оқа билан муносабатларида инсоний меҳр-оқибат, опа-укаликниниг халқимизга хос фазилат сифатида улуғлашини, Қутлуғ Туркон оқанинг Сароймулкхоним билан бева қолган Хоразм маликаси Хонзодабегимнинг қайғусига шерик бўлишлари, унинг кўнглини кўтаришга уринишлари, Олтин Ўрда шаҳзодаси Тўхтамиш ўғлон бевақт ҳаётдан кетган Жаҳонгир Мирзони эслатгани учун Соҳибқироннинг унга меҳр қўйиши, бунга Умаршайх ва Мироншоҳнинг рашки келиши, чингизий ўзбек Тўхтамишга чингизий Суюрғатмишхоннинг зиддиятли муносабатларида ҳам ўзбекона бағрикенглик, миллий урф-одатлар, анъаналар акс этганлигини алоҳида тавъкидлайди.

Бадиий асарда миллий колорит яратиш ёзувчи олдида турган энг муҳим вазифалардан биридир. Миллий колорит яратилган асарлар хусусида гап кетса, биринчи навбатда кўз ўнгимизга А.Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романи келади. Юсуфбек ҳожининг ҳар бир ҳаракатида, сўзларида, Отабекнинг ота-онаси олдида ўзини тутиши, уларнинг саволларига дона-дона қилиб, тавозе билан жавоб беришида ўзбек характери, халқимизнинг миллий ўзига хослиги уфуриб туради. Хайриддин Султоновнинг “Ё, Жамшид” ҳикоясидаги амма образи, унинг хатти-ҳаракатлари, укалари билан муносабатлари тасвири миллий колоритни яратиш намунасидир. “Улуғ салтанат” тетралогиясида ҳам мана шундай миллий колорит яратишнинг намуналари бор. Бу кўпроқ қаҳрамонлар ва персонажларнинг нутқларида, уларнинг ички кечинмалари тасвирида, образларнинг ўз “мен”и билан зиддиятларида, қарама-қарши фикрлар тўқнашувида намоён бўлади. Ёзувчи маҳорат билан ҳар бир персонаж такомилини воқеалар ривожининг мураккаб йўлларидан бошлаб бориб, сюжетнинг асосий бўғинига боғлайди. Жаҳонгир Мирзонинг ишқий кечинмалари, Ахий Жабборнинг ўз туйғулари билан ўзи курашиши, Севинбека-Хонзодабегимнинг Жаҳонгир Мирзодан айрилиб қолган пайтдаги фиғону ноласи тасвирларида булар ёрқин кўринади.

Психо-аналитик тасвир ёзувчи бадиий маҳоратининг қай даражадалигини белгиловчи омиллардан биридир. Тетралогияда биз Муҳаммад Алини чинакам маҳоратли ёзувчи, бадиий сўз устаси сифатида кўрамиз. Шунинг учун ҳажман анча улкан бўлган тетралогиянинг романлари завқ-шавқ билан ўқилади ва китобхонда ўтмиш тарихимиздан фахрланиш ҳис-туйғуларини ўстиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси.-Тошкент: Шарқ, 2002, 30-31-бетлар.
2. Назаров Б. Барҳаёт асар.- Тошкент,Шарқ, 2014, 15-бет.
3. Муҳаммад Али. Улуғ салтанат, Эпопея, Биринчи китоб, Жаҳонгир Мирзо.- Тошкент: Шарқ, 2014, 45-бет.
4. Расулов А. Абдуғафур, Бадиийлик–безавол янгилик, Илмий-оммабоп мақолалар, талқинлар, этюдлар. –Тошкент: Шарқ, 66-бет.

МЕТОНИМИЯ АСОСИДАГИ ИБОРАЛАР

Қўчқарова Озода Абакуловна
Андижон давлат университети
Факультетлараро (ижтимоий ва гуманитар фанлар) чет тиллар кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада фразеологик бирликларнинг тилимиздаги ўрни ва аҳамияти, ўзбек фразеологиясининг шаклланиши ва тараққиёти борасидаги қисқа хулосалар, фраземалар таркибидаги метонимик иборалар ҳақида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: *ибора, фразема, фразеология, турғун бирикма, метонимик иборалар, лингвистик асос, кўчма маъно.*

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ НА ОСНОВЕ МЕТОНИМИИ

Кучкарова Озода Абакуловна
Андижанский Государственный Университет
Преподаватель кафедры межфакультетских иностранных (социально-гуманитарных наук) языков

Аннотация: *В данной статье рассматриваются роль и значение фразеологических единиц в нашем языке, делаются краткие выводы о становлении и развитии узбекской фразеологии, метонимических выражений в составе фразеологических единиц.*

Ключевые слова: *фраза, фразеология, фразеология, безударное соединение, метонимическая фраза,лингвистическая основа, переносное значение.*

PHRASEOLOGICAL UNITS BASED ON METONYMY

Kuchkarova Ozoda Abakulovna
Andijan State University
Teacher of the department of foreign (social and humanities sciences) languages in interfaculties

Abstract: *This article discusses the role and importance of phraseological units in our language, brief conclusions on the formation and development of Uzbek phraseology, metonymic expressions in the composition of phraseological units.*

Keywords: *phrase, phraseology, phraseology, unstressed compound, metonymic phrase, linguistic basis, portable meaning.*

Тилшунослик терминларининг изоҳли луғатида иборага қуйидагича таъриф берилган: “Фразеологик бирлик. Тузилишига кўра сўз бирикмасига, гапга тенг, семантик жиҳатдан бир бутун, умумлашган маъно англатадиган, нутқ жараёнида яратилмай, нутққа тайёр ҳолда киритиладиганлуғавий бирлик. Турғун бирикмаларнинг образли, кўчма маънога эга тури.” [8]

Ўзбек фразеологияси нисбатан янги соҳаларидан бири бўлиб, ўтган асрнинг ўрталаридан шакллана бошлади. Дастлаб Е.Д.Поливанов, Ш.Раҳматуллаев, Я.Д.Пинхасов, А.Шомақсудов, У.Турсунов, М.Ҳусаиновларнинг илмий тадқиқотларида фразеологиянинг умумназарий масалалари тадқиқ қилинган. Таржима назариясининг етук олими Ғ.Саломов номзодлик диссертацияси ва қатор монографик тадқиқотларида ўзбек тилшунослиги учун муҳим аҳамиятга эга бўлган фраземалар таржимаси масалалари билан шуғулланди. Кейинги йилларда мана шу йўналиш, яъни ўзбек тили фраземаларини бошқа тиллардаги, хусусан, рус, инглиз, француз, немис, айрим туркий тиллардаги фраземалар билан қиёслаб ўрганиш, ибораларнинг бадиий таржимадаги аҳамияти ва бу борадаги муаммолар хусусидаги ишлар жадаллашди.

60-70-йиллардан бошлаб ўзбек фразеологиясини ўрганиш иши қуйидаги икки асосий йўналишда ривожланмоқда: а) ўзбек тили ФБларнинг айрим структурал типлари (масалан, феъл ФБлар, равиш ФБлар, гапга тенг ФБлар каби) махсус ўрганила бошланди; б) ФБларнинг бадиий-услубий хусусиятларини ўрганиш, ФБларнинг ифода-тасвир воситалари тизимида турган ўрнини тадқиқ қилиш давом эттирилди. Бундай йўналишдаги ишларда асосан янги илмий соҳа - фразеологиянинг кўпгина ўзига хос муаммолари ўрганилди ва ўзбек адабий тилининг фразеологик таркиби янги-янги ФБлар таҳлили ҳисобига бойиб борди.[1]

Кейинги йилларда Б.Йўлдошев, А.Маматов, А.Исаев,Ш.Абдуллаев, Ш.Усмонова каби олимларбу соҳадаги изланишларни самарали давом эттирмоқдалар. Бундан ташқари лингвопоэтик йўналишдаги тадқиқотларда ҳам бадиий нутқ ёки муайян ижодкорлар асарлари поэтикасини ўрганишга бағишланган масалаларнинг таркибий қисми сифатида фраземаларнинг стилистик, прагматик имкониятлари кенг ўрганилиб келинмоқда. Умуман, фразеология соҳасидаги илмий изланишларнинг назарий ва амалий масалалари Бекмурод Йўлдошевнинг “Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти” номли монографиясида батафсил ёритилган.

Мустақиллик йилларида ўзбек тилшунослигидаги дунё тилшунослиги билан эркин фикр алмашув жараёни, янги-янги парадигмаларнинг вужудга келиши бу соҳадаги илмий тадқиқотлар кўламини кенгайтириб юборди. Жумладан, “...фразеологизмларнинг ҳам худди бошқа луғавий бирликлар кабисемантик тузилиш таҳлилига эътибор берила бошланди”.[3]

Изланишларимиз шуни кўрсатадики, фраземалар тадқиқида эътибор берилмай келаётган бир жиҳат мавжуд бўлиб, ибораларда кўчма маъноларнинг қандай лингвистик ҳодисалар асосида юзага чиқиши масаласидир. Маълумки, лексемалардаги кўп маънолилик метафора, метонимия, синекдоха ва вазифадошлик

ҳодисалари орқали ҳосил бўлади. Ибораларнинг ҳам лексик бирлик сифатида нутқ материали эканлигини ҳисобга олган ҳолда масалага шу нуқтаи назардан ёндашишни маъқул деб топдик ва қуйида метонимия асосида юзага келган фраземаларни таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

“Воқеликни образли тасвирлашда, уни китобхон кўзи ўнгида аниқ ва тўла гавдалантиришда фразеологик ибораларнинг ўрни, аҳамияти беқиёсдир. Ибораларҳаётдаги воқеа-ҳодисаларни кузатиш, жамиятдагимақбул ва номақбул ҳаракат-ҳолатларни баҳолаш, турмуш тажрибаларини умумлаштириш асосида халқ чиқарган хулосаларнинг ўзига хос образли ифодаларидир.”[2] Ана шу образли ифодаларнинг лингвистик асосларини ўрганиш тилшунослигимиз учун бой материал бера олади.

Метонимия(*юн. m*etonymia — қайта номлаш). Бир предмет, белги, ҳаракат номини ўзаро ташқи ёки ички боғлиқлик асосида бошқа предмет, белги ёки ҳаракатга нисбатан қўллаш; шундай қўллаш асосида бир предмет, ҳаракат, белги номининг бошқа предмет, ҳаракат ёки белгига кўчиши. Метонимия сўзнинг янги маънолари ҳосил бўлишида муҳим роль ўйнайди.[8] Шундай экан, мазмунан лексемага тенг бўлган фраземадаги кўчма маънонинг юзага чиқишида метонимик маъно кўчишининг ҳам ўрни бор.

Бизнингча, “бир пул қилмоқ”, “бир пул бўлмоқ”, “бир ёқадан бош чиқармоқ”, “дўпписи яримта”, “ичи қора”, “юзи қора”, “ёстиғини қуритмоқ”, “калаванинг учини топмоқ”, “даққиюнусдан қолган” (варианти: “алмисоқдан қолган”), “енг ичида иш битирмоқ”, “издан чиқди”, “изига тушди” каби ибораларметонимик асосда пайдо бўлган.

Масалан, “ичи қора”, “юзи қора” ибораларини олайлик. ЎТИЛда **қора**ранг билдирувчи сифатнинг ўндан ортиқ маънолари изоҳланган бўлиб, кўчма маънода умуман,салбийбелгини,салбийбелгигаэгаликнибилдириши, “ёмон” маъносини бериши таъкидланади. [7] “...*қора* сўзи отлашганда, ундан феъл ясалганда ҳам, эпитетли бирикма таркибида келганда ҳам ўзининг манфий оттенкалари билан актуаллашади, лирик қаҳрамон ички оламидаги нохуш кайфиятлар ифодаси сифатида тасвирийлик касб этади. [4] *“ичи қора”, “юзи қора”*ибораларида эса шахснинг салбий жиҳатлари бўрттириб тасвирланади. Демак, қора рангдаги нохушлик, тундлик семаларига боғликлик асосида юзага келганлигини ҳисобга олиб, бу ибораларни метонимик маъно кўчиши деб ҳисоблаймиз.

“Ёстиғини қуритмоқ”ибораси публицистик ва бадиий услубда кенг қўлланилиб, ўлдирмоқ, йўқ қилмоқ маъноларини билдиради. Ёстиқ- бош остига қўйиб ётиш, ён-бошлаш, суялиш учун ишлатиладиган юмшоқ буюм; болиш.[6] Гап шундаки, ёстиқ тирик одамга ишлатилади, яъни ақидага кўра ўлган одам (маййит)га ёстиқ ишлатилмайди. Демак, шунга асосланиб “ёстиғини қуритмоқ” ибораси юзага келган.

Баъзи фраземаларнинг мазмун плани турли ақида ва ривоятларга бориб тақалади. Масалан, “**дақёнусдан қолган**” (сўзлашув тилида “*даққиюнусдан қолган*”) ибораси эски, қадимий маъноларини англатади, маъно тараққиёти натижасида эса “яроқсиз ҳолга келган” маъносида ҳам қўлланилади.

Дақёнус, даққиюнус [арабча<лот. қадимги Рим императори Диоклетиан (Diocltianus, милодий 284-305)нинг Шарқ халқлари орасидаги номи] [5].Бу ном илмий-адабий манбаларда баён қилинишича, Қуръони Каримнинг “Каҳф” сурасида келтирилган “асҳоби каҳф” воқеасидаги золим подшоҳнинг исмидир. «Каҳф» сўзи «ғор» маъносини англатади. Сурадаги асосий қисса қаҳрамонлари – Робларига иймон келтирган ёш йигитлар ўз замонлари подшоҳининг зулмидан қочиб, иймонларини сақлаш мақсадида ғорга кириб оладилар ва ўша ерда илоҳий мўъжиза содир бўлади. Суранинг номи шундан олинган.Золим подшо Дақёнус уларни қидиртиради, бироқ тополмайди.Улар Аллоҳ иродаси билан уч юз йилу тўққиз ой ғор ичида уйқуда ётадилар. Уйғонгач, қанча ухладик, дея ўзаро баҳслашадилар. Бири тўққиз ой, бошқаси тўққиз кун, яна бири бир кун бўлди, деб тахмин қиладилар.Кунга қарайдилар: уйқуга кетишаркан, қуёш кунюрарда эди, энди қайтган, уфқ томон оғган эди. Охири: “Қанча ўтганини Худо билади”, дейдилар. Очиққанларини сезгач, бирортамиз шаҳарга тушиб, бирор егулик олиб келайлик, дебкенгашадилар. Улардан бири йўлга чиқади. Бозорни топгач, нон олиш учун сотувчига пул узатади. Сотувчи: “Хазина топган кўринасан, бу қадимий тангалар-ку, мени шерик қилмасанг, подшога айтаман”, деб уни қўрқитади. “Бу нима деганинг ахир, – дейди йигит. – Биз кеча тоққа чиққан эдик. Қорнимиз очиб, бугун нон олгани келдим. Пулниол ва нон бер”. Сотувчи унамайди ва уни подшога олиб боради. Подшо Ястағод деган мусулмон экан, эли ҳам мусулмон экан. Подшо ундан кимлигини, қаердан келганини суриштиради. Тамлихо ўтган гапларни айтиб беради. Подшо уламодан: “Китобларда шу гаплар борми?” деб сўрайди. Бир олим: “Мен бир китобдан топдим. Дақёнус даврида олти йигит қочиб, тоғдаги ғорда қолган экан”, деб маълумот беради. [Ривоят қисқартириб олинди. Қаранг: Асҳоби каҳф ўзбек адабиётида.saviya.uz]. Хулоса шуки, *«дақёнусдан қолган»*ибораси ана шу ривоят мазмуни асосида эски, қадимий, яроқсиз ҳолга келган маъноларини ифодалаш учун пайдо бўлган.

Таҳлиллардан кўринадики, оғзаки сўзлашув ва бадиий услуб доирасида кенг қўлланадиган, миллий ва умуминсоний тушунчаларни образли ифодалашга хизмат қиладиган иборалар шаклланишининг лисоний асосларини ўрганиш тилшуносларимиз учун бой манба бўлиши шубҳасиздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Сам., 2013 й.
2. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. Т., 2007 й.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002 й.
4. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида). Филол.фан.фалсафа доктори (PhD) дисс. Сам., 2019 й.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд, Т., 2006 й.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд, Т., 2006 й.

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд, Т.,2007 й.
8. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, Т., (қайта ишланган)
9. Асҳоби каҳф ўзбек адабиётида. saviya.uz.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА АНГЛИЙСКИХ И РУССКИХ СЛОВ.

Джуманазарова Зилола
преподаватель кафедры русского языка и литературы.

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы национально-культурной специфики английских и русских слов. Описывая лингвокультурологические свойства слов и ФЕ, автор статьи подчеркивает их роль в формировании специфических черт языковой личности. Таким образом, национально-культурный компонент отмечен своеобразием, разной мерой интенсивности даже в составе значений единиц разных языков, коррелирующих по основным, базовым компонентам значений.*

Annotation. *This article highlights the issues of national and cultural specificity of English and Russian words. Describing the linguistic and cultural properties of words and FE, the author emphasizes their role in the formation of specific features of the language personality. Thus, the national-cultural component is marked by originality, a different measure of intensity even in the composition of the values of units of different languages, correlating on the main, basic components of values.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va rus so'zlarining milliy-madaniy o'ziga xosligi ta'kidlangan. So'zlar va frazeologik birliklarning lingvotsulturologik xususiyatlarini tavsiflab, maqola muallifi tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda ularning roliga alohida urg'u beradi. Shunday qilib, milliy-madaniy tarkibiy qism o'ziga xoslik, turli xil intensivlik darajasi bilan ajralib turadi, hatto ma'nolarning asosiy, asosiy tarkibiy qismlarida o'zaro bog'liq bo'lgan turli tillarning birliklari qiymatlari tarkibida.*

Основной единицей языка, в которой находит свое отражение культура, является слово. Слово есть и основная иноязычная единица, подлежащая освоению при изучении иностранного языка. Вместе со словами иностранного языка, в которых отражены реалии быта, явления национальной культуры истории, специфика национального мышления, усваивается и эта информация. В любом национальном языке находят свое отражение природные условия проживания нации, ее история и культура, тенденции общественной мысли, науки, искусства, ход мирового исторического развития, социальное устройство. Язык служит выразителем и общечеловеческих, и национальных черт культуры. В любой момент развития культуры обслуживающий ее язык отражает ее полностью и адекватно, т.е. общество определяет прогресс в языке; однако, допустимо говорить и об определяющем воздействии языка и развитие культуры.

Наследуемый обществом язык - это хранилище коллективного опыта, связующее звено между поколениями. Будучи социальным явлением, слова несут на себе отпечаток жизни общества, его материальной и духовной культуры. Это культурное значение есть «часть языка» .

Лингвисты и социолингвисты «частью значения слова», в которых отражены национально-культурные реалии, называют национально-культурным компонентом, культурным значением или национальным колоритом . Колорит - это та окрашенность слова, которую оно приобретает благодаря принадлежности его денотата (обозначаемого им объекта) к данному народу, определенной стране или местности, конкретной исторической эпохе.

Если исходить из значения слова, как отношения слова к денотату, опосредованному через сигнификат (референт), то и реалия-слово соотносится с обозначаемым предметом не непосредственно, а через сигнификат (референт); последний можно определить как предмет мысли, отражающий предмет или явление объективной действительности и образующий то понятийное содержание, с которым соотносится данная языковая единица. Слова-реалии, помимо прямого денотативного значения, могут иметь и другие, коннотативные значения. Коннотативные слова включаются в реалии из-за национального характера ассоциаций, сопряженных с определенными предметами реальной действительности, не имеющими аналогичных ассоциаций в сопоставляемой культуре. Выделение слов с национально-культурными коннотациями представляет значительную трудность. Самые обычные слова, совпадающие в своем предметном значении, могут обладать дополнительными значениями, обусловленными национально-культурными факторами. Они связаны с традициями, фольклором, другими культурными традициями народа — носителя языка.

К таким словам можно отнести прилагательные royal и national в английском языке, они далеко не всегда полностью адекватны тем словам русского языка, которыми их переводят: царский, королевский, национальный. Объяснить этот факт можно, только хорошо разобравшись в национальном колорите слов royal и national в английском языке. Эти слова не сопоставимы с их русскими коррелятами ,потому, что их активность в системе номинации названия банков, трестов, всевозможных обществ и традиционных соревнований, несравненно выше и не имеет аналогов в русском языке (особенно это касается слова royal).

В известном лексикографическом издании "Великобритания. Лингвострановедческий словарь" даются дефиниции-определения 116 единицам номинации: со словом royal. Например:

Royal Garden Party - прием в саду (ежегодный чай в саду Букингемского дворца для официальных лиц, членов дипломатического корпуса, представителей делового мира и т.д.);

Royal Mint - Королевский монетный двор;

Royal Economic Society - Королевское экономическое общество;

Royal Dutch Shell - крупнейший в Европе англо-голландский нефтяной концерн;

Royal Ascot — скачки, которые считаются событием года; скачки, на которых присутствует монарх;

Royal College of Art — Королевский художественный колледж;

Royal Standard - Королевский штандарт (личный флаг монарха);

Анализ, предпринятый в этой работе, не может быть полным без данных такого лексикографического источника, как "Longman Dictionary of English Language and Culture", представляющий собой одно из новейших публикаций этого крупнейшего издательства словарей. В дефиницию лексемы royal словарь включает два идиоматических выражения: a right royal (very splendid welcome) — "королевский прием" и battle royal (a fierce battle or struggle) - "жестокое сражение или борьба" Фразеологический словарь Л.В.Кунина приводит следующие русские эквиваленты: генеральное сражение; драка, общая свалка, шумная ссора. Например:

They gave us a right royal - Они оказали нам царский прием.

... and a battle royal ensued apropos of Rebecca —... и тут произошло настоящее сражение из-за Ребекки.

В словаре Лонгмана также даются дефиниции 57 единицам номинации, которые входят и в состав тех, что подробно описываются в вышеприведенном лингвострановедческом словаре отечественного издания.

Большая частотность употребления royal в единицах номинации объясняется тем, что британцы питают уважение к монархии, существующей в Великобритании многие столетия. Королевская семья, по большому счету, остается вне критики, даже в период смены власти, когда одна партия уступает место другой. Корона — символ Британской империи, незыблемости ее устоев и политической системы.

Русский и английский народы — это разные этнокультурные и языковые общности, каждая имеет свои традиции, привычки, уклад. И отношение к монархической власти у этих народов неодинаковое. Английское ассоциативное мышление связывает монархию, короля, королеву - качеством высокого порядка окружающих предметов и явлений . Все лучшее — королевское , все лучшее не королевское может быть названо royal, если оно высокого качества. Royal, как синоним высокого качества - это одна из коннотаций, один из элементов национального колорита этого слова.

Как показывает анализ единиц номинаций с royal, они неоднородны с точки зрения "заполнения национальным колоритом" значения этого слова: некоторые наименования с royal отражают деятельность короля - королевы, финансовую поддержку чего-либо, личное присутствие на событии. Например:

Royal Duke - важный титул пэра;

Royal family - королевская семья;

Royal assent - королевская санкция (одобрение монархом законопроекта);

Royal fish - осетр, кит, дельфин (выброшенные на берег, они считаются собственностью монарха);

Royal Gala Performance - концерт, на котором присутствует монарх;

Royal prerogative - специальные права короля или королевы;

Royal commission - группа людей, выбранная правительством для анализа тех проблем, которые нуждаются в новых законах.

Приведем примеры употребления этих единиц, включенных в дефиниции словаря Лонгмана:

The Channel Tunnel bill today received the royal assent - Сегодня законопроект о строительстве подводного тоннеля был подписан королевой.

In Britain it is the royal prerogative to order Parliament to meet - В Британии прерогативой королевской власти является приказ о созыве парламента.

The royal commission on the future of broadcasting - Королевская комиссия по выработке законопроекта о будущем радиовещания.

В то же время существует масса наименований, в которых royal употребляют в целях рекламы и оно синонимично словам "первоклассный, первосортный, шикарный, роскошный". Например:

in royal spirits - в великолепном настроении;

Royal Variety Show - королевский эстрадный концерт (с участием лучших артистов);

to have a royal time - отлично провести время;

Royal Economic Society - Королевское экономическое общество (крупнейшая профсоюзная организация экономистов Великобритании);

Royal Scots - одно из старейших воинских подразделений Британской армии (королевские шотландцы);

Royal Shakespeare Company - Британская театральная компания, куда входят актеры, отличающиеся высоким профессионализмом и исполняющие роли в пьесах Шекспира, а также других авторов;

Royal Pavilion - здание, которое отличает изысканно красивый и необычный восточный стиль, построенное в 1817г. для принца Уэльсского.

Анализ вышеприведенных дефиниций единиц номинаций с royal показывает, что если royal не означает существующую связь между общественным институтом и деятельностью монарха, членов его семьи, то дефиниции могут включать следующие элементы: exciting, high guality, high standard.

В русском языке слова "королевский", "царский", "царственный" являются атрибутами слов, относящихся к самодержавной власти: царская корона, королевские покои, царская дочь, царственный отрок. Они также встречаются в словосочетаниях, где имеют коннотацию "первоклассный",роскошный": царское угощение, королевский прием, королевский торт, царский подарок. В русском языке в единицах номинации "королевский", "царский", "царственный" не участвуют, что объясняется исторически: после 1917 года эти слова приобрели ярко выраженную отрицательную оценочность в официальном языке.

Таким образом, национально-культурный компонент отмечен своеобразием, разной мерой интенсивности даже в составе значений единиц разных языков, коррелирующих по основным, базовым компонентам значений. Это хорошо видно на примере слов royal, national -"царский", "королевский" и 'царственный" - английского и русского языков, на которых лежит печать двух разных культур,

историй, социальных укладов, а следовательно, и специфики мышления двух народов: англичан и русских.

Итак, определили, что лингвокультурология находится на стыке со многими областями знаний,т.е. смыкается с этнолингвистикой, этнопсихологией, психолингвистикой, культурной антропологией, историей культуры, культуропсихологией. Лингвокультурология, в поисках границ круга интересов, как наука еще, по-видимому, находящаяся в стадии формирования, имеет своим методологическим и теоретическим основанием культурологию, которая, в свою очередь, оформилась из таких направлений исследования человека, как история, философия, социология, психология культуры и т.п. Описывая лингвокультурологические свойства слов и ФЕ, мы стремились подчеркнуть их роль в формировании специфических черт языковой личности.

Список литературы:

1. Апресян Ю.Д. Интегральное описание языка и системная лексикография // Избранные труды. Т.2. М., 1995.
2. Арнольдов А.И. Введение в культурологию. М., 1993.
3. Арсентьева Г.Ф. Сопоставительный анализ ФЕ. М., 1989.
4. Арутюнова Н.Д. Время: модели и метафоры // Логический анализ языка. Язык и время. М., 1997. С. 51-61.
5. Арутюнова Н.Д. О новом, первом и последнем // Логический анализ языка. Язык и время. М., 1997. С. 170 -200.
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1967.

СУҲАЙЛИЙ ШЕЪРИЯТИНИНГ ЖАНР ХУСИЯТЛАРИ

Болтабоева О.Ю

НамДУ ўзбек тили ва адабиётикафедраси катта ўқитувчиси,филология фанлари бўйича фалсафа доктори, (PhD)

Аннотация: *Мақолада Суҳайлий ҳаёти ва ижоди ҳақида маълумот берилган. Шоир шеъриятининг жанрлар ранг-баранглиги мисоллар асосида таҳлил этилган. Хусусан, шоир ижодидаги анъана ва ўзига хослик, мавзу ва гоялар олами ёритилган. Суҳайлий ижодининг Наманган адабий муҳитида тутган ўрни баҳоланган. Шоир газалларида ёшларни илм-маърифатга, ҳаётни, Ватанни севишга чорлаб, сабр-қаноат ва одоб инсон зийнати экани алоҳида таъкидланади.*

Калит сўзлар: *жанр, вазн, анъана, ўзига хослик, мавзу, талқин, тасвир, маҳорат, мазмун ва шакл.*

ЖАНРОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПОЭТОВ СУХАЙЛИЙ

Аннотация: *В данной статье даны сведения о жизни и творчестве Сухайлий. Всесторонне проанализированы жанровые особенности в стихотворных произведениях*

поэта. Рассмотрено место творчества Сухайлий в литературной среде Намангана. В лирических стихотворениях разъясиется как обучать молодых любить науку, образование, жизнь, Родину, кроме этого подверждается, что терпение и воспитание – украшение человека.

Ключевые слова: *жанр, метрика, традиция, специфичность, тема, толкование, изображение, мастерство, форма и содержание.*

SUHAYLIY'S GENRE FEATURES OF POETRY

Resume: *This article exposes the information about genre features of works of Suhayliy, who had great place in uzbek classic literature. For particular lyrics it is illustrated to teach to love science and education life native land. Also it is confirmed that patience and good breeding are person's ornamentation.*

Key words:*genre, measure, tradition, specify, theme, depiction, skill, form and meaning.*

XX аср бошлари Наманган адабий ҳаракатчилиги намояндаси Дадахон қори Рустамхўжа ўғли Суҳайлий (1898-1961) ижодий мероси икки қўлёзма баёзда жамланган. Дастлаб шоирнинг жияни Абдулҳафизхон қўлида бўлган бу баёзлар 1963 йилда Абдураҳимхўжа Маматхонов шахсий кутубхонасидан жой олган. Мазкур манбалар ҳозирги пайтда шоир Доғийнинг ўғли Ҳошимхўжа қўлида сақланади. Ҳар икки баёзда, асосан, Суҳайлий шеърлари, шу билан бирга Хилватий, Доғий, Унвон каби шоирлар ижодидан намуналар ҳам учрайди. Ҳошимхўжа ушбу баёздаги шеърларни 2009 йилда нашр эттирган. Ушбу манбалар нафақат Суҳайлий ҳаёти ва ижодига оид, балки унга замондош Наманган адиблари меросига алоқадор маълумотларни жамлашда алоҳида аҳамият касб этади. Шоир ижодида диний-маърифий мазмундаги шеърлар салмоқли ўрин тутгани сабабли шўро даврида уларни нашр этиш имкони бўлмаган. Суҳайлий ижоди мустақиллик туфайли эришилган имкониятлар натижаси сифатида нашрга тайёрланди ва кенг жамоатчиликка тақдим этилди. Унинг "Ёдгорим" шеърлар мажмуасидан жой олган ҳамд, наът ҳамда муножотлар, ғазал, мураббаъ, мухаммас, мусаддас, қитъа, туюқ, маснавий, мувашшаҳ, марсия каби шеърларини шоир Доғийнинг ўғли Ҳошимхўжа эски ўзбек ёзувидан кирилл ёзувига ўгирган. Ҳошимхўжа ушбу нашрга "Дадахон қори Суҳайлий ҳақида" сарлавҳали сўзбоши ёзади. Сўзбошида шоир биографияси батафсил ёритилган. Ундаги маълумотларга кўра, Дадахон дастлаб, Авлиё домла диний мактабида саводини чиқаради ва Қуръон қироати илмини ўрганиб, ўн уч ёшида қори бўлади. Қуръонни хатм қилгач, 1911 йилда Баҳодирхон эшон мадрасасида, кейинчалик эса Азизхўжа эшон мадрасасида таҳсил олган. У ерда араб, форс, озарбайжон тилларини мукаммал ўрганади. Араб ёзуви сирларини ўрганиб, моҳир хаттот бўлади. Суҳайлий Доғийнинг шогирди бўлган. Ўша даврдаги адабий кечаларда мунтазам иштирок этган Суҳайлий ўзи ҳам тез орада шеър машқ қила бошлайди. Дастлабки шеърларини Қорий тахаллуси билан ёзган. Аммо Қўқонда шундай тахаллус билан ижод қилган шоир борлигини эшитгач, у Қосир

тахаллусида ижод қилади. Ҳаётининг сўнгги давридаги шеърларига Суҳайлий (порлоқ юлдуз) деб имзо чеккан. Машъум қатағон Суҳайлийни ҳам четлаб ўтмади. Шоирни 1930 йилда Сўфизоданинг маслакдоши сифатида ҳибсга оладилар. Уни бир неча ойлик тутқунликдан сўнг мажруҳ ва майиб ҳолда турмадан озод қилишади. Унинг соғлиги шунчалик аянчли эдики, сўзласа, нима деяётганини тушуниш қийин, қўллари ҳам қалам тутолмас эди. Тақдир тақозоси билан у оила қурмайди, лекин ўзидан бой адабий мерос қолдиради [1].

Суҳайлийнинг “Ёдгорим” [2] шеърлар мажмуасидан ҳамд ва наът, муножот ғазаллар, мувашшаҳ, мураббаъ, мухаммас, ҳажвий шеър, марсия, рубоий, қитъа ҳамда туюқ жанридаги шеърлари жой олган. Арузнинг ҳазаж ва рамал баҳрларида сермаҳсул ижод қилган шоир қуйидаги ҳазажи мусаммани солим (парадигмаси: V – – – // V – – – // V – – – // V – – –) вазнида ёзган ғазалида маъшуқа васлига эришмоқ орзусидаги ошиқ ҳолатини ёритиш учун ташбиҳ (товус хиромоним), сифатлаш (паришон кокил), муболаға (қонли дийда) каби поэтик воситалардан фойдаланган:

Хиром этгай қачон кулбамга ул товус хиромоним,
Кийиб гулпираҳан, гулгун ёниб кокил паришоним.

Деб эрди: “Шом аро бул тун бўлур пинҳона ташрифим”,
Анинг чун термулур йўлида қонли дийда гирёним (66-бет).

Суҳайлий ушбу саккиз байтли ғазалида “хиромоним”, “паришоним”, “гирёним”, “тобоним”, “ёлғоним”, “тану жоним”, “хандоним”, “дармоним” ва “меҳмоним” каби оҳангдош сўзлар воситасида ***“н”*** ҳарфини ***равий, “им”*** эгалик қўшимчасини эса ***васл*** этиб, ***васлли мутлақ қофия*** туридан фойдаланган.

Шоир замондошларига нисбатан туюқ жанрида ҳам баракали ижод қилган. Суҳайлий ***“бода”, “кечар”, “унум”, “ўюнг”, “доғи”, “ёзаман”, “ёнадур”, “нори бор” ва “уётиш”*** каби сўзлар воситасида тўққизта туюқ яратади. Масалан:

Гарчи йўқ ёғу гурунч бирла унум,
Чиқмагай ҳеч мосиваллоҳга унум,
Хожатим тухмини сочмам ҳар ера,
Ким, замини шўрдин бўлмас унум (190-бет).

Шоир ушбу туюқ жанридаги шеърида ***“унум”*** сўзини биринчи мисрада “ун маҳсулоти”, иккинчи мисрада “ун-овоз”, тўртинчи мисрада эса “унум-ҳосилдорлик” маъносида ишлатиб, ажойиб сўз ўйинини ҳосил қилган.

Шеърият осмонида порлоқ юлдуз бўлиб, инсоният қалбига ёруғлик, гўзаллик олиб кириш ниятида бўлган Суҳайлий оиланинг, туғилиб ўсган Ватаннинг, ёшликнинг қадрига етиш, умрни бефойда ишларга сарф қилмаслик ҳақида сўз юритади:

Бу гулшан ичра, кўнгил, зулфи райҳонингдин айрилма,
Ёрутган шоми ҳажринг моҳи тобонингдин айрилма.

Баҳор ўлди, табиат боғи гул-гул яшнади, кулди,
Кел, эй булбул, тараннум қил, гулистонингдин айрилма (80-бет).

Шоир инсонларни оқибатли, ваъдасига вафодор, хайр-эҳсонли бўлиш ва кибр-ҳаво, бахиллик, манманлик каби иллатлардан юз ўгиришга чақиради:

Бировга, эй биродар, оқибатлиг ошно бўлдинг,
Кечур саҳвини гоҳо аҳду паймонингдин айрилма.

Худовандим бу янглиғ давлати сенга ато этмиш,
Бахил ўлма, карам қил, хайру эҳсонингдин айрилма (80-бет).

Шоир инсон ўзлигидан мосуво бўлмаслик учун яқин қадрдонларини доимо қадрлаши лозимлиги, мансаб учун ҳаволаниш эса ёмон оқибатга олиб келишини уқтиради:

Ҳаво қилма бу жоҳу мансабингга бир кун олғайлар,
Ким эрдинг аввало, ўз қадри инсонингдин айрилма.

Етар бир манфаат сендан, вафосиз ошно кўпдур,
Бурунги улфату ёри қадрдонингдан айрилма.

Суҳайлий, хўб тамошо айладинг зебо шаҳарларни,
Униб-ўсган диёрингдур Намангонингдин айрилма (81-бет).

Суҳайлий ижодида яхши хулқ ва ширинсуханлик билан кўнгил олиш, кўнгил мулкини обод қилиш лозимлиги каби эзгу фазилатлар, чин инсоний туйғулар тараннум этилган:

Ҳар дили озурда хотир мулкини обод қил,
Айлабон хуш хулқу хуш кирдору хуш гуфторлиг (29-бет).

Яратганнинг марҳамати билан инсонлар феъл-атвори ҳамда табиатдаги ҳар бир нарса бир-бирини такрорламаслиги, ўзгачалиги шоирни ҳайратга солади:

Ҳар бани одамда хулқу феълу атвор ўзгача,
Ақлу идроку тамизу савту гуфтор ўзгача.

Хилқату суратда инсон бир-бира монанд эмас,
Қомату шаклу шамойил, рангу рухсор ўзгача (45-бет).

Шоир табиат ҳақидаги қарашларини давом эттириб, ҳатто ҳар фаслнинг ўз хислати борлиги, наботот оламининг сеҳри, дарахтдаги япроғу мевалар таъми турлича эканидан таъсирланади:

Ёзу қиш обу ҳавоси бир-бирига ўхшамас,
Мавсуму ҳар фаслда сунъи намудор ўзгача.

Ҳар чаманда ҳар қаю гул рангу бўйи ўзгадир,
Ҳар шажар япроғи узра таъми асмор ўзгача (45-бет).

Суҳайлий тарихни ҳам жиддий ўрганган, шу боис унинг қизиқишлари самараси ўлароқ “Бўстон ал-орифийн” асари юзага келган. Бу асарда Бухоро тарихи, Қўқон хонлигининг ташкил топиши, Туркистоннинг Россия томонидан босиб олиниши ҳақидаги қимматли маълумотлар мавжуд [3].

Йигитлик чоғида Қуръон ҳофизи, зўр хаттот, истеъдодли шоир сифатида танилган Суҳайлийнинг авлодлар учун қолдирган адабий мероси ёшларни маърифатга, фидойиликка чорлайди, ҳаёт синовларини енга олиш учун сабрли бўлишга ундайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Болтабоева О.Ю. XX аср бошларида Наманганда адабий ҳаракатчилик: номояндалари, анъаналари, янгиланиши: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – Б. 42
2. Суҳайлий. Ёдгорим. – Тошкент: Fikr-Media, 2009. – 192 б. Изоҳ: ушбу мақолада шоир ижодидан намуналар келтирилган байтлар охирида ушбу тўплам саҳифаси кўрсатилади
3. Суҳайлий. Ёдгорим. – Тошкент: Fikr-Media, 2009. – Б. 8.

ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚ КОНТЕНТНИ ТИЖОРАТЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА

Бекназаров Камолиддин Турсунпулатович

Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялари университети мустақил тадқиқодчиси

Аннотация: Мақолада ижтимоий тармоқ контентни тижоратлаштириш воситаси сифатида кўриб чиқилган, бунда контенти тармоқ иштирокчилари томонидан тўлдириладиган интерактив кўп фойдаланувчили веб-сайт. Сайт автоматлаштирилган ижтимоий муҳит бўлиб, умумий қизиқишларга эга фойдаланувчилар гуруҳига мулоқот олиб боришга имкон беради. Шунингдек, ижтимоий тармоқларга сўнгги вақтларда фаол ривожланаётган турли форумлар, айниқса соҳа форумлари киритиш мумкин.

Калитли сўзлар: интернет, коммуникация, янгилик каналлари, аудитория, ижтимоий тармоқ.

СОЦИАЛЬНАЯ СЕТЬ В КАЧЕСТВЕ ИНСТРУМЕНТА КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ КОНТЕНТА

Бекназаров Камолиддин Турсунпулатович

Исследователь Университета журналистики и массовых коммуникаций Республики Узбекистан

Аннотация: В стате рассматриваеся социальная сеть в качестве инструмента коммерциализации контента, интерактивного многопользовательского веб-сайта, контент которого наполняется самими участниками сети. Сайт представляет собой автоматизированную социальную среду, позволяющую общаться группе пользователей, объединенных общими интересами. К ним относятся и тематические форумы, особенно отраслевые, которые активно развиваются в последнее время.

Ключевые слова: интернет, коммуникация, новостные каналы, аудитория, социальная сеть.

SOCIAL NETWORK AS A CONTENT COMMERCIALIZATION TOOL

Beknazarov Kamoliddin Tursunpulatovich
PhD doctoral student of University of Journalism and Mass Communication of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The article considers the social network as a tool for commercializing content, an interactive multi-user website, the content of which is filled in by the network participants themselves. The site is an automated social environment that allows a group of users to share common interests. These include thematic forums, especially industry ones, which have been actively developing recently.

Keywords: Internet, communication, news channels, audience, social network.

Ижтимоий тармоқ – бу контенти тармоқ иштирокчилари томонидан тўлдириладиган интерактив кўп фойдаланувчили веб-сайт. Сайт автоматлаштирилган ижтимоий муҳит бўлиб, умумий қизиқишларга эга фойдаланувчилар гуруҳига мулоқот олиб боришга имкон беради. Шунингдек, ижтимоий тармоқларга сўнгги вақтларда фаол ривожланаётган турли форумлар, айниқса соҳа форумлари киритиш мумкин [1, 49-58 б.].

Social Media Relations ўз ичига иккита таърифни олган:

1) «Social Media Optimization» (SMO) - ижтимоий медиалар учун мақбуллаштириш, сайт контентини тармоқ ҳамжамиятларидан максимал самарали фойдаланиш мумкинлигига қаратилган техник чораларнинг мажмуаси. Деярли ҳар қандай ОАВнинг сайтига ташриф буюрганда “блогда нашр қилиш” ёки “ижтимоий тармоқда ҳаволани жойлаштириш” блокини кўрса бўлади. www.uz сайтининг статистикаси бўйича Ўзбекистонда ахборот материалларга ҳаволаларни жойлаштириш бўйича энг оммабоп сервис бўлиб матнли хабарлар ва турли форматлардаги медиафайллар билан алмашишга имкон берувчи смартфонлар ва бошқа ускуналар учун Телеграм (Telegram) бепул кросс-платформали мессенджери ҳисобланади [2, 36-41 б.].

2) «Social Media Marketing» (SMM) — брендни ижтимоий тармоқларда илгари суришга имкон берувчи чора-тадбирлар комплекси. SMM га ижтимоий медиларда (Twitter, Вконтакте, Facebook, YouTube, MySpace, Яндекс Фотки, Flickr, Telegram ва бошқаларда) гуруҳлар, ҳамжамиятлар ва саҳифаларни яратиш, илгари суриш ва ривожлантириш бўйича ишлар олиб бориш фаолияти киради, шунингдек SMM га расмий аккаунтлар ва ҳамжамиятлар билан ишлаш, бошқа норасмй гуруҳлар, рақобатчилар гуруҳлари мониторинги, бренд зикр қилиниши статистикаси, блоглар ва ижтимоий тармоқларда компания зикр этилган постлар ва компания постларига ижобий, салбий ва нейтрал изоҳлар сонининг мониторингини олиб бориш киради, жадвал 1:

1 -жадвал. «Ижтимоий тармоқларда маркетинг»

Social Media Relations	
Social Media Optimization	**Social Media Marketing**
Бевосита компания сайтида ишлаш	Бевосита Social Media да ишлаш
Сарлавҳалар версткаси ва расмларни чоп этиш	Аккаунтлар, гуруҳлар ва ҳамжамиятларни яратиш, олиб бориш ва илгари суриш
Ижтимоий тармоқларнинг OpenID ва турли API механизмлардан фойдаланган ҳолда сайтда рўйхатдан ўтиш	Social Media да гуруҳлар ва брендлар фаоллигининг мониторингини юритиш
Ижтимоий тармоқларда ҳаволарда мақолаларни чоп этиш учун тугмалар блоки	Ахборотни доимий равишда янгилаб бориш ҳамда Social Media орқали мақсадли аудитория билан ишлаш

Ижтимоий тармоқлар пайдо бўлиши билан Интернет фойдаланувчилари лексикасига Telegram, твиттер, фейсбук, одноклассники, форскваер, альтергео, калор, майспейс, линкедин оммабоп ижтимоий тармоқлар номлари; твит, ретвит, реплай, пост, репост, лента, сабж, директ, диджитал, френд, бот, сўзларкўп, чекин (chek-in), бейдж каби ижтимоий тармоқлардагаи фойдаланувчиларнинг ҳаракатлари ва тавсифлари кириб келишди.

Ҳар йили янги ижтимоий тармоқлар (шу қаторда аноним тармоқлар ҳам) пайдо бўлмоқда, уларнинг пайдо бўлиши эса тармоқдаги оддий фойдаланувчилар ва компаниялар фаолиятининг ўзгаришига олиб келади. Натижада Интернетда ишончсиз маълумотлар кўпайиб кетди [3-5].

Ҳозирги пайтда амалда блогерлар ижтимоий журналист вазифаларини бажаришмоқда. Аммо шуни эсда тутиш керакки, ОАВ оддий вакиллардан фарқли равишда Интернетда руҳий носоғлом инсонлар кўп... Агар журналистни далилар асосида тартибга чақириш, хатоларини кўрсатиш мумкин бўлса, блогернинг ҳаракатига чек қўйиш иложи йўқ. Бунинг учун Интернетдаги ҳар қандай ахборот очиқлик тамойилар асосида яратилиши керак, акс ҳолда компания ҳеч ким билан ва ҳеч нарса тўғрисида келишиб бўлмаслигини тушуниши лозим. Фақатгина ҳаққоний бўлиш керак, бошқа иложи йўқ.

Фойдаланувчиларнинг кўпчилиги фаол сўзлашувчилардан тингловчиларга айланишади, бу ҳолат фойдаланувчилар ижтимоий тармоқларга қизиқиши пасайиши, бошқа қизиқ ва функциялари кўпроқ сервислар пайдо бўлишига боғлиқ, ижтимоий тармоқлар сони кун сайин ошиб бормоқда, бу эса турли лойиҳаларда ўзининг онлайн фаоллигини олиб боришга вақт кўпроқ кетиши билан изоҳланади.

Тадқиқотчилар ижтимоий тармоқлардан фойдаланишнинг асосий тўрта сабаб кўрсатишади: мулоқот, тенгдошлар орасида оммавийлашиб бориши, кўнгил очар машғулотлар ва касбий мақсадлар. Шу билан бирга ижтимоий тармоқлардаги хабарларда содда гаплар сони мураккаб гаплар сонидан устунлик қилади, бу эса

ижтимоий тармоқларда символлар (белгилар) сони чегараланган ва фойдаланувчи шу чеклов доирасида маълумотни сиғдириши лозим [6, 13-24 б.].

Ҳозирги вақтда Интернет-технологиялари ахборот тарқалишининг энг тезкор воситаси саналади, микроблокинг сервисларнинг пайдо бўлиши билан Интернет-журналистиканинг янги жанри саҳнага чиқди – бу Telegram-журналистика. Telegram нинг муҳим жиҳати – бу ўз блогларини олиб борувчи бошқа муштарий-блогерлар билан мулоқот қуриш имконияти. Фойдаланувчилар бегона блогларга обуна бўлиши ҳамда уларни ягона лентада ўқиб бориши мумкин. Telegram нинг қисқалиги, тезкорлиги, интерактивлиги, мультимедиалиги, кўп сонли фойдаланувчилар мавжудлиги – буларнинг ҳаммаси ушбу ижтимоий тармоқни блогни юритиш, хабарларни тарқатиш сервиси бўлишига замин яратди.

Блоглар сервисларида янгиликларнинг тарқалиш тезлиги анъанавий ОАВ нисбатан анча тезроқ кечади. Бунда анъанавий ОАВда мулоқотнинг схемаси қўйидагича бўлади: медиа мутахассис → дўстона (ёки бошқа) журналист → ОАВ → ушбу ОАВнинг аудиторияси. Блогларда ёки Telegram да хабарлар тарқалиш схемаси: блогер → ушбу блог ёки телеграм-канал муштарийлари (улар ичида журналистлар ҳам бўлиши мумкин) → анъанавий ОАВ [7, 7-106 б.].

Ижтимоий пресс-релизлар замонавий дунёда паблисити (ошкоралик) учун шароитлар яратиш учун муҳим аҳамият касб этади. Бундай пресс-релизлар нафақат ОАВ вакиллари орасида, балки ушбу компанияга ҳайрихоҳ бўлган фойдаланувчилар кўриб чиқишади. Ижтимоий-интерактив пресс-релизнинг тузилмаси оддий пресс-релиз тузилмасида анча фарқ қилади. У матнли ахборотда асосланган ўзаро боғлиқ кўпгина гиперҳаволалардан иборат. Интерактивлигига қарамасдан бундай релиздаги матн катта аҳамиятга эга, жадвал 2.

2-жадвал “Ижтимоий-интерактив пресс-релизнинг тузилмаси”

Релиз санаси			
Сарлавҳа			
«Ким? Нима? Нима учун? Қаерда? Қачон?» қоидасига мувофиқ қисқача тавсиф			
Асосий фикрлар, хабарнинг асосий матни			
Раҳбарият, экспертлар цитаталари, мижозлар шарҳлари			
Компания ҳақида			
Компания логотипи			
Контактлар	Ҳаволалар	Спикерлар ҳақида маълумотлар	Мультимедиа
Контакт шахсининг Ф.И.Ш.	**Изоҳ қолдириш имконияти билан релизга доимий ҳавола**	**Қисқача таржимаи ҳол ва тўлиқ таржимаи ҳолга ҳавола**	**Презентации в SlideShare.net да тақдимот**
WWW: корпоратив сайт	**Мавзу бўйича WikiPedia да ҳавола**	**Ижтимоий тармоқларда профиллар**	**Flickr ёки Яндекс.Фотки да фотографиялар**

Корпоратив блог/блоглар	**Материални ижтимоий тармоқларга қўйишига ҳавола**	**Матбуот учун фото**	**RuTube, YouTube, Google Video да видео**
Телефон	**Хатчўплар (Закладки)**	**Интервью билан Видео-роликлар ёки подкастга ҳавола**	**Подкаст**
Email	**Тескари алоқа шаклига ҳавола**		**Воқеага Яндекс.Карты ёки Google Map хариталар**
Icq, Skype	**Компания ёки матбуот маркази хабарларининг RSS канали**		**Google Calendar да кўргазмалар тақвими**
FaceBook, Telegram, LinkedIn ларда контактлар	**Релиз мавзуси бўйича ёзувчи блогерлар рўйхати**		

Ижтимоий-интерактив пресс-релизнинг формати жуда ўзгарувчан. У ҳам анъанавий ОАВ журналистлари, бозор таҳличилари, блогерлар, ижтимоий ОАВ, ҳам компаниянинг мижозлари учун ёзилган бўлиши мумкин.

Унда покастга ҳаволани бериш ёки бермаслик мумкин, ҳудди шу ҳолат YouTube да видео билан бўлиши мумкин. Журналистлар учун RSS бўйича компания янгиликларига обуна бўлиш ҳам қулайдир. Янгиланган хабарлар лентага келиб тушади. У журналистга воқеа ёки спикерлар ҳақида тўлиқ ахборотни йиғишга имкон беради.

Блогерлар кўпинча ҳатто журналистларга қараганда пресс-релизларга талабчан. Маълум мавзу бўйича ижод қилаётган блогер шу мавзу бўйича экспертга айланади. Шунинг учун уни АВС компаниясининг навбатдаги йиллик ҳисоботи ёки 0,05% даромад ошгани билан қизиқтириш мушкулдир. У ўз обрўси ҳақида қайғуради, унга нафақат ўзига, балки блог муштарийлари учун қизиқ бўлган "қайноқ" янгиликлар, фактлар, янги технологиялар зарурдир [7-9].

Ижтимоий-интерактив пресс-релизни тайёрлашнинг асосий тамойиллари шундан иборатки, у бирдек анъанавий ОАВ журналистлари, бозор таҳлилчилари, блогерлар, ижтимоий ОАВ ҳамда компаниянинг оддий мижозлари учун ёзилган бўлиши шарт. Бундай пресс-релизларда ижтимоий сервисларда компания профилларига ҳаволалар, компаниянинг расмий микроблогидан сўнгги хабарлар ҳамда мақолалар учун фотосуратларни нусха кўчириш имконияти билан

фотолентага ҳавола доимий равишда мавжуд бўлади. Интернет паблиситини шакллантириш воситаси сифатида медианинг тўртта моделини ўзида бирлаштирди. Бу бир қатор сайтлар фойдаланувчиларга материалларга изоҳлар қолдириш имконияти йўқлиги ҳамда алоқа учун электрон почтадан ташқари бошқа ҳеч қандай контактлар қолдирмаслиги туфайли юз бермоқда. Шу аснода "манипулятив" ва "жамоатчиликка хабар бериш" моделлари қатор сайтларда учратиш мумкин. Аммо босма нашрлардан фарқли равишда Интернетда давлат ҳокимият органлари ва йирик давлат корпорациялар ўз сайтларида медианинг "икки томонлама ассиметрик" ва "икки томонлама симметрик" моделларидан фойдаланишади.

Сайтларда деярли ҳамма вақт тезкор тескари алоқа имконияти мавжуд, баъзи ҳолатларда кўпгина саволларга жавоб бериши мумкин виртуал ёрдамчилар бор. Электрон ҳукумат, аниқроғи мамлакат доирасида барча бошқарув жараёнларни автоматлаштиришда асосланган давлат бошқарув электрон ҳужжатлар алмашинув тизимлари пайдо бўлиши билан кўпчилик сайтларда давлат ҳокимият органлари томонидан эълон қилинган ҳар қандай ҳужжатларни топишга имкон берувчи тизимлар пайдо бўлди. Интернетда босма ва электрон ОАВларга хос жиҳатлари мужассамдир. Интернетда ахборотни англашга кўпгина омиллар таъсир қилади, бундан ташқари мақсадли аудитория ва муҳокама қилиш катта аҳамиятга эга.

Мақсади ОАВ каналлари бўйича тарқалаётган ахборот самарадорлигини ошириш ҳамда унинг бузиб етказиш имкониятини камайтириш бўлган медиа-мутахассислар кейинчалик чоп этиш учун ОАВ билан муносабатларни режалаштиради ва йўлга қўйишади. Босма ОАВ учун материалларни тайёрлашнинг асосий тамойилларига ташкилотнинг ижобий имиджини қуришга асосланган паблиситини яратиш киради, чунки салбий имидж компаниянинг жиддий молиявий йўқотишларига сабаб бўлиши мумкин.

ОАВ билан мулоқот технологиясини йўлга қўйиш жараёнида компаниялар ўз мақсадли аудиторияни тасаввур қилишади ҳамда ўз фаолияти йўналишидан келиб чиқиб ўз реклама ва PR-стратегиясини қуришади [10].

Медианинг тўртта моделига асосланиб "манипулятив" ва "жамоатчиликка хабар бериш" моделлари давлат бошқарув органлари ва сиёсатчиларнинг паблиситининг шакллантириш учун қулайдир. "Икки томонлама ассиметрик" ва "икки томонлама симметрик" моделлари нафақат компаниянинг имиджини яратишга, балки истеъмолчиларга саволлар бериб, уларга жавоб олишга имкон беришади. Давлат органлари учун паблисити ойлик ва ҳафталик ҳудудий ва шаҳар нашрларида яхши ишлайди, чунки умуммиллий кунлик нашрларда тезкор тескари алоқа бўлишига шароит яратади, бу эса доим ҳам уларга керак эмас. Бизнес учун эса аксинча кунлик нашрлардаги паблисити қулайроқ, чунки тезкор фидбек (тескари алоқа) учун шароитлар яратилади ҳамда бунинг негизида муштарийлар қизиқишларига асосланиб ҳафталик ва ойлик нашлар учун материаллар тайёрлаш имкони бўлади.

Паблиситига нашрнинг ранги, даврийлиги, сарлавҳалар формати, верстка тури, фотосуратларга шарҳлар, рукнлар ва шрифтлар таъсир кўрсатувчи босма

нашрлардан фарқли равишда радиода умуман бошқача, тингловчиларнинг материални англашга диктор овози, қўшимча шовқинлар, реклама товушлари таъсир кўрсатади. Товуш тингловчилар ҳаёл-тасаввурларини ривожлантиради, ҳатто ҳар қандай кундалик янгилигини тингловчилар хотирасида ёд бўлиб қоладиган тарзда ёркин ифодалаш мумкин. Телевидение бошқа жиҳатлари билан ажралиб туради, ахборотни англашга нафақат рангли ёки оқ-қора тасвир, балки товуш (моно, стерео), планлар, ракурслар ва монтаж таъсир кўрсатади. Кўпчилик камераларнинг объективлари "зум" функциясига эга, яъни фокусни масофани ўзгартириши мумкин. Бундай объектив билан йирик, умумий ва оралиқ планлар қилиш мумкин. Бир план билан туширилган кўрсатувларни йириқдан панорамали планга вақтга қараб ўзгариб турувчи кўрсатувларга нисбатан кўриш ноқулай. Ракурснинг алмашиши бир шартли чизиқдан бошқасига "сакраш" томошабинни эсанкиратиб қўйишади. Кўпинча у бўлаётган воқеаларнинг мазмун-моҳиятини тушунмай қолади. "Наезд" ёки "отъезд"ларда тасвир бурчаги ўзгаради.

Бу жудаям нотабиий кўринади, шунинг учун бундай усуллардан фақатгина зарур пайтларда фойдаланиш керак. Бинобарин, камеранинг ҳар қандай ҳаракати асосли бўлиши керак. Интернет паблисити шакллантириш воситаси сифатида ўзида медианинг барча тўртта моделини бирлаштирди.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда шуни такидлаш жойизки, ижтимоий тармоқ контентни тижоратлаштириш воситаси сифатида контенти тармоқ иштирокчилари томонидан тўлдириладиган интерактив кўп фойдаланувчили веб-сайтдир. Сайт автоматлаштирилган ижтимоий муҳит бўлиб, умумий қизиқишларга эга фойдаланувчилар гуруҳига мулоқот олиб боришга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Горохов В.М. Гринберг Т.Э. Интерактивная журналистика: путь в будущее//От книги до интернета. Журналистика и литература на рубеже нового тысячелетия//21 век информация и общество//МГУ, 2000.
2. Лазутина Г.В. Основы творческой деятельности журналиста. М., Аспектпресс, 2004.
3. Лащук О.Р. Редактирование информационных сообщений. М., 2004.
4. Пуля, В. 7 трендов: что ждет новые медиа в 2014 году? [Электронный ресурс] / В. Пуля // Блог В. Пуля New_media. 2014. 9 января. URL: http://new-media.livejournal.com/115420.html.
5. Пуля, В. 11 навыков многозадачного журналиста [Электронный ресурс] / В. Пуля // журнал «Журналист». 2013. 2 октября. URL: http://journalist-virt.ru/archive/2013/10/document2121.html.
6. Система средств массовой информации России. М., Аспектпресс, 2003.
7. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. М., Аспектпресс, 2002.
8. John A. Fortunato. Commercialization: Impact on media content // Blackwell Reference Online. The International Encyclopedia of Communication. URL: http://www.blackwellreference.com/public/tocnode?id=g9781405131995_chunk_g97814051319958_ss53-1 (дата обращения11/12/2013 09:24).

9. Короткова, Е. Н. Медиапортал как средство создания качественного контента [Электронный ресурс] / Е. Н. Короткова // Москва. 2009. URL: http://www.dslib.net/zhurnalistika/mediaportal-kak-sredstvo-sozdanija-kachestvennogo-kontenta.html.

10. Вартанова Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран // Библиотека Гумер– Журналистика. URL: http://www.gumer.info/bibliotek_Buks/Gurn/Vart/09.php (дата обращения 21/07/2019 14:05).

13.00.00 ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ PEDAGOGICAL SCIENCES

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISHDA SAYYOHLIK VA TURIZMNI AHAMIYTI.

Boltaboyev Hamidullo Habibulloyevich
Namngan davlat universiteti jismoniy tarbiya va sport fanlarini o'qtitish kafedrasi dotsenti

Аннотация: *Barkamol avlodni voyaga etkazish, shu asosda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda sog'lom turmush tarzining ma'naviy-ahloqiy ta'sirini ilmiy asoslash, Mustaqillik tufayli turmush tarzini ilmiy tahlil etish va o'rganish masalasi dolzarb mavzuga aylandi.*

Milliy mustaqillik tufayli mamlakatni modernizasiya qilish va aholiga munosib turmush sharoitini yaratib berish, kelajak avlodda sog'lom turmush tarzini shakillantirish ishlarini rangba-rangligini oshirish va rivojlantirish.

Калит сўзлар: *Zo'riqish, o`yin-estafetalar, sport mashqlari, ekskursiya, turizm, yo`riqchi, kuch, chaqqonli, chidamkorlik.*

ЗНАЧЕНИЕ ПУТЕШЕСТВИЯ И ТУРИЗМА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ У ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Доцент кафедры физической культуры и преподавания спортивных дисциплин Наманганского государственного университета

Аннотация: *воспитание развитого поколения, и на этой основе научное обоснование культурно-морального воспитания здорового образа жизни при развитии социальных отношений, анализ изучение образа жизни благодаря независимости является актуальной задачей.*

Модернизация страны благодаря независимости и создание достойных условий быта для населения, развитие разнообразия работ по формированию здорового образа жизни.

Ключевые слова*: нагрузка, игры-эстафеты, спортивные упражнения, экскурсия, туризм, сила, быстрота.*

IMPORTANCE OF TRAVELLING AND TOURISM AT THE FORMATION OF HEALTHY LIFESTYLE OF THE PUPILS OF BEGINNING CLASSES.

Docent of the physical culture and teaching of sport subjects
The importance of travel and tourism in the formation of a healthy lifestyle in primary school students Associate Professor, Department of Physical Culture and Teaching of Sports Disciplines, Namangan State University.

Abstract: *the education of the developed generation, and on this basis, the scientific justification of the cultural and moral education of a healthy lifestyle in the development of social relations, the analysis of the study of lifestyle due to independence is an urgent task.*

Modernization of the country due to independence and the creation of decent living conditions for the population, the development of a variety of work to create a healthy lifestyle.

Keywords: *load, relay games, sports exercises, excursion, tourism, strength, speed.*

Hozirgi kunda har bir shaxsning jismoniy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning shakli ko'paymoqda. Masalan, turli o'zgarishlar, o'quv shakli va yashash joyini o'zgarishi, yashash qoidalari, bolalar va o'smirlarni hayoti, bularning hammasi o'z sog'ligiga zarar keltirmasdan yangi sharoitga moslashishiga majbur etadi.

Bizning hozirgi zamon rivojlanishimizni xususiyati o'quvchi yoshlar ruhiyatiga ancha yuklama (zo'riqish) bilan ta'sir etmoqda.

Sayrlarda jismoniy tarbiya mashg`ulotlari bolalarning yurak qon-tomir, nafas olish, muskul va organizmning boshqa muhim sistemalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunga mashg`ulotlarga harakatli o`yinlar, o`yin-estafetalar, sport mashqlari, yurishning hilma-xil turlari, asosiy harakatga doir mashqlarni kiritish bilan erishiladi. Sayrdagi jismoniy tarbiya mashg`ulotlari vaqtida faoliyat turlari doimo navbatlashtirib turiladi: tez bajariladigan mashqlar ancha sekin bajariladiganlari bilan navbatlashtiriladi. Bu esa butun mashg`ulot davomida bolalarning yuqori ishchanlik qobiliyatini saqlash imkonini beradi. Masalan, sekin yugurish o`yini bilan almashtiriladi, o`yin esa asosiy harakat mashqlari bilan almashinadi va hokazo[1,3].

Turizm yo`riqchilari turizmni aktiv dam olish vositasi sifatida tushunib uni bilim olish, hayotiy-amaliy malakalarga ega bo`lish uchun reja asosida va o`zlari ko`ngilli ravishda mustaqil tashkillashlari mumkinligini bilishi; reja asosidagi turizm (ekskursiya tarzida) avtobuslar, samolyotlar, teploxod, poezdlar va boshqalarda oldindan belgilangan joylarga borishlari; ko`ngilli turizmni piyoda, velosipedda, otda va boshqa vositalarda bir kunlik, ko`p kunlik qilib tashkillanishi, ular oldindan bosib o`tish qiyinligiga qarab tanlangan marshrutlar bo`ylab (5 xil qiyinlikdagilardan birini tanlab) o`tkazadilar.

Sayrdagi mashg`ulotlarning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, umumrivojlantiruvchi mashqlar ketma-ket emas, balki mashg`ulotning turli qismida o`tkaziladi: kirish - tayyorgarlik qismidagi yurish vaqtida bolalar turli xil qo`l harakatlarini bajaradilar, sekin yurish, bir va ikki oyoqda sakrash bilan navbatlashtiriladi: asosiy qismda esa oyoq va gavdani harakatlantiruvchi mashqlar beriladi. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni shu zaylda bajarish vaqtini tejaydi, mashg`ulotni jo`shqinroq qiladi, bu esa yilning sovuq davrida ayniqsa muhimdir.

Sayrdagi mashg`ulotlarning boshqa xususiyati ularga bolalarning sport o`yinlari va mashg`ulotlarga, ya`ni arg`amchidan sakrashga, sirpanishga, chang`ida yurishga o`rgatilishidir. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida bolalar basketbol, futbol, xokkey o`yini elementlariga o`rgatiladi, badminton o`yinini o`rganishadi. Tayyorlov guruhlarida bolalarning yuqoridan aytib o`tilgan sport o`yinlarining o`zlashtirish davom ettiriladi va stol tennisi o`yinini elementlariga o`rgatishni boshlanadi. Bundan tashqari sayrdagi mashg`ulotlar vaqtida bolalar avvalgi jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida o`rgangan asosiy harakatlarni mustahkamlaydilar[1,3,5].

Sayrdagi jismoniy tarbiya mashg`ulotlari 3 ta o`zaro bog`langan qismlardan: kirish - tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi qismdan tashkil topadi.

Kirish-tayyorgarlik qismi. Bolalarni uyustirishga, ularga bo`lajak faoliyatiga xohish uyg`otishi mashg`ulotlarning asosiy qismidagi jismoniy yuklamalarga asta-sekin tayyorlashga davom etilgandir.

Kirish tayyorgarlik qismi saflanish va yurishdan boshlanadi. Yurish vaqtida bolalar eng oddiy qo`l harakatlarini bajaradilar. Qo`llar yuqoriga, yon tomonlarga uzatish, chapak chalish, aylana harakatlar qilish va xokazolar. Bu mashqlarning bajarilishi yelka kamari muskullarini rivojlantiradi, harakatlar muvofiqligini yaxshilaydi. Yurish vaqtida tarbiyachi qadamning aniqligiga qo`l harakatlarining to`g`riligiga, oraliq masofaga rioya qilinishi va harakat yo`nalishiga e`tibor beradi. Yurishdan to`xtamay turib, sekin yurishga o`tiladi. U bolalarning yoshiga qarab 1-3 minut davom etishi mumkin. Odatda bu yugurish sport maydonchasida o`tkaziladi. Bolalar qatorga bittadan saflangan holda aylana bo`ylab bir-birini quvib o`tmasdan, bir-birini turtib yubormasdan oraliq masofaga rioya qilib yuguradilar. Bolalar ikkinchi, uchinchi aylanganda mashq bajaradilar (3-4) tizzalarni yuqoriga ko`tarib, juftlama qadam bilan yonlanmasiga yuguradilar, bir oyoqlab, ikki oyoqlab, bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o`tib sakraydilar, orqa bilan oldinga yuguradilar, orqaga aylanib qaytishni bajaradilar va hokazo. Bu mashqlarning barchasi oyoq, tos muskullarini mustahkamlaydi, bolalarning fazoviy mo`njal olishini takomillashtiradi va bundan tashqari ularga ijobiy his-tuyg`ularni uyg`otadi. Sekin yugurish yurish bilan tugallanadi. Tayyorlov qismi 3-5 minut davom etadi. Yilning sovuq kunlarida mashg`ulot bajarishda bolalar saflanmaydilar: bolalar binodan chiqishlari bilanoq, qo`l harakatlarini bajarib sport maydonchasi tonom boradilar[3,4,5].

Mashg`ulotning asosiy qismi (bolalarning yoshiga qarab) 14 minutdan 26 minutgacha davom etadi. Bu qismda bolalarning organizmi funksional imkoniyatlarini oshirish, kuchni, chaqqonlikni, umumiy chidamlilikni rivojlantirish fazilatlari xal qilinadi. Bundan tashqari asosiy harakatlar mustahkamlanadi va ulardan o`yin faoliyatida foydalanish ko`nikmalari hosil qilinadi[1,5].

Boshlang`ich sinf o`quvchilarida asosiy qism sport mashqlari yoki sport o`yinlari elementlarini o`zlashtirishdan boshlanadi. So`ngra o`rtacha sur`atda qisqa vaqt (1 minutdan 15 minutgacha) yuguriladi. U tugagandan keyin bolalar asosiy harakatlardan birini mashq qilib o`rganadilar. Shundan keyin bolalar yana o`rtacha sur`atda yugurtiriladi, so`ngra harakatli o`yinlar o`tkaziladi.

Tayyorlov guruhidagi asosiy qism huddi boshlang`ich sinf o`quvchilaridagi kabi o`tkaziladi, lekin tarbiyachi ko`proq guruhlararo metoddan foydalanadi. Bu esa pedagogning bolalarga ta`lim berishi hamda bolalarning egallagan malakalarini mustaqil ravishda takomillashtirih bilan qo`shib olib borishga imkon beradi.

Asosiy qismdagi yugurishning davomiyligi ilova qilingan rejalarda ko`rsatiladi. Yugurishni o`tkazish uchun sport maydonchasi bo`ylab aylanadi va bolalar bog`chasi belgilangan joydagi turli yo`lakchalardan foydalaniladi. Bolalar tarbiyachisi ko`rib turadigan joylarda yugurishlari, yugurayotganda har birining oralaridagi masofa 1,5-2 qadam bo`lishiga rioya qilishi kerak. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida yugurishning ushbu turi murakkablashtiriladi – bolalarga turli to`siqlarni yengib o`tadigan yo`nalish tavsiya qilinadi. Masalan, qiyatepalikka yugurib chiqish, xoda ustidan oshib o`tish, ustunlarni ilon izi qilib yugurib o`tish, darvozalarga emaklab kirish va hokazo. Bu chaqqonlikni,

chidamlilikni rivojlantiradi, harakat muvofiqligini yaxshilaydi. Bunda tarbiyachi maydoncha atrofidagi to`siqlardan 2-3 tasini aytadi, bolalar maydoncha bo`ylab 2-3 marta yugurib chiqish davomida to`siqlarni ketma-ket yengib o`tadilar.

Asosiy harakatlarni sport mashqlarini yoki sport o`yinlarini elementlarini bajarishda shoshma-shosharlikka yo`l qo`yishi mumkin emas – harakatlarni aniqligi va tugallanganligini talab etish zarur.

Mashg`ulotning asosiy qismi harakatli o`yin bilan shug`ullanadi. Tavsiya qilingan rejalarda yurish, tirmashib chiqish, sakrash, uloqtirish bilan qo`shib olib boriladigan harakatli o`yinlar tanlangan. Bolalarning harakat faolligini oshirish maqsadida yutqazganlar (tutilganlar) kamida 1 marta o`yindan chiqadilar. O`yinda uzoq to`xtash, takrorlash o`rtasidagi tanaffus 15-20 sekund bo`lishi kerak. Aksincha, agar bolalarga bir oz dam berish yoki ular e`tiborini o`yin qoidasini aniq bajarihga qaratish lozim bo`lsa, o`yinning takrorlanishi o`rtasidagi tanaffusni ohirish mumkin.

Mashg`ulotni yakunlovchi qismida sekin yugurib turib yurishga o`tiladi. Uning davomiyligini tarbiyachi yakunlovchi qismdan oldingi harakatli o`yinda bolalarning faolligi ob-havo sharoitlari va bolalarning tayyorgarligiga qarab tartibga soladi: ko`p harakat qilgan o`yindan keyin sekin yurish vaqtini ikki barobar qisqartirilishi yoki butunlay o`tkazilmasligi, bolalar esa maydoncha bo`ylab bamaylixotir yurishlari kerak. O`rtacha harakatchanlikdagi o`yindan keyin, ayniqsa yilning sovuq davrida mashg`ulot boshida qancha vaqt sekin yugurilgan bo`lsa, oxirida ham shuncha vaqt sekin yugurish kerak.

Mashg`ulot davomida yoki bevosita undan oldin obi-havo sharoiti o`zgarihi mumkin. Shunda pedagog mashg`ulotning borishini o`zgarishiga, boshqa harakarlarni tanlashga to`g`ri keladi. Masalan, tirmashib chiqish rejalashtirilgan edi, gimnastika devorchasining pog`onalari muz bosgan. Bunday paytda mashg`ulotga emaklab o`tish, qorchalarni uloqtirish va hokazo elementlarini kiritish mumkin. Agar qor yog`ib, maydoncha tozalanmagan bo`lsa, o`yinlarni boshqa joyda o`tkazish mumkin.

Butun mashg`ulot davomida bolalar ko`p yuguradilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar yugurish tezligiga qarab uni uch xil: sekin, o`rtacha suratda va tez yugurishlarga ajratish mumkin.

Sekin yugurish bolalarda umumiy chidamlilikni tarbiyalashning muhim vositasidir. Boshlang`ich sinf o`quvchilari bolalarida yugurish tezligi 1,3-1,5 m/sek ni tashkil etadi. Yugurish jarayonida yurak-tomir va nafas olish sistemalarining faoliyati odatda organizmni kislorodga bo`lgan ehtiyojini to`la ta`minlaydi. Shu tufayli bolalar bunday tezlikda ancha vaqt yugurishlari mumkin va shu tarzda ijobiy mashq qilish samarasiga erishiladi[1,2].

Sekin yugurih vaqtida bola gavdasini to`g`ri tutadi, uning yelkasi yozilgan, boshi ko`tarilgan, qo`llari bo`shashtirilgan bo`ladi. Avval oyoq uchi yerga tekkizilishi, keyin esa butun kafti bilan qadam qo`yishi kerak, qadam qisqa-atiga 2-3.

Bolalarning sekin yugurishiga o`rgatish uchun yurishni asta-sekin tezlashtirish kerak.

O`rtacha sur`atda yugurishi bolalar organizmining eng muhim sistemalari faoliyatiga yuqori talablar qo`yadi va ayni paytda ularning rivojlanishiga muhim ta`sir

ko`rsatadi. Bunday yugurish tezligi boshlang`ich sinf o`quvchilarida 2,2-2,4 m/sga teng bo`ldi. Tadqiqotlar boshlang`ich sinf o`quvchilari bolalari shunday tezlik bilan to`xtovsiz 500-600 metr yugurishlari ko`rsatildi. Bolalardagi mavjud imkoniyatlar chidamlilikni oshirish maqsadida ushbu yugurish turini mashg`ulotlarga kiritishga imkon beradi.

O`rtacha sur`atda yugurish vaqtida bolalarning gavdasi oldinga bir oz egilgan bo`ladi, ular boshlarini to`g`ri tutadilar, siltanish oyog`ining sonini oldinga ko`proq chiqaradilar, oyoqning butun kaftini yerga qo`yadilar va keyinchalik oyoq uchi bilan itarilib yerdan uzadilar. Qo`llar tirsaklardan zo`riqtirilmay bukilgan, barmoqlar bo`shashtirilgan bo`ladi.

Tez yugurish o`yinlari, o`yin estafetalarining tarkibiy qismidir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda u 10 metrdan – 30 metr masofada o`tkaziladi.

Tez yugurish vaqtida gavda va bosh oldinga egilgan, qadamlar keng va jadal tashlanadi. Siltanish oyog`ining soni faol ravishda oldinga chiqariladi va oyoq tagini yozish bilan depsiniladi.

Rejalarda keltirilgan tavsiyalar chidamlilik darajasi o`rtacha bo`lgan bolalarga mo`ljallanganki, bunda bolalarning o`rta guruhdagi sayrlar vaqtida jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida ishtirok etilganligi hisobga olingan. Agar bolalar katta yoki tayyorlov guruhlarda shug`ullana boshlagan bo`lsa, ularning asta-sekin ko`rsatilgan yuklamalarni bajarishga olib kelish kerak. Buning uchun ikki, uch oy ichida bolalar ko`rsatilgan masofani faqat yarmini yugurib o`tadilar. To`rtinchi, beshinchi oylarda sekin yugurish masofasini ular to`liq yugurib o`tadilar, o`rtacha sur`atda yugurishda esa hamon masofani yarmini yugurib o`tadilar. Faqat yil oxiriga kelib bolalardan ko`rsatilgan masofani to`liq yugurib o`tishni talab qilish mumkin.

Sayrdagi mashg`ulotlarni yilning issiq davrida boshlagan ma`qul: chunki bolalar organizmi havo haroratining pasayishiga asta-sekin ko`nikib boradi, bu esa sovuq kunlarda mashg`ulot o`tkazishga tayyorlanish imkonini beradi. Agar mashg`ulotlar boshqa davrda boshlangan bo`lsa, dastlabki mashg`ulotlarni davomiyligini qisqartirilishi kerak: bolalarga ikki marta yugurib o`tish va bitta harakatli o`yin bajarishni taklif qilish mumkin. Vaqt o`tishi bilan boshqa mashqlar ham kiritiladi va uchinchi to`rtinchi hafta oxirlarida mashg`ulot to`liqligicha o`tkaziladi.

Ochiq havoda jismoniy tarbiya mashg`ulotlarini o`tkazishning ko`p yillik tajribasi hamma bolalar moslashish davrining oxiriga kelib, tavsiya etilayotgan jismoniy yuklamalarni uddalayotganligidan dalolat bermoqda. Boshlang'ich sinflarda sayyohlik va turizmni orqali tavsiyalarni bajarish vaqtida mashg`ulotning harakatli qismini 85-90 % ga oshirish mumkinligi ko`rsatadi, bu esa bolalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga, ular salomatligini mustahkamlashga ta`sir ko`rsatadi[1,3].

Turmush tarzi ijtimoiy jarayonlar ichida eng barqaror, tashqi ta'sirga kam beriluvchan hodisa bo'lib, uning ob'ektiv va sub'ektiv omillar uyg'unligida o'zgarishni boshidan kechirishi tabiiy jarayondir. Bunda turmush tarzining sub'ektlari hisoblangan odamlarning ichki olamiga ta'sir qilib, ong tushunchalari, tafakko'r tarzini yangilashga katta ehtiyoj seziladi;

Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda birinchi navbatda odamlarning hayotga munosabati, yangilikning mohiyatini tushunib, uning afzalligiga ishonch hosil qila

olishlariga erishish muhim ma'naviy omil hisoblanadi. Bunda, bir tomondan, inson ruhining ta'sirchanlik qobiliyatiga asoslanish, ikkinchi tomondan, shunga mos holda ta'sir vositalarini qo'llash taqozo qilinadi. SHuning uchun mazko'r muammo yo'zasidan konkret-sosiologik tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini umumlashtirish, mutasaddi tashkilotlar diqqatiga havola qilish, uni hal etish tizimini vujudga keltirish va amaliy yo'lga qo'yish kerak;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xonkeldiev SH., Abdullaev A. Talabalar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish. –Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti, 2011 y.
2.Abdullaev M. Asrarova Z. SHaxsiy ehtiyojlar. // Sog'lom avlod uchun, 2001.
3.Xolmatova M. Sog'lom avlod tarbiyasining ijtimoiy falsafiy muammolari. // Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. - T.: 2000.
4.Shayxova X. Turmush, oila va ma'naviy tarbiya. // Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. T.: Fan, 1997.
5.Arziqulov R. Sog'lom turmush tarzi asoslari (Valeologiya)// O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent 2009 y.
6.B.Madaminov, R.Salamov Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotining amaliyoti// T.: Muharir-2013y.

JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Namangan davlat universiteti Azizov Nosirjon Nematillayevich
sport faoliyati kafedrasi dotsenti
Azizov Mirzohid Mirzaolim o'gli
jismoniy madaniyat fakulteti 2 – kurs magistranti

Annatatsiya: *Mazkur maqolada maktab o'quvchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish hamda jismoniy sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalalari haqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi, tibbiy nazorat, sog'lomlashtirish kuni, turistik sayrlar.*

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ФИЗИЧЕСКОМ ОБРАЗАВАНИИ

Наманганский государственный университет Азизов Носиржон Нематиллаевич
Доцент кафедры спортивной деятельности
Азизов Мирзохид Мирзаолим угли
Магистрант 2 – го курса Факультета физической культуры

Аннотация: *В этой статье мы говорится о том, как развивать здоровый образ жизни среди школьников и воспитывать здоровое и гармоничное поколение.*

Ключевые слова: *физкультура, здоровый образ жизни, медицинское наблюдение, день оздоровления, походы*

METHODS TO FORMULATE HEALTHY LIFESTYLE IN THE PHYSICAL EDUCATION SYSTEM

Namangan state of university
Azizov Nosirjon Nematillayevich
Associate Professor, Department for sports activities
Azizov Mirzohid Mirzaolim o'gli
2– cours master programmer of department of physical culture

Abstract: *In this article, we talked about how to develop healthy lifestyles among schoolchildren and to foster a healthy and harmonious generation.*

Key words: *physical education, healthy lifestyle, medical supervision, healthy improvement day, hiking.*

Mavzuning dolzarbligi. Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. [3,4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 – yil 5 – martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmoni hamda 2018-yil 18-dekabrdagi "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash hamda jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5590-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, 2019—2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish Konsepsiyasi hamda 2019—2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi. Bunday qaror va farmonlardan ko'rinib turibdiki, sog'lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblandi. [1,2]

Tadqiqotni maqsadi:

Ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim muassasalaridagi qaysi fanlar sog'lom turmush tarzi haqida bilim berishini aniqlash va ularga amaliy ko'rsatmalar berish.

Taqiqot ishining vazifalari:

1. Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi maxsus adabiyot materiallarini o'rganish va tahlil qilish.
2. Maktab o'quvchilari bilan "Sog'lom turmush tarzi" bo'yicha suhbat o'tkazish, savol-javob (anketa) varaqasini tuzish va shuning asosida maktab o'quvchilariga amaliy ko'rsatma berish.

3. O'quvchi – yoshlarning sog'lom turmush tarzi asoslariga o'rgatish uslubiyotini ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil qilinishi va natijalari tahlili

Asosiy pedagogik tajriba tekshiruv rejasiga binoan tadqiqotlar 2018 – 2019 yillar davomida Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabning 8 – 9 sinf o'quvchilari bilan o'tkazildi. Bunda ushbu uslublar ta'sirini tajribada isbotlash amalga oshirildi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida quyidagi mazmunda o'quvchilar uchun savol-javob (anketa) varaqasi tuzildi:

1. O'quvchilar tibbiy nazoratdan o'tkaziladimi?
2. Jismoniy tarbiya darsiga qiziqasizmi?
3. Sog'lomlashtirish kuni o'tkaziladimi?
4. Kasalliklarni oldini olishda jismoniy tarbiyani foydasi bormi?
5. Ichkilikbozlikka va chekishga qarshi kurash tajribalari o'tkaziladimi?
6. Sog'lomlashtirish to'garagi mavjudmi?
7. Turistik sayrlar tashkil qilinganmi?
8. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarini topshirganmisiz?
9. Katta tanaffusda o'yinlar o'tkaziladimi?
10. Mashg'ulotgacha bo'lgan gimnastika o'tkaziladimi?
11. Qanday sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkaziladi?

Savolnoma varaqasi (anketa)dagi savollarga javob yashirin holda olindi. Maktab o'quvchilarini "Sog'lom turmush tarzi" haqidagi nazariy bilimini aniqlash uchun savol-javob (anketa) natijasi.

Birinchi: maktabda o'quvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkaziladimi? degan savolga To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabning 150 ta yuqori (8 - 9) sinf o'quvchilaridan 62 tasi o'tkaziladi, deb javob bergan. Namangan shahar 1 – sonli umumta'lim maktabning (150 ta) o'quvchilari esa 76 tasi o'tkaziladi, deb javob bergan. Raqamlarning bunday ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: ya'ni maktabda jismoniy tarbiya darsi jurnalda va boshqa fanlarda "Sog'lom turmush tarzi" to'g'risidagi ma'ruza va suhbatlar o'tkazilmaganligidan dalolat beradi.

Ikkinchi: jismoniy tarbiya darsga qiziqasizmi? degan savolga To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o'quvchilaridan 133 tasi qiziqamiz, deb javob berdi, Namangan shahar 1 – sonli umumta'lim maktabining (150 ta) o'quvchilari esa 138 tasi qiziqamiz, deb javob berdi. Raqamlarning bunday ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya'ni maktablarda jismoniy tarbiya darsiga o'quvchilarning qiziqishi baland.

Uchinchi: sog'lomlashtirish kuni o'tkaziladimi? degan savolga, To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabining yuqori sinf o'quvchilari 150 tasidan 64 tasi o'tkaziladi, deb javob qilgan. Namangan shahar 1 – sonli umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari 150 tasidan 68 tasi o'tkaziladi, deb javob qilgan. Raqamlarning bunday ko'rsatkichlari quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya'ni maktablarda o'quvchilar sog'lomlashtirish haqida tushunchaga yetarli darajada ega emaslar.

To’rtinchi: kasalliklarini oldini olishda jismoniy tarbiyani foydasi bormi? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 102 tasi foydasi bor, deb javob qilgan. Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabining o’quvchilaridan 180 tasi foydasi bor, deb javob qilgan. Raqamlarning bunday ko’rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya’ni maktablarda jismoniy tarbiya haqida o’quvchilarga yetarli darajada nazariy bilim berilmagan.

Beshinchi: savolga ichkilikbozlikka va chekishga qarshi kurash tadbirlari o’tkaziladimi? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 98 tasi o’tkaziladi, deb javob bergan. Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabining o’quvchilaridan 86 tasi o’tkaziladi, deb javob bergan. Raqamlarning bunday ko’rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya’ni o’quvchilarga sog’lomlashtirish haqida ko’proq tushuncha berilmagani, ichkilikbozlik va chekish haqidagi tadbirlarga yetarli darajada e’tibor qilinmaganini ko’ramiz.

Oltinchi: sog’lomlashtirish to’garagi mavjudmi? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 48 tasi mavjud, deb javob bergan, Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabining yuqori sinf o’quvchilaridan 50 tasi mavjud, deb javob bergan. Raqamlarning bunday ko’rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya’ni maktabda sog’lomlashtirish to’garagi va guruhlari tashkil etilmaganligini guvohi bo’lamiz.

yettinchi: turistik sayrlar tashkil etilganmi? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 98 tasi tashkil qilingan, Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabining yuqori sinf o’quvchilaridan esa 103 tasi tashkil qilingan, deb javob bergan, ya’ni maktabda turistik sayrlar yetarli darajada tashkil qilinmaganidan dalolat beradi.

Sakkinzinchi: “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarni topshirganmisiz? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 9 tasi topshirganmiz deb javob bergan, Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabining o’quvchilaridan 10 tasi topshirganmiz deb javob bergan. Raqamlarning bunday ko’rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin, ya’ni avvalombor maktab ma’muriyati jismoniy tarbiya o’qituvchilari bunga ahamiyat bermaganligini va o’quvchilar “Alpomish” va “Barchinoy” testlar bilan tanish emasligini ko’ramiz.

To’qqizinchi: katta tanaffusda o’yinlar o’tkaziladimi? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 24 tasi o’tkaziladi, deb javob bergan. Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabi o’quvchilaridan 100 tasi o’tkaziladi, deb javob bergan, raqamlarning bunday ko’rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: ya’ni To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabda darsdan tashqari, katta tanaffuslarda o’yinlar har xil musobaqalar o’tkazilmas ekanligidan dalolat beradi.

O’ninchi: mashg’ulotgacha bo’lgan gimnastika o’tkaziladimi? degan savolga To’raqo’rg’on tumanidagi 2 – sonli maktabining 150 ta yuqori sinf o’quvchilaridan 38 tasi o’tkaziladi, deb javob bergan. Namangan shahar 1 – sonli umumta’lim maktabi o’quvchilaridan 100 tasi o’tkaziladi, deb javob bergan. O’quvchilarning bunday javob

berishlarini ikkala maktablardagi jismoniy tarbiya mutaxassislari bu tadbirga e'tiborsiz qaraganidan dalolat beradi.

O'n birinchi: qanday sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkaziladi? degan savolga To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabining 100 ta yuqori sinf o'quvchilaridan 75 tasi o'tkaziladi, deb javob bergan. Namangan shahar 1 – sonli umumta'lim maktabi o'quvchilaridan 100 tasi o'tkaziladi, deb javob bergan, raqamlarning bunday ko'rsatkichlarini quyidagicha tahlil qilish mumkin: ya'ni To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabida sog'lomlashtirish ishlariga biroz e'tibor berilgan bo'lsa, Namangan shahar 1 – sonli umumta'lim maktabidagi yuqori sinf o'quvchilarning 20% gina shug'ullanar ekan.

Bu savollarni To'raqo'rg'on tumanidagi 2 – sonli maktabi va Namangan shahar 1 – sonli umumta'lim maktabi jismoniy tarbiya o'qituvchilariga berganimizda, ular shunday javob berdilar, ya'ni hozirgi kunda maktabida sinfdan tashqari va sog'lomlashtirish tadbirlariga maosh to'lamaydi, shuning uchun bu ish ta'lim tizimining hamma tizimida olib borilmaydi dedilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni (2018 – yil 5 – mart)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori (2017. 3 iyun).
3. Mirziyoev Sh. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016 y.
4. Tursunov M.T., Lukyanov V.S., "Sog'lom turmush tarzi", Toshkent "Fan" 1990 y.
5. Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport xarakatining tashkiliy va boshkaruv asoslari. //Fan-sportga, 2004 y.

SPORTS LESSON - TIME REQUIREMENT

Mikheeva Alexandra
Ferghana Polytechnic Institute
Lecturer of the department "Physical Education and Sport"

***Annotation**: This article highlights issues related to the physical and sports education of an individual. The author provides conclusions and recommendations on the topic under study.*

***Keywords**: sport, physical education, physical education, students, healthy lifestyle*

ЗАНЯТИЕ СПОРТОМ – ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Михеева Александра Ивановна
Ферганский политехнический институт
Преподаватель кафедры «Физическое воспитание и спорт»

Аннотация: *В этой статье освещаются вопросы, связанные с физическим и спортивным воспитанием человека. Автор приводит выводы и рекомендации по изучаемой теме.*

СПОРТ БИЛАН ШУҒУЛЛАНИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Михеева Александра Ивановна
Фарғона политехника институти
“Жисмоний тарбия ва спорт” кафедрасининг ўқитувчиси

Аннотация: *Ушбу мақолада инсоннинг жисмоний ва спорт тарбияси масалалари атрофлича ёритилган. Ўрганилаётган мавзу юзасидан муаллиф томонидан хулоса ва таклифлар келтирилган*

In our modern dynamically developing time, when the Internet and nano-technologies prevail in the life of people, in some cases the physical education of a person goes into the background. In our firm conviction, a person should develop comprehensively, both physically and spiritually. In a healthy body healthy mind. A person involved in sports, physically healthy, leads a correct lifestyle and, as a rule, is far from bad habits. The scourge of the late 20th and early 21st centuries is drug addiction, alcoholism, AIDS and others.

Therefore, the hobby of youth in sports is especially relevant today. At present, it is impossible not to recognize the crucial role of a person’s lifestyle in maintaining and strengthening health, where physical culture occupies a leading place. In the age development of a person, a very important role belongs to physical education.

This applies not only to promoting the normal physical development of the growing organism and its improvement, strengthening health, but also the formation of the spiritual qualities of the individual. All this becomes possible and real with the correct formulation of physical education, its implementation in organic connection with other types of education: mental, moral, labor, aesthetic.

6.Салимов Ғ. М. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7-10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги. Дисс.... пед. фан. ном. – Тошкент: 2007. -146 б.

HOW TO DEVELOP LISTENING SKILLS FOR STUDENTS

Nazarova Yorkinoy Xamidovna
an English teacher of Namangan State University

AnnotationThis *article is about ways of developing listening skills for students. It is also spoken about practical tips for improving listening and speaking skills. The importance of Blackout Method is also given.*

Key words: *listening, types, intonation, context, to engage, speech, pronunciation*

КАК РАЗВИВАТЬ СЛУШАЮЩИЕ НАВЫКИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ

Назарова Ёркиной Хамидовна
преподаватель английского языка
Наманганского государственного университета

Аннотация:*Эта статья о способах развития навыков слушания для студентов. Также говорится о практических советах по улучшению навыков аудирования и разговорной речи. Важность метода затемнения также дается.*

Ключевые слова: *аудирование, типы, интонация, контекст, заниматься, речь, произношение*

ТАЛАБАЛАР УЧУН ҚАНДАЙ ҚИЛИБ ТИНГЛАБ ТУШУНИШ КЎНИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ КЕРАК

Nazarova Yorkinoy Xamidovna
Namangan davlat universiteti
ingliz tili o'qituvchisi

Аннотация:*Ushbu maqola talabalar uchun tinglash qobiliyatini rivojlantirish usullari haqida. Shuningdek, tinglash va nutq qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy maslahatlar haqida gap boradi. Blackout usulining ahamiyati ham berilgan.*

Tayanch so'zlar: *tinglash, turlari, intonatsiya, kontekst, jalb qilish, nutq, talaffuz*

It is very important to engage in listening in English, because listening to speech is one of the most important skills. Despite the fact that everyone has their own goal of learning English, we all learn it in order to use it in real life. Without the ability to understand what the English-speaking interlocutor is telling us, our knowledge of the language can hardly be called complete. Not for nothing that all international tests include listening assignments. But unfortunately, it is this skill that is the most "lame" among students. Many deliberately avoid listening to English texts, giving in to difficulties. And very in vain, because the more often we listen to English, the more we get used to it. Let's figure out why you need to engage in listening, and what types of it can be divided. Of course, and without further explanation, it is clear that honing this skill will help us understand live English and will be very useful in communicating. Nevertheless, there are some more useful skills that we improve through listening:

Pronunciation: Listening to English speech, we learn not only to recognize it by ear, but also "absorb" the correct pronunciation of words. Often we cannot hear a particular English word that we know for sure only because we have learned the wrong pronunciation. By listening to an audio recording, you can hear the correct sound of words and repeat them after a native speaker. According to Fraser, teachers should be provided with courses and materials that help them improve their pronunciation instruction.[1.p.25]. Thus, you will develop the habit of pronouncing sounds exactly as native speakers do. In addition, you can practice listening and speaking words in a sentence. Morley stated that understandable pronunciation is a main objective of pronunciation instruction. In is a necessary component of communicative competence.[2.p. 481] Celce-Murcia, Brinton and Goodwin declares that the broad view of pronunciation includes a focus on how pronunciation is really used to communicate.[3.p.136] Intonation: Intonation helps us to give what we say the right shade. For example, in the Uzbek language there are no auxiliary verbs that help us to indicate that we are asking something and not affirming, and in such cases we simply pronounce the sentence with a questioning tone. By the way, in spoken English, native speakers can also sometimes miss auxiliary verbs, forming a question only with the help of intonation. Sometimes it may seem to us that the neutrals speak too emotionally, but for them this is an absolutely normal tone of conversation.

Use words in context: Many English words have several meanings. The same word, spoken in a different context, can carry completely different semantic meanings. In addition, there are a huge number of synonyms in English, and each of them will be used in different ways. There are also many nuances of using prepositions and constructing grammatical constructions. When listening to texts in English, you will have triggered auditory memory, and you will memorize the use of words in sentences in a natural way, without unnecessary cramming. The ability to understand the meaning of words from the context: This is another useful skill that will come in handy in life. It is unrealistic to learn all the words, and even having a very extensive vocabulary, you will still occasionally come across some words whose meanings you do not know. Listening is a great way to practice understanding unfamiliar words in context.

How often do you need to engage in listening? Like practicing any other skill, honing your ability to understand English by ear requires regular training. At first, students of English can understand very little of what was said by native speakers, especially if the audio is not adapted to the student's level of knowledge. However, with regular training and with the replenishment of the vocabulary, progress can very soon be noticed. Listen to audio as often as possible. It is advisable to give this at least 10-15 minutes a day. Fortunately, on the net you can find many short records in English for 2-3 minutes. It is also good practice to watch films in English. Listening in English is a difficult task, but at the same time very useful and exciting. You can combine classes with different types of listening. This will help you avoid overwork and loss of interest. For example, take 20 minutes 3 times a week to listen with full understanding of what was said, writing out and memorizing new words and analyzing their usage examples. Also, with such an active lesson, try to repeat after the announcer and retell the meaning of the recording

using new words. And the rest 4 days, listen to recordings or audio books, understanding their main meaning. You can download an audio book on your phone and listen to it daily for 10 minutes before bedtime. Agree, it's not difficult at all. If it is too difficult for you to perceive English speech by ear, you can choose audio with texts to them, and listen while running through the text with your eyes — this will help you adapt to English speech. Pick up interesting materials and study as often as possible, and after 2-3 months you will notice that native English speakers speak not so incomprehensibly. We all know how young children learn to speak — before they pronounce their first word, they listen to how their parents talk, gradually getting used to the speech. It is more difficult for adults to master a foreign language, but it is quite realistic. A good way to develop your English-speaking skills is through listening.

In order to master listening skills and speak English fluently, you should listen to a lot of audios and watch video manuals in English, for example, dialog, thematic texts and audio stories, and from time to listen to them again. But according to Brown, students enjoy learning about reduced forms because its new information.[4.p.1]. But students will benefit from repeated exposure to examples. It is advisable to have English subtitles for audio and video materials. The most effective listening is when you read the subtitles, and then repeat after the one who speaks, trying to imitate his pace, intonation. In this way, you can study any topic and at the same time practice English pronunciation.

Practical tips for improving listening and speaking skills: This article will, I hope, help teachers of English reconsider how we think about listening tasks. Here are some tips that I will gladly share with you. They will certainly help you improve your speaking and listening skills. At this point, we should have two key ideas foremost in our minds: First, many activities we do in the course of a listening lesson are actually not listening. Second, we can increase listening practice by including simple activities with listening specific goals.[5.p.6]

1. Listen to each sentence several times.

While listening, you need to see the text itself and read each sentence.

If at the beginning of your study of English you will listen more, rather than speak, your brain will better remember the basic sounds and intonations of English speech. Indeed, in order to speak the language, you must already remember all the sounds and be able to make them. If you are just starting to learn a language, this is too difficult a task. A good listening task is one with "active responses occurring during, or between parts of, the listening passage, rather than at the end".[6.p.12] Since you are not forced to repeat what you hear when listening, you have the opportunity to fully focus on the content. You learn to better understand someone else's speech without spending extra time and energy on what you don't know how to do.

2. Make sure that you understand each sentence in terms of pronunciation, vocabulary, and grammar.

Films in two languages: For this listening method, you can use films that were shot in your own language and then translated into English for a foreign audience, or films in English, which were then translated into Uzbek.

3. Without looking at the text, try to repeat each phrase (say it out loud) exactly as you heard. When you repeat the sentence as close to the test as possible, you, accordingly, remember its contents.

4. Listen to a specific text in short paragraphs, conditionally dividing it into parts.

For example, after reading a paragraph, immediately compare it with subtitles.

5. Listen to the text completely several times and try to tell the content of the whole conversation or text.

You can write out keywords and phrases or main ideas as a plan for a specific dialogue or text to make it easier for further retelling. It is important to compare what you said with the text. A good idea is to record your own speech in order to match it with the original audio / video recording. Yes, it may seem ridiculous, but believe me, it's worth it. There are many ready-made thematic dialogues in English, thematic texts (informative texts and subject stories), grammatical materials (in the form of dialog s and texts), and sentences with complex vocabulary on different topics. You can also practice understanding English by ear using fixed phrases and English idioms. To test yourself, use video materials with subtitles. Reading books, using audio and video materials provide additional practice and accelerate the development of English.

Blackout Method: The blackout method is a technique used by 20th century poets. The same method can be used during listening to turn it into entertainment and at the same time into the practice of so-called “Active listening” when while listening to a recording you focus only on the sounds, grammar or meaning of the words. This practice activity is a fun, unique way to practice active listening focusing all your attention on the sounds, grammar and meaning of words as you listen. First, you need an audio recording and a transcript of the audio. Now the new words should be stuck in your brain! Not only have you listened to them many times, you have used them to create your own, unique poem in a new context. An audio book in this matter is a valuable assistant, because, in fact, it practically replaces communication with a foreigner. In addition to audio books, it’s good to listen to songs and view video tutorials for teaching English, you can download them for free. It is desirable that the video has subtitles, then the word can be read first, then repeated with the desired intonation.

Now you know how to improve your English-speaking skills through listening, and all you have to do is start the speedy implementation of the above tips. I'm sure you will succeed! Of course, maybe not the first time, but do not forget— practice and practice again! It doesn't matter how fast you go, if only you don't stop.

References:

1.Fraser, H. (2000a) Coordinating Improvements in Pronunciation Teaching for Adult Learners of English as a Second Language, ANTA Innovative Project. Canberra, DETYA

2.Morley, J. (1991). The Pronunciation Component in Teaching English to Speakers of Other Languages. TESOL Quarterly, 25(3), 481-520.

3.Celce-Murcia, M., & Goodwin, J. (1991). Teaching Pronunciation. In M. Celce-Murcia (Ed.), Teaching English as a second or foreign language (pp: 136–153). Boston: Heinle & Heinle Publishers.

4.Brown, J. D., and K. Kondo-Brown. 2006. Introducing connected speech. In Perspectives on teaching connected speech to second language speakers, ed. J. D. Brown and K. Kondo-Brown, 1–16. University of Hawai'i at Ma-noa: National Foreign Language Research Center
5.KEVIN McCAUGHEY .Practical Tips for Increasing Listening Practice Time.p.6
6.Ur, P. 1984. Teaching listening comprehension. Cambridge: Cambridge University Press.p.12

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ

Ботирова Зухрахон Абдурахимовна
Фарғона давлат университети

Аннотация: *Мақолада мактабгача таълим муассасалари фаолияти мониторингида ахборот технологиясидан фойдаланиш ҳолати назарий таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: *мактабгача таълим, мониторинг, ахборот технологияси, назарий таҳлил, компьютер саводхонлиги.*

ТЕОРИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМОЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СФЕРЕ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ботирова Зухрахон Абдурахимовна
Ферганский госсударственный университет

Аннотация: *В статье проанализирована теоритетические основы состоянии применения информационной технологии в мониторинге деятельности дошкольных образовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *дошкольное образования, мониторинг, информационная технология, теоритический анализ, знания компьютера.*

THE THEORETICAL ANALYSIS OF THE APPICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF PRESCHOOL EDICATION

Botirova Zukhraxon Abduraxkhimovna
Fergana state university

Annotation: *In the article preschool educalional institutions in monitoring the octivities of the analusis of the use of information technology.*

Key words: *nursery school, monitoring, information technology, theoretical analyses, knowing computers.*

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002-йил 6 июндаги "Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот коммуникация технологияларини жорий этиш тадбирлари тўғрисида"ги қарорида "...мактаблар, касб хунар коллежлари, ахборот технологияларини эгаллашга ҳамда уларни фаол

қўллашга асосланган илғор таълим тизимларини киритиш...” дейилган. Ҳозирги кунда умумтаълим мактаблари, мактабгача ва мактабдан ташқари муассасаларида ўқув-тарбия жараёнларини давр талаблари даражасида ташкил этиш учун замонавий компьютер комплекслари ёрдамида юқори педагогик технологияларни яратиш ва ундан самарали фойдаланишни тақозо этади. Бугунги кунда жамиятимизда таълим соҳасида жуда катта ислоҳотлар олиб борилмоқда. Таълим муассасалари замонавий компьютерлар, проектор, видео-кўз, сканер, кодоскоп, лингафон хоналалари ва ҳоказолар билан жиҳозланган.

Ҳозирча мактабгача таълим муассасаларига замонавий компьютер технологияларини киритиш масаласи очиқ қолмоқда. Таълимни бошқариш, унинг кундалик фаолиятини сифатли ва самарали ташкил этишда раҳбарнинг илмий-методик ва ахборот технологиясидан фойдаланиш бўйича салоҳияти катта аҳамиятга эга. Муаммонинг назарияда ўрганилганлик ҳолати билан танишиш, бу муаммо мактабгача таълим тизимида кенг кўламда тадқиқ этилмаганлигини кўрсатади. Мактабгача таълим мутахассислари учун мазкур муаммо юзасидан методик қўлланма ва тавсиялар яратилмаган. Шунингдек, мониторинг хизматини амалга оширишда ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш муаммоси ўрганилмаган, алоҳида тадқиқот объекти сифатида юзага чиқмаган ва тегишли таклиф, амалий тавсиялар ишлаб чиқилмаган. Ўзбекистон президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 30 сентябрдаги ПФ-5198 “Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонида “...мактабгача таълим сифати мониторингини юритиш тузилмавий ва ташкилий жиҳатдан назарда тутилмаганлиги сабабли, мактабгача таълим муассасаларидаги таълим жараёнининг сифати ва самарадорлигини баҳолаш замон талабларига жавоб бермайди”-деб, таъкидлаб ўтадилар. Шунингдек қуйида мазкур йўналиш бўйича кўрсатилаётган таҳлиллар ушбу муаммони чуқур тадқиқ этишни тақозо этади. А.Бахрамов “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни бажарилишида янги ахборот технологияларининг ўрни- ўқитишнинг янги ахборот технологиялари ташкил этиши, ўқувчиларга билим беришни такомиллаштириш ва ўқитувчилар меҳнати самарадорлигини оширишда, шунингдек, мамлакатимиз маорифини халқаро стандартлар даражасига олиб чиқишда айнан ўқитишнинг янги ахборот технологиясининг аҳамияти катта эканлигини таъкидлайди, Ш.П.Пўлатов мактабларни ахборот технологиялари асосида бошқаришнинг педагогик омилларига тўхталиб, компьютер орқали ахборотлни олиш, улардан таълим жараёнида кенг фойдаланиш, электрон машғулот-масофадан туриб ўқитиш каби компьютер технологиясининг усулларидан фойдаланишни барча ўқув фанлари бўйича йўлга қўйиш, замонавий компьютер технологияси, мультимедиа, интернет орқали мактаб-туман-шаҳар-вилоят-республика ахборот технология тизимига уланиш, мактаб битирувчисининг замон талаб қилган даражада компьютер саводхонлиги, маданият ва юксак интеллектга эга бўлишига эришиш-мактаб таълимини ахборот технологияси асосида бошқаришнинг асоси деб ҳисоблайди. Жумладан, Т.Ғаффоров таълим соҳаси янги ахборот технологияларини киритиш таълимни ахборотлаштириш муаммоларига илмий ёндашиб, янги ахборот

технологиялари ўқувчиларнинг янги билимларни мустақил ўзлаштириши, ҳар хил ахборот манбалари билан мустақил ишлаш малакаларини ривожлантириши ва таълимни ривожланган мамлакатлар тажрибаси асосида ташкил этишга замин яратилишига, фойдаланувчиларни дунё мамлакатлари илмий ютуқларидан баҳраманд бўлишларига шароит яратилишига эътиборни қаратади. [1]

Фан йўналиши бўйича Й.Т.Тўраев, Г.А.Расулова, Д.Абдуназаровалар ахборот технологиялари асосида фундаментал фанларни ўқитиш самарадорлигини ошириш муаммоларига, Р.Жўраев Олий таълим тизимига замонавий педагогик технологияларни жорий этиш ва педагогик технологиялар асосида табиий фанларни ўқитиш, Й.О.Расулов касб-ҳунар коллежларида махсус фанларни ўқитишда электрон дарсликлар воситасида ўқитиш, Н.Анварова кимё фанини такомиллаштиришда компьютер технологияларининг дидактик имкониятлари, Д.Исмоилова, Ф.Ю.Тўрақулова, М.Иномовалар олий ўқув юртларида “Педогогик технология” фани ўқитишда ахборот технологиясидан фойданган ҳолда ташкил этиш, М.Диванова олий ўқув юртлари математика фанини ўқитишда компьютер технолиясидан фойдаланиш, З.Жалолиддинова ахборотлаштирилган таълим муҳитида педагог фаолиятига қўйилган талабларга тўхталади, О.Тигай, К.Турсунметовлар физика фанидан компьютерларда тест олиш, З.Собирова касб-ҳунар коллежлари математика дарсларида логорифмларни электрон дарслик воситасида ўқитиш, К.У.Бобожонов, Н.З.Умарова рус тилини ўқитиш жараёнини ахборотлаштириш, М.Ахмедова, С.А.Адиловалар ўзбек тили машғулотларини компьютер технологияси воситасида ташкил этиш, Д.Хидоятова ахборот коммуникация технологиялари ёрдамида дарс самарадорлигини ошириш йўллари, бунда ўзга тил мактабларида ўзбек тилини дарсини компьютер технологияси ёрдамида ташкил этиш, Б.Ахроров, А.Баҳрамовлар ўзбек тили дарсларида компьютер технологияларидан фойдаланиш, Н.И.Махмудова, Ш.Артиковалар компьютер ёрдамида инглиз тилини ўқитишнинг имкониятлари, Ж.Оришев, Н.Ғаффоровлар электротехника фанини ўқитишда, Л.Қораханова зоология дарсларида компьютер технологиясидан фойдаланиш, Б.Ўзаров, Ш.Мажидовалар талабаларга миллий қадриятларни ўргатишда компьютер технологиясидан фойдаланиш, Ж.А.Хамидов умумкасбий фанларни ўқитишда ахборот технологияларидан фойдаланишнинг педагогик асослари борасида илмий изланишлар олиб бормоқдалар.[2]

Р.Қ.Каримов умумий ўрта таълим давлат таълим стандарти мониторингини таъминлашнинг педагогик асосларига тўхталиб, Давлат таълим стандартларини ўқув-тарбия ишларига жорий этиш, ўқувчилар билимининг ДТС талабларига мослик даражасини аниқлаш замонавий ҳамда илмий-педагогик жиҳатдан асосланган мониторинг тизимига боғлиқлигини, мониторинг тадбирлари олиб борилса, ўқувчиларнинг таълим мазмунини ўзлаштириш самарадорлигига таъсир этувчи омилларни аниқлаш, таълим муассасаларида таълим-тарбия самарадорлигини ошириш юзасидан ўз вақтида зарур чора-тадбирлар белгилаш, ўқувчиларни ўзлаштириши қийин бўлган мавзулар аниқланиб, уларни ўқитиш методикасини қайта кўриб чиқиш, ДТС мониторинги натижаларини жадвал ва

диаграммалар кўринишида мужассамлаштириш орқали синф ва мактаблар миқёсида ўзаро рақобатни шакллантириш, мониторинг натижаларига қараб фан ўқитувчиларининг касбий ва педагогик маҳоратларига холисона баҳо бериш имконини яратиш, мониторинг натижаларини ота-оналарга етказиш орқали уларнинг фарзандлари таълим-тарбиясига бўлган эътиборини кучайтириш, олинган натижаларга кўра ўқувчиларнинг фанларга бўлган қизиқишларини орттириш, илғор педагогик тажрибалар ва усулларни аниқлаб, улар банкини яратиш, ўзлаштириш қийин бўлган фанлар (мавзулар, билимлар) бўйича методик қўлланма, тавсия, дарс ишланмалари билан таъминлаш, муассасалар ҳолатини ўрганиш ва уни такомиллаштириш тадбирларини белгилаш, ўқувчилар билимидаги бўшлиқларни аниқлаш механизмини яратишга тўхталади. [3]

А.Ф.Рахматуллаев муҳаррирлиги остида чоп этилган «Мактабгача таълим муассасида диагностик харита ва кузатишлар асосида «Учинчи минг йилликнинг боласи» таянч дастурининг бир бўлаги сифатида ўқув-тарбиявий жараён мониторинги» қўлланмасида мактабгача таълим муассасаларидаги таълим-тарбия жараёнининг таҳлили ҳақида маълумотлар берилган. [4]

Юқоридаги таҳлил натижаларига эътибор қаратадиган бўлсак, мактабгача таълим муассасаларида мониторинг ишларини қониқарсиз эканлиги ҳамда мактабгача таълим мониторинги ва унда ахборот технологиясидан фойдаланиш психологик, педагогик, услубий жиҳатдан мукаммал тадқиқ қилинмаган, илмий асосланмаганлигини кўришимиз мумкин.

Халқ таълими тизимида мазкур вазифаларни амалга ошириш бошқарув соҳаси фаолиятига боғлиқдир. Ахборот технологияларини таълим жараёнига татбиқ этиш бошқарув ишларини автоматлаштиришга кенг йўл очиб беради. Нафақат бошқарув органларини автоматлаштириш, балки шу тизим билан боғлиқ таълим муассасаларини ахборот технологиялари билан таъминлашга эришиш фаолият самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Узлуксиз таълим. 2006 йил 4-сон 107 бет.
2. Халқ таълими. 1998 йил. 2-сони 53 бет.
3. Маърифат 2004 йил. 1 декабрь
4. Узлуксиз таълим. 2006 йил. 4-сони 107 бет
5. Ўзбекистон Республикаси президентининг
ПҚ-5198 фармони. 2017й 30.09.

ЎҚУВ ЖАРАЁНИДА “БУМЕРАНГ” МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШДА ВУЖУДГА КЕЛАДИГАН МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ

Отамирзаев Олимжон Усубович,
Наманган муҳандислик-қурилиш институти “Энергетика” кафедраси катта ўқитувчиси
Зокирова Дилноза Неъматиллаевна,
Наманган муҳандислик-қурилиш институти “Энергетика” кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: *Мақолада амалий машғулотларда ўқув жараёнида “Бумеранг” методидан фойдаланилганда вужудга келадиган муаммолар ўрганилган ва ушбу муаммоларни олдини олиш бўйича тавсия ва таклифлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *“Бумеранг” методи, кичик гуруҳлар, назоратчи-эксперт, мустақил фикрлаш, ноанъанавий ўқитиш, ўқув фаолият.*

ПРОБЛЕМЫ ВОЗНИКАЮЩИЕ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ МЕТОДА “БУМЕРАНГ” В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ

Отамирзаев Олимжон Усубович,
Наманганский инженерно-строительный институт
Старший преподаватель
Зокирова Дилноза Неъматиллаевна,
Наманганский инженерно-строительный институт
Старший преподаватель

Аннотация: *В статье изучены проблемы, возникающие при использовании метода “Бумеранг” на практических занятиях и приведены рекомендации и предложения по предотвращению этих проблем.*

Ключевые слова: *метод “Бумеранг”, малые группы, наблюдатель-эксперт, самостаятельное мышление, нетрадиционное обучение, учебная деятельность.*

PROBLEMS ARISING WHEN APPLYING THE “BOOMERANG” METHOD IN THE COURSE OF TRAINING AND METHODS FOR THEIR ELIMINATION.

Otamirzaev Olimjon Usubovich,
Namangan engineering-construction institute
senior teacher
Zokirova Dilnoza Nematillaevna,
Namangan engineering-construction institute
senior teacher

Abstarct:*The article studies the problems that arise when using the “Boomerang” method in practical exercises and provides recommendations and suggestions to prevent these problems.*

Keywords: *“Boomerang” method, small groups, expert observer, independent thinking, non-traditional education, educational activities.*

Бугунги кунда ахборот технологиялар даври таълим жараёнига кириб келди. Таълим мазмуни, методи ва ташкил этилишини такомиллаштириш масаласи долзарб масаладир. Шу боис таълим жараёни педагогикада янги технологиялар яратилишини тақазо этади.

Тадқиқотлар жараёнида замонавий, баъзи ҳолларда янги педагогик технология иборасини ишлатиб келдик. Аслида бизнинг тасаввуримизда ҳар иккала термин синоним характерига эга деб ҳисобланган ҳолда иш кўрдик. Янги педагогик технология мазмуни ўқув мақсадларини назарда тутган технологик ишланмалар, ўқув мақсадларни назоратда тутувчи ўзига хос таснифлагичлар, интернет тизими ва электрон дарсликлар, тест топшириқлари, тўлиқ ўзлаштириш технологиялари билан боғлиқ жараёнларни назарда тутади.

Бунинг учун биз илғор педагогик технологиялардан фойдаланамиз, яъни илғор педагогик технологиялар ёрдамида талабалар мустақил ўқув фаолиятларини ривожлантиришга ҳаракат қиламиз.

Илғор ўқув жараёнини ҳаракатлантирувчи куч ёки олдиндан белгилаб қўйилган аниқ мақсад йўлидан ўқитувчининг касбий фаолиятини янгиловчи ва таълимда якуний натижани кафолатлайдиган замон талаби даражасидаги тадбирлар мажмуасидир.

Илғор педагогик технология таълим тизимининг рационал йўлларини ишлаб чиқарувчи ва лойиҳалаштирувчи жараён бўлиб, унда ўқитувчи асосий масъул шахс ҳисобланади. Чунки унинг асосий вазифаси ахборотни талабаларга тез, аниқ ва тушунарли тарзда етказиб беришдан иборатдир. Талабаларнинг янгиликларни қабул қилишлари ва бунга мойилликлари ҳамда феъл-атвори ҳар хил бўлишига қарамай ўқитувчи талабаларни мустақил фикрлаш, мушоҳада қилиш, хулоса чиқаришга ўргатиши лозим. Бунда талаба асосий ҳаракатлантирувчи куч бўлиб, ўқиш, мутоала қилиш, формулаларни тушуниш, ўлчаш асбобларини ишлата билиш ва улардан тўғри фойдалана олиш, бир-бирлари билан дўстона муносабатда бўлиб, олдиларига қўйилган муаммоларни биргаликда ечишга ёрдам бериш уларнинг асосий вазифалари ҳисобланади [1].

Олий таълим тизимида содир бўлаётган ўзгариш ва янгиланишлар талабаларга янги билим, кўникма ва малакаларни бериш билан бир қаторда, ёшларимизнинг ўзига ва бошқа инсонларга, жамиятга, давлатга, табиатга нисбатан ўзгаришини, ватанпарварлик ғояларини онгига ва қалбига сингдиришини ҳам кўзда тутади. Демак, таълим муассасаларимизни фаолияти асосан талабаларимизни демократик жамиятда мустақил фикрлайдиган, ўз дунёқарашига эга маънавий-комил шахс бўлиб шаклланишига қаратилган бўлиши керак.

Маълумки ҳозирда АҚШ, Германия, Англия, Франция, Жанубий Корея, Япония ва Хитой давлатлари илғор давлатлар қаторидан нуфузли ўринга эга бўлиб келмоқда. Ушбу давлатларнинг таълим тизимини ва уларда эришилган ўқитиш технологияларини ўрганишимиз зарур. Бу ривожланган давлатларнинг таълим тизими бир биридан кескин фарқ қилмасада ўзига хос кўрсатгичлари мавжуд.

Уларнинг таълим тизими асрлар давомида миллий анъаналарга ва иқтисодиётни ривожланишига кўра шаклланиб келган.

Ривожланган мамлакатларнинг университетлари профессор-ўқитувчилари томонидан қатор ўқитиш методлари яратилиб, ўқув жараёнида қўллаб келинмоқда, жумладан "Силлабус", "Кейс-стади", "ФСМУ", "Ассесмент", "Инсерт", "Тушунчалар таҳлили", "Венн Диаграммаси", "Блиц-ўйин", "Бумеранг", "Брифинг", "Портфолио" ва бошқалар [2].

Ушбу методларнинг энг самаралиларидан бири бу "Бумеранг" методидир. Бунда бир машғулот давомида ўқув материалини чуқур ва яхлит ҳолатда ўрганиш, ижодий тушуниб етиш, эркин эгаллашга йўналтирилган.

«Бумеранг» методи танқидий фикрлаш ва мантиқни шакллантиришга имконият яратади ҳамда ғоя ва фикрларни ёзма ва оғзаки шаклларда баён қилиш кўникмаларини ривожлантиради. Мазкур метод тарбиявий характердаги қатор вазифаларни амалга ошириш имконини беради, яъни келажакда жамоа билан ишлаш махорати, муомилалик, хушфеъллик, ўзгалар фикрига ҳурмат, раҳбарлик сифатларини шакллантириш, ишга ижодий ёндашиш, ўз фаолиятини самарали бўлишига қизиқиш, ўзини холис баҳолаш кабилар.

Ўқитувчи гуруҳ талабаларини 4 та кичик гуруҳларга бўлади ва ҳар бир гуруҳга алоҳида тарқатма материаллар тарқатади. Шундан сўнг, талабалар аввал ўз гуруҳлари тегишли мавзуни ўрганадилар ва мухокама қиладилар, сўнгра янги тузилган гуруҳлари миқёсида ўз мавзуларини ёритиб берадилар. Натижада ҳар бир талаба фаоллашади, ўрганади ва ўргатади.

"Бумеранг" методини қўллаш талабаларда мустақил ўрганиш ва фикрлаш кўникмасини ривожлантиради. Амалий машғулотни қуйидаги тўрт босқичда олиб борилади:

1-босқич (10 дақиқа): Давомат аниқланади. Талабалар тўртта кичик гуруҳларга ажратилади. "Бумеранг" методини қўллаш бўйича топшириқларни слайдлар ёки тарқатма материаллардан фойдаланиб, талабаларга тушунтирилади.

2-босқич (20 дақиқа): Бунда талабалар маъруза машғулотларида мавзуни ўрганадилар ҳамда ўзаро мухокама қиладилар.

3-босқич (20 дақиқа): Бу босқичда ўқитувчи ҳар бир кичик гуруҳдан бир нафардан талабани бирлаштирган ҳолда янги кичик гуруҳ тузади. Бунда ҳар бир талаба бундан олдинги кичик гуруҳда ўрганган мавзусини янги гуруҳдошларига тушунтириб беради, барча талабалар ўзига тегишли мавзуни тушунтириб берганларидан сўнг барча мавзуларни ўзаро мухокама қиладилар. Сўнгра талабалар ўзларининг биринчи кичик гуруҳларига қайтадилар.

4-босқич (20 дақиқа): Бу босқичда ҳар бир талаба бундан олдинги кичик гуруҳда ўрганган билимларини янги гуруҳдошларига тушунтириб беради, барча талабалар ўзлари ўрганган маълумотларни тушунтириб берганларидан сўнг, мавзуларни ўзаро мухокама қиладилар. Ўқитувчи талабаларни мавзуга доир саволларига жавоб беради.

5-босқич (10 дақиқа): Бунда ўқитувчи дарсда энг фаол қатнашган гуруҳни, энг фаол ва билимли талабани аниқлайди ҳамда уларни рағбатлантиради. Сўнгра барча

кичик гуруҳлардаги фаол талабаларни баҳолайди. Талабаларга тайёрлаб қўйилган мустақил иш топшириқларини тарқатади [3].

“Бумеранг” методидан асосан амалий машғулотларда фойдаланиш тавсия этилади, бу методдан фойдаланишда қуйидаги муаммолар вужудга келади:

- аксариат гуруҳларда талабалар сони 20-30 нафарни ташкил этади, бунда 4 ёки 5 та кичик гуруҳга ажратилганда бир нечта талаба ортиқча бўлиб қолади, масалан гуруҳда 20 нафар талаба бўлса 4 нафар талаба ортиқча бўлиб қолади;
- дарснинг 3-босқичида билими пастроқ бўлган талаба бошқаларга ўзига тегишли бўлган мавзуни яхши тушунтириб бера олмайди, натижада ушбу мавзу яхши ўзлаштирилмай қолиши мумкин бўлади;
- дарс давомида талабалар ўзига тегишли мавзуни бир-бирларига тушунтириб бераётган пайтда бошқа гуруҳ талабаларига ҳалақит беради.

Бу ва шунга ўхшаш муаммоларни олдини олишни қуйидаги йўлларни келтириш мумкин:

- кичик гуруҳга ажратилганда ортиқча бўлиб қолган талабаларни, масалан талабалар сони 18 нафар бўлса, 4 нафардан 4 та кичик гуруҳга бўлинади, қолган 2 нафар талабаларни эса назоратчи-эксперт этиб тайинлайди, уларнинг вазифаси ўқитувчи билан биргаликда кичик гуруҳлар фаолиятини назорат қилиш, керак бўлса мавзуни тушунтиришда талабаларга ёрдам бериш ва баҳолаб боришдан иборат бўлади;
- дарснинг 3-босқичида билими пастроқ бўлган талаба бошқаларга ўзига тегишли бўлган мавзуни яхши тушунтириб бера олмаса, ўқитувчи ўша мавзуни тегишли кичик гуруҳда тўла ёритиб бериш мақсадида назоратчи-эксперт гуруҳидаги талабаларни жалб этади. Шунинг учун ўқитувчи назоратчи-эксперт гуруҳига энг иқтидорли, билими юқори бўлган талабаларни танлаши керак бўлади;
- дарс давомида талабалар ўзига тегишли мавзуни бир-бирларига тушунтириб бераётган пайтда бошқа гуруҳ талабаларига ҳалақит бермасликлари учун имкон даражада каттароқ аудиторияни танлаш ва кичик гуруҳларни бир-биридан узоқроқ ўтқазиш керак бўлади.

Хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки амалий машғулотларни “Бумеранг” методи асосида олиб борилганда талабаларнинг мустақил фикрлашлари ривожланади, чунки бунда талаба ўзи ўрганади ва бошқаларга ўргатади. Маъруза машғулотларида ҳамда бошқа манбалардан олинган мавзуга доир назарий билимлар мустаҳкамланади, дарснинг сифати ва талабаларнинг ўзлаштириш кўрсаткичлари сезиларли даражада ортади.

Бу билан бўлажак мутахассисларнинг мустақил ўқув фаолиятларини ривожлантириш, ўқув ва илмий ишларнинг муштараклигини таъминлаш, талабаларни илмий-тадқиқот ишларига жалб қилиш, шулар асосида етук мутахассис тайёрлаш сифатини оширишга эришиш мумкин бўлади [4].

Адабиётлар рўйхати:

1. Отамирзаев О.У ва бошқалар. Талабалар мустақил ишини тўғри ташкил этиш ва баҳолаш орқали таълим самарадорлигини ошириш. // “Таълим технологиялари” журнали. 2016 йил, 3-сон.
2. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик модули бўйича ўқув–услубий мажмуа. – Т.: ТДПУ, 2016 йил.
3. Отамирзаев О.У., Зокирова Д.Н. “Электр ёритиш” фанини ўқитишда “Бумеранг” методидан фойдаланиш. // “Замонавий таълим” журнали. 2019 йил, 3-сон.
4. Отамирзаев О.У., Зокирова Д.Н. Тажриба машғулотларини мустақил ўрганишга ундовчи таълим бериш орқали олиб бориш. // “Замонавий таълим” журнали. 2018 йил, 3-сон.

ФОРМИРОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ НАВЫКОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ В СРЕДНИХ ШКОЛАХ

Зебо Ботирова Хакимджон кызы
Старший преподаватель кафедры практического курса английского языка НамГУ

Аннотация. *В данной статье дается обзор двух этапов словарного запаса английского языка в средних школах - методической подготовки (отбор, распределение, классификация и презентация) словарного запаса английского языка и формирования (презентации, обучения) лексических навыков на английском языке.*

Ключевые слова: *методика, активная и пассивная лексика, методические критерии, потенциальный словарь.*

DEVELOPING OF LEXICAL SKILLS IN ENGLISH IN SECONDARY SCHOOLS

Zebo Botirova Hakimjon Kyzy
Senior Lecturer, Subdepartment of English Practical Course, Namangan State University

Abstract*. This article gives an overview of two stages of English vocabulary in secondary schools - methodical preparation (selection, distribution, classification and presentation) of English vocabulary and the formation (presentation, training) of lexical skills in English.*

Key words: *methodology, active and passive vocabulary, methodological criteria, potential dictionary.*

ЎРТА МАКТАБЛАРДА ИНГЛИЗ ТИЛИДА ЛЕКСИК КЎНИКМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Зебо Ботирова Хакимжон қизи
НамДУ Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o’qituvchisi

Аннотация. *Мазкур мақолада ўрта умумтаълим мактабларида инглиз тили лексикасини икки босқичда – Инглиз тили лексикасини методик тайёрлаш (танлаш,*

тақсимот, тасниф ва тақдимот) ҳамда Инглиз тилида лексик кўникмаларни шакллантириш (тақдимот, машқ қилиш) босқичлари ҳақида фикр мулоҳазалар баён қилинган.

Таянч сўзлар: *методика, актив ва пассив лексика, методик мезонлар,потенсиал луғат.*

Замонавий инглиз тили ўқитиш методикасида лексикани ўргатиш (Teaching Vocabulary) нутқ фаолияти турларини эгаллаш воситаси сифатида талқин қилинади. Инглиз тили ўқитиш методикасида лексикани ўргатиш икки босқичдан иборат жараён деб қаралади. Биринчиси, лексикани методик тайёрлаш *(танлаш (selection), тақсимот (distribution), тасниф (classification), тақдимот (presentation)* босқичи бўлиб, ушбу жараён мазкур соҳа методистлари томонидан амалга оширилади. Иккинчиси, лексик кўникмаларни шакллантириш босқичи бўлиб, ушбу жараёнда бевосита ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорликда фаолият кўрсатади [2].

Маълумки, ўқитиш методикасида ўқув шароитига қараб актив (репродуктив) ва пассив (рецептив) лексика танланади. Ўқувчи ўз фикрини баён этаётганида ва ўзгалар нутқида тушуниладиган луғат актив лексика дейилади. Идрок этиб тушунишга мўлжалланган луғат пассив лексик минимум ҳисобланади. Иккала луғат минимум ўқувчиларнинг реал лексикасини ташкил этади.

Лексикани танлашда қуйидаги методик мезонлар асос қилиб олинади: ҳисоб-китоб мезонлари, методик мезонлар, тилшунослик мезонлари [2; 3].

Ҳисоб-китоб мезонида сўзларнинг нутқда кўп қўлланиши ва кенг тарқалганлик хусусиятлари, методик мезонларда нутқ мавзулари ҳамда ўқитиш мақсадлари ҳисобга олинади. Тилшунослик мезонида эса сўзларнинг бирикиши, сўз ясаш имконияти, кўп маънолилик, услуб жиҳатдан чегараланмаганлик, синонимларни чегаралаш (яккалаш) ва гап тузишдаги иштироки кабилардан фойдаланилади.

Иккинчи мезонда муайян ўқув юртида чет тил ўқитишдан кўзланган мақсад ва танланган нутқ мавзулари асос бўлади. Маълумки, ўрта умумтаълим мактабларида инглиз тили ўқитишдан мақсад – ижтимоий-маиший, сиёсий, бадиий, ўқув-таълимий мавзу(Topics: About myself, Our Country, English Speaking Countries)даги матнларни ўқиш ҳамда дастур доирасида оғзаки нутқ малакаларини шакллантиришдан иборатдир. Мазкур ўқув юртида нутқ мавзулари (Topics) ва ўқитиш мақсадлари (Goals) лексик бирликларни танлашда асос вазифасини ўтайди.

Бирикиш мезонига кўра танланган сўз бошқалари билан имкони борича кўпроқ бирикмага кириша олиши, сўз ясаш мезонида улардан кўпроқ янги бирликлар ясалиши кўзда тутилади.

Услубда чегараланмаганлик деганда, нутқ фаолиятининг барча турлари ва турли мавзуларда ишлатиладиган сўзларни танлаш мезони тушунилади. Актив ва пассив лексик бирликлар биргаликда ўқувчиларнинг реал луғат бойлигини ташкил этади. Реал луғат махсус машқлар бажариш орқали ўзлаштирилади.

Инглиз тилини ўргатишда ўқувчи ҳали ўрганмаган, лекин ушбу луғатга дуч келганда ўқувчи уни она тили, иккинчи тил ёки чет тилнинг шаклий (формал),

маъновий (семантик) томонларининг ўхшашлиги туфайли билиб олишнинг ички имкони бор лексик бирликлар ҳам мавжуд. Улар потенциал луғат деб аталади.

Потенциал луғатни оғзаки (аудиоматнда) ёки ёзма (графикматнда) шаклда тақдим этилиши чоғида билиб олиш мумкин. Ўрта мактабларда потенциал луғат бойлигини ўргатиш масаласига алоҳида тўхталиш зарур. Чунки, мазкур ўқув юртида инглиз тили лексик материали устида бутун бир босқич давомида ишлашга тўғри келади. Сабаби ўрганилаётган жуда кўп инглиз тили лексик бирликларнинг она тили, иккинчи тил ва инглиз тилида шаклий-маъновий ва талаффуз томонларида ўхшашлик мавжуд бўлишини кузатиш мумкин.

Чет тил ўқитиш методикасида потенциал лексикани ўргатиш бўйича кўпгина методик тадқиқотлар бажарилган. Жумладан, тадқиқотчилар Ж. Жалолов ва Қ. Қиясова ўрганиладиган инглиз тили потенциал лексикасини қуйидагича таснифлашган: 1)шакли ва маъноси она тили, иккинчи тил ҳамда инглиз тилида ўхшаш сўзлар (architect – архитектор, cabel – кабел, cottage – коттеж, engineer – инженер, metal – метал); 2) шакли ва маъноси иккинчи тил ҳамда инглиз тилида ўхшаш, лекин она тилида фарқ қилувчи сўзлар (construction – конструкция, instrument – инструмент, style – стиль); 3) шакли ва маъноси иккинчи тил ҳамда она тилида ўхшаш сўзлар (бетон, зал, мебель, мрамор, пол, шахта ва ҳ.к.). Ўрта мактабларнинг турли босқичлари учун алоҳида-алоҳида лексик минимум танланиши лозим. Минимумда соҳавий лексикани фарқлаш зарурияти туғилади [4].

Лексикани методик ташкил қилишдаги навбатдаги тадбир унинг тақсимотидир. Тил материалини тақсимлаш масаласи методикада кам эътибор берилган соҳалардандир. Ўқув материалининг тақсимоти фан асосларини ўрганувчи фанларда осондан қийинга, шунингдек, бошқа дидактик принциплар асосида амалга оширилади. Инглиз тилида нутқ фаолияти турларининг ўрганилиши билан боғлиқ ҳолда тақсимланади.

Лексиканинг тақсимоти икки босқичда амалга оширилади: (1) актив ва пассив лексик минимумлар ажратилади; (2) репродуктив ва рецептив тарзда эгалланадиган лексика курслар бўйича тақсимлаб чиқилади.

Иккинчи босқич тақсимотида лексика янада кичикроқ миқдордаги гуруҳларга ажратилади: (1) лексика нутқий мавзулар бўйича дарсликда тақсимланади; (2) бир соатлик дарс учун сўзлар миқдори белгиланади; 3) машқлар материали сифатида лексик бирликлар тарқатилади.

Тақсимот жараёнида лексик бирликларнинг хусусиятлари, нутқнинг идрок этиб тушуниш (тинглаб тушуниш, ўқиш) ёки фикр баён этиш (гапириш, ёзув) турлари ҳисобга олинади.

Хуллас, лексиканинг тақсимоти қуйидаги методик мезонлар асосида амалга оширилиши мумкин: 1) лексикани нутқ фаолияти шакли(репродуктив ва рецептив)га қараб ажратиш, яъни нутқ талабига кўра тақсимлаш ёки ўқитиш мақсадларини назарда тутиш; 2) нутқий мавзуларни ҳисобга олиш; 3) ўқувчилар тил тажрибасини ҳисобга олиш; 4) тил ички интерференцияси(салбий таъсир)ни бартараф этишни кўзда тутиш; 5) янги грамматик ҳодисаларни таниш лексик

бирликларда, янги лексикани ўрганилаётган грамматик воситада бериш; 6) лексик қийинчиликларни бўлиб (чегаралаб) ўргатиш [2:134].

Учинчи босқич – лексиканинг таснифи ҳам чет тил ўқитиш методикасида муҳим тадбирлардан бири ҳисобланади. Методистлар ўқувчиларнинг тил тажрибасини ҳисобга олган ҳолда ўрганиладиган лексик бирликларни осон/қийин гуруҳларга ажратадилар.

Хорижда ва Ватанимизда лексик материал таснифи масаласи методистлар диққатини ўзига жалб қилиб келмоқда. Чет тил ўқитиш руҳшуноси Ҳ. Ҳьюз она тили билан таққослаш орқали чет тил лексикасини осон ва қийин гуруҳларга ажратган. Таниқли методист Ҳ. Палмер лексикани шакл, маъно ва қўлланиш юзасидан тасниф этган бўлса, Ч. Фриз сўзнинг гапдаги вазифаси ва бирикиш хусусиятидан келиб чиққан ҳолда таснифни амалга оширган, Р. Ладо лексикани тиллараро интерференцияга боғлаб тасниф этишни таклиф этган [2:135].

ХХ асрнинг олтмишинчи ва етмишинчи йилларида бу борадаги илмий маълумотлар умумлаштирилди, янги тасниф мезонлари ўртага ташланди. Собиқ Иттифоқда И. В. Рахманов, В. А. Бухбиндер, С. В. Калинина, Л. З. Якушина, М. С. Латушкина, Н. Б. Николаев, А. А. Залевская, М. А. Педанова, Ю. В. Гнаткевичлар турли нуқтаи назардан туриб, чет тил лексикасини тоифаларга ажратишган бўлса, ўзбек миллий аудиторияси учун Ж. Жалолов, Ҳ. Сайназаров, М. Чориевлар инглиз тили лексикасини таснифи устида тадқиқотлар олиб боришган. Юқоридаги тадқиқотларда чет тил лексикасининг хусусиятлари, тилнинг ички ва тиллараро интерференциясига боғлаб таснифлаш, актив ва пассив луғатга хос қийинчиликлар ўрганилган.

Лексикани методик тайёрлаш тадбири методистлар томонидан бажарилгач, унинг натижалари бевосита ўқитиш амалиётига жорий этилади. Ўргатишга тайёрланган лексик материал юзасидан дарсда ва бошқа машғулотларда муаллим иштироки ва раҳбарлигида ўқувчилар лексик кўникмаларни эгаллайдилар. Мазкур тадбир ўқитиш методикасида лексик кўникмаларни шакллантириш босқичи деб аталади. Лексик кўникмаларни шаклантириш уч босқичда ўтиши тадқиқотларда кўрсатиб ўтилган. Бунда биринчи босқич янги сўз билан танишишдан бошланиб, иккинчи босқичда лексика нутқ жараёнида қўллана бошлайди. Учинчи босқичда эса ўрганилаётган сўз нутқ фаолияти турларида, малака таркибида ўзлаштирилади.

Танишиш (презентация) босқичида сўзнинг шакли, маъноси ва қўлланиши юзасидан машқ бажарилади. Янги сўз маъноси билан танишиш, маълумки, икки усулда амалга оширилади: таржимасиз ва таржима воситасида.

Таржимасиз усул ички ва ташқи кўргазмалиликдан фойдаланилган ҳолда амалга оширилади. Янги сўз таржимасиз усул билан ўргатилганда нарса, расм, ҳатти-ҳаракат намойиш қилиниб, мана бундай топшириқлар берилади: сўз маъносини фаҳмлаб олинг (масалан, китоб кўрсатилади ва унинг номи инглиз тилида жумла тарзида айтилади). Таржимасиз усулда антоним, синоним, сўз ясаш элементлари, контекст, таърифлашдан ҳам фойдаланиш мумкин. Таржимасиз усул нарса номини, унинг ҳажми, ранги ёки ҳаракатни ифодаловчи сўзларни тақдим этишда кенгроқ қўлланилади.

Таржимадан фойдаланиш зарурати пайдо бўлганда, унинг икки туридан фойдаланиш мумкин: биринчиси оддий (сўзма-сўз) таржима, иккинчиси эса таржима-изоҳ. Бунда контекстдан ажратиб олинган янги сўзнинг бевосита таржимаси келтирилади ёки айрим ҳолларда таржима изоҳланади.

Янги сўз маъносини мустақил тарзда ўрганиш усули ҳам ўрта мактаб тажрибасида кенг тарқалган. Айниқса, ўқиш малакасини эгаллаш чоғида янги сўзларнинг кўп қисми луғат ёрдамида ўрганиш учун берилади.

Лексик бирликнинг маъноси билан танишиш уни ўзлаштириш йўлидаги биринчи босилган таълимий қадам, холос. Иккинчи босқичда сўзларни жонли нутқда қўллаш, яъни кўникма ҳосил қилиш учун лексик машқлар бажарилади. Машқларнинг асосий турлари: (1) луғат таркибини кенгайтириш, (2) рецептив ва репродуктив тарзда ўзлаштириш, (3) турли лексик бирликлар(сўз, турғун сўз бирикмаси, нутқ клишеси)ни ўрганишга бағишланади.

Янги лексик бирликнинг маъносини очиш (семантизация) чоғида қўлланиладиган методик усуллар сўзнинг хусусияти, актив/пассив лексикага оидлиги, таълим босқичи ва ўқувчилар савияси, сўзнинг тақдим этиладиган шакли(эшитиб ёки ўқиб идрок этиш), янги бирликни таништириш жойи (дарс, уй, дарслик луғат) каби омилларга боғлиқ бўлади.

Лексиканинг қўлланиши кўникма ҳосил қилишда охирги босқич бўлиб, маноси очилган ва нутқда ишлатила бошлаган сўзни нутқ жараёнида ишлатиш, яъни кўникмани малакага ўтиш давридир. Мазкур босқичда ўқувчи сўзни нутқда мустақил ишлата олишни ўрганади. Ўзлаштирганлик кўрсаткичи лексикани нутқда эркин қўллай олиш ёки таниб олишдан иборатдир. Фикр баён этиш ва тушунишда ўқувчи сўзни бемалол қўлласа, ёки таниб олса, бу лексик кўникмаларни шаклланганлигидан далолат беради. Ўзлаштирганлик кўрсаткичи лексикани нутқда эркин қўллаш ва таниб олишдан иборатдир.

Инглиз тили лексикасини ўрганишда нутқ бирламчи, лексика эса восита вазифасини бажаради.

Юқоридаги билдирилган фикрлар асосида ўрта мактаблар инглиз тили таълимида лексикани ўргатиш бўйича қуйидаги хулосаларни чиқариш мумкин:

- Ўрта мактабларда инглиз тили лексикасини ўргатиш нутқ фаолияти турларини эгаллаш воситаси сифатида талқин қилинади.
- Инглиз тилига ажратилган вақт(соатлар)нинг чегараланганлиги муносабати билан лексик минимум муайян методик принциплар асосида танлаб олинади.
- Лексик минимумни танлаш ўқитиш мақсадларига бўйсундирилади.
- Лексик минимумни танлашда ўқув юрти тури, жумладан, ўрта мактаб ҳам инобатга олинади, жумладан пассив лексик минимумга алоҳида эътибор берилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Гальскова Н. Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. – 2-е изд. – М.: АРКТИ, 2003. –205 б.
2. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996. –368 б.

3. Конышева А. В. Современные методы обучения английскому языку. –М.: Тетра Системс, 2003. –176 с.
4. Қиясова Қ. Қ. Таълим қарақалпоқ тилида олиб бориладиган касб-ҳунар коллежларида ихтисосий нутқ устида ишлашнинг методик асослари: Педагогика фан. ... номзодлик диссертацияси автореферати. –Т:. ТДПУ, 2004. –26 с.

MAVHUM (ABSTRAKT) SAN'ATNING MIYA FAOLIYATI VA TARBIYA BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI.

Isaqov Abduvohid Abduvahobovich
Namangan davlat universiteti, Tasviriy va amaliy san'at.kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mavhum(abstrakt) san'atning estetik tarbiya jarayonodagi foydali tomonlari to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, estetik tarbiyada tasviriy san'atning umumiy qabul qilingan tendensiyalari va abstrakt san'at o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda o'ziga xosliklarni aniqlash jaraynida vujudga kelayotgan ayrim muammolar va ularni hal etish uchun tavsiyalar berilgan.*

Tayanch iboralar: *o'zaro bog'liqliklar, miya faoliyati, mavhum san'at, faollik, tajriba, g'oya, ta'sir, anglash.*

НЕЙРОННЫЕ И ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ КОРРЕЛЯТЫ АБСТРАКТНОГО ИСКУССТВА

Исаков Абдувохид Абдувахобович
Преподаватель кафедры Изобразительного и прикладного искусства Наманганского государственного университета.

Аннотация: *В данной статье обсуждаются преимущества использования абстракного искусства в эстетическом воспитании. Есть также некоторые рекомендации по решению проблем, которые возникают в процессе определений коррелятов и особых характеров основных тенденций изобразительного искусства и абстракта.*

Ключевые слова: *корреляты, мозговой деятельность, абстрактное искусство, активность, ассоциация, эксперимент, теория, эффект, обработка.*

NEURAL AND BEHAVIORAL CORRELATES OF ABSTRACT ART

Isakov Abduvokhid Abduvakhobovich
Teacher of Pictorial and applied art department of
Namangan state university

Abstract: *This article discusses the benefits of using abstract art in aesthetical upbringing process. There are also some recommendations for solving problems that arise in the process of determination of correlation and features of pictorial and abstract art.*

Keywords: *correlation, brain activity. Abstract art, activity, association, experiment, theory, affect, recognition process.*

Основополагающим предположением современного исследования мозга является то, что каждое действие в психических (когнитивных) эмоциональных сферах коррелирует с соответствующей специфической моделью мозговой деятельности. Каждое действие представляет и генерирует полученный опыт. Эта тенденция характеризуется и в изобразительному искусству. Имея в виду, что искусство является основным инградиентом эстетического воспитания, иногда возникаются дискуссии по абстрактному искусству. Поэтому, нам требуется определять нейронные корреляты абстрактного искусства и пытаться извлечь принципы, лежащие в основе нейронной обработки этой формы искусства.

В исследовании изображений FMRI (*face MRI-из английского "МРТ лица"*) Кавабата и Зеки (Kawabata and Zeki, 2004) продемонстрировали, что различные категории живописи, как пейзаж или портрет, показал жизнеутверждающие активности в локализованных и специфичных для конкретной категории областях мозга[1]. Напротив, абстрактное искусство не активировало уникальную локализованную область мозга. Скорее, деятельность мозга, связанная с абстрактным искусством, появилась в областях мозга, которые были активны всеми другими категориями. Таким образом, при вычитании FMRI-сигнала, генерируемого абстрактным искусством, в отличие от генерируемых репрезентативным искусством различных типов (пейзаж, портреты, натюрморт), наблюдалась нулевая активность.

С другой стороны, поскольку абстрактное искусство состоит не из ясных хорошо охарактеризованных объектов, а состоит из основных визуальных элементов, таких как линии, пятна, цветные патчи и простые формы, такие как треугольники, можно ожидать, что деятельность, соответствующая этим основным элементы также появляются в других категориях деятельности мозга. В этом случае мы не должны ожидать уникальной деятельности мозга, связанной с абстрактным искусством, как это действительно было найдено Кавабатой и Зеки (2004), а также Вартаняном и Голем (2004). Иными словами, мы знаем, что мы рассматриваем абстрактное искусство, понимая, что это не относится к какой-либо другой конкретной категории искусства. А именно, мы изучаем абстрактное искусство как исключения.

В дополнение к исследованиям МРТ, абстрактное искусство также изучалось поведенческими методами и методами электроэнцефалографии (ЭЭГ) с прямым напряжением.

Сочетая поведенческий и низкоразрешающий электромагнитный томографический анализ продемонстрировал что наблюдатели предпочитают абстрактные и репрезентативные картины одинаково[2]. Однако абстрактные стимулы вызвали более позитивные эмоции. Изобразительные работы классифицировались как более интересные, лучше понимались и вызывали больше ассоциаций (как субъективно наблюдатели наблюдали). Информация о картине (например название, имя художника, используемая техника) увеличивала понимание каждого стиля (как репрезентативного, так и абстрактного), но не меняла других параметров оценок (т. е. предпочтений, ассоциаций, эмоций). Сравнение активности мозга в ответ на репрезентативные и абстрактные картины показало

значительно более высокую активацию для произведений изобразительного искусства в нескольких областях мозга, преимущественно в левой лобной доле и в двухстороннем порядке в височной, лобной и теменной долях, лимбической системе, изолинии и других областях. Увеличение активности мозга в ответ на репрезентативное искусство было в основном связано с процессом распознавания объектов и активизацией систем памяти и ассоциаций. Представление стилистической информации, казалось, уменьшало активацию коры, как для представления, так и для абстрактного искусства. Авторы пришли к выводу, что информация об изделиях, по-видимому, облегчает нейронную обработку стимулов.

Идея о том, что знания и опыт облегчает обработку зрительных стимулов, также была очевидна в работе Сольсо[3]. Сольсо контролировал мозговую деятельность портретиста (через fMRI), когда он рисовал лица, и сравнивал мозговую деятельность художника с деятельностью новичка, который рисовал те же лица. Мозговая активность художника показала меньшую активность в областях обработки лица, чем активность нехудожников. Этот более низкий уровень активации области распознавания лица художника указывает на то, что он может быть более опытным в обработке черт лица, чем новичок.

Из приведенных выше экспериментов можно сделать вывод, что абстрактное искусство, по-видимому, уменьшают активность коры головного мозга по сравнению с соответствующими контрольными средствами (изобразительное искусство, стилистические знания). Эти результаты показывают, что анализ абстрактного искусства вызывает менее очаговую активацию мозга.

В исследовании, проведенном Вартаняном и Голем (2004), приводятся некоторые доказательства того, что снижение субъективного эстетического предпочтения коррелирует со сниженной активностью в определенных областях мозга, связанных с системами вознаграждения, тогда как большее эстетическое предпочтение вызвало большую активность в других областях мозга, связанных с эмоциональной валентностью и внимание. Они обнаружили, что в целом репрезентативные картины предпочтительнее абстрактных картин.

Утверждается, что во время обработки художественных произведений происходят два разных аспекта: обработка графического содержания и обработка художественного стиля. В исследовании, посвященном связанному с этим потенциалу (ERP), обнаружили, что обработка стиля начинается позже и развивается медленнее, чем обработка контента (50 мс против 10 мс, соответственно). Они приписывают эту временную разницу при обработке произведения искусства тому факту, что классификация контента чрезвычайно переучивается людьми как часть ежедневной классификации и распознавания предметов, тогда как анализ стиля-это визуальная задача, которую многие почти никогда не испытывали. Они предлагают, что стилистическая информация может обрабатываться как абстрактный объект, что требует некоторой обработки высокого уровня, а не комбинации низкоуровневого внедрения функций. Эта работа также поддерживает представление о том, что специфичная для стиля информация и художественный опыт будут способствовать и влиять на восприятие абстрактного искусства (больше,

чем изобразительного искусства). Если это действительно так, то абстрактное искусство, которое в основном раскрывает стиль работы, обрабатывается в основном через маршруты анализа стиля мозга; маршруты, которые менее знакомы и меньше используются большинством людей. Другими словами, абстрактное искусство вводит нас в незнакомую (или менее знакомую) ситуацию.

Еще одна особенность, которая может быть улучшена при взгляде на абстрактное искусство, - это то, насколько глобальным является образец наблюдения, когда на графической сцене отсутствуют конкретные узнаваемые объекты. Такое отсутствие объектов обеспечивает более равномерный глобальный взгляд. Например, Пол Тайлор исследовал отслеживание глаз зрителей, оценивая картины Джексона Поллока, показывая, что глаза зрителей склонны сканировать довольно равномерно на поверхности всего холста. Это открытие в явном противоречии с классическими исследованиями отслеживания глаз репрезентативного искусства, в результате чего глаз стремится смотреть главным образом на характерные черты живописи (например, глаза, нос, деревья, подпись и т. д.). Работа Тейлора поддерживает представление о том, что при анализе абстрактного искусства система визуального восприятия менее вовлечена в фокус и сходящийся взгляд, а скорее к более однородному взгляду[4]. Опять же, менее знакомая ситуация в нашем повседневном опыте. Другое исследование показало, что в изобразительном искусстве глаза фиксируют дольше фигуративные детали, чем абстрактные картины, вероятно, из-за отсутствия фигуративных элементов на живописной сцене. Это справедливо как для экспертов, так и для непрофессионалов.

Литература:

1. Нейронные и поведенческие корреляты искусства. Х.Кавабата и С.Зеки. Нейропсихологический журнал (№91). 2004.
2. К.А.Ленгер. Он-лайн публикация.2007.
3. Р.Л.Сольсо. Когнитив невро-наука искусства. Журнал естественных наук. 2000.
4. Ричард Тайлор. “Мир хаосов Жексона Поллока”. Публикация из журнала “Scientific American”. 2003

ФИЗИКА ЎҚИТУВЧИСИНИНГ ТАЪЛИМГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВИ

Бекназарова Замира Фармоновна,
“Физика ва кимё” кафедраси катта ўқитувчиси
ТИҚХММИ

Аннотация. *Мақолада муаллиф томонидан физика ўқитувчисини тайёрлашга инновацион ёндашув, инновацион ва анъанавий методларнинг аҳамияти, интерфаол методлар орқали физика фанидан “Газларда электр токи” мавзусини ўқитишда технологик харита орқали ўқитувчи ва талаба фаолиятининг мазмун-моҳияти очиб берилган.*

Калит сўзлар: *таълим, бўлажак мутахассис, инновацион технология, интерфаол метод, ўқитувчи, талаба, технологик харита.*

ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ УЧИТЕЛЯ ФИЗИКЕ
INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING PHYSICS

Бекназарова Замира Фармоновна
Учитель письма "Физика и химия"
TIQXMMI

Аннотация. *В статье автор объясняет инновационный подход к подготовке учителя физики, важность инновационных и традиционных методов, а также характер деятельности учителя и ученика с помощью технологической карты для преподавания предмета «Электричество в газах» с помощью интерактивных методов.*

Ключевые слова: *образование, будущий специалист, инновационные технологии, интерактивный метод, преподаватель, студент, технологическая карта.*

Abstract. *In the article, the author explains the innovative approach to training a physics teacher, the importance of innovative and traditional methods, and the nature of teacher and student activity through a technology map to teach the subject "Electricity in Gases" through interactive methods.*

Keywords: *education, future specialist, innovative technology, interactive method, teacher, student, technological map.*

Мамлакатимиз мустақилликка эришгач, барча соҳалар сингари таълим тизимида ҳам эски ёндашувлардан бутунлай воз кечиб, янгича тамойилларга миллий қадрият ва анъаналаримизга жаҳоннинг илғор тажрибаларига асосланиб, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» ва унинг узвий давоми бўлган «Таълимни ривожлантириш дастури» бугунги кунда ҳаёт синовидан ўтиб, ўз ҳосилини бераётган, халқаро жамоатчилик томонидан эътироф этилаётган янги педагогик ва инновацион технологияларидан фойдаланишда педагогик кадрларнинг ўз ишига бўлган масъулиятини тубдан ўзгартирмоқда [1].

Бугунги кун таълим тизимида физика ва астрономия таълим йўналишида бакалавр ўқитувчиларини тайёрлашда замонавий билимлар билан қуролланган амалий малака ва кўникмага эга мутахассислар тайёрлашда назария ва амалиёт уйғунлигини таъминлаган ҳолда уларда инновацион таълим технологияларини сингдириш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади.

Инновацион (ноанъанавий) ўқитиш методлар- талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини фаоллаштиришга қаратилган бўлиб, уларни фаол ва интерфаол турларига бўлинади.

Анъанавий методлар деганда – таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган ва таълим олувчилар нисбатан пассив иштирок этадиган методлар тушунилади [2, 43].

Ўқитиш тизимида қўлланаётган турли технологиялар билан бир вақтда миллий қадриятларга асосланган “Миллий модел”ни яратиш муҳим аҳамият касб этади. Бунинг замирида узоқ йиллик тарихий–илмий, педагогик тажрибага эга бўлган шаклланиб келган таълим технологиясидан фойдаланиш бизнинг фикримизча, ўзининг истиқболини таъминлашига шубҳа йўқ. Шу асосда бўлажак бакалавр ўқитувчиларини тайёрлаш замон талабларига жавоб бера оладиган касбий маҳорат, изланувчанлик ҳамда ташаббускорлик каби хислатларга эга бўлишни тақозо этади. Шу билан бирга ўз фанини чуқур билиши, бу фаннинг ривожланиш истиқболини таҳлил қила олиши ҳамда ўз билимларини инновацион таълим технологиялари асосида ўргатиш кўникмаларига эга бўлиши, ҳар доим мустақил ишлаб билим ва малакасини замон талаби асосида ошириб бориши зарур. Юқоридаги талаблардан келиб чиққан ҳолда физика дарсларида фан ўқитувчисининг ўз машғулотларини педагогик анъанавий усулларда, интерфаол методларда мақсадли равишда олиб бориш таълимнинг самарадорлигини оширади.

Машғулот самарадорлигини оширишда физика фани ўқитувчиси мавзунинг мақсадини белгилаб олиши, ноанъанавий ва анъанавий дарсларнинг фарқини кўра билиши натижасида ўзлаштириш кўрсаткичини кўтариш мумкин. Ноанъанавий машғулотлардан мақсад–бўлажак физика ўқитувчисининг ўзлаштириш кўрсаткичини кўтариш учун физика фанини ўқитишда, лаборатория ёки семинар машғулотларини янада мазмунли, қизиқарли ва тушунарли ўтказишда педагог ва бўлажак физика ўқитувчиси фаолиятига янгилик киритиб, интерфаол методлардан фойдаланиш ҳамда уларни тез ва самарали баҳолашга эришишдир.

Интерфаол методи – бу “inter” -бу ўзаро, ”act” –ҳаракат қилмоқ) маъноларидан келиб чиқиб, ўзаро ҳаракат қилмоқ, ҳамкорлик мулоқот тартибида бўлишни англатади.

Интерфаол методлар деганда – таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган методлар тушунилади. Бу методлар қо`лланилганда таълим берувчи таълим олувчини фаол иштирок этишга чорлайди. Таълим олувчи бутун жараён давомида иштирок этади [2, 49].

Шу билан бирга ноанъанавий машғулотлар ўқув жараёнида бўлажак физика ўқитувчисини мустақил фикрлай олишга, ўзлари хулоса қилиб, ўз–ўзини ҳамда гуруҳни баҳолай олишга ўргатади.

Ўқитувчи томонидан ҳар бир машғулотни яхлит ҳолатда кўра билиш ва уни тасаввур этиш учун машғулот жараёнини лойиҳалаштириб бориши керак. Қуйида биз касб–ҳунар коллежи ўқувчилари учун физика фанидан “Газларда электр токи” мавзуси бўйича ўтказиладиган дарснинг олдиндан тахминий лойиҳалаштирилган технологик харитасини тавсия этамиз.

Технологик харита- жараённи босқичма-босқич усулда ифодалаш, бунда мақбул бўлган воситалар кўрсатилади (бу одатда график шаклда ифодаланади) [3, 237].

Технологик харита: Мавзу: “Газларда электр токи”.

Мақсад: газларда электр токи, унинг моҳияти, аҳамияти, газ разрядларининг турларини тушунтириш.

Вазифалар: талабаларда мавзуга нисбатан қизиқиш уйғотиш, уларда мавзу асосида билим ва кўникмаларини шакллантириш.

Ўқув жараёнини ташкил этиш	Мавзуга оид тарқатма материаллар тайёрлаш, гуруҳларга бўлиш, ўзлаштирилганлигини назорат қилиш, уларнинг билимини баҳолаш
Ўқув жараёнинингмазмуни	Газларда электр токининг табиати, уларнинг мазмуни ва моҳияти,табиатда ва техникадаги амалий аҳамияти ҳамда қўлланилиш соҳалари
Ўқув жараёнини амалга ошириш технологияси	**Услуб**: оғзаки баён қилиш, ФСМУ технологияси. **Шакл:** Суҳбат, мунозара, кўргазмавийлик ҳамда кичик гурҳлар ва жамоада ишлаш. **Восита**: Тарқатма материаллар, матнлар, анкета бланкалари. **Усул**: Тайёр ёзма материаллар ва чизмалар асосида. **Назорат**: оғзаки назорат, савол–жавоблар, кузатиш, ўз–ўзини назорат қилиш. **Баҳолаш**: рағбатлантириш, балли тизим асосида баҳолаш.
Кутиладиган натижалар	**Ўқитувчи**: мавзуни қисқа вақт ичида барча ўқувчилар томонидан ўзлаштирилишига эришади, уларнинг фаоллигини оширади, дарсга нисбатан қизиқишини уйғотади. Бир машғулот жараёнида барчани баҳолайди. Ўз олдига қўйган мақсадларига эришади. Талабалар томонидан тайёрланган мустақил ишларни қабул қилиш, ўрганиш ва баҳолаш. Жамоа ўртасида ўзаро ҳамкорликни савол–жавоб орқали амалга оширади.
	Талаба: Янги билимларни эгаллайди, эслаб қолиш қобилияти кучаяди, ўз–ўзини назорат қилишга ўрганади, нутқи ривожланади ва энг асосийси қисқа вақт ичида кўп маълумотга эга бўлади.

Технологик хариталар ўқув жараёнида инновацион таълим технологияси ва замонавий методларнинг қўлланилиши физика фанининг ҳар бир мавзуси, ҳар бир машғулот бўйича тузилган бўлиб, фанни яхлит ҳолда тасаввур этишга ёндашади. Бугунги кунда таълим жараёнида илгор педагогик техналогияларни жалб этиш натижасида физикани ўқитиш методларидаги ранг–баранглик унинг динамик ривожланишини таъминламоқда. Унинг самарасида таьлим самарадорлиги ошиб, сифат кўрсаткичи яхшиланмоқда.

Таълимни инновацион ривожлантиришда бугунги таълим тизимида индивидуал ёндашув муҳим аҳамиятга эга. Физика фанини ўқитишда таълим узвийлигини таъминлаган ҳолда гуруҳларга бўлиб ўқитиш маълум маънода сифат кўрсаткичини оширади. Гуруҳларга бўлишда тенг тақсимот бўлиши шарт, яъни ҳар бир гуруҳда фаол талабалар тенг бўлиниши керак. Бу усулнинг афзаллиги шундаки, гуруҳлар орасида рақобат шаклланади ва жараён фаоллашади, бунда кам ўзлаштирадиган талабалар ҳам фаол талабалар ёрдамида гуруҳ мавқеини ҳимоя қилиш учун фаол ҳаракатга киришади. Натижада, биринчидан гуруҳлар орасида соғлом муҳит яратилади, рақобат вужудга келади, мавзуни ўзлаштириш сифати ортади [4].

Хулоса тариқаси шуни таъкидлаш жоизки, таълимнинг самарадорлигини ошириш билан биргаликда физика ўқитувчиларини изланишга, ҳар бир мавзуга ижодий ёндашишга, масъулиятни ҳис қилишга, илмий адабиётлардан унумли фойдаланишга, шу билан биргаликда илмий–тадқиқот ва педагогик изланишларни олиб боришга ундайди. Энг асосийси, бўлажак физика фани ўқитувчиси фанни ўқитишда фанлараро интеграцияни қўллай олиши, такомиллаштириб бориши, уни ўқув жараёнига тадбиқ этиб боришда касбий маҳоратини ривожлантириши лозим.

Умуман олганда фан ўқитвчисини тайёрлашда нафақат илмий–амалий малака ва кўникмани шакллантириши, балки янгиликка интилувчан техник мукаммал шахсларни тайёрлаш келажакда юртимиз истиқболини белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 20-29.

2.Dexkanova M.U. Kasb ta`limi metodikasi. O`quv qo`llanma. - T.: ToshTYMI. 2013. - 148 bet

3. Мусаханова Г., Ахметова К.. «Умумий педагогика» фани (Маърузалар матни) - Т.,ТДИУ, 2012. – 279 бет.

4. Поршнев С. В. Персональный компьютер в вузовском курсе физики: его место, программное обеспечение // Учебный эксперимент в высшей школе. – 1998. –№ 2.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ МУСТАҚИЛ ФИКРЛАШ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.

Қамбаров Мусохон Мухторжанович, НамДУ катта ўқитувчиси

***Аннотация**:Мақолада бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини риожлантириш муаммосига инновацион ёндошув асосида моделлаштириш билан боғлиқ масалалар, амалий тавсиялар ёритилган. Муаллиф таълимий методлардан фойдаланган ҳолда мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг педагогик моделини яратиш имкониятларини кўрсатиб берган.*

***Калит сўзлар:** модел, моделлаштириш, фикрлаш маданияти, инновация, инновацион жараён, инновацион фаолият, инновацион тизим, инновацион муҳит,*

мантиқий фикрлаш, инновацион режа, инновацион гоя, инновацион, таълим, инновацион технология, инновацион таълим, мустақил фикрлаш, ижодий жараён.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РАЗВИТИЯ МОДЕЛИ РАВИТИЯ КУЛЬТУРЫ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Камбаров Мусохон Мухторжанович, старши преподаватель НамГУ

Аннотация. *Рассматриваются вопросы, связанные с проблемой развития культуры самостоятельного мышления у учащихся на основе моделирования путем инновационного подхода, представлены практические рекомендации. Показаны возможности создания педагогической модели культуры самостоятельного мышления.*

Ключевые слова: *модел, моделирование, культура мышление, инновация, инновационный процесс, инновационное деятельности, инновационное системе, инновационная среда, логическое мышление, инновационный план, инновационная идея, инновационное обучение, инновационная технология, самостоятельное мышление, творческий процесс.*

IMPROVEMENT OF THE MODEL OF DEVELOPMENT OF CULTURE OF INDEPENDENT THINKING OF FUTURE TEACHERS

Kambarov Musokhon Mukhtorjanovich, senior teacher NamSU

Annotation. *The article illustrates practical proposals and issues of innovative approaches to modeling of independent thinking discipline of future teachers. The author demonstrates the opportunities of pedagogical modeling of formation of independent thinking discipline applying educational methods.*

Key words: *model, modeling, thinking discipline, innovation, innovative process, innovative, innovative activity, innovative system, innovative atmosphere, logical thinking, innovative idea, innovative education, innovative technology, innovative education, independent thinking, creative process*

Таълим босқичларига инновацион педагогик технологияларнинг жадал кириб келганлиги XXI асрнинг тезкор ахборот технологиялари барча жабҳаларни қамраб олганлиги билан изоҳланади. Бугунги педагогдан ўз касбий малакасини муттасил такомиллаштириб бориш билан бирга инновацион педагогик технологиялар яратиш, уларни таълим жараёнида қўллашга лаёқатли бўлиш талаб этилмоқда.

Таълим технологиялари алгоритмларидан фойдаланиш бўлажак мутахассисда мустақил фикрлаш маданиятининг таркибий қисмларини шакллантиришга ёрдам беради. Мустақил фикрлаш маданияти ривожлантиришда билишнинг деярли барча турлари иштирок этиши шарт. Билиш жараёнида қиёсий-тарихий, оқибатдан сабабга бориш, кузатиш, хулоса чиқариш, индуктив ва дедуктив ёндашув, умумлаштириш, яхлитни қисмларга ажратиш ва таҳлил каби бир қатор таълимий методлардан фойдаланилади.

Мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришда юқорида номлари келтирилган ўқитиш усуллари 1) талабаларда ижодий қобилиятларни ривожлантириш; 2) уларда билиш ва касбий фаолиятга қизиқишни шакллантириш мақсадларида фойдаланилади[4].


Мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг фалсафий, тарихий, психологик-педагогик ва маданиятшунослик билимлари тизимидаги назарий жиҳатларни ўрганиш мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини яратиш имконини беради.

Маълумки, модел (лотинча modulus – ўлчов, намуна) – бу табиат ва жамиятдаги бирор ҳодиса ёки жараённинг схемаси, тасвиридир. Шу соҳа олимларининг кўпчилиги моделни яратиш жараёнига тизимни муваффақиятли тасвирлаш шартлари сифатида қарашади.

Бизнинг ҳолатимизда мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришга йўналтирилган ўқитиш намунаси сифатида – МОДЕЛ сўзи, мустақил фикрлаш маданиятини ривожланганлиги даражасини ўлчаш мезони сифатида МОДУЛ ишлатилади.

Юқорида келтирилган фикрлардан кўриниб турибдики, мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий таъминоти талаба шахсининг интегратив педагогик ва ижтимоий-маданий компонентидир. У қарашлар воситасида фаол ўқитиш муҳитини яратади, сермаҳсул ижодий мулоқотни кўзда тутади.

Моделлар характерига кўра предметли ва ахборотли коммуникатив моделлаштиришга бўлинади. Шартли равишда улар асл объектнинг белгиланган функционал хусусиятларини ифодалайди. Жадваллар, чизмалар, формулалар каби моделлар белгили моделлаштириш сифатида намоён бўлади. Моделлаштирилиши лозим бўлган шахсга қаратилган таълим характери ва хусусиятларига кўра, аввало, унинг мазмуни (унда кечадиган тарбиявий жараёнларга амал қилиниши) моделлаштирилади. Мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг фалсафий, тарихий, психологик-педагогик ва маданиятшунослик билимлари тизимидаги назарий жиҳатларини ўрганиш эса мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини такомиллатириш имконини беради. Маълумки, модел (Модель –лотинча modulus – ўлчов, меъёр кенг маънода бирор объект ёки объектлар тизимининг образи, нусхаси ёки намунаси) – бу табиат ва жамиятдаги бирор ҳодиса ёки жараённинг схемаси, тасвиридир. Шу соҳа олимларининг кўпчилиги моделни яратиш жараёнига тизимни муваффақиятли тасвирлаш шартлари сифатида қарашади [2]. Бизнинг ҳолатимизда мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришга йўналтирилган ўқитиш намунаси сифатида – модел сўзи, мустақил фикрлаш маданияти ривожланганлиги даражасини ўлчаш мезони сифатида ишлатилади (1-расмга қаранг):



1-расм. Мустақил фикрлаш маданияти ривожлантириш модели

Ушбу моделнинг афзалликлари, мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришнинг компонентлари тизимлаштирилганлиги, ўқитувчи ва талаба

фаолиятини технологик тизимга солинганлиги бўлиб, бошқа моделлардан фарқли томони педагогик ва психологик билимлар ўзаро уйғунлик асосида такомиллаштирилганлигида акс этади.

Олий таълим шароитида мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш бўйича шахс фаолиятини педагогик моделлаштириш ва амалга ошириш ҳар қандай тўлақонли фаолият учун уч таркибий қисм: эҳтиёж-мотивация, ахборотли ижро ва рефлексив баҳодан иборатлигини ҳамиша кўзда тутиши лозим.

Шундай қилиб, олий таълим муассасаларида мутахассисларнинг касбий тайёргарлик тизимида мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш жараёнини педагогик моделлаштириш, уни шахс тарбиясига йўналтирилган таълим тизимида қўллаш педагогик эҳтиёжга айланиб бормоқда.

Мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини яратиш ва педагогик тизимни лойиҳалаштиришда шахснинг индивидуал хусусиятлари ва қобилиятларини ривожлантириш[4], касбий йўналганлик, ижтимоий-маданий тажрибани ўрганиш[6], ижтимоий-тарихий маданиятни ўзлаштириш [5] масалаларини тадқиқ этган олимлар қарашларига таянилди

Олий таълим шароитида мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш бўйича шахс фаолиятини педагогик моделлаштириш ва амалга ошириш ҳар қандай тўлақонли фаолият учун уч таркибий қисм: эҳтиёж-мотивация, ахборотли ижро ва рефлексив баҳодан иборатлигини ҳамиша кўзда тутиши лозим.

Шундай қилиб, олий таълим муассасаларида мутахассисларнинг касбий тайёргарлик тизимида мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш жараёнини педагогик моделлаштириш, уни шахс тарбиясига йўналтирилган таълим тизимида қўллаш педагогик эҳтиёжга айланиб бормоқда.

Бунинг учун, аввало, мутахассис тайёрлашда мустақил фикрлаш маданиятинини ривожлантиришнинг мезонларини белгилаб олиш зарур бўлади. Шу асосда бўлажак ўқитувчиларни давр талабига жавоб бера оладиган мутахассис сифатида тайёрлашга хизмат қиладиган талабларни инобатга олган модел лойиҳаси яратилади[6].

Мазкур мезонлар юзасидан олиб борилган тажриба-синов натижалари шуни кўрсатдики, бу жараёнда қатнашган ҳар саккиз респондентдан биттаси – асосий фикр ривожлантирилишини, ҳар уч респондентдан бири эса – барча фикрлар ривожланишининг моҳиятини танлаган. Бу ўқув жараёнида ижодий салоҳиятни назарда тутмайдиган, репродуктив масалалардан фойдаланиш натижасидир. Мазкур оқибатнинг ўзидан олдин унга олиб келувчи сабабларни бартараф қилиш мақсадида мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш модели яратилди. Тизимдаги айрим масалаларнинг у ёки бу турга мансублиги, шахснинг мазкур муаммони ҳал этиш қобилиятига боғлиқ бўлгани учун, шартлидир.

Таклиф этилаётган модель мустақил фикрлаш маданиятининг асосий таркибий қисмларини ривожлантириш учун мантиқий ва диалектик фикр меъёрларини ўзлаштиришга йўналтирилган. Бу тизим қуйидаги тамойилларга асосланган: масалаларни мантиқий фикрлаш асосида таснифлаш; фанлараро

алоқаларга эришиш; масалалар мазмунининг касбга йўналтирилганлиги; маданиятга ундаш; мустақил билим олишлар ҳисобланади

Педагогик йўналишларда «Тарбиявий ишлар методикаси» ўқув фанини ўқитишда мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш тамойилларига амал қилиш кўзланган мақсадга мувофиқдир. Бунинг учун ўқув машғулотининг таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларини амалга оширишда фикрлаш самарадорлигига эришиш тақозо этилади.

Мантиқий фикрлаш шакллари бўйича масалаларни таснифлаш асосий фикр тизимини ажратиш, уларни машқ қилдириш ва рефлексга айлантириш имконини беради. Турғун фикрлашнинг (тушунча, муҳокама, хулоса чиқариш) мавжудлиги ва фикр операциялари (таҳлил, синтез, абстрактлаштириш, таққослаш, умумлаштириш, таснифлаш ва ҳк.)ни, шунингдек, улар асосида ётган қонун-қоидаларни эгаллаш мустақил фикрлаш ривожланганлигидан далолат беради. Амалиёт даврида талабалар буни англашлари учун бу мантиқий жараён тўла амалга ошириладиган ёки интегратив қўлланадиган ўқув материалларидан намуналар келтириш зарур.

Мустақил фикрлаш маданиятининг билиш жараёнида намоён бўлиши учун фикрловчи шахснинг мақсадини таъминлайдиган педагогик вазият топшириқлари типологиясидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. У воқеа-ҳодиса ёки жараённинг ҳар томонлама тавсифи, аҳамияти, воқеа-ҳодисаларнинг юзага келиш сабаблари ва шароитлари ҳамда далиллар ва жараёнларни аниқлашни; шахслар ва синфлар фаолиятининг ижтимоий мотивларини ҳисобга олишни; зарур тамойилга риоя қилишни, ҳодисаларга генетик ёндашувни, тараққиёт даврларини англашни, илмий тараққиёт йўналишларини англашни, билишнинг мезони сифатида амалиётни тан олиш ва билимларни амалиётга жалб қилишни, якуний хулоса чиқаришни, қарашларни таққослашни ўз ичига олади.

Талабаларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантиришга йўналтириш жараёнида масаланинг дидактик ва касбий аҳамияти; мазкур ўқув фани учун турли масалалар оптималлиги; ҳар бир ўқитиш босқичига мослиги, мақсадга мувофиқлиги, масалани ечиш жараёнининг кўп вариантлилиги; асосий тушунчаларни босқичма-босқич шакллантириш каби шартлар мавжуд [6], (Буни 1-расмда кўриш мумкин).

Мураккаблик даражасига кўра бир неча босқичга бўлиб ўрганиладиган масалалар ҳал этилиш имконига ҳам эга. Масалан:

– тарихийлик тамойили масалаларни тарихий билимлардан фойдаланиб ечишни талаб қилади. Бу ижодий фикрлаш ва илмий дунёқараш шаклланишига, ҳар хил нуқтаи назарларни ҳисобга олишга, сабаб-оқибат боғланишларини аниқлашга ёрдам беради. Баъзи далиллар таълим жараёнига қизиқарлилик элементини олиб кириши мумкинки, бу ҳам мустақил фикрлаш маданиятининг ривожланишига ёрдам беради;

– фанларнинг ички алоқаларини амалга ошириш тамойили маълум фанни ўрганиш босқичларида унинг турли бўлимлари орасидаги зарурий алоқаларни аниқлашга хизмат қилади. Бунда, бир томондан, талабалар ўқитишнинг маълум

босқичида ечиладиган масаладан қачон ва қаерда фойдаланишни ҳисобга олишлари, иккинчи томондан, янги масалани ечишда илгари ўрганилган қайси материалга таяниш мумкинлигини билишлари талаб этилади;

– фанлараро алоқани амалга ошириш тамойили турли ўқув фанларига билиш фаолияти аспектида қараш ва шу асосда яхлит муаммони келтириб чиқаришни таъминлайди. Бу эса, пировард натижада, мустақил фикрлаш маданиятининг ривожланишига жиддий таъсир этади;

– касбий йўналганлик тамойилидан мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш жараёнида фойдаланишдан мақсад бўлажак ўқитувчи фаолиятининг маълум сифатларини ривожлантиришга йўналтиришдир;

– мустақил билим олиш тамойили талабани мақсадга йўналган билиш фаолиятини таъминлайди. Мазкур тамойил туфайли амалга ошадиган қўйилган масаланинг ечимини излаш, мақсадини аниқлаш, мустақил хулосалар чиқаришга интилиш, фан-техника, маданиятнинг турли соҳаларида, сиёсий ҳаёт ва бошқа жабҳаларда изчил билим олиш кабилар мустақил фикрлаш маданияти ривожланганлигини кўрсатади;

– маданиятга мувофиқлик тамойилига кўра вазифаларни ҳозирги замон маданиятига мурожаат қилмасдан туриб ечиш имконсиз. Бу мурожаатда аниқ шароит, жой, вақт мувофиқлигини ҳисобга олиш лозим[4].

Зикр этилган тамойилларнинг барчаси бўлжак ўқитувчиларнинг мустақил фикр эгаси бўлишлари, бу мустақилликдан амалий жараёнда унумли фойдалана олишларини таъминлайди. Мустақил фикрлаш кўникмасини ўқув предмети ўзига мослаштириб, мустақил фикрлаш малакасига – мустақил фикрлаш маданиятига айлантиради. Акс ҳолда предмет талаба томонидан ўзлаштирилмай, шунчаки ёдлаб олинади, холос.

Мустақил фикрлаш маданиятининг билиш жараёнида намоён бўлиши учун фикрловчи шахснинг мақсадини таъминлайдиган педагогик вазият топшириқлари типологиясидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. У воқеа-ҳодиса ёки жараённинг ҳар томонлама тавсифи, аҳамияти, воқеа-ҳодисаларнинг юзага келиш сабаблари ва шароитлари ҳамда далиллар ва жараёнларни аниқлашни; шахслар ва синфлар фаолиятининг ижтимоий мотивларини ҳисобга олишни; зарур тамойилга риоя қилишни, ҳодисаларга генетик ёндашувни, тараққиёт даврларини англашни, илмий тараққиёт йўналишларини англашни, билишнинг мезони сифатида амалиётни тан олиш ва билимларни амалиётга жалб қилишни, якуний хулоса чиқаришни, қарашларни таққослашни ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори.-Т.: Шарқ нашриёт-матбаа концерни, 1998.
2. Ўзбек миллий энциклопедияси. 5-жилд. – Т.:Ўзбек миллий энциклопедияси, 2003. – 704 б.
3. Ўзбек миллий энциклопедияси. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси 2003. Б.704.

4. Очилов М., Очилова Н. Ўқитувчи одоби.–Т.,Ўқитувчи, 1997.–136 б.3. Подласий И.П. Педагогика. – Москва, Висщая образования, 2008г
5. Мусурманова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
6. Қамбаров Бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш Услубий қўлланма. Наманган, 2011
7. Организация учебного процеса – http://www.courier.com.ru/top/content/mi1 .htm/

ХАРАКТЕРИДА ИСТЕРИК БЕЛГИЛАР БЎЛГАН БОЛАЛАР ТОИФАЛАРИ ВА УЛАРНИ ЎҚИТИШ.

Хусанов Аъзамжон Ахмаджанович НамДУ катта ўқитувчиси.

Аннотация:*Ушбу мақолада характерида истерик белгилари бўлган болалар тоифалари ва улар билан олиб бориладиган педагогик-психологик коррекцион ишлар мазмуни ёритиб берилган. Қолаверса мақолада автор томонидан характерида истерик белгилари бўлган болаларни амалий жихатдан кузатган жараёнлари тўгрисида маълумотлар келтирилган.*

Калит сўзлар: *педагогик коррекция, психологик коррекция, истерик белгилар, нормадан огиш, характернинг ўзгариши, алохида ёндашув, табақалаштирилган таълим, медикаментоз ёрдам, эгоцентрик кайфият, инфантил хулқ-атвор.*

КАТЕГОРИИ ДЕТЕЙ У ХАРАКТЕРА ИСТЕРИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ И ИХ ОБУЧЕНИЯ.

Хусанов Аъзамжон Ахмаджанович, старши преподаватель НамГУ

Аннотация: *В данном статьи Ушбу мақолада характерида истерик белгилари бўлган болалар тоифалари ва улар билан олиб бориладиган педагогик-психологик коррекцион ишлар мазмуни ёритиб берилган. Қолаверса мақолада автор томонидан характерида истерик белгилари бўлган болаларни амалий жихатдан кузатган жараёнлари тўгрисида маълумотлар келтирилган.*

Ключевые слова: *педагогическая коррекция, психологическая коррекция, истерические признакир, откланения из нормы, изминение в характре, индивидуальное подход, табақалаштирилган таълим, медикаментозное личение, эгоцентрик кайфият, инфантил хулқ-атвор.*

ХАРАКТЕРИДА ИСТЕРИК БЕЛГИЛАР БЎЛГАН БОЛАЛАР ТОИФАЛАРИ ВА УЛАРНИ ЎҚИТИШ.

Xusanov A’zamjon Axmadjanovich, senior teacher NamSU

Annotation.*Ушбу мақолада характерида истерик белгилари бўлган болалар тоифалари ва улар билан олиб бориладиган педагогик-психологик коррекцион ишлар мазмуни ёритиб берилган. Қолаверса мақолада автор томонидан характерида истерик*

белгилари бўлган болаларни амалий жихатдан кузатган жараёнлари тўгрисида маълумотлар келтирилган.

Key words: *педагогик коррекция, психологик коррекция, истерик белгилар, нормадан огиш, характернинг ўзгариши, алохида ёндашув, табақалаштирилган таълим, медикаментоз ёрдам, эгоцентрик кайфият, инфантил хулқ-атвор.*

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришиб, демократик давлат сифатида шакллана бошлагач, ижтимоий, иқтисодий, маънавий, сиёсий, маъданий ва маърифий соҳаларнинг барчасида туб ўзгаришлар юз берди. Бу соҳаларда қатор хужжатлар қабул қилинди, маълум даражада иш тажрибалари тўпланди. [1]

Айниқса сўнги йилларда мактабгача таълим ва умумтаълим мактабининг бошланғич синфларига алоҳида эътибор қаратилиши фикримизнинг яққол далилидир. Таълим орқали ёш авлодга инсоният тажрибаси орқали тўпланган билимлар берилади, зарурий кўникма ва малакалар ҳамда эътиқодлар шаклланади.

Таълим ўқитувчи ва ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолияти бўлиб, у икки томонлама характерга эга, яъни унда икки томон ўқитувчи ва ўқувчи фаол иштирок этади. Ўқитувчи аниқ мақсадни кўзлаб режа ва дастур асосида билим, малака ва кўникмаларни сингдиради, ўқувчи эса уни фаол ўзлаштириб олади.

Билдириш ҳамда билиш бу мураккаб, қийин, зиддиятли жараёндир. Бу жараёнда инсон руҳиятига тегишли сезги, идрок тасаввур ва тафаккур каби жараёнлар фаол иштирок этади ва муҳим рол ўнайди. [4]

Характерида истерик белгилар бўлган болаларни тарбиялаш соҳасида муайян қийинчиликлар вужудга келади. Кўпинча бу ҳодисалар маданий тараққиёт даражаси паст бўлган кишилар учун характерли диний таъсирлар билан, бидъатлар билан кўпроқ боғлиқ эди. Диний таъсир ва бидъатлар истериянинг вужудга келишида ўз-ўзидан этиологик асос бўлмай, балки муайян конституционал хусусиятларга эга бўлган кишиларгагина ўз таъсирини кўрсатади.

Ҳозирги вақтда истерия шакллари ифодаланган болалар кам учрайди, аммо характернинг истероид белгилари болаларда бўлиб туриши мумкин. Истероид белгилари бўлган болаларда энг кўп учрайдиган хусусият эгоцентризм, яъни ўта кетган қизғанчиқдир. [3]

Биринчи ўзини кўрсатишга, кибрланишга, мақтанчоқликка, ўз сифатларини ва ўз ролини ошириб кўрсатишга мойиллик ва ўз шахсини биринчи ўринга қўйиш шундан келиб чиқади. Бу сифатлар, одатда, ҳаддан ташқари таъсирчанлик, эмоционал туйғуларнинг беқарорлиги, қайфиятнинг беқарорлиги билан бирга қўшилган бўлади.

Мактабгача тарбия ёшидаги истерик белгилари бўлган болаларнинг хулқ-атворида баъзи қийинчиликлар вужудга келади. Улар тенгдошлари билан жанжаллашадилар, уларга буйруқбозлик қиладилар, баъзан ўжар, асабий бўладилар, кўпинча гапга қулоқ солмайдилар, истерик реакцияларга мойил бўладилар, ерга ётиб олиб, қаттиқ йиғлайдилар, депсинадилар, хуллас, ўз айтганларини ўтказишга ҳаракат қиладилар. [5]

Мактаб ёшида бу болалардаги эгоцентризм кўринишларига ишда бетоқатлик, бошланган ишни охирига етказа олмаслик қўшилади.

Нигора исмли (қизчанинг исми ўзгартирилган) қизнинг ривожланиш тарихини келтириб ўтамиз. Нигора, 11 яшар, учунчи синф ўқувчиси, хулқ-атворидаги қийинчиликлар ва таълим олишда етарли даражада самарага эришмаганлиги муносабати билан тиббий-педагогик комиссияга текширишига юборилди.

Ўқитувчи Нигоранинг асабийлигини, ёлғончилигини, ҳар хил нарсаларни ўйлаб топишга мойиллигини, мактаб топшириқларини бажаришда беқарорлиги ва пала-партишлигини таъкидлайди. Қизнинг насл-насаби жиҳатидан қараганда, онаси томонидан касалликлар бўлган. Онасининг ўзида истерик реакцияларга мойиллик қайд этилган.

Онасининг яқин қариндош-уруғлари характерида ҳам истерик хасталиклар бўлган. Нигора иккинчи хомиладорликдан туғилган, боланинг дунёга келиши қийинчиликсиз рўй берган, илк камол топиб бориш меъёрда ўтган. Нигоранинг илк болалиги чоғида ақлли, тетик, ҳаракатчан бўлиб ўсган, аммо бирмунча сергап, ўжар ва асабий бўлган.

Уч ёшидан Нигора болалар боғчасига қатнай бошлаган ва у ерда ўзига ҳамманинг эътибор беришига интилган, катталарнинг гапига аралашган, вақт-вақти билан ўжарлик қилган ва шўх бўлган, ўйин вақтида қиз эпчил ва топағон бўлган, аммо етарли даражада барқарор бўлмаган, буйруқ берувчилик мавқеъини эгаллашни севган.

Мактаб ёшининг бошларида Нигорада эгоцентризм равшан намоён бўлган, атрофдагилар эътиборини ўзига қаратишга интилиш хоҳиши, хаёлпарастлик ва ёлғончиликка мойиллик вужудга келган, баъзан етарли даражада асосланмаган ижтимоий муҳитга қарши ҳатти-ҳаракатлар қилган.

Нигоранинг тарбияси билан онаси ва бувиси шуғулланган, Нигора оилада ёлғиз бола бўлганлиги учун уни жуда ҳам эркалатиб юборганлар, унга керакли даражада талаблар қўймаганлар, унинг инжиқликлари ва тўполонларига тўғри баҳо бермаганлар.

Бунинг оқибатида мактабда ўқиш бошланган пайтда Нигора бу ўқишга тайёр бўлмаган, унда мактабга қизиқиш вужудга келмаган, у эътиборини топшириқларни бажаришга тўплай олмаган, бошланган ишни охиригача етказа олмаган, унинг характеридаги салбий хусусиятлар эса кескинлашиб кетган.

Ўқитувчи қизнинг хулқ-атвори ёмонлиги ва ўзлаштириши пастлиги ҳақида шикоят қилган, уйда уни қаттиқ жазолай бошлаганлар. Аммо бу нарса Нигоранинг хулқ-атворини яхшиламади. Хулқ-атворидаги қийинчиликлар ўз шахсини юқори қўйишга интилиш ва ўзига эътиборни қаратишга мойилликдан вужудга келган эди. Масалан, учинчи синфда Нигора ўзини кўрсатиш ва ҳамма болалардан ажралиб туриш мақсадида онасидан сўрамасдан, каттагина пул келтириб қандайдир ижтимоий тадбир ўтказиш учун мактабга топширган. У мактабдан ва уйдан қочиб кета бошлаган, баъзан 5-6 соатлаб ғойиб бўлиб юрган, қайтиб келганида эса болаларга ғаройиб саргузаштлар ҳақида, масалан, мени атоқли кинорежиссёр ўз ҳузурига чақириб, кинода қатнашишни таклиф этди, деб ёлғон-яшиқ гапларни

гапирган. Уйинчоқлар дўконига боришганида Нигора қандайдир бир нарсани рухсатсиз олиб чиққан, ўз уйларининг ҳовлисида уни қизларга кўрсатиб, дўкон эгаси фақат менга совға тақдим қилди, деб ўқтирган.

Педагогик-психологик текшириши вақтида Нигоранинг жисмоний ўсиши ёшига мос эканлиги, аммо баъзи инфантил хусусиятлари мавжудлиги аниқланди. Ички органлари ва асаб тизими жиҳатидан меъёрдан чиқиш йўқ, Нигоранинг интеллектуал қобилияти сақланган. Текшириш жараёнида унда хаёлпарастликка ва фаолиятида етарли даражада собитқадам бўлмасликка мойиллик аниқланди, бу ҳол унинг берилгаи топшириқдан кўпинча *"четга чиқиб кетишида"* ифодаланар эди. [6]

Нигорани алохида махсус синфга жойлаштиришганида у ердаги болаларнинг асосий қисми интеллектуал камол топиб бориш даражаси жиҳатидан анча паст эди, бинобарин, у олдинги ўринлардан бирини осонликча эгаллаб олди. У ўқув ишида ўзини яхшироқ кўрсатди, мусиқа, жисмоний тарбия, бадиий ҳаваскорликда бошқа болалардан анча устун бўлди, кечаларда чиқишни яхши кўрар, бунда ўзига ниҳоятда зеб берар эди.

Эгоцентризм қизда ғоят яққол намоён бўлди, у ҳар қандай қилиб бўлса ҳам эътиборни ўзига қаратишга интилар, уни мақташларини яхши кўрар, болалар жамоасида ўзининг устунлигини таъкидлаб кўрсатар ҳамда жамоада ўзининг сардорлик мавқеъга эришиш истагини тўла қондиришга тиришар эди. [6]

Нигора болаларнинг бу жамоада ўзини бошқалардан юқори эканлигини аниқ ҳис қилганидан кейин ўзининг у мақтанчоқлик қилишини, сохта хаёлий гапларни ўйлаб топишини ва асоссиз ижтимоий муҳитга қарши ҳатти-ҳаракатлар қилишини тарк эта бошлади. Эмоционал туйғуларининг ифодасида эса Нигора инфантил ҳолича қолаверди. Таълим-тарбия соҳасида тўғри йўл тутиш қизнинг хулқ-атворини қисқа вақт ичида яхшилаш ва унинг иш қобилиятини ошириш имконини берди. У ўзига танқидий қарай бошлади, унинг эгоцентрик тенденциялари бирмунча камайди, мактаб машғулотларига қизиқиш пайдо бўлди. Кейинчалик Нигора ўзи таълим олган мактабга қайтарилди ва унинг ҳақида жиддий шикоятлар бўлмади.

Болалардаги истерик характернинг энг муҳим хусусияти интелект қобилиятининг тўла сақлаб қолиниши билан бир вақтда аниқ ифодаланган эгоцентрик кайфият ва инфантил хулқ-атворнинг мавжудлигидир. Болаларнинг эгоцентризми бир қатор иккиламчи мантиқий ўзгаришларнинг, масалан, ёлғончиликка, мақтанчоқликка, хаёлпарастликка ва ҳатто асосланмаган ижтимоий муҳитга қарши ҳатти-ҳаракатларга мойилликнинг келиб чиқишига сабаб бўлади, истерик болалар бошқалардан яхшироқ бўлиш истагини қондириш учунгина ижтимоий муҳитга қарши ҳатти-ҳаракатларни қиладилар.

Ўзига бу қадар ҳаддан ташқари бино қўйиш бундай болаларда кейинчалик эмоционал туйғуларни бирмунча юзаки қилиб қўяди, уларда чуқур меҳр-оқибат вужудга келмайди, бошқа кишиларнинг кечинмалари уларни ҳаяжонлантирмайди, уларга ачинмайдиган бўлиб қоладилар.

Ўз кечинмаларига эса улар одатда, жуда ҳам эътибор берадилар. Уларнинг ҳаммаси ўз ***"шахси"***га жуда бино қўйишдан вужудга келади. Характерида истерик

бўлган болалар билан бўладиган коррекцион-тарбиявий ишни мумкин қадар эртароқ, бу белгилар сезила бошлаган пайтдан бошлаш керак.

Бола характеридаги истерик белгилар шундай оилаларда кўпроқ таркиб топадики, бу оилаларда ота-оналар кўп вақт боланинг ортиқча инжиқликларига, унинг эгоцентрик кайфиятига қаршилик кўрсатиш у ёқда турсин, аксинча боланинг йиғлаши ва бақиришларига йўл қўймаслик мақсадида уни жуда эркалатиб ва талтайтириб юборадилар, унинг ҳамма ишларига йўл қўйиб берадилар, баъзан эса, ўз болалари бўлгани учун унинг алоҳида хусусиятларини таъкидлаб, ҳатто унинг сергаплигини, ўзига бино қўйишини, мақтанчоқлигиии ва шу сингариларни рағбатлантирадилар. Бундай йўл тутиш шу хилдаги болалар учун ғоят зарарлидир, чунки бундай хислатларга ортиқча эътибор бериш, эркалатиб юбориш ва талтайтириш инфантил хусусиятларни чуқурлаштиради ва эгоцентризмни кучайтиради.
Истерик болалар учун яхши уюшган болалар жамоасида бўлиш жуда фойдалидир, бу ерда шундай бола муайян талабларга бўйсунишга ўргатилиши, ўзига-ўзи хизмат кўрсатишнинг оддий кўникмаларини эгаллаши керак. Ўйин фаолиятидек жараёндан болани ўз эгоцентрик тенденцияларини босишга ўргатиш мақсадида фойдаланмоғи лозим. [7]

Болалар боғчасининг катта гуруҳида болада маълум бир вазифани бажара олиш ва уни охирига етказиш малакасини ҳосил қилишга алоҳида эътибор бериш лозим. Бунда ишнинг пухта бажарилишига эришиш ва ишга тўғри баҳо бера олишга ўргатиш зарур.

Кузатишлар шуни кўрсатадики, бундай болалар мактабгача тарбия муассасасида яхши тайёргарлик кўргандан кейин мактабга келсалар, уларнинг ўқишидаги ва хулқ-атворидаги қийинчиликлар анча юмшайди. Мактабдаги коррекцион-тарбиявий ишни бу болалар интеллект қобилиятининг тўла қим-матли эканлигини ва улар шахсидаги ижобий хусусиятларни ҳисобга олиб қуриш зарур.

Биринчи навбатда боланинг кучли томонларини - унинг майлларини, қобилиятини (*масалан, музика, қўшиқ, ритмика, расм чизиш, спорт ва шу сингари соҳаларидаги майл ва қобилиятини)* аниқлаш, бу майл ва қобилиятларни қўллаб-қувватлаш ва шу тарзда эгоцентрик майлларни йўқота бориб, шу асосда шахсни қайта тарбиялаш зарур.
Характерида истерик белгилар бўлган боладаги салбий жиҳатларни ўқитувчи ҳам яхши ўрганиши, бу жиҳатларни билиши, уларнинг келиб чиқиш сабабларини англаши ҳамда уларни сабр-тоқат билан ва оқилона суратда бартараф қилиш режасини ишлаб чиқиши лозим. Боланинг шахсидаги ижобий томонларга таяниб, унинг болалар жамоасида ижобий мавқеъ эгаллашига фаол ёрдам бериши зарур, чунки бундай болалар характеридаги салбий хусусиятлар *(мақтанчоқлик, ёлғончилик, ўз устунлигини бўрттириб кўрсатишга интилиш, ўртоқларига ҳурмат билан қарамаслик, ишда беқарорлик)* уларга ўртоқларининг мазах қилиб қарашига ва ҳатто адоват билан муносабатда бўлишига сабаб бўлади. [7]

Боланинг жамоада ёмон мавқеъда бўлиши эса унинг ҳолатини ёмонлаштиради ва ўзини ҳаммадан яхши қилиб кўрсатишга ҳар қандай йўл билан уринишга қаратилган салбий хусусиятларини кучайтиради. Истерик кайфиятдаги

болалар билан ишлашда тўғри йўл тутиш ва ўз вақтида тадбир кўриш улар ҳолатини деярли тамомила тузатиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги қонуни (1997 йил 29 августда қабул қилинган). Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Ўзбекистон. 1997.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа консерни. 1997.
3. Г.А.Содиқова, Д.А.Нуркелдиева, З.И.Исламбековалар. Ривожланишда нуқсони бўлган болалар диагностикаси. Тошкент 2007;
4. Ш.М.Амирсаидова. Махсус писихалогия Тошкент 2009;
5. В.С.Рахманова, Махсус педагогика Тошкент 2007;
6. С.Ш.Айтметова. Ёрдамчи мактаб ўқувчиларининг психалогиг ривожланиш хусусиятлари. Тошкент.2007;
7. К.Мамедов, Ғ.Б.Шоумаровлар. Руҳий ривожланиши суслашган болалар ҳақида. Тошкент 1993;
8. М.Р.Пўлатхўжаева Дефектологиянинг клиник асослари Тошкент 2012;
9. www.tdpu.uz
10. www.pedagog.uz
11. www.edu.uz
12. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
13. http://ziyonet.uz —Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYANING RO'LI

Mahmudova Nodira Alisherovna.
Namangan davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda innovativ yondashuvlar, uning ta'lim samaradorligiga ta'siri, boshlang'ich ta'limda qo'llash mumkin bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan takliflar haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *innovatsion ta'lim, ko'nikma, moslashuvchan, optimallashtirish, pedagogik jarayon, konsepsiya, yangilik, sifat o'zgarishlari, innovatsion texnologiyalar*

РОЛЬ ИННОВАЦИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Махмудова Нодира Алишеровна.
Преподаватель кафедры методики начального образования Наманганского государственного университета.

***Аннотация**: В данной статье рассматриваются инновационные подходы к начальному образованию, его влияние на образовательную эффективность и рекомендации, основанные на новых педагогических технологиях, которые могут быть использованы в начальном образовании.*

***Ключевқе** слова: инновационное обучение, талант, гибкость, оптимизация, педагогический процесс, концепция, инновация, изменение качества, инновационные технологии*

THE ROLE OF INNOVATION IN PRIMARY EDUCATION

Makhmudova Nodira Alisherovna.
Teacher of methodic of primary education department of Namangan state university.

***Abstract**: This article discusses innovative approaches to primary education, its impact on educational effectiveness and recommendations based on new educational technologies that can be used in primary education.*

***Key words**: innovative training, talent, flexibility, optimization, pedagogical process, concept, innovation, quality change, innovative technologies*

O’tib borilayotgan besh yillik davomida O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim jarayonini optimallashtirish va takomillashtirishga qaratilgan muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda va mamlakatimiz hukumati tomonidan qabul qilingan boshqa normativ va kontseptual hujjatlarda boshlang'ich ta'lim masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida ta'lim sifatini oshirish, ayniqsa, zamonaviy maktab ta’limi talablariga javob beradigan boshlang'ich ta’limni shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

O'quv jarayonini rivojlantirishda, shuningdek, boshlang'ich ta'limni yuqori sa’viyada tashkil etishda muvaffaqiyatga erishish - darslarga tayyorgarlik va ularni mahorat bilan o’tkazishning sifati bilan belgilanadi.

So'nggi besh yil ichida maktablarda boshlang'ich ta'lim tizimini isloh qilish jarayoni har bir o’rta-umumta’lim muassasasining taraqqiyoti, turli innovatsion ta'lim texnologiyalari va dasturlaridan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'lishiga olib keldi. Bir qator mahalliy olimlarning ilmiy ishlari ham respublikada boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy etish jarayoniga qaratildi.

Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda keltirilgan fikrlarga ko’ra hozirgi kunda maktabda olib borilayotgan o'quv jarayonini tashkil etish ikki yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Birinchisi-boshlang'ich maktablarda eskirgan an'anaviy o'quv dasturidan foydalanish bilan tavsiflansa, ikkinchisi-innovatsion ta'lim texnologiyalarini cheklangan miqdorda joriy etish bilan tavsiflanadi.

Birinchi yo'nalishning natijasi rivojlanishdan to'xtagan ta'limga olib kelsa, ikkinchi yo'nalish oz bo'lsada ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalashning sifat jihatidan yangi darajasiga olib chiqish uchun jamiyatning barcha vositalari va imkoniyatlaridan, innovatsiyalardan to'liq foydalanish kerak. Ta'lim tizimining o'zi nafaqat moslashuvchan bo'lishi kerak, balki muntazam ravishda pedagogik ilg'or tajribalardan foydalanishda, va shu orqali milliy, mintaqaviy va kichik ijtimoiy muammolarni hal etishda davom etishi kerak.

Shu o'rinda, "Innovatsiya" atamasiga to'xtalib o'tsak. Mazkur atama ensiklopediyalar va lug'atlarda turli xil ma'nolarda keladi. G'arb ensiklopediya lug'atida bu tushuncha-neoplazma deb talqin etilsa, A.I. Kochetov "innovatsiya" iborasiga quyidagi ta'riflarni beradi: pedagogik faoliyatni yangilash, uni ishlab chiqarishni belgilangan darajaga etkazish bo'yicha yaxlit nazariy va texnologik va metodik jarayondir. Mazkur xulosaga hamma mutaxassislar ham birdek qo'shilmaydilar. Xususan, V. Kvasha va V.Latkinning fikriga ko'ra, "innovatsiya - professionallik faoliyatini yangi sifat darajasiga olib chiqadigan faoliyatning tubdan yangi turlarini yaratishdir". Bu jarayonda, innovatsion amaliyot har qanday me'yordagi faoliyat doirasidan tashqariga chiqishiga va yangilikga intilishga olib keladi.[1]

Pedagogikadagi innovatsiyalar, qoida tariqasida, bir nechta muammolarning birlashmasidan kelib chiqadi va pedagogik jarayonni muntazam yangilashga olib boradigan tubdan yangi vazifalarni hal qiladi.

Innovatsion faoliyat zamonaviy boshlang'ich ta'limning rivojlanishida muhim jihatlardan biri bo'lib, u o'zining ijobiy o'zgarishlari bilan ajralib turadigan muayyan bosqichlar ketma-ketligini anglatadi[2]. Innovatsion faoliyat doimiy me'yorlaridan kelib chiqadigan, o'ziga xos ijtimoiy-psixologik sharoitlarda e'tirof etilgan an'anaviy ta'limdan keskin farq qiladi. Innovatsiya-muqobil qoidalarni joriy qilish, ularni boshqa sohalardan o'zlashtirish va ta'limda qo'llash, rivojlanish uchun pedagogik va texnik vositalar to'plamini taqdim etish, ongli ravishda o'zgarish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yetakchi mutaxassislar boshlang'ich ta'limda innovatsiya jarayonini jadallashtirishga yordam beradigan beshta omilni ta'kidlaydilar:

1) maktab rahbarlarining ijodiy salohiyatini oshirish; yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsion jarayon qatnashchilari (innovator o'qituvchilar)ni tayyorlash; intensiv muloqotni tashkil qilish;

2) rivojlantiruvchi kompleks loyihalar (dasturlar, rejalar)ni atrof-muhit bilan bog'liq holda ishlab chiqish;

3) tadqiqotchilar harakatlarining ishonchliligini, muqobil variantlarni yaratish, agar xatolar bo'lsa ularni o'z vaqtida tuzatishni ta'minlaydigan loyihalarni (dasturlarni, rejalarni) amalga tatbiq qilish. Mazkur jarayonni maktab ta'limini rivojlantirishda ahamiyati katta. Chunki, har qanday yangilik har doim kutilmagan vaziyatlar bilan bog'liq. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, amaliy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan ham ahamiyatli hisoblanadi. Shuning uchun, ehtiyot choralarini izlash va inobatga olish-bu salbiy oqibatlarni oldini olish, innovatsion faoliyat davomida muayyan natijalarga erishish uchun shart-sharoitlarni aniqlash, innovatsiyani oqlash va muvoffaqiyatsizlikni bartaraf etish imkoniyatini ta'minlash uchun kafolatdir;

4) pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik, moddiy va nazariy yordam nuqtai nazaridan innovatsiyalar kafolati vazifasini bajaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish;

5) innovatsion jarayonda ishtirokchilarning faolligini ta’minlash. [3]

Matematika fanini o’qitishda innovatsion ta’lim metodlarini qo'llash ham mazkur fanni o’quvchilar tomonidan o’zlashtirish koeffisentini oshirishga xizmat qiladi. Chunonchi, matematikani dunyomizning miqdoriy jihatdan tartibga solish va ular bilan ishlash jarayoni sifatida tasavvur qilish mumkin. Shu bilan birga, matematikani bilish jarayoni muammolarni hal qilish, mulohaza yuritish ko’nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O’quvchilarda matematik malakalarni rivojlantirishda jahon ta’lim tizimida "Step-by-Step" (qadamba-qadam) innovatsion dasturi muvoffaqiyatli qo’llab kelinmoqda.[4] Mazkur dastur bolalarni savol berish va muammolarni hal qilishga undashi bilan ajralib turadi. Bu dasturda bolalar turli xil yechim strategiyalarini qo'llaydilar: o’quvchilarni o’yin yoki ishga jalb qilinadi, ular reja yoki ro'yxat tuzadilar, sxemani ishlatadilar yoki faollashtiradilar. O'quvchilar bu borada aniq fikrlardan vizual tasvirlarga, so'ngra mavhum mantiqiy munosabatlarga o'tishning turli bosqichlaridan o’tishadi. Muammolarni hal qilish tajribasiga ega bo'lgan o’quvchilar o’zlari uchun muhim bo’lgan elementlar-bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo'ladilar. Chunki, fikrlash jarayonida o’quvchilar ongida mantiqiy xulosalar shakllanadi, ma'lum faktlar va munosabatlar o’rtasidagi aloqalar topiladi, fikrlash jarayoni rivojlanadi, muammo va uning yechimi sifatida qabul qilinadigan qarorlarni oqlash jarayonidan o’tiladi.

Shuningdek, bosqichma-bosqich dasturining bir qismi sifatida talabalar tushunchalarni turli shakllar yordamida anglaydilar: muayyan yoki rasmli modellar yoki jadvallarni yaratib, har kuni o'rgangan og'zaki yoki yozma ma’lumotlar, ya’ni matematik terminlarni yoki belgilarni ishlatishni o’rganadilar.

Bosqichma-bosqich dasturida ota-onalarning ham o’z o’rni bor. Xususan, ular bolalarning birinchi o'qituvchilari hisoblanadi. Ota-onalar bolalar bilan pul va unga oid masalalar haqida suhbatlashganda raqamlar va arifmetik o'yinlari yordamida matematikadan dars beradilar. Bolalar bilan o'yin vaqtida yoki qo'ng'iroq qilish vaqtida raqamlar haqida birinchi tushunchalarni ular ongiga singdiradilar. Bolalarning ta'lim modeli sifatida xizmat qilgani uchun "Bosqichma-bosqich" dasturi nafaqat boshlang’ich ta’lim, balki maktabgacha ta'lim dasturlariga ham mos keladigan ta’lim dasturidir.

Matematika bo'yicha "Bosqichma-bosqich" dasturining ta'limiy maqsadlarini tarkibiy jihatdan 6 turga bo'lish mumkin: rasm va qiyoslashlar, son va raqam tuyg'usi, integrallar bilan ishlash kontseptsiyasi, geometriya va fazoning ma'nosi, o'lchovlar, statistika va ehtimollik.

Shunday qilib, O’zbekiston Respublikasining zamonaviy maktabida o'rta ta'lim mazmuni, uning mahorati insonning intellektual salohiyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalar tizimi sifatida qabul qilinadi. Shu ma’noda, o'qituvchilarning an'anaviy va intensiv ta'lim faoliyatida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynashini inobatga olgan holda intellektual ijodiyotni rivojlantirish uchun matematika darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash zarur.[4]

Qolaversa, o'qitish va ta'limning innovatsion texnologiyalaridan nafaqat matematika darslarida, balki butun o'quv jarayonida ham foydalanish kerak. Chunki, o'quv jarayonining innovatsiyalar orqali amalga oshirilishi o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini yanada to'liqroq rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Демидова Т.Е., Тонких А.П. Теория и практика решения текстовых задач. – М.: Издательский центр «Академия», 2002.
2. Хоффман и Холшутер, Он-лайн мақола. 2012, б. 3.
3. Rodrigo Pons Diaz. Matematikaga innovatsiyani qanday joriy etish kerak. NTa'lim innovatsiyalari observatoriyasi. Он-лайн maqola. 2017.
4. G.Polya. "Buni qanday hal etish kerak?". Prinston universiteti bosmaxonasi. 1973.

MALAKALI GANDBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATINI O'RGANISH

Azizov Sobit Valiyevich
Namangan davlat universiteti Sport faoliyati kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: *Maqolada malakali gandbolchilarni musobaqa faoliyati va uni taxlil qilish usullari to'g'risida fikr yuritilgan. Ularning musobaqa davridagi maxsus jismoniy va texnik-taktik tayyorgarliklarining o'zaro bog'likligi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik*

ИЗУЧЕНИЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ

Азизов Собит Валиевич
Доцент кафедры спортивной деятельности, НамГУ

Аннотация *В данной статье приводятся размышления о соревновательной деятельности квалифицированных гандболистов и методах анализа этой деятельности. Также приводятся сведения о взаимосвязи специальной физической, технической и тактической подготовки в игровой деятельности.*

Ключевые слова *специальная физическая подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, психологическая подготовка.*

STADYING THE GAME ACTIVITIES OF HIGHLY QUALIFIED HANDBALL PLAYERS

Azizov Sobit Valiyevich
Nam SU Accociate Professor of the department of sports Activity.

Abstract: *The article discusses the activities of qualified handball players and their analysis. There is information about the relationship between their specific physical and technical-tactical training during the tournament.*

Key words: *Special physical training, technical training, tactical training, psychological training.*

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalari kabi jismoniy tarbiya va sportda, xususan gandbolda ham, ulkan ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa zamonaviy xalqaro talabalarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo’yicha amalga oshirayotgan ishlar o’zining ijobiy samarasini bermoqda.

Yosh O‘zbekistonlik gandbolchilarni xalqaro maydonlarda ko‘rsatayotgan natijalari buning yaqqol dalilidir

Quvonarlisi istiqlol yillarida yurtimizda 1 ming 200 dan ziyod yangi sport inshooti barpo etilib, ularning mingdan ortig’i qishloq joylarida qurildi. Bu esa 260 ming nafardan ziyod bolaning sportning ko’plab turlari bilan muntazam shug’ullanishi uchun imkoniyat yaratdi

Hozirgi kunda sportdagi rivojlanish ko’rsatkichlarlari shunday tez sur’atlar bilan o’sib bormoqdaki oldingi shart-sharoitlar hozirgi kundagi sport sohasiga qo‘yilayotgan talablar uchun yetarlari emas. Bu o’z navbatida jamoalarning xalqaro musobaqalarga talab darajasida tayyorgarlik ko‘rishga imkon bermaydi. Zamonaviy sport musobaqalarida o‘zaro raqobaqatning kuchayib borishi va natijalarning to‘xtovsiz o‘sayotganligi, sportchilarning barcha sifat va ko‘nikmalarini ilmiy asosda shakllantirish masalasiga jiddiy etibor qaratadi. Chunki, bugungi sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishish uchun sportchilar organizmi katta hajmli va o‘ta shiddatli yuklamalarga tayyor bo‘lishi lozim.[1,2,4]

Gandbolning shiddat bilan rivojlanishi murabbiylar oldiga ham bir qancha vazifalarni qo‘ymoqda.

Jumladan jamoani musobaqalarga tayyorlash murabbiylardan zamonaviy bilimlarni va xalqaro tajribalarni mukammal egallashlari zarurligini taqazo qilmoqda.

Murabbiylardan jamoa a'zolarini tayyorgarliklarini xalqaro darajalarga olib chiqish uchun nafaqat maxsus jismoniy, texnik-taktik va intelektual balki ruhiy tayyorgarliklariga ham alohida e'tibor berishlari zarur bo‘lmoqda. Gandbolchilarning umumiy tayyorgarlik sifatlarini tarbiyalashda uchrashuvlarda yuqori darajadagi harakatlarga erishishda, har bir o’quv-mashg’ulotida muayyan bir tayyorgarlikni rivojlantirish maqsadiga qaratilmog’i lozimligi muhimdir.

Gandbolchilarning jismoniy tayyorgarligi – organizmning funktsional imkoniyatlari umumiy darajasini oshirish, har tomonlama jismoniy rivojlantirish, sog’liqni mustahkamlash bilan uzviy bog’liq bo’lgan jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash jarayonidir.

Gandbolchining faoliyati, bajarayotgan harakatlari natijalari doimo o’zgarib turishi bilan harakterlanadi. Mushaklar ishining yuksak harakatlar aktivlikning pasayishi va nisbatan tinch holatga o’tish bilan almashib turadi. Jadal yugurish, ilgari tashlanish, sakrashlar, yurish, to’xtash bilan almashinib turadi. Bunday faoliyat muayyan jismoniy yuklamani amalga oshirish bilan bog’liq bo’lib, u vegetativ jarayonlarni birinchi navbatda

moda almashinuvi, nafas olishda, qon aylanishida jiddiy funksional o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Biroq, gandbolchilarning o'yin faoliyati faqat sakrash, yugurish va yurishdan iborat emasligi, unda anchagina murakkab harakatlar mavjuddir.

Yakkama-yakka qattiq kurash sharoitida eng katta tezlikda va uzoq vaqt davomida to'pga egalik qilish, ikki-uch raqib bilan to'p uchun kurash holatlari kuzatiladi.

Shuning uchun gandbolchilarning jismoniy texnik va taktik tayyorgarligi ularning o'yin faoliyati harakterini hisobga olgan holda shunday tashkil qilinishi kerakki, bu ularga texnik va taktik mahoratni takomillashtirish uchun asos bo'la oladi. [4,5,6]

Buning uchun gandbolchilarda sport orqali vatanga bo'lgan ruhiy faollik sifatlarini yanada o'sitirish lozim.

Ruhan faol sportchilar axloqli, chidamli, vijdonli, sportda o'z maqsadiga erishish yo'lida har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan bo'lib yetishadilar va shundagina xalqaro musobaqalarda Vatan shanini himoya qilishdek sharafli va mas'uliyatli vazifalarni qo'yish mumkin, chunki har-bir sportchining eng oliy orzu xam shudir. [1,2,3.]

Gandbolchilarning tayyorgarligi ва musobaqa faoliyatlarini o'rganish хамда tahlil qilish masalalari ko'pgina mutaxasislar tomonidan o'rganilgan. Masalan V.I.Izaak , M.A Godik, Klusov N.P, Koryagin V.M, Ignat'eva V.Ya, Txorev V.N, Ovchinnikova A.Ya, Rivkin A.A, Pashev V.B, Akramov J.A, Pavlov SH.K, Abduraxmonov F.A, Nabiev T.E, o'zlarining ilmiy ishlarida gandbolchilarning samarali o'ynashlari uchun musobaqaga tayyorgarlik ko'rishdagi har bir bosqichida (tayyorlov, umum, maxsus) jismoniy, texnik va taktik harakatlarni to'g'ri yo'naltirish kerakligini e'tirof etadilar.

Shunga ko'ra, gandbolchilarning jismoniy, texnik-taktik, intelektual va ruhiy tayyorgarlik darajalarini tarbiyalash uchun xilma-xil vositalar majmuasida musobaqalar tashkil etish masalalarining tajribalar asosida tashkil qilish muxim axamiyat kasb etadi. [1]

V.I.Izaak o'zining ilmiy ishlarida gandbolchilarning samarali o'ynashlari uchun musobaqaga tayyorgarlik ko'rishdagi har bir bosqichida (tayyorlov, umum, maxsus) jismoniy, texnik va taktik harakatlarni to'g'ri yo'naltirish kerakligini e'tirof etadi. [6]

Txorev V.N. tadqiqot ishlari bo'yicha gandbolchilarning jismoniy va texnik va taktik tayyorgarlik darajalari doimo yuqori bo'lishi, u gandbol o'yinidagi vaziyatlardan jismoniy texnik va taktik sifatlarining bog'liqligi natijasi orqaligina chiqib ketishini ta'kidlaydi. Txorev V.N. gandbolchilarning musobaqa faoliyatlarini tahlil natijalariga ko'ra, maydonda hujum o'yin funktsiyasini eng murakkab bo'lishini bildirgan. Texnik va taktik tayyorgarlik bo'yicha hujumdagi individual, guruhli harakatlarni mashg'ulotlarda jismoniy sifatlarga bog'lab o'tilishini Txorev V.N., Rivkin A.A., Izaak V.I. o'zlarining ilmiy ishlarida asoslab berishgan.

Pashev V.B. sport o'yinlarida doimo tezkor-kuch sifatlarning yuqori darajada bo'lishi kerakligini muhim deb biladi. Uning fikricha, jamoaviy o'yinda raqib bilan to'p uchun kurashda sakrovchanlik, kuch, tezlik, mohirona bajarila olsagina raqibdan ustun bo'la olish mumkin. Buning uchun esa tezkor-kuch sifatning mukammal darajada bo'lishi muhimdir.

Gandbolchilarning o'yindagi xatti-harakatlarini kuzatadigan bo'lsak, to'pni tezlik bilan otish, to'p uchun havoda kurash, o'zining tezkor harakati bilan 2-3 raqib himoyachi

qurshovidan chiqib keta olishni, aylanma harakatlarni bajarishda tezkor-kuch sifatning ahamiyatliligini aytish lozim. Gandbolchilarning maydondagi umumiy xatti-harakatlari tekshirilganda, ularnig o'yin funksiyasiga qarab har-xil natijalarni ko'rsatishlari aniqlashtirilgan. Hujumdagi gandbolchilarning bosib o'tish masofasi o'yinda o'rtacha 43-65 metrni tashkil etadi. Himoyada esa bu ko'rsatkich o'rtacha 45-46 metrga teng.

Izaak V.I. tadqiqoti bo'yicha jamoaning pozitsiyali hujumda gandbolchilarning to'p otishi va to'p uzatishlari quyidagicha ko'rsatkichga ega bo'lishgan. Markaziy o'yinchi 3,8 to'p otishlarni amalga oshirgan, uning samaradorligi 44,7% ni tashkil etgan, ikkinchi qanot chiziq o'yinchilari darvozaga to'p otishni 7,1 marotaba amalga oshirishgan va uning samaradorligi 53,5% ga tengdir. [6]

Tadqiqot usullari:

1. Ilmiy adabiyot manbalarini tahlil qilish.
2. Pedagogik kuzatishlar (mashg'ulot va musobaqa jarayonini).
3. Testlar qabul qilish.

Tadqiqot natijalari taxlili.

Gandbol bo'yicha O'zbekiston oliy ligasida ishtirok etayotgan O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya universiteti gandbol jamoasining malakali o'yinchilarini texnik-taktik harakatlarini nazorat qilinganda quyidagilar aniqlangan.

Chiziq o'yinchisi, burchak o'yinchisi, yarim o'rta o'yinchi va markaziy o'yinchining to'pni ilish, sherigiga to'pni uzatish, raqibni aldab o'tish, to'p otish, to'p otish nuqtasi va texnik-taktik xarakatlarni umumiy ko'rsatkichilarini tahlil natijalari quyidagicha: o'yinda to'pni sherigiga uzatishni yarim o'rta o'yinchilar 160±5,1. Markaz o'yinchilarning to'p uzatishi – chiziqdagi hujumchi 19,5±2,2 va yon tomondagi hujumchilar 76,5±3,8. Shuni ta'kidlash kerakki o'yin natijasi aksariyat musobaqalarda hujumchining o'yiniga bog'liq. Shu o'rinda hujumchi tomonidan raqibni chalg'itib o'tish yoki zarba berish harakatlari katta ahamiyatga ega. Bir o'yinda bu harakatlarning soni 20,1±1,8 ni tashkil etdi. Birinchi o'rinda markaziy hujumchi 26,8±1,5, ikkinchi o'rinda yarim himoyachi 22,2±1,5 turadi. Hujumchilarning o'yinda to'psiz harakatlari eng asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Agar hujumchi o'yinda 60 daqiqa qatnashsa, shundan 3,5-43 daqiqa to'p bilan o'zi haraqat qiladi, qolgan daqiqalarda bu faqat zarba berish uchun fursatni va nuqtani izlaydi. Tahlilga ko'ra hujumchi uchun qulay sharoit bir o'yinda 81,2±3,4 ni tashkil etdi. Shu o'rinda markaziy hujumchilar 32,6±1,3% yon tomon hujumchilari 28,3±1,4%. Tahlil jarayonida o'yinchilar xatosi quyidagicha bo'ldi: xato zarbalar 40,2±2,1%, darvozabon qayytargan zarbalar 17,8±0,5%, to'pni to'siqqa tegib qaytishi 16,4±0,3%, darvoza yonidan o'tib ketishi 13,4±0,3% ni tashkil etadi.

Zamonaviy sport musobaqalarida o'zaro raqobaqatning kuchayib borishi va natijalarning to'xtovsiz o'sayotganligi,sportchilarning barcha sifat va ko'nikmalarini ilmiy asosda shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratadi.

Chunki, bugungi sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishish uchun sportchilar organizmi katta hajmli va o'ta shiddatli yuklamalarga tayyor bo'lishi lozim.

Shuningdek ko'p yillik sport tayyorgarligi jarayonida sportchi shu tayyorgarlik davrining qaysi bosqichida shug'ullanishidan qat'iy nazar qo'llaniladigan mashg'ulot

mashqlari yuklama jihatidan uning funksional va jismoniy imkoniyatiga mos bo‘lishi kerak

1. Gandbol o‘yini gandbolchidan kattagina jismonniy va texnik tayyorgarlikni, butun o‘yin davomida aniqlik bilan harakat qilishlarini talab etmoqda, chunki jismoniy tayyorgarlikni maromida bo‘lmasligi maydonda barcha harakatlarning samarasiz tugallanishiga, jamoaning muvafaqiyatsiz o‘yiniga olib keladi.
2. Sport maxoratining yuksak bosqichida, ya'ni malakali,katta yoshdagi sportchilarda ko‘ngilsiz oqibatlar ro‘y bermasligi uchun mashg‘ulotlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikka oid mashqlarni samarali qo‘llash tavsiya etiladi.Oydan oyga, yildan yilga mashg‘ulot yuklamalarining hajmi va shiddati —zinapoya‖ sifatida emas, balki —to‘lqinsimon ‖shaklda orttirib borishi maqsadga muvofiqdir.
3. Har- bir jamoa murabbiylari o‘z kasbiy-pedogogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilishi malakali sportchilar tayyorlash muammosining prinsipial jihatlaridan biridir.
4. Yuqori texnik-taktik maxoratga sazovor bo‘lish uchun birinchi navbatda gandbolchilarning jismoniny sifatlari mukammal darajada rivojlangan bo‘lishi kerak. Bugungi kun gandbolchilari baland bo‘yli bo‘lib u harakatchan, o‘tkir zexnli tez fikrlovchi, o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlariga munosib harakat bilan javob qaytarishi va 2 taym mobaynida jamoada bir xil o‘yin ko‘rsatishi lozim.
5. Shuning uchun gandbolchilarning musobaqa jarayonida jismoniy sifatlarni, texnik-taktik tayyorgarliklarini to‘g‘ri taqsimlanishi, mashqlar va yuklamalarni to‘g‘ri tanlashga bog‘liq bo‘ladi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxat

1. Акрамов Ж.А, Гандбол: ЖТИ учун дарслик, Т. 2
2. Игнатьева В.Я. Гандбол: Учебник для ИФК, М.- ФиС, 1982. – 380с.
3. Павлов Ш.К, Абдурахманов Ф.А, Рахманова М.М. —Гандбол‖- ўқув қўлланма, 2010й, 32-45б.
4. Павлов Ш.К, Азизова Р.И, Гандбол – БЎСМлар учун дастур. 2009 й.
5. Павлов Ш.К, Абдурахманов Ф.А, Подготовка гандболистов – УзГИФК Т.: 2006й, 299с.
6. Павлов Ш.К, Абдурахманов Ф.А, Акрамов Ж.А, Гандбол: ЖТИ учун дарслик, 2005 й, 80-91б.

ТАЪЛИМДА ИЖОДИЙ ЎЙИНЛАР.

Tajiboyeva Go’zalxon Mahmudjanovna.
Namangan davlat universiteti,
Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi o’qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijodiy o’yinlar, uning ta’lim tizimida qo’llashning foydali tomonlari to’g’risida fikr yuritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida ijodiy o’yinlarni joriy etishda vujudga kelayotgan ayrim muammolar va ularni hal etish uchun tavsiyalar berilgan.*

Tayanch iboralar: *metodika, innovatsiya, qiziqish, globallashuv, natija, o'qitish, rivojlanish, nazariya, ta'limda innovatsiya, ta'sir, barqarorlik, pedagogika.*

РОЛЬЕВЫЕ ИГРЫ В ОБРАЗОВАНИИ.

Таджибаева Гузальхон Махмуджановна.
Преподаватель кафедры методики начального образования Наманганского государственного университета.

Аннотация: *В этой статье обсуждаются преимущества использования ролевых игр в системе образования. Также обсуждается некоторые проблемы, которые возникают в процессе использования ролевых игр в обучении, и дано рекомендации по их решению.*

Ключевые слова: *метод, инновация, интерес, глобализация, результат, преподавание, разработка, внедрения, теория, образовательная инновация, эффект, устойчивость, педагогика.*

ROLE-PLAY GAMES IN EDUCATION.

Tajiboyeva Guzalkxon Makhmudjanovna.
Teacher of methodic of primary education department of Namangan state university.

Abstract: *This article discusses the benefits of using role-play games in education system. In addition, there given some recommendations for solving problems that arise in the teaching process when using role-play games.*

Keywords: *method, innovation, interest, globalization, result, teaching, development, implementation, theory, educational innovation, effect, sustainability, pedagogy.*

Жамиятнинг маънавий такомили унда амалга ошириладиган таълим-тарбия ишларининг мазмуни, шакл ва моҳияти билан бевосита боғликдир. Шу боисдан ҳам таълимдаги янгиланишни, мамлакатимизда амалга оширилаётган боскичма-боскич таълим тизимини педагогик талқин қилиш ҳамда бу жараённи самарадорли кечишини таъминлаш зарурияти юзага келади.

Замонавий педагогик технологияда "Ўзлаштириш даражаси" тушунчаси мавжуд ҳамда бу ўқувчиларда билимни пайдо қилиш, мустаҳкамлаш ва уни амалда қўллай олишлари даражасига мос равишда тўрт гуруҳга бўлинади. Булар, "Ўқувчиликка оид" ўзлаштиришнинг биринчи, "Тартиблиликка оид" иккинчи, "Ижодий фикрловчиликка оид" учинчи ҳамда "Тадқиқотчиликка оид" тўртинчи даражаларидир.[1]

Мазкур даражаларни мақсад ва вазифаларига кўра қуйидагича таснифлаш мумкин:

Ўзлаштиришга оид	• Қоида, таъриф, ибора, формулалар ва бошқаларни айтиб, кўрсатиб беради; • Ўқув фанининг бошланғич маълумотларини билади ва ташқи белги ҳамда хоссаларига кўра ажратади; • Айтиб беради (элементар даражада ифодалайди);

Алгоритмик	Тушунтиради, асослайди, умумлаштиради, ишончли далиллар келтиради, солиштиради ва таққослайди, хулосалайди. Масалаларни мустақил ечади; Тайёр алгоритмлар бўйича хатти-ҳаракатларни амалга оширади, ўлчай олади, санайди, текширади, ташхис қўяди (тизимли, асбоб-ускуналар ва бошқ.), қисмларга ажратади, йиғади, техник чизма ва вазифаларни ўқийди, жиҳозлардан фойдаланиб ишлаб чиқариш операцияларини бажаради
Эвристик (изланувчанлик)	• Режалайди ва шахсий фаолиятни ташкил этади; • Фаолият алгоритмини мустақил тузади; • Керакли ахборотни топади, танлайди, ўзгартиради, қўллайди; • Баҳо беради, исботлайди, шарҳлайди, таснифлайди; • Лойиҳасини тузади, тажриба-синовдан ўтказади; • Ностандарт масалаларни, муаммоли вазиятларни ечади; • Чизма ва техник топшириқларни изоҳлайди, берилмаган компонентларни тўлдиради. Таъмирлайди, носозликларни мантиқан аниқлайди, қайта тиклайди
Ижодкорлик (изланувчан)	Муаммони мустақил ажратади ва уни ҳал этиш йўлини топади; Тадқиқот объекти ва фанини топади, тадқиқот фарази ва вазифаларини илгари суради, тажриба ўтказиш режасини тузади, тажриба ўтказади, тажриба натижалари асосида фаразни текширади, тажрибадан олганларни қўллаш чегарасини аниқлайди

Қўлланилаётган методларнинг мазмунига эътибор қаратилса, ўзлаштиришнинг юқори даражаларида кўпроқ ижодий изланишларга урғу берилади. Шундан кўриниб турибдики, ижодий ўйинлар ўқувчиларда шакллантирилган билим ва тушунчаларни мустаҳкамлаш учун энг самарали йўллардан биридир. Бу албатта ўзининг илмий ҳамда ижтимоий асосларига эга.

Маълумки, ўқувчиларнинг ўйинларга қизиқиши жудаям кучли бўлади. Шунинг учун ҳам ўйинлар ўқувчини ҳар томонлама ривожлантиришнинг муҳим воситаси, уларнинг асосий фаолияти бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Ролларга асосланган ижодий ўйинлар (Role play games)-бу турли хил вариантларга эга бўлган жамоавий фаолиятидир. 1980-йилларда хаёлий рол ўйнайдиган ўйинлар ҳақида жуда кўп салбий маълумотлар мавжуд эди. Ушбу қарама-қаршилик, кенг жамоатчилик томонидан ролли ўйинларнинг қабул қилиниши, фойдаланилиши ва ривожланишини сезиларли даражада секинлаштирди. Шунга қарамай, ҳозирги даврга келиб, ролларга асосланган

ижодий ўйинлардан таълим ва тарбиявий жараёнларда фойдаланиш тобора ортиб бормоқда. Ўнлаб илмий изланишлардан келиб чиққан ҳолда, ижодий ўйинлар кўпчиликка фойда келтириши мумкин, айниқса, кичик ёшли болалар гуруҳидан кекса ёшгача, ҳаттоки руҳий касалликларнинг айрим турларида ҳам ёрдамчи восита сифатида шаклланганлигини кўришимиз мумкин.

Ролли ўйинлар-бу жамоавий, импровизация, саҳналаштирилган ва бепул шаклда "интерфаол ҳикоялар" бўлиб, улар одатда стол атрофида ўтирадилар ва воқеалар ва эслатма қаҳрамонларини кузатиб бориш учун қоғоз ва қаламдан фойдаланадилар.[2]

Ижодий ўйинлар доимо ҳаётни акс эттиргани сабабли унинг мазмуни ижтимоий вокеликда ўзгариб туради. Ўйин–мақсадга қаратилган, ўйланган жараён бўлгани учун ҳам мазкур жараён асосида ўқув фаолияти ривожланади. Ўқувчи ўйин жараёнида амалий эҳтиёжларга қарам бўлмайди. Бунда у ўзининг бевосита эҳтиёж ва қизиқишларидан келиб чиқади ҳамда жараёнда ўз таассуротлари, борлиқ ҳаётдаги тушунчалари ва унга бўлган ўз муносабатларини акс эттирадилар. [3]

Ижодий ўйинларда ҳатти-ҳаракатларни, қоидаларни эгаллаш асосида, ролда мужассамлаштирилган ахлоқий қоидалар ҳам ўзлаштирилади.

Жараённинг ўзида бевосита қатнашмасдан жонли театрда, концертда ёки пойга мусобақаларида томоша қилиш орқали тажриба орттириш ва тушуниш жуда қийин бўлгани каби, кўпчилик учун рол ўйнашсиз ўйин нима эканлигини аниқ англаш қийин. Бунинг учун, ўқувчи жараённи ўз бошидан кечириши лозим. "Кўзойнак орқали қараш" психологик тадқиқотида Николай Йи “Ролли ўйинлар шунчаки ўйин эмас-бу тажрибадир"-деб таъкидлаган.[4]

Ўйинда кишилар турмушига, ишларига, жамиятдаги хулқ-атвор меъёр ва қоидаларига ижобий муносабат, муомала маданияти шакллантирилади. Худди шу жараёнда ўйин мавжуд билимларни мустаҳкамлаш воситаси сифатида ҳам юзага келиб, унда ўқувчи атроф-муҳитдаги вокеа ва ҳодисаларни акс эттириб, ҳаёлан айни пайтгача олган билимларини қайта тиклайди ҳамда ўйиннинг ана шу хаёлий вазияти ўқувчининг ақлий фаолиятининг ривожланишига мунтазам таъсир кўрсатади. Ўйинда ўқувчининг катта ҳаракат тажрибаси шаклланади. Турли ҳаракатларни ривожлантириш ва такомиллаштириш учун қулай шароит яратилади, ўқувчи ролга киради, ўз ролига оид ҳатти-ҳаракатларни амалга ошириш учун ўзига бириктирилган вазифанинг эътиборга олиниши лозим бўлган хусусиятларини онгли равишда ифодалайди. Шу маънода, ўйиннинг санъатга яқинлиги ижодий ўйинлардан эстетик тарбияда фойдаланиш имкониятини ҳам яратади. Ўқувчи ўйинидаги ижодкорлик билан боғлиқ бўлган туйғулар эстетик туйғуларга яқин туради.

Таълимда қўлланилиши мумкин бўлган ижодий ўйинларнинг бир тури бу-саҳналаштириш ўйинларидир. Бу ўқувчиларнинг мустакил ижодий ўйин тури бўлиб, унда бадиий асар, ҳикоя ёки воқеликлар ўқувчилар томонидан ролларга бўлиб ижро этилади. Бу ўйинлар ўқувчиларда ирода, интизом ва ўз ҳатти-ҳаракатларини бошқара олиш, бошқаларнинг ҳаракатлари билан ҳисоблашиш каби ижобий-маънавий хислатларни шакллантиради.

Саҳналаштириш ўйинларида ўқувчилар ўйин жараёнига кириб борадилар, воқеа қаҳрамонларининг ички ҳаётига бевосита алоқадор бўлган қаҳрамонлик, жасурлик, меҳрибонлик, жонбозлик, жонкуярлик каби ижобий фазилатларни ўзларида яккол намоён қиладилар. Бу жараёнда ўқувчиларнинг нутқ фаоллиги, луғат бойлиги, дунёқараши кенгайиб боради.

Саҳналаштириш учун бадиий асар, эртаклар танлаш ўқитувчилардан ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари, қизикишлари, истакларини ҳисобга олишни талаб этади. Саҳналаштириш ўйинлари қизикарли ўтиши ва узоқ вақт давом этиши учун керакли жиҳозлар тайёрланиши ва унга тўғри раҳбарлик қилиниши керак. Ўқитувчи жараёнда ўйин режиссёри ролини амалга ошира бориб, ўқувчиларнинг ҳатти-ҳаракатлари, қобилиятлари, интилишларини ҳисобга олиб борадилар. Машғулот якунида эса ўйинда фаол иштирок этган ўқувчиларни алоҳида рағбатлантирилиб, ўзлаштирилган маълумотларни ўқитувчи томонидан умумлаштирилиши ҳамда қўшимча маълумотлар билан тўлдирилиши мақсадга мувофиқдир.

Ижодий ўйинлар таълимий ўйин сифатида ўқувчиларнинг ёш хусусиятларига мос келадиган ўйинлар сирасига киради. Ижодий ўйинларнинг муҳим белгиси ундаги коидаларнинг мавжудлигидир. Ўйинда ўйин нияти, ўйин коидалари, ўйин ҳаракатлари уртасида узвий алока мавжуд. Ўйин мақсади ўйин ҳаракатларининг табиатини белгиласа, ўйин коидаси ҳаракатлар, хусусан, вазифани ҳал этишга қаратилган ҳаракатларни амалга оширишга ёрдам беради.

Ижодий ўйинлар оркали ўқувчиларга янги билимлар, тушунчалар бериб борилади ва албатта қайта ўзида такрорлаш орқали мустаҳкамланади. Бу ўйинларда ўқувчининг ҳар томонлама ривожланиши, билим жараёни, сенсор маданияти, нутк фаолияти, ақлий қобилиятлари такомиллашади.

Шунингдек, ўйинларда ўйин темпи ва ритми ҳам катта роль ўйнайди, жуда секин ва бир текисдаги темп ўқувчини кўп куттиради, жуда тез темп эса ўқувчиларни ҳаяжонга солади, турли баҳс-мунозараларга олиб келади. Шунинг учун ҳам катталар томонидан ўйинни тўғри ташкил этиш ва иштирокчиларини тўғри баҳолаш муҳим аҳамиятга эга.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, ўйин таркибига максад, режалаштириш, максадга эришиш, натижаларни таҳлил килиш каби компонентлар албатта киритилиши лозим. Гарчи, ўйиннинг хусусияти унинг ижодийлигида бўлсада ундан кутилаётган натижа, яъни ўқувчида пайдо бўладиган билим,малака ёки кўникма энг асосий мақсад ҳисобланади. Балки шунинг учун ҳам, назарий жиҳатдан ўйинга фаолият, жараён ва ўқитиш методи сифатида ҳам қараш мумкин.

Таълим жараёнида бу каби ижодкорликка йўналтирилган методлардан қай тарзда фойдаланиш эса ҳар бир мутахассис, таълим ёки тарбия берувчининг ўзига боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Голиш Л.В., Хашимова Д.П, Абтобхуджаева Х.Х. Ўқитувчиларнинг ўқув фанларидан таълим технологияси, ўқув-методик мажмуа, портфолиоларини қайта ишлаб чиқиш ҳамда уларнинг сифатини экспертизадан ўтказиш: Касб-ҳунар коллежи ўқитувчилари (тренинг иштирокчилари) учун ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: ЎМКҲТМ АМТХ, 2016 й.– 137 б.
2. Fillips, Briyan David. “Role-playing Games in the English as a Foreign Language Classroom.” Taipei, Xitoy: Crane Publishing Ltd., 1994
3. Yongkum Bayek. Sinfda qo’llaniladigan o’yinlar. Hershey-Nyu York. 2019
4. Yee, Nicholas. “Looking Through the Glass: An Exploration of the Interplay Between Player and Character Selves in Role-Playing Games.” Psychological Study Haverford College. 1999

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА РИВОЖЛАНИШ МАРКАЗЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МУАММОЛАРИГА ДОИР

Ўринова Феруза Ўлжаевна
Фарғона давлат университети

Аннотация: *Ушбу мақолада мактабгача таълим муассасаларида ривожланиш марказларини замонавий ёндошув асосида ташкил этиш масалалалари ёритилган.*

Калит сўзлар: *замонавий ёндошув, марказ, ривожланиш, STEAMтанқидий фикрлаш, мустақил фикрлаш, фаол мулоқот, якка тартиб.*

ДОКЛАД О ПРОБЛЕМАХ ОРГАНИЗАЦИОННЫХ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ ЦЕНТРОВ

Уринова Феруза Улжаевна
Ферганский государственный университет

Аннотация*: Эта статья поможет вам узнать, как создать современные центры развития в дошкольных учреждениях.*

Ключевая слова*: современное общение, центр, развитие, STEAM, критическое мышление, прямое мышление, активная встреча, единый заказ.*

REPORT ON PROBLEMS IN THE PRE- SCHOOLS OF ORGANIZATIONAL PREVENTIVE CENTERS

O’rinova Feruza O’ljayevna
Ferghana State University

Resume*: This article shall be development report on problems how to create modern communication centers in pre-school educations.*

Key words: *modern communication, center, development, STEAM, critical thinking, direct thinking, active meeting, single order.*

«Илк ва мактабгача ёшдаги болаларнинг ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари» ва «Илк қадам» ўқув дастурининг ишлаб чиқилиши узлуксиз таълим тизимида мактабгача таълимни самарали амалга ошириш учун кенг имкониятлар яратди. Ўқув дастурда мактабгача таълим муассасасида ривожлантирувчи муҳитни ташкил этишда болаларнинг ўзига хос белгиларга эга бўлган ёшга доир хусусиятлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиш муҳим аҳмият касб этиши қайд этилади. Шу билан бирга ривожлантирувчи муҳит мазмунига қуйидагилар кўрсатилади:

- мактабгача таълим муассасасининг кўргазмали-ривожлантирувчи муҳити мазмуни маданий-тарихий қадриятлар: миллий ва минтақавий анъаналар; табиат, иқлимдан келиб чиқувчи хусусиятларга мос бўлиши лозим;
- муҳит мазмуни бирламчи дунёқараш асосларини шакллантириш, боланинг муваффақиятли ижтимоий мослашувига ёрдам бериши лозим. Албатта, мактабгача таълимни ҳам шаклан, ҳам мазмунан янгилашга қаратилган бу каби инновациялар ота-оналардан тортиб барча педагоглар бола тарбияси, унинг таълим олишга тайёргарлигига замон талабларидан келиб чиққан ҳолда ёндашувини талаб этади. Мактабгача таълим муассасалари гуруҳларида ташкил этиладиган ривожланиш (ривожланиш) марказларидаги жараёнлар болаларнинг доимий равишда янги билимларни ўзлаштиришга, мустаҳкамлашга ёрдам беради. Болаларни ўз билимини мустақил равишда тўлдириб бориш, кечаётган янгиланиш жараёнларига муносиб мослашиб боришга ўргатиш ривожланиш марказларининг асосий мақсадидир. Дастур

асосида ташкил этиладиган ривожланиш марказлари болаларда қуйидагиларни таркиб топтиради:

- ўзгаришларни қабул қилиш ва амалга ошириш;
- танқидий фикрлаш;
- танлашни амалга ошириш;
- муаммоларни эта олиш;
- ижодий, тафаккур ва ихтирочилик имкониятларини намоён этиш;
- одамлар, жамият, мамлакат, атроф-олам тўғрисида ғамхўрлик қилиш.

Бугунги дунё кечаги каби эмас, эртанги кун ҳам бугунги каби бўлмайди. Инсон фаолияти барча соҳаларида динамик ривожланаётган технологиялар жорий этилмоқда. Замонавий болаларнинг 65 фоизи бугунги кунда мавжуд бўлмаган касбларни эгаллайди. Келажакдаги мутахассислар технология, илм-фан ва муҳандисликнинг турли хил соҳаларидан комплекс таълим ва билимларга муҳтож бўлади.

STEAM фарзандларимизга - ихтирочилар, кашфиётчиларнинг келажак авлоди, олим сифатида тадқиқотлар олиб бориш, технологияни шакллантириш,

муҳандис сифатида лойиҳалаш, рассом сифатида яратувчи, математик сифатида аналитик фикр юритишни ўйин орқали юзага келтиради. Бугунги кунда STEAM-таълим дунёдаги асосий тенденциялардан бири сифатида ривожланмоқда ва амалиёт ёндашувни қўллашда бешта соҳани ягона ўқув схемасига интеграциялашга асосланган. Бундай таълимнинг шартлари унинг узлуксизлиги ва болаларнинг гуруҳларда ўзаро мулоқот қилиш қобилиятини ривожлантириш бўлиб, бунда улар фикрларни тўплаши ва фикрлар алмашади. Шунинг учун, асосий таълим дастурига қуйидагилар Лего- технологиялар, болалар тадқиқотлари каби мантиқий фикрлашни ривожлантириш модуллари киради.

STEAM (S-фан, T-технология, E-муҳандислик, A-санъат, M - математика) - илм-фан, технология, муҳандислик, санъат ва математикани бирлаштирувчи замонавий ёндашув. STEAM болаларда қуйидаги муҳим хусусиятлар ва кўникмаларни ривожлантиришга қуйидагича ёрдам беради:

- Муаммоларни кенг қамровли тушуниш;
- Ижодий фикрлаш;
- Муҳандислик ёндашув;
- Танқидий фикрлаш;
- Илмий методларни тушуниш ва қўллаш;
- Дизайн асосларини тушуниш.

Бу ёндашув келажакда болаларда ҳаётий муаммоларни ҳал этишда ёрдам беради. Кўпгина ривожланган давлатларда, жумладан АҚШ, Япония, Израил, Сингапур, Россияда мактабгача таълим муассаларида болаларни ижодий ва ихтирочилик қобилиятларини ривожлантириш мақсадида мазкур ёндашув методларидан самарали фойдаланиб келинмоқда.

STEAM ёндашуви туфайли болалар табиатни тушуниб, дунёни мунтазам ўрганишади ва шу билан қизиқишларини, муҳандислик фикрлаш услубини, танқидий вазиятлардан чиқиш қобилиятини, жамоавий иш қобилиятини ривожлантириш ва лидерлик, ўз-ўзини намоён қилиш асосларини ўрганишади, ўз навбатида, болалар ривожланишининг тубдан янги даражасини таъминлайди.

Ўз-ўзига ишончни шакллантириш. Бу ёндашувда болалар ўз қўллари билан яратган кўприк ва йўллар, самолётлар ва автомобилларни "ишга тушириб", сув ости ва ҳаво тузилмаларини "ривожлантириб", синовдан ўтказиб, ҳар сафар улар мақсадга яқинлашиб боришади. Яхши натижа бермаган “маҳсулот”ни қайта-қайта синовдан ўтказиб, такомиллаштириб боришади. Натижада барча муаммоларни ўзи ҳал қилиш, мақсадга эришиш болалар учун илҳом, ғалаба, адреналин ва қувонч олиб келади. Ҳар бир ғалаба, ўзларининг қобилиятларига кўпроқ ишонч уйғотади.

Фаол мулоқот ва жамоавий иш. STEAM дастурлари ҳам фаол мулоқот ва гуруҳ иши билан ажралиб туради. Муҳокама босқичида улар фикр билдиришга қўрқмасликка ўрганадилар. Кўпинча, стол атрофида ўтирмайди, ўзларининг дизайнлари асосидаги “маҳсулот”ларни синовдан ўтказади ва ривожлантиради. Улар ҳамма вақт ҳамкорликни таъминлайдиган жамоада тарбиячилар ва уларнинг дўстлари билан мулоқот қилиш билан банд бўлишади.

Техник фанлар бўйича қизиқишларни ривожлантириш. Мактабгача ва бошланғич мактаб ёшидаги STEAM таълими вазифаси қизиқишнинг ривожланиши учун дастлабки шарт-шароитларни яратишдир. Болалар учун табиат фанлари ва техник фанлар бўйича, қилган ишни яхши кўриш, қизиқишни ривожлантириш учун асосдир. STEAM – болалар учун жуда қизиқарли ва динамик бўлиб, болаларнинг зерикишларига тўсқинлик қилади. Улар вақт ўтаётганини сезмайдилар, лекин ҳам чарчамадилар. Ракеталар, автоуловлар, кўприклар, осмонўпар биноларни қуриш, электрон ўйинлар, фабрикалар, логистика тармоқларини яратиш, денгиз ости кемалари, илм-фан ва технологияга қизиқиши ортиб борада.

Лойиҳалар учун ижодий ва инновацион ёндашувлар. STEAM таълими олтита босқичдан иборат: савол (вазифа), муҳокамалар, дизайн, қурилиш, тест ва такомиллаштириш. Ушбу босқичлар мунтазам равишда лойиҳа ёндашувининг асосидир. Ўз навбатида ҳамкорлик ёки турли имкониятлардан биргаликда фойдаланиш ижодкорлик асоси ҳисобланади. Шундай қилиб, бир вақтда болаларда фан ва технологияларни қўллаш, янги инновацияларни яратиши мумкин. Оқилона ташкил этилган соғлом ижтимоий-маънавий муҳит болаларда изланишга, ташаббус кўрсатишга ва ижодкорлик қобилиятларини намоён этишга рағбат уйғотади. Бунда тарбиячилар бола ривожланиши қандай кечаётганлиги тўғрисида аниқ тасаввурга эга бўлишлари, бунинг учун эса уларни доимий равишда назорат қилиб боришлари зарур бўлади.

Тарбиячи ўқув материалини болаларнинг ёш хусусиятларини инобатга олган ҳолда уларга муносиб тарзда етказади. Мактабгача таълим муассасалари педагогик жамоасининг ўрни шундан иборатки, улар ҳар бир боланинг қизиқиши, қобилияти ва эҳтиёжини инобатга олган ҳолда мос келадиган мақсадлар қўйишлари, болалардаги табиий қизиқишларни қўллаб-қувватлашлари, уларда борлиқни биргаликда ўзлаштириш кўникмаларини шакллантиришлари керак.

Бола ривожланишининг ўзига хослигини инобатга олишда аввало шуни тушуниб етиш керакки, барча болалар ривожланишнинг маълум босқичларини босиб ўтадилар, бироқ бунда ҳар бир бола ноёб ва такрорланмасдир. Тарбиячилар болаларни айнан бир хил, ўхшаш нарсалар ва фаолият турлари билан таъминлашлари учун уларнинг ўзига хос, бошқалардан ажралиб турадиган ривожланиш кўрсаткичлари тўғрисида тўлиқ тасаввурга эга бўлишлари лозим. Шунингдек, тарбиячилар бир хил ёшдаги турли болаларнинг қобилиятлари ва қизиқишларидаги фарқларга эътибор билан муносабатда бўлишлари кераклигини мутахассислар алоҳида таъкидлашади.

Бунда бола ривожланишининг ўзига хослигига доир, болалар қизиқишларига жавоб берувчи фаолият турлари, яъни уларнинг ақлий, ижтимоий ва маънавий етуклик даражаси назарда тутилади. Бундай фаолият турлари болаларнинг табиатга қизиқишларига, тажрибадан қониқиш ҳосил қилишларига ва ўз ғояларини тажрибада синаб кўриш хохиш-истакларига қаратилгандир.

Ривожланиш марказларидаги таълим жараёнида болаларнинг ўзлари тегишли ривожланиш марказини ихтиёрий танлай бошлайдилар. Болаларни

мустақил гуруҳларда ишлаши, индивидуаллаштиришда тарбиячи шундай фаолият турларини ўйлаб топадики, унда барчага бирдек кўрсатма берилса-да, бироқ ҳар бир бола ундан келиб чиққан ҳолда ўзи мустақил равишда муваффақиятга эришишига имкон берилади. Индивидуаллаштириш даражасини оптималлаштириш мумкин. Эпчиллик ва топқирлик талаб этиладиган фаолият турини танлаган ва болаларни диққат билан кузатган ҳолда тарбиячи зарурият туғилиб қолса топшириқ ва материалларни ўзгартириши ёки мослаштириши мумкин.

"Илк қадам" ўқув дастури асосида мактабгача таълим муассасаларида қуйидаги ривожланиш марказлари фаолияти юритилиши назарда тутилади:

- Қурилиш ва конструкциялаш маркази
- Сюжет-ролли ўйинлар ва драмалаштириш маркази
- Тил ва нутқ
- Илм-фан ва табиат маркази
- Санъат маркази
- Мусиқа ва ритмика маркази.

Ривожланиш марказлари болаларга ўзларининг шахсий кўникмалари ва қизиқишларидан келиб чиққан ҳолда таълим-тарбия жараёнини мустақил индивидуаллаштириш имкониятини беради. Масалан, санъат марказида бир бола қоғоз қирқади, бошқа бола эса шу қоғоздан қайчи билан ўзи ўйлаган шаклчани кесиб олади. Стол устида ўйналадиган ўйинлар марказида бир бола тўртта ёғоч кубикдан шакл ясайди, бошқа бирови эса йигирма беш бўлакли картон қоғозли тасвирни тузишни маъқул кўради. Тарбиячи жараёнда болаларни кузатади ва уларнинг ривожланишига дахлдор фикрларни ёзиб боради. Анча вақтдан сўнг у болаларга вазифани мураккаблаштирувчи материалларни таклиф этади ёки вазиятга қараб ана шу вазифаларни бажаришда болага тўғридан тўғри ёрдам беради. Бундай йўл тутиш туфайли бола яхши суръатда ўсиб-улғайиши мумкин.

Тарбиячилар ривожланиш марказларида болаларнинг ёрдамчилари ролини ўйнайдилар, машғулотлар олиб бориладиган жойда имкониятлар кенглигини таъмин этадилар ва ҳар бир бола индивидуал ривожланиши даражасини эгаллай олган ҳолда фаолият турларини режалаштирадилар. Кун тартиби турли машғулот турларини ўзида қамраб олиши лозим: кичик гуруҳларда биргаликда ва тарбиячи ҳамкорлигида якка тартибда (индивидуал) ёки мустақил (улар томонидан танлаган машғулотларга вақт ажратиш керак, чунки болалар онгли танлаб олишни ўрганадилар, ўз қизиқиш ва қобилиятларини амалга оширадилар). Болаларнинг ўз танловларини амалга ошириши, муаммоларни ҳал этиши, атрофдаги кишилар билан биргаликда ҳаракат қилиши, индивдуал мақсад қўйиши ва унга эришишни билишлари лозим.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дубровина И.В. “Зависимость развития познавательных интересов детей от характера их подготовки к школе”, “Некоторые актуальные психолого-педагогические проблемы воспитания и воспитывающего обучения”. М., 1976. С. 291-300.
2. Д. А. Нуркелдиева ва бошқалар “Бармоқлар машқи ва логопедик ўйинлар”. Тошкент -2007 й.
3. О.У.Хасанбоева. “Мактабгача таълим педагогикаси”. Т.: «Илм зиё» 2006
4. Ш.А.Содиқова. “Мактабгача педагогика”. Т:. “Тафаккур сарчашмалари”, 2013
5. М.Файзуллаева ва бошқ. “Мактабгача таълим муассасаларида таълим-тарбия жараёнини режалаштириш”.Т.: 2015
6. К.Низомова. “6 ёшли болаларни мактабга тайёрлаш ва мактабга мослашувини ўрганиш.” Т.: 2006.
7. “Илк қадам” мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Т.: 2018.
8. Х.Ахмедова, Л.Рахимова. “Болага йўналтирилган таълим» дастурини ташкил этиш”. Т.: 2012
9. Республика болалар кутубхонаси: www.kitob.uz.

ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА УМУМАХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИНГ ЎРНИ

Эргашева Фотима Ибрагимовна
Наманган муҳандислик-технология институти
Ассистент

Аннотация: *Мақолада тадбиркорлик фаолиятида умумахлоқий меъёрлар, тадбиркорнинг маданият фазилатлари ўрни ёритилган. Шунингдек, тадбиркор маданиятини шаклланишидаги мавжуд муаммолар ва ечим учун тавсиялар берилган.*

Калит сўз ва иборалар: *тадбиркорлик, умумаҳлоқий меъёрлар, тадбиркорлик маданияти, тадбиркорлик маданияти фазилатлари, иш жойини ташкиллаштириш маданияти, шахслараро муносабатдаги маданият, тадбиркорлик маданиятини шакллантириш*

РОЛЬ ОБЩЕНРАВСТВЕННЫХ НОРМ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Эргашева Фотима Ибрагимовна
Наманганский инженерно-технологический институт
Ассистент

Аннотация: *В статье рассмотрено роль обще нравственных норм, значения достоинства культуры предпринимателя в деятельности предпринимательства. Также, проблемы в сформировании культуры предпринимателя и рекомендации их решений.*

Ключевые слова и выражения: *предпринимательство, обще нравственные нормы, культура предпринимательства, достоинство культуры предпринимательства, культура организации рабочего место, культура межличностных отношений, сформирование культуры предпринимательства*

THE ROLE OF GENERAL ETHICAL NORMS IN ACTIVITY OF ENTREPRENEURSHIP

Ergasheva Fotima Ibragimovna
Namangan engineering –technological institute
Assistant

Annotation: *The article considered the role of general ethical norms, the meaning of quality culture of businessman in activity of entrepreneurship. There are also some problems in forming culture of businessman and recommendations for their solutions.*

The key words and expressions: *entrepreneurship, ethics, the culture of entrepreneurship, the quality of culture of entrepreneurship, culture of workplace organization, interpersonal culture, the form of entrepreneurship culture*

Мамлакатимизнинг барча соҳаларида амалга оширилаётган ислоҳотларнинг асосий мақсади-кучли миллий иқтисодиётни яратиш ва шунга асосланган ҳолда аҳоли фаровонлигини ошириб бориш ҳисобланади. Бунда замонавий бозор механизмлари самарадорлигини таъминловчи муҳим омил кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Шу ўринда тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ бўлган қонун ва бошқа меъёрий ҳужжатларда уларнинг фаолиятларини ривожлантириш, рағбатлантириш ва ҳуқуқ ҳамда,манфаатларини ҳимоя қилишни давлат томонидан кафолатланганлиги алоҳида аҳамиятга эга бўлмоқда. Бу амалий ишларни давомийлигини президентимизнинг қуйидаги фикрларида ҳам кўришимиз мумкин: “...тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш бўйича ишлар жадал давом эттирилади. Буюк аллома Нажмиддин Кубро ҳазратлари “Муваффақиятни – саъй-ҳаракатда, муваффақиятсизликни эса – лоқайдлик ва дангасаликда кўрдим”, деб бежиз айтмаганлар. Ҳақиқатан ҳам, биз фақат фаол тадбиркорлик, тинимсиз меҳнат ва интилиш орқали тараққиётга, фаровон ҳаётга эриша оламиз”[1].

Мамлакатимиз иқтисодиётида тадбиркорлик улушини ошиб бориши- ички бозорни сифатли ва рақобатбардош товарлар билан тўлдириш, замонавий хизматлар кўрсатиш соҳасини кенгайтириш, рақобатбардош товарлар ҳисобига экспорт ҳажмини ошириш, аҳоли ва корхоналар даромадларини кўпайтиришни асосий омилларидан бири ҳисобланади.

Республикамиз иқтисодиётини барқарор ва доимий ривожланишини таъминлаш, халқнинг ҳаёт даражаси ва фаровонлигини янада оширишда тадбиркорлик имкониятларидан кенг фойдаланиш лозимлиги, энг муҳими ушбу соҳа келажакда ҳам диққат-эътибор марказида бўлишини жамиятнинг барча аъзоларига, энг аввало талаба ёшларнинг онгига чуқур сингдириш муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда. Юртбошимиз таъкидлаганларидек, “Мамлакатимиз аҳолисининг

қарийб ярмини ташкил этадиган ёшлар билан ишлаш масаласи, бундан буён ҳам энг асосий вазифаларимиздан бири бўлиб қолади. Ёшларни тадбиркорликка кенг жалб этиш, уларнинг бандлигини таъминлаш мақсадида "Ёшлар – келажагимиз" жамғармаси фаолиятини янада кенгайтириш зарур"[1].

Демак, ёшларга тадбиркорлик билим ва кўникмалари бериш, малакаларни ривожлантириш педагоглар зиммасига шу муҳим, долзарб вазифани бажаришни юклайди.

Шуни ҳам эътибордан четда қолдирмаслик керакки, тадбиркорлик фаолияти тадбиркорликнинг нафақат ҳуқуқий ва ташкилий асосларига боғлиқ бўлиб қолмасдан, балки, қўл остида хизмат қилувчи мутахассислар ва ишчилар, ҳамкорлар, бизнесменлар доирасида умумахлоқий меъёрларга риоя қилиши билан ҳам баҳоланади. Тадбиркорликнинг иш фаолиятида эришган ютуқларининг ярмидан кўпроғи унинг одоби, маданияти, дунёқараши, ишбилармонлик ва муомала қоидаларини билишига бевосита боғлиқдир[2].

Тадбиркор маданияти деганда тадбиркор одоби ва иқтидори ўртасидаги диалектик боғлиқлик тушунилади. Одоб тадбиркорни энг чиройли хулқ билан қуроллантиради. Баъзи ҳакимлар одобни "энг маъсум ва кўркам феълга эга бўлиш" десалар, баъзилари "нафсни барча қабиҳ одатлардан тозалаш" деб таъриф беришади.[3]

Бугунги тадбиркорда қуйидаги фазилатлар шаклланиши лозимлиги керак деб ўйлаймиз.

1-жадвал

Тадбиркор маданияти фазилатлари

№	Фазилатлар	№	Фазилатлар
1	Одоб	11	Истеъдод
2	Иймон	12	Меҳнатсевар
3	Эътиқод	13	Ташаббускор
4	Ҳалол	14	Новатор
5	Шарм	15	Меҳрибон
6	Ориятли	16	Мард, чидамли
7	Андиша	17	Инсонпарвар
8	Инсоф	18	Виждонли
9	Адолат	19	Самимийлик
10	Иқтидор	20	Шахслараро муносабат маданият
21	**Иш жараёнларини ташкиллаштириш маданияти**		
1	Фикр алмашиш маданияти	7	Ташкилотчилик
2	Тинглаш маданияти	8	Меҳнатга тўғри муносабатда бўлиш
3	Бошқарув маданияти	9	Нотиқлик маданияти
4	Кун тартибини режалаштириш ва ташкил этиш маданияти	10	Ташкилот қадриятларига эътиборлилик

5	Қарор қабул қила олиш	11	Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш
6	Коммуникация маданияти	12	Қулай ижтимоий-руҳий муҳитни ташкиллаштириш

Манба: муаллиф ишланмаси

Юқорида таъкидлаганимиздек, тадбиркор одоби иқтидор билан боғлиқ. Иқтидор ўқувчи ёки талабанинг куч-қудрати ёки бирор муаммони ҳал қилишга қодирлигини ифодаси.[4] Ёки, иқтидор – деб инсоннинг ўз хатти-ҳаракатларига нисбатан субъектив муносабатига айтилади. У шахснинг ўз хулқи эканлигига комил ишончи қатъийлиги натижасида намоён бўлади. Бирор соҳа бўйича лаёқатини онгли равишда сезган одам ўзидаги қобилиятни тўла намоён қилиш учун қатъий кўрсатади. Иқтидорлилар куч-қувватини аямайди ва кутилган натижасига – мақсадига етади, яъни ўзини бор бўйича кўрсата олади, ана шуни иқтидор деса арзийди. Иқтидорли инсонлар ишда мардлик, чидамлик, ўз-ўзини бошқара олиш, ташаббускорлик каби хислат ва фазилатларга эга бўлишади, ўз хатти ҳаракатларига хамиша танқдий кўз билан қарайдилар, доимо олға интиладилар, эришган самаралари билан ҳеч қачон чекланиб қолмайдилар. Улар ўз фаолияти билан ҳатто баъзи бир камҳаракат катта истеъдод эгаларига қараганда ҳам жамиятга кўпроқ фойда етказадилар[5]. Демак, иқтидор ҳам бўлажак тадбиркор ёшларни ижобий фазилатларини шаклланишида аҳамият касб этади. Ушбу фазилатлар тадбиркорларда тўғри шаклланиши мақсадга мувофиқдир. чунки, бугунги кун талаба ёшлари олий даргоҳни битирар экан, улар дастлабки тадбиркорлик фаолиятларини олиб бормоқдалар. Жумладан, талаба-ёшлар ўз кичик корхоналарини, якка тадбиркорлик фаолиятларини ташкил этиб, ўз даромадларини шакллантириб бормоқдалар. Бу жараёнда ёшлар тадбиркорлик малакасини ривожлантириб боришида юқорида таъкидлаган фазилатларни шакллантиришлари керак бўлади.

Талабалар тадбиркорлик қирраларини ўзлаштириб борар эканлар, энг аввало ўз эҳтиёжларини қондириш, орзу-ҳавасларига етиш, келажакда юксалиб боришларида ўзларини мустақил моддий таъминлаб боришларини мақсад қилиб қўядилар. Шу ўринда талабаларга ўз мақсадларига эришишда жамият ва халқ фаровонлиги учун хизмат қилишни асосий мақсадлари қаторига қўшишлари керак. Уларнинг меҳнат маҳсулининг провард истеъмолчиси бу халқдир. Демак, халқ ва жамиятни манфаатини кўзлаб иш олиб бориш виждонли, меҳнатсевар тадбиркорни бош вазифаси бўлиши керак.

Тадқиқотларимизни кўрсатишича, тадбиркорлик маданиятини шакллантиришга зарурият туғдирувчи муаммолар мавжуд бўлиб, уларни қуйида санаб ўтишимиз мумкин:

-тадбиркорлик фаолиятида ёмон хислатларни, нопокликни учраб туриши;

- нафсни ёмон одатларга ўрганиб бориши;

-тадбиркорга ишончни пасайиб бориши;

-ҳалоллик, тўғрилик ва ҳақиқатгўйликни йўқолиб бориши, адолатсизликни учраб туриши;

-иқтидорни пасайиши;

-ўзаро муносабатларда этик нормаларни бузилиши;

-қониқарсиз руҳий муҳитни шаклланиб бориши;

-янги малака орттиришга интилишни сусайиб бориши, фақатгина мўмай пул топиш ортидан қувишни сезиларни кўзга ташланиши;

-инновацион ғоялар, янгиликларни олиб киришга ташаббускорликни етишмаслиги;

-ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлардаги нормативларга риоя этмаслик ҳолатларини кузатилиши;

-тадбиркор ўртасида ғирром рақобатга йўл қўйилишини мавжудлиги ва шу кабилар.

Ушбу муаммолар тадбиркорлик малакасини эгаллашда эътибордан четда қолдирмайдиган алоҳида масала эканлигини кўрсатмоқда. Ўз навбатида булар салбий таъсир кўрсатувчи омиллар қаторига киради.

Бизнингча, тадбиркорлик маданиятини шаклланишида мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун қуйидагиларни амалга оширишни мувофиқ деб ўйлаймиз:

-ҳалол меҳнат билан бойлик орттиришни, бу бойлик халққа ва жамиятга фойдали бўлиши кераклигини сингдириш;

-эътиқодли, фидойи, лафзли бўлишга ўргатиш ва уни шакллантириш;

-инсофли, диёнатли, адолат билан иш кўришга чорлаш;

-иқтидори ва қобилиятини доимо тинимсиз меҳнат орқали тарбиялаб бориш;

-ташаббускорлик ва янгиликка интилувчанликни доимий тадбиркорлик фаолиятида бўлишини ўргатиш;

-шахслараро муносабатда этик нормаларни билиши ва уларга риоя қилишни сингдириш;

-тадбиркорлик фаолияти ижтимоий-руҳий муҳитни яхши даражада ташкиллаштиришга ўргатиш;

-тинглаш, нотиқлик, фикрларни етказа олиш маданиятини иш ўйинларини ташкиллаштириш орқали ўргатиб бориш;

-аниқ вазиятларни кўргазмали тарзда кўрсатиш;

-вазиятларни тўғри таҳлил қилган ҳолда мустақил қарор қабул қила олишни шакллантириш;

-ривожланган мамлакатлар тажрибасидан тадбиркорлик маданиятидаги алоҳида аҳамиятли томонларни таҳлил қилиш ва муносиб томонлардан самарали фойдаланишни ўргатиш;

-ижобий натижаларни ўринли мотивлаштириш кўникма ва малакасини шакллантириш.

Юқоридаги тавсияларимиз ўзининг ижобий натижаларини беради деб ўйлаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2019 й. 8-б
2.Umurzaqov U.P., Toshboyev A.J. Kichik biznes va tadbirkorlik. “Sano-standart” nashriyoti. T.:2014. 439-b.
3. Boltaboyev M.P. va boshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlik. “Noshir”. T:-2011. 200-b.
4. Джураев З.Х. Педагогик атамалар луғати.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти.Т.:-2008, 32-б.
5. Хасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Хайдаров М.Э., Хасанбаева О.У.Т.: Фан., 2008. 67-бет.

ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАИЯ МАТЕМАТИКИ ГУМАНИТАРИЯМ

Хуршида Алиевна Устаджалилова
Кокандский государственный педагогический институт имени Мукими, кандидат педагогических наук

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики преподавания математики студентам гуманитарных направлений, предложено повышение интереса к изучению математики и повышение их творческой активности, когда содержание математического курса будет проектироваться и реализовываться в контексте усиления профессиональной направленности обучения. Кроме того, при организации учебного процесса будут учитываться особенности мотивационной сферы студентов.*

Ключевые слова: *методы преподавания, профессиональная направленность обучения, мотив, задачи и примеры.*

TEACHING MATHEMATICS AS A NECESSARY COMPONENT OF TRAINING A FUTURE SPECIALIST

Khurshida Aliyevna Ustadzhalilova
Kokand State Pedagogical Institute named after Mukimi,
candidate of pedagogical sciences

Abstract: The article discusses the issues of improving the methodology of teaching mathematics to students in humanitarian fields, it is proposed to increase interest in the study of mathematics and increase their creative activity when the content of the mathematical course will be designed and implemented in the context of strengthening the professional orientation of training. In addition, the organization of the educational process will take into account the characteristics of the motivational sphere of students.

Key words: teaching methods, professional orientation of training, motive, tasks and examples.

MATEMATIKA FANINI O`QITISHDA TALABALARNI BO`LAJAK KASBIGA YO`NALTIRISH

Xurshida Alievna Ustadjalilova
Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Maqolada gumanitar fanlar yo`nalishi talabalarga matematikani o'qitish metodikasini takomillashtirish muhokama qilinadi, matematikani o'rganishga qiziqishni kuchaytirish va matematik kursning mazmuni o'qitishning kasbiy yo'nalishini kuchaytirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilib, amalga oshirilganda ularning ijodiy faolligini oshirish taklif etiladi. Bundan tashqari, o'quv jarayonini tashkil etishda talabalarning motivatsion sohasining xususiyatlari hisobga olinadi.*

Kalit so'zlar: *o'qitish usullari, o'qitishning professional yo'nalishi, motivi, masala va misollar.*

Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев на торжественной церемонии вступления в должность отметил: «Все мы гордимся тем, что наша молодежь по праву становится решающей силой сегодняшнего дня, способной взять на себя ответственность за будущее Родины. Мы должны довести до логического завершения проводимую в этом направлении широкомасштабную работу, в частности, принятые общенациональные программы в сфере образования и воспитания. В связи с этим важнейшая задача правительства, соответствующих министерств и ведомств, наших уважаемых наставников, профессоров и преподавателей — обеспечить молодежи качественное образование, воспитать её физически здоровыми и духовно зрелыми личностями» [1].

Требования правительства и современного общества к выпускникам пединститутов растут с развитием новых информационных технологий, что ставит вопрос качественного преподавания математики, как актуальный в подготовке профессионально эрудированного, интеллектуально развитого педагога. Вместе с тем это требование отражено и в государственных стандартах образования [2], включающих математику в число образовательных дисциплин изучаемых при подготовке специалистов в гуманитарных областях, что привело к появлению психолого-педагогических и методических проблем, связанных с организацией, осуществлением обучения математике студентов-гуманитариев. Математика для студентов гуманитарных специальностей уже сама по себе предмет довольно трудный и скучный, поэтому если таким же будет еще и стиль ее преподавания, то на особые успехи не стоит рассчитывать.

Изучение математики можно построить на исключительно общеобразовательной основе, знакомя слушателей с основными понятиями и фундаментальными фактами, как достижениями общечеловеческой мысли, общекультурными ценностями. Такой подход мы встретили в работах зарубежных методистов-исследователей Д.Ф.Богатова, Г.Д.Глейзера, П.В Греса и отечественных педагогов Т.Р.Туляганова, У.Толипова, Ш.Юнусовой и др.

Другой подход, ориентирован на математику, как необходимую составляющую подготовки будущего специалиста, то есть с учётом профильной специфики, а также целенаправлен на разъяснение роли математики в общечеловеческой культуре и развитии гуманитарных наук, преемственных связях с получаемой специальностью.

Данная проблема была исследована нами в ходе работы над диссертацией магистра по специальности методика преподавания математики Г. Абдуллаевой КГПИ им. Мукими [3], был проведён анализ сложившейся практики реализации профессиональной направленности обучения математике студентов гуманитариев, проделан анализ учебных планов, типовых программ по математике для всех направлений бакалавриата педагогического института, анализ базовых учебных элементов, проведён педагогический эксперимент и проанализированы его результаты.

В ходе исследования выявлены противоречия следующего характера:

-во-первых, это противоречия между сложившимся в гуманитарной среде отчуждением от математики и гуманизацией сферы научного знания на гуманитарных направлениях обучения;

-во-вторых, это сложившиеся противоречия между ролью математических методов в лингвистических, филологических и других гуманитарных исследованиях и ее отражением в содержании обучения математике на гуманитарных специальностях;

-в третьих, низким уровнем мотивации студентов к изучению математики и потенциальными возможностями курса математики для расширения профессионального кругозора, развития логического мышления, обеспечения ситуаций успеха в обучении математике.

Нами было предположено, что математическая подготовка будущих учителей гуманитарных направлений, повышение интереса к изучению математики и повышение их творческой активности возможно, если содержание математического курса будет проектироваться и реализовываться в контексте усиления профессиональной направленности обучения. Кроме того, при организации учебного процесса будут учитываться особенности мотивационной сферы студентов. Вопросы из истории математики также могут побудить интерес к изучению математики. Как известно из истории математики, гуманитарии внесли немалый вклад в создание современного точного естествознания и математики. К примеру, один из основоположников современной математики Г. Лейбниц по образованию и роду научных занятий был юристом и философом. Известный своими математическими исследованиями П. Ферма также был юристом, причем практикующим [4].

Побуждение мотивации к обучению математике можно назвать одной из центральных проблем математического образования, актуальность чего объясняется новым содержанием образования, перезагрузкой приёмов самостоятельной работы, по приобретению знаний и познавательных интересов, полезной информации, новых технологий, электронно-образовательных ресурсов, воспитания учащихся в

духе патриотизма, формирования у них активной жизненной позиции, введением всеобщего обязательного образования. Современный социальный заказ общества школьному образованию состоит в том, чтобы повысить качество обучения и воспитания, исключая формальное отношение к оценке результатов труда педагога и учащихся.

В формировании и развитии всякого понятия ведущая роль педагога и его педагогического мастерства. Хочется отметить значение исторического материала, связанного с данным понятием и его появлением, как самого термина, так и свойств, характеристики, аксиоматики понятия. Мотивацией к изучению понятия в старших классах на уроках алгебры, геометрии, математического анализа полезным и занимающим учащихся будут несомненно первоисточники, прежде всего связанные с трудами мыслителей, философских, исторических трудов ученых Средних веков. В выступлении Первого Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова на открытии международной конференции «Историческое наследие ученых и мыслителей средневекового Востока, его роль и значение для современной цивилизации» 16 мая 2014 года в г. Самарканде подчеркнута роль великих научных открытий в Средней Азии Средних веков. В своём выступлении наш первый Президент оценил неоспоримое значение трудов ученых в образовании и воспитании сегодняшнего поколения. «Уровень культурного развития любого общества в первую очередь определяют внимание и реальная забота о пожилых людях. Проявление по отношению к ним уважения и почтения является в нашей стране неотъемлемой частью духовной жизни» [1]. Важным в математическом образовании несомненно отмеченный вклад в науку средневековых математиков, в частности, Президент отметил: «Когда мы говорим о великих научных открытиях раннего периода средневекового Востока, в числе первых называем имя Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми, внесшего бесценный вклад в современную математику, тригонометрию и географию. Он первым обосновал и ввел в обиход десятеричную позиционную систему исчисления, знак нуля и полярные координаты, что стало поворотными пунктами в развитии математики и астрономии. Аль-Хорезми создал алгебру как науку, разработал четкие правила изложения научных сведений и трактатов, был автором многих работ по астрономии, географии и теории климата. Заслуги аль-Хорезми в развитии мировой науки общепризнаны, его имя и сочинения, единственные среди ученых средневекового Востока, увековечены в современных научных терминах, таких, как «алгоритм» и «алгебра».

Мы должны занять в мире свое достойное место, а для достижения этого вопрос “Кто мы и чьи мы потомки?” постоянно должен быть в нашей душе и звенеть в нашем сердце. [5]

Постановлением Президента Узбекистана от 15 марта 2017 года Ташкентскому университету информационных технологий (ТУИТ) присвоено имя Мухаммада аль-Хорезми [6]

Особое значение в мотивации к учению математики является пропаганда любви к Родине, проведение мероприятий такого рода оказывает огромное влияние и стимул участия в конкурсах, предметных олимпиадах, спортивных состязаниях.

Таким образом такая мотивационная работа в духе воспитания патриотизма даёт свои результаты как в духовно-нравственном, так и в обучающем аспекте образования.

Повышая интерес к изучению математики, предлагаем особое внимание уделять истории развития современной математики, становлению науки в Республике, вкладе ученых современного Узбекистана в мировую математику, таких Кари Ниязи, Т. Сарымсакова, С.Х.Сирожиддинова, Ш.К.Форманова, Ш. Аюпова.

Таким образом, на современном этапе математического образования необходимо обратить свой взор назад к нашим национальным истокам, истории математики, совершенствуя обучение новыми методами и технологиями обучения, используя информационные технологии и электронные ресурсы, можно сделать вывод о важной роли мотивации в обучении.

Таким образом, опытно-экспериментальная работа подтвердила предположения о необходимости проектирования и реализации методической системы обучения математике, основным принципом которой будет профессиональная направленность обучения, будут учитываться особенности мотивационной сферы студентов, применятся задачи и примеры из истории развития математики

Литература

1. Мирзиёев Ш. М. Речь Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса. Из торжественной церемонии вступления в должность Президента. Ташкент: «Узбекистан». 2016. с. 56
2. Государственные образовательные стандарты непрерывного образования республики Узбекистан. Государственный образовательный стандарт высшего образования для области образования 110000-Педагогика/Издание официальное. -Т.-2016
3. «Научно-методические особенности преподавания в педагогических институтах предмета математика». Абдуллаева Г. Диссертация на соискание степени магистра. Коканд, 2019
4. Тактаров Н.Г. О преподавании математики для гуманитариев // успехи современного естествознания. – 2004. – № 1. – с. 52-54
5. URL://www.gazeta.uz/ru Выступление Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова на открытии международной конференции «Историческое наследие ученых и мыслителей средневекового Востока, его роль и значение для современной цивилизации»
6. Собрание законодательства республики Узбекистан, 2017 г., № 8, ст. 106

ТАЛАБАЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Э.М.Тилеуов
Ажиниёз номидаги Нукус ДПИ тадқиқотчиси

Резюме *Мақолада талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш долзарб ижтимоий-педагогик муаммо эканлиги қайд этилади. Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш технологияларини асослашга эътибор қаратилади.*

Таянч тушунчалар: *Талаба, компетентлик, ҳуқуқий компетентлик, ҳуқуқий компетентликни ривожлантириш, талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш.*

Резюме *В статье отмечается развитие правовой компетентности студентов как социально-педагогическая проблема. Основное внимание уделяется на обоснование технологии развития правовой компетентности студентов.*

Ключевые понятия: *Студент, компетентность, правовая компетентность, развитие правовой компетентности, развитие правовой компетентности студентов.*

Resume*The article highlights developing legal competence of students as a socio-pedagogical problem. The main attention is paid to justifying the technology of developing legal competence of students.*

Key words:*Student, competence, legal competence, developing legal competence, developing legal competence of students.*

Замонавий шароитда ҳар бир шахснинг ижтимоий компетентликка эга бўлиши талаб этилмоқда. Мутахассиснинг касбий тайёргарлигини белгилашда эса унинг касбий компетентлик сифатларига эгаликлари муҳим аҳамиятга эга. Бинобарин, компетентлик негизида мутахассис ўзида нафақат касбий назарий ҳамда амалий билимларни пухта ўзлаштирганликни, балки уларни касбий фаолиятда ҳеч бир қийинчиликсиз қўллаш олий имкониятига эгаликни ҳам намоён эта олиши зарур. Шу сабабли сўнгги йилларда олий таълим муассасаларида бўлажак мутахассисларни тайёрлашда уларнинг касбий компетентлик сифатларига эга бўлишларига ҳам эътибор қаратилмоқда. Олий таълим жараёнида талабалар нафақат бўлажак мутахассис, шу билан бирга фуқаро сифатида ҳам шаклланади. Шунга кўра улар нафақат касбий компетентлик сифатларига, балки унинг негизида ҳуқуқий компетентликка ҳам эга бўлиши зарур.

Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш муаммосининг ечимини топишга қаратилган тадқиқотни олиб бориш жараёнида С.И.Глухих [2], Н.Ы.Жусупова [1], А.Д.Бабаева [1], Д.Киркпатрик (Donald Kirkpatrick) [3], А.В.Коротун [2], М.Е.Полякова [4], А.А.Черемисина [5], О.Р.Чудинов [6] Ҳуқуқий компетентлик ва шахсда уни ривожлантиришга доир адабиётларни дастлабки ўрганиш натижасида тушунчани қуйидагича ёритиш мумкинлигига ишонч ҳосил қилинди: **ҳуқуқий компетентлик** – касбий фаолият ва фуқаролик бурчини тўла

бажариш, жамиятдаги ҳар қандай ҳуқуқбузарликларга нисбатан фаол муносабат билдира олишга хизмат қиладиган ҳуқуқий билим, кўникма, малакалар йиғиндиси ва улардан самарали фойдалана олиш қобилияти.

Тадқиқотни олиб бориш жараёнида диссертантнинг шахсий ёндашувига кўра талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантиришга йўналтирилган педагогик технологияларни асосланди. Бу технологияларнинг инновацион характер касб этишига эътибор қаратилди. Қуйида методиканинг моҳияти очиб берилади.

I. Ижтимоий тармоқлар – Telegramда саҳифа, Facebookда канал фаолияти. Тегишли ижтимоий тармоқларда "Ҳуқуқий ахборот платформаси" номли саҳифа ҳамда канал шакллантирилди. Ижтимоий тармоқлар – Telegramда саҳифа ҳамда Facebookда канални шакллантиришдан кўзланган ***мақсад*** – тажриба гуруҳига жалб қилинган респондент-талабалар ўртасида ҳуқуқий билимларни изчил тарғиб этиш, уларнинг билимларини бойитиш, шунингдек, уларда ижтимоий тармоқлардан мақсадли фойдаланиш малакаларини ривожлантириш.

Мақсадга эришиш йўлида қуйидаги ***вазифалар*** ҳал қилинди: 1. Ташхис методлари (суҳбат, савол-жавоб, тест, анкета сўрови) ёрдамида тажриба гуруҳига жалб этилган респондент-талабаларнинг ҳуқуқий билимлари даражасини баҳолаш. 2. Респондент-талабаларнинг ҳуқуқий билимларни ўзлаштиришдаги қизиқиш ҳамда эҳтиёжларини аниқлаш. 3. Тажриба гуруҳи респондент-талабаларининг мавжуд қизиқиш ва эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда ижтимоий тармоқлар – Telegramда саҳифа ҳамда Facebookда канални шакллантириш. 4. Респондент-талабаларга ижтимоий тармоқлар – Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги канал, улардан фойдаланиш тартиби тўғрисидаги маълумотларни бериш. 5. Педагогик нуқтаи назардан респондент-талабаларининг ижтимоий тармоқлар – Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги каналдан самарали фойдаланишларини кузатиш, ўрганиш ва таҳлил қилиш.

Фаолият тури: ижодий.

Фаолият шакли: амалий иш.

***Қўлланилган методлар*:** ташхис, ахборот тўплаш ва умумлаштириш, назарий таҳлил, ахборотларни туркумлаштириш, амалий машқ (амалий иш – Telegramда саҳифа яратиш, Facebookда канал очиш), тушунтириш, педагогик кузатиш, назорат.

Воситалар: босма ва электрон адабиётлар, Интернет тармоғи, мобил телефон.

Кутилаётган натижа: респондент-талабалар ҳуқуқий билимларининг бойиши, уларда мавжуд билимларни амалиётга самарали татбиқ этишни таъминловчи ҳуқуқий компетентликнинг ривожланиши.

Технологик жиҳатдан ижтимоий тармоқлар – Telegramда саҳифа, Facebookда каналларни шакллантириш бир неча босқичда амалга оширилди. Қуйида ***босқичлар*** ва уларнинг моҳияти қисқача ёритиб ўтилади: 1-босқич. талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини самарали ривожлантиришга имкон берадиган ҳуқуқий ахборотлар тўпламини жамлаш. 2-босқич. Тўпланган ҳуқуқий мазмундаги ахборотларни уларнинг характери, йўналиши, муайян фаолият ёки соҳага тааллуқлилиги ҳамда турига кўра туркумлаштириш. 3-босқич. Ижтимоий тармоқлар – Telegramда саҳифа яратиш, Facebookда канал очишга доир техник масалаларни ҳал қилиш. 4-босқич. Ижтимоий тармоқлар – Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги каналда

бўлимларни шакллантириш. 5-босқич. Саҳифа ва каналда шакллантирилган бўлимларга уларга тааллуқли бўлган ҳуқуқий ахборотларни жойлаштириш. 6-босқич. Тажриба гуруҳига жалб этилган респондент-талабаларга ижтимоий тармоқлар – Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги канал, шунингдек, улардаги ҳуқуқий ахборотлардан фойдаланиш тартиби тўғрисида назарий маълумотларни бериш ва амалий жиҳатдан намойиш этиш. 7-босқич. Респондент-талабаларнинг ижтимоий тармоқлар – Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги каналдан фойдаланишга доир саволларига жавоб қайтариш.

Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги каналларда қуйидаги бўлимлар ташкил этилди: I. Ўзбекистон Республикасининг қонунлари. II. Ўзбекистон Республикасининг Кодекслари. III. Муҳим давлат дастурлари ва концепциялар. IV. Талабаларнинг ўқув-билиш фаолияти мазмунини белгиловчи меъёрий ҳужжатлар. V. Жамиятда кенг тарқалган жиноят ва улар учун белгиланган жазо турлари. VII. Ҳуқуқий мазмундаги ўқув адабиётлари. VI. Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантиришга доир таянч тушунчаларнинг изоҳли луғати. VIII. Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш бўйича тажриба-синов ишларининг дастури. IX. Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантиришга доир дидактик ишланмалар.

II. “Кўнгилли ҳуқуқ тарғиботчиси” волонтёрлар гуруҳи фаолияти. Маълумки, ижтимоий тармоқларда ташкил этилган саҳифа ва каналларга жойлаштирилган ахборотларни изчил равишда тўлдириб, бойитиб бориш талаб этилади. Шу сабабли ҳам ижтимоий тармоқлар – Telegramда саҳифа, Facebookда каналларни шакллантириш, улардаги саҳифаларни доимий, изчил равишда тўлдириб, бойитиб бориш, қолаверса, тенгдош-талабалар ўртасида назарий ҳамда амалий ҳуқуқий билимларни тарғиб этиш мақсадида тадқиқотни олиб бориш жараёнида тажриба гуруҳига жалб қилинган респондент-талабалар орқасида фаол, пухта ҳуқуқий билим ҳамда мулоқот қобилиятига эга талабалар танлаб олиб, улар иштирокида “Кўнгилли ҳуқуқ тарғиботчиси” волонтёрлар гуруҳи ташкил этилди.

Волонтёрлар гуруҳининг фаолияти қуйидаги ***мақсад***га кўра ташкил этилди: тажриба гуруҳи респондент-талабаларининг ҳуқуқий билимларини бойитиш, уларда ижтимоий фаолликни юзага келтириш асосида ҳуқуқий компетентликни ривожлантириш. Мазкур мақсадга қуйидаги ***вазифалар***ни ҳал қилиш орқали эришилди: 1.Ташхис методлари (суҳбат, савол-жавоб, тест, анкета сўрови) ёрдамида тажриба гуруҳига жалб этилган респондент-талабаларнинг ҳуқуқий билимлари даражасини баҳолаш. 2. Респондент-талабалар орасидан фаол, пухта ҳуқуқий билим ҳамда мулоқот қобилиятига эга талабалар танлаб олиш. 3. Танлаб олинган талаблардан иборат волонтёрлар гуруҳини шакллантириш. 4. Волонтёрлик гуруҳи аъзоларини уларнинг зиммасига юкланадиган вазифалар ҳамда иш тартиби билан таништириш. 4. Гуруҳ аъзолари томонидан белгиланган вазифаларни диссертант билан ҳамкорликда бажарилишини таъминлаш. 5. Вазифаларнинг бажарилишини таҳлил қилиш ва баҳолаш. 6. Зарур ўринларда вазифаларга ўзгартиришлар киритиш орқали йўл қўйилган хато, камчиликларни тўғрилаб бориш.

Фаолият тури: амалий.

Фаолият шакли: амалий иш.

***Қўлланилган методлар*:** ташхис, ташхис натижаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, амалий машқ (амалий иш – волонтёрлар гуруҳини шакллантириш), тушунтириш, таҳлил қилиш, коррекция.

Воситалар: ташхис материаллари ва натижалари.

Кутилаётган натижа: респондент-талабалар ҳуқуқий билимларининг бойиши, уларда мавжуд билимларни амалиётга самарали татбиқ этишни таъминловчи ҳуқуқий компетентликнинг ривожланиши.

Волонтёрлар фаолияти қуйидаги йўналишларда ташкил этилди: 1. Тўпланган ҳуқуқий ахборотларни туркумлаштириш ва уларни ижтимоий тармоқлар – Telegramдаги саҳифа, Facebookдаги каналларга жойлаштиришда диссертантга кўмаклашиш. 2. Тенгдошлари ўртасида ҳуқуқий билимларни тарғиб қилиш. 3. Диссертант билан ўзаро ҳамкорликда тенгдошлар томонидан ҳуқуқий билим, кўникма, малака, компетентликни ўзлаштиришда юзага келадиган қийинчиликларни бартараф этишда мобил ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш.

Тадқиқот жараёнида волонтёрлар гуруҳи ҳар бир тажриба-синов майдони бўлган ОТМда ташкил этилди. Гуруҳ аъзоларининг сонига нисбатан регламени белгиланмади. Волонтёрлик гуруҳида фаолият кўрсатиш талабалар томонидан ихтиёрий равишда амалга оширилди.

III. “Мобил ҳуқуқий ёрдам”. Тажриба гуруҳининг респондент-талабалари ўртасида ташкил этилган “мобил ҳуқуқий ёрдам”ни ташкил этишдан кўзланган мақсад улар томонидан ҳуқуқий билим, кўникма, малака ҳамда компетентликни ўзлаштириш жараёнида юзага келаётган қийинчилик ва муаммоларни батараф этишга кўмаклашиш бўлиб, бу мақсадга қуйидаги вазифаларни ҳал қилиш орқали эришилди: 1. Бевосита суҳбат, шунингдек, Telegram, Facebook ижтимоий тармоқларида гуруҳ ташкил этиш орқали ҳуқуқий билим, кўникма, малака ва компетентликни ўзлаштиришда тажриба гуруҳларининг респондент-талабалари дуч келаётган қийинчилик ва муаммоларни аниқлаш. 2. Мавжуд қийинчилик, муаммоларнинг сабабларини ўрганиш ва уларни бартараф этиш чора-тадбирларини белгилаш. 3. Белгиланган чора-тадбирлар асосида респондент-талабаларга методик ёрдам кўрсатиш. 4. Методик ёрдам кўрсатилганидан кейин қийинчилик ҳамда

камчиликларнинг бартараф этилганлик ҳолатини таҳлил қилиш.

Фаолият тури: амалий.

Фаолият шакли: суҳбат, форум, маслаҳат.

***Қўлланилган методлар*:** суҳбат, ташхис, ташхис натижаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, маслаҳат, тушунтириш, таҳлил қилиш, коррекция.

Воситалар: ташхис материаллари ва натижалари.

Кутилаётган натижа: респондент-талабалар ҳуқуқий билимларининг

бойиши, уларда мавжуд билимларни амалиётга самарали татбиқ этишни таъминловчи ҳуқуқий компетентликнинг ривожланиши.

Белгиланган вазифаларга мувофиқ “Мобил ҳуқуқий ёрдам”ни ташкил этиш қуйидаги босқичларда олиб борилди: 1-босқич. Респондент-талабалар билан

бевосита суҳбат асосида ҳуқуқий билим, кўникма, малака ва компетентликни ўзлаштиришда улар дуч келаётган қийинчилик ва муаммоларни аниқлаш. 2-босқич. Telegram, Facebook ижтимоий тармоқларида гуруҳ ташкил этиш орқали талабалар дуч келаётган қийинчилик ва муаммоларнинг келиб чиқиш сабабларини ўрганиш. 3-босқич. Қийинчилик ва муаммоларни бартараф қилиш йўлларини излаш. 4-босқич. Қийинчилик ва муаммоларни бартараф қилишни бартараф қилишга қаратилган дидактик материалларни тайёрлаш. 5-босқич. Тайёрланган материаллар асосида респондент-талабаларга мавжуд қийинчилик ва муаммоларни ҳал қилишда амалий ёрдам кўрсатиш. 6-босқич. Методик ёрдам кўрсатилганидан кейин қийинчилик ҳамда камчиликларнинг бартараф этилганлик ҳолатини таҳлил қилиш.

Респондент-талабалар билан бевосита ҳамда Telegram, Facebook ижтимоий тармоқлари орқали ташкил этилган форумлар асосида ҳуқуқий билим, кўникма, малака ва компетентликни ўзлаштиришда улар дуч келадиган қийинчилик ва муаммолар қуйидагилардан иборат эканлиги аниқланди: ҳуқуқий ахборотларни академик билим сифатида ўзлаштира олмаслик (талабалар тушунчаларга эга, аммо ҳуқуқий ахборотларни баён қилишда илмийлик, мантиқийлик, изчиллик, аниқликнинг етишмаслиги); назарий билимларни юзаки ўзлаштириш; норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазмунини таҳлил қилолмаслик; икки ёки ундан ортиқ ҳуқуқий ҳолатларни қиёсий таққослай билмаслик; фикрнинг тўла ифодаланмаслиги; ҳуқуқий вазиятларни нотўғри баҳолаш; ҳуқуқий вазиятларда оқилона қарор қилмаслик; назарий билимларни амалиётга татбиқ эта олмаслик.

Ҳуқуқий билим, кўникма, малака ва компетентликни ўзлаштиришда респондент-талабалар дуч келаётган қийинчилик ва муаммоларни бартараф этиш юзасидан кўрсатилган ҳуқуқий ёрдам мобил телефонлар воситасида Telegram, Facebook ижтимоий тармоқлари орқали амалга оширилди. Мобил ҳуқуқий ёрдам таълимий, психологик ва амалий характерга эга бўлди.

Таълимий характердаги мобил ҳуқуқий ёрдам норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазмунини пухта, академик билим даражасида ўзлаштириш, таянч тушунчаларни шарҳлай олиш, ҳуқуқий вазиятларга баҳо бериш кабилардан иборат бўлган бўлса, психологик хусусиятга эга мобил ҳуқуқий ёрдам диққатнинг барқарорлигини таъминлаш, идрок, тафаккур, хотира ва нутқни ривожлантириш, мантиқий фикрлаш қобилиятини ўстириш юзасидан берилди. Амалий мобил ҳуқуқий ёрдамнинг асосини турли ҳуқуқий мавзулардаги кейсларни ечиш, ўқув лойиҳаларини тайёрлаш кабилар ташкил этди.

IV. “Ҳуқуқий компетентлик ойнаси”. Маълумки, ойна (кўзгу) реал воқеликни акс эттиришга хизмат қилади. Ойна (кўзгу)нинг мазкур хусусиятидан келиб чиққан ҳолда рефлексив-коррекцион характерга эга “Ҳуқуқий компетентлик ойнаси” номли технология асосланди.

Технологиянинг асосий ***мақсад***и талабаларда ҳуқуқий муносабатларни ташкил этишга тайёрлик даражасини мустақил равишда рефлексив таҳлил орқали мавжуд камчиликларни коррекциялаш чора-тадбирларини белгилаш ва амалда уларни баратараф этиш малакасини ривожлантиришдан иборат этиб белгиланди. Мақсадга эришиш қуйидаги вазифаларни бажариш ҳисобига таъминланди: 1.

Талабаларни ҳуқуқий компетентлик даражасини мустақил рефлексив таҳлил қилишга одатлантириш. 2. Талабаларда рефлексив таҳлил асосида аниқланган камчиликларни мустақил коррекциялаш чораларини белгилашга ўргатиш. 3. Белгиланган коррекцион чоралар ёрдамида талабаларни ҳуқуқий компетентликка эгалик борасидаги камчиликларни бартараф этиш малакасини ривожлантириш.

“Ҳуқуқий компетентлик ойнаси” номли технология талабаларга мўлжалланган бўлиб, улар томонидан ўзларида ҳуқуқий компетентлик сифатларининг мавжудлигини аниқлаш ва баҳолашга хизмат қилади.

Талабалар томонидан мазкур технологиядан фойдаланиш бир неча босқичда амалга оширилади. Босқичлар қуйидагилардан иборат: 1-босқич. Ҳуқуқий компетентликка эгалик даражасини баҳолаш имкониятига эга ўқув, амалий ҳамда ижодий характердаги топшириқларни бажариш. 2-босқич. Топшириқларни бажариш натижасига кўра ҳуқуқий компетентликка эгаликни мустақил рефлексив таҳлил қилиш ва баҳолаш. 3-босқич. Рефлексив таҳлил ва баҳолаш натижаларига кўра ҳуқуқий компетентликни ўзлаштиришдаги камчиликларни аниқлаш. 4-босқич. Аниқланган камчиликларни коррекциялаш чораларини белгилаш. 5-босқич. Белгиланган чоралар асосида амалда ҳуқуқий компетентликни ўзлаштиришдаги мавжуд камчиликларни корекциялаш.

“Ҳуқуқий компетентлик ойнаси” номли технологиядан фойдаланиш босқичлари орқасида 4-босқич ўзига хос аҳамиятга эга. Мазкур босқичда талабалар томонидан аниқланган камчиликларни коррекциялаш чораларини белгилашга қаратилган амалий ҳаракатлар ташкил этилади. Маълумки, талабалар ёш хусусиятига кўра ўзидаги мавжуд камчиликларни мустақил бартараф этиш чораларини белгилашда муайян қийинчиликларга дуч келади. Бу сабабли тадқиқотни олиб боришда даврида талабаларга ҳуқуқий компетентликни ўзлаштиришдаги камчиликларни мустақил равишда самарали бартараф этишга доир амалий-методик тавсия берилди. Амалий-методик тавсиянинг моҳияти қуйидагича:

1. “Индивидуал ривожланиш дастури”, “Йўл харитаси”, “Истиқбол режа”, “Шахсий ривожланиш модели” каби воситалар мавжуд камчиликларни мустақил бартараф этиш чораларини белгилашга хизмат қилади.
2. Сиз эътиборингизга ҳавола қилинадиган намуналар асосида ўзингиз учун “Индивидуал ривожланиш дастури”, “Йўл харитаси”, “Истиқбол режа”, “Шахсий ривожланиш модели” кабилардан бирини ишлаб чиқинг (яратинг).
3. Ўзингиз учун ишлаб чиққан (яратган) “Индивидуал ривожланиш дастури” (“Йўл харитаси”, “Истиқбол режа”, “Шахсий ривожланиш модели”)да белгиланган вазифаларни изчил бажаришга ҳаракат қилинг.
4. Ҳар бир вазифанинг белгиланган вақтда бажарилишини назорат қилиб боринг.
5. “Индивидуал ривожланиш дастури” (“Йўл харитаси”, “Истиқбол режа”, “Шахсий ривожланиш модели”)да белгиланган муайян вазифанинг бажарилганини қайд этиб боринг.

6.“Индивидуал ривожланиш дастури” (“Йўл харитаси”, “Истиқбол режа”, “Шахсий ривожланиш модели”)да белгиланган барча вазифалар бажарилгач, ҳуқуқий компетентликка эгалик даражангизни қайта баҳоланг.

Тажриба-синов ишлари даврида респондент-талабаларнинг эътиборларига “Индивидуал ривожланиш дастури”, “Йўл харитаси”, “Истиқбол режа”, “Шахсий ривожланиш модели” кабилардан намуналар тақдим этилди. Улар ишнинг “Иловалар” қисмида келтирилган.

Шундай қилиб, талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантиришда таълимий ва маънавий-маърифий характердаги фаолиятни самарали ташкил этишда инновацион характерга эга педагогик технологиялар ўзига хос аҳамият касб этади. Муаммони назарий ўрганиш, респондент-талабаларнинг фаолиятини педагогик кузатиш, улар иштирокида бевосита ҳамда on-line суҳбат, савол-жавоб, форумлар ташкил этиш орқали талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантиришда самарали бўлган педагогик технологиялар асосланди. “Ҳуқуқий ахборот платформаси”, “Кўнгилли ҳуқуқ тарғиботчиси” волонтёрлар гуруҳи фаолияти, “Мобил ҳуқуқий ёрдам”, “Ҳуқуқий компетентлик ойнаси” номли педагогик технологиялар асосланди. Мазкур технологияларнинг педагогик жиҳатдан самарали эканлиги илмий тажриба жараёнида тасдиқланди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Жусупова Н.Ы., Бабаева А.Д. Правовая культура как важный фактор формирования компетентности будущего учителя // https://publikacia.net/archive/uploads/pages/2016_4_3/19.pdf.
2. Коротун А.В., Глухих С.И. Формирование правовой компетентности будущих социальных педагогов: Ж. Педагогическое образование и наука. – М.: 2008. – № 10. – С. 96.
3. Модель медицинского образования Казахского национального медицинского университета имени С.Д.Асфендиярова: стратегия формирования правовой компетентности в процессе профессиональной подготовки студентов. – Алматы: КазНМУ им. С.Д. Асфендиярова, 2011. – С. 4.

O’QUVCHI-YOSHLARNI FAOLLIK ASOSIDA IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH MASALALARI

N. Abdullayeva, 3. Raxmonva
ADU Umumiy pedagogika dotsentlari

Аннотация: *Maqolada ta’lim-tarbiya jarayonlarida shaxsning ijtimoiy faolligida ijtimoiy jihatdan o’zlikni anglash, jamiyat tomonidan tan olingan ma’naviy-axloqiy me’yorlarga muvofiq harakat qilish, ijtimoiy munosabatlarga faol kirishish hamda turli ijtimoiy ta’sirlarga munosib javob berish ko’nikmalarini o’zlashtirilishi masalalari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье обучаются навыкам социального самосознания, социального поведения, активного участия в социальных отношениях и адекватного реагирования на*

различные социальные воздействия в образовательной деятельности и анализы проводится.

Abstract: *The article teaches the skills of social self-awareness, social behavior, active participation in social relations and an adequate response to various social influences in educational activities and analyzes.*

Ta’lim-tarbiya jarayonlarida shaxsning ijtimoiy faolligida ijtimoiy jihatdan o’zlikni anglash, jamiyat tomonidan tan olingan ma’naviy-axloqiy me’yorlarga muvofiq harakat qilish, ijtimoiy munosabatlarga faol kirishish hamda turli ijtimoiy ta’sirlarga munosib javob berish ko’nikmalarini o’zlashtirilishi ta’minlanadi. Ijtimoiylashuv chog’ida shaxs o’zi mansub bo’lgan millat hamda umuminsoniyat tomonidan yaratilgan madaniyat asoslarini o’zlashtirilishi ta’minlanadi, ilmiy bilimlar to’g’risidagi ma’lumotlarga ega bo’ladilar, o’zida yuksak insoniy sifatlarni tarbiyalanishiga e’tibor qaratadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan jarayonlarni ongli ravishda tahlil qilib, ularga nisbatan oqilona yondoshish shaxs sifatidagi eng birinchi vazifasi bo‘lsa, uning ikkinchi muhim vazifasi o‘zi yashab turgan ijtimoiy hayotni takomillashtirish ishida ishtirok etishdir. Ijtimoiy hayot bugungi sharoitda yagona davlat hududida ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan o‘z qonun-qoidalariga ega. Ana shu muayyan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida umummilliy farovonlik va yuksalishi yo‘lida faol ishtirok etish vazifasini fuqarolik mas’uliyati deyish mumkin.

O‘quvchilarining psixologik, fiziologik, aqliy hamda jismoniy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirish o’z navbatida yoshlarni asta-sekin ijtimoiy munosabatlarga moslashishlariga yordam beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlari esa yoshlarni hayotda asqotadigan, yashash tarzini tartibga soluvchi jamiyatda mavjud me’yorlar asosida faoliyat yuritishlari uchun zarur bo’lgan malakalarni egallashlariga xizmat qiladi

Ta’lim tizimining hozirgi zamon rivojlanish bosqichlarini xarakterlovchi faoliyat turlari va bilish usullari integratsiyasi, maktab, shuningdek, oila va ijtimoiy muhitning tarbiyaviy funksiyalarini boyitishga yo’naltirilganligi yaqqol namoyon bo’lmoqda. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, hozirgi har xil yoshdagi o’quvchilar rivojlanishi jarayonlari dinamikasida o’zgarishlar yuz bermoqda.

O‘quvchilarni ijtimoiy faolligini shakllantirishning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Shaxs va jamiyat taraqqiyoti takomillashuvining bosh mezoni, ma’naviy-mafkuraviy tarbiyaning poydevori - o’zlikni anglash va o’z-o’zini boshqarishga o’rgatishdir. Chunki shaxsdagi ijtimoiy faollikning asosini o’z-o’zini boshqarish va o’zligini anglash tashkil etadi.

O‘quvchilarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash bu majmuaviy pedagogik ta’sir natijasida tarkib topadi. Ya’ni ijtimoiy faollik tarbiyasini, asosan, ta’lim va tarbiya jarayonida, mehnat faoliyati, ijtimoiy muhit, mahalla, jamoatchilik ta’siri, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy faollik tarbiyasi inson hayot faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Birinchidan, tarbiya vositasi yordamida muhit ta’sir qila olmagan narsalar o’rganiladi, ya’ni bilim,

ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog’liq bo’lgan ko’nikmalar va malakalar hosil bo’ladi.

Agar bola o‘zi shug‘ullanayotgan faoliyat mazmunin anglab etib, unga ongli munosabatda bo‘lsa, u jarayonlarga faol ishtirok etadi iste’dodi tezroq va kuchliroq ro’yobga chiqa boshlaydi.

Pedagogik jarayonda asosiy e’tibor bola mustaqilligini shakllantirishga qatilmog‘i zarur, aksincha ularning faolligiga erishib bo’lmaydi. Ya’ni o’quvchining faolligi uning mustaqilligi orqali vujudga keladi. Mustaqillik tufayli o’quvchi ta’limning faol subyektiga aylanadi. Ta’lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o’taydi, faollik esa o’z navbatida o’quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo’ladi.

Demak, faollik tushunchasi xoh o’quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma’naviy hayot to’g’risida bo’lmasin, insonning ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi.

Hozirda yoshlarning ijodkorligi, tashabbuskorligi, mustaqilligi va ishga ijodiy yondashuvi, ijtimoiy faolligi masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Albatta, o‘z navbatida faol faoliyat uchun o‘quvchilar har tomonlama rag’batlantirib boriladi, biroq ular bilan munosabatlarini doimiy mo‘tadil holatda nazorat qilib borish zarur.

Bunday vaziyatlarda ularning imkoniyatlarini yuqori baholab, mustaqil faoliyat yuritayotgan hollarda bee’tiborlikka yo‘l qo‘yilmaslik kerak, aks holda, o‘zbilarmonlik kabi illatlar ham kelib chiqishi mumkin. Tashabbuskor, ijodkor o‘quvchilar faoliyati doimiy nazorat qilinib , maqsadli yo‘naltirib turilmog‘i maqsadga muvofikdir.

O’quvchilarni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashda ularning oila a’zolari, ota-onalari, tengdoshlari va atrofimizdagilar bilan muloqotda bo’lish, jamoat joylarida o’zini tuta olish, mehnatga ongli munosabatda bo’lish, mehnat kishilarining yaratgan moddiy ne’matlariga nisbatan hurmatda bo’lishlik va ularni asrab-avaylab, tejab-tergab ishlatish, ularning qadriga yetish, o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish, shaxsiy salomatligi haqida qayg’urish, yaqinlariga nisbatan g’amxo’r bo’lish, ota-onalari, kattalar, o’z yaqinlari, jumladan, ustoz- murabbiylar mehnatini qadrlash kabi ko’nikmalarga katta e’tibor qaratish lozim

O‘quvchilarni bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan davr va jamiyatimizda mavjud talablar asosida barkamol va yetuk qilib tarbiyalash, ijtimoiy turmushning barcha sohalari talab etadigan axloqiy, xulqiy, ma’naviy jihatlarni tarkib toptirish barobarida ulardagi ijtimoiy faollikni tarkib toptirish muhim talablardan biridir.

Ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashda quyidagi vazifalrni muhim axamiyat kasb etadi:

1. O’quvchilarni jamiyatimizdagi axloqiy me’yorlarga izchillik bilan o’rgatib borish.
2. Ulardagi ijobiy-axloqiy tajribalarni shakllantirib borish.
3. O’quvchilarning ongi, his-tuyg’usini, xulqini umuinsoniy va milliy odob normalarini o’zlashtirishga qarab yo’naltirib borish.
4. Jamiyat a’zosi, shaxsga xos axloqiy sifatlarni shakllantirish.

Ijtimoiy faollik tarbiyasida o’quvchilarning jamiyatga munosabatini belgilovchi axloqiy sifatlar, vatanparvarlik, do’stlik, o’rtoqlik, fuqarolik, burch va ma’suliyatni anglab yetish, insonparvarlik kabi tushunchalarni singdirib borish, shuningdek, mehnatga munosabatni belgilovchi yetakchi omillar: yuqori mehnat ongliligi, mehnatning hayotiy

zaruriyatligini tushunib yetish, mehnatsevarlik, mehnatda jamoa bo'lib ishtirok etish, mehnat ahlini hurmatlash, o'ziga va o'z xalqiga talabchanlikni shakllantirish, o'z faoliyati va xatti- harakatiga ongli munosabat, intizomlilik, madaniy xulq me'yorlariga qat'iy amal qilish, halollik va kamtarlik, samimiylik kabi ko'nikmalarga ega qildirishda turli usullardan suhbat, ma'ruza, hikoya, munozaralardan oqilona va o'rinli foydalanish zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va hayoti - g'oyaviy, g'oyaviy-siyosiy e'tiqod, mehnat faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, jismoniy sog'lomlashtirish, ishlab-chiqarish, tashkilotchilik, yaratuvchanlik, pedagogik jarayon, vatanparvarlik, insonparvarlik, badiiy ijodiyot asosida tarbiyalanib boradi.

Demak, o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda faoliyatini faollashtirish ularning har tomonlama etuk, aqliy salohiyati yuqori, ma'naviy jihatdan sog'lom bo'lib o'sishlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Munavvarov A.Q. "Pedagogika" Toshkent. 1999.
2. Quronov M., Qurbonniyozov Z. Ijtimoiy pedagogika. T.2003 y.
3. Xasanboeva O. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. T. 1998 y.
4. Musurmonova O. Oila madaniyati milliy g'urur. T. 2000y.

ОИЛАДА БОЛАЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ- АХЛОҚИЙ СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ

ФарДУ тадқиқотчиси
З.Н.Ортиқова

Аннотация *Оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шаклллантириш тизимида ота-оналарнинг болалар тарбияси юзасидан масъулиятини кучайтириш, тарбиялашга оид лаёқатини ошириш, оилавий ва ижтимоий тарбия бирлигини таъминлаш масаласи .*

Annotation*:Issues of enhancing parents' responsibility for upbringing, raising their child's upbringing, ensuring family and social cohesion in the system of forming social and moral qualities of children.*

Вопросы повышения ответственности родителей за воспитание, воспитания ребенка, обеспечения семейной и социальной сплоченности в системе формирования социально-нравственных качеств детей.

Жамиятимизнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиетини жадаллаштириш шароитида инсон омилини вужудга келтириш давр талабига айланди. Баркамол инсон ҳақида, унинг меҳнати ва турмуши, маънавий тараққиети ҳақида ғамхўрлик жумхуриятимизнинг асосий мақсадидир. Киши хислатлари унинг меҳнатга, маънавий, ғоявий ва маданий бойликларга муносабатининг асослари оилада шаклланади. Жамият мустаҳкам, маънавий ва ахлоқий жихатдан соғлом оила бўлишидан манфаатдордир. Шу сабабли оилани мустаҳкамлашни, болалар

тарбияси, шунингдек, ижтимоий турмуш шароитларини яхшилашда ёрдам беришни давлат аҳамиятига молик иш деб билади.

Кейинги йилларда республикамиз томонидан қабул қилинган бир қатор қарор ва йўл-йўриқларда халқимизнинг ижтимоий-маданий юксалишини таъминловчи фикрлар, тавсиялар берилдики, булар республикамизнинг асоси – оилаларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий камолотида муҳим роль ўйнамоқда. Чунки оилаларнинг ҳар томонлама юксалиши, таъбир жоиз бўлса, жамиятнинг юксалиши демакдир. Худди шу маънода келажагимиз бўлмиш ёш авлод тарбияси ва унинг тараққиети давлат аҳамиятига молик масала ҳамдир. Иккинчи томондан, жамиятнинг оила ва оилавий тарбияга бўлган талаби ҳам кун сайин ортиб бормоқда. Зотан, ота-оналарнинг болалар тарбияси юзасидан масъулиятини кучайтириш, тарбиялашга оид лаеқатини ошириш, оилавий ва ижтимоий тарбия бирлигини таъминлаш ҳозирги куннинг долзарб масаласидир.

Оилавий тарбия деганда ота-оналарнинг ўз ҳаётлари, турмуш тарзлари асосида бола шахсида дунёқараш асослари, сиёсий, ахлоқий, эстетик ва бошқа ижтимоий омилларни шакллантириш мақсадида мунтазам, изчил, ғоявий ва маънавий таъсир кўрсатиш жараёни тушунилади. Бироқ, бунда жамиятимиз тараққиёти муносабати билан оила, унинг барча ҳаётий босқичлари жиддий ўзгаришларга учраётганлигини ҳам эсдан чиқармаслик керак. Миллатларнинг тарихий, миллий ва регионал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда оилалар тараққиётини умумий ва хусусий тараққиётлар асосида оилавий тарбияни мақсадга мувофиқ яхшилаш лозим. Бу давлатимизнинг оилада ёш авлодни ҳар томонлама камол топтириш жараёнига қаратилган илмий ва амалий тавсияларидан биридир.

Оилавий ҳаёт ҳақида бошланғич билимларга эгалик, оиланинг муқаддаслигини англаш, оилага нисбатан ҳурмат ҳиссига эгалик, оила хўжалигини юритишга оид дастлабки кўникмаларни ўзлаштирганлик, оила бюджетини шакллантириш тўғрисида ғамхўрлик қилишга ўрганиш, фарзандлар ва уларнинг тарбияси учун масъулиятли бўлиш руҳида улғайганлик, оилада маънавий-ахлоқий ҳамда руҳий жиҳатдан соғлом муҳитни яратишга бўлган масъулиятни ҳис қилиш руҳида камол топганлиги уларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шаклланган тиришда қўл келади.

Халқимиз оилада ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш борасида асрий тажрибага эга. Мазкур тажриба мазмуни шарқона одоб - ахлоқ, ҳаё - ибо, покизалик ҳисси билан йўғрилган панд - насиҳатлар, мутафаккирларнинг қарашлари, илмий - назарий ва амалий ғоялардан ташкил топган. Узоқ йиллар давомида оилавий муносабатларни йўлга қўйишда ана шу тажрибага таяниб иш кўрилди.

Илм-фан, техника ва технология тараққиётининг жадал суръатлар билан ривожланиши оилада болалар тарбиясини ташкил этиш иши мазмунига нисбатан янгидан-янги талабларни қўймоқда. Зеро,оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатини ошириш, уларнинг ижтимоий фаоллигини таъминлаш, тафаккур доираси ва дунёқарашини кенгайтириш муаммолари ижтимоий муносабатларнинг чуқурлашуви ва мураккаблашуви шароитида ҳар қачонгидан қам долзарб аsамиятга

эга. Манфаатлар тўқнашуви, башариятнинг маънавий-ахлоқий меъёрларга нисбатан зиддиятли ёндошуви, ахборотларнинг тезкор алмашуви шароитида оила тарбиясини йўлга қўйишда самарадорликка эришиш, болаларда эркин, мустақил фикрлаш, ташаббускорлик, ташкилотчилик қобилиятларини шакллантириш миллий ўзликни сақлаб қолиш, баркамол авлод тарбиясини йўлга қўйиш, оила мустаҳкамлигини таъминлаш, унинг фаровонлигини ошириш, оилада соғлом маънавий муҳитни қарор топтиришнинг энг муҳим омилларидан биридир.

Оила, маҳалла, таълим ҳамда тиббий муассасалар, шунингдек, ижтимоий ташкилотлар ўртасидаги ҳамкорлик асосида оилада болаларнинг ижтимоий - ахлоқий сифатларини шакллантириш объектив ва субъектив омиллари мавжудлиги кафолатлайди:

- оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатиларини шакллантириш масаласининг муайян жамиятда ижтимоий муаммо сифатида эътироф этилиши.
- оила муҳитида болаларни ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш жараёнини самарали йўлга қўйиш имконини берувчи педагогик шарт шароитларнинг яратилганлиги.
- ота-оналарнинг оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатини шакллантириш жараёнининг назарий ҳамда амалий асослари тўғрисида етарли даражада билим, шунингдек, бой ҳаётий тажрибага эга эканликлари.
- сўз юритилаётган жараён иштирокчилари ҳисобланган субъектларнинг ўз фаолиятлари йўналишлари ва мазмунига таянган ҳолда бир бирларини моддий, маънавий, методик ҳамда касбий малака нуқтаи назаридан қўллаб қувватлай олишлари.
Қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларининг асосий вазифаларини таҳлил этиш натижасида шундай хулосага келиш мумкин: ўқитувчиларнинг, шу жумладан информатика ўқитувчиларининг малакасини ошириш жараёни тўла-тўкис равишда уларда ижодий тафаккурни ривожлантиришга қаратилган бўлиши лозим. Чунки ижодий тафаккурни ривожлантирмасдан, педагог ходимларнинг касбий билими, кўникмаси ва маҳоратини узлуксиз янгилаб бориш, замонавий талабларга мувофиқ таълим сифатини таъминлаш учун зарур даражада касбий тайёргарликни ошириш имконияти юзага келмайди.

Республикамизда ўқувчиларнинг касбий ижодкорлиги соҳасида фундамантал тадқиқотларни амалга оширган олим Ш.Шариповнинг фикрича, ижодкорлик шахсда мустақил фикрлаш сифатлари намоён бўлишининг энг асосий ва фаол

шакли ҳисобланиб, уни қуйидаги белгиларига кўра таснифлаш мумкин: ижод тури (техник, технологик, ташкилотчилик, иқтисодий, ижтимоий, маънавий, педагогик, дидактик, касбий, аралаш); ижод даражаси (моно ижод, мульти ижод, мега ижод); ижод қамрови (ихтисослик, мутахассислик, билим соҳаси, тармоқлараро, миллий, минтақавий, минтақалараро, халқаро); ижоднинг давомийлиги (қисқа муддатли, ўрта муддатли, узоқ муддатли); ижоднинг шакли (инновацион, илмий-тадқиқотчилик, таълимий, инвестицион, аралаш); умумий жиҳатларига кўра (янги ғояларни ҳаётга татбиқ этиш; принципиал жиҳатдан янги ечимларни илгари суриш; янгиликни амалий қўллаш); яратилган ижод маҳсулининг маъноси ва мураккаблигига кўра (рационализаторлик таклифи; ихтиро; кашфиёт){3}.

Ижодкорликни таснифлашга доир юқоридаги ёндашувдан маълум бўладики, ижодкорлик ҳамма вақт субъектнинг ижодий фаолиятини талаб этади. Шу билан бирга мазкур тушунчага берилган таърифлардан ижодкорлик ҳодисасини изоҳлаш мураккаб эканлиги англанади. П.Эргашев, Г.Гозибекова, Г.Байкунусовалар таъкидлаб ўтишганидек, шубхасиз юксак ижодий кобилиятлар кандайдир ягона ва хатто бир неча омилнинг эмас балки педагогик-психологик шарт-шароитларнинг каттагина комплекси махсулидир. Бироқ ушбу инкор этиш кийин бўлган мулоҳазани эътироф килиш, биринчидан, креативликни ривожлантирувчи бир катор омилларни сунъий хосил килишнинг иложи йўқ, дегани эмас, иккинчидан, психик тараққиётнинг компенсация қонунига кўра, муайян омилнинг етишмаётган таъсири бошка омиллар билан муайян даражада қопланиши мумкинлиги эҳтимолдан холи эмас{4}.

Ижодий фаолият ўзида қуйидаги муҳим жиҳатларни акс эттиради: тизим ичида ва тизим ўртасидаги билим ва кўникмаларни янги тизимга қисқа ва узоқ муддат ичида ўтказишни мустақил амалга ошириш; кутилмаган вазиятда (ҳолатда) янги муаммони кўра билиш; объект тузилишини кўра билиш; муаммони ҳал этишда муқобилликни ҳисобга олиш; янги муаммоларнинг ечимини излаб топишни ижодий фаолиятнинг аввалдан маълум бўлган усуллари билан уйғунлаштириш; муаммоларни ҳал этишда бутунлай янгича ёндашувни қарор топтириш.

Информатика ўқитувчиларининг малакасини оширишнинг муҳим компоненти педагогик ижодкорликдир. Педагогик ижодкорлик ўқитувчи билимларининг чуқур ва кенг бўлишини, ушбу билимларнинг танқидий ўзлаштирилиши ва янгича қўлланишини, билим ва интуицияга асосланган янгиликлар яратишга қодирликни, бир пайтнинг ўзида кўплаб вариантларни кўра билиш ва мақбулларини танлаб олиш малакасини тақозо этади. {2}

Таҳлил натижалари педагогик ижодкорликнинг қуйидаги муҳим жиҳатларини ажратиб кўрсатиш имконини берди:

педагог ижодкорлигининг ҳаракатлантирувчи ва йўналтирувчи кучи бўлган педагогик ижод вақт ва фазода бир оз чекланган бўлади. Ижодий жараён босқичлари (педагогик ғоянинг пайдо бўлиши, ишлаб чиқилиши, амалга оширилиши ва ҳ.к.) бир-бири билан маълум вақт оралиғида қатъиян боғлиқ бўлиб,

ўзаро туташиб кетади. Бу ўринда бир босқичдан иккинчисига тезкор ўтиш талаб қилинади. Педагог фаолияти муайян мавзу, бўлимни ўтишга дастур бўйича ажратилган соатлар чегарасида ҳам вақт жиҳатдан чекланган;

педагог ижодий изланишларининг натижалари анча узоқ вақтни талаб этади. Моддий ва маънавий фаолият соҳасида унинг натижалари тез юзага чиқади ва қўйилган мақсад билан тезда қиёслаш имконияти юзага келади. Ўқитувчи фаолиятининг натижалари эса ўқувчи эгаллаган билим, кўникма ва малакаларда, уларнинг фаолият турлари ва хулқ-атворида ўз ифодасини топади ҳамда кўпинча ниҳоятда нисбий ва қисман баҳоланади;

ўқитувчининг ижоди ўз ўқувчилари ва ҳамкасблари билан бир мақсадга асосланган биргаликдаги ҳамкорликдаги фаолият муҳитида кечади. Ўқитувчилар ва ўқувчилар жамоаларидаги ижодий изланиш муҳити ижод ва ижодкорликнинг қудратли рағбатлантирувчи омилидир. Педагог ўз соҳасининг мутахассиси сифатида таълим жараёнида ўз ўқувчиларига ўқув-билиш фаолиятга ижодий ёндашувини амалга оширади;

ўқитувчининг ижодий педагогик имкониятларининг намоён бўлиши таълим жараёнининг методик ва техник жиҳатдан таъминланганлик даражасига боғлиқ;

ўқитувчи ўз ҳиссий-руҳий ҳолатини бошқара олиши ва ўқувчиларида ҳам шу ҳолатни ярата олиш малакасига эга бўлиши талаб қилинади. Ўқитувчи ўқувчилари билан мулоқотни ижодий жараён ва ўзаро мулоқот сифатида, ўқувчиларининг ташаббуси ва ижодкорлигини қўллаб-қувватлаган ҳолда, уларнинг ўз-ўзини тўлиқ намоён этишига ёрдам берган ҳолда тузиш қобилиятига эга бўлиши керак.

Тадқиқот натижалари асосида касбий-ижодий тафаккур масаласида учта қатъий ёндашув мавжудлиги ҳақидаги хулосага келинди: касбий-ижодий тафаккур фақат ижтимоий аҳамиятга эга бўлган кашфиётлар билан тавсифланади; касбий-ижодий тафаккур субъектив тавсифга эга бўлиб, шахс ўзини қизиқтирган муаммони ҳал қилиш билан янги кашфиётни яратади; фаолиятни алгоритмлаш натижасида ижодкорлик ёки ижодий ёндашилмаган тарзида чегараланиш билан тавсифланади.

Касбий-ижодий тафаккур масаласи билан боғлиқ тадқиқотларни таҳлил этиш асосида унинг қуйидаги ўзига хос хусусиятлари аниқлаштирилди:

касбий-ижодий тафаккур – касбий фаолиятда ўз-ўзини намоён этишнинг юксак шакли бўлиб, унда дефектологнинг жисмоний ва психологик имкониятлари тўлиқ намоён бўлади. Аниқроқ айтганда натижаси ҳам субъектив, ҳам объектив ижтимоий аҳамиятга эга моддий ва маънавий қадриятларни яратиш билан боғлиқ мустақил, ностандарт фаолиятда намоён бўлади;

касбий-ижодий тафаккур информатика ўқитувчисининг изланишга доир фаолияти сифатида узоқ муддатли тайёргарликни, ижодий мотивациион фаоллик ва йўналганликни; юқори интеллектни; оригинал фикрлашни; муаммони ҳал этишга нисбатан юқори даражадаги қобилиятлилик ва мустақилликни; ўз-ўзини ташкиллаш ва ўз-ўзини адекват баҳолашнинг мавжудлигини тақозо этади.

Таҳлиллар натижасида тадқиқот объекти билан боғлиқликда ижодий тафаккур тушунчасига қуйидаги тарзда таъриф бериш мақсадга мувофиқ деган хулосага келинди: информатика ўқитувчиси томонидан объектив ва субъективлик

билан шартланган ҳамда натижаси янгилик тавсифига эга бўлган номутаносибликларни ҳал этишга йўналтирилган касбий фаолиятнинг қадриятли мазмунининг аниқланиши ҳамда қабул қилиниши, уларнинг ўзини мазкур фаолиятнинг субъекти сифатида англаши, ўзининг касбий ривожланиши, шу билан бирга фаолият йўналишидан келиб чиқиб мақсад-ларини ойдинлаштириши ва унга эришиш усулларини индивидуал танлай олиш қобилиятидир.

Фойдаланган адабиётлар:

1 Вазирлар Маҳкамасининг “Педагог ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 28 декабрда 1026-сон қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.12.2017 й., 09/18/1026/0497-сон.

2. Коджаспирова Г.М. Педагогический словарь. – М., 2005. – С.145.

3. Шарипов Ш. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлаш назарияси ва амалиёти. Педагогика фанлари доктори. ... дисс. Автореф. – Т., 2012. – Б.14.

4. Эргашев П., Гозибекова Г., Байкунусова Г. Тингловчиларда ижодий фикрлаш қобилиятини ривожлантиришнинг усулбий жиҳатлари (услубий қўлланма). Т., 2013. – 56 б.

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА МИНТАҚАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ

Тоштемирова Саодат Абдурашидовна
Чирчиқ давлат педагогика институти ўқитувчи

Аннотация: *Мақолада таълим тизимида инновацион ёндашув асосидаги бошқарувни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш заруратининг назарий асослари келтириб ўтилган. Кластер ёндашуви асосидаги таълим тизимининг мақсад ва вазифалари белгилаб берилган*

Калит сўзлар*: инновация, бошқарув, интеграция, кластер, педагогик таълим инновацион кластери*

УПРАВЛЕНИЯ РЕГИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМОЙ ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Таштемирова Саодат Абдурашидовна
Чирчикский государственный педагогический институт Преподаватель

Аннотация: *В статье представлены теоретические обоснования необходимости разработки и внедрения инновационных подходов к управлению в системе образования. Определены цели и задачи системы образования на основе кластерного подхода.*

Ключевые слова: *инновация, управление, интеграция, кластер, инновационный кластер педагогического образования.*

MANAGING A REGIONAL EDUCATION SYSTEM BASED ON A CLUSTER APPROACH

Tashtemirova Saodat Abdurashidovna
Chirchik State Pedagogical Institute Teacher

Annotation: *The article presents the theoretical justification for the need to develop and implement innovative approaches to management in the education system. The goals and objectives of the education system based on the cluster approach are determined.*

Keywords: *innovation, management, integration, cluster, innovative cluster of teacher education.*

Ижтимоий ривожланишнинг бугунги босқичида таълим ижтимоий ҳаётнинг барча соҳалари билан чамбарчас боғлиқ бўлган инсон фаолиятининг энг кенг ва муҳим соҳаларидан биридир. Таълим тизимининг индивидуал ва жамиятнинг сифатли таълим хизматлари эҳтиёжларини қондириш қобилияти мамлакатнинг иқтисодий ва маънавий ривожланиш истиқболларини белгилаб беради.

Замонавий жамиятда таълимнинг ривожланиши бу соҳада инновацияларни ривожлантиришдан иборат бўлиб, бунда таълим тизимидаги инновацион бошқарув амалиётларини жорий этиш ва уларнинг муваффақиятли, сифатли намуналарини татбиқ этишга ёрдам беради. Инновацион жараёнларни бошқариш эса давлат таълим сиёсатининг энг муҳим йўналишларидан бири бўлиб, уни айни пайтда олимлар, сиёсатшунослар ва жамоатчилик орасида муҳокамадан ўтказиш мақсадга мувофиқдир.

Инновация тушунчаси тадқиқотларда – янгилик киритиш тушунчаси сифатида, инновацион жараён тушунчаси эса янгилик яратиш ва уларни ўзлаштириш ҳамда таълим муассаси амалиётида самарали қўллаш жараёни сифатида ифодаланади.

Мавзу бўйича манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, таълим тизими бошқарув фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича кўплаб асарлар мавжуд бўлиб, уларда бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш бўйича назарий қарашлар келтирилиб ўтилган. Жумладан, Мумбай Университети профессори С.Хедекар, Россиялик тадқиқотчилар О.Хомерики, В.С.Лазарев, В.И.Зверева, П.И.Третьяков, А.С.Красиков, Венгрия Фанлар Академияси доктори Г.Кертеси, Вашингтон Университети илмий ходимлари Бредлей С.Портин, С.Фельдман ва С.Клапп[1], юртдошларимиз С.Ражабов, Мирқосимов, Ж.Йўлдошев, К.А.Каракулов, М.Очиловларнинг асарларида юқорида тадқиқ этилаётган мавзу бўйича батафсил тўхталиб ўтилган.

Бундан ташқари В.Г.Афанасев, Б.Саймон, Э.Д.Днепров, П.Херст, Б.М.Ребус, Т.Санталайнен, И.Турсунов, Ф.Генов, Д.Хорвард, Д.Шодиев ва бошқа қатор мамлакатимиз ва хорижий мутахассисларининг асарларида ҳам халқ таълимини бошқариш муаммолари ва унинг ижобий жиҳатларини тадқиқ этиш, уни қайта қуриш йўллари кўрсатиб берилган. Уларда таълим бўғинларининг ўзаро боғлиқлиги, таълим муассасаларининг қабул қилиш жараёнлари, педагогик

кадрлар тайёрлаш жараёнларида бошқарувни янада такомиллаштириш, таълимни бошқаришда АКТ фойдаланишнинг афзалликлари ва бошқа бир қатор масалалар ўрин олган.

Фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг интеграциясини таъминлашда таълимни бошқариш муҳим йўналиш бўлиб, унда инновацион жараёнларни жадаллаштириш асосида ўзаро ҳамкорликдаги зиддиятларни бартараф этиш муҳим шартлардан биридир. Таълимда бошқарувнинг мақсади – таълим соҳасида ўқувчиларнинг билим даражасини ошириш, уларда мазкур билимлардан амалда фойдаланиш кўникмасини шакллантиришдан иборатдир. Таълимни бошқариш – таълим тизимининг ишлаши ва ривожланишини ташкил этишга йўналтирилган барча даражадаги бошқарув субъектларининг мақсадли фаолияти бўлиб, “бошқарув” тушунчаси одатда тизимнинг бир ҳолатдан янада сифатлироқ ҳолатга ўтиши сифатида тавсифланади ва бунда қуйидаги жиҳатларга алоҳида эътиборни қаратиш муҳимдир: биринчи – тизимни сақлаш, унинг барқарорлигини қувватлаш мақсадида бошқариш, яъни маъмурий бошқарув, иккинчи жиҳат – тизим янги сифат ҳолатига ўтишини, яъни муттасил ривожланишни таъминловчи бошқарув[2].

Шўролар даврида таълимни бошқариш марказлаштирилган тизим шаклида олиб борилди. Давлат мустақилликка эришганидан сўнг таълим тизимини бошқаришни демократлаштириш, бошқаришнинг янги концепциясини яратиш зарурати туғилди. Бу ўз навбатида халқ таълими бошқарув органларининг барча бўғинларида мустақиллик ва ташаббусга кенг йўл очиб берди[3]. Ривожланган мамлакатлар тажрибасидан сабоқ олган ҳолда, марказлашган бошқарувни ягона давлат таълим сиёсатини таъминловчи энг муҳим йўналишларда таъминлаш зарурати вужудга келди. Францияда таълимни бошқаришда марказлаштирилган тизим қўлланилса, АҚШ, Англия, Германияда марказлаштирилмаган тизим анъаналари шаклланган. Ўзбекистонда давлатнинг таълим соҳасидаги сиёсати Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида келтирилган моделга асосланилган. Бу модел таълим устуворлигини таъминлаш, бозор иқтисодиёти шароитларида ишлаш учун юқори малакали кадрлар тайёрлаш, таълим муассасаларини ДТС талабларига мувофиқ бўлиши таъминланган ҳолда қўллаб-қувватлаш, ўқувчи ва ўқитувчиларни ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш, таълим муассасаларининг моддий-техник ва ўқув-услубий базаларини мустаҳкамлашни такомиллаштиришга қаратилган[4].

Таълим бошқарувида бошқа турдаги фаолиятлар қатори энг муҳим жиҳати **бошқарувнинг мақсадини** белгилашдир. Бошқарув мақсади муаммоларни кўриб чиқиш жараёнида мақсад умумий тарзда юқори ташкилотлар томонидан белгиланиб, қуйи даражада ташкилот иш фаолиятига таъсир қилади ва тартибга солади. Таълим тизимини бошқарувини такомиллаштиришда илмий жиҳатдан келиб чиққан ҳолда ўзига хос хусусиятларига алоҳида этибор қаратиш муҳимдир, булар:

- бошқарув мазмунида ўз аксини топган давлат ва ижтимоий таълим манфаатларининг диалектик бирлиги, умумий таълим тизими олдида турган мураккаб вазифалар билан боғлиқ бўлган бошқарув қирраларининг кенгайиши;

- таълим тизимини бошқарув қонуниятларининг объектив ва субъектив жиҳатларини идрок этиб фойдаланиш ва ўрганиш орқали тизим ривожланишини янги, сифат жиҳатидан янада мукаммал ҳолатга етказиш;

- таълим бошқаруви шакл ва усулларини миллий хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда доимий такомиллаштириб бориш;

- бошқарувнинг математик, статистик ҳамда иқтисодий усулларини жорий этиш;

- бошқарув техникасини ривожлантириш ва ҳокозолардан иборатдир

Умумий ўрта таълим тизими муассасаларини инновацион ёндашув асосида самарали бошқариш мезонлари қуйидагиларда ўз аксини топади:

- педагогик жараённинг янги шакллари, усуллари, воситалари ва технологиялари жорий этилиши;
- бошқарувда янги йўналишлардан фойдаланиш;
- иқтисодиёт соҳасидаги бошқарув фанларидан амалий кўникмаларни ривожлантириш;
- ўрта таълим муассасасида инновацион ёндашув асосида ўқитувчиларнинг илмий-тадқиқот фаолиятини такомиллаштириш;
- ўқув юртидаги бошқарув тизимининг ўзига хос хусусиятларини акс эттирадиган ўзаро муносабатларда таълим жараёнида иштирокчиларнинг позициялари;
- иштирокчиларнинг педагогик жараёнда бошқарув самарадорлигига ўзаро таъсири[5].

Юқорида келтириб ўтилган тадқиқотларнинг илмий-методик амалий қийматини таъкидлаган ҳолда шуни айтишимиз мумкинки, мамлакатимизда таълимни бошқаришнинг минтақаларга хос бўлган жиҳатлари ҳали тўлалигича тадқиқ этилмаганлигини, мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожи, маданияти, таълим ва бошқа эҳтиёжларга тўла жавоб бермаслигини айтиб ўтиш лозим. Ҳозирда Тошкент вилоятида ҳам таълим тизимини ривожлантириш, унда таълим бошқарувини янада такомиллаштириш ва уни амалда татбиқ этишга доир назарий ва амалий қадамлар ташланган. Жумладан, Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институтида таълимни ривожлантиришнинг **кластер модели** жорий этилиб, бугунги кунда минтақанинг таълим сифати самарадорлигини ошириш ва рақобатбардош педагог кадрларни тайёрлаш бўйича кенг кўламли ишлар олиб борилмоқда.

Таълимни бошқаришда маҳаллий ҳудудларда инновацион жараёнларнинг татбиқ этилмаганлиги, шунингдек, минтақада таълим кластери субъектлар ва объектлар ўртасидаги ҳамкорликни кенг йўлга қўйилмаганлиги ва буни тартибга солиш, таълим кластеридаги барча ижтимоий гурухлар фаолиятини ҳисобга олган ҳолда мақсадли дастурлар яратиш зарурати минтақада таълим кластерининг барча йўналишларида инновацияларни жорий этишнинг муҳимлигини кўрсатади.

Шу ўринда биринчи навбатда таълимга нисбатан кластер ёндашувининг назарий асосларига тўхталиб ўтсак. Сўнгги йилларда таълим кластери ғоясига нафақат илмий, балки назарий жиҳатдан ҳам қизиқишлар ортиб бормоқда, шу

билан бирга уни амалиётга татбиқ этишга бўлган уринишлар ҳам амалга оширилмоқда. Чирчиқ давлат педагогика институтининг амалий тажрибаларида бу саъйи-ҳаракатлар бошланган бўлиб, бу институтнинг асосий стратегик тадқиқот объекти бўлган **“Педагогик таълим инновацион кластери”** ҳисобланади.

Кластер ёндашуви асосида минтақавий таълимни ривожлантиришни мақсад қилиб белгилаган муассасаларнинг олдида турган вазифалар қуйидагилардан иборат:

- ✓ бўлажак мутахассисларни ўқитиш, турли соҳа талабалари ўртасида эркин алоқа маконини шакллантириш;
- ✓ тажриба-синов “ўқув майдончаси”ни яратиш;
- ✓ ишбилармон доираларни жалб қилиш;
- ✓ кўп тармоқли лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш ва бошқалар.

Таълим муассасаларининг консерватив модели доирасида кластер ғоясини татбиқ қилиш қийин кечади, буни амалга ошириш учун албатта, янги ёндашув асосидаги “тажриба майдонча”ларини ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Таълим кластери йўналишларини расмий бирлаштиришнинг умумий принципи, бу лойиҳага интеграцион ёндашув асосидаги методологияни тақдим қилишдир. Интеграция биринчи навбатда, кластер моделига киритилган иштирокчилар ўртасидаги алоқаларни мустаҳкамлаш ва ривожлантиришдан иборат бўлиб, бу амалиётнинг натижаси ўлароқ, билим ва тажриба синергияси таъминланади ҳамда юқори сифатли тегишли соҳа мутахассисининг пайдо бўлишига олиб келади[6]. Минтақавий кластерларни шакллантиришнинг биринчи шарти бу – субъектлар ўртасидаги қўшма лойиҳаларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишдир. Ўзаро келишув асосида умумий лойиҳа устида ишлаш, шу жумладан, расмий тизимлаштириш мезонларига қараб турли хил таълим гуруҳларини ажратиш мумкин.

Чирчиқ давлат педагогика институти томонидан кенг жамоатчиликка тақдим этилаётган Педагогик таълим инновацион кластерининг асосий мазмунига тўхталиб ўтадиган бўлсак, у муайян жўғрофий ҳудуднинг рақобатбардош педагог кадрларга бўлган эҳтиёжларини қондириш мақсадида бир-бири билан узвий алоқадаги тенг ҳуқуқли алоҳида субъектларнинг, технология ва инсон ресурсларининг интеграциялашувини кучайтирувчи механизмдир[7].

Педагогик таълим инновацион кластерининг асосий мақсади:

- йўналишларга тегишли фанлардан педагогик таълимнинг ривожлантириш мақсадида интеллектуал ресурсларни интеграциялаш;
- фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг турли шакл ва турларини аниқлаш ва амалиётга жорий этиш;
- таълим билан бир қаторда тарбияга ҳам катта эътибор қаратган ҳолда, унинг интеграциясини таъминловчи механизмларни ишлаб чиқиш;
- педагог кадрларни тайёрлашда узлуксиз таълим тизими субъектлари ўртасидаги алоқадорлик, боғлиқлик ва ҳамкорлик заруриятини асослаш ва ҳоказолардан иборат.

Таълим тизимини бошқариш фаолияти давомида педагогик инновацион кластер субъекти раҳбарлари ўзларига юклатилган вазифаларни бажаришда бевосита қуйидаги кластер объектларига ўз таъсирини кўрсатадилар: таълим жараёни иштирокчилари (раҳбар ўринбосарлари, педагог-ходимлар, ўқувчи-ёшлар, техник ходимлар, ота-оналар, ҳомийлар), таълим жараёнлари (таълимий, тарбиявий, илмий, услубий), моддий-техник воситалар (АКТ, кўргазмалар, электорон дарсликлар, аудиовизуал воситалар, моделлар, жиҳозлар ва ҳокозо)[8].

Шундай қилиб, таълим-тарбияни ташкил қилиш ва бошқаришга доир республикамизда амалга оширилаётган ислоҳотлар мақсади таълим субъектларининг ягона мақсадга эришиш, муайян даражада умумий маълумот даражаси ва касбий тайёргарлигига эга бўлган ҳар томонлама ривожланган шахсни таркиб топтиришга қаратилгандир.

Бугунги кунда таълимга жамият тараққиётининг умумий қонунияти асосида ривожланаётган ижтимоий-педагогик тизим сифатида эътибор бериб, таълим бу тизимли объект эканлигини, қонуний жиҳатдан ўзига, барча компонентларни бошқарувига нисбатан тизимли ёндашишни талаб этади. Бу талаб ўқув-тарбия жараёнига ҳам тааллуқли бўлиб, унинг барча хилдаги таълим-тарбиявий муассасаларида амалга оширилади. Таълим тизимида кластер ёндашувини татбиқ қилиш таълим тизимидаги узлуксизлик ва алоқани, таълим турлари ўртасидаги интеграция жараёнларини мустаҳкамлайди. Бу бевосита таълимга нисбатан инновацион ёндашув сифатида қараб, уни амалга ошириш механизмларини ишлаб чиқиш таълим тизимидаги илмий жамоатчиликнинг олдида турган энг муҳим вазифаларидан биридир. Кластер ёндашуви давлат таълим сиёсатининг мазмунини тубдан ўзгартириб, субъектлар муносабатларига ривожланиш ва самарадорлик мезонлари билан қараш имконини беради. Натижада кластер минтақадаги фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини таъминловчи кучли механизм сифатида юзага келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маткаримов Ж.Ш.Таълим жараёнида бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолашга оид назарий қарашлар.// Замонавий таълим.2015.3-сон. Б. 12.
2. Василькова С. Технология работы социальноги педагога. –М.: Академия. 2009. 39 с.
3. “Таълим тараққиёти” 2000 йил, 3-сон, 12-бет.
4. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури 1997 йил 29 август. 463-I-сон 29.08.1997.
5. Наумов С.В. Управление инновационнқми процессами в региональной системе образования. автореферат дисс. на соис. уч.степ. к.п.н. Нижний Новгород. 2009. С. 6.
6. Деменчук П.Ю. Образовательный кластер как институтциональная системаинтеграции образования. Integration of education. № 4, 2013. –С. 27.
7. Мухамедов Ғ.И., Хўжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф.Чирчиқ.2019. –Б. 28.
8. Хомерики О.Н. Развитие школы как инновационный процесс. –М. 1994.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МАТЕМАТИКАДАН ЗАМОНАВИЙ ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ – ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ инновацион технологиялардан бири

И.М.Зулфихаров, Б.О.Ўринов
Тоқент давлат аграр университети Андижон филиали

Аннотация. *Мақолада олий таълим муассасаларида математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этиш инновацион технологиялардан бири эканлиги асослаб берилган бўлиб, унда инновация ва таълим жараёнидаги инновация тушунчаларига аниқликлар киритилган ва унинг математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этишдаги ўрни кўрсатиб берилган.*

Калит сўзлар:. *таълим ва ўқув машғулоти, инновация, таълим жараёнидаги инновация, таълимга технологик ёндашув, таълим технологиялари, замонавий ва интерактив усуллар, педагог-новатор, инновацион технология.*

Организация современных учебных занятий по математике в высших учебных заведениях – один из инновационных технологий в процессе обучения

Аннотация: *В статье обосновывается что организация современных учебных занятии по математике в высших учебных заведениях является один из инновационных технологий, так же разъяснены понятия инновации и инновации в учебном процессе и их роль в организации современных учебных занятий по математике.*

Ключевые слова: *образовательные и учебные занятия, инновации, инновации в образовательном процессе, технологический подход к образованию, образовательные технологии, современные и интерактивные методы, педагог-новатор, инновационные технологии.*

Organization of modern classes in mathematics in higher educational institutions – one of the innovative technologies in the learning process

Annotation: *The article substantiates that the organization of modern educational classes in mathematics in higher educational institutions is one of the innovative technologies, as well as the concepts of innovation and innovation in the educational process and their role in the organization of modern educational classes in mathematics.*

Key words: *educational and training activities, innovation, innovation in educational process, technological approach to education, educational technologies, modern and interactive methods, pedagogue-innovator, innovative technology.*

XXI аср бошларида барча ривожланган мамлакатларнинг илмий сиёсати фаннинг ўз потенциалини мустаҳкамлаш билан бир қаторда, унинг ютуқларини самарали амалга оширишни тахмин этадиган жараёнларга ҳам қаратилмоқда. Жумладан, инновацияларни яратиш ва тарқатишнинг ягона, пухта ишлаб чиқилган механизми ҳозирги вақтда жамиятни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг

асосий қуролига айланмоқда. Жамият ҳаётида рўй бераётган ҳозирги ўзгаришлар олий таълим тизими олдига янги муаммоларни қўймоқда-ки, буларга нимани ўқитиш ва қандай ўқитиш муаммоси долзарб қилиб қўйилмоқда.

Ўқитиш асрлар давомида маълум билимлар мажмуини эгаллашдан иборат бўлиб келган бўлса, ҳозирги пайтда билимларнинг бир авлод ҳаёти давомида эскириб қолаётганлигини кузатиш мумкин. Бунда, билимлар ҳажми, ҳатто айрим ихтисосликлар доирасида ҳам шунчалик улканки, мавжуд ўқитиш методикалари асосида уни ўзлаштириш амалда мумкин бўлмай қолди. Буларнинг ҳаммаси таълим олдида янги ахборотни мустақил қабул қилиш, баҳолаш ва тегишли қарорларни қабул қилишга қодир бўлган ижодкор шахсни тарбиялаш вазифасини қўймоқда.

XX асрда рўй берган кўпчилик фалокатларнинг сабаби техниканинг ўзидагина эмас, балки касбий омилкорликнинг етишмаслигида ҳамдир. Бундай муаммоларни ҳал этишда таълим ҳам етакчи ўринлардан бирини эгаллайди.

Олий таълим муассасаларида таълим сифати ва самарадорлигини ошириш ва рақаботбардош кадрларни тайёрлаш масаласи таълим технологиялари ва замонавий ва интерактив усуллардан фойдаланилган ҳолда математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этиш асосида амалга оширилади.

Таълим-тарбияни самарали ташкил қилиш учун илғор таълим технологияларига сифат жиҳатдан тез ўтиш учун объектив асос юзага келди, чунки иқтисодий ва ижтимоий ҳаётдаги инновацион жараёнлар ўз-ўзидан таълимда ҳам туб ўзгартиришларни тақозо этмоқда. Ҳеч бир ўқитувчи эртами-кечми бу жараёндан четда қолиши мумкин эмас. Ўқитувчининг анъанавий иш усуллари фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграцияси ёки ўқитишни компьютерлаштириш сифатларини ўзлаштириш зарурияти буларни илмий-методик асослаш эҳтиёжининг туғилишида объектив омил бўлиб қолмоқда.

Бизга яхши маълумки, педагогикада бошқа соҳалардан олинган кўплаб атамалардан фойдаланилади, бу педагогиканинг бошқа фанлар билан чуқур алоқада эканлигидан далолат беради. Чунончи, бугун ўқитишнинг самарадорлиги ва оқилоналиги, ўқитувчи, техника ва технология, таълим иқтисодиёти, ўқитишни компьютерлаштириш кабилар омил бўлади.

Адабиётларда «Янги тартиб-қоида», «янгилик», «инновация» тушунчаларининг маъновий мазмунини аниқлаш борасида турлича талқинлар мавжуд. Гап шундаки, Ҳозирги замон тилида бу сўзлар етарлича ўхшаш ва улар янги тартиб, усул ёки ихтиро сифатида талқин этилади. “Янги тартиб-қоида” моддий маънода аслида ижобий илғор янгиликни, бу тушунчани қабул қиладиган ва ундан фойдаланадиган ташкилий тизим учун янги бўлган ғоя, фаолият ёки моддий объектни англатади. Шу билан бир қаторда “янги тартиб-қоида” атамаси касбий маънода янги ва фойдали натижани юзага келтириш, ишлаб чиқиш, мослаштириш ва фойдаланиш жараёни сифатида қабул қилинади[2].

Янги тартиб-қоидаларни амалга ошириш жараёнида рўй берадиган илмий-техник, технологик, ташкилий ўзгаришлар кўпинча янги киритиладиган тартиб-қоида ёки инновацион жараён сифатида аниқланади. Янги тартиб-қоидани яратиш, ёйиш ва фойдаланиш даври инновацион цикл деб аталади. “Янги тартиб-қоида”

тушунчасининг турли талқинларини қараб чиқиб, баъзи умумлаштирувчи хулосаларга келиш мумкин.

Биринчидан, исталган янги тартиб-қоида амалий характердаги якуний натижа, яъни маълум ижтимоий эҳтиёжни қаноатлантиришга қаратилган аниқ йўналишга эга.

Иккинчидан, тартиб-қоидага доимо башорат қилиш ва бошқарилиш объекти бўлиши лозим бўлган мураккаб жараён сифатида қаралади.

Учинчидан, янги тартиб-қоидани амалга ошириш ижтимоий меҳнатнинг турли соҳаларида тадқиқот ва ишлаб чиқиш жараёнларини жадаллаштириш билан боғлиқ.

Тўртинчидан, ҳар бир янги тартиб-қоида маълум техник, иқтисодий ва ижтимоий самарага эришишни таъминлаши лозим.

Шундай қилиб, «янги тартиб-қоида» ва «инновацион жараён» атамалари айнан ўхшаш, бир хил маънога эга. Инновациялар таълимнинг бошланганидан буён, янгилик киритиш, мавжуд таълимни ўзгартириш, такомиллаштириш ва яхшилаш сифатида у билан ёнма-ён келмоқда. Таълимдаги инновация сўнгги даврлар маҳсули эмас, бироқ уни педагогик категория сифатида жуда ёш деб ҳисоблаш мумкин. Бу унинг таърифланишидаги хилма-хилликларга асосий сабаб бўлмоқда.

Кўпинча “инновация” атамаси ўрнига унга яқин турдаги атамалар ҳам ишлатилмоқда. Масалан, ислоҳ модернизация, такомиллаштириш, замонавийлаштириш кабилар. Улар таҳлил этилаётган тушунчанинг маъносини ҳар доим ҳам тўла очиб беравермаса-да, асосий нарса − янгиликни, ўзгаришларни ифодалайди[2].

Инновациянинг турли таърифларига тўхталиб ўтайлик. “инновация” (янгилик) луғатларда ва энциклопедияларда турлича талқин этилади. Масалан, “инновация” (лотинча inovatis) – янгилик, янги тартиб-қоида, ўзгариш деган маънони англатади. Инновация бирор янги нарса, тартиб-қоиданинг киритилишини англатиб, у лотин тилидан келиб чиққан: in-novis − янги ва янгиланиш, янгилик, ўзгаришни англатади. “Янгилик” атамаси янгилик, янгиланиш сифатида ишлатилади. Янгилик бу техник, технологик ихтиро ва ютуқлардан амалий фойдаланишдир. У (инновация) педагогик категория сифатида таълимга янгилик киритишни ифодалайди. Янгилик кўпинча янги усул, восита, янги концепция, дастур кабиларнинг киритиш ҳамда қўлланишга ҳам хосдир. «Янгилик» атама сифатида таълимни модернизациялаш ёки замонавийлаштириш тушунчаси моҳиятини ёритади. Аксарият таърифларда янгилик ўзгаришни англатади, деган фикр устун туради. Лекин бунда айрим янги ўзгаришларни, бошқалар эса миқдорий ўзгаришларни, учинчи бир одамлар сифат − бирор янги нарса, моделларни киритиш жараёнини назарда тутадилар.

Шундай қилиб, биз ўз ишимизда олий таълим педагогикасида “инновация” (“янгилик”) тушунчаси орқали ўқув-тарбия жараёнини яхшилаш ва такомиллаштириш, таълим технологиялари ва замонавий ва интерактив усуллардан фойдаланилган ҳолда олий таълим муассасаларда математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этишга йўналтирилган дидактик, методик ҳамда

ташкилий-техник ўзгаришларни ифода этдик. Янги тартиб-қоидаларнинг узлуксизлиги Таълим ижтимоий тизимнинг бир қисми бўлгани сабабли, у ўз ривожланишида жамиятдаги йўналишларга эргашиб рўй бераётган ўзгаришларни ҳисобга олиши лозим. Ана шу доирада инновациялар таълим олдида турган вазифаларни муваффақиятли амалга оширишнинг асосий шартларидан бири ҳисобланади. Шу сабабли, янгиликларнинг бошқа соҳаларда муваффақиятли амалга оширилишини таълим соҳасидаги янги тартиб-қоидаларсиз тасаввур қилиш мумкин эмас.

Таълимдаги янгилик, таълим жараёнига алоҳида эътибор бериш, янги билимларни фанлар асосига таяниб аниқлаш, уларни ихтирочилик ва моҳирлик билан топиш ёки фанларнинг синтезлашуви ва интеграллашуви орқали яратиш тушунилиб, таълимнинг инновациялашуви-таълимнинг илмий билимлар, илмий методология ва инновацияларни ривожланувчанлигига асосланиш демакдир. Замонавий ва интерактив усуллар ҳамда таълим ва ахборот технологиялари ҳам таълимдаги инновациялардир.

Таълим тарбия ишидан инсонлар – жамият ҳам манфаатдор бўлиши лозим. Буларнинг ҳаммаси, меҳнатнинг барча соҳаларидаги инновацион фаолият ижтимоий ривожланиши билан биргаликда унинг истиқболини белгилаш ва ташкил этиш характерида бўлишини талаб қилади. Дарвоқе, таълим тарбиядаги янгиликлар худди ўша мақсадни кўзда тутади ва шундай аҳамиятга эга: улар худди жамиятдаги каби унинг ривожи ва тараққиётига кўмаклашиши керак.

Жамиятдаги янгиликлар оммавий ва узлуксиз характерда эканлигини ҳисобга оладиган бўлсак, улар таълим-тарбияда ҳам ана шундай характерда бўлиши лозимлиги аён бўлади. Буларнинг барчаси таълим-тарбия жараёнининг мазмуни ва шаклини ташкил этилиши, шунингдек, янги тартиб-қоидалар киритилиши заруриятини яратади. Улар ўқитишнинг бевосита мақсадларига эришишнигина эмас, балки жамиятнинг узоқ муддатли вазифаларини ҳал этишга ҳам қаратилган бўлади. Шундай қилиб, таълимдаги янги тартиб-қоидалар келажакка қўйилган узоқ муддатли инвестициядан иборатдир.

Таълим янгиликларни ўзлаштирибгина қолмасдан, балки уларни яратади ҳам. Улар орқали эса педагог-новаторларни тарбиялашни амалга оширади. Ижодкорлик иши (шу жумладан, таълимда ҳам) ҳамма вақт янги тартиб-қоидаларнинг таркибий қисми бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади. Гарчи, вақти келиб ўқитувчилар ўрнини ўқитадиган машиналар эгаллайди деган фикрлар мавжуд бўлса ҳам ўқитувчи (ўқитувчи шахси) таълимда билимлар ва ижодкорлик жараёнларининг бевосита элтувчиси сифатида марказий ўринни эгаллаб қолаверади.

Таълим технологиялари ва замонавий ва интерактив усуллардан фойдаланилган ҳолда олий таълим муассасаларда математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этишда албатта, ижодкор ўқитувчиларнинг ўрни беқиёсдир. Ўқув жараёнида таълим технологиялари ва замонавий ва интерактив усулларни жорий қилиш ҳамда ўқув машғулотлари лойиҳаларини тузишнинг илмий-назарий асосини яратган олимлар Б.Зиёмуҳаммедов, Л.В.Голиш,

Д.М.Файзуллаева, М.Тожиев, Ҳ.Қаршибоев, Д.Юнусова бошқаларнинг ишларида, унинг амалиётга тадбиғини А.Алимов, Г.Изетаева, М.Қўчқаров, Э.Шарипов, М.Ўралова, К.Мамадалиев, Г.Опаева, А.Хуррамов ва бошқаларнинг ишларида кўриш мумкин.

Шунинг учун ҳам ўқитувчи таълим жараёнидаги барча янгиликлар модернизациясининг амалий жараёнлари мажмуининг марказий бўғини бўлиб қолаверади. Айтилган фикр аввало, ўқитувчи меҳнатида техник ютуқлар, биринчи навбатда, компьютер технологиялари ютуқларидан фойдаланиш зарурлиги ҳақидаги ғояни илгари суради. Шунингдек, ахборот-коммуникация базасида ўқитишнинг махсус дидактик воситаларини яратишга тааллуқли ишларни амалга ошириш, ўтказиш зарурати, ўқув ишида педагогик дастурлаш воситалари, ўқитиш вазифаларини ҳал этишга йўналтирилган компьютер дастурлари каби янги тартиб қоидалардан янада кенгроқ фойдаланилишни тақозо этади.

Хулоса қилиб ушбуни таъкидлаш жойизки, олий таълим муассасаларида математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этиш таълим жараёнидаги инновацион технологиялардан бири ҳисобланилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3151-сонли Қарори.

3. Зиёмуҳаммедов Б., // М.Тожиевнинг умумий таҳрири остида. “Таълим технологиялари” ўқув предмети битта мавзуси назарий ва амалий машғулотларнинг ўзбек модели асосида тузилган лойиҳалари, //Методик қўлланма. – Т.: 2012. – 60 б.

4. Pimbley G. “Periodic solutions of predator-prey equations simulating an immune response” J.Math.Biolci, 1974, v.20, p.27-51.

БЎЛАЖАК ТАРБИЯЧИЛАРДА ИЖОДКОРЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Наманган давлат Университети
Мактабгача таълим методикаси кафедраси
ўқитувчиси З.Қодирова.

Аннотация: *Мақолада тарбиячида шахс ижодкорлик сифатларини ривожлантиришга асосий методологик ва концептуал ёндашувлар, креатив шахс индивидуал сифатларини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари ҳақида фикр юритилган. Бундан ташқари бўлажак тарбиячиларни касбий фаолиятга тайёрлаш технологияси компонентлари ва кўрсаткичлари келтирилган.*

Аннотация: *В статье рассматриваются основнье методологические и концептуальнье подходь на развитие у воспитателя творческих качеств личности, психологические и педагогические особенности формирования индивидуальньх качеств креативной личности. А также, приведень компонентъ и показатели технологии подготовки будуших воспитателей к профессиональную деятельность.*

Республикамизнинг ривожланган мамлакатлар қаторидан жой эгаллашини таъминлаш ёш авлодни комил инсон ва малакали мутахассис қилиб тарбиялашга боғлиқдир.

Ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларида фаолият кўрсатаётган касб эгаларининг ўзига хос касбий қонун-қоидаларини билиши ва уларга амал қилган ҳолда фаолият юритишини таъминлашда бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашга эътибор қаратилиши лозимлигини белгилайди. Шунингдек бугунги кун тарбиячиси серқирра ҳар томонлама ижодкор бўлиши билан бирга билимли теран фикрли бўлиш талаб этилади.

Билиш фаолияти кўп қиррали, мураккаб жараён бўлиб, унинг таълимни амалга оширишдаги самарадорлиги тарбиячининг қобилияти, изланувчанлиги, тафаккури, кузатувчанлиги ва ижодий ёндашувига боғлиқ. Шунинг учун ҳам билиш жараёнида ижод муҳим ўринни эгаллайди.

Бугунги кун тарбиячисида шахс ижодкорлик сифатларини ривожлантиришга асосий методологик ва концептуал ёндашувлар, креатив шахс индивидуал сифатларини шакллантиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари, мактабгача таълим тизимида тарбиячида касбий ижодкорликни ўзида шакллантириш билан бирга педагогик технологияларни амалиётга татбиқ эта олиш маҳоратига эга бўлиши назарда тутилади.

Ижодкорлик бўлажак тарбиячиларда эгаллаётган билимларнинг мустаҳкамлиги ва мукаммаллигини таъминлаш, уларда фаол ва мустақил фикрловчи шахс хислатларини шакллантириш, ақлий қобилиятларини ривожлантиришга хизмат қилиши билан аҳамиятлидир. Бу ҳолат бўлажак мутахассисларнинг фан асосларини ўзлаштиришида, бу жараёнга бевосита раҳбарликни амалга оширишда, касбий ижодкорликка асосланган ёндашувларни жорий этишда муҳим аҳамият касб этади.

Педагоглар ижодкорлик фаолиятини ташкил қилиш мустақил фикрлашни ривожлантириш, билим эгаллашдаги интилувчанлик, илмий дунёқарашни шакллантириш, ўзлаштирилган билимларни таълим ва амалий фаолиятда мустақил қўллай олишга ўргатишда намоён бўлади.

Тарбиячи-педагог шахсига хос бўлган ижодкорлик билим, кўникма ва малакалари тушунчалари амалиётга татбиқ этиш жараёнида аниқлаштирилади. Жумладан: ижодкорлик билимлари – янги ечим ишлаб чиқиш учун талаб этиладиган тушунча ва тасаввурларнинг билиш фаолияти маҳсули сифатида инсон онгидаги тизимланган инъикосини; ижодкорлик кўникмалари – шахснинг мақсадга йўналтирилган ижодий фаолиятда ақлий жараён босқичларини тез ва тўлақонли

амалга ошириш даражасини белгилайди. Ижодкорлик малакалари эса шахснинг ижодий фаолият репродуктив босқичларини қисман автоматлашган тарзда, ақлий жараён босқичларининг фақат дастлабкисини англаган ҳолда амалга ошира олиш даражасини англатади.

Бўлажак тарбиячиларда ижодкорлик билим, кўникма ва малакаларини ривожлантириш учун машғулотларда ва турли фаолиятларда, талабаларда касбни эгаллашга бўлган иштиёқларида, ижодий ўқув топшириқларини бажаришда, муаммоли вазиятлар ҳамда фазовий тасаввурни ривожлантиришга қаратилган машқлардан тизимли фойдаланишда талаб этилади. Бўлажак тарбиячиларда ижодкорлик фаолиятини ривожлантириш омиллари ҳар бир мавзу доирасини ўрганишда, ҳар бир болага индивидуал ёндашишда фаолиятининг асоси бўлиши лозим. Ижодкорлик фаолияти тарбиячи-педагог фаолиятининг барча қирраларини қамраб олади, уни самарали ташкил қилиш ҳамда таълим жараёнининг сифатини таъминлашга хизмат қилади. Шундай экан бугунги кун мутахасиси ижодкор-тарбиячи, инаватор-тарбиячи, замонавий тарбиячи бўлиши лозим.

Бўлажак тарбиячидан креатив педагогик технологияларни жорий этиш қуйидаги ёндашувлар асосида амалга оширилади:

1. Амалий билишга асосланган изланувчанлик ёндашуви. Бундай ёндашув доирасида тарбиячиларда касбий ижодкорлигини ташкил этиш ва ривожлантиришнинг креатив педагогик технологиялари янги амалий-татбиқий маълумотларни йиғиш билан кифояланмай балки уни амалиётга янгича холатда татбиқ эта олишга қаратилади.

2. Назарий билишга асосланган изланувчанлик ёндашуви. Ушбу ёндашувда асосий эътибор педагоглар касбий ижодкорлигига доир янги назарий билимларни ҳамда билим соҳаларини қидиришга қаратилади.

Бўлажак тарбиячиларни касбий фаолиятга тайёрлаш технологияси компонентлари ва кўрсаткичлари

Компонентлари	Кўрсаткичлари
Ижтимоий муносабатларга киришиш кўникма ва малакаларини таркиб топтиришга йўналтирилган когнитив компонент.	- педагогик амалиётга йўналганлик; - педагогик жараёнда қийинчилик ва муаммоларни ҳал этиш кўникмаси.
Амалиёт жараёнида муваффақиятга интилиш, ўз-ўзига ишонч, вазиятни таҳлил этиш ва мақбул қарорлар қабул қилишга йўналтирилган фаолиятга доир компонент.	- жамоада ишлай олиш кўникмаси; - меҳнат ва ижодий фаолиятга масъулиятли муносабат.

Гуруҳий фаолиятда иштирок этиш, коммуникатив кўникмаларни шакллантиришга, эмоционал-қадриятларга йўналтирилган компонент.	педагоглик сифатларининг шаклланганлиги – ташаббускорлик ва ташкилотчилик кўникмалари; - педагогик амалиёт вақтдан самарали фойдалана олиши.

Шундай қилиб, бўлажак тарбиячиларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг самарали иш шакли ва методлари назарийдан олинган билим амалиёт жараёнида маълум педагогик шарт-шароитларнинг яратилганлиги, тарбиячининг мутахассис сифатидаги маҳорати, бўлажак тарбиячиларда шакллантирилиши лозим бўлган меъёрлар ва даражаларнинг таҳлил қилинганлиги ва аниқ белгиланганлиги каби масалаларни ўз ичига қамраб олган бўлиб, мақсад – бўлажак тарбиячиларни касбий фаолиятга тайёрлаш бўйича белгиланган замонавий билим мажмуи билан бир қаторда, талабаларнинг олинган билимларини амалиёт давомида амал қилиш кераклигини қатъийлаштиришдан иборатдир.

Тадқиқотда педагогик олий таълим муасассаси талабаларининг касбий фаолиятга тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш учун, биринчи навбатда назарий билиш фаолиятлари характери бўйича таснифлаш зарур. Бу ўз навбатида ўқув ва касбий вазифаларни мақсадга мувофиқ равишда самарали ҳал этиш имконини беради. Аммо бу билимлар қандай–тўғрими ёки нотўғрими, асослими ёки илмий асосланмаганми, шунингдек мазкур билимлар негизида талабаларда қандай кўникмалар ҳосил бўлган, шуларга жавоб олмасдан туриб янги билим ва кўникмаларни тўғри шакллантириб бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш /Монография. – Т.: Фан, 2004.
2. Муслимов Н.А., Н.Каримова. Касб таълими ўқитувчиларининг амалий компетентлигини шакллантириш технологияси.–Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2012.
3. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006.
4. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00 ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1 Асимптотическая минимаксность линейно-ядерных оценок функции распределения
Абдушукуров, А. А, Муминов А.Л…….... 3

2 Trajectories of quadratic operators which map I_2 to itself
Juraev I.T…….. 10

3 Maple tizimida parabolik turdagi xususiy hosilali differensial tenglama uchun aralash masalani to'r usulida yechish
G.A.Nazarova, Z.O. Arziqulov……..... 19

4 Краевая задача для уравнения четвертого порядка с сингулярным коэффициентом в прямоугольнике
Уринов А.К, Азизов М.С…….. 26

КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00 ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ
CHEMICAL SCIENCES

5 Oxytropis *Rosea* o'simligining Efir Moylari Tarkibi
Sulaymonov Sh, Abdullayev Sh, Qoraboyeva B…… 38

6 Уйғунлаштирилган ярим даврий усулда натрий карбоксиметилцеллюлоза олиш
Сайпиев Т.С,Абдуллаев А.М…….. 42

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

03.00.00 БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES

7 Фарғона водийсида тарқалган дўлана (*grataegus* l.) ўсимлигининг микромицетлари ва касалликлари
Абдуразақов А.А, Юсуфжон Ғ. Ш……..... 50

8 Анатомическое строение ассимилирующих органов eruca sativa mill. (сем.brassicaceae) при интродукции в Сурхандарьинской области
Муқимов Б.Б……... 56

9 Энергетический потенциал гумуса сероземов
Юлдашев Г, Хайдаров. М……..…….... 62

10 Регуляция влияние 6''-n–кумароилпрунина на энергетической функции митохондрий с ионами кальция
Мамажанов М 67

11 Ғўзанинг *El-Salvador* ёввойи шаклида морфобиологик ва қимматли хўжалик белгиларини назорат қилувчи номзод генларни аниқлаш
Комилов Д.Ж., Бахрутдинова Н.З., Орипова Б.Б. , Кушанов Ф.Н..... 72

ТЕХНИКА ФАНЛАРИ
05.00.00 ТЕХНИИЧЕСКИЕ НАУКИ
TECHNICAL SCIENCES

12 Robotni harakatini amalga oshiruvchi arduino platformasi
Abdullayeva Sh.I..... 79

13 Ахборот хавфсизлигига бўладиган таҳдидлар ва уларнинг тахлили
Ғаниева Ш.Н, Азимжонов У.А., И.А. Қосимов……..…… 84

ТАРИХ ФАНЛАРИ
07.00.00 ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ
HISTORICAL SCIENCES

14 Давлат–тарихий-маданий анъаналар ташувчиси сифатида
Жўраев А.Т..... 89

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
09.00.00 ФИЛОСОФКИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES

15 Mafkurani tahlil etishning o’ziga xosligi
Mamatov O.V..... 95

16 Кечиримлилик: фалсафий-ирфоний таҳлил
Исақова З.Р..... 99

17 Инсон тақдирини англашдаги диний-фалсафий қарашлар ривожи
Мадримов Ж.Б..... 107

18 Сўфийлик таълимоти ривожида Азизиддин Насафий илмий меросининг ўрни
Маматов М.А..... 116

19 Жамиятимиз янги тараққиёт босқичитида хотин-қизларнинг инновацион (тадбиркорликка йўналтирилган) фаоллиги
Ғаниев Б.С..... 122

20 Huquqiy munosabatlarning ma'naviy jihatlari
Sultonov A.X 129

21 Таълим-тарбия – тараққиёт пойдевори: ижтимой-фалсафий талқин
Амирхўжаев Ш.Қ…….. 135

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

22 Ўзбек тилида антонимо-синономик муносабатлар(“Ҳибатул ҳақойиқ” асари лексикаси мисолида)
Сайидирахимова Н.С..... 142

23 Matn birliklari
Omonov A 147

24 Муаллиф ва таржимон ўртасидаги руҳий ўхшашликлар ва таржима сифати
Будикова М.Х……..…. 151

25 Ўзбек тилидан инглиз тилига бадиий таржиманинг лингвомаданий таҳлили (Абдулла Қаҳҳорнинг “Анор” ҳикояси таржимаси мисолида)
Досбаева Н.Т…… 157
26 Дейктик белгили сегмент қурилмалар прагматикаси
Умурзоқова М.Э…….... 163
27 “Минг бир қиёфа” романида замонавий аёл муаммоси
Азизов Н.Н……... 168
28 Николас Роу ижодида “Амир Темур” тасвири
Бобаханов М.Я, Турсунов А.Х……... 172
29 Ҳозирги ўзбек шеъриятида исёнкор руҳ ғоялари
Тажибаева Д …… 177
30 Янги тушунчаларни ифодалаш усуллари
Лазиза С.Х…… 182
31 Туркий халқлар адабиётида навоий анъаналари
Рузибоев Т…… 186
32 Лисоний шахс типларини ажратиш принциплари
Ниязова Д.Х..... 193
33 Источниковедческий анализ тазкире “Канз аль-куттаб” Ас-Саалиби
Сулаймонова Х.М…… 196
34 Chet til ta`limda madaniyatlararo tafovut masalalari
Abduqodirov U.N……. 201
35 Психо-аналитик тасвирнинг миллий колорит яратишдаги аҳамияти
Мардонова Л.У..... 207
36 Метонимия асосидаги иборалар
Қўчқарова О.А…… 211
37 Национально-культурная специфика английских и русских слов
Джуманазарова З…….. 215
38 Суҳайлий шеъриятининг жанр хусиятлари
Болтабоева О.Ю…….. 219
39 Ижтимоий тармоқ контентни тижоратлаштириш воситаси сифатида
Бекназаров К.Т..... 223

13.00.00 ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ / PEDAGOGICAL SCIENCES

40 Boshlang’ich sinf o’quvchilarida sog’lom turmush tarzini shakillantirishda sayyohlik va turizmni ahamiyti
Boltaboyev H.H..... 231
41 Jismoniy tarbiya tizimida sog’lom turmush tarzini shakllantirish usullari
Azizov N.N, Azizov M.M…… 236
42 Sports lesson - time requirement
Mikheeva A……..… 240

43 Талабаларнинг ижодий фаолиятларини шакллантириш омиллари
Умаров Қ.Б, Усманова Н.Қ..... 245
44 Qizlar jamoalari bilan ishlaydigan murabbiylar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari
Azizova R.I..... 249
45 Метод shadowing в обучении языкам
Жалолов Ш..... 252
46 Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda harakatli o'yinlarning ahamiyati
Ismoilov T, Ismoilov G'..... 257
47 How to develop listening skills for students
Nazarova Y.X..... 262
48 Мактабгача таълимда ахборот технологиясидан фойдаланишнинг назарий таҳлили
Ботирова З.А..... 266
49 Ўқув жараёнида "бумеранг" методидан фойдаланишда вужудга келадиган муаммолар ва уларни олдини олиш йўллари
Отамирзаев О.У, Зокирова Д.Н,..... 270
50 Формирование лексических навыков в английском языке в средних школах
Ботирова З.Х..... 274
51 Mavhum (abstrakt) san'atning miya faoliyati va tarbiya bilan o'zaro bog'liqligi
Isaqov A.A..... 279
52 Физика ўқитувчисининг таълимга Инновацион ёндашуви
Бекназарова З.Ф..... 282
53 Бўлажак ўқитувчиларнинг мустақил фикрлаш маданиятини ривожлантириш моделини такомиллаштириш
Қамбаров М.М..... 286
54 Характерида истерик белгилар бўлган болалар тоифалари ва уларни ўқитиш
Хусанов А.А..... 293
55 Boshlang'ich ta'limda innovatsiyaning ro'li
Махмудова Н.А..... 298
56 Malakali gandbolchilarning musobaqa faoliyatini o'rganish
Azizov S.V..... 302
57 Таълимда ижодий ўйинлар
Tajiboyeva G.M..... 306
58 Мактабгача таълимда ривожланиш марказларини ташкил этиш муаммоларига доир
Ўринова Ф.Ў..... 311
59 Тадбиркорлик фаолиятида умумахлоқий меъёрларнинг ўрни
Эргашева Ф.И..... 316
60 Особенности преподаваия математики гуманитариям
Устаджалилова Х, А..... 321
61 Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш технологиялари
Тилеуов Э.М..... 326

62 O'quvchi-yoshlarni faollik asosida ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari
Abdullayeva N, Raxmonova З…….…... 332
63 Оилада болаларнинг ижтимоий- ахлоқий сифатларини шакллантириш омиллари
Ортиқова З.Н..... 335
64 Эффективность модели управления развитием международного сотрудничества высшего образовательного учреждения
Юнусов Ш.Т……..….. 338
65 Alternative assessment as a means to develop study skills in esp classes in higher educational settings
Kuchkarova Yana……..…….. 343
66 Интеллектуальные компьютерные игры – как способ улучшения учебы детей
Нажмиддинова Х.Ё……..……. 348
67 Кимё тарихи маълумотларидан фойдаланиш талабалар билим олишининг сифат ва самарадорлик омили
Нишонов М, Холмирзаева З……... 351
68 Малака ошириш жараёнида информатика ўқитувчиларини ижодий тафаккурини ривожлантириш механизми
Ахмедова Ш..... 356
69 Кластер ёндашуви асосида минтақавий таълим тизимини бошқариш
Тоштемирова С.А..... 361
70 Олий таълим муассасаларида математикадан замонавий ўқув машғулотларини ташкил этиш – таълим жараёнидаги инновацион технологиялардан бири
Зулфихаров И.М., Ўринов Б.О..... 367
71 Бўлажак тарбиячиларда ижодкорлик сифатларини ривожлантириш
Қодирова З..... 371